

CHINGIZ AYTMATOV

**TANLANGAN ASARLAR
2 JILD**



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2012



CHINGIZ AYTMATOV

**SOHIL YOQALAB
CHOPAYOTGAN
OLAPAR**

Qissalar va hikoyalar



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2012

84(5Kup)6 - Ўзбек әрафа

УДК 821.512.133-3

КБК 84(5О')6

A-38

Tarjimon

Asil Rashidov

N1 31731
281

A-38 **Aytmatov, Chingiz.**

Tanlangan asarlar: Ikkinchchi jild: Qissalar va hikoyalari. Tarj. A. Rashidov – T.: «Sharq», 2012 – 528 b.

Dunyoga dong'i ketgan mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov asarlarining har biri shakli va ma'nnaviy olami betakrorligi, insonni sharaflashi bilan har qachon maftunkordir. Bu jilddan uning «Birinchi muallim», «Somon yo'lli», «Alvido Gulsari», «Sohil yoqalab chopayotgan olapar» kabi mumtoz qis-salarini qatorida ijodining ilk davrida bitilgan samimiy ruhdagi hikoyalari ham o'rinn oldi.

ISBN 978-9943-00-893-9

УДК 821.512.133-3

КБК 84(5О')6

ISBN 978-9943-00-893-9

Alisher Navoily

2013/49
A2593

nomidaq «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi, 2012.
O'zbekiston MK

BIRINCHI MUALLIM



Bu suratni hali tamom qilganim yo'q. Qanday chiqishini hozircha aytish qiyin. Har kuni ilk saharda turib, xomaki etudlarimni yana ikki-uch marta ko'zdan kechirarkanman, tong sukunatida u yoq-bu yoqqa asta-asta yurib o'yga cho'maman. Yo'q, hali ko'nglimdagini topganimcha yo'q, yana tag'in ko'p ishi bor. Bu surat hali ko'ngildagi bir tilak, qalbimni hayajonga solgan orzu-umid, xolos...

Hali tamomlanmagan asar to'g'risida oldindan jar solishni o'zim ham azaldan yoqtirmasdim. Bu baxillikdan emas. Beshikdag'i chaqaloqning kim bo'lib voyaga yetishini qayoqdan bilib bo'ladi deysiz? Lekin bu safar o'zinigz ko'rib turibsiz, shu odatimdan voz kechib, xom-xatala asarimni o'rtaga tashlab, undan gap ochmoq-chiman... Indamay yurishga hech ilojim yo'q. Rostini aytsam, bir o'zim yolg'izlik qilib qoldim bezovta qilib, es-hushimni o'zimga band etgan bu voqeа yuragimga sig'may, quchog'im ham yetmay turibdi.

Bo'lgan voqeani aynan tasvirlab, xalqni undan bahramand qilsam, degan umidim bor. Istar edimki, ko'pchilik ham fikr-mulohazalarini o'rtaga tashlasa... Bu asar xalq damidan chiqqan olovdek bo'lsa-yu, unga o'z qoningizdan qon, kuchingizdan kuch qo'shib bersangiz, shu vajdan bu voqeani sizlarga bayon etishni o'z burchim deb bilaman...

* * *

Ovulimiz Oq-Jar tog'ining etagida, katta soy shar-qirab oqib turgan keng tekislikda; undan pastroqda - Qora toqqacha yastangan adir bo'ylab cho'zilgan temiryo'lning ikki tomoni qozoq dalasi...

Ovulimiz ustidagi tepalikda ikki katta terak bo'lardi; men buni bolalik chog'imdanoq bilardim. Bu qo'shterak hali ham bor. Qachon qaramang, ovulga qaysi tomondan kirmang, hammadan burun tepalikda bir-biri bilan yonma-yon turgan o'sha baland teraklar ko'zga chalina-di.

Bilmadim, nima uchundir, bolaligimdanmi yoki kas-bim rassomlik bo'lganidanmi, haytovur, har gal stan-siyadan tushib, tepalikdan o'tib, ovulimizga qarab yo'l olganimda, qo'shteraklar joyida turganmikin, deb sabr-sizlik bilan beixtiyor shu tomonga qarayman. Teraklar naqadar katta bo'lsa ham, uzoqdan shuncha dargu-mon-u, lekin ularning surati ko'z oldimga kelib turaverardi. Tezroq ovulga yetib, ertaroq tepalikka chiqsam, qo'shterakka egilib salom bersam, ularning shovullashini to'yib-to'yib eshitsam, deb yuragim orziqardi.

Ko'cha-ko'yda nima ko'p – daraxt ko'p, lekin bu teraklar o'zi boshqa bir olam, qandaydir xosiyatli, tili borday. Kun-tun yaproqlari dirillab, chayqalgan uchlari bir-biri bilan o'pishib, o'zini ming ko'yga solib shovullaydi. Goh sohilga kelib urilgan erka to'lqinday eshitilar-eshitilmas guvullashib qo'yadi, goh jim o'ylanib qolib, sog'ina-sog'ina yuragi qon bo'lganday, allanima-larni eslab xo'rsinib, yulqingan shamol bulut haydab, yomg'ir haydab, butoqlarini egib yuborganda, teraklar bir-biridan madad olib: sindirib bo'psan, deganday bat-tar o'jarlik qilib, zarda bilan to'lg'anib qo'yishadi.

Ho' ancha keyin esim kirib ulg'ayganimda, men bu teraklarning siri astoridan voqif bo'ldim. To'rt tomoni ochiq baland tepada turishganidan, bular doimo shamol o'qiga to'g'ri kelib havoning har bir o'yiniga javob qay-tarib turishgan. Tinmay shovullab, ming ohangda ovoz chiqarib turishlari ham shundan.

Lekin mening bu idrok qilganlarim bolalik xayolim-ning ilk taassurotini sovuta olmadni. O'sha vaqt dagi hayajonlarim hali ham o'z haroratini yo'qotmadni, naza-rimda, bu teraklar hali ham qandaydir bir sirni yashir-gan jonli maxluqday.

Bolalik umrimning eng shirin orzulari shu teraklar soyasida qolib ketganday, esimga tushgan sari yana qayta boshdan eslagim keladi.

O'qishimiz tamom bo'ldi deguncha bizlar chumchuq qidirib shu yerga kelardik. Chuvullashimizga mast bo'lganday qo'shterakning tepe shoxlaridagi yaproqlari hilpirab, bizga soya tashlardik. O'sha kezlarda yoriq tovon, kaftlarimiz qovjiragan biz tentaklar teraklar-ga mushukday tirmashib chiqa boshlaganimizda chum-

chuqlar chirillab qolardi. Chirillashiga qararmidik! Ha-deb bir butoqdan ikkinchisiga o'taverib, chumchuqlar «pir» etib uchib ketgan baland butoqqa chiqqananimizda, ko'z oldimizda namoyon bo'lgan olam manzarasini ko'rib hayratdan damimiz ichimizga tushib ketardi, tutmoqchi bo'lgan chumchuq bolalarini ham esimizdan chiqarib yuborardik. Ko'zimizga kattakon bo'lib ko'rinish yur-gan kolxoz otxonasining tepadan xuddi chigirkaday ko'ringaniga, qishloqdan nari cho'zilib ketgan dala-ning kattaligiga, yana undan nariroqdagi qancha-qancha qadrdon yerlar, ovulimizdag'i ariqlardan boshqa tag'in qancha-qancha kumushday tovlanib oqayotgan suvlarga suqlanib qarab, bu dunyoning cheti shumi yo undan narida ham shunday osmon, shunday bulutlar, shunday yerlar bormikin, deb xayol surib ketardik.

O'shanda qulog'imizga shamol ovozi chalinsa, unga jo't bo'lib qimirlagan yaproqlar, ko'z ilg'amas uzoq-uzoqlarda ajoyib va g'aroyib narsalar ham bor deganday shivirlab, betlarimizni silab erkalatardi. Yuragim duk-duk urib qinidan chiqib ketadiganday, qo'shterakning shovullashiga astoydil quloq solardim. Ko'z oldimga ertakdagiday butun olam kelibdi-yu, lekin bir narsa esim-ga kelmabdi. Bu teraklarni kim o'tqazgan-u, qanday umid bilan o'stirganini o'ylamabman.

Shu qo'shterak qad ko'tarib turgan joyni ovuldagi-lar nima uchundir «Duyshenning maktabi» deyishardi. Birortasining moli yo'qolib: «Hoy falonchi, g'unajinimni ko'rdingmi?» – deb so'rasa, to'xtab unga: «Ho', yuqorida «Duyshenning maktabida» yilqilar yuribdi, o'sha yoqdan xabar olib ko'r», – deb javob berishardi. Kattalarga taqlid qilib biz ham: «Yuringlar, Duyshen-ning maktabiga ketdik, terakka chiqib chumchuq hay-daymiz», – der edik.

Bir vaqtlar o'sha tepada maktab bor ekan. Bizning za-monamizda bu maktabdan asar ham qolmaganu, lekin qo'shterakli tepaning nomi xalq og'zidan tushgan emas. Bolalik chog'imda bu maktab o'rnini xo'p qidirib ham ko'rganman. Keyinchalik: «Nimaga «Duyshenning maktabi» deyishadi, Duyshen o'zi kim?» – deb qarilardan surish-tirsam, bu savolimga ular hech qizig'i yo'q, anchayin gapdan qo'l siltab javob qilishardi: «Kim bo'lardi, shu

yurgan oqsoq-qo'y' Duyshen-da. O'sha hurriyatdan keyin ho' anavi tepada eski bir molxona bo'lardi. Duyshen komsomol bo'ldim, deb o'sha yerda maktab ochib, bola o'qitgan. Maktab qayoqda deysan, anchayin bir gapda. U vaqtlar o'zi qiziq zamon emasmidi, Xudo ko'rsatmasin, uzangiga oyog'i yetib, otning yolidan tutamlab olganlarning hammasi o'ziga bek, o'ziga xon bo'lib qolgandi. Har kim o'z bilganini qilardi. Duyshen ham o'shanda miyasiga kelganini qildi-da. Hozir u maktabdan bir parcha guvala ham qolmagan, ilgari nomi yo'q tepe edi. Endi «Duyshenning maktabi» degan nom oldi...»

Duyshen degan kishini uncha yaxshi bilmas edim. Baland bo'yli, burgut qovoq, salobatli odamga o'xshardi. Uning hovlisi ariqning narigi tomonida, ikkinchi brigada ko'chasida edi. Men ovulda turgan kezlarimda Duyshen kolxoz mirobi bo'lib ishlardi, egarning qoshiga katta ketmonni chirmab olib, shatakdan chiqib qolgan, o'ziga o'xshash suyaklari ko'rinish qolgan otqi minib, goh-gohoda o'tib qolardi. Keyin qariganda pochtachilikka o'tib ketdi, deb eshitgandim. Lekin gap unda emas. Komsomol deganda men o'sha vaqtarda ishga ham, gapga ham epchil, yalqov-poraxo'rlarni gazetaga yozib turuvchi ovul yigitlarining eng miqtisini tushunardim.

Rostini aytsam, soqoliga oq kirgan, qaysar otiga kuchi yetmagan haligi rasmana odamning bir zamonlar qanday qilib komsomol bo'lganini, xat-savodi bo'lmasa ham, bolalarni qanday o'qitib, qanaqa o'qituvchi bo'lganini o'zimcha hech tasavvur qilolmadim.

O'sha vaqtarda bu gaplar ovulda aytilgan son-sanoqsiz ertaklardan bo'lsa kerak, deb qo'ya qolgandim. Keyin bilsam, «Duyshenning maktabi» degan gapning o'z tarixi bor ekan, buni tasodifan yaqinda bilib qoldim.

O'tgan kuzda kolxozdan menga bir telegramma keldi.

Ikki yildan buyon kolxzimiz o'z kuchi bilan yangi maktab solayotgan ekan. Maktab binosi qurilib bo'lgandan keyin ovuldagilar meni maktabni ochish marosimiga chaqirishipti. Bu quvonchli kunlarda elim bilan birga bo'lay degan niyatda darhol yo'lga otlandim. Ovul manzaralarini suratga olish niyatida ovulga to'y maro-

¹ Oqsoq-qo'y - urug'ning nomi.

simidan uch-to'rt kun ilgari jo'nab ketdim. Shahardan chaqirilganlardan akademik Sulaymonovani ham kutib o'tirishgan ekan. Bu ayol bu yerda bir kun-yarim kun turib, keyin Moskvaga jo'nab ketadi, deyishdi. Akademik Sulaymonovaning kelishini eshitib juda suyunib ketdim. Xalqqa tanilgan bu olimaning ovulimizdan ekanligi, qiz vaqtida shaharga ketib, o'qib, olim bo'lgani ovulda qulog'imga chalinib yurardi. O'zi bilan shahardaligimda tanishib olgan edim.

Men ko'rganda Oltinoy Sulaymonova sochiga oq kirib, elliklarga borib qolgan, to'lishgangina ayol edi. Mashhur hamqishlog'imiz universitetda kafedra mudiri bo'lib ishlardi, falsafadan leksiya o'qib turar, xizmat qiladigan yeri akademiya bo'lib, tez-tez chet ellarga borib kelib turardi. Opaning bema'lol o'tirib, men bilan to'yib suhbatlashishga vaqtি bo'lmay yurardi. lekin har gal goh majlisda, goh to'satdan ko'chada uchrashib qolganimizda ovuldagilarning omon-esonligini so'rар, asarlarim to'g'risida qisqacha bo'lsa ham biron fikr aytmay qo'ymasdi. Men bu kishining kamtarligiga, odamoxunligiga qoyil qolib, bir kuni o'ziga dangal aytdim:

— Opa, ovulga borib, el-yurt bilan ko'rishib kelsangiz bo'lardi. Ovuldagilarning hammasi nomingizni sirtdan tilga olib, faxrlanib yurishadi, lekin ko'pchilik sizni tanimaydi. Atoqli olima qizimiz ovulimizdan yotsiraydi, bizlarni tanigisi kelmaydi, deydiganlar ham yo'q emas...

— Gapingiz to'g'ri, ukam, — deb Oltinoy Sulaymonova xo'rsinib qo'ydi, — borishga o'zim ham ko'pdan intizorman. Bormaganimga ham talay vaqt bo'ldi. Ovulda tug'ishgan qarindoshlarim yo'q-ku, lekin elingdan yaqin tug'ishganing bo'larkanmi! Albatta boraman, fursat topdim, boraman... O'zim ham yurtimni xo'p sog'inganman...

Akademik Sulaymonova o'sha kuni kechikibroq keldi. Uning mashinasini kelib to'xtaganda maktabning tantanali majlisini endi ochmoqchi bo'lib turishgan edi. Majlisdagilarning hammasi duv etib chiqib uni kutib olishdi, tanigan-tanimagan hamma — yosh-u qari u bilan qo'l berib ko'rishgisi kelardi. Oltinoy Sulaymonova bunchaligini kutmagan bo'lsa kerak. Ko'ngli tog'day

ko'tarilib, suyunib ketganidan nima qilishini bilmay, ikki bukilib odamlarga ta'zim qila-qila borib prezidiumdan o'rin olib o'tirdi.

Qancha-qancha tantanali majlislarda bo'lib izzatikrom ko'rgan Oltinoy Sulaymonova, bu safar oddiygina qishloq maktabida hamqishloqlarining ochiq chehra bilan kutib olishganini ko'rib, hayajoni zo'r kelganidan ko'z yoshlarini tutolmay qoldi.

Majlisning oxirida pionerlar uning bo'yniga qizil galstuk taqib, qo'liga gulasta tutqazishdi. Yangi maktabning faxriy kitobiga uning nomini birinchi qilib yozib qo'yishdi. O'quvchilarining konserti va o'yinkulgilaridan keyin, kechqurun bir to'da muallimlar, ovul aktivlari bilan birga hammamiz maktab direktorining uyida mehmon bo'ldik.

Mehmonda ham Oltinoy Sulaymonovaning kelganiga suyunishib, uni gilam bilan yasatilgan to'rga o'tqazishib, qo'llaridan kelgancha izzat-hurmatini bajo keltirishdi. Katta dasturxon atrofida o'tirganlar duv-duv gap bilan ovora. Qadahlar ko'tarilib, tostlar aytilayotgan edi, bir vaqt qo'liga bir dasta gazeta-jurnal ushlagan bir yigitcha eshikdan kirib keldi-da, mezbonga o'ntacha telegramma cho'zib, og'ay, qo'l qo'yib beringiz, deb iltimos qildi. Ilgarigi o'quvchilardan kelgan tabrik telegrammalar qo'ldan qo'lga o'tib, kimdir gap orasida:

— Hoy, buni Duyshen qariya olib keldimi? — deb so'rab qoldi.

— Ha, — dedi yigit. — Majlisdagilarga o'qib eshitirishsin, deb otini xo'p yeldirib kelibdi-yu, kechikibroq qolgani uchun oqsoqolning ko'ngli o'rniga tushmadi.

— Nima qilib turibdi, ayt, tushsin otdan, uyga kirsin, — dedi mezbon.

Yigit chiqib ketganda yonimda o'tirgan Oltinoy Sulaymonova bir seskanib tushdi, rangi quv o'chib nimadir eslaganday mendan so'radi:

— U qaysi Duyshen, kimni aytishyapti?

— Kolxozung pochtachisi, opa, — dedim men. — Duyshen oqsoqolni tanirmidingiz?

Ha, deganday bosh irg'ab Oltinoy Sulaymonova bir narsa demoqchi bo'lib, o'rnidan turishga harakat qilgan edi, deraza yonidan bir otliq dupurlab o'tib ketdi, uyga kirib kelgan yigit:

— Tushingiz desam, u kishi unamadi, og'ay, — dedi, — hali xat tarqatishim kerak, deb ketib qoldi.

— Mayli, ketaversin, u cholning ham o'ziga yarasha ulflatlari bor, — dedi kimdir birov xomush tortib.

— O, Duyshen deganni bilmas ekansizlar, u qonun-qoidani juda o'rniga keltiradi, xizmatini bajarmasdan hech qayoqqa burilmaydi, — dedi yana bittasi.

— To'g'ri aytadi, juda ajoyib odam o'zi. Urush tamom ho'lgandan keyin Ukrainada ekan, gospitaldan chiqib, o'sha yerda turib qolibdi, kelganiga besh yilcha bo'lgan. Unib-o'sgan ovulimda qolsin suyagim dedim, deydi. Bu dunyodan, o'zi sho'rlik, toq o'tib ketyapti...

— Bir kirib o'tsa bo'lardi... Ha, mayli, — deb mezon tag'in qo'lini siltab qo'ya qoldi.

Bir mahal to'rda o'tirgan ovul oqsoqollaridan biri qadah ko'tarib so'z qotdi:

— O'rtoqlar, esinglarda bo'lsa kerak, bir vaqtlar «a» harfini ham bilmagan «Duyshenning maktabida» bizlar ham o'qigan edik... — U shu gapni aytdi-yu, ham ko'ngli buzilib, ham kulgisi qistab, ko'zini yumib, boshini chayqab qo'ydi.

— Voy, tavba!

— Rost, rost! — deb kulib qo'yishdi boshqalar.

— Nimasini aytasani! Ozmuncha nag'ma ko'rsatganmi Duyshen deganining? Biz bo'lsak uni rasmana o'qituvchi deb yuribmiz-a!

Qaq-qah kulgi bosilishi bilan haligi qadah ko'targan odam yana gapini davom ettirdi:

— Mana endi, oldimiz dongi chiqqan akademik bo'lib, ketimiz oliy ma'lumotli, o'rta bilimli bo'lib oldik. Ovulimizda bugun yangi o'rta muktab ochdik, boshqa tomonlarini aytmaganda ham, zamonamizning qanchalik o'zgarganligi shundan ko'rinishib turibdi. Qani, kelinglar, og'a-inilar, ovulimizning o'g'il-qizlari bundan buyon ham o'qimishli bo'lib, o'z zamonasining peshqadam kishilari qatoridan joy olishsin!

Bu gap hammaga ma'qul tushib, shov-shuv ko'tarildi. Faqat Oltinoy Sulaymonova juda xijolat tortganday, labini tishlab qizarib ketdi. U, ryumkani labiga tegizidda, yana qaytib o'rniga qo'ydi. Gap, kulgi bilan alahsib qolgan odamlar uning bu holatini sezganlari ham yo'q.

— Opa deyman, bir nimadan xijolat bo'lib o'tirib-siz-a? — dedim men.

— O'zim, shunchaki, inim, — dedi-da, Oltinoy Sulaymonova ikki-uch marta soatiga qarab qo'ydi, boshqa indamadi.

Keyin mehmonlar eshikka sayri havo qilishga chiqqanda qarasam, Oltinoy Sulaymonova bir chekkada yolg'iz o'zi tepalikda chayqalgan qo'shterakka tikilib, xayol surib turgan ekan, sekin qadam bosib yoniga bordim.

Botishga taraddudlanib kuzgi dalaning chetiga chiqib olgan qip-qizil kun nurlari tepalikda turgan teraklarning cho'qqilariga bir tegib, bir tegmay mavjlanib turgan ekan.

— Sho'rlik teraklar bargini to'kyapti, bahorda bu teraklarni gullaganda ko'rsangiz! — dedim.

— O'zim ham shuni o'ylab turgan edim, — deb Oltinoy Sulaymonova boshini silkib xo'rsinib qo'ydi. — Har bir jonivorning bahori ham, kuzi ham bor.

Uning ajin bosgan so'lg'in yuziga g'amgin-o'ychan ko'lanka tushib, o'tkir qora ko'zлari o'ksiganday bo'ldi, teraklarga dard-alam bilan tikilib qarab qoldi. Shu paytda ko'pni ko'rgan bu o'qimishli ayol, qani endi bir zamonlar o'tib ketgan o'n sakkiz yoshim qaytib kelsaydi, deb ko'nglidan o'tkazgan qizil ro'mol, qirmizi yuzini eslagan qadimgi qirg'iz ayollariga o'xshab ketdi.

Teraklarga tikilib u yana bir narsa aytgisi keldi-yu, lekin niyatidan qaytdi shekilli, indamay turdi-da, birdan qo'lida ushlab turgan ko'zoynagini taqib oldi.

— Moskva poyezdi bu yerdan soat o'n birda o'tadi shekilli? — deb so'radi.

— Ha, opa, o'n birda o'tadi.

— Unday bo'lsa, hozir yo'lga chiqishim kerak ekan.

— Nega birdan ketadigan bo'lib qoldingiz? Bir-ikki kun turaman deb va'da bergen edingiz-ku? Hali javob ham berishmas.

— Zarur ishlarim hor. Hozir ketmasam bo'lmaydi.

Ovuldoshlari hammasi yopirilib, ketmaysiz, xafa bo'lamic, deyishlariga qaramay, tayyor ovqatga ham turmay, Oltinoy Sulaymonova uzr so'radi-da, oxiri yo'lga chiqadigan bo'ldi.

Kun hotib, qosh qorayganda, ovuldoshlari o'pkalagan-

day bo'lib uni mashinaga o'tqazib jo'natib yuborishdi. Men Oltinoy Sulaymonovani stansiyaga kuzatib bordim.

Oltinoy Sulaymonova nima vajdan to'satdan yo'lga otlanib qoldiykin? Shunday ulug' ayyom kunida ovuldoshlarini ham xafa qilib qo'ydi. Yaxshi ish bo'lmasdi. Ikki-uch yo'la sababini so'ray deb og'iz juftladim-u, lekin qattiq tegarmikin deb qo'rqedim. Hozirgi holatida savolimga biron javob bermasligiga ko'zim yetib turgandi. Yo'l bo'yni Oltinoy Sulaymonova bir og'iz ham gapir-madi, qattiq o'yga botib, yuzidan g'amginlik arimadi.

Stansiyaga kelib, poyezdga tushar oldida yurak yutib undan so'radim:

— Opa, xafa ko'rinasiz, ko'nglingizga qattiq tegadigan biron gap o'tdimi?

— Yo'g'-e! Ko'nglingizga unday gap kelmasin! Kim-dan xafa bo'lardim? O'zimdan xafa bo'lsam bo'ladi, g'aflatda qolgan ekanman... Qaytanga mendan har qancha domangir bo'lsanglar ham kamlik qiladi.

Shu bilan Oltinoy Sulaymonova Moskvaga jo'nab ketdi. Men shaharga qaytib kelgach, dastlabki kunlarning birida o'ylamagan-kutmagan yerda Oltinoy Sulaymonovadan xat oldim. Moskvada mo'ljalidan ziyodroq turib qolishidan darak berib, xatida bunday deb yoz-gandi:

«Qadrdon inim, shoshilinch zarur ishlarim bo'lsa ham hammasini yig'ishtirib qo'yib, shu xatni yozmaslikka ilojim bo'lmasdi. Agar shu xatda yozganlarim sizni qiziqtirsa, shu hikoyatimni xaloyiqqa yetkazish ustida o'ylab-mulohaza qilib ko'rsangiz deb iltimos qilaman. Bu faqat bizning ovuldoshlarimizga emas, hammaga, ayniqsa yoshlarga ibrat bo'lar, deb o'layman. Men ko'p xayol ko'chalariga kirib chiqdim, oxiri shu fikrga keldim. Bu — mening shuncha zamonalardan buyon yuragimda asrab kelgan sirim. Qancha ko'p odam bu sirdan voqif bo'lsa, o'zimni shunchalik baxtiyor deb bilaman, vijdon azobidan shuncha ko'proq xalos bo'laman. Meni uyatga qo'yarmikanman deb xijolat ham bo'lman. Hech narsani yashirmay, ochiq yozing...»

Bir necha kun shu xat ta'siri ostida yurib, oxiri qisan Oltinoy Sulaymonova tilidan hikoya qilishga qaror berdim.

• • •

... Bu voqeа 1924-yili yuz bergandi. Ha, xuddi o'sha yili...

Hozirgi kolxozimiz yerlari u vaqtarda o'troq kambag'al-jataqchilar ovuli edi. U vaqtarda o'n to'rt yoshli yetim qiz bola edim, amakimning qo'lida turardim.

O'sha yili kuzda chorvadorlar toqqa qishlovga ko'chib ketgandan keyin ovulimizda askar shineli kiygan bir yigit paydo bo'lib qoldi. Shineli esimda qolgаниning vaji shuki, u negadir qora movutdan tikelgan edi. El-yurtdan ovloqdagi tog' pinjiga kirib olgan kichkina qirg'iz ovulida bu katta bir voqeа bo'ldi.

Oldin uni, o'zi komandir ekan, ovulga ham katta bo'lib kelibdi, deyishdi, keyin bilishsa, komandir qayqoda deysiz, ocharchilik vaqtida ovuldan temiryo'lga ketib dom-daraksiz bo'lib ketgan Tashtanbekning o'g'li Duyshen degan yigit ekan, uni ovulga o'qituvchi qilib yuborishganmish, mакtab ochib, bola o'qitar ekan, deyishdi.

«Maktab», «o'qish» degan so'zlar u zamonlarda endi eshitilib kelayotgan gaplar edi, ularning ma'nosiga tushunadiganlar ham kamdan kam edi.

Bu gap rostmikin, endi nima bo'larkin, deb turishganida bir mahal, xaloyiq ovul o'rtaсидаги тегага yig'ilsin, degan xabar kelib qoldi.

Amakim: «Voy, tavba, bu tag'in qanaqa majlis bo'lidiykin? Bo'lar-bo'lmasga odamlarni ishdan qoldirishdan boshqani bilishmaydi», - deb javrashini qo'ymaydiyu, keyin axiyri eldan kam yerim bor ekanmi, deganday, qirchang'i bo'lsa hamki, otiga minib, yig'inga jo'nab ketdi, men ham uning ketidan qo'shni bolalarga ergashib yugurib bordim.

Biz entika-entika har gal yig'ilish bo'ladiган te-palikka yetib borganimizda, u yerda bir to'da otliq va yayov odamlar o'rtaсида haligi qora shinel kiygan rangpar yigitcha nutq so'zlab turgan ekan. Uning gaplarini yaxshiroq eshitish uchun yaqinroq surilib borgan edik, po'stini yirtiq bir chol uyqudan turgan odamday, to'satdan tutilib-tutilib uning gapini bo'ldi:

- Ey, bolam, ilgari bola o'qitishni mullalarga chiqargan edi, sening otangni biz bilamiz. O'zi ham

bizga o'xshagan oyoqyalang edi. Qani ayt-chi, yigitcha, sen o'zing qayoqdan mulla bo'lib qolding? – dedi.

Duyshen shu ondayoq javob herib:

– Otaxon, men mulla emasman, men komsomolman. Endi mullalar bola o'qitmadi, muallimlar o'qitadi. Men askarlikda yurib xat-savodli bo'lib olganman, ilgari ham oz-moz o'qigandim. Men mana shunaqa mullaman, bildingizmi? – dedi.

– Ha, mundog' degin...

– Baraka top! – deb uning so'zini ma'qullahdi.

– Ana shunaqa, komsomol meni muallimlikka tayinlab, bolalarni o'qitan deb yubordi. Maktab ochish uchun biron joy kerak bo'ladi. Sizlar yordam bersangizlar anuv tepadagi eski otxonani tuzatib, maktab ochsak degan o'yim bor. Qani, nima maslahat berasizlar?

Mushukday shumshayib bir ko'zini yumib egarning qoshini bir quchoqlab o'tirgan Satimqul tajang tirs etib tupurib qo'yib gap qotdi:

– E, qo'ysang-chi, o'qishingdan bizga nima foyda bor?

Duyshen nima deyishini bilmay ko'zları lipillab ketdi.

– Rost, to'g'ri aytyapti, – deb boshqalar uning gapini ma'qullahdi. – Biz ketmon chopib kun ko'rib yurgan dehqonmiz, endi bolalarimiz o'qib amaldor bo'lisharmidi? Aylanay, ko'p boshimizni qotirma!

Hamma jim qoldi. Duyshenning rangi o'chib, ovozi qaltiradi:

– Sizlar nima, bolalaringizning o'qishiga qarshimisizlar? – deb o'rtaga savol tashladi.

– Qarshi bo'lsak nima, zo'rlik qilarmiding? Unaqa zamonlar o'tib ketgan. Hozir erkimiz qo'limizda, ozodlikka chiqqanmiz! – dedi kimdir birov.

Duyshenning rangi bo'zday oqarib ketdi. Shineling ilgaklarini uzib yuborayozganday, cho'ntagidan to'rt buklangan qog'ozni olib shoshilib ochdi-da, hammaga ko'rsatib turib zarda bilan gap boshladi:

– Sizlar hali bolalarni o'qitish kerak, deb yozilgan bu qog'ozga qarshimisizlar, bunga Sovet hukumatining muhri bosilgan-a! Sizlarga yer-suv bergen, sizlarni ozodlikka chiqargan kim o'zi, bilasizlarmi?! Qani, Sovet hukumatining qonuniga kim qarshi? Qani aytsin, kim?!

«Qani kim» deb azbaroyi baqirib aytgan gapi suknatda yotgan kuz havosini o'qday yorib o'tib, aks sadosi qoyatoshlarga borib urilganday bo'ldi. Hamma yoq suv quyganday jim, hamma boshini egib turardi.

— Bizlar o'zimiz kimmiz kambag'allarmiz, — deb endi Duyshen muloyimlik bilan, gap boshladi. — Bizni umr bo'yi xo'rlab, oyoqosti qilib kelishdi, johillikda o'tdi umrimiz. Sovet hukumati endi bizlarga ko'zi ochilsin, xatsavodi chiqsin deyapti. Buning uchun bolalarni o'qitishimiz kerak...

Duyshen javob kutganday jim turgan edi, haligi, sen qayoqdan mulla bo'lib qolding, deb so'ragan yirtiq po'stinlik odam insofga kelganday:

— Ha, mayli, juda bola o'qitging kelib qolgan bo'lса, o'qitaver, bizga nima... — deb qo'ydi.

— Lekin sizlardan iltimosim bor, — dedi Duyshen, — menga yordam beringlar. Anuv tepadagi boydan qolgan otxonani tuzatsak deyman, ko'prik solish kerak, maktabga o'tin kerak bo'ladi...

— Shoshmay tur, hoy yigit, — deb Satimqul tajang yana tirs etib bir tupurdi-da, biron narsani nishonga olganday, ko'zlarini qisib turib gap boshladi:

— Sen, yigitcha deyman, maktab ochaman, deb buncha katta ketmasang? Ustingga kiyishga choponing yo'q, ostingda minishga oting, bir parcha bo'lса ham haydab qo'yan yering, qo'rangga bog'lab qo'yan bironta moling yo'q-ku! Sen, nima, ot o'g'irlab kun ko'rmoqchimisan?..

— Bir kunim o'tar. Hukumat menga moyana to'laydi.

— Boyadan beri qayoqda eding, shundoq demaysanmi? — Satimqul gapni o'rinalatib, o'zidan o'zi rozi bo'lganday, iljayib egar ustida bir kekkayib qo'ydi. — Gap bu yoqda ekan, bildik endi. Undog' bo'lса, yigitcha, bilganiningni qilib, hukumat moyanasi bilan bolałarni o'qitaver, hukumatning xazinasida nima ko'p, pul ko'p. Bizni tinch qo'y, o'z tashvishimiz ham boshimizdan oshib yotibdi...

Satimqul shu gaplarni aytdi-yu, otning boshini burib jo'nab qoldi. Uning orqasidan boshqalar ham tarqab ketishdi. Duyshen qog'ozni qo'ligiga ushlagancha nomidagi qilishini bilmay anchagacha turib qoldi.

201	313	9	nomidagi
A2793			O'zbekiston MK

Men Duyshenga achinib ko'zimni uzmay qarab qolgan ekanman, yonimda o'tib borayotgan amakim jerkib:

– Ha, alvasti, sen nima qilib yuribsan bu yerda, tur, uyg'a bor! – degan edi, bolalarning orqasidan yugurib chopib ketdim. – Buni qara, bu tirmizaklar ham yig'ilishga suquladigan odat chiqarishibdi-ya!

Ertasiga bir gala qizlar suvg'a ketayotganimizda yo'l-da Duyshenni ko'rdik. U ketmon, belkurak, bolta ko'tarib suvdan kechib o'tib ketdi. Shu-shu har kuni azonda qora shinel kiygan Duyshen yolg'iz o'zi tepalikka, egasi tashlab ketgan otxonaga chiqib, kechqurun allamahalda ovulga qaytib tushardi. Goho orqasiga kattakon bir bog' yantoq yoki poxol ortib chiqib ketayotganini ko'rardik. Uni uzoqdan ko'rganlar uzangiga oyoq tirab, qo'llarini soyabon qilib:

– Hoy, anavi tepalikda poxol orqalab ketayotgan Duyshen muallim emasmil! – deb qiziqsinib gaplashib ketishardi.

– Ha, o'sha!

– Voy, sho'ring qursin, muallimlik ham oson emas ekan-ku...

– Bo'lmasa-chi! Orqalagan yukini qara, boyning qaroli ham buncha ko'tarmaydi.

– Gapga kelganda eh-ha, juda chechan ko'rindi!

– Qo'lida muhr bosilgan qog'oz'i bor-da: hamma gap shunda...

Bir kun adirdan tezak terib kelayotganimizda, muallim nima qilib o'tirgan ekan deb maktab tomonga burildik. Bu saroy ilgari bir boyning otxonasi edi. Qish-qirovda qulunlagan biyalarni toychoqlari bilan shu yerda bo-qishardi. Sovet hokimiyyati o'rnatilgandan keyin boy qayoqqadir qochib ketdi-yu, shu bilan otxonasi bo'sh qoldi. Bu yerga hech kim oyoq bosmay qo'yganidan atrofini o't, tikanak bosib ketgan edi. Endi qarasak, tikanaklar ildizi bilan sug'urib olinib bir joyga uyib qo'yilibdi, otxona hovlisi supurib-sidirilibdi. Yomg'ir yuvib, qulab tushgan devorlari loy bilan shuvalibdi, eshikning shalog'i chiqib osilib qolgan halqasi bir amallab eplashtirib yana qoqib qo'yilibdi.

Biroz dam olmoqchi bo'lib, bo'yimiz teng tezak qoplarini yerga qo'yib turgandik, usti boshiga loy chaplan-

gan, yenglari shimarilgan Duyshen uydan chiqib keldida, bizni ko'rib, yuzidagi terlarini artib:

— Ha, yaxshi qizlar, kelinglar. Tezak terib yuribsizlarmi? — dedi.

Biz uyalganimizdan churq etmay, bir-birimizga qarab, qop tagida o'tirgan yerimizdan, ha, deganday bosh silkib qo'yidik. Duyshen uyalganimizni sezdi-da, bizga dalda berganday jilmayib gap qotdi:

— Qoplarингиз о'zingizdan ham katta-ya! Kelganninglar yaxshi bo'pti qizlar, bu maktabni sizlarga atab ochyapman. Maktabinglar ham taxt bo'lib qoldi. Hozirgina bir burchakka pechkaday qilib o'choq ham qurib qo'ydim, ana, ko'rdinglarmi, tomdan mo'risi ham chiqib turibdi! Endi qishga o'tin g'amlasak bo'lgani, o'tindan g'am yemasak ham bo'ladi, dalada nima ko'p — quvray ko'p. Yerga qalin poxol to'shaymiz-da, ana undan keyin o'qishimizni boshlab yuboramiz. Qalay, o'qishga hava-singlar bormi, maktabga qatnab turasizlarmi?

Dugonalarim orasida yoshi kattasi men edim, shu sababdan javob berishga botinib:

— Kennoyim yuborsa, qatnab turaman, — dedim.

— Nega yubormas ekan, uyga qamab, ustingdan qulf solib qo'yarmidi? Isming nima?

— Oltinoy, — dedim, etagimning yirtig'idan ko'rinish turgan tizzamni kaftim bilan bekitib.

— Oltinoy — isming ham o'zingga mos, chiroyli ekan. — U erkalatganday jilmayib qo'ygan edi, dilim ham iliganday bo'ldi. — Oltinoy, esli qiz ko'rinasan, boshqa bolalarni ham o'zingga ergashtirib, maktabda o'qiymiz, deb olib kelgin, xo'pmi?

— Xo'p, amaki.

— Meni og'ay denglar. Maktabni ko'rasizlarmi? Tor-tinmasdan kirib ko'raveringlar.

— Yo'q, biz uyga ketamiz, — deb uyalinqirab javob berdik.

— Mayli bo'lmasa, uy-uyinglarga boringlar, birato'la o'qishga kelganda ko'rarsizlar. Men qorong'i tushguncha borib yana biroz yantoq o'rib kela qolay.

Duyshen o'roq, arqonlarni olib dalaga qarab ketdi. U ketgandan keyin biz ham qoplarimizni orqalab ovul tomon jo'nab qoldik. To'satdan boshimga bir fikr keldi:

- Hoy, qizlar, - deb dugonalarimni to'xtatdim. - Kelinglar, tezagimizni maktabga to'kib ketamiz, har galay qishga yarab qolar.
- Uyga quruq boramizmi? Aqlingni yeganmisan!
- Borib yana terib kelamiz-da.
- Be, kech bo'lib qoldi, uyda toza so'kish eshitamiz. Shunday deyishdi-da, o'rtoqlarim menga qaramasdan, qoplarni ko'tarishib jo'nab qolishdi.

Men o'shanda nima vajdan shunday qilganimga hali-hali tuzukkina aqlim yetmay yuradi. Qizlar gapimga kirmaganlaridan izza bo'lib orim keldimi yoki go'daklik chog'imdan men sho'rlik biron shirin so'z eshitmay bir umr dakki yeb, ko'z yoshim ham qurib qolganidanmi, ko'rmagan, bilmagan bir odam yuragimni ilitib: «Eshushli qiz ekansan», deb erkalatib aytgan ikki og'iz shirin so'zi meni eritib yubordimi...

Qismatim, toleyim, bayotimning butun achchiq-chuchuklari, azob-uqubatlari mana shu bir qop tezakdan boshlanganini yaxshi bilaman, bunga imonim komil. Bunday deyishimning boisi shuki, o'sha kuni bu qilmissimning oxiri nima bo'ladi, deb o'ylab-netib o'tirmay, umrimda birinchi marta yurak yutib ko'nglim tortgan ishga tavakkal qadam qo'ydim.

O'rtoqlarim meni tashlab ketishgandan keyin yugurib Duyshenning maktabiga qaytib bordim, qopdag'i tezakni eshik tagiga to'kdum-da, tezak terish uchun g'izillab yana adirga tushib ketdim.

Kattakon bir ishni qoyil qilib qo'yganday, yuragim dukullab, sevinchim ichimga sig'may ketdi. Kuch-g'ayratim jo'sh urib, to'g'ri kelgan tomonga chopqillab ketaveribman. Baxtiyorligimdan quyosh ham xabardor-u, u ham quvonchimga sherikday, qushday parvoz qilib ketishimdan uning ko'ngli ochilganini o'zim ham bilar-dim. Nega deganda, hozirgina savob ish qilgan edim-da!

Quyosh tepalar ustiga yaqin kelib qolgan edi-yu, lekin, nazarimda, nigohimga to'yib olgisi kelganday, haliveri botgisi yo'q edi. Quyosh yo'limga poyondoz solib, oyoqlarim ostidagi kuz tuprog'ini to'q qizil, pushti va och qizil nur bilan bezab turardi. Gir atrofimda kapalakchalar lip-lip etib olovday yonadi. Ming yamoq kamzulimning kumush rang tugmalarida quyosh olovday yonib turadi.

O'zim g'izillab chopib ketyapman-u, yer, osmon, shamolga qarab: meni ko'rib qo'yinglar! Ko'rdingizmi, g'ururdan boshim osmonda! Men endi maktabda o'qiyman, boshqa bolalarni ham o'zim bilan o'qishga olib boraman... – deb shodligim ichimga sig'may ketyapti.

Shu ko'y i o'zimda yo'q, o'ynoqlab yugurib borayotgan edim, bir vaqt tezak terish esimga tushib qoldi. Qiziq, yoz bo'y i bu yerdan poda arimas, har qadamda tezak uchrardi. Endi, aksiga olib, tezakdan nom-nishon ham ko'rinnmasa-ya, xuddi yer yutganday! Yo o'zim qidirmadimmi? Tezak axtarib yuraveribman. U zormanda qolqur ham onda-sonda bir ko'riniq qoladi deng. Qorong'i tushguncha qopim to'lmay qolsa-ya, deb yuragimni vahima bosib, shoshilganimdan chiy butalari orasida adashib qolibman. O'zim qo'rqib ketyapman. Bir amallab qopimni yarimlaganimda kun botib, adirlarga bir zumda, qorong'i tushdi-qo'ydi.

Hech mahal yolg'iz o'zim bunday bemahalda yurmag'an edim. Sukunatga cho'mgan tepalarni zimiston tun burkab oldi. Bu yerda meni bir narsa ushlab qoladigan-day, qopni darrov yelkamga tashlab, ovulga qarab chopdim. Azbaroyi vahima bosganidan, baqirishim, yig'lashim ham hech gap emasdi, lekin Duyshenning haligi gaplari esimdan chiqmagan, u ojizligimni ko'rib yana mendan hafsalasi pir bo'lmasin, degan xayolga bordim-da, ornomus kuchlilik qildi, ko'zimni chirt yumib, damimni ichimga yutib kelaverdim. O'qituvchi xuddi menga tikilib qarab turganday, yon-verimga qarashdan ham hayiqaman, o'zimni dadil tutib boraverdim.

Hamma yog'imdan ter quyilib, chang bosib ovulga yetib keldim, hansiraganimcha ostona bosib uyga kirgan edim, o'choq yonida o'tirgan kennoyim menga qarab o'shqirib o'rnidan turib ketdi. Kennoyim o'zi badfe'l, qo'pol ayol edi.

– Qaysi go'rda yuribsan? – deb dag'dag'a qildi men tomon tashlanib, javob qaytargunimcha bo'lmay qo'limdag'i qopni yulib olib uloqtirib yubordi: – Qorong'i tungacha sanqib yurib tergan tezaging shumi?!

Qizlar kelib allaqachon chaqimchilik qilib qo'yishgan bo'lsa kerak, deb o'yladim.

— Xudoning balosi, itvachcha! Maktabda kiming bor? O'liging qola qolsa bo'lmasmidi shu maktabda! — Kennoyim qulog'imni burab ura ketdi, — itvachcha, yetimcha! Bo'rining bolasi o'lganda ham it bo'lmaydi! Odamlarning bolalari daładan uyga tashisa, sen uydan dalaga tashiysan! Maktabingni burningdan chiqarmasam... Qarab tur hali. Ikkinchı oyoq bosganiningni ko'rsam, ilicingni sindiraman. Hali shoshma, seni... Qani maktabdan og'iz ochib ko'r-chi!

Baqirib yubormasam go'rgaydi, deb nafasimni chiqarmay o'zimni bosib turdim. Keyin o'choqqa xashak tashlab, ko'k mushugimni silab o'tiraverdim, ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi... Mushugim har gal yig'laganimda kelib tizzamga o'tirib olardi. Kennoyimning kaltagidan yig'laganim yo'q, qarg'ish-do'pposlashlariga-yu o'rganib qolgandim: endi kennoyim meni o'lsa ham maktabga yubormaydi, deb shunga kuyib yig'ladim...

Chamasi, shundan ikki kun o'tgach, ertalab ovulda itlar hurib, odam ovozları eshitilib qoldi. Bilsak, Duyshen uyma-uy kirib bolalarni o'qishga yig'ib yurgan ekan. U vaqtarda ovulimizda ko'cha qayoqda deysiz, guvala uylar ovulda yakkam-dukkam-u, har kim ko'ngliga yoqqan joyga uy solib o'tiraverardi. O'ntacha bolani ergashtirib, Duyshen hovlidan hovliga kirib yurgan ekan.

Bizning hovlimiz bir chekkada edi. Kennoyim ikkalamiz o'g'irda tariq yanchib turgan edik, amakim hovlida o'raga ko'milgan bug'doyni olayotgan edi, bozorga eltib sotmoqchi bo'lgan ekan. Kennoyim ikkalamiz navbatmanavbat o'g'ir dastasini goh ko'tarib, goh tushirib tariq yanchib turibmiz-u, fursat kelganda Duyshenlar tomonga ko'z qirimni tashlab ham olaman. Bizning hovliga kirmay burilib ketmasaydi, deb qo'rqaman. Kennoyim meni maktabga bermasligiga ko'zim yetib turgan bo'lsa ham, nimadandir umidvor bo'lib, hech bo'lmasa muallim bu hovlida turishimni bilib qo'ysin, deb betoqatlik bilan kutaman: «Ey Xudo, kelsa qolsa ekan», deb Xudodan tilak tilab turibman.

— Salom, yanga, hormanglar, mana bir gala bo'lib hol-ahvol so'ragani keldik, — deb Duyshen hazil-huzul

bilan salom berib, bir to'da bolalarni orqasidan ergashtirgancha hovliga kirib keldi.

Kennoyim salomiga istar-istamas alik olganday bir nima deb ming'irlab qo'ydi-yu, lekin amakim o'rada boshini ko'tarmadi ham. Duyshen pinagini ham buzmay, hovlining o'rtasida yotgan g'o'laga savlat to'kib borib o'tirdi, qo'liga qalam-qog'oz oldi.

— Bugun maktabni ochmoqchimiz. Qizingiz necha yoshda?

Kennoyim javob qaytarmay, zarda bilan o'g'ir das-tasini «gurs» etib urdi-da, yana aylantirib-aylantirib qo'ydi. Kennoyimning gapirgisi kelmay, ensasi qotib turganligi avzoyidan sezilib turardi.

Endi nima bo'lar ekan, deb ichimdan zil ketganday bo'ldim.

Duyshen menga qarab, kulib qo'ygan edi, huv bir galdagiday ko'nglim yayrab ketdi.

— Oltinoy, necha yoshga kirgansan? — deb so'radi. Men qo'rqqanimdan indamadim.

— Yoshi bilan nima ishing bor, nima, tergovchimisan! — dedi qo'rslik bilan kennoyim. O'qishing o'zingga buyursin. Bunga o'qishni kim qo'yibdi, nonni «nanna» deb yurgan, erkatoylar ham o'qimasdan yurishibdi-kul! Bir galasini yig'ib olibsan-ku, o'shalarni olib boraver maktabingga, biz bilan ishing bo'lmasin.

Duyshen irg'ib o'rnidan turdi-da, rangi o'chib, qovoqlari solinib:

— Bu gapni o'ylab gapiryapsizmi? Xo'sh, yetim Xudoga nima yomonlik qilibdi? Yoki yetimlar o'qimasin degan zakon bormi?

— Zakon-pakoning bilan ishim yo'q. Men o'zim zakonman, menga zakonchilik qilma.

— Og'zingizga qarab gapiring. Bu qiz sizga kerak bo'lmasa, bizga kerak. Sovet hukumatiga kerak! Bizga qarshi chiqsangiz, zakonchiligidizni ko'rsatib ham qo'yamiz!

— Sen o'zing kimsan, kim seni katta qilib qo'ydi! — deb o'dag'ayladi kennoyim. — Bunga, yedirib-ichirib yurgan men xo'jayinlik qilamanmi yoki sayoqvachcha darbadar senmi?

Shu paytda beligacha yalang'och bo'lib olgan amakim o'radañ ko'rinnmaganda, bilmadim, bu dahanaki jangning oxiri nima bo'lardiykin? Amakim bu uyda er kishi, xo'jayin borligini unutib, xotinining har narsaga burnini suqishini yoqtirmsadi. Shunday paytlarda xotinini o'lguday tutib urardi. Bu gal ham zardasi qaynab ketdi shekilli:

— Hoy, xotin deyman! — deb jerkib tashladi u, o'radañ chiqib, — sen qachondan beri bu uyning biybekasi bo'lib qolding?! Ko'p gapirma, ishingni qil! Ayda, Tashtanbekning o'g'li, adi-badi aytishib o'tirma, olib ketaver qizni, o'qitananmi-cho'qitananmi, bilganiningni qil. Ayda, qo'radañ tuyog'ingni shiqillatib qoll Ket...

— Buni mакtabda yayratib qo'yib, o'g'irni kim yanchar ekan-u, qozon-tovoqqa kim qarar ekan, — deb kennoyim manjalaqilik qila boshlagan edi, amakim baqirib:

— Yum og'zingni, gap bitta! — dedi.

Har yomonning bir yaxshisi bor, deganlariday, birinchi marta maktabga borishim mojarosi shunday bo'lgan edi.

Shundan buyon Duyshen har kuni ertalab hovlimahovli yurib, bizni maktabga olib ketar edi.

Birinchi kuni maktabga borganimizda u bizni yerga to'shalgan poxol ustida o'tqazib, har birimizga bittadan daftar, bittadan qalam va bittadan taxtacha berdi-da:

— Taxtachani tizzangizga qo'ysangiz xat yozish oson bo'ladi, — deb tushuntirdi.

Keyin devorga yopishtirilgan suratni ko'rsatib:

— Bu kishi dohiy! — dedi.

Surat bir umr esimda qoldi. Keyin bu suratni nimagadir hech yerda uchratmadim, o'zimcha uni «Duyshen ko'rsatgan surat», deb yuraman.

Duyshen bu suratni ko'pdan beri yonida olib yurgan bo'lsa kerak, rosmana plakat qog'ozga bosilgan ekan, eskirib, chetlari unda-munda yirtilib ham ketgan... Maktabimizning to'rt devorida shu suratdan boshqa hech nima yo'q edi.

— Bolalar, men sizlarga harf yozishni, o'qish va hisobni o'rgataman, — degan edi o'shanda Duyshen.— O'zim nimani bilsam, sizlarga ham shularni o'rgataman...

Aytganiday, Duyshen bilganlarini ayamasdan, sabr-toqat bilan bizga ta'lim bera boshladi. Har birimizning yonimizga kelib qalam ushlashni o'rgatib bo'lgandan keyin, biz eshitmagan gaplarni zo'r ishtiyoy bilan tu-shuntirib, qulog'imizga quyib bordi. Hozir ham o'y lab turib, yozilgan narsani o'zi zo'rg'a xijjalab o'qiydigan bu chalasavod yigitning shunday buyuk ishga bel bog'laganiga hayron qolaman, axir uning qo'lida biron ta darslik, hatto oddiy alifbe kitob ham yo'q edi-dal Otabuvalari, yetti pushti xat-savodsiz o'tib kelgan bolalarni o'qitish oson gap deysizmi! Duyshenning na dars programmasi va na metodikadan xabari bor edi. Dunyoda bunday narsalar borligini bilmasdi ham.

Duyshen bizni bilganicha, qo'lidan kelganicha o'qitdi, ko'ngliga nima kelgan bo'lsa shuni o'qitaverdi. Uning sof ko'nglidan chiqqan g'ayrat-tashabbusi behuda ket-madi, o'z samaralarini berdi, bunga imonim komil.

U qahramonlik ko'rsatdi-yu, lekin bu qahramonligidan o'zi ham bexabar edi. Ha, bu chin qahramonlik edi, nega deganda, o'sha kezlarda ovulidan boshqa joyni ko'rmagan qirg'iz bolalari ko'z oldida, agar yoriq-te shiklardan qorli tog' cho'qqlari ko'rinish turadigan shu kulbani maktab deb atash mumkin bo'lsa, shu mакtabda to'satdan quloq eshitmagan, misli ko'rilmagan yangi dunyo namoyon bo'ldi.

Dohiy yashab turgan Moskva shahri Avliyo Otadan katta, Toshkentdan ham bir necha marta kattaligini, dunyoda Talas vodiysiday keladigan ulkan-ulkan dengizlar borligini, bu dengizlarda tog'day-tog'day kemalar suzib yurishini biz ana o'shanda bilgan edik. Bilsak, bozorda sotiladigan lampa moyini yer ostidan qazib chiqarishar ekan. Xalq boyib, turmushimiz yaxshilanganda maktabimiz derazalari katta-katta oq uyda bo'lib, bolalar partalarda o'tirib o'qiydigan bo'lishiga biz o'sha vaqtdayoq ishongan edik.

Duyshen, otasi temiryo'lda ishlab yurgan kezlar, Mixail Semyonovich degan bir keksa muallimning qo'lida ikki qish o'qigani, keyin armiyaga borib, oqlar bilan urushganlarini hikoya qilganda, biz ham xayolimizda u bilan yonma-yon turib jang qilganday bo'lardik. Dohiy to'g'risida xuddi uni o'z ko'zi bilan

ko'rganday hayajonlanib gapirardi. Uning aytganlarining ko'plari, albatta, buyuk dohiy haqida xalq og'zida doston bo'lib yurgan rivoyatlar edi. Bunga hozir aq lim yetib turibdi, lekin bular o'sha kezlarda biz, Duyshen shogirdlari uchun kundek ravshan haqiqatlar edi.

Bir kun oqko'ngillik bilan:

– Og'a, dohiy bilan qo'l berishib ko'rishganmisiz? – deb savol bergandik, muallimimiz bir xil bo'lib bosh chayqadi-da:

– Yo'q, bolalar, yuz ko'rishish nasib bo'lgan emas menga, – deb bizning oldimizda xijolat bo'lganday xo'rsinib qo'ydi.

Har oyning oxirida Duyshen ish bilan volostga piyoda jo'nab ketardi-yu, shu bilan ikki-uch kun deganda qaytib kelardi.

Shu kunlarda biz uni juda sog'inib qolardik. Bir tug'ishgan akamni kutganday kennoyimga sezdirmay, teztez pastki yo'lga qarab, muallimning xurjun ko'targan qorasi ko'rinarminikin, yuragimni ilituvchi tabassumini qachon ko'rarkinman, ma'rifatli so'zlarini qachon eshitarkinman, deb yo'liga intizor bo'lib kutardim.

Duyshenning shogirdlari ichida eng kattasi men edim. Shuning uchun ham boshqalardan uquvim yaxshiroq edi, lekin, nazarimda, boshqa sababi ham yo'q emasdi. Muallimning har bir so'zi, ko'rsatgan har bir harfi men uchun tabarruk, muallimga ixlosim zo'r edi. Duyshenning ta'limini qulog'imga qo'yib olishdan ham muhimroq ilinjim yo'q edi bu dunyoda.

Duyshenning bergen daftarini ayab-avaylab, uni yer-u ko'kka ishonmay, yurgan yo'limda o'roq uchi bilan yer chizib, ko'mir bilan devorga, xivich bilan qor ustiga harf suratini solib, so'z to'qib yurardim. Nazarimda, dunyoda Duyshendan o'tar olim, undan o'tar aqlli odam yo'q edi.

Shu orada qish ham kirib qoldi.

Birinchi qor tushguncha tepaning etagida shildirab oqib turgan ariqdan qo'l ushlashib kechib o'tib yurdik. Keyin ariqning suvi oyoqni kesib yuboradigan bo'lib, kichkina bolalarning ko'zidan tirqirab yosh ham chiqib ketdi. Endi bolalar turnaday tizilib turishardi. Duyshen ularni galma-galdan bittasini yelkasiga olib, ikkinchisini qo'lida ko'tarib ariqdan o'tkazib qo'yardi.

Shularni hozir o'ylab ketib, ko'rgan ko'zimga ham ishongim kelmay qoldi. Odamlar o'sha vaqtida johillidanmi deyman yoki bo'lmasa aqli kaltalik qilganmi, haytovur, Duyshendan kulishardi. Tog'da qishlab, har zamon tegirmonga kelgan boylarni asti qo'yavering. Ustlarida pochapo'stin, boshlarida suvsar telpak, ostlarida semiz otlarini o'ynatib, kechuv yonida bizga duch kelganlarida Duyshenni kalaka qilganlari-qilgan edi:

— Manavi, bittasini qo'liga, bittasini orqalab olgan jo'jabirday kim o'zi? — deb qamchisi bilan turtib o'tmay qo'ymasdi birontasi.

Boshqa biri:

— Attang, bunaqa mehnatkashligini bilganimda, kichik xotinlikka olardim-ku! — deb xoxolab kulib, hamma yog'imizga loy sachratib o'tib ketishardi.

O'shanda xo'rligim kelib yig'laguday bo'lardim, g'azabim qaynab, kuchim yetsa otning tizginidan ushlab: «Muallimimizning sadaqasi ketgur, uyatsiz, ahmoqlar!» — deb yuzlariga tik boqib qichqirgim kelardi.

Biroq norasida qizning gapiga kim ham qulqoq solardi. Achchiq-achchiq ko'z yosblarimni ichimga yutih qolaverardim. Duyshen bo'lsa hech nima ko'rmagan, hech nima eshitmaganday, bu sassiq gaplarga parvo ham qilmasdi. Qaytanga, biron qiziq gap o'ylab topib, bizlarni alahsitish payidan bo'lardi.

Ko'priq solishga yog'och topish uchun Duyshen har qancha harakat qilsa ham, bo'lindi. Bir kuni makkabdan qaytayotganimizda, bolalarni ariqdan o'tkazib qo'yidik-da, Duyshen ikkalamiz ariq bo'yida qoldik. Suv kechishdan qutulish uchun tosh va chimdan hatlamchi yasamoqchi bo'ldik.

Rostini aytganda, ovuldagilarning o'zları insof qilishsa, shu yerga ikkita-uchta taxta olib kelib tashlashsa, ko'priq ham bitardi-qo'yardi, lekin u zamonlarda o'qishning ma'nosiga aqli yetmagan xaloyiq, Duyshenni anchayin bekorchi afandi deb bilishardi. Chidasang o'qit, bizni tinch qo'y, deganday, ot kechgan yerga ko'priq solib o'rganmagan odamlar, bizning mushkulimizni oson qilish yetti uxlab tushlariga ham kelmabdi-ya! Lekin ular, tanalariga bir o'ylab ko'rishsa bo'lardi: nima uchun boshqalardan ortiq bo'lsa borki, lekin kam yeri

bo'limgan, aqli bushi joyida bu navqiron yigitning shuncha azob-uqubat, xo'rliklariga qaramay, tirishib-tirmashib ularning bolalarini o'qitib, qo'lidan kelganicha ularga ilm berayotganining vaji nima edi?

Biz o'sha kuni ariqqa hatlamchi solayotganimizda birinchi qor tushgan edi. Suyak-suyaklardan o'tib oyoq-qo'lni qaqqhatgan muzdek suvda Duyshenning oyoqy-alang bo'lib olib, katta-katta xarsangtoshlarni ko'tarib yurganga hali-hali aqlim yetmaydi. Ariqning o'rta yeridan zo'rg'a qadam tashlab borardik, suv oyog'imni kesib ketay derdi, bir vaqt boldirimning tomiri tortishib, alamiga chidolmay qoldim, nomus kuchli, na baqirishimni bilaman, na qaddimni rostlay olaman. Ko'zim tinib yiqlib ketayotgan ekanman. Duyshen ko'rib qoldi, qo'lidagi toshni irg'itib yuborib yonimga yugurib keldi, dast ko'tarib, ariqdan olib chiqdi-da, yerda yotgan shineliga qo'ydi. U goh tirishib, ko'karib qolgan oyoqlarimni uqalar, goh muzlab qolgan qo'llarimni kaftlari orasiga olib ishqalar, goh og'ziga yaqin olib borib dami bilan ilitardi.

— Qo'y, Oltinoy, sadag'ang ketay, sen shu yerda isinib o'tiraver, — deb Duyshen yalinganday bo'ldi, — men o'zim hozir bitkazaman...

Hatlamchini bitirgandan keyin, Duyshen etigini kiyib turib, sovuqdan hurpaygan avzoyimni ko'rib miyig'ida kulib qo'ydi:

— Isidingmi, hasharchi qiz? Shinelni yopinib ol, ha balli! — dedi. Birozdan keyin: — Huv o'shanda tezak goldirib ketgan senmiding, Oltinoy? — deb savol berdi.

— Ha, — dedim men.

Duyshen o'zi bilan o'zi gaplashganday: «O'zim ham shunday deb o'ylovdim» deganday miyig'ida kulih qo'ydi.

Hali-hali esimda, o'sha onda ikki yuzim yonib olov bo'lib ketdi: bundan chiqdi, bu arzimagan narsani muallimim bilgan va esida saqlab yurgan ekan-da! O'zimni baxtiyor his qildim, boshim osmonga yetdi.

Duyshen ham mening xursandligimni sezdi.

— Sadag'asi ketay, shu oppoq qizni, — dedi u meni erkalatib, — qanday dono qizki... qani endi qo'limdan kelsa, seni katta shaharga yuborib o'qitsam. Ulug' martabali odam bo'lib yetisharding-a!

Shunday dedi-yu, Duyshen shartta burilib ariq bo'yiga bordi.

Toshlar ustidan shaldirab oqib turgan ko'm-ko'k suv labida ikki qo'li orqasida-yu, ko'krak kerib, tog' ustidan suzib o'tayotgan oq bulutlarga chanqoq ko'zlar bilan tikilib, o'y surib turgani hali-hali ko'z oldimdan ketgan emas.

Nimalarni o'yladi ekan o'shanda? Xayolida meni rostdan ham katta shaharga o'qishga yuborgan bo'lsamikin! Men bo'lsam Duyshenning shineliga o'ralib olib: «Oh, qani endi Duyshen tug'ishgan akam bo'lsa-yu, bo'yniga osilib erkalab qattiq-qattiq quchoqlasam, ko'zimni chirt yumib dunyoda bor shirin-shirin gaplarni shivirlab qulog'iga aytsam! Ey, Xudoyim, uni menga tug'ishgan aka qila qolsang nima bo'pti!» – deb tilak tilagan edim. O'shanda muallimimizni odamgarchiligi, yaxshi niyatlar uchun, bizlarning kelajagimiz to'g'risida g'amxo'rlik qilganligi uchun ham unga mehr qo'yib, izzat-hurmatini hajo keltirgan bo'lsak kerak. Bizlar go'dak bolalar bo'lsak ham, o'yimcha, o'sha vaqtdayoq aqlimiz yetib turardi shunaqa narsalarga.

Bo'lmasa tizzadan suv kechib, izg'irinda nafasimiz bo'g'ilib, shuncha uzoq joyga – tepalikka har kun qatnab tinka-madorimizni quritishga bizni kim majbur qilardi, deysiz? Maktabga o'z ixtiyorimiz bilan havas qilib borardik. O'qishlaringga borsalaring-chi, deb bizni qistovga oladigan hech kim yo'q edi. Bu muzxona saroyda yuz-ko'zlarimizni qirov bosib, oyoq-qo'llarimiz sovuqdan muzlab qolsa ham, chidab o'tirardik. Faqat pechka yoniga borib navbatma-navbat isinib olardik, qolganlarimiz o'z o'rnimizda Duyshenning darslariga quloq solib, o'qish bilan mashg'ul bo'lardik.

Mana shunday qahraton qish kunlaridan birida, endi o'ylasam yanvar oyining oxirlarida bo'lsa kerak, Duyshen uyma-uy kirib, bizlarni yig'di-da, maktabga boshlab ketdi. U indamay borar, qovoqlari bur-gut qanotiday uyulgan, rangi o'chgan, yuzi bamisoli cho'g'da toblangan temirday unniqib ketgan edi. Biz muallimimizni hech qachon bunday holatda ko'rmagan edik. Uning avzoyiga qarab bizlar ham jim bordik: biron ko'ngilsiz hol yuz bergenini sezib turardik.

Yo'lda qor tepaliklariga duch kelganimizda Duyshen doimo avval o'zi yo'l ochar, uning ketidan men yurardim, keyin hamma bolalar o'tib olishardi. Bu gal ham tepaga chiqaverishda kechasi qor uyilib qolgan ekan, Duyshen yo'l ochgani oldinga o'tib ketdi. Ba'zida odamning orqasidan ham uning avzoyini, ko'nglidan nima gaplar o'tayotganini bilsa bo'ladi. O'shanda ham muallimimiz boshiga og'ir musibat tushganligi sezilib turardi, nega deganda, u boshini quyi solib zo'rg'a oyoq sudrab ketayotgan edi. Ko'z oldimda goh qora, goh oq dahshat solib namoyon bo'lib turgani hali-hali esimda: bizlar g'ozday tizilib tepalikka chiqib ketayotganimizda, qora shinel ostidan Duyshenning bukchaygan qaddi ko'zga tashlandi, undan yuqorida oppoq qor tepaliklari tuya o'rakchalariday ko'rinish turar, shamol har gal ham-la qilganda ularning uchini uchirib ketardi, undan ham balandroqda – sutday oppoq osmonda bir qora bulut qora dog'day ko'zga chalinardi.

Maktabga yetib kelganimizda Duyshen pechkaga olov ham yoqmadidi.

– O'rninglardan turinglar, – deb buyurdi.

Hammamiz o'rnimizdan turdik.

– Telpaginglarni olinglar, – dedi.

Bizlar hammamiz itoatgo'ylik bilan telpagimizni qo'limizga oldik, o'zi ham askarlikdan kiyib kelgan qulqchinini boshidan yulib oldi. Nima bo'layotganiga aqlimiz yetmay turaverdik. Keyin muallimimiz sovuqdan bo'g'ilgan uzuq-uzuq ovoz bilan gap boshladi:

– Dohiy otamiz olamdan o'tdi, hozir butun dunyoda odamlar motamda. Sizlar ham joy-joylaringizdan qo'zg'almay, mana bu suratga qarab turinglar. Bu kun bir umr xotiringizda saqlanib qolsin.

Maktabimizning ichi xuddi suv sepgandek jimjit bo'lib qoldi. Eshik-teshikdan shamolning uvullashi, shamol uchi-rib kelgan qorning shitirlab poxol ustiga tushishi ham eshitilib turardi.

Tinim bilmagan shaharlar jimb, yer-u ko'kni larzaga keltirib turgan zavodlar sukutga ketganda, gumburlab dala-dashtlarni yangratib turgan poyezdlar yetgan joyida to'xtab, butun dunyo motam libosiga burkanib olganda – mana shu motam soatida xalqning bir bo'lagining bir

zarrasi bo'lmish biz, Duyshenning shogirdlari maktabimizda, hech kim ko'rmagan, hech kim bilmagan bu muzday saroyda muallimimiz bilan yonma-yon g'amgin qiyofada saf tortib turardik. Yo'lboschchi uchun hammadan ko'proq, kuyib-pishgan, eng yaqin kishilariday vidolashdik. Yo'lboschchi bobomiz bo'lsa yarador qo'li bog'-loqlik, boyagi-boyagiday halpillagan harbiy kiyimda devorga osiqlik joyidan bizlarga jilmayib qarab turaardi. U hamon o'sha ochiq chiroyi bilan bizga qarab: «Kelajagingiz qanday go'zal, qanday porloq bo'lishini bilsangiz edi!» deganday bo'lardi. O'sha sokin daqiqada, nazarimda, darhaqiqat u mening kelajagimni o'ylab turganday ko'rinish ketdi ko'zimga.

Keyin Duyshen ko'z yoshlarini artib, bizga bir ko'z yogurtirib chiqdi-da:

— Men bugun volostga jo'nab ketaman. Partiyaga kiraman. Uch kundan keyin qaytib kelaman, — dedi.

O'sha uch kun, nazarimda, tabiatning eng achchiq, eng qayg'uli kunlari bo'ldi. Dunyodan o'tgan ulug' zotning o'rni to'lmay, tabiat armon taronasini bo'ronga, o'ksik-o'ksik o'shqirgan shamolga berib, dardi alamini qahraton sovuqqa berib, qoya va xarsang toshlarga kelib o'zini urdi, tinchini topolmay qoldi... Qayg'u-hasrat, nadomat, talpinishdan o'zini tutolmay, dod-faryod ichida yerparchin bo'laverdi...

Ovulimizga jimlik cho'kdi, pastlab tushgan bulutlar orasida g'ira-shira qorasi ko'rinish turgan tog'-toshlar ostida jimib qoldi. Qurum bosgan mo'rillardan uzun-uzun tutun chiqib turardi, odamlar uydan ko'chaga chiqmay qo'yishdi. Atrofda bo'rilar ham uvlab qolishdi. Quturib, katta yo'lda kuppa-kunduz kunlari ham huradigan bo'lib qolishdi, kechalari ovulga yaqin kelib, tishlab tortqilaydigan hech nima topolmay, tong otguncha uvlab izg'ib yurishardi.

Muallimimizdan negadir xavotir olib, ustida issiqroq to'ni ham yo'q, yupqa shinelda bu sovuqda qanday yetib kelar ekan, deb yuragimni hovuchlab yurdim. Duyshen keladigan kuni ko'nglim g'ash bo'laverdi, o'zimni qo'yarga joy topolmay qoldim. Dam-badam eshikka chiqib, qorasi ko'rinarmin deb ko'zim to'rt bo'lib turdim: jimjit, qorli dalada odamzod bolasidan

asar ham ko'rinnadi. Nima bo'ldiykin, kelmay qolish odati yo'q edi-ku!

«Voy, Xudoyim-ey, kechga qolmay ertaroq kela qolsachi! Bo'yginangdan aylanay, og'am! Bemahalda qayoqlarda yurganikin!» – deb ichimda koyib ham oldim.

Biroq, unsiz nidomga qirdan javob bo'limgandan keyin, kennoyimga bildirmay yig'lab ham oldim.

Hadeganda, eshikka yugurib turishim kennoyimning joniga tegib ketgandan keyin:

– Hoy, shum oyoq, eshikni tinch qo'yananmi-yo'qmi? Gum bo'lib o'tirsang-chi o'rningda, ipingni yigir! Bolalarni ham toza muzlatding, yashshamagur! – deb dag'dag'a qilib meni eshikka chiqarmay o'tirg'izib qo'ydi.

Qosh qorayib qoldi, muallimning kelgan-kelmaganidan bexabar o'tirardim. Tipirchilab yuragim o'ynab ke-taverdi. Har zamonda, Duyshen yetib kelgan bo'lsa kerak, deb o'zimni ovutib qo'yaman. Aytgan kunida kelmay qolish odati yo'q edi-ku, deyman o'zimga-o'zim. Goh tobi qochib qolgan bo'lsa-ya, madori ketib zo'rg'a qadam tashlab kelayotgandir, bo'ronga qolib adashib ketsa nima qilaman, deyman. Ip yigirmoqchi bo'laman-u, qo'lim titrab ip hadeb uzilgani uzilgan, buni ko'rgan kennoyimning jazavasi tutib:

– Senga nima balo bo'ldi?! Yog'och bo'lib qolganmi deyman qo'ling? – deb menga xo'mrayib g'ajib tashlamoqdan beri bo'lib o'tirdi. Keyin sabri chidamay qoldi shekilli: – Qora qoning og'zingdan kelgur! Tur o'rningdan, Sayqal buvining qopini oborib ber, – dedi.

Suyunganid dan o'rnimdan irg'ib turib ketibman. Duyshen o'sha Sayqal buvining uyida turardi-da. Sayqal buvi bilan Qartangboy otaning menga uzoqroq qarindoshligi bor edi. Ilgari ularnikiga borganimda, vaqt-vaqt bilan tunab ham qolardim. Kennoyimning esiga shu narsa keldimi yo Xudoning menga rahmi keldimi, ishqilib, qopni qo'limga ushlab turganimda kennoyim yana:

– Juda jonimga tegib ketding, bor o'shoqqa! Xo'b deyishsa, Sayqalnikida yotib qola qol, yo'qol ko'zimdan... – deb qo'shib qo'ydi.

Yugurib hovliga chiqdim, shamol jazavasi tutgan sha-

manday bo'kirardi: o'qchiganday bo'lardi-da, keyin to'sat-

dan kishiga hamla qilib, lovullab yonib turgan yuzlarimga qor tikanday kelib sanchilardi. Qopni qo'ltig'imga qisib olib, endigina ko'rinish bergan ot tuyoqlari izidan ovulning narigi uchiga qarab g'izillab chopib ketdim. O'zim bo'lsam: «Kelganmikin, muallim kelganmikin?» deb yakkash shuni o'layman.

Halloslab yugurib yetib bordim, qarasam, yo'q. Eshik oldida nafasim og'zimga tiqilib tosh qotib qolganimni ko'rib Sayqal buvi qo'rqib ketdi:

— Senga nima bo'ldi? Namuncha yugurmasang, tinchlikmi o'zi?

— Ha, o'zim. Mana, qopingizni olib keluvdim. Yotib qolsam maylimi?

— Ha, bolam qola qol, chirog'im... Obbo, jinni qiz-e! Yuragimni ham qinidan chiqaza yozding-a! O'zing ham kuzdan beri qorangni ko'rsatmay qo'yding. Kel, o'tga yaqin kelib o'tir, isinib ol.

— Qozonga go'sht tashla, kampir, qizimni mehmon qil. Duyshenning ham keladigan vaqt bo'lib qoldi. — Deraza yonida eski kigiz etikni yamab o'tirgan Qartangboyning ovozi chiqdi. — Allaqaqhon kelishi kerak edi, ha, mayli, qorong'i tushguncha kelib qolar. Uyga qaytarda otning qadami ham ildamlashib qoladi.

Hademay derazalar qorong'ilanib, tun ham kirib keldi. Yuragim poyloqchilik qilib turganday, har gal itlar vovullaganda yo qulog'imga odam tovushi chalinganda bir seskanib tushardim. Lekin Duyshendan darak yo'q. Yaxshiyamki, Sayqal buvi bir mahalgacha undan bundan gapirib, vaqt o'tganini ham bilmay qoldik. Ana kelar, mana kelar, deb kutib o'tiraveribmiz, qarasak, yarim kechadan oshib ketibdi, kuta-kuta charchagandan keyin Qartangboy ota:

— Qo'y endi, kampir, joyingni sol, yotamiz. Bugun kelmaydi endi. Kech bo'lib qoldi. Boshliqlarning nimasi ko'p, ishi ko'p bo'ladi, biron ish bilan ushlanib qolgan bo'lsa kerak, bo'lmasa allaqaqhon uyda bo'lardi, — dedi-da, yechinib o'rniga yotishga tayyorlandi. Menga pechkaning orqasiga, bir burchakka joy solib berishdi. Ko'zimga hech uyqu kelmadi, cholning yo'tali qo'zg'ab, u yonidan bu yoniga ag'darilib, shivirlab duo o'qib yotdi-da, bir mahal tinchini yo'qotgan odamday.

— Otginamning holi nima kechdi ekan? Tekinga birov bir tutam xashak bermaydi, yemni bo'lsa pulga ham topib bo'lmaydi, — deb ming'irlab qo'ydi.

Qartangboy ota birozdan keyin uqlab qoldi-yu, lekin shamolning uvullashi kishini tinch qo'ymadi. Shamol xuddi tomda paypaslab yurganday g'udur panjalari bilan uyning tepasini ag'dar-to'ntar qilar, oynani tim-dalardi. Hovlida shamol devorga kelib o'zini urayotgani baralla eshitilib turardi.

Cholning so'zlari menga tasalli bermadi. Nazarimda, Duyshen hozir yetib keladiganday, surati xayolimdan ko'tarilmay, ko'z oldimda turaverdi, yolg'iz o'zi qirdalada ahvoli nima kechdiykin, deb yuragimni vahima bosaverdi... Shu ahvolda ko'zim yumilib ketgan bo'lsa kerak, bir mahal yuragim hovliqib ketdi-yu, boshimni yostiqdan ko'tardim. Sovuq, xunuk uvlagan tovush yang-rab qayerlardadir havoda tarqalib ketdi. Bo'ri ovozi... bitta emas, bir galaga o'xshaydi. Bo'rilar to'rt tomonidan uvlab, jadallik bilan yaqinlashib kelaverdi. Jo'r bo'lishib yer-ko'kni buzib galalashib, uplashi goh uzoqlashib, goh yaqinlashib turar, shamolda qir-dalaga tarqalardi, axiyri ovul chetiga yetib kelishganday bo'ldi.

— Bo'ron chaqirishyapti, yer yutgurlar! — dedi kampir shivirlab.

Chol jimgina qulog solib turdi-da, o'rnidan irg'ib turdi:

— Yo'q, kampir, bularning uplashi bejiz emas! Birovni quvib kelishyapti. Odamnimi, biron yilqinimi, bir nimani o'rab olishgan. Eshityapsanmi? Xudo saqlasin, yana bizning Duyshen bo'lmasin! Axir, u hech nimani pisand qilmaydigan tentak-ku!

Qartangboy qorong'ida to'nini axtarib hovliqib qoldi.

— Chirog'ingni yoq, kampir, chirog'ingni yoqsang-chi! Xudo xayringni bersin, tezroq bo'll!

Titrab-qaqshab biz ham kampir bilan birga shoshib o'rnimizdan turdik, kampir chiroqni topib uyni yorit-guncha bo'rilarining quturib uplashi to'satdan to'xtah, jim bo'lishdi-qolishdi.

— Yiqitishdi, go'rso'xtalar! — deb chol baqirib yubordi-da, qo'liga tayoq olib o'zini eshikka qarab otgan edi,

shu choq itlarning vovullagan ovozi eshitildi. Kimdir qor g'ajirlatib deraza yonidan o'tdi, toqatsizlik bilan eshikni taq-taq ura boshladi.

Uy ichiga muzdek bulut yopirilib kirdi. Bulut tarqalganda qarasak, Duyshen turibdi. Yuzida qoni yo'q, oppoq oqarib ketgan, entikib, gandiraklab ostonadan o'tib, devorga kelib suyanib qoldi. Azbaroyi holdan ketgandan:

— Miltiq! — dedi zo'rg'a.

Bizlar gapini anglamaganday angrayib turardik. Ko'z oldimni qorong'ilik bosib, chol-kampirning:

— Qora qo'y, oq qo'y sadaqa boshingdan! Bahouddin avliyo seni o'z panohida asrabdi! Senmiding, bo'tam? — degan gaplari qulog'imga kirganini bilaman.

— Miltiq qani, miltiq, ota — deb Duyshen yana eshik tomonga otilgan edi.

— Miltiq yo'q, nima bo'ldi, qayoqqa borasan? — deb chol-u kampir Duyshenning bo'yniga osilishdi.

— So'yil bormi?

— So'yilni nima qilasan, hech qayoqqa bormaysan, esing joyidami, bolam? Kim bilan tenglashmoqchisan, bizga ham rahming kelsin, — deb ikkovlari yalinib-yolvorishdi.

Birdaniga butun avzoyim shalayim bo'lгanday sekin borib o'rningma yotib oldim.

— Ulgurolmadim, hovliga yetib keluvdim hamki, bosib olishdi, — deb og'ir xo'rsinib qamchisini burchakka irg'itdi Duyshen. — Ot yo'lда kelayotgandayoq madori qurigan edi, bo'rilar quvib qolishdi, ovulga zo'rg'a chopib keldi-yu, gup etib yiqildi, o'sha zamon hammasi kelib ustiga yopirilishdi.

— Xudo seni o'zi bir asrabdi! Ot ketsa sadqayi sadag'a, ot yiqilmaganda seni ham omon qo'yishmasdi. Avliyo Bahouddin qo'llabdi seni, oxiri baxayr bo'lsin. Endi yechinib o'tga yaqinroq kel. Kel, etgingni tortib qo'yay, — deb Qartangboy ota suyunganidan Duyshenni qo'yarga joy topolmay qoldi.

— Hoy, kampir, nimang bor yeydigan, isit, bir Xudo asrabdi o'zingni, bolam.

Ular olovga yaqin borib o'tirishdi. Shundan keyin Qartangboy yengil tortib xo'rsinib qo'ydi:

- Ha, mayli, peshonangda yozilgani bo'pti. O'zing ham buncha kech yo'lga chiqmasang?
- Volkomda majlis cho'zilib ketuvdi, ota. Partiyaga kirdim.
- Bu ishing yaxshi bo'pti. Shundog' ekan, ertaga ertalab kela qolsang bo'lmasmidi? Axir, seni birov yelkangdan itarib, ket, demagandir?
- Bolalarga bugun kelaman deb va'da beruvdim, - deb javob qildi Duyshen, - ertaga ertalab o'qishimizni boshlaymiz.
- Obbo, tentag-e! Yana bolalarim deydi-ya! - deb Qartangboyning jahli chiqib bir sapchib tushdi: - Tavba, bolalarga va'da beruvdim deydi-ya! Shu mishiqlarni deb, Xudo ko'rsatmasin, biron falokatga uchrasang, unda nima bo'lardi? O'zing nima deyapsan, bir o'ylab ko'rsang-chi?
- Buni men muqaddas burchim deb bilaman, otaxon. Bu-ku mayliku-ya, har gal piyoda borib, piyoda kelardim, bu safar shayton meni yo'ldan ozdirib, yolg'iz otingizdan ajratib, bo'rilariga xomtalash qilib berganimni aytmaysizmi...
- Bosh-ko'zingdan sadaqa, bolam! Shu qirchang'i otni ham gapirib o'tiribsanmi, - deb Qartangboy kinoya aralash gapirib qo'ydi. - Bir umr peshonamga ot bitgan emas, bu yog'i ham bir gap bo'lar, Sovet hukumatining sadag'asi ketay, yana otlik bo'lib qolarman...
- Shundog' desangiz-chi, cholim, - dedi Sayqal kampir yig'lamsiragan ovoz bilan, - ot sendan aylansin... Ovqatingni issig'ida icha qol, bolam...
- Jimlik cho'kdi. Birozdan keyin Qartangboy xayol surib tezak cho'g'ni titkilab o'tirib:
 - Qarab tursam, o'zing es-hushli yigitsan. Bu go'dak bolalarni o'qitaman, deb o'zingni ming azobga duchor qilyapsan. Shundan boshqa tuzukroq ish qurib qolganmi senga? O'zingni buncha xor qilmasang, undan ko'ra, birontasiga cho'ponlikka yollasang ham, usting but, qorning to'q bo'lardi-ku, axir...
 - Ota, jigarchilik qilib menga yuragingiz achishib turibdi, bilaman. Agar shu yosh bolalar ham sizga o'xshab, o'qishning nima keragi bor, o'qib nima bo'lardik deb turishsa, unda Sovet hukumatining ishi yurishmay

qoladi-ku. O'zingiz Sovet hukumatining sadag'asi ketay, umri uzoq bo'lsin deyapsiz-ku! Shu vajdan bola o'qitishni o'zimga xorlik deb bilmayman. Qani endi, qo'limdan kelsa, bolalarga ko'proq bilim berolsam, armonim qolmas edi. Axir, ulug' zot ham aytgan-ku...

— Ha, aytgancha... — deb Qartangboy Duyshenning gapini bo'ldi-yu, biroz jim turgach dedi:

— Sen-ku, joningni jabborga berib yuribsan. Qani, ko'z yoshing bilan o'lganni tiriltirib ololsang edi! Qani endi dunyoda shunaqa kuch topilsa edi! Yo bo'lmasa sen, boshqa odamlarda dard qolmagan, deb o'ylayapsanmi? Axir, yurak-bag'rimiz tutoqib ketyapti-ku! Noilojmiz-da! Dini boshqa bo'lsa ham, siyosatga to'g'ri keladimiyo'qmi, unga atab kuniga besh vaqt duo o'qib yuribman. Ba'zida, Duyshen bolam, qanchalik qayg'urib ko'z yoshi qilsak ham, baribir, foydasi yo'qligiga aqlim yetib turadi. Men keksa boshimga shunday deb qo'ydim: Dohiy xalq orasiga singib qoldi, Duyshen, endi qondan qonga, otadan bolaga o'tib, adabiy barhayot bo'lib qoladi...

— Tilingizdan aylanay, otaxon, haq gapni aytdingiz. U o'zi dunyodan o'tdi-yu, lekin bizlar hayotni dohiy andazasi bilan o'lchaymiz.

Ularning gapini eshitib yotib, men anchadan keyin sekin-asta o'zimga kelganday bo'ldim. Avval hammasi tushday ko'rindi, Duyshenning eson-omon qaytganiga anchagacha ko'nglim ishonmay yotdi. Bir mahalla yuragim quvonchga to'lib-toshgandan nafasim bo'g'zimga sig'may qolibdi, azbaroyi suyunganimdan o'pkam to'lib ko'z yoshlarim duv-duv to'kilib, yig'lab yubordim. Bilmadim, dunyoda hech kim menchalik xursand bo'lganmikin! Shu damda chol-kampirning kul-basi ham, bo'ronday bo'kirayotgan tun ham, ovulning bir burchagida Qartangboyning yolg'iz otini tortqilab xomtalash qilayotgan bir gala bo'rilar ham, hech nima ko'rinxay qoldi! Qalb, idrok, butun vujudim nur singari bepoyon, benihoya ajoyib baxt daryosiga g'arq bo'lgandi. Yig'im eshitilmasin deb boshimni ko'rpgaga burkab, og'zimni qattiq yumib oldim-u, lekin Duyshen:

— Bu yig'layotgan kim bo'ldi? — deb so'rab qoldi.

— Ha, Oltinoy, boy a qo'rqib ketuvdi, shunga yig'-layapti, — dedi Sayqal buvi.

— Oltinoy? Nima qilib yuribdi bu yerda?

Duyshen o'rnidan irg'ib turdi, tepamga kelib tizzalab o'tirdi-da, yelkamga qo'lini tegizib: I-ye, Oltinoy, nima bo'ldi senga, nega yig'layapsan? — deb so'radi.

Men bo'lsam yig'imni tiyolmay, yuzimni devorga o'girib, battar ho'ngrab yig'lab yubordim.

— Ha, oppoq qiz, nimadan qo'rqeding? Tentak qiz! Kap-katta bo'lib-a... Qani... menga bir qara-chi!

Duyshenning bo'ynidan qattiq quchoqlab oldim, ko'z yoshlarim bilan yuvilgan, olov bo'lib yonib turgan yuzlarimni uning yelkasiga qo'yganimcha o'zimni tutolmay shirin-shirin yig'layverdim! Suyunganimdan ichimdan qaltiroq turdi.

— Voy, voy, yuragi tushib qolganmi deyman. Kam-pir, bunga bir dam solib qo'ysang-chi, kel tezroq qimir-lasang-chi, — deb Qartangboy ham namatdan turdi.

Hammalari besaranjom bo'lib qolishdi.

Sayqal buvi allaqanday duolarni o'qib, goh yuzimga suv purkab, goh yelkalarimni qoqib yuribdi-yu, yana o'zi menga qo'shilishib yig'laydi. O'shanda yuragim quvonchga to'lib-toshganidan o'rnidan jilib qolganini bilishsa edi, buni ta'riflashga holim yo'q edi, rostini aytganda, ojizlik ham qilardim.

Tinchib, ko'zim uyquga ketguncha, Duyshen qizib ketgan peshonamni sovuq qo'li bilan silab yonimda o'tirdi.

• • •

... Qish dovon oshdi. Bahor yeli yetib kelganda tog' qo'ynida oq qor, ko'k muz siljib o'ziga yo'l ochib katta-katta toshlarni yumalatib yuborganda, bahor taronasini o'ylab toshqin suvlar tog' yelkalaridan shildirab oqib tushdi.

Ehtimol, bu mening ilk yoshlik bahorim bo'lgandir. Bahor ko'rki ko'zimga har yilidan boshqacharoq tuyuldi shekilli, bizning maktabimiz o'rnashgan tepadan ko'ringan ajoyib bahor, manzarasi meni o'ziga maftun qilardi. Yer xuddi quloch yoyib o'zini to'xtatolmay tog'dan quyosh nuriga g'arq bo'lgan, yengil, suyuqqina

tutun qoplagan ko'kimdir bepoyon dala-qirlarga g'izillab yugurib borayotganday bo'lar, allaqayerlardan havoni larzaga keltirib kishnagan cho'ziq yilqi ovozi eshitilib turar, osmonda kumush bulutlar oralab kishiga zavq berib o'tayotgan turnalar yer-u ko'kka bahordan darak berib uzoq safarga chorlaganday saf tortib o'tishardi.

Bahor kelishi bilan bizlarga ham jon kirdi. O'yinkulgimiz ko'payib, matabdan ovulga bir-birimizni quvalashib, qiyqirishib borardik. Kennoyimning bunga g'ashi kelib, har gal bir qarg'ab olmasa ko'ngli o'rniغا tushmasdi:

— Hey, ta'viya, buncha shataloq otmasang? So'laq-monday bo'ying bir joyga yetib qolibdi-yu, yurishingni qara, yo qari qizlikni bo'yningga olmoqchimisan? Sen tengi qizlar allaqachon erga chiqib, qaynanalik-qaynatalik bo'lib olishdi, sen bo'lsang... Huv, topgan matohing boshingda qolsin! Matabing bilan qo'shmozor bo'lgur! Hali shoshmay tur, adabingni bermasam seni...

Kennoyimning do'qlari ham menga uncha kor qilmasdi, uning qarg'ishlarini eshitaverib etim o'lib qolgandi. Ichi qoraligidan qari qiz derdi, bo'lmasa bo'yim o'zi shu yil bahorda sal cho'zilganini demasa, o'zim boyagi-boyagi, Duyshen aytmoqchi, sochi pahmoq malla qizman-ku... Duyshenning gapiga jahlim ham chiqmasdi. «Sochim-ku paxmoqku-ya, — deb o'ylardim o'zimcha, — lekin malla emasman. Bo'yim yetsin bir chiroyli qiz bo'layki, odamlarning havasi kelsin! Duyshen menga: ko'zlarining yulduzday yonib turadi, istarang issiq, Oltinoy», — deb aytib yuradi-ku!

Bir kuni matabdan kelsam hovlimizda ikki begona ot bog'loqlik turibdi. Egar-jabdug'iga qaraganda, egalari tog'dan tushishgan. Ilgari ham bozor-o'chardan qaytishda hovlimizga kirib o'tishardi.

Kennoyimning qandaydir beo'xshov xoxolab kulgani ostonaga yetmasimdanoq qulog'imga chalindi:

— Jigan bola, ko'pam pishiqlik qilaverma, kamib qolmaysan. Kennoyining qadrini jazmaning qo'lingga tekkanda bilasan! Hali-zamon o'zing ham ko'rarsan! Xixi-xi!

Hammalari gur etib kulib yuborishdi, men ostonada paydo bo'lganimni ko'rib, jim bo'lib qolishdi. To'rda

namat ustiga yozilgan dasturxon yonida yuzlari qip-qizil, semiz bir odam o'tirgan ekan. U katta suvsar telpagi ostidan menga yalt etib qarab, tomog'ini qirib yo'talganday bo'ldi.

— E, keling, oppoq qiz, kela qoling oppog'im! — qarasam, kennoyim jilmayib, juda shirin so'z bo'lib qolibdi. Amakim ham namatning bir chekkasida yana birov bilan o'tiribdi. «Tuz, ko'zir» deb qarta o'ynab, aroq ichib, ovqat yeb o'tirishibdi. Ikkovlarining ham kayfi bor-u, qarta urganda tebranib kallalarini qimirlatishadi.

Ko'k mushugim dasturxonga yaqin kelgan edi, yuzi qizil odam uni mushti bilan bir urdi, mushuk bechora jon achchig'ida miyovlab, bir burchakka borib jim bo'lib qoldi. Yegan mushti jonidan o'tib ketdi-da! Qanday qilib chiqib ketishimni bilmay turganimda, kennoyim menga asqatdi:

— Aylanay bolam, ovqating qozonda, olib yeya qol, — dedi.

Uydan tashqari chiqib ketdim-u, lekin kennoyimning tilyog'lomaligini ko'rib, ko'nglim g'ash bo'lib qoldi. Beixtiyor hushyor tortdim.

Chamasi, ikki soatlardan keyin mehmonlar otlariga minib, toqqa jo'nab ketishdi. Kennoyim yana boyagiday: «Shumshuk, tirik yetimcha», — deb qarg'ay boshlagan edi, ha, boyagi mastligida aytgan gaplari ekan-da, deb ko'nglim o'rniغا tushdi.

Shu voqeadan biroz o'tgach, biznikiga bir ish bilan Sayqal buvi kirib keldi. Hovlida yurganimda uning: «Voy, bu nimasil Uvoliga qolishdan qo'rqmaysanmi?» — deb ko'ngli buzilib gapirganini eshitib qoldim.

Kennoyim bilan Sayqal buvi ikkalasi qattiq aytishib qolishdi, bir mahal Sayqal buvi qizarib-bo'zarib uydan chiqib ketdi. Kampir ham rahmi kelib, ham o'grayib menga qaradi-yu, indamay chiqib ketdi.

Ko'nglim g'alati bo'lib qoldi. Nega menga o'grayib qaradiykin, nima yomonlik qiluvdim?

Ertasi kuni maktabga borsam, Duyshenning avzoyi buzuq ko'rindi, sirini boy bermaslikka harakat qilmoqchi bo'lardi-yu, lekin nimadandir xafa. Yana razm solib tursam, men tomonga qaramaslik payidan bo'ladi. Darsdan keyin biz hammamiz gala-gala bo'lib maktabdan chiqqan edik, Duyshen meni chaqirib qoldi:

— To'xta, Oltinoy, — deb yonimga keldi-da, ko'zimga tikilib turib qo'lini yelkamga qo'ydi. — Uyingga borma, Oltinoy, gapimga tushundingmi? — dedi. Yuragim shuv etib ketdi. Kennoyimning ko'nglidagi niyatini endi tu-shundim.

— Javobini men o'zim beraman, — dedi Duyshen, — hozircha biznikida turasan, ko'zimdan uzoqqa ketmagan, xo'pmi?

Rangim o'chib ketgan bo'lsa kerak, Duyshen iyagim-dan ko'tarib, ko'zimga tik boqdi:

— Qo'rhma, Oltinoy! — dedi, u odaticha kulib qo'yib, — men yoningda bo'lganimda hech kimdan qo'rhma. O'qishingdan qolma, hech nimani xayolingga keltirmal.. Qo'rqoqligingni o'zim ham bilamanku-ya... — deb esiga bir narsa tushganday xoxolab kulib yubordi. — Senga anchadan buyon bir narsani aytmoqchi bo'lib yuruvdim. Esingdami, ho' o'shanda Qartangboy ota, azonda turib olib qayoqqadir chiqib ketgan edi. Bir vaqt qarasam, senga dam soldiraman deb, bilasanmi kimni — folbinni, haligi Jaynaqning kampirini boshlab kelibdi. — Nimaga olib keldingiz, desam: — bir dam solib qo'ysin, Oltinoyning yuragi qo'rqqanidan joyidan ko'chih qolibdi deydi. — E, bu alvastini jo'nating, bunga beradigan qo'y qani biz kambag'alda. Yolg'iz otni bo'lsa ho'rilar yeb ketdi, deb quvih yubordim. Sen uxlab yotgan eding, kavushini qo'liga berib chiqarib yuboruvdim, meni oppoq soqolim bilan uyatga qoldirding, deb Qartangboy ota bir haftagacha men bilan gaplashmay yurdi. Nimasini aytasan, kampir ikkovlari mehribon, ajoyib odamlar. Yur endi, Oltinoy, uyga ketamiz, — deb Duyshen meni o'zi bilan olib ketdi.

Muallimimni bekorga xafa qilmaslik uchun o'zimni har qancha qo'lga olishga harakat qilsam ham, hadeb meni vahima bosaverdi. Kennoyim kelib ura-ura oldiga solib olib ketsa, kim nima deya olardi? Keyin ko'ngillariga kelgan ishni qilishaveradi, ovulda kim ularning qo'lini tutardi? Kechalari mijja qoqmay, bir falokat boshlanadi, deb vahima qilib chiqardim.

Qay holatda yotib-turganimni Duyshen, albatta, billardi. Yurak chigalimoi yozib, ko'nglimni ko'tarish uchun ertasi kuni maktabga ikkita terak ko'chati olib keldi.

O'qish tamom bo'lgandan keyin, Duyshen qo'limdan ushlab, bir chekkaga olib borib:

— Hozir ikkalamiz bir ish qilamiz, — dedi-da, menga sirli jilmayib qo'ydi. — Mana bu teraklarni senga atah olib keldim. Ikkalamiz ekamiz, bular katta bo'lib, baquvvat tortguncha, sen ham voyaga yetib, ajoyib odam bo'lib, gulday ochilasan. Qalbi pok, zehni o'tkir qizsan, nazarimda, o'qisang martabang baland bo'ladi. Bunga imonim komil, meni aytdi deyarsan, peshonang ham nishona berib turibdi. Hozir novdaday, shu terak ko'chatlariday navqironsan. Kel, Oltinoy, shu ko'chatlarni o'z qo'limiz bilan o'tqazaylik! Baxting o'qishdan ochilsin, chaqnagan ko'zingdan aylanay...

Bo'yim tengi yosh-yosh ko'k teraklar ekan. Maktabimizdan sal nariroqda ekip qo'ygan edik, tog' etagidan esgan shabada endigina yozilgan yaproqchalarini silab jon kirgizganday bo'ldi. Yaproqchalar zirillab, terakchalar tebranib qo'ydi.

— Mana ko'rdingmi? Bir chiroyligi! — dedi Duyshen orqasiga tisarilib borib, — endi huv katta buloqdan ariq ochib kelamiz. Hali ko'rasan, biram sarvqomat bo'lib voyaga yetishsinki! Shu tepalikda og'a-iniday yonmayon qad ko'tarib turishadi. O'tgan-ketganlarning ko'ziga tashlanib, hammaning bahrini ochadi. U vaqtga borib zamon ham boshqacha bo'lib ketadi. Oltinoy, boshimiz omon bo'lsa, u yaxshi kunlar ham nasib bo'lar...

Suyunganimdan ko'nglim shodlikka to'lib, nima deyishga gap ham topa olmay Duyshenga tikilib turaveribman. Uning rangpar yuzlari, cho'ziq qora ko'zlar qanday suluv, o'zi pok qalb egasi ekanligini ilgari bilmay yurganday, tol o'tqazganda loy bo'lgan barmoq bo'g'inalari, uzun-uzun zabardast qo'llari qo'qqisdan tegib ketganda kishining yuragi huzur qilishini sezmay yurgan ekanman. Hozir yuragimni hayajonga solgan allaqanday sezgi uyg'onib: «Duyshen og'ay, sizday bola tuqqan onaga rahmat... sizni bag'rimga bosib o'pgim kelib turibdil» deb yuborishimga sal qoldi, yuragim dov bermadi, o'ylarimdan o'zim uyalib ketdim. Lekin hali-hali afsuslanib yuraman. Biroq o'shanda tepamizda ko'm-ko'k osmon, to'rt tomonimiz ko'kalamzoradir, har birimiz o'z o'y-xayollarimiz bilan band edik. Boshimga

tushgan xavf-xatarni shu baxtli onda butunlay unutib yuborgandim. Ertangi kunim nima bo'lishini ham, ikki kun bo'pti-yu, kennoyim meni izlab kelmaganini ham o'ylamay qo'ygan edim. Meni eslaridan chiqarib qo'yishdimikin yoki o'z ixtiyoriga qo'yib qo'yaylik deyishdimi? Keyin bilsam, Duyshen ko'nglimdan o'tib turgan hamma gaplarni hilib yurgan ekan, ovulga yetib kelganimizda:

— Ko'p ham qayg'uraverma, Oltinoy, bir ilojini toparmiz. Indinga volostga borib sening to'g'ringda gaplashib kelaman. Balki yordam berishar, seni o'qishga yubortirish niyatim bor. Borasanmi o'qishga? — dedi.

— Siz nima desangiz, muallim, o'sha ma'qul, — deb javob berdim. Shahar degani qanaqa bo'lishini ko'z oldingga keltira olmasam ham, Duyshenning gaplarini eshitgach, ko'nglimda shaharga borib o'qish orzusi tug'ildi.

Goh suyunib, goh hegona yurtda holim nima kecharkin, deb vahima bosib, xullas, shu gap miyamda aylanib yuraverdi.

Ertasi kuni mактабда o'tirganimda ham shaharga borib qolsam kimnikida turaman, qani endi, savoblikka bironta odam boshpana bersa, o'tinini yorarman, suvini tashib berarman, kir-chirini yuvarman, axir qarab turmay, qo'limdan kelgancha rozi qilarman, deb xayol surib o'tiruvdim, to'satdan maktabimizning orqasida ot tuyoqlarining dupur-dupuri eshitilib qoldi. To'satdan shitob bilan otliqlar paydo bo'lib, hozir maktabimizni yanchib vayron qiladiganday tuyuldi. Muallimimizning gapi qulog'imizga kirmay, hammamiz hang-mang bo'lib tosh qotib qoldik. Bu holatimizni payqagan Duyshen shoshib:

— Bolalar, ko'nglingizni bo'lmay o'qishingizga qaranglar, — dedi.

Lekin eshik shartta ochildi, qarasak, ostonada achchiq istehzo aralash kulimsirab kennoyim turibdi. Duyshen eshik oldiga bordi-da, bosiq ovoz bilan:

— Xo'sh, xizmat? — deb so'radi.

— Xizmatimizning senga daxli yo'q, qizimni uzatmoqchi bo'lib yuribman. Hoy bepadar! — deb kennoyim men tomonga otilgandi, Duyshen yo'lini to'sdi.

- Bular maktab qizlari. Uzatadigan qiz yo'q bu yerda! - dedi dadil va salobat bilan.
- Nima? Bor-yo'qligini hozir ko'rsatib qo'yamiz. Hoy, jiyani bola, qani kelinglar. Sochidan sudrab chiqinglar, bu yuzi qorani!

Kennoyim otliqlardan biriga qo'li bilan ishora qilgan edi, anavi kungi suvsar telpak kiygan, yuzi qip-qizil, semiz odamga ko'zim tushdi. Uning ketidan qo'llariga uzun-uzun tayoq ushlagan yana ikki odam otdan tushib kelishdi.

Duyshen eshik oldida turganicha o'tnidan qo'zg'al-madi.

- Sen, hey daydi it, birovlarning qiziga o'z xotining-day xo'jayinlik qilmoqchisanmi deyman? Nari tur!

Shunday dedi-yu, suvsar telpakli xuddi ayiqday tashlanib Duyshenga dag'dag'a qildi.

Duyshen eshik kesakisiga qattiq yopishib olib:

- Sizlarning bu yerga qadam qo'yishga haqingiz yo'q, bu maktab! - dedi.

- Aytmadimmi? Bularning bir balosi bor. Uni o'zi allaqachon yo'lidan urib olgan. Bu qanqiqni tekinginaga tuzog'iga ilintirib olgan! - deb kennoyim chiyillab yubordi.

- Maktabing bilan nima ishim bor! - deb haligi semiz odam bo'kirib qamchisini ko'targan edi, Duyshen uning qorniga oyog'i bilan bir tepdi, semiz odam gup etib yerga yiqildi. Shu zahoti so'yil ushlab turganlar Duyshenning ustiga otilishdi. Qo'rqib rangi quv o'chgan bolalar dod-voylashib yugurib yonimga kelishdi. Mushtlashish, so'yil zarbidan maktab eshigining tit-piti chiqib ketdi. Menga yopishib olgan bolalarni ham o'zim bilan sudrab mushtlashayotganlar tomonga otilib bordim.

- Qo'yib yuboringlar, muallimimizni urmanglar! Mana, kerak bo'lsam, meni olib ketinglar! - degan edim, Duyshen menga bir qarab qo'ydi. Yuzlari qip-qizil qonga bo'yalgan, dahshat va g'azabdan ko'zlaridan o't chaqnab turardi. Yerdan bir parcha taxtani qo'liga oldida, u bilan hamla qila turib:

- Qochinglar, bolalar, ovulga qochinglar. Qoch, Oltinoy! - deb baqirdi. Azbaroyi zo'r berib baqirganidan ovozi bo'g'ilib qoldi.

— Duyshenning qo'lini sindirishdi. U qo'lini ko'kratiga bosib, orgasiga tisarildi, ana ular bo'lsa qon hidlab quturgan buqaday:

— Ur! Boshiga sol! O'ldir! — deb so'yil bilan uni yana rosa do'pposlashdi.

Darg'azab kennoyim bilan suvsar telpakli bir sapchib yonimga kelishdi. Sochimni bo'ynimga o'rav, hovliga sudrab chiqishdi. Bor kuchim bilan ularning qo'lidan sug'urilib chiqishga urinib turganimda, ko'zim bir zumda yig'lashdan ham qo'rqib dong qotib qolgan bolalarga, devor tagida qora qoniga belanib yotgan Duyshenga tushdi.

— Muallim! Aylanay, og'a! Voydod, o'ldirishdi-ku bular, — deb baqirib unga intildim...

Qayoqda deysiz! Duyshen bir holatda... Yuz-ko'zlar, kiyimlaridan sog' joyi qolmagan. Ablahlarning kaltak zarbidan xuddi mast odamday, gandiraklab zo'rg'a oyoq ustida turar, likillab qolgan boshini tik tutishga harakat qilardi, ana ular bo'lsa tinmay do'pposlashardi. Meni yerga yiqitib, ikki qo'limni chilvir bilan orqamga bog'lashdi. Xuddi shu paytda Duyshen yerda sudralib qoldi.

— Og'a! — deb qichqirgan edim, og'zimni qo'l bilan yopib, o'zimni egar ustiga tashlashdi.

Suvsar telpakli odam otga minib olgan ekan, qo'li va ko'kragi bilan meni mahkam bosib oldi. Duyshenni urkaltak qilgan anavi ikkovi ham otga minib, hammalari jo'nab qolishdi. Kennoyim otning yonida yugurgilab:

— Xo'p ta'ziringni yedingmi, juvonmarg bo'lgor! Jazmaning ham asfalasofilinga ketdi... — deb boshimga mushtlab ketayotganda, bir mahal orqadan qulog'imga:

— Oltin-n-oy! — degan yurak-bag'irni ezadigan dahshatli ovoz eshitildi.

Osilib yotgan boshimni zo'rg'a ko'tarib qarasam, qop-qora qonga belanib chala o'lik qilingan Duyshen sog' qo'liga kattakon bir tosh olib orqamizdan yugurib kelyapti. Uning orqasidan butun sinf bolalari uvvos solib og'aylab, baqirib kelishyapti.

— To'xta, hoy itlar! To'xta deyman! Qo'yvoringlar uni, qo'yvoringlar deyapman. Oltinoy! — deb sandiraklab yugurib bizga yaqin kelib qoldi.

Zo'ravonlar ot boshini tortishdi, ikkalasi Duyshening atrofida ot aylantirib qolishgandi, u singan qo'lim xalaqit bermasin degan xayolda yengini tishlab otliqlarni poylab tosh otdi, lekin otgan toshi tegmadi. Anavi ikkovi Duyshenni bittadan so'yil bilan urgandi, u loyga yiqilib tushdi. Ko'z oldim qorong'ilashib, dod solib yig'lashayotgan bolalarning yerda yotgan muallimlari yoniga yugurishib kelib, dahshat to'la ko'zlarini unga tikib to'xtab qolishganini ko'rib qoldim, xolos.

Meni qanday, qayoqqa olib ketishganini bilmayman. Ko'zimni ochsam, o'tovda yotibman.

Qorong'i tushib kech kirar ekan, o'tov tuynugidan osmondag'i hech narsadan bexabar yulduzlarning charaqlashi ko'zga chalinib, uzoq-uzoqlardan ariqning shuvullab oqishi, poda-poda qo'y haydab ketayotgan qo'ychivonlarning ovozları eshitilib turardi. O'choq boshida qiyshaygan yog'ochday, qovoqlari soliq, unniqib qop-qorayib ketgan bir xotin o'tiribdi. To'rga qarasam, oh, qani endi ko'zimning o'qi bo'lsa-yu...

— Hey, xotin, turg'iz o'rnidan anuvni! — deb amr qildi yuzi qizil semiz odam. Qora xotin yonimga kelib, yog'ochday dag'al qo'llari bilan yelkamdan silkitib qo'ydi.

— To'qolningi bir amallab ko'ndir, bo'lmasa, bari-bir, o'z bilganimni qilaman!..

Shunday dedi-yu, anavi odam nusxa o'tovdan chiqib ketdi. Qora xotin bo'lsa o'rnidan qo'zg'almadi ham, og'zidan gap ham chiqmadi. Soqovmidiykin! Uning kul singari bo'zargan sovuq ko'zlarida hech qanday jon yo'q. Kuchuk bolaligidan miyasiga urilaverib ko'kmiya bo'lib qolgan itning termilgan ko'zlariga o'xshaydi. Yer ustidamanmi, qorong'i go'rga tushib ketganmanmi, o'lik-tirikligimni bilmay o'tiraverdim. Soyda oqqan suv mungli sharillab holimga achinganday, toshdan toshga urilib betoqat bo'layotganday...

Ming la'nat senday ichiqora dog'uli kennoyiga! Illoyim, uvolimga qolgin, qarg'ishim boshingga yetsin. To'kilgan ko'z yoshlарim, tanimdan oqqan qonlarim sel bo'lib seni o'z qa'riga tortsaydi! Shu kecha meni o'n besh yoshimda qizligimdan judo qildilar... Meni zo'r lab xotin qilgan shu hayvonning bolalaridan ham yosh ekanman...

Ikki kun o'tib, uchinchi tunda bu kunimdan o'lganim yaxshi, mayli, o'ligim cho'l-biyobonlarda qola qolsin, quvib yetishsa o'qituvchim Duyshen singari jonim boricha olishib o'lganim yaxshi, degan o'y bilan qochmoqchi bo'ldim.

O'tov ichi qop-qorong'i, sekin yurib borib eshikni topdim, qo'lim bilan piypaslab qarasam, eshikni jun arqon bilan tang'ib bog'lab qo'yishibdi, hadeganda qorong'ida arqon tugunlarini yechib eshikni ochish oson emas. Shundan keyin o'tov keragasin ko'tarib, ostidan surg'ulib biron iloj qilib chiqib ketmoqchi bo'ldim, bor kuchimni ishga solib urinsam ham, butun harakatim bekor ketdi – o'tovni tashqaridan ham arqon bilan yerga tortib qattiq bog'lab qo'yishgan ekan, qo'zg'atib bo'lmasdi.

Biron o'tkir narsa topib eshik iplarini qirqishdan boshqa iloj qolmadi. Qorong'ida piypaslab-piypaslab bilakdek yog'och qoziqdan boshqa hech narsa topmadim. Jon achchig'ida shu qoziq bilan o'tov tagini kovlay boshladim. Miyamda faqat birgina fikr aylanib yuradi – yo bu yerdan qochib qutulaman yoki bo'lmasa bu kunimdan o'lganim yaxshi, anavining xurragi, pishillashini eshitmasam bo'lgani, iloyim yo'lim oson bo'lsin, ajalim yetgan bo'lsa, mayli, bu qafasdan qutulib, muallimim Duyshenday o'z erkim uchun jonim bo'g'zimdan chiqquncha olishib o'la qolay!

To'qol nima degan odam bo'ldi! Bir umr yorug' dunyoni ko'rmagan sho'rli To'qol... ham jismi, ham qalbi qil ikkinchi xotindan ham yomon xo'rlikka giriftor bo'lgan odam zoti bormi bu dunyoda!..

Jonim boricha yerni tirnab qaziy berdim. Keraganing tagidan ikki qo'l sig'adigan teshik ochilganda tong otib, nazarimda, ovul uyg'onganga o'xshadi. Eshikda itlar vovullab, odamlarning ovozi eshitilib qoldi. Birozdan keyin yilqilar dupurlab, qo'ylar yo'talishib o'tdi-da, o'tovning yoniga kimdir kelib, arqonlarni yechib, o'tov tepasidan kigizlarni tushira boshladи. Qarasam, indamas «kundoshim» qora xotin. Demak, ko'ch-ko'ch bo'layotgan ekan. Bugun azonda bu yerdan qo'zg'alib, dovon oshib boshqa qo'nishga ko'chib ketmoqchi bo'lib gaplashayotganlari kecha qulog'imga bir chalinganday

bo'lgandi. Sho'rim qurib, qochishim yana beshbattar qiyin bo'lar ekan-da...

Keraganing ostini kovlagan joyimdan hech qimir-lamay yerga qarab o'tiraverdim. Yashirib ham nima qilardim... Baribir, o'tov tagi kovlanganini qora xotin ko'rdi-ku, ko'rsa ham, hech e'tibor bermay, indamay o'z ishini qilaverdi. Bu dunyosining unga hech daxli yo'g'-u, hayotning g'avg'osi uning his-tuyg'ulariga aslo taqilmaydiganday, o'zi bilan o'zi ovora, to'rda boshini ko'rpara burkab ayiqqa o'xshab yotgan xo'jayinini, hoy turing ko'chib ketyapmiz, deb uyg'otishni ham o'ziga lozim ko'rmadi.

Hamma o'tov kigizlari yig'ishtirib olingan edi, yap-yalang'och bo'ldi-qoldi, men bo'lsm hamon qafasga tushgan qushday o'tiribman, soyning naryog'ida odamlar tuyalarga yuk ortib, to's-to'polon bo'l shib ko'chish taraddudini ko'rishiapti. Bir mahal soydan uchta otliq chiqib kelib, haligillardan nimanidir so'roqlashdi-da, biz tomonga yo'l olishdi. Avvaliga bular ko'ch ko'chirgani kelishgan bo'lsa kerak deb o'ylab o'tirdim. Keyin razm solib qarab ko'zimga ham ishonmay qoldim. — Duyshen bilan yorqasiga qizil taqqan ikki militsioner to'g'ri bizning o'tovga qarab kelishyapti.

O'rnidan turay desam holim yo'q, haqiray desam ovozim... Bir suyunib ketdimki, xayriyat, muallimim tirik ekan! Lekin, e-voh! Yuragim jarohatlangan, nomusim poymol etilgan... Jonim halqumimga kelib tiqilib qolganday, qulog'im hitib, a'zoyi badanim bo'shashib ketdi...

Yuz-ko'zları bint bilan bog'langan, chap qo'lini bo'yniga osib olgan Duyshen otdan sakrab tushib, eshikni oyog'i bilan bir itardi, shiddat bilan o'tovga kirdi-da, yuzi qizil odamning ustidagi ko'rpasini yulib olib irg'itib tashladi.

— Tur o'rningdan! — dedi g'azab bilan.

U boshini ko'tarib, ko'zini bir ishqaladi, Duyshenga tashlanmoqchi bo'lgan edi, militsionerlarning o'qtalgan to'pponchalarini ko'rib jim bo'la qoldi. Duyshen chap qo'li bilan yoqasidan tortib, o'ziga yaqin keltirdi, ko'ziga tik boqib, g'azabdan lablarining qoni qochib:

— Tur, ablah! Qani, yur, ko'ngling tusagan yering-

ga olib borib qo'yamiz! – dedi. U itoatkorlik bilan o'rnidan qo'zg'aldi. Duyshen uni yana bir yoqasidan tortib ko'ziga tik boqdi-da, titroq tovush bilan:

– Sen uni giyohday oyoqosti qildim, rasvoysi olam qildim, deb xayol qilgandirsan? Bilib qo'y, la'nat, u zamonlar o'tib ketgan, hozir zamon bizniki, shu bilan endi sening kuning bitadi, – dedi. Uning etigini yalang-oyoq kiydirib, ikki qo'lini orgasiga bog'lashdi, miltionerlar uni otga o'ngarib, biri yetaklab, biri haydab olib ketishdi. Men Duyshenning otiga mindim, u yonida piyoda ketdi.

Biz yo'lga tushganimizda orqamizdan yurak-bag'irni ezadigan dahshatli baqirgan ovoz eshitildi. Qora xotin orqamizdan yugurib kelardi. U aqldan ozgan majnunday yugurib erining yoniga kelib, suvsar telpagini tosh bilan urib tushirdi, yuziga kul sochib yubordi:

– Qonimni suvday ichding, qonxo'r! Boshimga ne-ne kunlarni solmading, juvon o'lqur! Mening qo'limdan endi o'liging qutulmasa, tiricing qutulmaydi! – deb baqirib o'kiranini eshitganda, yurak-bag'rim ezilib ketdi.

Qirq yildan beri og'iz ochmay, erining ko'ziga tik qarolmay yurgan bu g'aribning yuragida yig'ilib qolgan dard-alamlari bugun hamma to'g'onlarni chilparchin qilib, seldek o'pirib chiqqanday bo'ldi. Uning chinqiriq ovozi baland-baland dara qoyalariga borib urilib, aks sadoday yangradi. Goh u, goh bu tomonga yugurib o'tib, ko'm-ko'k tomirlari o'ynab ketgan oriq, kosov-day qo'llari bilan so'qaday hoshini qayerga yashirishni bilmay tipirchilab qolgan erining ustiga go'ng, qum sochib, kesak otib, qo'liga nima ilinsa, shu bilan urib, unga la'natlar yog'dirdi:

– Yurgan yo'lingda o't unmasin, ilohim, o'liging ko'milmay dalada qolib ketsin, suyaging qaytib kelmasin, qarg'a-quzg'unlar ko'zingni o'ysin, qorangni ikkinchi ko'rmay, o'l, o'l, harom o'l! – dedi-yu, jinni bo'lgan odamday baqirib-o'kirib, shamolda to'zg'ib ketgan sochlardan qochganday ko'zi tushgan tomonga yugurib ketdi.

Shu voqeal ustiga yetib kelgan qo'ni-qo'shnilar ot choptirib uning orqasidan quvib ketishdi.

Yomon tush ko'rib bosinqirab chiqqan odamday

boshimning g'uvullashi to'xtamadi. Ko'z oldimni qorong'i parda bosib, es-hushimni yig'olmay, dilim g'ash, o'zim xunob kelaverdim. Duyshen sal oldinda otni yetaklab ketyapti. U bint bog'langan boshini quyi solib, jimgina xayol surib borardi.

Ancha yurganimizdan keyin kasofat dara ko'rinxmay ketdi. Militsionerlar ilgarilab ketib ko'rinxmay qolishgandi; Duyshen otni to'xtatdi-da, dard-alamli ko'zlar bilan birinchi marta menga tik qaradi.

— Oltinoy, kechir meni, seni bu kulfatlardan saqlay olmadim, kechir meni, — dedi. Qo'llarimdan ushlab, qat-tiq bir xo'rsinib oldi. — Sen kechirganing bilan, Oltinoy, baribir o'zimdan bir umr domangir bo'lib yuraman.

Ho'ngrab yig'lab otning yoliga yuzimni qo'yib oldim. Ko'nglimni yig'i bilan bo'shatib olgunimcha Duyshen yonimda nafasini ham chiqarmay sochimdan silab turdi.

— Qo'y, Oltinoy, behudaga joningga jabr qilma, — dedi u bir vaqt. — Gapimga qulog sol, Oltinoy, o'tgan kuni volostda bo'lganimda o'qishing to'g'risida gaplashib keldim. Shaharga yuborib o'qitamiz, deyishdi. Eshityapsanmi? Yur, endi ketdik.

Adir oralab shildirab oqib turgan tiniq suvga yetganimizda Duyshen mehribonlik bilan menga qarab:

— Otdan tushib yuvinib olsang-chi! — dedi. Keyin cho'ntagidansovun olib menga uzatdi. — Men nariroq borib otga o't yedirib turay, yechinib suvga tushib yuvinib ol. Hammasini unut qil, zinhor xayolingga keltirma endi. Cho'milib ol, Oltinoy, yengil tortasan, xo'pmi?

Xo'p deganday bosh irg'adim. Duyshen nari ketib, ko'rinxmay qolgan edi, yechindim, seskana-seskana suvga tushdim. Oq, ko'k, yashil, qizil toshlar suv tagidan menga ko'z tashlab qarab turishardi. Ko'm-ko'k, toshqin suv to'lqini to'pig'imga kelib urilish nimalarnidir vijirlab gap ochdi. Hovuchlab suv olib ko'kraklarimga sepdim. Badanimdan muzday suv oqib tushganini ko'rib shuncha kundan buyon birinchi daf'a beixtiyor kulib yubordim. Yayrab-yayrab kuldim! Yana anchagacha ustimga suv quyib turdim-da, keyin suvning chuqur joyiga o'zimni tashladim. Suv oqimi bir zumda meni yana sayoz joyiga olib chiqib qo'ydi, men bo'lsam yana o'rnimdan turib, hadeb o'zimni qaynab ko'piklanib turgan oqimga otaman.

— Suvjon, shu kunlarning hamma shaltoq, ifloslarini yuvib ket! Meni o'zingday halol va musaffo qil! — deb shivirlab, o'zimdan o'zim kulaman-u, lekin nimadan kulganimni o'zim ham bilmayman...

Oh, qani endi odamzodning bosgan izlari bir umr o'chmasaydi! Duyshen bilan ikkalamiz tog'dan tushib kelgan so'qmoq yo'lni topolsam, sajda qilib, muallimimning bosgan izlarini o'pardim. Bu so'qmoq men uchun hamma yo'llardan ham aziz. Menga yangi hayot bag'ishlagan, yangi umid-orzular hadya qilgan, yorug'dunyoga chiqargan o'sha kun, o'sha so'qmoq, o'sha yo'l xayrli bo'lsin... O'sha quyoshga ming bor rahmat, o'sha zamon tuprog'iga ofarin...

Ikki kundan keyin Duyshen meni stansiyaga olib bordi.

Bu voqeadan keyin ovulda qolishga ko'nglim ham bo'lindi. Yangi hayotga yangi joyda qadam qo'yish kerak edi. Bu qarorim ovuldagilarga ham ma'qul bo'ldi. Sayqal buvim bilan Qartangboy otam meni kuzatib borishdi, ular ko'zlarida yosh, yo'limga atashgan tugun, xaltalarni ko'tarib, bolalarday yelib-yugurib yurishardi. Men bilan xayr-xo'shlashgani boshqa qo'shnilarimiz ham, tajang Satimqul ham yetib keldi. U:

— Xayr, endi bolam, Xudo seni o'z panohida saqlasın, oy borib, omon qayti! O'zingni dadil tut, Duyshening yo'rig'idan chiqmasang, baraka topasan. Bizlarning ham uncha-bunchaga aqlimiz yetadigan bo'lib qoldi, deb oq yo'l tilab qoldi.

Maktabimiz bolalari brichka aravaning orqasidan ancha yergacha yugurishib kelib, uzoq vaqt qo'l siškib xayrlashib turishdi. Meni bir nechta yetim bolalarga qo'shib, Toshkentga, bolalar uyiga jo'natishdi. Stansiyada bizni charm kurtka kiygan bir rus ayoli kutib oldi.

Stansiyaga kechga yaqin yetib keldik. O, aylanay sendan, ko'klam maysa, terakzor stansiyam! Yuragimning yarmini bir umr o'sha yerda qoldirib ketgan bo'lsam kerak...

Birozdan keyin poyezd ham yetib keldi. Bizning aylishimizni bilgandek, mo'rabal qarab turgan sarvqomat teraklar kechki shamolda tebranib, bir-biriga allanima-

larni shivirlab, oh tortib, hasrat qilganday bo'lishdi. Duyshen har qancha sabr-qanoatli bo'lsa ham, bu gal o'zini bosib turishga urinib, sir boy bermaslikka harakat qilsa ham, yurak dardini yashira olmadı: uning ko'nglidan nimalar o'tayotganini, baribir, o'zim ham bilib turgandim. Mening tomog'imga ham olovday bir narsa kelib tiqilib qoldi. Duyshen tikilganicha ko'zini mendan uzolmay, yuz-ko'zlarim, tugmalarimgacha silab turaverdi.

— Seni bir umr yonimdan siljimasdimku-ya, Oltinoy, — dedi u. — Lekin, nima qilay, seni o'qishdan qoldirishga haqqim yo'q-da. O'zim ham uncha savodli emasmanki... Nima bo'lganda ham, o'qishga ketganining ma'qul! O'qib yaxshi o'qituvchi bo'lasan, maktabimiz esingga tushgan kezları hali rosa kularsan ham... Mayli, iloyim tilagan tilagimga yetkazsin...

Shu orada darani yangratib uzoqdan parovoz ovozi eshitildi, poyezd chiroqlari ham ko'rinib qoldi. Stansiyadagi odamlar yuklarini ko'tarib qimirlab qolishdi.

— Ana, hozir endi jo'nab ketasan! — dedi titroq ovoz bilan Duyshen, qo'limni qattiq siqib. — Baxtli bo'l, Oltinoy, o'zingga ehtiyot bo'l, ishqilib o'qish payidan bo'l...

Biron javobga ham tilim bormadi, ko'z yoshlarim bo'g'ib qo'ygandi.

— Yig'lama, Oltinoy, — deb Duyshen ko'z yoshlarimni artib qo'ydi-da, to'satdan bir gap esiga kelib: — Anavi biz ekkan terakchalary, Oltinoy, men o'zim parvarish qilaman. Omon bo'lsang, katta odam bo'lib kelganiningda, bo'y cho'zib chiroqli bo'lganini ko'rarsan hali.

Shu payt poyezd ham yetib keldi, sharaq-shuruq qilib vagonlar bir-biriga urilib to'xtadi.

— Qani endi, xayrlashaylik, beri kel, manglayingdan bir o'pay! — Duyshen meni qattiq quchoqlab peshonandan o'pdi. — Eson-omon bo'l, aq yo'l senga, baxting ochilsin, chirog'im! Hech nimadan qo'rhma, dadil qadam bos!

Bir sakrab vagon zinapoyasiga chiqdim-da, orqamga qayrilib qaradim. Singan qo'lini bo'yniga osib olgan Duyshenning hilinar-bilinmas ko'z yoshi aralash menga termilib qarab qolgani hech ko'z oldimdan ketmaydi.

Keyin menga qarab talpingan edi, shu onda poyezd o'rindan qo'zg'alib jo'nadi.

– Xayr, Oltinoy! Xayr, chirog'im! – deb qichqirdi u.

– Xayr, muallim, xayr, aziz ustozim!

Duyshen vagon bilan yonma-yon yugurib boraverdi, keyin orqada qoldi, bir vaqt o'zini yana zarb bilan oldinga tashlab:

– Oltin-oy! – deb baqirib yubordi. Menga muhim bir gapni aytolmay qolganiga o'ksinib baqirdi. Yuragining eng teran yeridan chiqqan bu nido hali-hali qulog'imdan ketgan emas...

Poyezd tunneldan chiqib, to'g'ri yo'lga tushib oldi, tobora tezlashib Qozog'iston qir-dalalaridan meni yangi hayot sari olib ketdi...

Xayr muallimim, xayr, birinchi maktabim, xayr, bolalik chog'im, xayr, yer ostida ko'zi ochilmay qolgan tiniq buloq singari, pinhon sof muhabbatim...

Ha, Duyshen orzu qilib bizlarga tasvirlab berган katta shaharda, derazalari katta-katta maktablarda o'qidim. Rabfakni bitirganimdan keyin, meni Moskvaga institutga yuborishdi. Shu uzoq o'qish yillari har gal boshimga mushkul ish tushib, umidsizlik meni yengmoq-chi bo'lib hamla qilganida, eng qiyin daqiqalarda Duyshenni ko'z oldimga keltirardim, uning tayinlab aytgan gaplari menga madad berib keldi, meni olg'a undar, tisarilishimga qo'ymasdi. Odamlarning bir o'qib miyasiga quyib olgan narsalari menga juda zo'r mashaqqatlar bilan nasib bo'lardi. Nega deganda, menga hamma darslarni boshidan boshlashga to'g'ri keldi.

Rabfakda o'qib yurgan chog'imda muallimimga maktub yuborib, unda oshkora muhabbat izhor qildim, sizni kutishga ahd qilganman, deb xabar qildim. Lekin, afsuski, xatimga javob ololmadim. Shu-shu xat yozib turishimiz ham to'xtab qoldi. Nazarimda u o'qishimga xalaqit bermaslik uchun mendan ham, o'z huzur-halovatidan ham voz kechdi shekilli. Balki, bu qilgan ishi to'g'ridir... Ehtimol, boshqa sababi bordir?.. O'shanda ozmuncha qon yutmadi, boshimga ne-ne xayollar kel-madi...

Birinchi dissertatsiyamni Moskvada yoqladim. Men uchun bu katta jiddiy yutuq edi. Ana o'sha yillari o'zim

o'qish bilan ovora bo'lib ketib, ovulga borishga hech iloj topolmadim. Shu o'rtada urush boshlanib qoldi. Kech kuzakda Moskvadan Frunzega evakuatsiya qilinib ketayotganimizda o'sha muallimim meni birinchi marta o'qishga jo'natgan stansiyada poyezddan tushib qoldim. Baxtimga, ovulimiz yonidan sovxozagga o'tib ketadigan bir arava ham uchrab qoldi.

O, jondan aziz Vatanim, sen bilan og'ir jang-u jadal kunlarida uchrashish nasib bo'ldi. Yurtimning obod bo'lganini ko'rib, quvondim. Yangi-yangi ovullar paydo bo'libdi, yangi-yangi ko'chalar ochilibdi, yangi ko'priklar bino bo'libdi... Lekin urush dilni siyoh qilib turibdi-da.

Ovulga yaqinlashgan sari yuragim qiniga sig'may, tipirchilay berdi.

Uzoqdan yangi-yangi notanish ko'chalar, uy va bog'larga ko'z tashlab kelyapman. O'sha maktabimiz turgan tepalikka ko'zim tushdi-yu, yuragim shuv etib ketdi – tepalikda ikki azim terak yonma-yon qad ko'tarib, shamolda chayqalib turishibdi. Shu onda butun umrim bo'yisi «muallim» deb atab kelgan odamimning o'z nomini birinchi marta tilga oldim:

– Duyshen! – deb shivirlab qo'ydim. – Duyshen, qilgan hamma yaxshiliklaring uchun rahmat! Esingdan chiqarmabsan, demak, o'ylab yuribsan... Ofarin, sendek sadoqatli zotga!..

Aravakash bola ko'z yoshlaramni ko'rib:

– Nima bo'ldi sizga, opa! – deb tashvishlanib so'radi.

– Ha, hech nimal! Bu kolxozda biron kishini taniyasanmi?

– Bo'lmasa-chil Hammalari o'z odamlarimiz.

– Duyshenni bilasanmi, muallim bor edi-ku?

– Duyshen deysizmi? U armiyaga ketgan-ku. O'zim uni shu aravada voyenkomatga oborib qo'ygandim.

Ovulga burilishda boladan, aravangni to'xtat, deb iltimos qildim, aravadan tushdim. Yerga tushib o'ylanib turib qoldim. Shu og'ir kunlarda tanish qidirib, meni taniysizmi, men falonchi bo'laman, deb uyma-uy yurishni o'zimga ep ko'rmadim. Duyshen bo'lsa armiyada ekan. Innaykeyin, kennoyim bilan amakim bor joyga

qadam bosmaganim bo'lsin, deb ont ichgandim. Odam-zodning ko'p gunohlarini kechirish mumkin, lekin bu-naqangi yovuzlikni hech kim ham kechirmas, amakim bilan kennoyimga qoramni ko'rsatish niyatim ham yo'q edi. Yo'ldan burilib tepalikka – qo'shterak yoniga qarab ketdim.

Eh, teraklar, jon teraklar! Qancha-qancha suvlar oqib o'tdi-yu, u mahalda sizlar ko'm-ko'k ko'chat edingiz! Mana, endi sizlarni ekkon, voyaga yetkazgan odamning hamma orzu-istiklalari, aytgan gaplari ro'yobga chiqdi. Nega ma'yus ko'rinasiz, shovullab nimadan qayg'urasiz? Yo qish yaqinlashib qoldi, izg'irin shamollar yaproqlarimizni to'kib yuboradi deb, shuning tashvishini qilyapsizmi? Yo bo'lmasa xalqning g'am-g'ussasi, qayg'u-alami shox-shabbalarining zirqiratyaptimi?

Ha, hali izg'irin qish, ham keladi, hebosh bo'ronlar ham bo'ladi, lekin bahor ham keladi...

Kuzgi yaproqlarning shovullashiga uzoq vaqt quloq solib turdim. Teraklar yonidan o'tgan ariqlarni kimdir yaqinda tozalab qo'yibdi: yerda oyoq, ketmon izlari bor. Ariq to'la limmo-lim tiniq suv, uzilib tushgan sap-sariq terak barglari suv yuzida qalqib turibdi.

Tepalikdan mактабнинг bo'yалган tunuka tomi ko'rинib turardi, ilgarigi mактабимиздан nom-u nishon ham qolmabdi.

Tepalikdan tushib, yo'lda uchragan brichka aravada stansiyaga qarab ketdim.

• • •

Urush tugab, g'alaba kunlari ham yetib keldi.

Xalq ozmuncha qora kunlarni boshidan kechirdimi? Bolalar mактабга otalarining polevoy sumkalarini ko'tarishib yugurib ketishardi. Erkaklar qaytib yana mehnatga kirishib ketdilar, beva qolgan xotinlar ko'z yoshi to'ka-to'ka oxiri taqdirga tan berishdi; qarindosh-urug', aka-ukalarini, yerlarini umid bilan zoriqib kutganlar ham ko'p bo'ldi. Axir, hamma birdan qaytmadi-da.

Duyshenning holi nima kechganini bilolmay dog'da yurdim. Ovulimizdan shaharga kelib-ketib yurganlar, Duyshen bedarak bo'lib ketdi, selsovvetga shunday qog'oz kelganmish deyishdi.

— Kim bilsin, balki o'lgandir, — deb tusmol ham qilishdi. — Bedarak ketganiga, axir, ozmuncha vaqt bo'lidi... deyishdi.

«Demak, muallimim qaytib kelmas ekan-da, deb ba'zi-ha'zida xayolimdan o'tkazib qo'yardim. O'sha stansiyada xayrashganimizdan buyon diyord ko'rishish nasib bo'lmaabdi-ya...»

Har zamon-har zamon o'tmishimni xotirlabman-u, yuragim g'am-g'ussaga to'lib-toshay deb qolganini pay-qamay yuravergan ekanman.

Qirq oltinchi yili kech kuzakda Tomsk universitetiga ilmiy komandirovkaga jo'nab ketdim.

Sibir yerlariga birinchi marta qadam qo'yishim edi. O'sha qish oldi kezlarida Sibirning qahri kelgan-u o'zi g'amgin ko'rinaridi. Asrlarni ko'rgan o'rmonlari derazadan qop-qora devorday tuyuladi. O'rmonlar oralig'idagi sayhon joylarda mo'risidan og tutun burqirab turgan, tomlari qora qishloqchalar ko'zga tashlanib turadi. Muz qotgan dalalarga birinchi qor tushgan-u, havoda qarg'alar to'p-to'p bo'lib qag'illab parvoz qilib yurishibdi. Osmonning qovog'i soliq.

Poyezdda vaqtim chog' ketyapman. Kupemizdag'i hamrohlarimizdan biri frontdan kelgan qo'litiqtayoqli invalid yigit harbiy hayotdan qiziq-qiziq voqealar va latifalar aytib kuldirgani kuldirgan. Ajoyib-g'aroyib gaplarga shunday ustaki, heozor askiyalari ham xuddi chinday bo'lib ko'rindi, vagondagilarining hammasi uni yaxshi ko'rib qolishdi.

Novosibirskdan o'tganimizda poyezdimiz qandaydir razyezdda bir minutcha ushlanib qoldi. Men deraza yonida haligi yigitning sho'xligiga qarab kulib turgandim.

Poyezd o'rnidan qo'zg'alib, jadallahshdi, stansiyadagi yakka uy deraza oldidan suzib o'tganday bo'ldi, strelkachiga ko'zim tushganda derazadan shartta orqanga tisarildim-u, shu zahoti yana oynaga yopishib oldim. Uni, Duyshenni ko'rib qoldim! U budka yonida qo'lida bayroqcha tutib turgan edi. Nima bo'lganini o'zim ham bilmayman.

— To'xtating! — deb butun vagonni boshimga ko'tarib baqirdim-u, nima qilishimni bilmay, o'zimni vagon eshi-gi tomon otdim, shu lahzada ko'zim stop-kranga tushdi, shartta plombasini uzib oldim.

Vagonlar bir-biriga urilib, poyezd birdan tormozlandi, yana shunday shiddat bilan orqasiga tisarildi. Polkalardagi yuklar gumburlab ag'anab tushdi, idish-tovoqlar shaqirlab ketdi, bolalar bilan xotinlarning yig'isi eshitildi. Kimdir vahimadan ovozi bo'g'ilib:

— Poyezd odamni bosib ketibdi! — deb baqirib yubordi.

Men bo'lsam vagon zinapoyasidan sakradim, nazarimda jahannamga ag'anab tushganday bo'ldim, ko'zimga hech narsa ko'rinnmay qoldi, aql-hushini yo'qotgan odamday strelkachining budkasiga — Duyshenning yoniga yugurdim. Orqamdan konduktorning hushtagi eshitildi. Vagonlardan odamlar sakrab tushib, ular ham orqamdan yugurishdi.

Bir nafasda poyezdnинг u boshiga borib yetdim. Duyshen ham menga qarab chopib kelyapti.

— Muallim, jonim Duyshen! — deb baqirdim-u, o'zimni uning bag'riga otdim.

Strelkachi menga qarab hayron bo'lib to'xtab qoldi. Duyshenning xuddi o'zginasi, yuz-ko'zлari quyib qo'yganday, lekin ilgari mo'ylov qo'yib yurish odati yo'q edi, o'zi ham ancha keksayib qolibdi.

— Sizga nima bo'ldi, singlim, nima gap? — deb mehribonlik bilan so'radi u qozoq tilida. — Yanglishdingiz shekilli. Strelkachi Jongazin bo'laman, otim Beynov.

— Beynov?

Alamim zo'ridan, uyalganimdan dodlab yuborishimga sal qoldi, zo'rg'a o'zimni bosib oldim, yer yorilmadi-yu, yerga kirmadim. Nima noma'qulchilik qilib qo'ydim? Yuzimni qo'llarim bilan berkitib, boshimni xam qildim. Bu kunimdan ko'ra yer yuta qolsa bo'lmasmidi meni! Strelkachidan uzr so'rab, xalqdan kechirim so'rashim kerak edi, men bo'lsam xuddi tosh qotganday, damim ichimga tushib turaveribman. Yugurib kelgan yo'lovchilar ham nima sababdandir jim turishardi. O'zim bo'lsam, hozir baqirib rosa so'kishadi men betamizni, deb kutib turibman. Lekin hech kim miq ham etmadni. Mana shu mudhish jimlikdan qandaydir bir xotin:

— Bechora sho'ring qurg'urning ko'ziga eri, yo ukasi-ga o'xshab ko'ringan-da! — dedi. Odamlarga jon kirdi.

— Muncha vahima qilmasa, — deb birov to'ng'illab qo'ydi.

— Muncha yozg'irmasangiz, axir, bu kasofat urushda ne-ne kunlar boshimizga tushmayapti deysiz... — deb shartta kesib gap qaytardi bir ayol.

Strelkachi qo'llarimni yuzimdan olib:

— Qani yuring, vagoningizga olib borib qo'yay, sovuqda qoldingiz, — dedi. Shunday deb qo'limdan ushlab oldi. Bir tomonimdan yana bir ofitser ushladi.

— Yuring, grajdanka, hechqisi yo'q, xafa bo'l mang, — dedi.

Odamlar yo'l berishdi, meni xuddi dafn marosimidaqiday ikki qo'ltig'imdan ushlab borishdi. Bizlar sekin qadam tashlab oldinda boramiz, qolgan hamma kishilar ketimizdan borishardi. U yoq-bu yoqdan yugurib kelayotgan yo'lovchilar ham bizga qo'shilishib borishardi. Kimdir tivit ro'molini yelkamga tashladi. Kupedagi qo'ltiqtayoqli hamrohimiz yon tomonda oqsoqlanib horardi. U sal oldinga o'tib yuzimga bir qarab oldi. Xushchaqchaq, mehribon va dovyurak bu sho'x yigit nima uchundir boshyalang, nazarimda, ko'zlaridan miltillab yosh oqib ketyapti. Buni ko'rib mening ham ko'zim yoshlandi. Poyezd bo'ylab ohista qadam tashlab boryapmiz, telegraf simyog'ochlarining hushtak chalib guvullashlari qulog'imga xuddi marsiyaday eshitilardi. «Yo'q, endi uni ko'rish menga nasib bo'lmaydi».

Vagonimiz yonida bizni poyezd boshlig'i to'xtatdi. U harmog'ini menga bigiz qilib, bir nimalar deb baqirar, sud javobgarligi, jarima haqida nimalarnidir jahl bilan gapirardi. Men bo'lsam bu gaplarga e'tibor ham bermadim, shu paytda dunyoni suv olib ketsa to'pig'imga ham chiqmasdi. U protokolini qo'limga tutqazib, qo'l qo'ydirib olmoqchi bo'ldi. Men bo'lsam qalam olishga ham madorim yo'q. Shu paytda haligi hamrohimiz uning qo'lidan qog'ozni yulib olib, qo'ltiqtayoqlab tumshug'ining tagiga borib yuziga baqirdi:

— Tinch qo'ysang-chi, uni! Men qo'l qo'yaman, stopkranni uzgan men bo'laman, javobini o'zim heraman...

Kech qolgan poyezd Sibir yeridan, qadimgi rus o'lkasidan g'izillab boradi. Tun qorong'isida qo'shnimning gitarasidan mungli kuy sadolari yangraydi.

• • •

Yillar ketidan yillar keldi. Turmush o'z yo'lidan qolmay, porloq kelajak va uning katta va kichik g'amtashvishlari bir umr da'vatini bas qilmadi. Yoshim bir joyga borib qolganda erga chiqdim. Umr yo'ldoshim tuzuk, bama'ni odam, bolalarimiz bor, oilamiz ahil, apoq-chapoqmiz. O'zim falsafa fanlari doktoriman. Tez-tez safarda bo'laman. Juda ko'p mamlakatlarda bo'ldim... O'sha-o'sha ovulimizga bormagandim. Buning o'ziga yarasha ancha-muncha sabablari bor edi, albatta, lekin o'zimni oppoq qilib ko'rsatish niyatim yo'q. Ovulim bilan bordi-keldi uzilib qolganligi yaxshi emas, bunda o'zimni gunohkor deb bilaman. Lekin peshonamga yozilgani shu ekanmi...

Men o'tmishimni unutib yuborganim yo'q, unutib yuborishga qurbim ham kelmasdi. Yo'q, undan qandaydir uzoqlashib qoldim, xolos.

Tog'larda shunday chashmalar bo'ladiki, yangi yo'l ochilsa, bu chashmalarga eltadigan so'qmoq yo'llar esdan chiqib ketadi, suvsaganda yo'ldan burilib boradigan yo'lovchilar tobora kamayadi, shu bilan bu chashmalarni yalpiz yoki na'matak bosib ketadi. Keyin bora-bora yo'lovchilar ko'ziga ko'rinxaydi ham qoladi. Bunday chashmalar onda-sonda birontaning esida qolib jazirama issiq kunlarda tashnasini qondirish uchun yo'ldan burilib chashma boshiga borsa borar. Yo'lovchi keladi-yu, o't bosib ketgan chashmani qidirib topadi. Giyohlarni avaylab ochadi-yu, hayratidan «oh!» deb yuboradi: allaqachonlardan buyon hech kim loyqalatmagan, muzdekkuloq suvining tiniqligi va chuqurligini ko'rib hayratda qoladi, buлоqda u o'zini ham, quyoshni ham, osmonni ham, tog'-toshlarni ham ko'radi... Ko'radi-yu, shunday joylarni bilmaslik gunoh, yor-birodarlarni ham bundan xabardor qilish kerak, deb ko'nglidan o'tkazib qo'yadi. Shunday deb o'ylaydi-yu, yanagi safargacha o'zi ham esidan chiqarib qo'yadi.

Ba'zan hayotda ham shunday bo'larkan, shuning uchun ham buning oti hayot bo'lsa kerak...

Bunday chashmalar yaqinda ovulimizga borib kelganimdan keyin esimga tushib qoldi.

Siz o'shanda meni, nima vajdan birdaniga Kurkure-

dan ketib qoldiykin deb hayron bo'lgandirsiz? Hozir sizga yorilib aytgan dardlarimni o'shanda odamlarga aytsam bo'lmasmidi? Yo'q, o'shanda ko'nglim juda buzilib, nomus kuchlilik qildi, o'zimdan o'zim uyalib ketdim, shu vajdan darhol jo'nab keta qoldim. Mundog', yuragimga qulog solib ko'rsam, Duyshen bilan diydor ko'rishgulik holim yo'q, ko'ziga tik boqib qarolmasdim. O'zimni bosib, yurak to'lqinimni tinchitishim kerak edi, fikr-o'ylarimni bir joyga to'plab, faqat ovuldoshlarimga emas, yana boshqa ko'pdan ko'p do'stlarimga aytmoqchi bo'lgan gaplarimni yaxshilab o'ylab bir qarorga kelishim zarur edi.

O'zimni gunohkor his qilganimning yana bir boisi shuki, bu izzat-ikromlar menga emas, boshqa bir zotga atalishi kerak edi, yangi maktab ochish marosimida men emas, boshqa bir zotni to'rga o'tqazish lozim edi. Bunga hammadan avval faqat birinchi muallimimiz, qariya Duyshenning haqi bor edi. Holbuki buning aksi bo'ldi. Biz hammamiz to'kin dasturxonda mehmon bo'lib o'tirdig-u, bu bebaho odam shu ulug' ayyom kuni ham pochtachilagini qo'ymay, bir zamontar shu maktabda o'qib odam bo'lgan talabalarning yuborgan tabrik telegrammalarini maktabning ochilish vaqtiga yetkazish tashvishida yurdi.

Bu ittifoqo sodir bo'lgan voqeа emas. Bunday hodisalarini men o'zim ko'p ko'rganman. Shuning uchun ham men o'z-o'zimga savol beraman: oddiy kishilarni ulug'zot singari astoydil izzat-hurmat qilish odatimizni, ajabo, qachon tark qilib qo'yidik?.. Xudoga shukr, hozir bu narsalar haqida riyokorlik, tilyog'lamatlik qilmay, ro'yirost gapiradigan bo'lib qoldik. Bu jihatdan ham ulug'zotga yanada yaqinroq bo'lib olganimizdan o'zimizni ming bor baxtiyor his qilamiz.

O'z zamonasida Duyshenning qanday muallimlik qilganidan yoshlar bexabar. Kattalardan ko'plari dunyodan o'tgan. Duyshenning shogirdlaridan ko'plari urushda halok bo'lib ketishdi, ular chinakam jangchilar edilar.

Muallimim Duyshenning qissasini yoshlarga yetkazishni o'z burchim deb bilardim. Mening o'rnimda har qanday kishi bo'lganda ham shunday qilardi, bu turgan gap. Lekin afsuski, ovuldan uzilib qolgandim! Duy-

shendan ham xabar topolmay, bora-bora uning siymosi xotiramda sokin muzeyxonalarda saqlanadigan aziz yodgorlikday bo'lib qoldi.

Hali muallimim huzuriga borib, gunohimni bo'y nimga olib, undan kechirim so'rashim bor. Yolvorib, uzr so'rayman.

Moskvadan qaytib kelganimdan keyin Kurkurega borish niyatim bor; odamlarga yangi internat-maktabga «Duyshen maktabi» deb nom qo'yishni taklif qilmoqchiman. Internat-maktabga hozir pochtachilik qilib yurgan shu oddiy kolxozchining nomini qo'ysak deyman. Siz ham, ovuldosh do'stim, mening bu taklifimni quvvatlarsiz, deb umid qilaman. O'ylayman, iltimosimni yerda qoldirmassiz.

Moskvada hozir tun, soat bir. Mehmonxona balkoniga chiqib, osmondagи yu'duzlарday charaqlab turgan bepoyon Moskva chiroqlarini tomosha qilib, ovulimga borsam, muallimim bilan ko'rishib, oppoq soqollaridan o'psam, deb xayol surib turibman.

• • •

Derazalarni lang ochib qo'ydim. Uyga rohatijon havo oqib kirdi. Yorishib horayotgan ko'kish tong nurida boshlab qo'yan etud va xomaki suratlarimni ko'zdan kechirib turibman. Bunday suratlarim ko'p, bir necha marta hammasini yangidan boshlagan paytlarim ko'p bo'lган. Lekin yaxlit bir surat haqida fikr aytishga hali erta. Eng muhim narsani hali topganimcha yo'q. Tong sukunatida xayol surib qadam tashlab yuribman, hech o'yimning oxiriga yetolmayman. Har gal ham shu kayfiyatda o'tadi. Har gal, suratim hali xayol pardasidan chiqmagan, deb o'zimni qattiq ishontiraman.

Shunday bo'lsa ham, hali alvonga tushmagan suratim ustida sizlar bilan gaplashish niyatim bor. Maslahatlashmoqchiman. Bu suratim ovulimizning birinchi ustozi, qariya Duyshenga bag'ishlanadi, buni albatta bilib turibsiz.

Lekin murakkab hayot, muqaddas kurashni, turlituman taqdir va insонlik hislarini bo'yoqlar bilan ifoda qilish qo'limdan kelarmikin, shu tomonini hali o'zimcha tasavvur qilolmay yuribman. Bu limmo-lim to'la kosani

chayqatmay, bir qatrasini ham zoye ketkazmay siz zamondoshlarimga yetkazishni iloji qanday bo'larkin? Niyatimni sizga yetkazish bilan birga, uni hammamizning ijodimizga aylantirish uchun nima qilsam bo'larkin?

Bu suratni chizmaslikka ilojim yo'q, lekin shuncha o'y-xayollar, andisha-yu, anduhlar meni qamrab olganki! Ba'zan o'ylab o'tirib, bu niyatimni bunyodga chiqarish qo'limdan kelmas, degan umidsizlik meni yengganday bo'ladi. Ba'zan bo'lsa qayoqdan ham taqdir qo'limga rassom qalamini tutqazdi, deb yana bir hayajonga tushaman. Qanday azob, qanday nadomat kunlarga qoldim o'zim! Ba'zan bilaklarimga qon to'lib, o'zimni shu qadar baquvvat his qilamanki, tog'ni tolqon qilish ham hech gap bo'lmay qoladi menga. Shunday kezlarda: razm sol, o'rgan, sarasini sarakka chiqar, deb xayol surib keta-man.

Duyshen bilan Oltinoy qo'shteragini suratga sol, axir, sen bu teraklar qissasini bilmasang ham, yoshililingda senga ozmuncha huzur bag'ishlaganmi! Oftobda unniqib ketgan yalangoyoq bolaning suratini ol. U hola balandga chiqib terak shoxiga o'tirib, uzoq-uzoqlarga zavq bilan ko'z tashlab turibdi.

Yoki bir surat solib, unga «Birinchi muallim» deb nom qo'y. Bunda Duyshen bolalarni qo'liga ko'tarib suvdan o'tkazib turgan bo'lsin-u, qip-qizil pochapo'stin kiygan, semiz-semiz o'ynoqi ot mingan anavi to'pos odamlar xo'rashib, uni mayna qilishayotgan bo'lsin...

Yo bo'lmasa muallimning Oltinoyni shaharga kuzatib turganini tasvirla. Oxirgi marta yuragidan nido chiqarib xayrashgani esingdami? Shu lahzani shunday ajoyib suratga tortginki, surating Oltinoyning qulog'i tagidan hali ham ketmagan Duyshen nidosi singari har bir kishining yuragidan aks sado topsin.

O'zimga-o'zim shunday deyman. O'zimga-o'zim ancha gaplarni ma'qullayman-u, lekin hammasi ham ro'yobga chiqavermaydi-da... Suratim qanday chiqishiga hozir ham ko'zim yetmaydi, lekin bir narsaga qattiq ahd qilganman: izlanaman.

SOMON YO'LI



*Ota, men senga yodgorlik o'rnatalmadim.
Sening qayerga dafn etilganligingni ham bilol-
mayman. Ushbu asarimni, otam To'raqul Aytma-
tov, senga bag'ishlayman.*

*Ona, sen bizni ulg'aytib odam qilding. Se-
ning uzoq umr ko'rishingni tilab, onam Naima
Aytmatova senga bag'ishlayman.*

I

- Omonmisan, qutlug' dalam!
- Shukur. Keldingmi, To'lg'anoy? Bulturgidan ancha cho'kib qolibsan. Sochlaring oppoq, qo'lingda hassa.
- Umr o'tib horyapti, ona-Yerim, oradan tag'in bir yil o'tdi. Bugun mening sig'inadigan kunim.
- Kelishingni bilardim. Kutayotgandim, To'lg'anoy. Bu safar nabirangni ham ergashtirib kelmoqchi emas-miding?
- Shunday edi-yu, lekin bu safar ham yolg'iz keldim.
- Demak, sen unga hali ham hech nima aytmabsanda, To'lg'anoy?
- Yo'q, aytolmadim.
- Ishqilib, ertami-kechmi, axir bir kun u ham eshitadi-da, To'lg'anoy. El og'ziga elak tutib bo'ladi, dey-sanmi?
- To'g'ri aytasan. Ertami-kechmi, axir bir kuni biladi. O'zi ham ulg'ayib, yaxshi-yomonni tushunadigan bo'lib qoldi. Biroq men uchun hali ham temir qanot palaponga o'xshab ko'rindi. Bolalik qilib o'tgan-ketganni to'g'ri tushunolmay, ko'ngli sovib qolmasa deb tash-vishlanaman. Baribir odam haqiqatni bir kun emas, bir kuni bilishi kerak-da. Men bilgan haqiqatni, sirdoshim xosiyatli Yer, sen bilgan va el bilgan haqiqatni hozircha yolg'iz ugina bilmaydi, xolos. Bilganda nima der ekan,

qanady o'y-xayollarga borarkin, gapning tagiga yetolar-mikin? Qanday qilib uning dilini og'ritmay, yoshlidi-nanoq hayotdan ko'nglini qoldirmay, sirimni ayta olsam ekan? Qani endi ikki og'iz so'z bilan bitadigan ish bo'lqa. Keyingi kunlarda faqat shuni o'layman, tun-u kun xayol suraman. Qishda tobim qochib, to'shakda yotganimda ham o'limdan qo'rwmagan edim, ajal yetsa tap tortmay o'limni qarshi olardim. Biroq kunim bitib, ko'zim yumilib ketsa, aytadigan vasiyatimni aytolmay, o'zim bilan go'rga olib ketamanmi, deb yuragimga vahima tushdi. U esi yo'q, buni qaydan bilsin, u tentak, mактабни ham yig'ishtirib qo'yib, yonimdan siljimay qoldi. Onasining xuddi o'zginasi: «Enajon, qayering og'riyapti? Suv ichasanmi, yo doridan beraymi? Ustingni yopib qo'yaymi, enajon?» — deb girdi kapalak bo'lardi. O'shanda tilim bormadi, kuchim yetmadi. Boyqushim, ichida hech kiri yo'q, soddadil norasida go'dak edi. Hech nimadan gumon qilmasdi. Unga nima ham deya olardim. Shularni o'ylarkanman, kalavamning uchini topolmay qiynalardim. Unday qilib ham, bunday qilib ham fikrlarimni taroziga solib ko'rardim: bunarsa jo'ngina so'zlab beradigan jumboq emas ekan-da. Qanchalik o'ylamay, baribir bir fikrga kelib to'xtayman: bo'lgan haqiqatni bola to'g'ri tushunsin deb men unga yolg'izgina o'z taqdirlarinigina emas, balki butun zamonamning tarixini, o'tgan-ketganlar xususida, o'zim haqimda, bariga guvoh bo'lgan, saxovatli dalam, sening haqingda, qolaversa, o'sha kezda hech nimadan bexabar minib o'ynab yurgan velosipedi haqida aytib berishim kerak. Balki shundagina to'g'ri qilgan bo'larman. Turmush hammamizni bir tugunga bog'lab, xamirdek qorishtirib qo'ygan ekan, hech nimani yashirib ham, qo'shib ham bo'lmaydi. Hatto bola emas, keksa kishi ham bu ishni har xil tushunishi mumkin. Ko'zimning ochig'ida shu katta qarzimdan qutulsam, o'lsam armon-siz ketardim...»

— Bu aytganlaring to'g'ri, To'lg'anoy. Qani beriroq kel, mana bu toshga o'tir. Oyoq og'riqsan-ku. O'tir, bir yo'lini qilarmiz. Oldingi safar bu yerga kelganining esingdami, To'lg'anoy?

– Undan beri qancha vaqtlar o'tib ketdi-ku, eslolmayman.

– Yo'q, sen o'sha vaqtlni eslashga bir harakat qilib ko'r-chi, To'lg'anoy. Qani bir boshidan esla-chi.

– Esimda yaxshi qolmabdi. Kichkinligimda, o'rim mahalida, ota-onam yetaklab kelib, g'aramlar tagiga o'tirg'izib qo'yishardi.

– Ha, yig'lamasin deb qo'lingga bir burda non ham berib qo'yishardi.

– Keyin, kattarib qolganimda, el yaylovga ko'chganda, o'sha atrofda ekinlarni ko'rib yugurib yurardim. Unda men g'izillab chopib yuradigan, sochlari to'zigan sariq qiz emasmidim. O', bolalik-ey, uning ham o'zgacha gashti bor ekan! Chorvadorlar hu pastki tomondan Sariq Yoyiq tekisligida chang-u to'zon ko'tarib ko'chib jo'nashar edi. Birining ketidan biri turna qator tizilishib yaylovga, salqin adirlarga oshiqib yo'l olishardi. O'shandagi yoshlik chog'larim-ey! Uyur-uyuri bilan dupurlashib, kishnashgan yilqilar bosib ketgudek bo'lib kelishaversa, bug'doyning ichidan sakrab chiqib, ularni hurkitib yuborardim.

«Ey, yerdan chiqqan alvasti, hap senimi!» – deb yilqichilar uzun tayog'ini ko'tarib meni quvlab yuborishardi.

Necha minglab qo'y tuyoqlari do'l yoqqandagidek dupurlashib o'sha yo'ldan o'tib turishardi. Ularning orqasidan boy ovullarning ko'ch-ko'ronlari o'tib borar, yo'rg'a minib, qip-qizil cho'g'dek kiyangan qiz-juvonlarni ko'rganimda, hayron bo'lib, suqlanib qarab qolardim. Ancha joygacha ularning orqasidan ergashib yugurib-yelib borardim. Qani endi, men ham shunaqa ro'mol o'rabb, shunaqa ko'ylak kiysam, deb orzu qilardim.

– Rost, To'lg'anoy, sen unda yalangoyoq, yalangbosh bir qashshoqning qizi eding. Biroq o'shanday shoyilarni kiymasang ham, bo'ying yetganda oq-sariqdan kelgan, yetilib to'lishgan qanday suluv qiz bo'lding. Sen unda ko'lankangga qarab qadam bosarding. Ayniqsa, erta bilangi ko'lankang xuddi o'zingdek xushbichim bo'lardi.

– O'shanda men o'n yetti yoshlarda edim. O'sha yili o'roq o'rib yurib Suvonqul bilan uchrashmaganmidim. Suvonqul bu yerga Tolosning yuqori yog'idan yollanib

kelgan edi. Hozir ko'zimni yumsam xayolimda Suvonqulning o'sha vaqtdagi qiyofasi gavdalanadi. Yoshgina, o'n to'qqiz-yigirmalardagi yigit, o'zi xipcharoq ko'rinsa ham, qo'llari paydor, temirdek salmoqli edi. Chakmonini doimo yelkasiga tashlab yurardi. Yoningda sheringing o'roq o'rib yursa, kishining qalbini quvontiradi: har ishning qiyomini keltirib ishlaydigan azamatlar bo'ladi-ku, Suvonqul shundaylardan edi. U tezda o'zib ketar, men ham o'roqqa chaqqon edim, shundayam ortda qolib ketardim. Suvonqul qaytib kelib, mening tegishimdan o'ra boshlaganda izza tortardim: «Sizni birov yordamga chaqirdimi? Taltaymang, keting bu yerdan, o'zim ham bitiraman!» – desam kulib qo'yib, indamay ishlayverardi, o'shanda nimadan orlangan ekanman? Endi bihsam, erkalangan ekanman...

– Sizlar o'shanda ishga doim elning oldi bo'lib kelardilaring, To'lg'anoy.

– To'g'ri. El uyg'onmay, g'ira-shira tong yorishganda Suvonqul bilan ikkimiz birin-ketin ishga ketardik. U meni berigi tomondan qarshi olardi. O'sha kunlar, o'sha ajoyib tong otishlar bizning sevgi kunlarimiz ekan. Birga-birga kelayotganda dunyo boshqacha ko'rinish, boshqacha sezilardi. El-yurtga non bergen jonajon dehqon dalam, bo'sharib-sarg'ayib yotsang ham, oppoq tonglarni dengizdek toshib, quchog'ini senchalik ochib, senchalik o'rtanib kim kutib olardi! O'sha tonglarni senga hamroh bo'lib biz kutib olardik, o'sha tonglarni senga hamroh bo'lib to'rg'ay kutib olardi. Ko'rim sizgina bo'z to'rg'ay osmonda betinim qanot qoqib pirpirab, go'yo odamning osmonda uchib yurgan yuragi kabi bir nuqtadek bo'lib ko'rinsa ham, qanchalar nozik, qanchalar kishi dilini to'lqinlanuvchi qo'shiqlar to'qib, zorlanib sayrar edi. «Ana bizning to'rg'ay sayradi!» – deb qo'yari edi Suvonqul. Qiziq, to'rg'ayni ham o'zimizni qilib olgan ekanmiz. Xushovoizingdan aylanay, to'rg'ayim...

– Rost, To'lg'anoy, o'sha to'rg'ay sizlarning to'rg'ayingiz edi.

– Esingdami, Yer, o'sha oydin kecha? Balki, tabiatda, ikkinchi bor unday tun bo'lmas. Oy yorug'ida o'rog o'ramiz deb Suvonqul ikkalamiz qolib ketmaganmidik.

Hu ufq ortidan kumushrang oy ko'tarilganda, yulduzlar ham osmon uzra birin-ketin ko'z ochishdi. O'shanda biz uvat chetida Suvonqulning tor chakmonini ostimizga solib, ariq qiriga bosh qo'yib cho'zilib yotganimiz. Shu kecha biz umr bo'yi yo'ldosh – ajralmas yor bo'lib qovushdik. Suvonqul cho'yandek qo'li bilan kokilimni silab, manglayimdan, yuzimdan erkalatib siypaganda, uning qoni jo'shib urayotgan qalbining harorati kaftidan sezilib turardi. Men unga erkabalab: «Suvon, nima deysiz, biz baxtli bo'lamizmi, a? – desam, esingdami o'shanda aytgan gaplari: «Yer-suv elga teng bo'lsa, bizning ham ekin ekadigan yerimiz bo'lsa, biz ham el qatori yer hay-dab, ekin ekip, xirmon ko'tarsak, bizning baxtimiz o'sha. Bizga bundan ortig'ining nima keragi bor, To'lg'an. Dehqonning ulushi ekkan ekinida» – demaganmidi. Uning aytgan so'zlariga nima uchundir behad quvonib ketib, bo'ynidan mahkam quchganimcha, lablaridan jontanim bilan o'pdim... So'ngra ariqdagi suvga cho'milib chiqdik-da, yana o'z o'rnimizga kelib, qo'l ushlashib, jimgina osmonga qarab, rohatlanib yotdik.

Yer, sen ham o'shanda sokin oydin tunda salqin tortib, bizga qo'shilib yayrab yotding. Garmsel esganda shirin asal hidi shiroljin bilan ermanning xushbo'y hidiga aralashib bug'doyzorga taralardi, bug'doyzor shuvullab, boshqqlarga tushgan oy nuri oltin ko'ldek chayqalib yotardi. Yoki o'sha tunni tabiat bizga ataylab shunday holda baxsh etdimikin? Yarim kechasi yulduzlar to'dasiga qarasam, somon yo'li olamning u boshidan bu boshigacha yoyilib yotgan payti ekan. Suvonqulning aytganlari esimga tushib, xayolimda osmonning o'sha kumush yo'li bilan qandaydir azamat bir dehqon katta quchoq somon ko'tarib o'tgan-u, go'yo uning ulkan qulog'idan sochilib tushgan don, to'pon baraka to'kib iz qoldirib ketgandek edi. Orzumizga yetsak, mening ham Suvonqulim shunday somon ko'targan dehqon bo'lsa, xirmonning betidan birinchi sovurib olgan somonidan quchoq to'ldirib yo'lga tushganida, xuddi o'shanday baraka to'kilgan yo'l solib o'tsa, deb o'ylanib yotdim. Ona-Yerim, birinchi marta senga o'shanda gapirdim. Esingdami mening aytganlarim?

— Esimda, To'lg'anoy? Sen o'shanda menga yuzlanib, bunday degansan: «Yer, jon ato etgan Yer, bizni ko'tarib yurgan Yer, sen bizga baxt bermasang, nega Yer bo'lib atalgansan, biz nechun dunyoga kelganmiz! Biz sening bolalariningiz, Yer, tilakdosh bo'lgin, orzuniyatimizga yetkazgin!» — deb aytgansan, To'lg'anoy.

— Ha, shunday deganman. Kun chiqar paytda ko'zimni ochsam, Suvonqulim yonimda yo'q. U allaqa-chonlar turib, o'roq o'rib yotgan ekan. Qachon turga-nini bilmayman, rosa qiyaratib tashlabdi; bug'doy poyada bog'-bog' bug'doy uyulib yotibdi.

«Hoy, Suvonqul, bu nima qilganingiz?» — dedim. U kafti bilan terini artib: «Seni uxlasin degandim» — deb kulib qo'ydi. Men uning bu ishidan biroz o'pkalab: «Kechagi gaplaringiz qani, shu ham teng sheriklik bo'libdimi?» — desam, u o'rog'ini tashlab, yugurib me ning oldimga keldi-da, quchoqlab qo'lida ko'targancha: «Ko'zingdan aylanayin, To'lg'an, ko'zingdan o'rgilib ketay, teng sherikmiz, bundan buyon yaxshi, yomonning bariga sherik bo'lamiz!» — dedi. Shu zaylda meni qo'lidan qo'ymay, erkalatganicha allanarsalar haqida gapirdi, men bo'lsam xursandligimdan kulardim. Bir vaqt qarasam, meni ko'taganicha tepalikka yugurib chiqdi da, ko'tarilib kelayotgan quyoshga qarab: «Ey quyosh, ko'rdingmi? Ko'rdingmi mening jononimni! Mana, mana, ko'rib ol, ko'rmanangni ber, bergin suyunchingni ayamay!» — deb qichqirdi. Hazilimi, chinimi — bilmay man, men o'shanda yig'lab yubordim, qalbim quvonchga to'lganidan o'zimni tutolmay anchagacha entikib-entikib yig'lardim...

— Qo'y, To'lg'anoy, endi yig'lashing yaxshi emas. U yig'i boshqacha yig'i edi, odamning umrida unday yig'i bir martagina bo'ladi. Endi nimaga yig'laysan. Yig'lama, yoki tilaklariningga erisha olmadilaringmi? Aytchi, to'g'risini, sizlarchalik kim baxtli bo'loldi?

— Gaping to'g'ri. Yangi zamonda Suvonqul ikkimiz ham o'z mehnatimiz bilan voyaga yetdik. Bilasan-ku, qish-u yoz demay qo'limizdan ketmon tushmadi. Mehnatimiz zoye ketmadi — uyli-joyli bo'lrik, mol-hol orttirdik. Tilagimizga yetib, uch farzandli bo'lrik. Ha, birin-ketin uch o'g'il ko'rdik. Hozir ba'zan o'ylab o'tirib

xayolimga shunday mudhish fikrlar keladi: nima uchun yil sayin qo'yga o'xshab tug'averdim ekan? Odamlarni kidek oralaridan uch-to'rt yil o'tganda, balki, bunday falokatdan chetda qolisharmidi. Balki, butunlay dunyoga kelishmaganda nima qilardi! O', sho'ring qurg'urlar... Aylanib-qoqinib ketaylarim, so'zimni og'ir olmanglar, kechiringlar, kechiringlar onalaringni! Yuragim tutaqib, o'lib yotganidagi gapim-da! Qanday qilay endi...

— To'lg'anoy, esingni yig'... So'zingni qaytarib ol. U bolalarga shak keltirma. Ularni men tirnoqdayligidan ko'rib-bilib yurdim-ku. Ularning bosib ketgan izlari ko'rinnmagani bilan, mening ko'ksimda muhr bo'lib saqlanib qolgan, To'lg'anoy. U uchala og'a-inilarni sizlarning farzandlaringiz ekanini Suvonqul bu yerga birinchi marta traktor haydab kelganda bildim.

— Ha, ha xuddi o'shanda. Suvonqul o'sha yili qishi bilan suvning narigi tomonidagi katta qishloqdag'i traktorchilar kursiga qatnab, traktorchilikni o'rganib yurdi. Unda traktorni kim bilsin. Suvonqul uyga kechikib kelganda qayerdag'i bir bo'lmag'ur ishlarga o'ralashib yuribsiz, undan ko'ra burungi brigadirligingiz yaxshi emasmidi, el qatori tirikchililingizni qilsangizchi, deb urishib ham ketardim. Shunday desam, yana kulib qo'yib: «Traktorni sen o'yinchoq bilib yurganga o'xshaysan. Shoshma hali, To'lg'an, yozda haydab kelganimda bilarsan» — der edi. Daladan sovqotib charchab kelganini ko'rib, «Ke, qo'y endi» — deb ayar edim. O'ylab ko'rsam, Suvonqul ishning ko'zini bilib yurgan ekan. Traktorchilar o'qishiga ovuldan savodli biron kimsa chiqmaganda, Suvonqulning o'zi men boraman savodimni ham chiqaraman, deb brigadirlikdan bo'shab olgandi. U kezlarda Qosim bilan Maysalbek maktabga qatnab yurishardi. Otasiga o'shalar muallimlik qilishdi. Kechqurun uy ichimiz bilan ovoramiz. Suvonqul yerga bag'rini berib yotib olib, yozishni o'rganganda, uch o'g'li uch tomonidan o'rgatib, ota, bunday qilib yozing, qalamni bunday ushlang, qo'lingizni qaltiratmang, to'g'ri yozing, deb g'ujurlashib yotar edi. Suvonqul ketmon chopgandan battar qora terga tushib ketardi. O'zimni tutolmay kulgim kelardi. «Qo'ysalaring-chi,

bolalar, otalaringni joniga tegmay, mulla qilmoqchimisizlar uni? Suvonqul, joningizni buncha qiynamay, yo mullalikni, yo traktorni o'rgansangiz-chi» desam, xo'rsinib qo'yardi. «Hammadan ham seniki o'tib ketdi-ku. Traktorni o'rganish uchun anchagina mullalik kerak ekan-da. Masxara qilaverma!» Haytovur, shunday qilib yurib, oxiri maqsadiga yetdi.

Ilk bahor, endigina tuproq ko'pchib qolganda ovulning chetidan dukurlagan ovoz chiqib, allaqayerdan hurkkan yilqilar ko'chani qoq yorib, pishqirib, to'pi bilan chopib o'tishdi. Nima bo'lдиykin, deb eshikka chopib chiqsam, chorborg' etagida traktor kelayotgan ekan. Qop-qora cho'yan mashina tutunini burqsitib, bahaybat g'ildiraklari bilan yerni o'yib, gumburlatganicha tobora ko'chaga yaqinlashib kelaverdi. Uning atrofidagi xalqni ko'rsang, yosh-u qari demay, butun ovul chuvullab, chopqillashib yurishardi. Odamlarga qo'shilib men ham yugurib yetib bordim. Qarasam, uchala o'g'lim bir-birini mahkam ushlashib, traktor haydayotgan otasining yonida kelishardi. Turqlarini ko'rsang, yovni yengib kelayotgandek, ko'zları chiroqdek chaqnab, yuzlaridan nur yog'ilardi. O'zlarida yo'q xursand bo'lib, gerdayib, maqtanishib kelishayotgan ekan. Ular o'sha kuni ertalaboq ko'priq tomonga chopib ketishgan ekan, menga aytishmabdi ham, yubormay qo'yadi, deyishgan bo'lsa kerak. Bolalarga esim og'ib, biron nima bo'lib qolmasin, deb:

— Qosim, Maysalbek, Jaynoq, ha senlarnimi! Tushinglar! — deb qichqirmsam, traktorning gurullahidan o'z tovushimni o'zim ham eshitmay qoldim. Suvonqul mening nima deganimni tushundi shekilli, qo'rhma, degandek kulimsirab qo'li bilan ishora qilib qo'ydi. Uning ham quvonchi ko'ksiga sig'may suyunib kelardi. Suvonqul o'shanda yoshgina, qora murt yigit edi. E, Xudoyo, bolalarning otasiga shunchalik o'xshash ekanligini o'shanda sezsam bo'ladimi. To'rttalasi ham birga tug'ishgandek. Ayniqsa, Qosim bilan Maysalbek xuddi Suvonqulning o'zginasi — quyib qo'ygandek edi. Kenjam, Jaynog'im bo'lsa, menga o'xshashroq, oq-sariqdan kelgandi.

Traktor shu bo'yi ovulda to'xtamasdan to'g'ri dalaga chiqib ketdi. Hammamiz birdek: otliq ham, piyoda ham uning ketidan qolmay ergashib kelyapmiz, hammadan qiziqtirgan narsa – traktorning yer haydashi edi. Traktorning uch qator tishi yer bag'rini yorib, chimlarni kesib-ko'porib yurib ketganda odamlarning bari chuvullab, «Balli-ballı!» deyishib, hurkib tisarilgan otlariga qamchi bosib, uning ketidan birga yura boshladı. Nima bo'lib ko'pchilikdan ayrılib qolganimni bilmayman, bir vaqt qarasam, yolg'iz o'zim qolibman. Traktor borgan sari uzoqlashib boryapti – men bo'lsam jimgina orqadan javdirab qarab turibman. Biroq o'shanda yer yuzida menchalik baxtli kishi bo'limgandir, sevinchim cheksiz edi. Suvonqulning ovulga birinchi marta traktor haydab kelganigami, yo farzandlarimni shunday ko'zga ko'rinishib, dastyor bo'lib qolishganigami – qaysi biriga ko'proq suyunishimni bilmay, yolvordim: «Qatorlashib o'tirgan bo'y-bastilaringdan aylanaylarim! Ilohim otangiz-dek odam bo'lsangizlar roziman, o'shanda roziman taqdirimga!» – deya takrorlardim.

– Ha, To'lg'anoy. Ona bo'lib, onalik lazzatining eng shirin damlarini o'shanda totgan eding. Sen unda to'lib-toshgan, kuch-quvvatli ayol eding. Ishda ham yoshlardan qolishmas eding.

– Tani joning sog' bo'lsa, ishlaganga nima yetsin. Qolaversa, chindan ham baxtim yor bo'lgan ekan. Birga o'sgan teraklardek o'g'llarim er yetib, har biri o'z yo'llarini topib qolishgandi. Qosim otasiga tortdimi, traktor haydayman deb yurib, traktor haydab, keyin kombaynchilikni ham o'rganib oldi. Bir yoz kombaynda shturvalchi bo'lib, suvning narigi betidagi «Qayindi» kolxozida ishlab yurdi. Keyingi yili yana o'zimizning ovulga kombaynchi bo'lib keldi. Ona bechoraga bolalarining bari birdek aziz, albatta. Shunday bo'lsa ham o'rtancha o'g'lim Maysalbek bilan ko'proq faxrlanardim. Ehtimol, sog'inib yurganimdandir, uyasidan erta uchgan palapondek, Maysalbegim uydan erta ketmadimi. U yoshligidanoq muktabda yaxshi o'qimasimdi. Kitobga juda o'ch edi, kitob deganda mukkasidan ketardi. Shunday qilib yurib, muktabni bitirgan zahoti, muallim-

likka o'qish uchun shaharga ketmovmidi. Kenjatoyim, Jaynoq esa, o'taketgan qiziqchi, ochiq-sochiq yigit bo'lib o'sdi. Uyda turish yo'q edi unda. Komsomolning kotibaiman, deb, yoshlar qayerda bo'lsa: majlisdami, o'yindami, to'garakdami, devoriy gazeta chiqarishyaptimi – bu ham o'shalar bilan birga o'sha yerda bo'lardi. Goh jinim qo'zib: «Hay, sanqi, garmoningni ham, to'shagingni ham olib, bирyo'la kolxoz idorasiga ko'chib bora qolsang-chi. Senga uy-joyning ham keragi yo'qqa o'xshaydil!» – desam, Suvonqul o'g'lining tarafini olardi. «Urishma, onasi, ko'pchilikning yumushi. Bekor yurgan bo'lsa, o'zim ham tizginini tortib qo'yardim» – der edi. Suvonqul o'sha kezlarda tag'in brigadirlik qilayotgan edi. Chunki traktorni endi yoshlar hayday boshlamaganmidi.

Ko'p o'tmay kelinlik ham bo'ldik. Qosim «Qayindi»da ishlab yurganda bir-biriga ko'ngil qo'yib qolgan bo'lsa kerak, Alimanni o'sha yoqdan olib kelmadimi. Ko'hlikkina, xipcha belli, yoshgina qiz ekan, eng avval boshdan unga mehr qo'yib, o'z bolamdek ko'rib qoldim. Kelin aqli bo'lsa, o'z bolangdek bo'lmay nima bo'lardi. Rostini aytish kerak, kelinim yomon chiqmadi. Shuning o'zi oilaning katta rizqi-ku. Hozir o'ylab qarasam odam boshiga davlat qushi qo'nganda, odamning o'z fe'li atvordan, oilaga, el-u xalqqa qilgan muomalasidan bir-biriga ularshib, unib-o'sib, ko'payishib haxt uchib kelar ekan-da. Shunday topilgan tole qadr-qimmatli bo'larkan. O'z qoningdek – to'kilsa, jon bergen bilan barobar ekan.

Aliman kelgan yili – unutilmas yil, esdan chiqmas yoz bo'ldi. O'sha yili ekinlar juda erta pishib berdi. Soydag'i katta suv ham har yilgidan erta to'lib-toshib oqdi. Ikti-uch kun surunkasiga yoqqan yomg'ir tog'dagi qorlarni darrov eritib yubordi shekilli, daryoning rangi buzilib, hademay seldek toshqinlab bostirib keldi. Es-kidan qalqib turgan orolchalarni bir kechada yamlab, yuvib ketsa bo'ladimi.

Shunga qaramay, ob-havo o'ngidan kelib, bir tekisda isib turdi. Yetilib qolgan bug'doylar sarg'ish tortib yer yuzini qoplab, etagi ufqqa tutashib ketgan qirlardagi

ekinlar pishib berdi. O'shanda bizlar qo'lga o'roq tutib ishga kirishib ketdik. Maydon chekkalarini o'rib, kombaynga yo'l ochdik. «Endi kelining bilan bellashmay, uyda rohat qilib o'tirsang bo'lmaydim!» – deyuvchilar ham yo'q emasdi. Bu so'zlarga men parvo qilmasdim. Qo'lidan kelsa, el qatori ishlaganga nima yetsin. Kelnim ikkalamiz birdek o'roq o'rib yurdik. O'sha kunlardagi xotiralar hech qachon esimdan chiqmaydi. Aliman bug'doyzor chekkasida o'sib turgan gulxayridan bir dasta terib olib, bir vaqt qarasam, mendan uyalinqirah bug'doyzor orasidan jimgina ketib borayotgan ekan. Bu nimasi, qo'lidagini nima qilar ekan, deb tursam, yo'l yoqasida turgan kombaynga yaqinlab bordi-da, guldastasini kombayn zinapoyasiga qo'ya solib, yana yugurib keldi. Kombaynda odam qorasi ko'rinasdi. Qosim qayoq-qadir ketgan ekan. U erta-indin o'rimga tushamiz deb kombaynni shaylab qo'ygan edi. Alimanning bu ishiga ich-ichimdan quvonib, Xudo xohlasa ikkalasi ahil yashab ketishar ekan, deb kelinimdan ko'nglim tasalli topdi. Alimanning o'shandagi qiyofasi hali ham ko'z o'ngimda: boshida qizil durra, egnida oq ko'ylak, xushbichim nimcha, qo'lida gulxayri ushlagan, o'zi qoramag'izdan kelgan, shahlo ko'zları chaqnagan suluv kelinchak emasmidi. O', ajoyib kelnim! Gulga maftun kelnim. O'ziyam gulga ishqiboz edi, erta ko'klamda qor ostidan bo'lsa ham boychechak terib kelardi... Esim qursin, niman gapirayotgan edim. Ha, ha, o'sha kunning ertasiga o'rim boshlanib ketmadimi.

Yig'im-terimning birinchi kuni o'zgacha bir bayram emasmi. Shuncha yurib o'sha kuni qovog'i solingan bir kimsani ko'rmadim. Bu kanni hech kim bayram deb atamasa ham, har kimning ovozida qandaydir quvnoqlik, yurish-turishda ham, haydagan aravasi, mingan oti, qilgan ishi – hammasi-hamasida birdek quvnoqlik, to'g'risini aytganda, o'rimning dastlabki kuni hech kim ishlab yolchitmadni. U kuni o'yin-kulgidan, hazil-mazax gaplardan qo'l bo'shamaydi. Ayniqsa, o'roqchilar orasida qiziq bo'ladi, unda yoshlari, qiz-juvonlar ko'p emasmi. Tomosha o'shalarda. Qosim MTSdan mukofotga olgan velosipedini minib ertalab kombayni oldiga ketayotgan

edi, bir to'da sho'x juvonlar uni tutib olishdi. «Nega sen velosipedingdan tusha solib, bizga salom bermaysan? Sen gerdayib qolibsan! O'roqchilarni ko'zga ilmay qolganga o'xshaysan!» – deyishib, Qosimni har tomondan tortishib, Alimanga bosh egib kechirim so'ratishsa bo'ladimi. Qosim bu bilangina qutulolgani yo'q. «Qulluq qildim, qulluq qildim!» – deganiga qaramay, sen endi bizni velosipedingga mindirib, xuddi o'ris qizlardek sayr qildirasan, deyishib, bir-birlarini velosipedga ko'tarishib mindirishib, orqasidan qiy-chuv ko'tarib yurishib Qosimni rosa ovora qilishdi. Shunda ham velosipedda jim o'tirishmay, o'ynashib: «Voydod, akajon, o'ldim, endi o'ldim, yiqildim, voydod!» – deyishsa, boshqalarining ichagi uzilgudek bo'lib: «O'lsang o'l, o'lsang ham bo'ynidan quchoqlab yiqill!» – deyishib dalani boshlariga ko'tarib kullahardi. Shunday qilib, Qosimning jig'iga tegishardi. Uning o'zi ham kulgidan mast bo'lib, bo'ldi endi, deb birini aylantirib kelsa, yana biri tegajaklik qilib unga osilishardi: «Ha, mening undan nimam kam? Burnim puchuq, ko'zim qiyshiqmi?» – deyishib joni-holiga qo'yishmasdi. Oxiri Qosimning ham jini qo'zirdi: «Hoy, sizlar nima balo, quturdinglarmi? Och kanadek yopishasizlar-a? Bas endi. Masxarabozlik qilgani kelganmisizlar yo ishslashgami?» Shaddot kelinlar shunda ham bo'sh kelmay: «Anovini qaranglar! Ishni sen qilasan, hukumat kombaynni nimaga, chiqarib qo'yibdi!» – deyishardi.

Yoshlargina emas, nariroqda turib bu o'yin-kulgiga biz ham rosa qonardik, kulaverib ichaklarimiz uzilardi. Ho, o'shandagi musaffo osmon! O'shandagi quyoshning porlashi, o'shandagi donli boshqolar, o'shandagi elning kulgisi!..

– Ha, To'lg'anoy. O'sha kuni xuddi shunday bo'lgan edi. Sen o'sha kuni o'z toleyingni yanada chuqurroq tushunib, menga siringni aytganding.

– Men hozir ham shuni aytmoqchiman. Hozir ham o'sha fikrimdan qaytmayman. Hozir ham o'sha kunlarni tunganmas jumboqdekk gapirib beraman.

Tez orada o'roqchilar ishga kirishib, adirda ish qizib ketdi. Saraton avjiga minib, quyosh seli qaynardi. Qalbim ertalabki quvonchdan talpinib, ruhim shod-

lanib, mayin shabadadan lazzat olgandek rohatlanardi. O'sha kungi quvonchlarning barchasi men uchun, mening toleyim uchun ato qilingandek tuyulardi. Ko'zim ko'rib, qulog'im uqqanning hammasi borliqni, hayot go'zalliklarini ohib, orom baxsh etardi. Bir tomondan o'roqlarning jarangi, bir yondan shovullab to'kilayotgan bug'doylarning yoqimli ovozi eshitilib tursa, nariyoqda Qosimning kombayni toshqin suvdek gurkirab «Mehnat qo'shig'i»ning yangicha kuyini kuylayotgandek, bug'doyni shipirib o'rmoqda edi. Kombaynda o'tirgan Qosim sharsharadek quyilib tushayotgan bug'doya kaf-tini tutib bir hovuch donni yuziga yaqinlashtirib hidla-ganda, o'zim ham bir qop semirib ketgandek bo'ldim: yangi donning hididek yoqimli hid hormikin!

— E-ey, aravakash, ertaroq bo'll! — deb Qosim tog' tepasida turib jar solgandek qichqirgan edi, darhol arava yetib kelishi bilan kombayn to'xtadi, Aliman: «Suvini eltib berayin!» — deb ko'zani olganicha Qosim tomonga yugurdi. Bug'doyzor oralab oq ko'yak, qizil durrali Aliman yugurib horar ekan, qo'lida ushlagani ko'za emas, go'yo yuragini tortiq qilib ko'tarib borayotgandek, sevgan yoriga butun borlig'i bilan berilganligi uning barcha harakatlaridan sezilib turardi. «Hoynahoy, Suvonqul ham chanqab qolgandir» — degan xayol bilan yon-verimga qarasam u ko'rinsmasdi. Qaydan ko'rinsin, o'rim boshlangandan keyin brigadirda tinim bo'larmidi. Ertadan kechgacha otdan tushmay dala aylanib yurgani yurgan.

Kechki payt o'roqchilarga atalgan yangi bug'doy noni ham tayyor bo'ldi. Yangi nonga birinchi bo'lib o'roqchilarning og'zi tegishi ilgaridan qolgan rasm emasmi. Biz u nonning unini anhorning chetidan o'rib olingen bug'doylardan tuyib tayyorlashgan edik. Yangi bug'doyning noniga og'zi tekkanda har qachon xosiyatlitaom totgandek bo'laman. Ko'rinishda qora bo'lsa ham, xamiri yumshoq yo'g'rilgan yangi non uncha ko'pchib pishmagani bilan uning dumbul ta'miga va quyosh, yer, tutun anqigan tansiq hidiga nima yetsin!

Qorni ochgan o'roqchilar ariq bo'yiga yig'ilishish-ganlarida, quyoshning otash nafasi so'nib, ufq sari bosh

qo'ygan edi. U kungi oqshom odatdagidan yorqin va uzoqqa cho'ziladigandek tuyulardi. Biz uy ichimiz bilan olachiqning sirtidan o'rinn oldik. Suvonqul hadeganda kelavermadidi. Jaynoq esa eski odaticha yana yo'q, aka-sining velosipedini minib, Qizil uyg'a varaqal ilmoqchiman, deb shoshilib ketgandi. Aliman boshidagi durrasini yerga yozib qo'yib, uydan olib kelgan olmalarni sochib tashladi-da, kosalarga achitma quydi. Kombaynni to'xtatib, ariqdagi suvga qo'lini yuvib kelgandan so'ng, Qosim ham kelib o'tirdi. U charchoq holda sekin non ushatar ekan:

— Issiqqina ekan hali ol, opa. Yangi bug'doyning nonini birinchi bo'lib tatib ko'r, — dedi.

— Bismillo, — deb nondan oldim-u, chaynayotib allaqanday bir yangi ta'm, yangi hidni sezdim. U hid — kombaynni qo'lining hidi — somon, qoramoy, temir ushlagan qo'llarning hidi edi. Nonning har bir to'g'ramidan o'shanday kerosin hidi ham kelib turardi, biroq umrimda shunchalik mazali non yemagan edim, chunki u nonni o'g'limning mehnatkash qo'llari ushatib bergen edi, u non ko'pchilikning noni, shu davrada to'planishib o'tirgan kishilarning topgan noni edi. Shu choqda men onaning kim ekanligini, uning baxti bami-soli bug'doyning unib chiqqan poyasi bo'lsa, uning tubtomiri yer bilan chirmashgandek, elning, ko'pchilikning baxt-u saodatidan ajralmas ekanini o'yladim. Ha, men hozir ham o'sha ishonchdaman. Mayli, bu bechora boshimga nimalar tushmadi... El-yurt bor ekan — hayot ham bor...

Shu asnoda Suvonqulni kutaverib kech ham kirdi. Yoshlar u yoqdagi suv bo'yiga borishib, jar yorqasida lovullagan gulxan yoqishdi, qo'shiq ayta boshlashdi. Ularning orasida qiyog' chalib baland tovush bilan qo'shiq aytgan Jaynoqning tanish ovozi qulqoqqa chalinar edi: «Ovozingdan o'rgilay, yoshligingda sayrab qol, tengqurlar bilan jo'r ovoz bo'lib aytilgan qo'shiq, ko'ngilni ochib, odamlarni bir-biriga yaqinlashtirib inoqlashtiradi», — deb tinglab o'tirdim. Axir onaman-

¹ *Qiyog'* — skripkaga o'xshagan cho'lg'u asbobi.

da, ona! Fikri xayolimda bolalarim, ularning kelajagi bo'lardi, «Qosim-ku odam bo'lib qoldi, – deb o'ylardim o'zimcha. Yoz chiqishi bilan kelinchagi ikkovi alohida uy-joy qurib ketishadi. Mehnatkashligi ham xuddi otasining o'zi, qorong'i tushib qolsa ham kombayn, traktorning chirrog'ini porlatib, dalada bug'doy o'rib yurgani-yurgan edi. Aliman ham qavatida, ish vaqtida bir dam birga bo'lish ham ular uchun g'animat emasmi. Maysalbeginni o'ylaganimda sog'inganimdan ko'zimga jiqla yosh kelardi. O'tgan juma kuni xat yozib, unda bu yil yozda uyga borolmasam kerak, o'quvchilar la-geriga boshliq bo'lib Issiqko'lga jo'nayapman, debdi. «Mayli, shu kasbni sevgan ekan, qayerda bo'lsa ham omon bo'lsin» – deb duo qilardim.

Suvonqul kelib ovqatlanganidan so'ng, tunda ovulga qaytdik. Ertalab mol-holga qarashi kerak edi, kechqurun esa ularga ko'z-quloq bo'lib turishni qo'shnik Oyshaga tayinlab kelgandim. U bechora kasalmand bo'lib, bir kun sog' bo'lsa, bir kun kasal bo'lib ishga chiqolmas edi.

Biz otga mingashib kelayotganimizda, tun mudrab, dala osuda edi. Mayin esgan shabada qorong'ida shitirlab, o't-o'lanlar boshini yalab o'tar, oy shu'lasida chay-qalgan bug'doyzorlar mavjlanib, ko'lankalarini o'ynatar va toliqqan yer uyquga ketgan edi. Olisda oqqan soy sharqirab, go'yo uning beshigini tebratayotgandek tuyulardi. Bug'doyzor ichida esa chigirtkalar chirillar edi. Tabiatning bu sukunatli damlari qandaydir o'tgan-ketganlarni yodga solib, allanimalarni eslatib, yurakni zoriqtiradi. Suvonqulning belbog'idan mahkam ushlab, mingashib kelyapman. U meni, oldinga o'tirishni taklif etsa ham, unamay, har doim shunday orqada mingashib yurishni yaxshi ko'rardim. Otni ba'zan yo'rg'alatib, ba'zan yo'rttirib borayotgan Suvonqulning jimgina keli-shi ham, uning kansuxanligi va egarda horg'in holda o'tirishi ham men uchun jondan aziz edi. «Ha, boyaqishim, umr o'tib, qarib boryapmiz, har qalay umrni zoye ketkazmaganga o'xshaymiz. Hayot shunday ekan – ikkalamiz go'yo kechagina qo'shilgandaymiz-u, buni qara, qancha vaqtlar o'tib ketibdi. Shunday bo'lsa ham

hayot qanday shirin, hali ham qalbdagi orzu-umidlar tugamaydi» – deb o'ylab kelayotib, boshimni ko'tarib osmonga qarasam, yuragim «shuv» etib ketdi: somon yo'li xuddi o'sha vaqtdagidek osmonning u boshidan bu boshiga cho'zilib yotgan ekan. Chindan ham osmon gumbazi bo'ylab tungi yulduzlar orasidan qandaydir bir alp dehqon xirmondan bir quchoq somon ko'tarib o'tgan-u, yo'lda to'kilib qolgan to'pon ko'zga aniq ko'rinih turgandek. Xatto sochilib yotgan somonni shamol o'ynatayotgandek, miltirab uchgan mayda uchqunlar yalt-yalt qilib tovlanib yotardi. «Voy, tavba!» – deb yoqamni ushладим. O'sha tun, o'sha yoshlik kezлari yarq etib ko'z o'ngimga keldi. O'ylab qarasam, o'shandagi orzu-niyatlarimizning hammasi ro'yobga chiqmadimi? Ha, yer-suv elniki bo'lib, ko'p qatori biz ham qo'sh haydadik, ekin ekip, xirmon ko'tarib, tilagimizga yet-dik. Zamon o'zgarib, bunday baxtli kunlar kelishini o'shanda kim bilsin, haytovur, yaxshi niyat – yarim mol, deganlaridek, ko'pning niyati yerda qolmas ekan-da, dedim o'zimcha. Shunday xayollarga herilib, jimgina ketayotganimda Suvonqul yalt etib orqasiga qayrildi: «Nima, uxlab qoldingmi deyman, To'lг'anoy? Gapir-maysan? – dedi. – Men ham bugun rosa charchadim. Hozir uyga yetamiz. Yoki yangi ko'cha bilan burilib ketaylikmi?» «Burila qolaylik», – dedim men.

Yangi ko'cha deganimiz ovulga kiraverishdagi yo'l bo'yida edi. U ko'cha bo'lib ko'cha ham emasdi, o'sha yili ko'klamda uy quradigan yoshlarga uchastka berilgan edi. Qosim bilan Aliman ham yangi ko'chaning boshidan yer olishgandi. G'ishtlarni asta-sekin uch kishi bo'lib quyishib, terib, poydevor o'rnini ham qazib qo'yishgandi. O'tgan haftada ikki kun soydan tosh terib, uyning o'rniga tashib keltirishgandi. Biz o'shani ko'rishga burildik, bundan buyon o'roq mahalida kunduz kunlari osonlikcha go'l bo'shaydimi, uyulib yotgan katta tepa toshlarni ko'rib, Suvonqul bolalarning ishidan xursand bo'ldi: Ko'ngling to'q bo'lsin, onasi, tosh bemalol yetib ortadi, molxonalik tosh ham ortib qolar, – dedi u. – Yig'im-terimni tugatgandan keyin, yopirilib, devorini ko'tarib, ustini «yopib olamiz-u, qolganini kelgusi

yozda bitkazamiz. To'g'rimi, To'lg'an?» «To'g'ri, ustini yopib olsak, qolganini ham omonlik bo'lsa bitkazamiz. Jaynog'imiz shoshib, o'pkasini qo'ltilqlab qolibdi. Bu ko'cha Yoshlar ko'chasi atalsin deb qaror chiqardik, deydi. Aliman yangasi bo'lsa uni mazax qilib kulib: hoy kichkina bola, tug'ilmagan bolaga eldan burun ot qo'ygandek, yalang'och yerga nom izlab ovora bo'lib yurgandan ko'ra, oldin uylanib, joy-poy qilib, ko'cha qursang-chi, ko'chaga nom qo'yish qochmas-ku, desa, Jaynoq ham bo'sh kelmay: yo'q, siz to'g'ri tushunma-yapsiz, deb talashib-tortishib ketdi».

Suvonqul mening bu so'zimga kulib qo'yidi: «U qurmagurni qanchalik shoshqaloq deyishmasin, ammo ko'chaning nomini to'g'ri topibdi. Mana bu qurilayotgan uylarning hammasi yoshlarniki-da, hammasi o'sib kelayotgan yosh avlodniki. Elning o'z-o'zidan o'sib-unayotgani uchun, ovulimizga sig'ishmay yangi qishloq quryapmiz, mana shu ko'cha bitsin, o'shanda ko'rasan, o'g'limning aytganlari hammasi to'g'ri chiqadi...»

Biz shu zaylda so'zlashib kelayotgan tun, keyin bilsam, dunyoning eng qirg'inli tuni ekan.

II

— Boshingni yuqori ko'tar, To'lg'anoy, bardam bo'l.

— To'g'ri. Bundan boshqa ilojim qancha. Esingdami, aylanayin ona-Yer, o'sha kungi voqealar?

— Men hech nimani unutmayman, To'lg'anoy. Yorug'dunyo bino bo'lgandan beri o'tgan-ketgan narsalarning hammasi yodimda. Kitobga sig'magan, odamlar unutgan tarixning bari mening yodimda, sening ham boshingdan o'tkazganlaring barisi dilimda. So'zlay ber, so'zla, To'lg'anoy, so'zla bandam, bugun qulog'im senda.

— Oh, nimani aytayin. O'shaning ertasi kuni quyosh chiqar-chiqmas o'roq o'rib, ishga tushdik. U kuni biz katta soy yoqasidagi jarlikdagi bug'doyzorda ish boshladik. Endigina qizg'in ish boshlagan edik, suvning narigi betidan chopib kelayotgan otliq ko'rindi. Xuddi orqasidan yov quvib kelayotgandek. Chakalak-qamish-

zorlarni oralab, otining yoliga yopishib olganicha bir odam suv yonidagi toshloqqa keldi-da, otining tizgini tortmay turib niqtab soldi. Bu kim bo'ldi ekan, pastdag'i ko'priordan o'tmasdan, nega buncha shoshildi ekan deb qarab turdik. Otliq – o'ris yigit ekan. Jiyron ayg'irni qamchilab suvg'a solganda, hammamiz hayratlanib qotib qoldik: daryoda suv bo'lgan paytda bu yerdan hech kim o'tolmas edi; ot tugul tuyani ham oqizib ketadigan toshqin daryo hayqirib yotsa-yu, jonidan to'ygan kim ekan? «Hoy, o'rtoq, to'xta, qayt orqangga!» – deguncha bo'lmay gijinglagan ayg'irni sapchitganicha qamchi bosib haligi otliq o'zini suvg'a urdi. U, allanarsalarni qichqirib qo'l silkidi. Ammo daryoning shovqinidan hech nima eshitilmasdi. Guldurah ko'pik otib to'lqinlangan suv ko'z ochib yumguncha otliqni olib ketdi. Qulog'ini chimirgan ayg'irning boshi to'lqinlar orasida bir ko'rinih, bir ko'rinxmay borardi. Asov daryo ikki qo'llab otining yoliga yopishib olgan haligi kishining shapkasini boshidan yulib olib, o'zi bilan birga oqizib ketayotgan edi. Biroq otliq oqim kuchidan foydalanih, tohora qirg'oqqa yaqinlashaverdi. U pastda, tegirmonga quyiladigan joyga borib, suvdan chiqqanda hammamiz yengil nafas oldik. Ba'zilar: aza-mat yigit ekan, deyishsa, ba'zilar: u sog' emas, mast bo'lib, quturib yurgan qandaydir kimsa bo'lsa kerak, deyishardi.

Tegirmonna yonginasida bug'doy o'rib yurgan Qosimning kombayni jimib qolgandi. Men unga anchaga-chha e'tibor qilmabman. Ehtimol, biror yeri buzilgandir, ish paytida har narsa bo'lishi mumkin. Hech qayoqqa qaramay, hadeb o'roq tortaverdim. Kutilmaganda yonimda turgan Aliman jonining boricha «Ena!» deb qichqirib yubordi. Bunday qarasam, o'rog'ini tashlab yuborib, kelnimning rangi quv o'chib, ko'm-ko'k bo'lib ko'karib ketibdi. «Ilon chaqib oldimikin?» – deb oldiga chopib bordim. Aliman g'iq etmasdi. Uning olaygan ko'zlarini tikilib turgan tomonga qarab turganimda, etim junjikib ketdi. Kombaynning yonidan allaqanday qiy-qiriq to-vushlar eshitilardi; chor atrofdan otliq, yayov, aravada bug'doyzor oralab odamlar chopib kelishardi. «Voy,

enajon!» – deb qichqirgan Aliman kombayn tomon jonholatda yugurib ketdi. «Voh, bular sog'ga o'xshamaydi! Kombaynning tishiga ilinib, mayib bo'lgan shekilli!» – degan so'zlar qulog'imga urilib, butun vujudimni qamrab oldi. «Bo'l ketdik!» – deyishganda, o'roqchilar yopirilib yugurishdi. «Xudo o'zing saqla, Xudo o'zing saqla, Xudo!..» – deb ular orqasidan yugurib ketayotib, ariqdan sakrayman deb yuztuban yiqilib, o'rnimdan turdim. Yana yugurib ketdim. Voh, o'shandagi jon talvasam-ey! Bug'doyga o't tushgandek ustimdag'i ko'ylagim, butkul vujudim, sochimning tubigacha zirqirab, talpinib chopardim. Osmondag'i so'qir quyosh yuziga parda tutib olgandek ko'z o'ngimda bir necha bo'lib ko'rinish, boshim aylanardi. Ularga yetolmay yiqlar ekanman, to'xtanglar, deb qichqiray desam, ovozim chiqmasdi.

Shu zaylda yugurib, kombaynga yetib borganimda, to'plangan odamlar chuvalashib, kiyim-kechagi jiqqa ho'l, jiyron ayg'irni jilovidan ushlab olgan bir odamni o'rabi olishgan ekan. «Bunday turinglar, meni qo'yib yuboringlar» – deb to'dani yorib kirganimda kombayn yonida turgan Qosim bilan Alimanni ko'rganimda qaltragan qo'llarimni uzatib bolamga tashlandim. Qosim hozirlanib, darhol meni to'sib qoldi-da: «Ona, urush boshlanibdi!» – dedi. «Urush? Urush deysanmi?» Bu so'zni men hech qachon eshitmagandek, uning ma'nosiga tushunmagandek, yana qaytarib so'radim. «Ha, ona, urush boshlanibdi» – dedi Qosim. «Nima uchun urush? Qanaqa urush?» Bu sovuq xabarning ortida nimalar yotganini payqamagandek, «Urush, urush deysanmi?» – deb pichirlab turib, yuragimda paydo bo'lgan qo'rqinchdan nafasim qisilib, yig'lab yubordim. Meni ko'rib boshqa ayollar ham chuvullab yig'lab yuborishdi.

«Eh, xotinlar, to'xtanglar hozir! Jim bo'linglari!» – deb kimdir birov qichqirdi. Shunda barimiz undan maslahat kutgandek jim bo'lib qoldik. Dalaga ham sukunat cho'kdi. Shu suv sepgandek jimlikni allakimning luqmasi buzdi: «Urushga ketar ekanmiz-da!» Uning gapiga hech kim javob qaytarmadi. Sokinlik battar kuchaya borib, soyda shovullab oqayotgan daryo-

ning tovushi qulqoqqa yanada aniqroq eshitila boshladi. Qosim to'planganlarga bir sidra qarab oldi-da, o'z-o'ziga gapirayotgandek g'udurlandi: «Endi ekin-tikinni ertaroq yig'ib olish kerak, bo'lmasa qor ostida qolib ketadi» – so'ngra yana biroz jim qolib, birdan yordamchisiga qat'iy buyurdi. «Nimaga angrayib turibsan, yurgiz motorni! Sizlar-chi, sizlar endi nimaga qarab turibsizlar, o'roqchilar! Odam yetishmay qolsa azobini o'zlarining tortasizlar. Qani turinglar, urushda turish yo'q!»

Odamlar qo'zg'ala boshladi. Boyadan beri boshini quyi solib turgan xabarchi shundagina qaddini rostladi. Yoshgina o'ris yigit ekan, ho'l sochlari peshonasiga yopishib, ko'k ko'zlari, Xudo biladi, umrida birinchi marta shunchalik g'amga botgan bo'lsa kerak. Uning qanchalik tashvishga tushganligi beg'ubor yuzidan shundoqqina bilinib turardi. U chuqur xo'rsindi-da, yonida yaydoq otini minib turgan yigitga yuzlanib, qirg'izcha gapirdi: «Og'ayni, sen hozir ovulga chopib borib, raisni, qishloq Kengashini, brigadirni top, to'xtamay, raykomga jo'nasin, xo'pmi? Men yana ikkita kolxzogha borishim kerak». Xabarchi jiyron ayg'iriga minib, yo'lga tushgan edi, haligi bizning ovuldosh yigit: «Hoy, do'stim, tura tur! – deb beri chaqirdi. – Shapkang oqib ketibdi. Ma, mening qalpog'imni kiyib ol, kun o'tib ketmasin» – dedi.

Hozirgina daryodan kechib o'tgan jiyron ayg'ir ohudek sakrab, yo'lga tushganda, orqasidan quyuq chang ko'tarilib, xabarchining qorasi ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uni kuzatib turgan odamlarning hammasi ham turli xayollarga berilgan shekilli, kombayn bilan traktorning motorlari birdan o't olib baravariga gurillaganda, ular cho'chib tushib, bir-birlariga yalt etib qarab qo'yishdi.

O'sha daqiqadan boshlab yangi hayot, urush hayoti boshlanmadimi...

– Ha, To'lg'anoy, o'sha xabarchining dupur-dupuri hali ham qulog'im ostida ketmay, otining tuyoqlari tekkan izlar tanamda muhrdek saqlanib qoldi.

– E-e, munavvar Yer, aytaversak ikkimizniki ham tugamaydi. Bilasan-ku, kun qanday jazirama issiq edi. Jonli, jonsizning hammasini harsillatib yubormadimi,

g'alla ham o'sha yili tiralib qolgan ekan, cheksiz maydonda to'rt-besh kun ichida qiyg'os pishib bermadimi. Hamma yoqni g'alla bosib ketgandi. Shoshgan ish qur-sin, o'rilgan bug'doyni bog'lashga ham ulgurmay, shu bo'yicha aravalarga to'kib-sochib yuklaganda, qanchasi isrof bo'lardi. U ham mayli-ya, ichim achiganda elga achirdi. Askarga chaqirilganlar kun sayin ketib boryapti, qolganlari esa jonini jabborga berib, kun-u tun demay, jazirama issiqda dalada, xirmonda hosilni yig'ib-terib olguncha zo'r berib ishlab yotishdi. Boyaqish Qosim, bolam, bitmaganning barini bitkazadigandek, kunu tun kombayn ustidan tushmasdi, tinib-tinchimasdi. Qosimgina emas, uning kombayni ham jonli bir nimadek qahr bilan gurullab, chang-to'zon ichida bir maydondan ikkinchi maydonga yopirilib kirib, bug'doyni shipirib o'rardi. Qosimim esa kombaynning ustida parvozga hozirlangan burgutdek, old tomonidan ko'z uzmay, yana qanchasi qoldi, bugun qanchasini o'rib ulguraman, degandek tobora olg'a intilardi. O'sha kunlari u qop-qora bo'lib, kuyib ketgandi. Ko'rsang, esing og'ib qolardi, lablari yorilib, jag'lari shilingan, soqol-mo'ylovi patak bo'lib ketgandi. «Shu zaylda ishlab yurib, oxiri nima bo'larkansan, bolam, issiq o'tib ketib, kombayndan qulab tushmasmikinsan?» – deb ichimdan kuyinaman, biroq aytishga og'zim bormaydi. Dunyoda nima o'tib, nima qaytayotgani ma'lum-ku.

Oradan ko'p o'tmay Qosimga ham navbat keldi. O'sha kuni tushga yaqin kombayn tomonga yugurib ketgan Aliman, bir vaqt qarasam, qovog'i osilgan holda qaytdi. «Chaqiruv qog'oz kelibdi» – dedi u zo'rg'a gapirib. «Qachon?» – «Hali qishloq Kengashidan keltirib berishibdi». O'g'limning axir bir kuni ko'p qatori askarlikka ketishini bilib yurardim-u, shunday bo'lsa ham, bu xabarni eshitganda bo'g'inlarim bo'shashib, nima uchundir o'roq tutgan qo'llarim qaltirab ketdi. O'rog'im qo'limdan tushib, yerga o'tirdim-qoldim. «Unday bo'lsa, bu yerda nima qilib yuribdi u, tayyorlanmaydimi?» – dedim lablarim titrab. «Kechqurun boram» – dedi. «Menga uyga borib hozirlik ko'rishni aytidi. Men ketaverayin, ena. Otamga aytib qo'yarsiz.

Kichkina bola qayerda yuribdi ekan... Aytib qo'yarsiz». «Sen bora qol, Aliman. Xamir qilib tur, men ham hozir boraman. Aliman ketgandan keyin ham ko'pgacha o'rnimdan turolmay shalvirab o'tirdim. Xatto boshimdan sidirilib tushgan ro'molimni olishga ham qurbim kelmadi. Yerga tikilib o'tirsam, qumursqalar yo'l solib, nari-beri chopishib, don tashib, somon sudrab, g'imirlab yurishgan ekan. Nima uchun shu xayollarga borganimni bilmayman, qumursqalarning shu zaylda hech nimadan bexabar o'rmalab yurganlarini ko'rib, ko'z yoshlaramni tiydim.

Shu mahal aravasini haydab, Jaynoq yetib keldi. Shu kezlarda stansiyaga g'alla tashib yurardi. Akasining askarga ketishini eshitib kelgan shekilli, aravadan sakrab tushib: «Yura qol ona, uyga boraylik» – deb meni qo'ltiqlab aravaga mindirdi. Shu qisqa vaqt ichida kenja bolam tanib bo'lmas darajada o'zgargan edi. Ilgarigi hazil-mazax qiliqlari yo'q, ko'pni ko'rgan katta odamdek bosiq bo'lib qolibdi. Jaynoqning aftiga tikilib, nima uchundir uni u kungi xabarchi o'ris yigitga o'xshatdim. Ha, buning ko'zlarida ham o'shanikidek o'ychanlik, esayganlik sezilib turardi. Ko'pning boshiga g'am tushsa, odamzodning bari ham birdek ekan, dedim ichimda. Shularni o'ylab kelar ekanman, Maysalbegimdan anchadan beri xabar kelmaganini eslab, yana yuragim allanechuk bo'lib ketdi: «U nima bo'ldi ekan? Askarga olib ketdimikin, yo boshqa bir nima bo'ldimikin? Ikki enlikkina xat yozib daragini bildirib qo'ysa bo'lmasmikin, bolasi tushmagur. Ruxsat bersa uygayoq kelmaydimi, endi kim ham o'qirdi. Ota-onasiga kelmaydiganga o'xshaydi, uzoqda yurib, toshmehr bo'lib ketganmi?» – deb har qaysisining tashvishini alohida tortib aravada kelardim. «E Jaynoq, – dedim men, – sen stansiyaga qatnab turibsan, qanday, urushning to'xtaydigan siyog'i bordaymi?» Yo'q, ona, – dedi u o'shanda, – hozircha ahvol og'ir. Nemislar bostirib kelyapti. Biznikilar endi o'shalarni to'xtatib, qad-dini rostlasa, kuch yig'ib olardik. Sen, ona, uni-buni o'ylayverma, ko'p nima bo'lsa, biz ham shu-da...» A-a, sadag'ang ketay. U meni yupatmoqchi. Ko'zimni ko'r, qulog'imni kar qilsam ham qanday o'ylamay bo'ladi.

Uyga kelsam, Alimanim xamirni chala yo'g'irganicha xo'rsinib yig'lab o'tiribdi. «Sen nima, eldan boshqa-chamisan. Odamlardan ortiq joying bormi, elning bari askarga jo'nab ketyapti-ku, buncha endi bo'shashding, sho'ring qurg'ur!» – deb koyib berayin dedim-u, yana: «Kel yosh narsaning dilini og'ritmayin, ko'ngli cho'kib qolmasin» – deb jim bo'ldim. Yoki, o'shandayoq qat-tiqroq gapirsam bo'larmidi? Qosim kech peshindan o'tib, kun botganda uyga keldi. U hovliga kelishi bilan Aliman yoqib turgan o'tinini tashlab, yugurib borib bo'yniga osildi-da: «Sendan ajralmayman! Sendan ajralmay o'laman!» – deb chuvvos tortib yig'ladi. Qosim kombayndan tushgan bo'yicha chang-u tuproqqa botib kelayotgan ekan: «Hamma yog'im tuproq, Aliman. Tura tur,sovuningni olib kel, katta suvga borib yuvinayin» – degan edi, Alimanning menga yalt-yalt qaraganidan iy-manganini sezalib, suv olib kel, deb qo'liga chelak tutqazib qo'ydim. Ular o'shanda oy chiqqandan keyin, kech qaytishdi. Uydagi ishlarni Jaynoq ikkimiz bitirdik. Yarim kechada Suvonqul ham yetib keldi. Qayoqlarda yuribdi ekan, desam, kunduziyoq, toqqa chiqib ketib, o'zimizning saman otni yilqidan ushlab kelibdi. Ajoyib yo'rg'a edi. Ovuldagi qiz-juvonlarning: «Ostingda saman yo'rg'a, choptirasan yo'l-yo'lga» – deganlari o'sha edi-da. O'g'li askarga jo'nab ketayotganda, bir kun bo'lsa ham, yo'rg'asini minib qolsin, degan bo'lsa kerak otasi.

Ertasi kuni azonda otlantirib, harbiy komissariatga jo'nadik. O'shanda birinchi safar yoppasiga askarga olinmadimi. Har tomondan qo'shilib, yo'lda chuvalashgan aravalarni, odamlarni ko'rsang, son-sanog'i yo'q, oldi katta Qapchig'ayga kira boshlasa ham, keti esa ko'rinasdi. Rayon markaziga to'plangan odamlar ko'chaga sig'masdi. Otliq, aravalik, ayol, bola-chaqalar. Har biri o'z yaqinini qurshab, yonidan nari jilmaydi. Lekin, ko'p degani hazil gap emas, «ko'p yig'ilsa ko'l bo'lur» deganlari rost ekan. O'sha to'polonli yig'inda ham jangga borayotgan, g'ayratli, azamat yigitlar bardam so'zlab, bardam yurib, xatto qo'shiq aytib o'ynab, qiy-qirishib, ko'pchilikning ko'nglini ko'tarishardi. O'rischa,

qirg'izcha kuylar aralashib, bir og'izdan aytilgan «Katyusha» deganlari barimizga xush keldi. «Katyusha» qizning nomi ekan-da, o'sha kezdagi yoshlarning suygan ashulasi ekan-da...

Askarga chaqirilganlar harbiy komissariatning hovlisiga sig'magani uchun, ularni katta ko'chaning o'rtafiga qator-qator tizib, har birining nomini aytib chaqira boshlaganda, yig'ilgan xalq bir tekisda tinchlanib, jimb qoldi.

Shunday qarasam, urushga ketib borayotganlar saralangan suxsurdek yigitlar ekan, yo'qlamada nomi chiqqanlar «menman!» – deb javob berib, biz tomon yalt etib qarab qo'yishar, «Suvonqulov Qosim» deganda yuragim «shuv» etib, nafasim ichimga tushib ketdi. «Menman!» – dedi Qosim. Aliman shu payt qo'limni mahkam ushlab: «Enajon» – deb shivirlab yubordi. Uning dardini bilib turibman, lekin bilgan bilan ilojim qancha: ko'pga kelgan to'ydan kim o'zini olib qochadi. Eh, Aliman, Alimanim-ey, davr talabini, xalq talabini yaxshi tushunar edi. Biroq men o'z yoriga shunchalik berilgan, uni shunchalik sevgan ayojni hali ko'rmagan edim. Alimanning xayrlashganini eslasam, jonimni unga sadaqa qilgim keladi. O'sha kuni biz ovulga qaytib keldik, sababi, askarlarni bir kun o'tib ertasi jo'natar ekan, deyishdi. Kolxozimiz katta yo'lga yaqin emasmi – bu yerda zoriqmay, uyga borib turinglar, keta turib xayrlashib o'taman deb, Qosim qistab qo'ymadi. Alimanning minib kelishiga Suvonqulning otini qoldirib, biz aravada qaytdik. Jaynoq ham tumanda qoldi, unga aravasi bilan askarlarni tashib turish tayinlangandi.

Tunda huvullagan uyga kelib, yotmay, yig'lab o'tirsam, Suvonqul choy qo'ya yotib, menga tasalli berishga urindi. O'shanda aytganlarini sira unutmayman: «Ikkovimiz kim edik, To'lg'anoy. Mana shu el, mana shu yurt bizni odam qildi. Yaxshilik ko'rdik, endi yomon kuniga duch kelganda, har birimiz o'z g'amimizni yeb qayg'uraversak, biz nima degan odam bo'ldik. Ertaga bardam bo'l. Aliman sen bilan mening ko'rganimizning o'ndan birini ham ko'rgani yo'q, u yig'lasa – yo'rig'i boshqa. Sen – onasan: bilib qo'ygin, urush shunday

kuchayaversa, men ham ketaman, Maysalbekning ham yoshi yetib turibdi, kerak ekan – barimiz ketamiz. Mana shunga, To'lg'anoy, hozirdan ko'nikaver...»

Ertasiga tushdan keyin askarlarni stansiyaga jo'nata boshlashdi. Qosim bilan Aliman yo'lni qisqartib, ular-dan oldin kelishdi. Uyingga kirib xayrlashib chiqqin, deb, Qosimga ruxsat berishibdi. Alimanning ikki ko'zi qip-qizil, qovoqlari shishib ketgan, yo'l bo'yli yig'lab kelgan bo'lsa kerak. Qosim sir bermagani bilan, u ham ich-ichidan kuyinardi. Alimanning ko'z yoshlari, uning javdirab tikilib turishlari Qosimga qattiq ta'sir qildi shekilli, haqiqatan ham shunday gap bo'ldimi, haytovur, u otdan tushgan zahoti: «Sizlar stansiyagacha kuzatamiz deb ovora bo'l manglar, ota, balki men qaytib qolarman – traktorchi, kombaynchilarni bo'shatmoqchi bo'lib turishibdi. Buyruq kelib qolsa, uylaringga qaytaralim, deyishdi» – dedi. Endi o'ylasam, Alimanni ayab, bizni ayab, shunchalik aytgan so'zi ekan. Stansianing orasi ham bir kunlik yo'l emasmi, qaytishni ham hisobga olganga o'xshaydi. Men darrov o'sha so'zga ishonib qo'ya qoldim, umid qurg'ur odam bilan hamisha birga ekan. Biroq keyinchalik Qosim bularni ataylab aytganini bildim. Hammamiz ham birdek bildik chog'i.

Orqadan kelayotgan yo'lovchilardan oldinroq ovul-dan chiqib, katta yo'lidan Qosimni kuzatib borayotganimizda, dalada ishlayotganlarning hammasi xayrlashgani yugurib kelishdi. Arava haydagan, o'roq o'rgan, xirmon bostirayotganlar qolgani yo'q. Qosimning kombayni ham shu orada bug'doy o'tib yurgan ekan. Kombaynni to'xtatib unda ishlayotganlar ham yetib kelishdi.

- To'g'ri aytasan, To'lg'anoy...
- Ha, qutlug' dalam, usta jangga ketardi bolg'asi bilan vidolashadi, deyishadi. Qosim ham o'z kasbining ustasi emasmidi. Qosim ovuldoshlari bilan xayrlasha turib, kombaynga yaqin kelib to'xtaganda, katta yo'l tomonga bir qarab qo'ydi. Qizil bayroq ko'tarib, aravada, otda kelayotganlarning oldi muyulishdan endigina ko'zga tashlangan edi. «Ota, ushlab turing-chi» – deb Suvonqulga otning jilovini bera solib, Qosim kombayni ga qichab bordi, so'ng uning hamma tomoniga bir sidra

ko'z yogurtirib oldi-da, birdan ustiga sakrab chiqdi. «Hayda, Eshonqul! Boyagidek haydayver! — deb, traktorchiga qichqirdi. Elas-elas eshitilish turgan motor ovozi birdan bor quvvati bilan gurillab, shaqirlab o'rnidan qo'zg'algan kombayn ortidan somon, to'pon to'zg'itib, donni bir tomonga ajratib, shitob bilan bug'doylarni o'ra boshladi. O'sha paytda mening ko'zimga shunday ko'rindimi, u oddiygina kombayn emas, balki qanotini yoyib, yer bag'irlab uchib borayotgan bahaybat cho'l burgutidek bo'lib tuyulardi. Shturvalni mahkam ushlab olgan Qosim esa betini iliq shamolga tutib, ko'kragini kerib, kulib turardi. Traktorchi ikkalasi o'sha yerda nimalarnidir qichqirishib, shovqin solishib, yanada tezlatib, traktorni maydon chekkasidan qaytara solib kelayotganda, qarab turgan odamlar bir daqiqa hamma narsani unutib, quvonch bilan kuzatib turishardi. Aliman ham o'shanda hozir ayrilishini unutgandek ko'zlar porlab, o'zicha g'ururlanib, quvonib turardi. Baridan ham haligi qo'shnimiz Oyshaning bolasi, o'shandagi o'n uch-o'n to'rtlardagi Bektosh, — shu kezlarda kombaynda somon tortardi, — onang aylangur, kombaynning ustida turib Qosim bilan quchoqlashib, xayrlashsa bo'ladimi. Qosim uni qo'liga ko'tarib, bet-u boshidan o'pkilab, endi sen o'rgangin buni, degandek, shturvalni bolaning qo'liga tutqazib, o'rniga qolgan yordamchisi bilan xayrlashdi, kombayndan tushib keldi. Etim junjikib, Suvonquning tundagi gaplarini eslab, arang tishimni tishimga qo'yib turdim. Yo'lga qarasam, askarga jo'nayotganlar ovulning yonidan o'tib, yetib kelgan ekan.

Shunday qilib, Qosimni jo'natib, to'planganlar ham-mamiz u bilan xayrlashdik. Alimanim-ey, senga ayon bo'lganmidi, katta-kichikdan tortinmay, nimaga shunchalik bo'zlab osilding? «Xayr endi, Aliman, men qaytib kelaman, ko'rasan-ku, ertagayoq bo'shab kelaman, yig'lama buncha, men kelaman, kutgin meni!» — deb Qosim otlanish uchun uzangini ushlaganda, Aliman yana chopib borib, bo'yniga osilib, yosh bolalardek, qo'lidan tortib, birpas to'xta, deb yig'layverdi. «Bo'lmasa, bolam, anovi yo'l bo'yigacha kuzatib kel, — dedi Suvonqul keliniga. — Biz shu yerda qolamiz. O'rtoqlari uzab ket-

masin, Qosim, bu yoqqa qara-chil!» Ular biroz bir-biriga indamay tikilib turishdi-da: «Tushundingmi?» – dedi Suvonqul. «Tushundim, otal!» – dedi Qosim. «Bo'lmasa jo'na!» Suvonqul otiga minib, xirmon tomonga chopib ketdi. Qosim men bilan xayrlashganda: «Maysalbekdan xat kelsa, adresini solib yuboringlar» – dedi. Qosim bilan Aliman otni yetaklab, qo'l ushlashib, katta yo'lga chiqib olguncha orqasidan qarab turdim. Aliman bora-borguncha uzangiga osilib, chopib borardi. Shunda Qosim ot ustida turgancha, xotinining peshonasidan so'nggi bor o'pib, saman yo'rg'aning boshini qo'yib berganda, uning ketidan chang-to'zon ichida Aliman qo'l silkib yugurardi.

Ertasi kuni kechqurun yaydoq saman yo'rg'ani aravasingin orqasiga bog'lab, Jaynoq stansiyadan olib keldi.

III

– Nega jimib qolding, To'lq'anoy?
– O'sha yili yana nimalar bo'lganini eslayapman. Haytovur, kim bilsin, hayot og'irlashib ketganidan odamlar cho'chib qolishmadimi. Uzoqlarda qirg'in bo'lib, qon to'kilib yotganda, bizning yopishganimiz – ish bo'ldi. Qosimning aytgani to'g'ri chiqdi: ishga qanchalik yopirilib kirishsak ham urushning kasofatidan ekin-tikinlarni oxirigacha yig'ishtirib ololmadik. Kartoshkalar qor ostida qolib ketdi. Ovulda katta kuch bo'lgan erkaklar birin-ketin siyraklashib, askarga ketib qolavermadimi. Qolganimiz ertadan kechgacha urush nima bo'lyapti ekan deb qulqoq tutamiz. O'shandagi xabarlar ko'ngilga taskin berarli emas edi, kutganimiz pochtachi bo'lib goldi.

Qosim jo'nab ketgandan keyin ko'p o'tmay, Maysalbekdan xat keldi. Birinchi xatida u: o'qishdagi o'z tengqurlarim bilan askarga chaqirildim, hozircha shaharning o'zidamiz, sizlar bilan yuz ko'rishib xayrlasha olmaganimga achinaman, bunday bo'larini kim bilibdi, g'alaba bilan qaytsak, tilagimiz shu, debdi. Ikkinci

xatida: Novosibirsk degan shahardaman, komandirlik o'qishiga yuborildim, deb suratini ham solib yuboribdi. Suratingdan aylanayin, askarcha forma kiyih tushgan ekan, biram yarashiqli, sochini orqasiga tarab, manglaylari keng, qovog'ini xiyol uygancha tikilib turibdi. Tushimda ham o'sha suratdagidek ko'rinaridi. Aliman Maysalbekni bir martagina ko'rgan edi. Ko'klamda, Qosim uylanganda, u ikki kunga javob olib kelgandi. Qayin inisining suratini ko'rib, Aliman: «Bizning muallim yigitga o'xshagan suluv yigit bormikin, ena? Chimildiqning ortidan yaxshi payqamagan ekanman, tikilavergani uyalgandim. Endi omon-eson qaytib kelib o'zidek bilimli, o'zidek suluv qiz olsa, yarashib tushardi-da, ena!» – der edi.

Qish kirguncha shu zaylda bolalardan ketma-ket xat kelib turgani uchun yuragim ancha-buncha taskin topib turdi! Ko'p o'tmay, Qosimdan front tomonga qarab jo'nab ketdik, degan xabar keldi. Endi qanday bo'lar ekan, degan o'y-xayol sira yodimdan ko'tarilmasdi. Bu orada Suvonqulni ham qayta-qayta harbiy komissariatga chaqirib, komissiya qilib qoldi. Bir tomonda esa brigadirlik tashvishi, sira tinim yo'q. Bu qanaqa bo'ldi ekan, demak, Suvonqulni ham olib ketadiganga o'xshaydi, endi qanday qildik, deb yursam, bir kuni chindan ham askarga olishlikka povestka kelibdi. Uni eshitib, yuragim qinidan chiqqudek bo'ldi. Xirmonda bug'doyning qoldig'ini tozalab yotgandik. Panshaxanning sopidan ushlab xayol surib turgan edim, Suvonqul chopib kelib, otdan tushdi-da, yur uyga, tayyorgarlik ko'raylik, dedi.

Mingashib yurayin, desam, yo'q otni sen mingin, men yoningda yurib gaplashib borayin, dedi. Bunday paytlarda odam so'zlashishga so'z ham topolmay qoladiganga o'xshaydi, aytadigan gapning bari ichda qolib, jimgina kelaverdik. Qora bulutlar osmonni qoplab, Sariq Yoyiq tomondan turgan muzdek shamol qorni uchqunlatib, bo'ronga aylantirgudek bo'lib, goh zo'rayib, goh pasayib turdi. Atrofimga qarasam, jonim tutashgan dehqon dalam, sen ham yalang'och qolib, kimsasiz, unsiz tumshayib turgan ekansan.

— Ha, To'lg'anoy, qish bosib, tanam muzlab, sovuq-dan qorayib, mening ham yolg'izsiragan g'amgin kunim edi.

Suvonqul ustma-ust gugurt chaqib papiros tutatardi. Bir vaqt shamoldan qochib, otning panasiga o'tdi-da, papirosini tutatar ekan, mening qo'limdan ushlab: «Sovqotdingmi?» — deb so'radi. U o'shanda bir nima demoqchi bo'ldi, balki, bolalarimiz urushda, mana endi men ham urushga ketyapman, qanday bo'ladi, qanday qo'yadi, ko'rishamizmi, yo'qmi, shuncha yil issiqsovug'imizga chidashib, birga yashadik — rozi bo'l, taqdir shu ekan, qanday qilamiz omon-esonlikni tilaylik, demoqchi bo'ldimi, kim biladi. Haytovur, boshini ko'tarib, meni ham ayab, ham suyib, lablarini tishlagancha uzoq tikilib qoldi. Soqol-mo'yloviqa endigina oq oralay boshlaganini o'shanda sezdim. O', xosiyatlidalam, mening boshimga tushgan yaxshi-yomonliklarning bariga shohid bo'lding-a...

— Ha, To'lg'anoy, sening butkul umring shunday o'tdi.

— Suvonqul ikkovimizning o'sha dalada qo'shib, yigirma ikki yil mehnatimiz bilan, halol peshona terimiz bilan unib-o'sib umr surganimiz o'sha zamon ko'z o'ngimga keldi. Umr yo'ldoshimdan shu holda ajralaman deb o'ylaganmidim. Kechagina o'roqqa tushgan birinchi tunda xuddi shu yo'l bilan mingashib borayot-ganimizni eslab, ovulga kiraverishda yoshlarning yangi ko'chasi boshlangan bo'yicha qolib ketganligini, Qosim bilan Alimanning chorborg'ida uyulib yotgan g'isht bilan toshni ko'rib, otning yoliga tashlanib, o'ksib-o'ksib yig'lab yubordim. Suvonqulning zehni g'oyat o'tkir edi. Mening nimani o'ylab kelayotganimni bilib oldi. «Yig'lasang, hozir yig'lab ol, To'lg'on, biroq bundan keyin el ko'zi oldida yig'lab yurmagan, — dedi u. — Sen, To'lg'an, Aliman bilan Jaynoqqagina bosh bo'lmay, mening o'rnimda ham brigadir bo'lib qolasan, bu ishga sendan boshqa layoqatli hech kim qolgani yo'q ovulda». «Shunday paytda bo'lmag'ur so'zingni qo'y, Suvonqul, keragi yo'q, brigadirligingni nima qilaman, men kimga brigadirlik qilaman!» — deb yig'layverdim. Shunday

desam kechqurun chindan ham kolxozning idorasiga chaqirib qolishdi. Frontdan qo'li yarador bo'lib kelgan yangi raisimiz Usenboy, Suvonqul, yana ikkita-uchta oq-soqol kishilarimiz o'tirishibdi. «To'lg'anoy yanga, nima bo'lsa ham belingizni mahkam bog'lab, ko'pchilikning topshirig'ini bo'yningizga olasiz. Ayol kishi bo'lsangiz ham, yer-suvning tilini, elning sharoitini sizdan yaxshi biladigan odam yo'q. Suvonquldek brigadirimizni, zaxar yutib, achchiq chaynab, urushga yuborib turganimizda, uning ishongan kishisi – sizga, biz ham ishonamiz. Zammonning qandayligini o'zingiz ko'rib-bilib turibsiz. Er-tadan boshlab ishga kirishing, To'lg'anoy yanga» – deb qat'iy gapirdi Usenboy. Boshqa oqsoqollar ham shunday deb maslahat berishdi. Qisqasi – brigadir bo'lishga ko'ndim. Ko'nmay iloj qancha. Shunday qilganim ham bir tomondan ma'qul bo'lgan ekan – Suvonqulimning eng oxirgi iltimosi shu emasmidi: keta-ketguncha ko'pning g'amini yegan bechoram-ey, tuni bilan qo'sh haydashga hozirdan tayyorlana ber, ot-ulovni yem-xashakka to'yg'iz, omoch-bo'yinturug'ingni to'g'rilib, remont qilib qo'y, falonching bola-chaqalariga qiyin bo'ldi, berigi qo'shnilar esa qari-qartang, ko'z-quloq bo'lib yur, uni unday qil, buni bunday qil, deb gapirib o'tirdi. Tashqarida tong otguncha tinmay shamol guvul-lab, qor yog'ib chiqdi.

Suvonqulni ham katta yo'lga kuzatib qo'ydik. O'zi qatori bir talay kishilar bilan aravaga tushib, to'pga aralashib ketdi-qoldi. O'shandagi sovuqning shashtini-yey, yuzlarni yorib yuboray derdi-ya...

– O'sha kuni sen Suvonqulni kuzatib qaytib kelayot-ganingda, qayta-qayta orqangga qarab, qattiq yig'lading, To'lg'anoy.

– Ha, ona-Yerim, o'sha kundan boshlab raisimiz Usenboy aytgandek, belni mahkam bog'lab otga minib brigadirlik ishiga kirishdim. Endigi brigadirlarning ham ishi oson emas-u, lekin u kezlarda tamomila turgan-bitgani azob edi. Ishga yaroqli erkaklardan hech kim yo'q, hammasi urushga ketgan, qolganlari qiz-juvonlar, yosh bolalar, qari kishilar. Topgan-tutganimizni frontga yuborib turdik. Aravachalarning g'ildiragi yo'q, xo-

mut-bo'yinturuqlar ishdan chiqqan, ustaxonada ko'mir o'rniga soy bo'yidagi o'tinlarni yoqib, bosqonni bir amallab ishlatib turdik. Elning turmushi kundan kunga og'irlashib borardi. Shunday bo'lsa ham, kolxozda ishni to'xtatmay, tebratib turishning payida bo'ldik. Hozir o'ylasam, birovga yaxshi, birovga yomon gapirib, kolxoz deb yurib, ko'p ishlar boshdan o'tgan ekan, biroq el uchun, uning ozib-to'zsa ham el bo'lib tura berganligiga joningni sadaqa qilsang ham arziyi. O'shandagi ayollar – hozir kampir, yosh bolalar – besh-oltitaning otasi, u kunlarni unutib ham yuborishgandir, biroq, men ularni ko'rgan sayin, ko'z oldimda o'lmas-o'chmasdek ularning o'shandagi hayoti gavdalaniadi, och-yalang'och yurib kolxozda ishlaganlari, orzu o'yi – borlig'i toshga tamg'a bosgandek ko'ksimda. Men o'zim ham qanday ahvolda edim, shunday bo'lsa ham, yiqilib-surilib, brigadir bo'lib yurganimga hech qachon o'ksinmayman. Tong - azonda kolxozning saroyiga yetib borib har birini ishga chaqirib, shu bilan kechgacha otdan tushmay el yotguncha idorada kundalik majlisda o'tirib, ko'pchilikning ishi bilan alaqsb yurgan ekanman. Mayli, ba'zan joni achiganidan ba'zi birovlar gapimga qulq solmay, meni so'kkan kunlari ham bo'ldi, bunday paytda Aliman bilan Jaynoq, o'z bolalarim emasmi, ularga tinim bermay kun-u tun ishga hayday berdim. Shunday qilganimga ham koynimayman, bo'lmasa ne bo'limg'ur o'y-xayollarga berilib ketardik. Bir uydan qatorasiga uch kishi urushga ketib o'tirsa, o'ylanmay bo'ladi.

– Rost, To'lg'anoy. Sen o'shanda men bilan so'zlashishdan qochayotgandek, doim chopib, allaqayyerlarda shoshilib, xalloslab yurarding.

– Shunday qilmaslikka ilojim bormidi, sirdoshim ona-Yer. Frontga ketdim degani bo'yicha bir yarim oy chamasi Qosimdan xabar kelmay turdi. Aravasi bilan stansiyaga qatnab, Jaynoq sayog'im uyda yo'q bo'lsa, Aliman ikkimiz harna bo'lsa ichimizda saqlab, Qosim haqida gaplashishdan qo'rqqandek, ko'zimiz bir-biriga tushganda, boshqa bir bo'lar-bo'lmas tirikchilik haqida gap ochib, yosh boladek bir-birimizdan so'rashga oshiqamiz.

Qishning o'rtalarida, ayozli kunlarning birida ustaxonada otlarni taqalatib yurardim, sizga shoshilinch telegramma kelibdi, deb, rais allaqanday qog'ozni olib chopib keldi. «Qo'y, voy u nimang?» – deb yuboribman. «Voy, To'lg'an yanga-yey, qo'rqmang, yomonlikning beti qursin, bul telegramma Maysalbekdan ekan, Novosibirskdan yuboribdi, beriroq keling! – dedi Usenboy. – Hozir to'xtamay stansiyaga jo'nang, o'g'lingiz shu ikki kunning ichida o'zimizning stansiyadan o'tar ekan, uchrashib qolay, debdi. Otlarga yem-xashak soldirib, aravani tayinlatib qo'ydim. To'lg'anoy, yanga, kechikmay jo'nanglar!» – deb qoldi. Suyunganididan nima qilarimni bilmay, halloslab, ustaxonada nari-beri yugurib, undan shoshib uyga jo'nadim. Ishning oldiketini surishtirmay, aytganim faqat: «Maysalbegim kutib olsin, debdi! Maysalbegim kelsin, debdi! Seni kutib olmaganda, kimni kutib olaman, aylanib ketay, o'g'lim, talpinib uchgan qushdek yayov yugurib borarman!» – deb, o'zim bilan o'zim so'zlashib, qahraton ayozda halloslab, terlab-pishib kelaverdim. A-a, o'shanda men qurg'ur, hushim o'zimga kelib, Maysalbegim qay tarafdan o'tar ekan, deb o'ylamabman. Nari-beri kuymanib, Maysalbegim o'rtoqlari bilan uyning ovqatidan totib ketsin, deb, bo'g'irsoq, yupqa, go'sht pishirib, o'sha kuniyoq Aliman ikkimiz aravaga tushib jo'nab qoldik. Avval, Jaynoq bilan borsammikin, deb o'ylanib turdim. Shunday desam, Jaynoqning o'zi: «Qo'y, ona, Aliman borsin, men uyda qolayin. Menga qaraganda Alimanning borishi zarur» – dedi. Juda to'g'ri ish qilgan ekan kenja bolam. Yosh bo'lsa ham, Jaynog'im har narsaga farosati yetadigan bola. Yangasining qanday dimiqib, g'am chekib yurganini sezib yurgan ekan, Alimanni pichanda ishlab yurgan yeridan o'zi chopib borib, chaqirib keldi. Ko'pdan beri kelinimning bunday xursand bo'lganini ko'rganim yo'q edi. Xuddi yosh boladek suyunib, men dan beshbattar talpinib: «Bo'ling, ena, kechikib qolmaylik!» – deb o'pkasini bosolmay qolibdi. Yo'lga chiqqanda ham shunday edi: aravani tezlatib haydab, gohoda tizgin, gohoda qamchini aravakash boladan tortib olib, o'zi shoshqilanib haydardi. Yo'l bo'yi bir tekis-da za-

har sochib, laylakqor yog'ib turdi. O'sha qor oppoq bo'lib, Alimanning ro'moliga, manglay sochiga, yoqasiga qo'nib, uning yiltillagan qop-qora ko'zlarini, nur tomib turgan qip-qizil yuzini yana ham go'zal ko'rsatib, husniga husn qo'shayotgandek edi. Buning ustiga, bora-borguncha birpas jag'i tingani yo'q kelinimning. Birinchi bor to'yga borayotgan boladek, u-bu haqda erkalanib gapirib: «Muallim bola poyezddan tushganda, siz indamay turing, ena. Meni tanirmikin? – derdi. So'ng yana biroz turib: – Yo'q, ena, men orqasidan borib, muallim bolaning ko'zini yumib olsam, nima qilar ekan, oy, bu kim o'zi deb, cho'chib ketarmikin?» – deb kilib borardi. Oh, Alimanim-ey, oh, kelinim-ey, senchalik kuyovini sevgan ayol bo'lganmikin? Meni bilmaydi deb kelayotib, o'zginang oxiri siringni ochib qo'ymadingmi. Boyagidek hazillashib kelayotib, bir vaqt g'amli qiyofada o'zicha gapirib yubordi: «Muallim bola Qosimga juda o'xshash-a?» – dedi-yu, inadmay qoldi. Birozdan so'ng xafaqonligi yana tarqadi. «Hayda otlarni, hayda tezroq!» – deb shoshirardi. Shunday qilib, stansiyaga kun botarda yetib bordik. Stansiya joylashgan dara shamolning uyasi ekan, qor uchqunlari izg'ib yuribdi. Maysalbek hozir kelib qoladigandek, aravadan tushgan zahoti, Aliman ikkalamiz shiddat bilan temiryo'llining bo'yiga yetib bordik-da, u yoq-bu yoqni qarab, nima qilarimizni bilmay mustar bo'lib qoldik. Ertalabdan beri urinib qizigan tanimiz soviy boshladidi. Taram-taram temiryo'llar orasidan u yoq-bu yoqqa pishqirib qatnab yurgan parovoz goh muzlab yotgan vagonlarni taqirtuqur qo'zg'atib qo'yar, simyog'ochlar esa shamolda hushtak chalib yotardi. Bir-ikkida poyezd kutmagan odam qursin. Qachon keladi, qaysi tomondan keladi – bilolmay turaveribmiz. Uncha o'tmay olisdan poyezdning qichqirib, shaqillab kelayotgani qulqoqqa chalingan edi: «Ana, kelayotibdil!» – dedi Aliman. Oyoq-qo'lim titrab, yuragim halqumimga tiqildi. Poyezd tobora yaqinlashib kelaverdi, shoshganimdan: «Ma, xurjunni sen ushlab tur-chi!» – dedim. Bug' chiqarib parovoz biroz o'tdi-da, vagonlar to'xtadi. Vagonlar yo'lovchilarga liq to'la ekan, xotin-bolalar ham bor, ko'pi soldatlar.

Ularning kim ekanini, qayerga borayotganini Xudo biladi, lekin Maysalbek ko'rinnmaydi. Poyezd yoniga yugurib, eshiklardan bosh chiqarib turgan kishilar-dan: «Suvonqulov Maysalbek bormi? Aytinglar-chi, aylanaylor, Suvonqulov Maysalbek bormi?» – desak, bir xillar bilmaymiz deyishsa, bir xillari indamaydi, bir xillari kulib ham qo'yadi. Oradan hech vaqt o'tmay poyezd o'rnidan qo'zg'alib, yurib ketdi. Bizning stansiyada bor-yo'g'i uch minut to'xtar ekan. Tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushgandek turib qoldik. Poyezd yo'lga tushganda uni kuzatib turgan qora to'nli, cho'loq, o'rtा yoshlardi temiryo'lchi o'ris kishi bizni ko'rib, sizlar kimni kutib turibsizlar, deb so'rab qoldi. Unga uzoq-dan kelganimizni tushuntirib, Maysalbekning yuborgan qog'ozini ko'rsatdik. Shunda u ko'zoynagini taqib, o'qib chiqdi-da, sizning o'g'lingiz askar esheloni bilan kela-yotibdi. Uning qaysi eshelon ekani, qaysi vaqtida o'tari noma'lum. Kechikmasa bugun-erta yetib kelishi kerak. U, balki, o'tib ham ketgandir, kuniga qancha eshe-lonlar o'tadi, gohida to'xtamay ham ketadi, qaysinisi ekanini kim bilsin, degandek dargumon gapirdi. Bizning bo'shashib ketgan rangimizni ko'rib, temiryo'lchi achindi shekilli: «Eh, urush, urush! Barchani qaqqashatding-ku, – deb boshini chayqadi-da, – sizlar endi sovuqda turmay, mana bu yoqqa kirib o'tiringlar, poyezd kelar oldidan chiqib kutib olasizlar» – dedi.

Stansianing yolg'iz xonasida quruq o'rindiqda cho'zilib yotgan o'ntacha kishi bor ekan. Urushning dastlabki kunidanoq har qaysisi o'z yeridan bosh olib chiqib, yo'l azobini tortgan yo'lovchilar bu yerda o'z uyidagidek joylashib, uxlagni uxbab, gaplashgani gap-lashib, bir xillari temir krujkalarda xo'rillatib choy ichib, gitara chalib, ichida xirgoysi qilayotganlar ham bor. Aliman ikkovimiz ham narigi chetga borib o'tirdik. Shishasi singan yolg'iz chiroq arang lipillab yonib, xonani g'ira-shira yoritib turibdi. Bir mahal poyezd-ning yaqinlab kelayotgani eshitilib qoldi, biz eshikka otolib chiqdik. Zulmat ichida jin o'ynagandek, shamol yeng-u etakdan tortqilab, parovozning issiq bug'i betga urib, biroz o'tdi-da, yuk tashiydigan poyezd sekin kelib

to'xtadi. Unda soldatlar ko'rinnmasa ham, Aliman ik-kalamiz: «Maysalbek! Maysalbek bormi?» – deb vagonlardan vagonlarga yugurdik. Undan darak yo'q. Xonaga qaytib kelganimizda, odamlarning bari uyquga ketgan edi. «Ena, charchadingiz-a, yotib dam olib turing-chi, men o'zim xabardor bo'lib turaman» – dedi Aliman. Kelinimning yelkasiga boshimni qo'yib, qiyshaydim. Biroq qani uyqu kelsa, uxbab bo'larmidi. Qulog'im, yuragim, aqlim bilan poyezdning uzoqdan kelayotganini yerning bilinar-bilinmas larzasidan ham sezib yo'tdim. Poyezd qaysi tarafdan kelmasin, qulog'imizga chalingan zahoti, yetolmay qolmaylik, deb xurjunni ko'targancha yugurib, qarhisiga chiqamiz. Qancha eshelonlar o'tdi, lekin birontasida ham Maysalbekni uchratolmadik. Yarim kechaga yaqin yer larzaga kelib, eshikka yugurib chiqqan edik, daraning narigi yog'idan ham, berigi yog'idan ham parovozning qichqirig'i eshitilib, ikki poyezd ikki yoqdan kelayotgan ekan. Shunday ko'z tutib o'trganimizga yarasha qani kutganimizdek bo'lib chiqsa, aylanay!.. Shoshganimiz shunchalikki, qaysi tomonga yurishimizni bilmay halloslab, ikki yo'lning o'rtasiga tushib qolgan ekanmiz, qarama-qarshi qichqirib kelgan poyezdlar, qulogni bitirib, kelgan bo'yicha to'xtamay taraq-turuqlab o'tganda, shamol uyilgan qorlarni vagonlarning ostiga uchirib ketgudek bo'lib har tomondan urildi. «Ena!» – deb baqirgan Aliman meni quchoqlaganicha fonusning tagida ushlab turardi. O'sha shaq-shuq quyun ichida yarq-yurq yetgan vagonlarning deraza-eshiklariga tikilib, Maysalbegim shunda o'tib ketmadimi, degan o'y butkul vujudimni titratib, esimdan og'dirardi. G'ildiraklar ostidagi qo'sh izlar mening zirqiragan yuragimdek, o'shanda zing-zing etib turardi. Ayt-chi, dunyo tayanchi Yer, qaysi zamonda, qaysi ona o'shandek o'z bolasini bir ko'rarga zor bo'lib, ko'zidan qonli yosh to'kib, yig'isi tosh yorib, yo'l poyladi ekan?

– Aytolmayman, To'lg'anoy. Sening zamoniningdagidek urush olamda bo'lgani yo'q.

– Bo'lmasa, o'shandek yo'l poylagan onaning eng so'nggisi men bo'layin! Illohim, meningdek temiryo'l quchoqlab, zor qaqshagan banda bo'lmasin-e.

— To'lg'anoy, o'g'ling bilan ko'risholmay kelganining ni, sen berigi katta yo'ldan qayrila berganiningda bilgan edim. Ranging shunchalik o'zgarib, ko'zlarining kirtayib, kasaldan turgandek bo'lib qolibsan.

— Shundan ko'ra bir oy es-hushsiz to'shakda yotsam rozi edim. Tong otguncha kelinim ikkovimiz bir dam tinim bilmay, temiryo'lning bo'yida u yoqdan-bu yoqqa yugurib yurdik. Tongga yaqin bo'ron bosildi. O'shanda kun botar tarafdan vagonlari tilkalanib kuyib ketgan bir eshelon keldi. Yopiray, tilkalangan eshelon asta sudralib kelganda, dara sukunatda edi. Oz-moz uchqunlab turgan qorni hisobga olmasa, stansiyada g'imirlagan jon, churq yetgan tovush yo'q edi. Bu sudralgan eshelonlarning birontasida ham odam yo'q ekan. Dabdalasi chiqqan vagonlar tirkalishib, xarobazor gumbazlar orasidagidek, unsiz huvullab yotgan go'riston sukunati hukm surar, burqsigan tutun, kuygan temir, yongan qarag'ay hidi anqib turardi. Kuni kecha tanishgan qora to'nli cho'loq o'ris kishi fonusini ko'tarib, yonginamizga kelgan edi, Aliman undan: «Bu eshelonga nima bo'lgan?» — deb astagina so'radi. «Bombalar pachaqlab ketgan» — dedi u ham sekingina. «Endi bu vagonlarni qayerga olib ketishyapti?» — «Remontga» — dedi temiryo'lchi. Ular-ning so'zini tinglab, bu eshelonda kimlar yurib, qayerda bomba ostida qolgan, ur-yiqit, baqiriq-chaqiriqning ichida kimlar oyoq-qo'lidan ajrab, kimlar jon berib, hayot bilan vidolashdi ekan, urushning shamoli shu bo'lsa, o'zi-chi, o'zi qanaqa mudhish narsa, deb xayolimdan o'tkazdim. Urushdan qaytgan eshelon stansiyada ancha turgandan keyin, sekin sudralib, yana allaqayoqqa yugurib ketdi. Yuragim hovliqib, butun vujudim titrab ketdi. Endi Maysalbegim hali pachaqlangan eshelon kelgan tomonga, qon maydoniga yo'l oladi-da. Qosim nima bo'ldi ekan? Suvonqul ham Ryazan shahriga yaqin yerda mashq qilib yotibmiz deb yozibdi. U yer frontdan uncha uzoq emasga o'xshaydi...

Quyosh chiqib, tush ham bo'ldi, umidimiz uzildi. Maysalbek biz kelgungacha o'tib ketgan ekan-da, bo'lmasa stansiyaga kelgan har bir esheloni qo'ymay qarab chiqdik-ku. Endi nima qilamiz? Maysalbek bilan

yuz ko'rishmay qolganimizmi bu? Aravadagi otlarga saqlab qo'yilgan yem-xashak ham tugab qolyapti, deb har qaysisini bir o'ylab, ovulga qaytib ketishga ko'nglimiz bo'lmay, Aliman ikkovimiz temiryo'Ichilarga yordam-lashib, temiryo'llarning orasiga uyilgan qorlarni tozalash-dik. Shunday qilmasak, vaqt o'tadigandek emas. Sovuq kechagidan bo'sh kelmay, yomg'ir aralash shamol bo'lib turdi. Bir vaqt havo ochildi, bulutlarni yorib quyosh chiqdi. «Oh, Xudoyim-ey, shu quyoshdek bo'lib o'g'lim yarq etib ko'zga ko'rinish qolsa-chi!.. Xudoyim, o'zing yetkazgin bolamnil» – deb yolvorardim. Shu orada kun chiqar tomondan parovozning haybatli ovozi eshitilib, stansiyaga yaqinlashayotgan eshelon ko'rindi. «Ena, shu emasmikin? Xudo xohlasa shul!» – dedi Aliman, xuddi bilgandek xurjunni yelkasiga solib, o'shanda bilib tur-gandek, nima uchundir bo'sharib, yuzidan qoni qochdi. Mening ham nafasim qisilib, yuragimga vahima tushdi. Bir-biriga tutashgan ikki parovoz yaqinlab, tutun, bug', qora cho'yan, qizil temir g'ildirak gurkirab, shaqillab o'taverdi, birma-bir ochiq vagonlarga yuklangan zam-barak, tanklar yonida miltiqli kishilar ko'zga chalinib turardi. Vagonlarning eshigiga to'plangan soldatlarning o'yin-kulgisidan ularning so'zlarini anglab bo'lmasdi. Vagonlar ko'z ilg'amay zing'illab o'ta boshladi. Qo'liga bayroqcha ushlagan qandaydir bir temiryo'lchi yugurib kelib «To'xtamaydi, to'xtamaydi!» – deb, qo'lini siltab, bizning ko'kragimizdan itarib temiryo'ldan chetlata-yotgan edi, shu mahal yonginamizdan: «Onal Aliman!» degan qichqiriq eshitildi. Maysalbek! U ham, aylanib, qoqinib ketayin bolam-ey, bir qo'li bilan vagonning tutquchini ushlab, bo'ynini orqaga tashlab, quloqchinini silkib, xayrlashib borayotgan ekan. «Maysalbek!» – deb qichqiranimni bilaman. O'sha ko'zga tashlangan paytda, Maysalbekning qaddi-qomati aniq ko'rindi: shinelineg etaklarini shamol tortqilab, yuzida, ko'zida o'kinch ham, sevinch ham, uchrashuv ham, xayrlashuv ham bor! Quturib esgan shamol uning ovozini olib qochdi, Maysalbekning o'sha turishidan ko'z uzmay, u uzoqlashgan sayin poyezd bilan birga yurib, eshelon-ning eng oxirgi vagoni yonimdan o'tganda, orqasidan

yana chopib, yuztuban yiqildim. O, o'shanda bo'zlab, qaqshab yig'laganim-ey! O'q yog'ib turgan maydonga ketib borayotgan o'g'limning o'rniga, temiryo'lni quchoqlab, vidolashib yotdim. G'ildiraklarning relsga taqtuq urilishi ham tobora uzoqlashib borardi.

Hozir ham, gohida o'sha eshelon qulog'imni tindirib, bir-biriga tutashgan ikki parovoz olib uchgan vagonlar miyamni qoq yorib o'tayotgandek bo'ladi.

Orqamdan o'shanda xo'rsinib yig'layotgan Aliman yetib kelib, uning ketidan yana bir temiryo'ichi o'ris ayol kelib yotgan yerimdan quchoqlab turg'izishib, temiryo'lidan chetga olib o'tishdi. Aliman meni qo'litiqlab kelayotib, o'shanda, qo'limga askar qulochchinini tutqazdi: «Mang, ena, muallim bola tashlab ketdi» – dedi u. Maysalbegim menga tashlab ketgan ekan.

– To'g'ri aytasan, To'lg'anoy, aravada kelayotib, qalpoqni ko'ksingga bosib kelmaganmiding.

– Ha, o'sha qulochchin hozir ham uyda ilig'li turibdi. Peshonasida qizil yulduzi bor, bo'z matodan tikilgan soldatcha qulochchin. Ba'zan qo'limga olib hidlayman, undan hali ham o'g'limning isi kelib turgandek...

IV

– To'lg'anoy, boyaqish To'lg'anoyim, sumbul sochlaringga kumush qirov tushirib ketgan o'sha kunlar emasmidi? Esizgina o'rim-o'rim sochlari! Sen bu yerga kelganda har gal ham boshqacha qiyofada kelarding. Dam-badam yueling og'irlashgandek, hamma qiyinchiliklarga bardosh berib, dardingni ichga yutib jimgina kelib, jimgina ketsang ham boshingga qanday qiyin, og'ir kunlar tushganidan to'la ogoh edim.

– Ha, ona-Yerim, nima ham der edim. Yolg'iz menagina bo'lsam edi – urushning kasri tegmagan bitta ham oila, bironqa ham odam qolmagan edi-ku. Boshqasi u yoqda tursin, dunyoning o'ng-tersi bilan ishi bo'limgan, endigina tili chiqqan mushtdek bolalar ham, og'zidan suti ketmagan go'daklar ham, bir ashula aytib ber-chi, desang, yurak, bag'ringni yorib:

*«Oq ko'ynagim etagi
Hilpir-hilpir etarmi.
Askarga ketgan otamning
Bir xabari kelarmi?» —*

deb qaqqash tursa, kimning ichi achimaydi, bostirib kirgan dushmanga: «Hap senimi!» — deb kim g'azablanmaydi. Mudhish xabar — qora xat kelganda, askarga ketgan kishilardan ajratib, har kuni ovulning ikki-uch yeridan dilingni ezib yuboradigan yig'i-sig'i ovozlari chiqib tursa, kishining qoni qaynab, urush o'tining yolqini, yurak-bag'ringni o'rtayotganini o'shanda bilar ekansan! Xuddi o'sha kezlarda brigadirlik qilib, elning achchiq-chuchugini birga totib, ko'pchilikni eplab, bosh-ko'z bo'lib yurganimdan hozir ham faxrlanaman, hozir ham uni zavq bilan, minnatdorchilik bilan eslayman. U bo'limganda balki, men allaqachon mayishib, allaqachon mudrab, allaqachon urush to'polonlari ichida oyoqosti bo'lib ketar edim. Qilichini yalang'ochlab kelgan yovga qarshi zarba berishning yagona yo'li kurashda, mehnatda emasmi. Mana, qadrdon dalam, ish orasida chopacha kelib, yana un chiqarmasdan ot jilovini qayta burib, indamasdan chopib ketishimning boisi ham shunda. Qosimdan xat kelgani esingdami, mehribonim?

— Bo'lmasam-chi, To'Ig'anoy. Sen narigi yoqdagi ko'chadan chiqaverishingda, baland-pastliklarga qaramay, otning boshini qo'yib chopib kelayotganingdayoq bilgan edim. Sen o'shanda adirga go'ng sochib yurgan kelining bilan kichik o'g'ling oldiga suyunchi olgani kelgan eding, To'Ig'anoy!

— Suyunchi olmay bo'ladi? Birdaniga ikki oy dom-daraksiz ketgan Qosimimdan sog'-salomatman deb xabar kelsa-yu, men suyunmay, kim suyunsin! Moskva yonidagi keskin janglarga ikki bor kirib, ikkalasidan-ham sog'-salomat chiqdim, nemislarning shashti qaytib to'xtab qoldi, bizning polkimiz hozir dam olyapti, depti. Alimanning o'shandagi quvongani-yey!.. Aravadan irg'ib tushib, Jaynoqdan oldin «Enajon, og'zingizga moy, qo-qinib ketay, enajon!» — deb, yetib keldi-yu, xat ushlagan qo'llari qaltirab, hech narsa o'qiy olmay: «Omon! Omon-eson!» — deyaverdi. Yon-verida go'ng sochib yur-

gan juvonlar yugurib kelishib, «Qani, o'qi-chi, Aliman, kuyoving nima depti?» – deyishsa, «Hozir, aylanaylar, hozir!» – dedi-yu, o'qiy olmadi. «Menga ber-chi, yanga. Odamlarga o'qib berayin» – deb Jaynoq xatni oldi-yu, baland ovoz bilan o'qiy boshladidi. O'shanda Aliman nima uchundir yerga o'tirib qolib, qizigan peshonasiga changallaganicha qor bosdi. Xat o'qilib bo'lgach, u biroz o'ylanib turdi-da, betidagi erigan qorni ham surtib olmay, shu bo'yicha yig'lashini ham, kulishini ham bilmay, xuddi tush ko'rgan yosh boladek jilmayib: «Yuringlar, endi ishlaylik!» – dedi. So'ng o'zi atrofga bamaylixotir nazar tashlaganicha odimlab ketdi. Nimalarni o'ylaganini kim bilsin, menimcha yozda, shu dalada Qosimga suv tashib yurgan kezlarini esladimi, balki, uni askarga ketayotganda kombayn bilan xayrlashgani ko'z oldiga kelgandir. Tavba, kelinim sir saqlab yursa ham, barisi yuziga chiqar edi. Axir, shunday odamlar ham bo'ladi-ku. Shu daqiqa Alimanning ko'zlar ham sevinib, ham mung'ayib, allaqanday ajoyib, go'zal ko'rinishlarni eslagandek kulimsirab, erkalab katta yo'lida yomg'irdek to'qilgan saman yo'rg'aning olislab borayotgan changini kuzatayotgandek mo'ltilab yosh olib, qisqasi, kelinim o'y-xayollar seliga cho'mgandek edi. Hazilkash Jaynoq tushmagur uni qo'yarda-qo'ymay yengidan tortib: «Ey yanga, es-hushingizni yo'qtoganga o'xshaysiz. Shunchalik holingiz bor ekan, nima qilardingiz xatga qo'l cho'zib... xatni o'qiy olmay, el-u xalqqa kulgi bo'ldi, deb Qosim og'amga yozib yuboray. Xotiningizni yana maktabga bermoqchimiz deyin!» – dedi. Aliman uni hazillashib mushtlab, bir-birovlarini quvlashib ketgandan keyin, men ham beixtiyor kula boshladim. «Mayli, – dedim o'shanda o'zimcha – ich-ichimdan faxrlanib. – Yovni yov bosadi! Qosimning jangga kirib ko'p qatori nemis bilan solishib chiqqani rost ekan. Mening bolalarimdek yigitlar elni qo'riqlamay, kim qo'riqlasin. Faqat omon bo'lib, dushmani yengib, zafar bilan qaytib kelsa bo'lgani, boshqa hammasiga chidash mumkin, mayli, it azobini tortsak ham, ertaroq yengsak bo'lgani! Xudoyim, ertaroq yengsak ekan!» – deb tilak tilardim. Bu faqat mening istagim bo'lmay, ko'pning tilagi, ulug'

tilak bo'lgani uchun ham, hammasiga ko'nar ekansan. Uyda yolg'iz qolgan kenjam, Jaynog'im, o'n sakkizga yetar-yetmas askarga ketganda: «Mayli, boshga tushganni ko'z ko'rari!» – deb o'zimni o'zim yupatdim.

Qishning oxirlariga borib Jaynoqni o'z tengqurlari qatori harbiy komissariatga chaqira boshlaganda, ularni shunchaki bir askar sifatida mashq qildirib yursa kerak, deb o'ylardim. Uni askarga oladi degan xayol ham ko'nglimdan o'tmagan edi. Ikki marta tumanga borib, o'n kun chamasi o'ynab keldi, keyingi borishda esa oradan bir kun o'tib, ertasigayoq Jaynoq uya qaytib keldi. «Nima, senga javob berishdimi, tezda qaytib kelib qolding?» – deb so'rasam: «Yo'q, ona, ertaga yana tumanga qaytib ketaman. Harbiy komissariat bir kun uyda bo'lismaga ruxsat berdi» – dedi. Men bo'lsam o'shanda ham payqamabman. Uzoq safarga otlanayotgandek Jaynoq o'sha kuni juda ko'p ishlarni bitirib qo'ydi. Ishdan birrov qaytib kelsam, qo'raning ichini supurib, olam-jahon o'tinni yorib qo'yibdi. Molxonani tozalab, toming ustidagi pichanni quritib to'plab, otasi ot bog'lab yuradigan oxurning buzilgan joylarini chaplayotgan ekan. «Voy, uni nima qilasan, bolam, yozda shuvalar» – desam: «Vaqt borida bitirib qo'ygan yaxshi, ona. Keyin qo'l tegmaydi» – dedi. So'ng bilsam, u bekorga unnab yurmagan ekan. Jaynog'im o'z ixtiyori bilan komsomol chaqirig'iga javoban urushga jo'nab ketdi. Uni biz Jaynoq jo'nab ketgandan keyin bildik, stansiyadan aravakash, ovuldoshi orqali xat yuboribdi. Aldab ketgandek, voy bechora bolam-ey, to'g'risini aytib xayrlashib ketsang, yig'lab-siqtasam ham tushunar edim-ku. Aliman ikkalamizga yozgan xatida, xayrlashmay ketganim uchun meni kechiringlar, sizlarni bira to'la bilishsin, dedim, askarga o'z ixtiyorim bilan ketishni lozim topdim, deb yozibdi. Mening bu ahdimga rozi bo'lmas, deb o'yladimi, yo aytishga og'zi bormadimi, qaydam. Bilishimcha, Jaynoq urushni sevib, qiziqib ketgani yo'q, uni yomon ko'rgani uchun, elga keltirgan ziyon-zahmatini qalbdan his qilgani uchun qo'lga qurol olib, bellashgani ketdi. Otasi, ikki akasi el-u xalq deb jang maydonida qon kechib yurganda,

buning joni ulardan ham azizmidi, u ham or-nomusli yigit emasmi. Ha, Jaynoq xuddi shuning uchun, urushni yomon ko'rgani uchun ketganiga ko'zim yetib turibdi! Yolg'iz Jaynoq frontga borgani bilan dushmani qiyratib yubormaydi, biroq bunday deyish ham to'g'ri emas. Jaynoqqa o'xshaganlar o'nlab qo'shiladi, yuzlab, ming-lab qo'shiladi, shunday qilib kuch to'planadi! Shunday qilib qo'l paydo bo'ladi, shunday qilib tog' hosil bo'ladi! Jaynog'im, kenjam, quvonchig'im, hazilkashim, xushchaqchaq suxsur toychog'im, bolam! Sen nima uchun aytmay ketganiningni bilmadi deysanmi? Seni bolalik qilib, urushning nima ekanini, o'limning nima ekanini tushunmay ketaverdi deb o'yladi, deysanmi? Sening xushchaqchaqligingni ko'rib, sening insonga bo'lgan tog'dek mehr-muhabbatingni har kim ham tushunavermas edi. O'sha muhabbattingdan xotin-xalajning ko'rgan azobiga tik qarab tura olmading. Odamning bu dunyoda orttirgan narsasi yaxshilik ekan-da. Mana endi, urushda yurib, allaqayerda nom-nishonsiz qurban bo'lding. Qirq to'rtinchchi yilning qaysi bir qorong'i tunida partizanlarga yordamlashish uchun samolyotdan parashutda sakrabsan-u, parashut desantidaman, nemislarning orqa tomoniga o'tib uch bor jang qilib keldik, deb xabar kelganiningcha dom-daraksiz ketding. Dushman bilan olishib, biror yerda o'qqa uchradingmi, yo to'qayzorda adashib ketdingmi, yoki qo'lga tushib qoldingmi. Haytovur, omon bo'lganingda biror shar pang sezildi-ku, bolam. Sen juda erta xazon bo'lding, Jaynog'im, kenja-toyim, yosh ketib elning esida ham uncha qolmagansan. Men seni yo'qlaganda, bizni ayab aytmay ketganiningni doim eslayman, o'sha kezlarda stansiyaga arava bilan qatnab yurganingga, notanish bir yosh bolaga ustingdagi to'ningni yechib bergeniningni doim eslayman. Qish tushib qolgan, ayozli tunlarning birida, aravasini o'rtoqlariga berib, Jaynoq ko'yakchan kirib keldi. Sovuqdan ko'kargan yuziga qarasang, aqling qochadi, tishi tishiga tegmay, tarasha bo'lib qolyapti. Shunday bo'lsa ham, sir boy bermaydi. «Voy, bu nimasi, kiyiming qani, yo'lda birov yechintirib oldimi?» – desam, bir bolaga berib keldim, dedi. Keyin o'rtoqlari aytib berdi. Urush-

dan evakuatsiya bo'lib kelgan bitta o'ris xotin to'rtta yosh bolasi bilan bizning stansiyaga tushib qolgan va hammasi och-yalang'och bo'lib, sovuqdan titrashib o'tirishgan ekan. Onasi bolalarni eplab-seplab ro'molpo'molga o'rabi qo'ygan bo'lsa kerak, sakkiz-to'qqiz yoshlardagi dastyor o'g'liga hech narsa yetmay, juldur kamzuldagina tirishib o'tirgan mish. Jaynoq o'sha bolaga ustidagi to'nini yechib beribdi. To'nini kiygizib qo'ysa, etagi tovoniga shalpirab, sudralib, yenglari tizzasidan pastga tushib tursa ham, biroz isigan bola, qayta jon kirgandek, qayta tirilgandek kulimsirab, jilmayib, huzur qilib qolibdi. Jaynoq o'shang a xursand bo'lib, yo'l bo'yi sovuqda aravalarning ortidan yugurib, navbatmanavbat o'rtoqlarining kiyimini olib kiyib borayotgan bo'lsa ham, haligi bolani dam-badam eslab: «Yaxshi ish bo'ldimi, bechora bola isib, o'ziga keldi-a?» – deb kelaveribdi. To'g'risini aytsam bir kishiga to'n yechib berish bilan elning kami ko'sti to'lib, butun bo'lib ham qolmaydi. Biroq haligidek birga o'n qo'shilib, o'nga yuz, ming qo'shilib, elchilik-yurtchilik, odamgarchilik, jigarbandlik degan narsalar shundan kelib chiqishiga ishonaman. Odam yaxshilikni yerdan topib olmaydi, odamdan o'rganadi. Jaynoq berib ketgan to'n yirtilar, butunlay yo'q bo'lib ketar, aytishga arzimaydigan narsa, birov gap unda emas, shu kichkina bolaning qalbida birov qilgan yaxshilik uchqunlari saqlanib qolsa, odam bo'lgandan keyin birovga yaxshilik qilish burch ekanini yoshligidanoq tushunib olsa, Jaynog'imning qilgan savob ishi o'shanda.

Eh, endi nimasini aytayin, urush kasofati qancha-qancha odamlarning yostig'ini quritdi, Jaynog'im omon bo'lganda qanday odam bo'lar edil! O', fe'l-atvoringdan, qiliqlaringdan aylanay, bolam, qaydasan, qaydasan? O'n gulingdan bir guling ochilmasdan, qayerlarga borib o'qqa uchding ekan? Oh, dunyo, oh, jonajon Yer, bolamni ko'z ochib yunguncha tiriltirib, diydotini birgina ko'rsatib qo'ysang-chi!..

– To'lg'anoy, sabr qil, o'zingni bosib ol. Unday qilma, o'zingga rahm qil... Yuragingning har bir tepishini g'animat bil. Bo'yningdag'i qarzingni unutingmi?

— Yo'q, sirdosh dalam, unutmeyman. Unutmaganligim uchun huzuringga kelib turibman-da. Shu qarz bo'l maganda hanuzgacha tirik yurgan bo'larmidim, chiqmagan jonio qiltillab, yuragim allaqachon g'alvir bo'lgan-ku. Esingdami, ona-Yer, o'sha mudhish kunlar?

— Esimda, To'lg'anoy. Seni qo'sh haydatib yurgen yeringdan chaqirib ketishganlaridayoq bilgan edim. Odamlarning ko'z qarashidan, kiprik qoqishidan, pichirlashib gaplashganidan sezganman.

— Ha, boychechak ochilgan ko'klam kunlari dala-ga endigina qo'sh chiqargan kezlar emasmidi? Kun tegmagan kamarlarda qurt-qumursqalar hali ham karaxt uylab yotgan bo'lsa ham, mayin shabada esib, yer selgib, kun sayin maysalar nish urib, bahor yaqinlashmoqda edi. Oh, bahorni qo'msab, donning sepilishini orziqib kutayotgan dehqon dalam! Namiqqa yuzlaring ko'kimdir rang olib, olamning chor atrofiga yastanib, allaqayeringda kumushrang taratib, to'shakda yotgan juvondek balqib turganingdan, bepoyon dalam!

Plug tishlari endigina yer bag'rini tilib, nam tup-roqning iliq tafti yurakni qitiqlayotgandek edi, traktor orqasidan hamaylixotir odimlab borarkanman, yerga: hosildor, barakali bo'l, urushda yurganlarga quvvat bo'l, deb, Suvonqul bilan Qosimdan ko'pdan buyon xat-xabar uzilganini eslab, o'zimcha o'ylanib tursam, ovuldagi qariyalardan biri kelib qoldi. «E, oqsoqol, kelib qolibsiz, ish boshidan bir fotiha berib yuboring!» — dedim. «Dehqon — bobom, Xizr nazar qilsin, xirmon barakali bo'lsin, huzurini el ko'rsin! — deb, u kishi ot ustida fotiha qildi-da: — To'lg'anoy, tumandan kelgan vakil, brigadir kelsin, deb chaqiryapti, yurgin» — dedi. Qo'shchilarga ishni tayintlab, ovulga yo'l oldim. Uyimda hech nima yo'q, tumandan kuniga kattalar kelishadi, ayniqsa yer haydash boshlanganda ko'proq kelishmaydimi. Qariya bilan asta-sekin uni-buni gapirishib kelar ekanmiz, u kishi gap orasida so'z qistirib: «Rahmat senga, To'lg'anoy! Shunday mushkul kunlarda elga bosh bo'lib yuribsan, dadil bo'lib ishlayver. Senga ham oson emas, odamning boshiga nimalar tushmaydi, nimalar o'tmaydi, degandek bunday og'ir kunlarda bir-

birimizni qo'llashimiz, madadkor bo'lishimiz darkor, yo'q bir-birimizga madormiz, elmiz. El bilan ko'targan yuk yerda qolmaydi» – deb qo'yadi.

Ovulga kiraverib, ko'cha bo'ylab kelayotganimizda uyimiz yonida g'ala-g'ovur to'planib turgan xalqni ko'rib ham hech narsani sezmapman. Qariya menga yalt etib qaradi-yu, cho'chigandek: «Otdan tush, To'lg'anoy» – dedi. Men hayratlanib qarab turgan bo'lsm kerak, u kishi otidan tusha solib, mening qo'ltig'imdan oldi: «Tush, To'lg'anoy, tushishing kerak!» – deb takrorladi. Tilim kalimaga kelmay, butun vujudim junjikib, otdan tushdim. Bir vaqt qarasam, narigi yoqdan Alimanni ergashtirib, uch-to'rt ayol kelayotgan edi, Aliman o'sha kuni ariq olishda ishlayotgan edi. Uning ko'tarib kelayotgan ketmonini bir ayol yelkasidan shartta oldi. Shundagina hammasini tushundim: «Bu nima qilgallaring, voy Xudo, sho'rim qursin!» – deb ko'chani to'ldirib baqirdim. Shu mahal Oysha qo'shnimning uyi-dan ayollar chiqa solib, qo'llarimni mahkam ushlashdi: «Bardam bo'l, To'lg'anoy, Suvonqul bilan Qosimdan judo bo'ldik!» – deganda: «Ena, enajonim-ey!» – deb chinqirgan Alimanning tovushi chiqqach, turgan odamlarning hammasi: «Jigarim-ey! Jigarim-ey» – deb o'kirib yig'layverishdi: Oh, la'nati urush, maqsading shumidi? Oh, qora kun ko'rgilik shumidi? Mengina emas, ko'cha-ko'y, uylar, dov-daraxtlar chayqalib egilar, yer-ko'kni buzgan yig'i tovushlaridan qulog'im tinib, garang odam-dek hech narsani eshitmay, allaqanday bir mudhish jimmlik ichida, go'yo tushdagidek, go'yo kishilarning yuzini bulut qoplab olgandek ko'zga chalinib yo o'lik, yo tirik ekanligimni sezmay, orqamga qayrilgan qo'llarimni bo'shatib olishga harakat qillardim. Yonimda kim borligi, eshik yonida dod-voy solayotgan odamlar kimlar ekani bilan ishim yo'q, mening bиргина aniq ko'rib turganim – Aliman. Betini, ko'ylagini yulib, sochlari to'zg'igan kelinim ham nimalarnidir zor qaqshab, chin-qirib, ikki yoqdan osilganlarga bo'yin bermay, u ham men tomon talpinardi. Alimanga tezroq yeta qolsam degan xayol bilan men ham unga intilaverdim, biroq xuddi qirq kunlik olis yo'ldan kelayotgandek bir-biri-

mizga yetolmay, qo'shilguncha ancha vaqt o'tdi. O'rtaga uzoq yo'l tushgandek, bir vaqt Aliman yetib keldi-da, bitgan qulog'im o'shandagina ochildi. Ikki qo'lini yozib: «Boshimizga qorong'i kun tushdi, ena, ayriliq, yesirmiz, yesirmiz! Oy-kunimiz so'ndi, birdek yesirmiz!» — deb, Aliman faryod chekib, o'zini mening quchog'imga otdi. Ha, o'sha paytda ikki yesir qo'shilib, bir-birimizga yongan ko'kragini bosib, zor qaqshab yig'lardik...

Ajoyib azamatlar, tog' nurasa bo'lmasmidi, ko'l qurisa bo'lmasmidi! Suvonqul bilan Qosimim, otabola ikkovi ham qanday dehqon edi! Dunyoning tayanchi shunga o'xhash zahmatkashlar emasmi: elni to'yg'azganlar ham o'shalar, yov kelganda qo'lga qurolib, mamlakatni qo'riqlab, qon to'kkalar ham o'shalar. Agar urush bo'lmaganda, Suvonqul bilan Qosimim qancha odamlarga rizq-ro'z berib, mushkulini oson qilib, ekin ekib, qancha xirmon ko'tarib, qancha ishni bajar-gan bo'lardi. O'zları ham el mehnatidan huzur-halovat ko'rib, odamning qancha rohatiga sherik bo'lishar edi. O'ylab qarasang, qiziq, aylanayin, ona-Yer urush boshlanar ekan-u, u urushda odamzodning eng asl, hunari bor azamatlari o'z ishini tashlab, birining qonini biri to'kib, birini biri o'ldirishga safarbar bo'lishar ekan. Men bunga ko'nikmayman va umrbod ko'nikolmayman. Tabiat tomonidan yaratilgan eng oliy mavjudotlarning eng buyugi — odamzod, dunyoni o'ziga bo'ysundirgan kim — odamzodmi, shunday ekan, bir-biriga bunchalik ziyon keltirmay, tinch-totuv yasholmaydimi? Sirdosh dalam, javob ber, ayt javobingni.

— Qiyin savol berding-ku, To'lg'anoy. Men bil-ganimdan beri, odam odam bo'lib yaratilgandan beri urushgani urushgan. Ba'zan urushda mutlaqo qirilib nom-nishonsiz ketgan ellar ham bo'lgan, kuli ko'kka sovurilib, tirik jon qolmay, xonavayron bo'lgan shahar-lar ham bo'lgan. Necha asrlar odamzod iziga zor bo'lib, bo'm-bo'sh yotgan vaqtlarim ham bo'lgan. Har gal urush chiqqanda, gap uqqanlarga, urushmanglar, qon to'kkuncha aql ishlatinglar, deb aytaman. Hozir ham aytadigan so'zim shu: «Ey, odamlar, dunyoning to'rt burchagida yashagan odamlar, sizga nima kerak — Yer-

mi? Mana men – Yerman, men barcha odam bolasiga yetaman, menga talashishlaringning keragi yo'q, menga inoqlik kerak! Mehnat kerak! Shudgorga bitta don tash-lasalaring, yuz dona qilib beraman, xipchin sanchsalaring, chinor qilib beraman, bog' qilsalaring, meva tugib beraman, mol yoysalaring pichan bo'lib beraman, uy qursalaring, devor bo'lib beraman, urug'-aymoqlaring ko'paysa, hammalaringga joy bo'lib beraman! Men tugamayman, men xasis emasman, men konman, men hammalaringga baravar yetaman!» – deyman. Sen endi, To'lg'anoy, odam bolasi tinch yashay oladimi, yo'qmi, deysan. O'zing o'ylab ko'r-chi, u mendan emas, sizlardan, odam bolasining o'zidan, sizlarning inoqliklaringizdan, xohishlaringizdan, aqli idroklaringizdan... Meni urushning zahmatini tortmaydi deysanmi. Maydonda qurbon bo'lgan mehnatkashlarimning: sening Suvonqu-lingga, Qosimingga, Jaynog'ingga o'xshagan dehqonlarimning mehnatini sog'inaman, ularni yo'qlayman. Yer vaqtida haydalmay, ekin vaqtida sug'orilmay, xirmon vaqtida ko'tarilmay turganda, men ularni: «Kelinglar, polvonbilak dehqonlarim, kelinglar, bolalarim, tezroq turib kelinglar, quvrab ketyapman!» – deb chaqiranman. Afsuski, ketmonini ko'tarib, Suvonqul kelsa qani, afsuski, kombaynni haydab, Qosim bug'doy o'rimiga kirsa qani, afsuski, xirmonga qizil alvon tortib, Jaynoq aravasini quvib kelsa qani!..

– Sen ham mendek bag'ri qon ekansan, g'amxo'r dlam, sen ham mendek sog'inarkansan, sen ham mendek yo'qlar ekansan. Rahmat, senga, jigarbandim Yer!

Bilasan-ku, yomon-yaxshi kunda birga bo'ldik. Suvonqul bilan Qosimning azasini tutib, Aliman ikkallamiz qora kiyinib, aza ochib, yig'imizni ham tugata olmadik. Eshitganimizdan so'ng yetti kun o'tib, yettisini o'tkazganimizdan keyin, el ruksat berdi: bir yilgacha aza tutsang ham ozlik qiladi, iloj qancha; oxiri baxayr bo'lsin, Maysalbeging bilan Jaynog'ing (unda Jaynoq tirik, xat uzilmay, kelib turgan payti edi) omon-eson qaytib kelishsin, yoz yorishli deganlaridek, tirikchilik qilinglar, qo'sh haydash vaqtida birdek ishga kiri-shinglar, o'lganlar uchun dushmanidan o'ch olganimiz shu

bo'lsin, deyishdi. Kelnim ikkalamiz uuda o'tirganimiz bilan nima qila olardik. O'lganlarning ketidan o'lib ketmas ekansan, ko'pchilikning gapiga ko'ndik, ishga chiqdik. Ishga chiqish kuni ertalab raisimiz Usenboy allaqanday ikkita qog'oz olib keldi, qora qog'ozlar ekan, saqlab qo'yinglar, dedi. Bilsak, Qosimning qora qog'ozini yarim oy burun idoraga kelgan ekan, Moskva ostonasi-dagi hujumda, Orexovka degan qishloqda qazo qilibdi. Uni bildiramiz deb turganlarida, Suvonquldan ham qora xat kelib qolibdi. U ham Yeles shahrida katta bujumda qurbon bo'libdi. Ovuldoshlarimiz ikki odamimizni bir vaqtida bildirganlarining ham boisi shunda. Undan keyngisining nimasini aytay. Brigadir ekanman, belimni mahkam bog'lab, yana otlanib chiqdim.

— To'lg'anoy, sen kelganda ikkalamiz ko'pni ko'rghan onalar kabi o'tdek tutoqib, jimgina ko'rishdik, a?

— Ha, shunday qilmasak bo'larmidi. Men yig'i-sig'i qilaversam, kelnim undan battar hayotdan bezib ketmamidi? Bilib turding-ku, kuyoviga shunchalik kuygan juvonni umrimda ko'rghan emasman. Men ham erimdan, ham o'g'limdan judo bo'lib, undan oz kuymagan edim. Shunday bo'lsa ham mening yo'l-yo'rig'im boshqa. Ozmi-ko'pmi, Suvonqul ikkalamiz ancha yil birga umr kechirib, turmushning achchiq-chuchugini birga totib qoldik, bola-chaqali bo'ldik, murodimizga yetdik. Urushning xarxashasi bo'lmaganda, birga qarib, buyurganini yana birga ko'rardik. Aliman bilan Qosim bo'lsa endigina qo'shilib, yoshlikning eng shirin paytida, sevgining eng qaynoq kezida, bolta bilan qiya chopilgandek ikkisi ikki tomonga qulab yiqilmadimi. O'g'lim-ku, o'ldi, biroq Alimanning tirik yurishini demasa, tushungan kishiga u ham o'lgan bilan barobar emasmidi. Albatta, Aliman yosh edi; keyinchalik bora-bora, balki, yana o'z tengini toparmidi... Alimanga o'xshash beva qolgan ko'pgina kelinlar urushdan keyin turmushga chiqib ketishdi. Ko'pchiligi baxti ochilib, hozirgi kunda bola-chaqali ona bo'lib qolishgan. O'shalar to'g'ri qiladi. Biroq hamma birdek emas ekan-da, ba'zi birovlar burungisini tez unutib, jon-jarohati bitgach, tezda yangi yo'lga tushib olishadi. Alimanning esa, sho'ri qurib, unday bo'lmadi.

U boshiga tushgan baxtsizlikka ko'nika olmadi, burungisini unuta olmadi. Bunda mening ham katta aybim bor. Ha, shunga qolganda bo'shlak qildim. Bo'shlak ham deb bo'lmaydi, kelinimni ayab yurib, uning ichki siriga aralasha olmay qo'yganimni nima desam ekan, bo'shlakmi, yo undan ham yomon gunohmi? Esingdami, ona-Yer, o'sha bahorda shu yerda bo'lgan ish?

— O'sha choqda kelining mening betimga chopganini aytyapsanmi?

— Ha, o'shani aytaman. O'sha bahorda bahri-dilingni yashnatib qiyg'os ochilgan qizg'aldoq ko'pdan buyon yaydoq qolgan dalangda to katta yo'lga qadar to'shalib yotmovdimi. Gulning chiroylisi qizg'aldoq emasmi, aylanay!

O'sha kezlarda brigadamiz a'zolari bosh ariqni kovlashmoqda edi. Men ham shu yerda qo'shchilar yoniga borib, undan ketmon chopayotganlar yoniga kelib, ot ustida yurardim. Odamlar kun botmasdanoq ariqni chopib bo'lib, ovulga erta tarqalishdi. Alimanga, sen qiz-juvonlar bilan uyga ketaver, orqangdan yetib boraman, dedim-u, berigi tomonga, qo'shchilarning olachig'iga burildim. Birozdan keyin otlanayin deb oyog'imni uzangiga solayotganimda, Alimanni ko'rib qoldim. U uyga ketmasdan shu yerda yolg'iz qolibdi. Gul terib yurgan ekan. Gulni yaxshi ko'rmasmidi. Ana, sho'rlik Aliman, gul suygan, guldek bo'lgan kelinim! Qo'lidagi o'ntacha qizg'aldoqni erkalanib silar, yuziga bosib, qandaydir bir chuqur o'yga cho'mgandek turardi. Uni shu holatda ko'rib, chakkamga issiq ter yugurdi. Shunda uning bir vaqtlar o'roq o'rib yurib, gulxayri terganligi esimga tushdi. Shunda u boshiga qizil durra o'rab, qo'liga oppoq gulxayri ushlab olgan emasmini, hozir bo'lsa boshida qora ro'mol, qo'lida qizil gul, farqi shundagina edi. Aliman o'shanda xayolga cho'mgan boshini yuqori ko'tardi-da, anchagacha tevarak-atrofga nazar tashlab turdi, so'ng osmonga tikilib, birdaniga, buning endi kimga qanchalik keragi bor, degandek, ke-chirgin, ona-Yerim, sening betingga urgandek, achchig'i bilan qo'lidagi gulni uloqtirdi-yu, o'zi esa yuztuban yiqilib yotib qoldi. Mayli, yig'lab olsin, deb men ola-

chiqning orqasidan panalab turdim. Shu mahal Aliman o'rnidan yana irg'ib turdi-da, boshi oqqan tomon, katta yo'lni ko'zlab otilganicha jo'nadi. Esim chiqib, otga mina solib orqasidan tushdim. Qani endi yeta olsam. Oldimda qora ro'molini hilpiratib, qizil gullar ustida qochib borayotgan kelnimni ko'rар ekanman, sarosimaga tushib: «Aliman! Aliman! Bu nima qilganing, voy o'lay! To'xta! To'xtagin!» – deyaveribman. O'sha safar yo'rg'a samanining orqasidan yugurgandek, Aliman katta yo'lga yetib borib, yana qaytib, men tomonga yuzlandi. «Ena! Enajon! Menga hech nima demang! Indamang! Qo'ying!» – deb qo'lini yozib yugurib keldi-da, otning yolini changallab boshini mening tizzamga qo'ydi-da, ho'ngrab yig'ladi. Men indamadim, nima ham der edim, yig'isi bosilguncha qarab turdim. Bir vaqt boshini ko'tarib, Aliman menga qaradi. Oh, o'shandagi ahvolini-yey, yuzidan issiq yosh oqib, ko'zlari shishib ketgan. «Qarang, ena, – dedi u xo'rsinib. – Quyosh shunday yarqirab tursa, dala shunday gullab tursa, musaffo osmon shunday kulib tursa, Qosim kelmaydi-a? Endi hech qachon kelmaydi-a?» «Yo'q kelmaydi» – dedim men. Aliman chuqur xo'rsinib oldi-da: «Kechiring, ena, – dedi. – Qosimning orqasidan yugurib borib, birga o'lay degandim». Shunda men ham yig'lab yubordim. Agar men odam bo'lsam, uzoqni ko'ra oladigan ona bo'lsam, o'shandayoq uning betiga qaramay turib: «Bu sening nima qilganing, yosh bola bo'lib qoldingmi, bundan keyin yashashni istamaysanmi? Senga o'xshagan qancha kelinlar beva bo'lib qoldi. Sabr qil, asta-sekin Qosimni unut, sendek juvon yerda qolarmidi. O'z tengingni yana toparsan. Baxting ochilar. Qo'y, bunday qilma, yomon bo'ladi. Hayotdan bezsang, o'zingning sho'ring. Bardam bo'lli» – demaymanmi, shunday qilib uni yo'lga solmaymanmi? Ammo men shunday deb ayta olmagan edim, haqiqat bo'lsa ham sovuq gap yomon ekan. Keyin ham necha marta shu so'zni kezi kelganda, tilimning uchida tursa ham, tortinib ayta olmadim. Bunga turli sabablar bo'ldi, mendagina emas, Alimanning o'zidan ham o'tdi. Qisqasi, so'zning ham temirdek qiziq payti bo'lar ekan, vaqt o'tgach, bora-bora sovub, bora-bora og'irlashib,

bora-bora aytishga qiyinlashib, eski dard zo'rayib ketar ekan. Bu gapni men mana hozir, zamon tinchlanib, ora-dan qancha vaqtlar o'tgandan so'ng aptyapman. O'sha to'polonli yillarda, kolxozning bitmas-tuganmas ishlari bilan o'ralashib, bu ishni bafurja o'tirib, o'ylashga vaqt ham, fursat ham bo'l magandi. Bizning barcha harakatimiz, umidimiz, tilagimiz, kutganimiz – ertaroq g'alabaga erishsak, urush tugasa. Undan keyingi ishning hammasi o'zicha hal bo'ladigandek oson ko'rinaldi. Lekin hozir ham urushning achchiq iztirobi bitdi deb ayta olmaymiz... Ha, ona-Yer, bitmagani uchun shu zaylda hammasini qaytadan eslab, barchasini qaytadan qon yutgan yuraklardan o'tkazib, so'zlashib o'tiribmiz-da.

— Gapiraver, To'lg'anoy, gapiraver. Bugun so'z senga. Hikoyangni davom ettiraver.

— Gapirmasdan iloj qancha: hayot o'zi shunga majbur etadi. Urushning uchinchi, to'rtinchi yillari davom etib, kishi qalbini dam kuyuntirib, dam suyuntirib, dushman tobora chekinib borayotgan bo'lsa ham, hech bir cheki yo'qdek, kuch-quvvatdan tolgan elni battarrog qaddini bukib, tinkasini quritardi. El kuzda, yig'imterim paytida mashoq terib, bir amallab kun o'tkazgan bo'lsa, qish o'rtalariga borib topgan-tutgani ham oxirlab qolgan edi. Ko'klamga kelib tog'dan qazib olingan o't-o'lanlarning tomirlarini yeyish bilangina kun kechirganlar ham bo'ldi. Aliman ikkalamiz och-to'q bo'lsak ham, sabr-toqat qilib, kolxozning ishidan kun o'tkazib yurdik. Bolali-chaqali kishilarning kuni juda qiyin bo'ldi. Oppoq bo'lib shishib ketgan bolalarni ko'rganimda jonim achib, o'zimni aybdor kishidek his etib, ularning «non» deb termilgan ko'zlariga boqolmay yurdim. Qo'limdan kelsa borimni ayamay, hatto Suvonqul, Qosimlarning orqasidan borib, sen ham frontda joningni fido qil, shunda bu bolalarning ham qorni to'yadi, deyishsa hech ham ikkilanmasdan ado etardim. Men bir kuni shu gaplarni Alimanga aytdim. Shunday desam u juda o'ylanib qoldi. «Rost aytasiz, ena, — dedi u, — katta kishilar-ku nega och qolishganini tushunishadiku-ya, ammo bolalar buning farqiga yetarmidi. Ularning dunyoning hech qanday bordi-keldisi bilan ishi yo'q. Ularga biz-

dan ham qiyin. Ularni har qanday bo'lsa ham, eplab, urush tugab, otalari, og'alari qaytib kelguncha bir amallab och qo'ymasligimiz kerak. Bu ikkalamizning ham burchimz, ena. Qo'lidan kelguncha xalqqa yordam-lashib turaylik, foydamiz tegsin. Insonning qadr-qimmati ham shunda-da». Biroq buning uddasidan chiqish qiyin edi. Ekin ekib, non topgan dehqonlarning nonsiz qolishi Tangrining teskari ishi edi. Bunday paytlarda menikiseniki degan gaplar bo'lmaydi. Hamma narsa urushga – hayot ham, erk ham, mehnat ham, yosh bolalarning og'zidagi ovqat ham – hammasi-hammasi – so'nggi burda nongacha qonsiragan urushga! Undan hech kim hech qayoqqa qochib qutulolmaydi. Qochib ko'rghanlar bo'ldi, yashirishning nima hojati bor, o'sha qochoqlar oxiri aylanib kelib, xalqqa zarari tegar, uning dushmani, qaroqchisi bo'lib chiqar edi. Boshqa nima ham qilardi. Esingdami, ona-Yer, o'sha qishki tun.

– Ha, haligi adashib ketganiningni aftyapsanmi?

– O'shani aftyapman. Qirq uchinchi yil qishining o'rtalari edimi, yoki ko'klamning boshlari edimi, haytovur, qor erimay, sovuq bo'lib turgan edi. Tunning qaysi mahali edi, esimda yo'q, el tekis uxlab yotganda al-lakim derazani sindirgudek urib: «To'lg'anoy! Brigadir! Tur tezroq! Uyg'on!» – deb qichqirdi. Hushimiz ketib, Aliman ikkimiz sakrab turdik. «Ena! Ena!» – dedi Aliman qandaydir bir quvonchli hodisani sezgandek tovush bilan. Aldoqchi sarobdek doim xayoldan ketmas umid shu mahalda mening qalbimga ham bir uchqun tashlasaya: askarga ketganlardan biri kelib qoldimi, degan o'y xayolimga kelsa bo'ladi. «Sen kimsan? Sen kimsan?» – derazaga yugurdim. «Eshikka chiq, To'lg'anoy! Bo'l ertaroq! Saroydan ot o'g'irlandi!» – dedi kelgan kishi. Aliman chiroqni yoqquncha etigimni kiya solib ko'chaga chopib chiqdim. Ot saroyiga raislar ham yetib kelgan ekan. Saman yo'rg'a bilan birga, – uni biz kolxozga topshirib yuborgan edik, – aravaga qo'shadigan yana ikkita ot yo'q. Brigadamizning ko'klamgi yer haydashga mo'ljallangan ajoyib otlari edi. Otboqar ot-larga tungi yem-xashagimni solayin deb pichanxonaga ketganda o'g'irlab ketishibdi. Kelsa, saroy qorong'i,

chiroq o'chgan, shamol o'chirgan bo'lsa kerak, deb shoshmay yoqib qarasa, berigi chetda uch otning o'rni bo'sh. U paytlarda uchta ishchi otni yo'qotish kolxoz uchun hozirgi paytda o'nta traktorni yo'qotgandek gap edi. Qolaversa, bu hodisa frontdag'i soldatlarning har biridan bir burdadan nonni tortib olgan bilan barobar emasmidi. Hammamiz otlanib, ba'zi birovlar o'qlangan miltiq olib, otlarni izlashga tushganimizda, o'g'rilar yo'liqsa sog' qo'ymas edik. Xudo haqqi, sog' qo'ymas edik! Biroq yetolmadik, uzab ketishgan bo'lsa kerak, qayoqqa ketganini kim bilsin.

Ovuldan chiqib, ikki-uch to'pga bo'linib turli to-monga qarab qidirishib ketdik. O'shanda adashib qol-madimmi. Minganim kolxozening zotdor ayg'iri edi, jonivor, qamchi tekkizmay, olib uchib, katta yo'lдан o'tib, tog' tarafga yo'l olganimni bilaman, orqamdan kelayotganlar ham bor edi, boshqa tomonga urib ketish-ganmi, ulardan uzab ketganimni anchadan keyin bildim. Qaroqchilarning qorasi qayerdan ko'rinarkin, deb tizgi-nini bo'sh qo'yib, keng dalalar bilan uchib borayotgan-dim, bir mahal ot taqqa to'xtaganda, boshimni ko'tarib qarasam, oldimda katta jarlik. Tog' etagiga kelib qolib-man. Qorayib ko'ringan qir ortidan to'lin oy balqib, yulduzlar chaqnashib, osmon charaqlab turgan ekan. Izg'irin yaxlab qolgan qorlarni yalab, qurib qolgan oqquraylarning qaddini bukib, hushtak chalib, nuragan chol-devorlar ichida ukki, boyo'g'lilar guk-guklashib yotgan edi. Bu tunda olamning qayerlarida qancha yaxshi, qancha yomon ishlar bo'lib turgandir. Tarix-ning katta-kichik voqealari sodir bo'layotgandir, xuddi shunday bizning ovulimizda ham mudhish tun bo'ldi. Otlarni kim o'g'irladi, qanday odamlarikin? Shunday paytda elining uvol-savobidan qo'rwmagan kimlar bo'ldi ekan? O'g'rilar jarlikdagi to'qayzorda bekinib yotish-gan bo'lmasin, deb soyga tushib qaradim, hech narsa ko'rinmasdi, bir tulki «lip» etib to'qayzor ichidan chiqa qochdi-da, oy nurida ko'kimir tovlanib jarlik bilan ku-mush quyrug'ini sudrab g'izillab keta boshladi.

Ovulga qaytdim. Jarlik bo'y lab kelayotib esimga tushdi: Jekshenqul degan kimsa askardan qochib kelgan

emish, yonida ikkita o'rtog'i ham bor. Sariq Yoyiqdag'i qozoqlardan emish, degan mish-mish gaplarga uncha ishonmagan edim. Odamlar urushda o't ichida jon olib, jon berib yotsa, qanday qilib bular bunda yakka boshini olib qochib, bekinib yursin? Bu nima degan yuzi qora-lik: «Sen o'lsang o'laver, men qolsam bo'lgani, deganimi? Shu ham insonlikmi?» – deb o'ylab kelardim. Ovulda har kimning fe'li aniq ma'lum emasmi. Unda bunday pastkashlikka boradigan hech kim yo'q edi. Qolaversa, uch yilqini birdan qanday hazm qila olarkin? O'g'ri chetdan kelgan. Boyagidek chetlab, o'zini olib qochib yurgan, tog'-toshni oralab yurganlargina bu ishning uddasidan chiqishi mumkin, degan fikrga keldim. Jekshenqullarning askardan qochib yurgani chin bo'lsa, hoynahoy, o'shalarning ishidir bu, degan gumonga bor-dim. Bunday desam, o'g'rini ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab olgan yerim yo'q. Biroq Jekshenqullar bilan ham yuzlashishga to'g'ri kelib qoldi. Bu ish ko'klamda sodir bo'lgan edi.

To'g'risini aytsam, kolxozning kundalik tashvishlari bilan yurib, bu voqeа yoddan ham ko'tarilay deb qolgan ekan. Uch ot ikki tishli plugni o'g'irlash bilan barobar degan gap, lekin iloji qancha, g'unon-sunonlarni eplab, brigadaning pluglarini bir amallab o'rnini to'ldirdik. Shu bilan qo'sh haydash ham boshlanib ketdi. O'g'ri emas, Xudoni ham unutib yuboradigan vaqt boshlandi. Hayotimdag'i eng mashaqqatli ko'klam o'shanda bo'lgan edi. El nima qilsin, el ishlasak deydi, lekin ochlikdan sillasi qurib, ketmon ko'tara olmaydiganlar ham bo'ldi. Ilgarigidek kuch-quvvat yo'q, bir kunlik ish haftaga cho'zilib ketardi. Buning ustiga, kolxozda urug'lik ham yetishmasdi. Xampaning¹ bor-yo'g'ini sidirib, har bir donni bittalab terib olib brigada planini bazo'r bajaridik.

O'sha kunlarda xalqning ahvolini ko'rib juda achindim. Mehnat kuniga hech narsa olmasa, yeyishga noni bo'lmasa, nima, elni qiramizmi. Endigi ko'klamda bundan beshbattar ocharchilikka duchor bo'lamiz-ku. Yo'q,

¹ Xampa – Omborxonada don saqlash uchun ajratilgan qism.

bu holda yashash mumkin emas, qanday qilib bo'lsa ham bir yo'lini topish kerak, deb yurib, hov yuqoridagi bekor yotgan yerlar bor edi-ku, o'shani haydatib, urug' septirmoqchi bo'ldim. Raisga maslahat soldim, raykom-gacha bordim, tushuntirdim: buni biz plandan tashqari o'z kuchimiz bilan elning mehnat haqiga mo'ljallab ekamiz, dedim. Stolga bag'rini berib o'tirgan kimdir birov: «Yo'q, bunday qilish mumkin emas. Agar biz bunga yo'l qo'ysak, kolxoz ustavini buzgan bo'lamiz!» – dedi. «Ustaving qora yerga kirsin! – dedim men. – Biz och yursak sizlarga kim non topib beradi?» – desam: «Og'zingga qarab gapir, o'lging kelyaptimi?» – deydi. «Og'zimga qarab gapiryapman. Biz ishga yaramay qolsak, frontdagi soldatlarga kim non topib beradi? Buni o'yalamaysanlarimi?..»

Xullas, oxiri rozi bo'lishdi. Biroq gap boshqa yoqda edi – sepishga urug' yo'q edi. Kolxozening hammasida don degandan irimga qolmagan-ku, uni qayerdan ola-man. Boshim qotib, oxiri elni yig'ib maslahat soldim, hamma gapni, bor maqsadimni aytdim: «Qani xaloyiq, maslahatli to'y buzilmas, deganlar. Nima qilamiz, kel-gusi ko'klamda ham shunday gezarib o'tiramizmi, yo bir harakatimizni qilamizmi? Mana bu ekilganlardan umid qilmaylik, yashirishning nima keragi bor, uning urug'ligidan boshqa hammasi frontniki, urushda yur-gan askarlarning rizqi. Agar urug'lik topsak, plandan tashqari yer haydab ekin ekish niyatimiz bor. Uning hosilini mehnat haqiga, qari-qartang, yetim-yesirlarga bo'lishtirib beramiz. Menga ishonsalaring hamma min-natni, javobgarlikni o'z bo'ynimga olaman. Gapning po'stkallasi shuki, yeb o'tirgan, tishlaringda saqlab turgan don-dunlaringni beringlar. Yerga sepaylik. May-li, hozir yemasak yemaylik, sabr qilaylik, sut-qatiq ichib bo'lsa-da, bir amallab pishiqlikka yetib olar-miz. O'zlarining uchun, bola-chaqalarining uchun mardlik ko'rsatinglar, aylanaylar, yo'q demanglar, chaynab tur-ganlaring bo'lsa ham beringlar, vaqt o'tmasdan urug'ni sepib olaylik». Odamlar yig'ilishda xo'p deyishgani bilan ish boshlanganda qiyin bo'ldi. Ayniqsa, ko'p bolali onalar xuddi o'lmay turib qo'lidan hech narsa

bermaydigandek, xullas, ular urushni ham, hayotni ham, kolxozni ham qarg'ab, yashirib o'tirgan bug'doyi bormi, arpasi bormi, bolalarining rizqini qiyib bo'lsa-da, berishdi. Aravani kechgacha uyma-uy qatnatib, birovga yaxshi, birovga yomon gapirib, hatto aytishib ham qoldik, oldi bir pud bug'doy, keti kilodan suli bersa ham unganini, barini qo'y may yig'ib yurdik. Mayli, bir qism don – shu ham foyda, kuzda o'sha bir siqim don-dan bir pud hosil olsak hozirgining o'rnini qoplamay-dimi, degan o'ydamon. Shunday bo'lmasa bu ishga qo'l urmasdim. Qanday bo'lsa ham o'shanda nima uchun bunchalik qattiq qo'llik qildim ekan-a? O'ngga qarab kulib, chapga qarab yig'lab hech kimni ham ayaganim yo'q. Bir xillarining qo'lidan tortib olgandek bo'ldim. Bechora qo'shnim Oyshaning o'shandagi holatini sira unutmayman. Kuyovidan erta ayrilib (Yomonboy urushdan burun qazo qilmadimi), g'am chekib yurib, Oysha kasalmand bo'lib qolgan edi. Sal tuzalganda kolxozda mehnat qilib, tomorqada ishlab yolg'izi Bektoshni arang boqib katta qildi. O'zi ham so'nggi kunlarda ishga yarab, oilasini tebratib qolgan edi. O'sha kunlarda Bektoshga urug' yiqqan aravani haydatib qo'ygan edim. Ularning uyining to'g'risiga kelganda: «Bektosh, uylaringda hech narsa bormi?» – dedim. «Ozgina bor, – dedi bola. – Pechkaning orqasida, to'rvachada». «Bo'lmasa olib chiq» – desam: «Yo'q, To'lg'an opa, o'zingiz borib oling» – dedi.

Ikki-uch kundan beri og'rig'i zo'rayib, Oysha uyda yotgan ekan, dardning zo'ridan ranglari siniqib ketibdi. «El qatori beradiganingni bergin, Oysha» – degan edim: «Bor-budimiz shu» – deb to'rvachani ko'rsatdi. «Shuni bo'lsa ham bergin. Urug'liqqa yer tayyor, sepmoqchimiz» – desam, Oyshaning qovog'i uyilib, indamay qoldi. La'nati yo'qchiligi-ye, odamni qanday xor qiladi! «Oysha, bu bilan ko'p bo'lsa o'n kun tirikchilik qilarsan, lekin hali qahraton qish turibdi, kelgusini ham o'ylash kerak, bolangning ahvolini qara, ko'chada aravasi bilan kutib turibdi» – dedim. Oysha yerga tikilib turib yalinib-yolvordi: «Bor bo'lsa ayaydi deysanmi, To'lg'anoy. O'zing ko'rib turibsan-ku, men

bunday yarimjon bo'lsam, oxiratli qo'shni msan-ku...» Ko'ngilchanligim tutib bo'shashib ketdim, biroq shu zahotiyoy ko'ngilchanlikni yig'ishtirib qo'ydim: «Men brigadirman, ko'pchilik uchun shu doningni olib keta-man! – dedim-da, o'rni mdan turib, to'rvachani qo'limga oldim. Oysha indamay teskari qaradi... Olti-yetti kilo bug'doy ekan. To'rvasi bilan olib ketaverayin dedim-u, yana ko'nglim bo'lmay, yarmini katta tovoqqa to'kdum. «Menga qara, Oysha, yarmini oldim, xafa bo'Imagin» – dedim. Oysha men tomon qaraganda, ko'zidan oqqan yoshlari betiga sizilib tushayotgan ekan. O'shanda tash-lab ketaversam bo'lmasmidi. Bunday bo'l shini kim bilibdi, to'rvachani ushlagan bo'yimcha uydan chopib chiqdim. Odamni bunday qiynagandan ko'ra, e, qurisin bu dunyosi! Nega, nega shunday qildim ekan? Hozir ham shu qilmishlarimni eslasam – kechirolmayman.

– Yo'q, To'lg'anoy, sening unda hech qanday gunohing yo'q. Sen elga yaxshilik qilayin degan eding, aksincha bo'lib qolmadimi.

– Ha, aylanayin dehqon dalam, sen bariga guvohsan: niyatim xolis edi. Agar o'shanda ovuldagilar yopirilib urib o'ldirishsa ham rozi edim. Bilasan-ku, ikkita katta qop urug'lik don to'plandi. Uni biz g'alvirlab, tozalab dalaga o'zim chiqarib qo'ygan edim. O'sha kuni qo'yib tursam ham bo'lardi. Haydaladigan biroz yer qolgan edi. Biroq men tezroq ekib olsam deb shoshilardim. Ertasi kuni azonda turib urug' sochmoqchi edim. Urug' tayyor, yer tayyor, deyarli hamma ish ko'ngildagidek borayotgan edi. Kechga tomon uyga kelib nimagadir un-nadim, tinchim yo'q edi. Kunduzi Bektosh bilan yana bir bolaga baronalarni aravaga solib, dalaga olib borib tashlanglar, deb tayinlagan edim. «Bola, bolaning ishi chala» deganlaridek ular aytganimni qilishdimi, yo'qmi, deb ishonolmay Alimanga aytdim: «Men qo'shchilar tomonga borib kelayin, tezda kelaman» – deb ot-lanib jo'nab ketdim. Ovuldan o'taverib otni yo'rttirib haydadim. Qosh qorayib, hammayoqni zulmat qoplah olayotgan edi. Qo'shching boshiga yetmay shudgorda omochga qo'shilgan ho'kizlar o'z holicha yuribdi, yonida hech kim yo'q. Nega shu mahalgacha ho'kizlarni qo'shdan

chiqarmadi ekan, deb qo'shchi boladan achchiqlandim. U juvonmarg qayerlarda yuribdi ekan, deganimcha bo'lmay, yo'l bo'yida molalari bilan ag'darilib yotgan aravani ko'rib esim chiqib ketdi. Aravaning yonida hech kim yo'q. «Hoy bolalar! Qayoqda yuribsizlar, qayerdasizlar? Kim bor bunda?» – deb qichqirdim. Odam zoti yo'qdek hech kim javob bermadi. «Bu nimasi, bular soqqa o'xshamaydi-ku» – deb olachiqqa chopib bordim. Otdan sakrab tushib, gugurt chaqib, kirih kelsam, Bektosh, o'rtog'i, qo'shchi bola uchalasi qo'llari bog'langan holda yerda yotishibdi, kiyimlari titilib, yuzlari qonga botgan, og'izlariga latta tiqilgan. Bektoshning og'zidan lattasini yulib olib: «Urug! Urug' qanil!» – dedim. «Olib ketishdi! Urib, olib ketishdi!» – deb o'g'rilar ketgan tomonni boshi bilan irg'ab ko'rsatdi. O'sha yerda qanday bo'lganini bilmayman, otga irg'ib minib quvishga tushdim. Umrimda munaqa ot choptirmagan bo'lsam kerak. Pichoq suyakka yetganda odam hech narsaga qaramas ekan. Qorong'i tun emas, mayli, zimiston bo'lsin! O'z uyimni o'g'ri urib, o'z mulkimni olib ketishsa roziman, xirmonga qo'l solib, o'n qop g'alla olib ketsa chidar edim – xirmonning chorisi der edim, biroq bu urug' uchun jonimni berishga tayyor edim!..

– Ha, To'lg'anoy, elning og'zidan tortib olingen har bir don uchun, odamning jonidan qimmat o'sha urug' uchun joningni qurban qilsang ham oz edi. O'shanda sen zim-ziyo tunni larzaga solib: «To'xta! To'xta! Yuzi qoraclar!» – deb shunday dahshatli qichqirgan edingki, men uyquga ketib borayotganimda cho'chib uyg'ondim. Sen, otingning to'rt tuyog'i dupurlab, o'g'rilarغا yaqinlab kelayotgan ekansan.

– Ha, olamni buzib hayqirganim rost. O'shanday hayqirib kelayotganimda niyatim pok ekan, o'g'rilarning orqasidan bilgandek yo'l solibman. Ko'p o'tmay oldinda o'g'rilarning qorasi ko'riniib, otlarning taqalari toshga urilib eshitila boshladidi. Uchta ekan. Otga qoplarni o'ngarib, tog' tarafga urib ketishyapti. «To'xta! Urug'likni tashlanglar! Tashlanglar urug'likni. Tashla deyman!» – deb qamchi bosib kela boshladim. Oramiz

tobora qisqaraverdi. Ular qoplarni ortib olgani uchun qattiq chopib ketisha olmadi, lekin urug'ni ham tashlashmadi. Qaysi biridir o'ttada yo'rg'a minib borayotibdi. Ilgarigi sinchiligim emasmi, orqasidan tanidim, yurishidan, orqa ola tuyog'idan tanidim – bizning saman yo'rg'a ekan. Qishda otlarni o'g'irlab ketganlar shular emasmikin? «To'xta! Men tanidim senlarni, men tanidim seni, Jekshenqul! Sen, Jekshenqulsan! Qutultirmayman endi seni, to'xta!» – deb hayqirib kelayotsam, chindan ham u Jekshenqul ekan, yo'rg'aning boshini bura solib, otdan «lip» etib tushdi-da, qorong'ida ko'zlarimni qamashtirib miltiqning og'zidan yarqillatib o'q uzdi: gumburlagan tovush bilan qo'shib, otim munkib ketib, ustidan do'ppidek uchib tushdim. Yiqilayotib bu otilgan miltiq ekanligini, o'q yelkamga tekkanini sezdim. Undan boqshasi menga qorong'i edi.

Bir vaqt o'zimga kelib, ko'zimni ochsam, tevarak-atrofim jimgitlik, chalqancha tushib yotgan ekanman, butun vujudim o'zimniki emasdek zirqirab og'rirdi, qimirlashga darmonim yo'q. Yonginamda goh pishqirib, goh tepinib, oyoq silkib, o'q tekkan ot jon talvasasida yotibdi. U shu ahvolda biroz pishqirib, qiynalib yotidda, keyin qimirlamay, cho'zilib qoldi. U bilan birga bir zumga hayot to'xtab qolgandek tuyuldi. Sukunatli tunda yolg'iz bir o'zim qoldim... Men qimir etmay yotardim, qimir etishga harakat ham qilmasdim. Qanday ishlar bo'lib o'tganini o'shangagina tushundim. Shu bo'yicha ko'zim yumilib ketsa, o'lsmam dedim. Elga endi nima deyman, qaysi ko'zim bilan qarayman? Ko'zlarimga yosh to'lib, osmonga tikilsam, nursiz-xira somon yo'li tepaga kelib, xuddi Oyshanning yuzlaridan oqqan ko'z yoshlaridek bo'sharib, sarg'ayib turgan ekan. Titragan lablarimni tishlab, el uchun, yurt uchun so'rab, tilab, Oyshalarni yig'latib tortib olgan urug'imni o'g'irlab ketgan qochqindilarni qarg'adim: «Illohim, qon to'kkan elning uvoli tutsin senlarni! Urushning uvoli ursin seni, Jekshenqul! Shunday qilib yashaganingdan ko'ra dunyoga kelmay qo'ysang bo'lmaydimi? Suvonqulim, Qosimim ichgan suvni sen ham bulg'ab ichib yurgan ekansan-da, tuf betingga!..»

Men anchagacha shu ahvolda yotdim. Bir vaqt kimdir birovning oyoq tovushi eshitildi. «To'lg'an opa! To'lg'an opa-a-a-al» – degan bolaning yig'lamsiragan tovushidan tanidim – Bektosh. Izlab yurgan bo'lsa kerak. Boshimni arang ko'tarib: «Bektosh, beri kel» – deb chaqirdim. Odam-da, otasining bolasi-da, yonimga yetib kelib: «To'lg'an opa, sog'-salomatmisiz, To'lg'an opa?» – deb boshimda yig'lay boshladi. «Sog'-salomatman, belim sal turg'izmay turibdi, tuzalib qolsa kerak» – desam: «Bu hech nima emas, sog'ayib ketasiz, To'lg'an opa» – deb biram suyunib, narigi yoqda izlab yurgan o'rtoqlariga: «Bolalar, beri kelinglar. To'lg'an opam bu yerda ekan, omon-eson, omon-eson ekan!» – deb qichqirdi. «Endi opangga nima deb javob beramiz?» – desam, Bektosh biroz indamay turib: «Javobini men o'zim beraman, To'lg'an opa. Elning bariga javobini o'zimiz beramiz, To'lg'an opa. Hech nima emas» – deb, bola-da, o'shanda o'n to'rt, o'n beshlardagi kezi emasmi, izza bo'lganiga chiday olmay yig'lab yubordi. Mushtlarini qisib, joyidan irg'ib turib tog' tarafga qarab qo'l siltab gapirdi: «Biz baribir o'lmaymiz. Ko'rasanlar-ku, men ham ulg'ayib yetilarman, bu qilmishlaringni hech qachon unutmayman!» – dedi. Uning shu mardona so'zi uchun ko'nglim bo'shashib yig'ladim. Shunday qilsam, yig'lamang, To'lg'an opa, men ham sizning bolangizman, men ham ulg'ayaman, Qosim akamning o'rnnini bildirmayman, deb qo'ltig'imdan suyah, o'rnimdan turg'azdi.

Bolalar meni aravaga solib uyg'a keltirishib qo'yishdi. Iikki-uch kun og'rib, to'shakda yotdim. Ovuldagilarning birontasi qolmay, ko'ngil so'rab kelib-ketib turishdi. Elga rahmat, rozman, o'shanda hech kim hech nima degani yo'q menga. Shunday bo'lsa ham ko'zlagan ishim bitmay qattiq koyindim. Shudgor qilingan yerlar qotib ketib, urug' sepilmay, o'g'rirlarga yem bo'lib ketganini eslaganim sari yuragim achishib yurdi.

– Gaping to'g'ri, To'lg'anoy. Sengina emas, men ham sezdim buni. O'sha – ekilmay qolgan shudgor mening tanimda bitmay qolgan yaradek bo'lib, o'rni ko'p vaqtgacha bilinib yurdi. Shudgorga urug' sepilmasa

mening eng katta jarohatim o'sha emasmi, To'lg'anoy. Urushning aybi bilan qancha urug' sepilmay, qancha odamlarning umri xazon bo'ldi. Mening eng yomon ko'rganim, mening ashaddiy dushmanim urush boshlaganlar, ular urug' ham sepishmaydi.

— To'g'ri aytasan, urush bilan dehqonchilik bir-biriga qarama-qarshi emasmi. Urushgan ekin ekmaydi, demak u boshqa odamlarning nasibasiga qo'l soladi, demak, u boshqa odamlarning dushmani! Maysalbek, aylanib ketay, o'g'lim, u ham o'sha xatida yozmaganmidi. Esingdami ona-Yer, Maysalbekning yozgan xati.

— Men uni yod bilaman, To'lg'anoy.

— Ha, sen ikkovimiz uni yod bilamiz. Bugun menin sig'inadigan kunim, bugun biz hammasini esga olamiz, ona-Yerim.

— So'zlayver, To'lg'anoy. Sening bu aytganlaring eskirmaydi, hamisha yangidek. Maysalbegingning yozgan xatini yana bir qaytarib aytib ber-chi. Maysalbek faqat sening o'g'lingmas, u menin ham o'g'lim, Maysalbek — Yer o'g'lil!

— Men o'shanda uyda og'rib yotganimda, ovuldoshlarim hol-ahvol so'rab, hammasi ham iliq so'zlar aytib, ko'ngil ochib yurganlarining ham sababi bor emasimdi. Men uning bir uchini sezib qolgandek ham bo'ldim.

Oysha qo'shnim, bechora o'zi arang kun o'tkazib yuribdi-yu, menga quymoq pishirib olib chiqibdi. U uyga kirib kelganda o'sha kungi qilmishlarimga qat-tiq izza bo'ldim. So'z topolmay tilim kalimaga kelmay qoldi. «To'lg'anoy, sen xayolingga hech narsani keltir-magin, — dedi Oysha. — Mening ko'ngli bo'shilgimni kechirgin. — Sendek ayol uchun kerak bo'lsa jonimni ham ayamayman, kerak bo'lsa yolg'iz o'g'lim Bektoshni ham beraman. Busiz ham u ikki uyning o'rtaсидаги bola bo'lib qoldi. Seni mendan ortiq ko'radi u. Sen biz bilan odamsan, biz sen bilan odammiz. Shuni tushunib qo'ygin» — dedi. «Rahmat bu aytganlaringga» — dedim men ham. Bu gaplarni shunchaki aytди-qо'ydi deb o'ylasam, yo'q, chin yurak so'zları ekan.

O'sha kunning ertasiga bel og'rig'im yengillab, uyda nari-beri qimirlab, eshikka chiqdim. Derazaning

ostiga kigiz solib, oftobda isinib o'tirdim. Alimanni ishga chiqavergin, desam, raisimiz bugun ham enangga qarashgin, deb ruxsat berdi, dedi. O'choqda o't yoqib, Aliman kir yuvdi.

Eshik oldidagi bahaybat keksa olma o'sha yili qiyg'os gullab, yana kuchga to'lib yasharganda, ochilib, shamol tekkanda shoxchalaridan oppoq gullar to'kilib yotdi. Olma gullagan kezda havo ham zumrad buloqdek tiniq, g'oyatda toza bo'lmaydimi. Olisdagi yiltillagan qorli tog' cho'qqilari ham ko'rinish turardi. Shunday o'tirganimda ko'chadan pochtachi Temir chol kirib keldi. «Horma, To'lg'anoy» – deb anchagacha so'zlay olmay, shoshilib, o'zicha negadir shumshayib, yengil yo'talib, shamollab qolibmanmi, qurg'ur deb so'zlanib, senga xat bor edi, degandek, sumkasini axtarib, xat berdi. Uning bu sekin imillashiga achchig'im kelib: «Tezroq aytmay-sanmi, zoriqtirmay, kimdan ekan?» – desam, Maysalbekdan chog'i, dedi. Suyunib, yuragim hovliqqanidan, hamisha Maysalbekning xatlari uchburchak bo'lardi, bu safar bosma bilan bosilgan to'rt burchak, sirti qalin atlas qog'oz ekaniga ham e'tibor bermabman. Shu payt yarador oyog'ini sudrab qo'litiqtayoq bilan qo'shnimiz Bektursun kelib qoldi, zerikkanda kelib gurunglashib ketardi. Xat kelgan shekilli, ho, Maysalbekdan-ku, deb sabrsizlik bilan ko'rishdi. «Qo'ling nega qaltiraydi? Beriroq o'tirib o'qib ber-chi» – dedim. Shunday desam kigizning chetiga o'tirayotib, voy oyog'im, deb og'riqsinib, rangi ko'karib, terlab ketdi o'zi ham. Xatni qo'li qaltirab arang ochdi-da, o'qiy boshladi. Oh sho'rlik bolam, sho'rlik xat...

«Onajonim, oq sutingizdan aylanayin, onajonim! – deb boshlabdi xatini. – Men sizning qanday odam ekanligingizni bilmasam, bu xatni yozmas edim. Sizing aqlligingizga, g'ayratingizga, sizning kuch-qudratingizga ishonib shularni yozayapman. Shunday bo'lsa ham nima deb tushuntirishga, nima deb aytishga so'z topolmay, allaqanday oq qog'ozni qoralab o'tirgan chog'im.

Axiri mening qilgan ishimni to'g'ri deb toparsiz, men bunga o'zimga ishongandek ishonaman. Ha, ona,

so'zsiz meni to'g'ri dersiz... Shunday bo'lsa-da, tu-shunsangiz ham yuragingizning tagida menga degan aytilmagan savol qolar: «Bolam, qanday qilib o'z um-ringdan o'zing kechding? Odamga bir martagina nasib bo'ladigan bu yorug' dunyo bilan o'zing vidolashib ketaverding? Men seni nimaga tug'ib, nimaga o'stirdim?» Ha, ona, siz onasiz. Sizning bu savoltingizga tarix keyin javob berar. Bu endi mening aytadiganlarim, urushni biz tilab olganimiz yo'q, bu ko'pning boshiga kelgan qirg'in, butun insoniyatga qilingan zulm bo'ldi. Biz u bilan kurashmay qololmaymiz, uning uchun qon to'kib, uning uchun jon berib, uni yer bilan yakson qilishga majburmiz. Shunday qilmasak bizning odam degan nomimiz o'chadi. Men urushda yurib mardlik ko'rsatayin deb hech qachon orzu qilmagan edim, men o'zimni eng bir faxrli, eng bir oliyjanob ishga – muallimlikka bag'ishlagan edim. Zamon shunday keldi. Bolalarni o'qitish o'rniqa qo'limga quroq ushlab, jangchi bo'ldim. Bu mening aybim emas.

Mana hozir maktabda o'quvchi-yoshlarga mening bиринчи va eng oxirgi berib ketar vasiyatim shu, ular-ga berib ketgan bilimim ham shu. Bunga men hayotdan oлган hamma bilimimni, vujud-u dilimni qo'shdim.

Bir soatdan keyin men Vatanim topshirgan ishga borib, qaytib kelmayman, dushman to'dasiga borib, uni qiyratib, o'zim ham yo'q bo'laman. Vatan uchun, el uchun, g'alaba uchun dunyoning barcha yaxshiliги uchun...

Bu mening so'nggi xatim, so'nggi qalam tebratishim, so'nggi so'zim. Ona, ming bor ona desam ham qadringizga yeta olarmidim, tushuning: bu oddiy o'lim emas, bu osongina jordan kechish emas, bu hayot ke-chirishning eng tengsiz turi. Balki qulogqa qayta-qayta o'qilsa ham, bu yashash uchun bo'lgan o'lim. Men hozir shuni o'z ixtiyorim bilan tanladim. Mening hech qanday tap tortgan yerim yo'q. Vatanim shu ishni menga ishonib topshirgani uchun faxrlandim.

Meni yo'qlamang, ona. Meni beiz ketdi ham demang. Dunyoda bundan keyin urush bo'lmasa, yangi ko'z ochgan bolaning ingalagani – o'sha men, bo'y yetgan qizlarning sevgi to'la yoniq ko'zlari – o'sha

men, muallimning bolalarga birinchi o'rgatgan «a» harfi – o'sha men, o'shaning bari men, o'shaning bari men, men, deb bilib yuring, onajonim!

Yig'lamang, onajonim, hech kim yig'lamasin. Bunday o'lim uchun hech kim yig'lamasin. Alvido, mangulikka xayr, alvidol.. Alvido, cho'q qilaringdan aylanayin, Ola tog'!

Sizning muallim o'g'lingiz – leytenant Maysalbek Suvonqulov.

Front. 1943-y. 9-mart. Tungi soat 12».

Qayg'u-alamdan zil tortgan boshimni zo'rg'a ko'tarib qarasam, hovlida el to'planib turibdi. Baribirdek indamay, boshlarini quyi solib, aza tutib turishgan ekan, hech kim tovush chiqarib yig'lagani yo'q. Maysalbek hech kim yig'lamasin degan emasmi. Ayollar meni qo'lting'imdan suyab zo'rg'a turg'izishdi. Gullagan olmaga shamol tegib, butoqlardan uchgan oppoq gullari yuz-ko'zimga urilib, yumshoqqina silab o'tardi. O'sha gullagan olmaning narigi yog'i, ovulning ustki tomoni, olisdagi tog'ning tepasi, uchi-cheiki yo'q musaffo osmon ekan. Dunyoning bunchalik keng ekanini ko'rib, olamning bunchalik tor ekanini sezganimda hammayoqni buzib, bo'zlab, hayqirib yig'lagim keldi. Biroq bunga erk bermay, lablarimni mahkam tishlab turdim. Aliman boyadan beri qanday turganini bilmayman, men uyda turganimda ikki qo'lini yozib, ko'r kishidek meni ko'zlab, timirskilanib kelaverdi-da, birdaniga yuzlarini qo'li bilan berkitib, teskari burilib ketdi.

Mana shunday qilib o'rtancha o'g'lim Maysalbekdan ham ajraldim. Tashlab ketgan qalpog'i qoldi.

– Menda esa Maysalbekning vatani degan nom qoldi, To'lg'anoy. Elga qilgan ishi, dong'i qoldi.

– Ha, Maysalbekning oti o'chgani yo'q. Botir degan nomini ardoqlab qishlog'imiz «Maysalbek» nomidagi kolxozi bo'ldi. Frontdagilar Maysalbekning yozib ketgan xatiga o'zlarining xatlarini qo'shib, qishloq Kengashiga yuborirshgan ekan. U xatda Maysalbekning jangchi o'rtoqlari uning ko'rsatgan mardligi haqida yozib, barimizning ko'nglimizni ko'tarib, sizning o'g'lingiz,

jigarbandingizni hech qachon unutmaymiz. Vatanimiz u bilan faxrlanadi, deyishibdi. Keyin bilsam, Maysalbegim razvedkachi ekan. Bizning askarlar hujumga o'tish oldidan nemislarning pistirmada to'plagan qurol-yarog', o'q-dorilari bir kechada o't olib, atrofdagi to'qaylar yopirilib yonib, frontdagи jangchilarimizga katta yo'l ochilibdi. Shu ishni qilgan mening o'g'lim Maysalbek bo'libdi. Men ham uning bu ishidan g'ururlandim. Shunday bo'lsa ham, menga qolsa urush chiqmaganda, men uning boshqa ishlari bilan faxrlansam baxtli bo'lardim. O'g'limning o'zi aytgandek, bolalarni o'qitib, o'qitgan yoshlari o'zidan ilg'or, o'zidan bilimli chiqib, har xil ishda, har xil ilmda dong taratishsa, Maysalbegimning ham obro'si shunda edi. Odam bolasiga eng avvalo obro' kerak. Urushda ko'rsatilgan botirlilikning zo'r jasorat ekanligiga shubham yo'q. Buning uchun bosh egib, o'g'limga rahmat aytaman. Lekin tirik yurganiga nima yetsin edi.

Azaldan ham urushdan hech kim yaxshilik ko'rgan emas...

V

— Rost, To'lg'anoy, urushda yengib chiqqan kunda ham, alami quvonchidan kam bo'lmas ekan. O'sha yili, g'alaba keltirgan bahorda, sizlarning askarlarni kutib olganlaringni hali ham unutmayman, To'lg'anoy. O'sha voqealarning qaysi biri quvonch, qaysi biri armon ekanligini haligacha aytolmayman...

— Men ham aytolmayman — quvonchimiz ko'pmidi yoki g'am-alamimiz... Dushman yengilib, urush tugagan-da, ostin-ustun bo'lgan dunyo tinchib qoldi-da, avvali la'nati urushning qizig'i bilan uncha sezilmagan narsalar o'shanda elning yuragini yana bir marta g'azablantirib yubordi. Chunki, g'alaba o'lja olib, bayram bo'lib kelgani yo'q, u bizga urushda omon qolgan jangchilarining sirli timsolida qancha yo'llar bosib, tovoni teshilgan soldat etigini kiyib keldi.

O'sha kuni bizga qo'shning navbati tegib, omoch bilan tomorqamizni haydab, jo'xori ekish bilan ovora

edik. Ko'chada qandaydir bir tovushlar chiqib, chopib yurishgan kishilarni ko'rganda, Aliman, bilib kela qolayin, deb yugurib ketdi-da, tezda qaytib keldi: «Ena, odamlarning bari askarlarni kutib olgani ketyapti, ovulda hech kim qolmay jo'nayapti. Yuring, ena, tezroq bo'ling!» – dedi. Omochni ham, ho'kizlarni ham joyjoyida qoldirgancha jo'nadik. Chindan ko'cha odamlar bilan liq to'la edi. Qiz-juvonlar, bola-chaqalar, hatto qiltanglagan chol-u kampirlargacha qolmay otliq, piyoda kishilar – hammasi kutib olishga ketib boryapti. Bu xabar qayerdan chiqqanini kim bilsin, frontdan bo'shab kelayotgan bir soldat (Kumushtak degan yuqorigi ovulning bolasi deyishdi), askarlarning hammasi uy-uyulariga qaytib kelayotibdi, deb yo'lida uchrashgan birovga aytilib ketgan emish. Stansiyaga ikki eshelon askar kelib to'xtagan emish, bugun tushda borib qolamiz, deb xabar qilishgan emish. Haytovur, mana shunday quvonchli gaplar emish! El shunday xushxabarni kutib turgan ekan, anig'ini hech kim bilmasa ham, gumonsiragan jon yo'q, bir kishi qolmay yoppasiga kutib olishga chiqdik. Urush boshlanmasdan avvalroq yoshlar sola boshlagan yangi ko'chaning o'rnida, ovulning etakrog'ida yig'ilib kutib turdik. U chog'da o'sha chala qolgan ko'cha, chala tomlarga o'rganib qolgan bo'lsak kerak, jang maydonidan g'alaba bilan kelayotgan botir jangchilarimizni qanday xosiyatli, qanday armonli yerda kutib turganimizni o'ylamabmiz. Maqsadimiz – askarlarni ovulga kiraverishda barimiz birdaniga kutib olish edi. Keksalar ariqning uvatiga yonboshlab, otliqlar ot ustida, bolalar nuragan tomlarning devorlariga minib, chaqqonroqlari daraxtlarning shoxlariga chiqib olishibdi. Ana keladi, mana keladi, deguncha ko'rgan tushimizni, ayon bo'lgan narsalarni so'zlab, yo'ldan tosh terib olib, fol ochib, folimizni yaxshilikka yo'yib, katta yo'ldan ko'zimizni olmay, tikilib qarab turdik. Hozir o'ylab tursam, dunyodagi odam bolasining bari o'shanda bir maqsadda, bir niyatda, biriga biri yaxshilikni ravo ko'rib, o'z o'g'il bolalarini shunchalik suyishsa, o'shanchalik kutishsa, balki urush bo'lmasmidi, deyman.

Yig'ilganlarning ko'pi nafasini ichiga yutib, churq

etmay, gap qotmay turardi. Har kim o'zicha xayol surib turgan bo'lishi kerak. Chunki, besh yil qonli urushni boshidan kechirib, endi g'alabaga yetishib turgan kunda, urushning eng so'nggi ko'rinishidan hayajonlanib turgandi. Kim kelib, kim kelmaydi, degan so'roq har kimning xayolida bor edi, shundan boshlab har kimning taqdiri, har kimning umidi har xil yechiladi. Shundan boshlab har kimda yangi hayot boshlanadi.

Daraxtlarga chiqib olgan bolalardan bittasi bir vaqt: «Kelyapti!» — deb qichqirganda, qo'bizning tarang tortilgan toriga qo'l tekkandek barimiz bir ovozdan «Kelyapti» — deb takrorlab, serrayib turib qoldik. To'p ichiga pashsha tushsa eshitilgudek jumjitlik cho'kdi-da, o'sha zahoti: «Qani? Qayerda kelyapti? Qani?» — degan ovozlar chiqib, shu ondayoq yana jim bo'lib qoldi. Olisda, katta yo'lning ustidagi yolg'iz aravadan bo'lak hech nima ko'rinnadi. Arava ovulga ayrilgan yo'lning ustida to'xtadi-da, undan sakrab tushgan birligini soldat xaltasini, shinelini yelkasiga solib, aravakash bilan xo'shlashib, beri yura boshladи. Bizning oramizda hech kim hech nima degani yo'q, turgan odamlarning bari indamay, angrayib qarab turishdi. Soldat tobora yaqinlashib kelaverdi, lekin bir kishi ham o'rnidan qo'zg'algani yo'q. Odamlarning oqargan yuzlarida qandaydir bir narsa kutayotgandek umid uchqunlari sezilish turardi. Chunki bizning kutganimiz yolg'iz soldat emas, yo'lga sig'may, tiqilib urushga jo'nagan singari, qalin askarning to'pi bilan qaytib kelishi edi.

— Bandasizlar-da, To'lg'anoy! Urushga ketganlar qachon to'la-to'kis hammasi qaytib kelgan edi? Odam degan gohida shuni esdan chiqarib qo'yadi shekilli.

— Gaping to'g'ri, ulug' dalam! Biroq biz bandamiz-da: yaxshilikka doim umidimiz katta. Shuning uchun ham o'shanda yakka bitta soldatning kelayotgani elning hushini uchirib, esini chiqardi. Soldat beriroqdagi do'ngchaga yetib, ovulning chetida turib qolgan elni ko'rib, yuragi dov bermadi shekilli, u ham cho'chib to'xtab qoldi. Bu nimasi, bu qanaqasi bo'ldi ekan, bular nima uchun indamay qarab turishibdi, degan o'y bilan soldat burilib orqasiga qaradi. O'zidan boshqa yo'lida

hech kim yo'qligini ko'rib, u bizga to'g'ri yurib kela boshladi-da, yana to'xtab, yana qayrilib, orqasiga qaradi. U shu ahvolda yaqin kelaverganda, oldinda turgan bir kichkina qiz: «Ashirali akam! Ashirali akam! Ashirali akam kelayotibdi!» – deb qichqirib yubordi. Qayoqdan taniganini kim bilsin, boshidagi ro'molini yulqib olib, haligi yalangoyoq, chaqchaygan qiz: «Akam! Akam!» – deb qichqirgan bo'yicha soldatga tomon yugurdi. Uning ketidan bolalar yugurib, so'ng ayollar, keyin turgan kishilarning hammasi: «Ashirali! Aylanay, rostdan ham Ashirali emasmi?» – deb chuvullashib jo'nadi. O'sha damda bizni qanday kuch sehrlab, yuragimizda qanday sof tuyg'ular qo'zg'alganini aytolmayman – qandaydir bir quvonch, jonga huzur baxsh etgan mehr-muhabbat, shodlik ko'z yoshlari butun borlig'imizni qamrab ol-gandi. Quchoq ochib soldatga chopib borayotganimizda biz o'zimiz bilan qo'shib butun hayotimizni, boshdan o'tgan-kechirgan kunlarimizni, azob-uqubatlarimizni, ux-lamagan tunlarimizni, oqargan sochlarmizni, qarigan qiz-larimizni, yetim-yesir qolganlarimizni, daryodek oqqan ko'z yoshlarmizni, g'ayratimizni, g'am-g'ussalarimizni bayroqdek ko'tarib, g'alaba bilan qaytgan jangchimizga olib borayotgan edik. Oldidan to'sib chiqayotgan elni ko'rib, soldat ham tez-tez yurib kelaverdi.

Odamlar bilan yugurib borayotganimda, bir vaqt stansiyada to'xtamay bir zumda o'tib ketgan eshelon hozir ham yonimdan o'tib borayotgandek, qulog'im tinib, quyun-bo'ron, g'ildiraklar ostida zing'illagan relslar yuragimni zirqiratib, «Ona-al Alima-an!» degan Maysalbekning shamol olib qochgan ovozini quvib borayotgan-dek edim.

Oqliqlar birinchi bo'lib yetib borib, soldatga ot ustida yopirilib, uning ko'tarib kelayotgan xaltasini, shinelini qo'lidan olib, o'zini poygadan g'olib chiqqan tulpordek yetaklab kelishardi. Yer, ona-Yer, sen o'sha soldatni unutmadingmi? Botirning qiyofasi esingdami?

– Esimda, To'lg'anoy. Men u soldatning qiyofasini hech vaqt unutmayman, u bugun ham yo'l tortib, quchoq ochib: «Aylanayin, el-yurt! Aylanayin el-yurt! Jonim qurban! Boshim qurban!» – deb qichqirib, yugu-

rib kelayotgandek. Uning ko'kragidagi medallar kumush tilladek jaranglab, yuzidan oqqan ko'z yosh go'yo yomg'ir tomchilab kelayotgandek. Shularning hammasi esimda, To'lg'anoy! Keng yelkali, baland bo'yli baqquvvat soldat, necha marta ajal bilan betlashgan, necha marta o'qqa chap bergen jangchi yosh boladek quvonib, bugun ham hu anovi yo'lda yugurib kelayotgandek.

— Ha, ha, xuddi shunday. Biz ham hammamiz yig'lab, el bilan soldat qo'shilganda, sog'inishgan ikki to'lqin qo'shilishgandek, ezilishib, quchoqlashib ko'rishdik. O'sha to'polon, qiy-chuvda har birimiz har tomondan Ashiralining bo'yniga, yelkalariga osilib o'pishardik.

O', g'alaba-yey, orzu qilib kutgan, kurashib yetishgan g'alabamiz-ey! Assalomu alaykum, g'alaba! Kechirgin bizning yig'laganlarimizni, kechirgin Aliman kelinimni. Omon qaytgan Ashiralining ko'kragiga boshini qo'yib: «Qayerda mening Qosimim? Qayerda?» — deb qichqiranini kechirgin. Hammamizni kechirgin, G'alaba! Seni deb qancha nuridiydalarimizdan ajraldik.

«Boshqalar qani? Falonchi qayerda? Tuginchi qani? Qolganlar qachon keladi?» deb yopirilib, so'raganimizni kechirgin. So'roqlarning o'rtasida qolib, ko'z yoshini to'xtatolmay: «Ketganlarning bari keladi! Ertaga keli-shadi. Yaqinda kelishadi. Bitta qolmay kelishadi!» — deb Ashiralining aytganlarini kechirgin. Kechirgin bizni, g'alaba, kechirgin. Sen bilan yuz ko'rishib turib, biz ko'nglimizda har birimiz jang maydonidan qaytib kelmaganlar bilan so'nggi bor vidolashdik, ularni yana bir marta eslashib, yana bir sidra kuyinib, yuragimiznisovutdik. Kechirgin meni, g'alaba, kechirgin! Ashiralini qayta quchoqlab, qayta o'pib, Jaynog'imni, Maysalbegimni, Qosimimni, Suvonqulimni eslab, ichga yutgan armonimni kechirgin!

— Yo'q, To'lg'anoy unday dema. Dunyo sendan kechirim so'rasin, zamona sendan kechirim so'rasin! Sen kechirarmiding, To'lg'anoy?

— Nega indamaysan, To'lg'anoy?
— Kechirmas edim! Dushmanimni azaldan kechirmay-

man. Biroq zamonamga kek saqlagan yerim yo'q. Oxiri baxayr bo'lsin. Ammo urushga da'voyim ko'p. Otilgan o'q, to'kilgan qon – tarixning hisobida, lekin odamlarning zavol topgan umri-chi? Uni kimning bo'yniga qo'yib, tarixning qaysi betiga yozamiz? Uning uchun kim javob beradi? O'qqa uchramagan bo'lsa ham, Alimanning taqdirini eslaganimda, yurak-bag'rim kuyib cho'g' bo'ladi. Uning uvoli kimga? Uning dardini kimga, kimga aytaman? Bechora kelinim, gul sevgan kelinim!

Ashiralining tug'ishganlari uni uylariga olib ketib, elning bari tarqab ketgandan so'ng, Aliman ikkalamiz uyga qaytdik. Shu bilan urushdan olish-berishimiz tugab bundan bu yoqqa tinchlik davri boshlandi.

Biz jimgina kelaverdik. Yangigina yig'laganigami, Aliman qisilib, entikib, chuchkirib kelardi. Qovog'ini solib, hech yoqqa qaramay, o'chgan rangini ko'rib, kelinimning allaqanday xayollarga cho'mganini tushundim. Kun qizib, havo dimiqqanida, kishi ham ko'ngil ko'taruvchi so'z topguncha diqqinapas bo'lib ketmaydim. Xuddi shunday, Aliman ham qiynalib turgan edi. Buni men javdirab tikilgan ko'zlarida, labini mahkam tishlaganidan sezib turardim. «Oh, endi ayrilishamizmi. Qosimdan umidi uzildi-ku, – deb o'ylanib kelardim. – Ayrilishmaganda nima qilamiz. O'lgan qaytib kelarmidi, yo orqasidan o'lish kerakmi, ketadi-da endi, ketmaganda iloj qancha. Attang-a, qanday qilay, qanday qilay! Ketsa ketadi-da. Qachongacha yesir o'tiradi. Ko'ngli buzilib, ketayotibdimi. Peshonadagi shu ekan, roziligidimni beraman. Ishqilib, baxti ochilsa bo'lgani. Yosh emassi, tag'in bir tengini topar, Qosimdek mehriboniga yo'liqarmikin? Kim biladi?? Baxtli bo'l, chirog'im, baxtli bo'l. Nimasini aytayin. Goho meni eslab qo'ysang, deyman, bolam. Sendan boshqa kimim bor. Sen ketsang, o'lгanning kunini ko'rib, bir uyda yoppa-yolg'iz qolaman. Sho'rli boshim. Qariganda madadkor bo'ladigan farzandlarimdan nishon ham qolGANI yo'q. Biroq menga qaramagin. Uvolingga qolmayin, qachon ketsang ham boshing bo'sh. Mening uchun g'am yema, bolam, kunningni ko'r. Roziman sendan, oq fotiha beraman...» – deb aytadigan gapimni hozirlab, so'zlashishga tayyor

bo'lib turdim. Sirdosh bo'lgan, biriga biri kuyingan kishilar odamning xayolidagini gapirtirmay biladiganga o'xshaydi. Men o'shanda qanday azob chekib kelayotganimni Aliman bilgan ekan. Biroq uning gapi men kutgandek bo'lib chiqmadi. Saxiy dalam, sendan yashiradigan sir bormi, Alimanning o'shandagi ishlariga, uning aytgan so'zlariga, uning beqiyos odamgarchiligiga, yuragi kengligiga roziman, o'la-o'lgnuncha roziman, biroq o'zimdan noroziman, o'zimni la'natlayman...

Nima uchun o'shanda bo'shlik qildim, nima uchun Alimanning so'ziga yosh boladek ko'na qoldim?

Qosimlarning chorvog'ining yonidan o'tib borayotganimizda, uy qilamiz deb g'amLAGAN olam-olam-jahon tosh, necha yildan beri qor-yomg'irda qolib, ezilib bitgan g'ishtlar bir uyum tuproq bo'lib yotgani ko'zga tashlandi. Yoshlar urushga ketgandan beri bu yangi ko'cha o'sha boshlanganicha qolgan, tevarak-atrofini g'ovlagan olabuta, qariqiz o'tlari bosib, ularning orasida arqonlangan buzoqlar yuribdi. Nuragan devorlarning boshlarida sassiqpopushaklar tojlarini tarab, yozning havosida yayrab, bemalol sayrab turishgan ekan. «Yopiray, uy-joy solib, o'zimizcha ko'payishib boryapmiz, deganlarimiz qayerda qoldi? Qara-ya. Boyaqish Qosimimga ham buyurmadi-da» – deb o'ylanib kelayotganimda, Aliman menga yalt etib qaradi-da, qattiq aksirdi. «Ena, – dedi u menga, – buncha endi qayg'urmasangiz! Yoki yorug' dunyodan umidingizni uzingizmi? Unday qilmang, enajon, bo'shashmang buncha, g'ayratingiz bir elchalik bor edi-ku. Beri keling-chi, bunday tepalikda gaplashaylik». «Hozir aytadi, ketaman deydi endi» – degan o'y vujudimni kuydirib yubordi. «O'tiraylik, gaplashaylik» – dedim men ham. Yo'l bo'yidagi do'nglikka qaynona-kelin ikkalamiz maslahatlashgani o'tirdik. Oh Alimanim-ey, nega buncha mehr-u muhabbatli bo'lib yaralding ekan! O'sha oq ko'ngilliging o'z boshingga yetdimi, kim biladi? «Ena, – dedi o'shanda Aliman. – Kasofat urush bitdi endi. Haqi qolgani yo'q. Bunday keyin nima qilamiz, degan o'yingiz ham bordir. Koyimang, enajonim. Dunyo shunchalik adolatsiz bo'lib ketdi, deysizmi? Peshonamizga, yozilgan yaxshilikning

uchquni ham qolmadi, deysizmi? Bir uydan ketgan to'rt kishidan qanday qilib birontasi omon qaytmasin. Yo'q, yo'q, ena, qo'yib turing, mening so'zimga qulq soling. Oq dilimni aytaman, ena, ko'nglingizga qarasam, Xudo ursin, unda o'zimni o'zim aldagani bo'laman. Ishoning menga! Yaxshilik qo'llasa, kichkina bola omon qaytib keladi. Xabarsiz ketdi degani – omon degani, ekan. Kim biladi, qo'lga tushib ketdimi, tentirab-adashib ketdimi, yo yarador bo'lib, to'qayda yashirinib yurib-dimi, haytovur ertami-kechmi Jaynog'ingiz yarq etib qaytib kelganda bilarsiz. Bedarak yo'qoldi deganiga umidsizlanmaylik, ena. Daraksizgina emas, hatto o'ldi deb qoraxat kelgan ba'zi birovlarining ham tirik ekani ma'lum bo'lyapti-ku. U tugul, yuqorigi ovullarda ham, ho' pastdagi qozoqlarda ham shunday voqealar bo'ldi, o'zingiz bilih yuribsiz-ku, azasini ochib, oshini berib bo'lgandan keyin, bir kuni omon-eson qaytib keldi. U, bizning kichkina bola, omon-eson yuribdi. Yuragim sezib turibdi. Qanday qilib endi to'rt kishidan birontasi ham qaytib kelmasa. Sabr qilaylik, ena, kutaylik. Menga qarang, enajon, men ham sizning bolangizman-da, avval keliningiz bo'lsam, endi o'g'lingiz o'rnila o'g'lingizdek ko'ring. Unday emas desangiz, ma'qul, bir-birimizning yuzimizga oyoq qo'ysak, unda nima bo'ladi. Qosimning arvohi guvoh, sizni yolg'iz tashlab ketmayman, ena. Qolganini o'zingiz biling...»

Aliman gapirib bo'lgach, anchagacha indamay qoldik. Mayning o'rtalari shekilli o'shanda. Uzoqdan elas-elash ko'ringan baland cho'qqini ola-bula bulut qoplab, ondasonda havo guldurlab, shabada yelib turardi. O'sha yarqiragan vaqtida bahorgi shudring tushib tursa kerak. Quyosh shu'lasiga burkangan yomg'ir donalari simobdekkir yarqirab goho toqqa, goho soyga ko'chib, go'yo olam yuzini yuvayotgandek. O'sha olislardagi yomg'irning salqin nafasini shamol haydab, lip-lip etib jonimga orom berardi. Alimanga hech nima deganim yo'q. Biroq mening aytadigan so'zlarim shu yarqiragan yomg'irdek sof so'zlar edi. Tunga aylangan dilimga, hansiragan jonioimga yorug' nur tekkandek, butun vujudim bilan senga aytdim, ulug' Yer. Shunday odamlarni yaratganining

uchun, rahmat senga. Yer dedim, Dunyoning pokligiga, odamning pokligiga rahmat dedim. Shu ola-bula bulutingga, yarqiragan yomg'iringga rahmat dedim. Yomg'ir yog'adi, ekin o'sadi, el kun ko'radi, men ham ular bilan birga yashayman dedim. Bularni aytganim – Aliman meni ayab, hurmatlagani uchungina emas, meni yołg'iz tashlamayman degani uchun emas, yo'q, bir kishining domirizqi qayerda o'tmaydi deysan, men suyunganda, men faxrlanganda, boshqa narsaga, insonda bo'lgan ulug' narsaga sig'indim. Urush odamni qattiqqo'l qiladi, toshbag'ir, shaxsiyatparast, hayvon qiladi deb kim aytadi? Yo'q, urush, qirq yil qirg'in keltirsang ham, nechalarning ajalini yetkazib, o'rtab, qiyratib, yakson qilsang ham, odamni sen tobe qilib, bo'ysundira olmaysan. Odam umid qilgan hamma yaxshiliklaridan ajralsa hamki, qanday bo'lmasin, birovga yaxshilik qilsam, deydi, uni suyab, turg'izsam, deydi, uni ozgina bo'lsa ham baxtli qilolsam deydi.

Mening Alimanim chinakam odam-dal Qorong'i kechada parashutga osilib, dushmanlarning o'rtasiga samolyotdan sakrab tushgan Jaynoq xabarsiz, daraksiz yo'q bo'ladi, deganiga qaramay, u o'lmaydi, u omon, u so'zsiz qaytib keladi, deb ishongani, tilagani kim uchun? Dunyo unchalikadolatsiz emas, deb bel bog'lashi kim uchun? Alimanning chin qalbdan aytgan so'zlariga men ham ishonib, rostdan ham Jaynoq tirikmikin, unday bo'lsa, qaytib kelsa ham ajab emas, deb yosh bolalardek umidvor bo'lib qoldim. Men shu holda o'ylanib o'tirsam, Aliman tomorqaga tashlab ketgan omoch-bo'yinturug'larimizni eslab: «I-ye, yerimizni haydab bitirmadik-ku, ena, yuring, tezroq yuring, qotib qolmasin» – deb shoshirib qoldi.

Chorvoqqa kelsak, ho'kizlar omochni sudragan bo'yicha, allaqachon ariq yoqalab o'tlab yurishihti. Aliman ularni qaytarib kelgach, yana haydashni boshladik. Odamning ko'ngli qiziq narsa-da. Bir zumda qanot bog'lab kishini olib uchadi emasmi. Aytgan so'zları, qilgan harakatlari o'z ko'ngliga to'g'ri kelsa kerak, Aliman, o'sha urushdan oldingi qiyofasiga qaytib kelgandek oehilib kulgani, chehrasini ochib so'zlagani yarashib

turibdi. Nimchasini yechib nariroqqa, irg'itib yuborib, oq ko'ylagining etagini lippa urib, yengni shimarib, boshidagi ro'molini chakkaga tortib tushirib, qora to'rig' yuzidan nur yog'ilib, baland tovush bilan: «Ola bosh ho'kiz, cho'x! Cho'x, cho'x! Qayt, qayt, cho'loq quyruq. Cho'x, cho'x-e!» – deb uzun tasma qamchini shartillatib urib, o'zicha baqirib yer hayday boshladi. Oh, Alimanim-ey, bilsam, u meni o'ksinmasin, hayotdan, ishdan ko'ngli sovimasin, tirikchilik qilsin, degani ekan-ku. Omochning tutqichidan ushlab kelayotganimda, orqasiga qayrilib qarab: «Ena, omochni astaroq bosing, toshi betga chiqib qolmasin!» – deb boshlab yurdi. Yana ikki-uch borib keladigan yer qolganda yomg'ir tomchilay boshladi. Borgan sari kuchayib, jalaga aylandi. Bu kuchaygan bevosha jala o'tkinchi ekan. Shunday bo'lsa ham ovulda tashvish orttirdi. Qanotlarini shapillatib qaqqag'lagan tovuqlar o'zini har yoqqa urar, ayollar yoygan kirlarini olib qochar, bolalar ko'chada quvlashib:

«*Jala, jala, o'tib ket,
Qora suvdan kechib ket*», –

deyishib, chopishib yurishdi. Ivib ketamiz, aylanay, uyga kirib turaylik, desam, Aliman: «Hech nima emas, ena, bitirib qo'yaylik!» – deb, yosh qizchadek yomg'irning qitiqlaganiga qotib kulib, ho'kizlarni to'xtatmay haydayverdi. Kelinimning bu ishidan xursand bo'ldim. «Fe'l-atvoringdan aylansin enang, o'tkinchi yog'indek yarqillagan yuzingdan aylanayinim, yomg'irdek sho'xligingdan o'rgilay! Qanday baxtli ayol eding! Ey, dunyo, dunyo, dunyo shunday ekan!» – deb yuragim quvonib, Alimanning aftiga tikilib to'ymadim. Keyin o'ylasam, uning bu ishlari hali menga atalgan, mening ko'nglimni ko'tarmoqchi bo'lgan ekan. Aliman hadeb kaftini yog'inga tutib: «Ena, bu yoqqa qarang-chi! Qanday so'lim yomg'ir! Qanday musaffo yomg'ir! Bu yil don mo'l bo'ladi. Cho'x, cho'x-e, yomg'ir, barakangni to'kaver, to'kaver!» – deb qamchi bilan yomg'irni, ho'kizlarni savalardi. O'shanda u o'zining naqadar go'zal ekanligini, ivigan ko'yaklari badaniga yopishib,

qomatining qanchalar xushbichim ekanligini, ko'zlarining qanchalik chaqnaganini sezmagan bo'lса kerak. Ilohim, uvoling tutsin urushni!

Jala to'xtab, olislab ketganda, Aliman ham tezda o'tib ketar ekan-da, degan xayol bilan uzab borayotgan yog'inning ortidan munglanib tikilib, olisga ko'z yugurtirib, yomg'irning bosilib borayotgan ko'yiga qulq qulq solib, qattiq aksirdi. Boyaqishim-ey, Qosimni esladи shekilli o'shanda. Ko'zi menga tushib, kulib yubordida: «Yomg'irning nami bilan makkajo'xorini ekib olaylik!» – deb, uyga chopib ketdi.

Ivitilgan makkajo'xoridan Aliman katta bir changal olib chiqib: «Ena, shu makkajo'xori dumbul bo'lguncha kichkina bola omon-eson qaytib kelsin!» – deb niyat qilgan urug'ini yerga sochib yubordi. Alimanning o'shandagi qiyofasi ko'z o'ngimdan sira ketmaydi. Bulut orasidan yalt etib chiqib, hozirgina ko'tarilgan qip-qizil cho'g'dek, oftob tekkanda, yomg'irdan keyin nam bo'lgan qora tuproqni yalangoyoq bosib, qadam sayin shudgorga oltin sochayotgandek urug' sepib, bu xosiyatli mehnatni yaxshi niyat, yaxshi umidga bag'ishlab, Alimanim jo'xori emas, yaxshilik urug'i sepib yurgandek edi. «Ko'rasiz-ku, ena, mening aytganlarim to'g'ri chiqadi. Nasib bo'lса, kichkina bolaga dumbulni o'zim o'tga ko'mib, pishirib beraman. Ilgarilari dumbulni men bilan talashib yeguchi edi-ku. Esingizdami, bir marta issiq so'tani olib qochaman, deb qo'yniga solib yuborganda, badani kuyib qolmaganmidi. Uh, uh, deb, ichini ushlab, sakrab yursa, men jinni odamdek: Bu ham oz sizga. Oz!» – deb kulaveribman. Esingizdami? – deb Aliman meni ham kuldirib yubordi.

VI

Mayli, endi, shunisiga ham rahmat! Makkajo'xori bir emas, ikki marta, uch marta dumbul bo'ldi, biroq Jaynog'imiz qaytib kelgani yo'q. Aliman keyin aybdor odamdek indamay qoldi o'zi...

Olatog'da qish o'tib, ko'klam kelib, hayot o'z oqimida avvalgidek davom etaverdi. El to'yib, kolxoz qad-

dini tiklab, ko'rgan-kechganlarimiz asta-sekin xayoldan ko'tarilib, urushning izlari yo'qola boshladи. Aliman ikkalamiz avvalgidek kolxozda ishlab yurdik. Yigitlar frontdan qaytib kelgach, brigadirlikni men ularga topshirdim: «Sizlarning yo'qligingizda uch yil eplab, ishlab turdim, endi esa qaridim, horidim, yigitlar, endi ishni o'z qo'llaringga olinglar» – dedim. O'shandagi yoshlarning bir xillari hozir ham meni «Brigadir opa» – deyishadi, hurmat qilishganidan bo'lsa kerak...

Zamon tinchlangani bilan Aliman ikkalamizning qayg'u-g'amimiz bitgani yo'q. Ko'rinishdan yorishib, sir bildirmagandek bo'lsak ham, biroq haqiqatda bo'lib o'tgan ishlar doimo uning ham, mening ham yuragimdan ketmay azob berardi. Bunday qarasang, har kim o'zicha aql yuritib, har birimiz o'z ko'machimizga o'zimiz kul tortishimiz, o'z turmushimizni o'zimiz qurishimiz kerak edi, to'g'ri yo'l ham shu edi. Biroq, biz shunday qilmadik. Mendan o'tdimi, Alimandan o'tdimi, uning sabablari ko'p, uni gapirib o'tirib ham nima qilamiz. Balki, bizdan hech qanday ayb o'tmagandir. Qanchadan qancha dard-u alamimni aytib, senga kelardim-ku, jonajon dalam...

– Ha, kelarding, To'lg'anoy. Gunohga botirib nima qilaman kelinimni, nima qilaman, uvolini qanday qilaman, deb yig'larding. Qachon kelsang ham, necha hor kelsang ham, o'shanda men senga maslahat berolmagaman, To'lg'anoy. Oradan ancha yillar o'tib ketdi. Sen, mana, qartayib qolding. Biroq hozir ham seni oqlab, yo bo'lmasa qoralab biron narsa aytolmayman.

– Kim biladi. Shularni o'ylasam o'zimni kechirolmayman. Kelinim Alimandan o'zga, fe'l-atvori boshqa, muomalasi boshqa, odamgarchiligi boshqa, yurish-turishi boshqa ayol bo'lganda, ko'p kechiktirmasdanoq: «Qo'y, endi bolam, qachongacha tul bo'lib o'tirasan. Yosh boshingni xor qilmay, birovga tegib ketgin» – der edim. Biroq Alimanga aytolganim yo'q. Agarda aystsam, odamzod dunyosining osoyishtaligiga qandaydir xiynat qilayotgandek, qandaydir bir pok narsani bulg'ab qo'yayotgandek botinolmay yurdim. To'g'ri, Qosim o'lidi – sen endi ketgin, keraging yo'q, boshqa birovga

tegib olgin, deyishga og'zim borarmidi? So'zlarimni qanchalik silliqlamayin, baribir shu ma'no kelib chiqdi. Bir cheti es-aqli bor juvon emasmi, o'zi yorilar deb shoshilmagan ham edim. Aliman bo'lsa, bechora boyaqishim-ey, kishilarga buncha mehribon bo'lib yaratilganini qara, meni ayab ko'zi qiymay yurganga o'xshardi. Shunga qaramay, mendan o'tmasin, deb bir kun Qayindidan og'alari qidirib kelganda, men Alimandan ming marta roziman, deb ko'nglimdagini tushuntirdim. Shunday desam, ularni jerkib: mening bilan ishlaring bo'lmasin, ketamanmi, ketmaymanmi, o'zim bilaman, sizlar aralashmanglar, debdi. Gapirmasam bo'lar ekan, deb afsuslanib qoldim. Mening uyalganimni bilib, Aliman o'shanda, o'rtamizda qandaydir bir so'z o'tganini sezdirgani ham yo'q. Ich-ichimdan minnatdor bo'ldim. Shu zaylda bir-birimizni ayab, bir-birimizni qiyolmay, Jaynoq kelib qolarmikin, deb umid qilib aldanib yurib, eng oxiri undan ham umidni uzib, keyin uning vaqt o'tgach, kech bo'lib qoldi. Ha, ona-Yerim, imonimdek pok sirimni aftyapman. Qolganini o'zing bilasan-ku.

— Bilaman, To'lg'anoy. Keliningga avvaldan aytmay yurib, keyin aytganingda yuzingga qaramas edim.

— Rost aytasan. Qanday bo'lib ketganini hozir ham bilolmayman. Ovulimiz yo'l ustida emasmi, yaylovga mol haydaganlar, ishslashga tushganlar har doim bizning yerlardan o'tib ketishmasmidi? Yer o'ttasi deb molini yoyib, ikki-uch kun turib ham qolishardi.

Qirq oltinchi yilning kuzida quyi ovullik bir cho'pon qo'yini boqib yurdi. Askardan kelgan yigitga o'xshaydi, bo'z shinelli, to'nini bo'ktirib, miltig'ini yelkasiga osib, bu yerlarda aylanib yurganida uncha e'tibor bermasdim unga. Ovulda kimdir birov to'y qilib qoldi-da, uloq berdi. Haligi cho'pon uloqchi yigit ekan, uloqni bizning darvozaning oldiga olib kelib tashladi. Hovlidan yugurib chiqdim-u, o'shanda ko'rdim uni, o'ynoqlagan otini gijinglatib turibdi. Ajabtovurgina yigit ekan. Nima uchundir boshqa so'z og'zimga kelmay: «Hoy, bu nimang, bolam?» — debman. Shunday desam: «Uyda kim bor?» — dedi. «Kim kerak edi?» — dedim. «Qo'limdan tushib ketdi» — dedi-da, bir engashib uloqni olib,

taqimlab jo'nab ketdi. Ungacha uloqchilar yetib kelib orqasidan yopirilib quvib ketishdi. Shundan keyin men u cho'ponni ikkinchi marta ko'rganim yo'q. Lekin uning qilgan ishlariga achchig'im keldi. Bu nima qilgani: olib kelgandan keyin tashlab ketmaydimi, uloq – tushgan uyniki emasmi, yoki rosti bilan qo'lidan tushib ketdimikin? «Unday bo'lsa, nega ko'chaga tushmay, darvozaning oldiga tushadi?» – degan har xil o'y bosdi. Men shu zaylda turganimda Aliman chiqib keldi. Gulli ro'molini o'rabi, shoyi ko'ylagini kiyib yasanib olgan, to'yga bormoqchi bo'lib turgan edik. Meni ko'rganda Aliman yerga qarab qizarib ketdi. «Yurmaysizmi, ena» – deb sekin gapirdi. Boyagi cho'ponning nima uchun kelganini endigina tushundim. Ikki-uch kundan beri Aliman suv olib kelaman deb ariqdagi suvni qo'yib, katta soyga borib, kech qaytib yurgandi. Ko'nglim nimadir sezgandek bo'luvdi-ya... Oxiri bir kun shunday bo'lishini, so'zsiz shunday bo'lishini ilgaridan bilardim. Qizg'anganimdan emas, yo balki qizg'anganimniki hamdir, lekin gap boshqa yoqda. Alimanni ko'p kechikmay, o'z o'rnini topib olsa ekan, deb tilab yurib, ish o'ngidan kelganda, tisarildim, qo'rqedim. Boshi ochiq kelnimni emas, go'yo o'z qizimizni erga berayotgandek, Alimanni yanglishmasa ekan, tushgan joyi yaxshi bo'lsa ekan, deb yurdim. To'yda o'tirganimda ham, uyda o'tirganimda ham shu o'y xayolimdan ketmadi.

«Boyagi yigit qanaqa odam ekan? Yaxshilab, bilib-ko'rib olgin. Shoshilma, Aliman bolam, aldanib qolma!» – deb ichimda aytib yotdim. Nima bo'lsa ham yoshlarga to'siq bo'lib qolmayin. Alimanni iymantirmay, o'z ixtiyor o'zida ekanligini, mening unga hech qanday qarshiligidim yo'q ekanligini, qanday qilib bildirsam ekan, deb qiyaldim. Hech nimani sezmag'an kishidek bo'lib, kundagidek so'zlab, kundagidek kulib yursam ham, Aliman mendagi o'zgarishni sezgan ekan. Kechga tomon suvg'a boraman deb chelaklarni olib chiqib ketganda yelkamdan og'ir yuk tushgandek yengil tortdim. Borsa borib, uchrashib kelsin, dedim o'zimcha. Lekin ko'p o'tmay Aliman suv ko'tarib keldi. Soyga bormay, ariqning o'zidan olib kelgan ekan. «Ena, suv

isitib berayin, boshingizni yuvib oling» — dedi Aliman, chelaklarni joyiga qo'ya turib. «Ertaga kunduzi yuvib olarman, ishing bo'lsa...» — deb boshlagan edim, Aliman so'zimni bo'lib: «Ertaga kolxozning ishidan qo'l bo'shamaydi, ena, yuvib oling, sochingizni tarab qo'yayin» — dedi. Ko'ngliga kelmasin degan o'y bilan ko'nib qo'ya qoldim. Katta qozonni to'ldirib suv isitib, meni bosh yuvib ko'rмаган boladek o'tirg'izib, darrrov qatiq bilan yuvib, undan keyin sovunlab, suvni iliq qilib chapishtirib, boshimga quyib turdi. Boshqa vaqtida bo'lsa, bolam, qo'ya qol, o'zim yuvib olaman, derdim, biroq bu safar inday olmadim. «Obbo, bu qanday bo'ldi, meni deb ikki o'rtada va'da qilgan yeriga borolmay qoldi-ku» — degan o'nya bordim. Unday desam, Aliman uni-buni gapirib, ko'ngli ko'tarinki bo'lib yurdi. Bor-yo'g'i sochimni tarayotib sal bezovta bo'ldi. «Ena, yoshlivingizda sochingiz zap soch bo'lgan bo'lsa kerak!» — deb manglayimni, sochimni erkalatib silab, yuzlarimga, bo'ynimga qo'llarini uzoq qo'yib turdi. «Men bilan xayrlashyapti-ku» — deb o'ylanib, ko'zimga kelgan yoshlarni yashirib, o'zimni arang tutib turdim. U bo'lsa sochlarmi o'rib, sandiqdan atir oldi. «Voy bolam, menga uning nima keragi bor, voy aylanay, qariganda uyat emasmi?» — deganimga qo'ymay kulib, zo'rlab boshimga atir sepidi-da, bo'ynimdan quchoqlab hidladi. «Mana qanday suluv, yop-yosh bo'lib qoldingiz» — deb rosa suyundi. Men ham kuldim.

«Endi choy iching, ena» — dedi. Choydan keyin esa: «To'shagingizni solib beray, yotaylik» — dedi.

O'sha kecha ikkovimiz ham uxlaganimiz yo'q. Aliman o'zicha xayol surib yotdimi, goh-gohoda qattiq xo'rsinib qo'yardi. Men bo'lsam ko'zimni yumsam hamki, Alimanning bugungi qilgan yaxshiliklariga mehrim tovlanib, o'tgan-ketganlar ko'z o'ngimdan o'tib turdi. Allamahalgacha Alimanning hov o'shanda gulxayrilarni kombaynning pillapoyasiga olib borib qo'yganini eslab yotdim. Bir mahal Qosim askarga jo'nashda uni otga mingizmay, bo'yniga mahkam osilib, yosh boladek qo'llaridan tortqilaganini esladim. Yana bir mahal shoshib stansiyaga borayotganimizda yoqqan oppoq qor Ali-

manning ro'moliga, peshona, sochiga, yorqasiga qo'nib, uning busniga husn qo'shib, chinakam go'zal qilib ko'rsatgani esimga tushdi. So'ngra, menga quchoq ochib yugurib: «Enajonim-ey! Yesirmiz, birdek, yesirmiz!» – deb baqirgani qulog'imga eshitilgandek bo'ldi. Yana bir mahal qizg'aldoqqa to'lgan keng dalada qora ro'molli Alimanning katta yo'l tomonga chopib ketgani esimga tushdi. Qo'y-chi, shularni o'ylab yotib, eng oxirida boyagi uloqchi cho'pon bilan qo'y haydashib, ergashib ketayotgani ko'z oldimga keldi. «Xayr, enajon! Yomon ko'rma, ketganim shu. Xayr endi enajonim-ey!» – desa orqasidan qo'l siltab jar yoqalab yugurib: «Xayr, chirog'im! Xayr, gul suygan kelinim, xayr peshonamga sig'magan yulduzim! Omon bo'l, baxting ochilsin, umring ko'karsin, omon bo'l, xayr-xo'sh! Hoy, yigit, bolamni xor qilma! Qarg'ayman, qarg'ishim uradi-ya» – deb yotdim. Ko'zimga yosh to'lib, issiqliqina bo'lib, yuzlarimdan yumalab yostiqla tomib yotdi. Yig'laganimni Aliman bilib qolmasin deb iloj boricha o'zimni bosib yotdim.

Ertasi kuni ham Aliman hech yoqqa chiqmadi. Shundan keyin haligi cho'pon ko'rinxay qoldi. Qo'yini haydab ketib qolgan bo'lsa kerak. Alimanning bo'zargan yuzini ko'rib qattiq koyindim. Ko'ngli bo'lsa ketavermaydimi, menga qayishganidan nima foyda! Anchagacha o'ylanib yurib, keyin bu ish yoddan chiqib ketgandek bo'ldi.

Shundan so'ng erta ko'klamda boyagi cho'pon yana paydo bo'ldi. Qo'yini boqib katta soyda yurganini sirdan payqab qoldim. O'sha kunlari Aliman kech kirari bilan ketib, el yotguncha tashqarida yurardi. Men nima ham derdim. O'zi biladi-da. To'g'risi, nima qilishim, nima ham deyishim kerak edi, ayt-chi, jonim tutashgan dalam? Esingdami o'sha shovqinli tun, ertasi kuni oldingga kelib yig'laganim...

– To'xta, To'lg'anoy. Sen u tunni shovqinli deb aytma. U tunning yaxshi tomoni ham, yomon tomoni ham bor. Jon yaralgan tunga til tegizma, To'lg'anoy.

– So'zimni qaytarib oldim, ona-Yerim, kuygandan aytgan gapim-da bu. Kuymay ilojim qancha – o'sha kecha Alimanni uzoq kutib o'tirdim. Ovulda hamma yotsa

ham, men nima uchundir chiroq o'chirmay, nimanidir gumon qilib, nimadandir qo'rqib, derazaga tikilib, shitir etgan tovushga quloq osib, ko'z yummay o'tirdim. Oydin tun bo'lib, u yer-bu yerda bulut suzib yursa ham, bahor havosi tinch edi. Bir uyda yolg'iz o'zim o'tirganidan, badanim uchganidan ko'rpgaga o'randim. Yarim kechaga borib ko'zim ilingan ekan, taqillagan tovushdan cho'chib uyg'onib, boshimni ko'tarib qarasam, Aliman kirib kelayotgan ekan. Mast, g'irt mast. Ko'ylagining yoqasi yirtilib, osilib tushgan, badanlari ko'rinib, sochlari betlariga to'zg'ib tushgan. Ko'zları bir joyda turmaydi. Alimanning mast bo'lishini umrimda birinchi ko'rishim. Nima deyishimni bilmay, o'rnimdan turishga ham holim qolmadi. Aliman bo'sag'adan arang hatlab kirdi-da, yiqilib ketay deb borib pechga suyanib qoldi. Keyin pechni ushlagan bo'yicha javdirab turib: «Ha!» – deb xunuk kulimsiradi. «Nimaga qaraysiz?» – dedi u boshini chayqab. «Nega qaraysiz menga? Ha, men mastman. Ha, men mastman. Ha, men aroq ichdim. Ichmay nima qilaman? Men ichmasam kim ichadi-a? Nega indamaysiz? Mening turqumdan qo'rqib turib-sizmi?...»

Men indayolmadim. Kelinimning shunday ahvolga tushib qolganidan yuragim siqilib o'layozdim. Aliman yana biroz dovdirab, boshini salanglatib turdi-da, bir payt shivirladi: «Ena, siz hech nimani bilmaysiz. A, men bo'lsmam... Men... Men bugun... Qosim askarga jo'nar kuni kechqurun katta soyga birga bormadikmi... Hammasi xuddi o'sha yerda...» – deb gapirib turib sochini ikki qo'llab changalladi: «Men it bo'ldim, ena, enajonim!» – degan qichqiriq yuragidan otilib, o'zi kigizga yuztuban quladi, quladi-da, boshini yerga urib ho'ngrab yig'lay boshladi. O'rnimdan irg'ib turib, qush-dek uchib bordim yoniga. Boshini ko'tarib ko'kragimga bosdim: «Yig'lamagin, Aliman, yig'lamagin. Nima bo'ldi senga, qani ayt-chi? Xafa bo'ldingmi? Yo birov bir narsa dedimi senga? Ayt-chi, menga. Yo mendan xafa bo'ldingmi, xafa bo'lgan bo'lsang ayt, saqlagan sirlaringning barini ayt, eshitay...» «Yo'q, yo'q, ena, enajonim, bechoraginam, yolg'izim, hech nimani bilmaysiz-

da, bilganda ham qo'lingizdan nima kelar edi. La'natlar bo'lsin o'shangal!» – deb qandaydir bir o'ziga xos dardalamini tortib, o'zini to'xtatolmay, meni quchoqlab olib, xo'rsinib-xo'rsinib yig'layverdi, uzoq bo'zladi, undan keyin biroz tinchidi-da, uyquga ketdi. Men uxlayolmadim. «Nima bo'lди kelinimga? Nima qildim endi?» – deb tong ottirdim.

Ertasi kuni Aliman o'rnidan turganda, uyalib menga qaray olmadi, gapirgani ham yo'q. Ishga chiqib ketayotganimizdagina: «Meni kechiring, ena» – dedi ohista.

Shu bilan oradan ikki-uch oy o'tib, yozda haligi qochqinchi Jekshenqulning tergovi bo'lди – urushdan keyin elga qovusholmay uyiga yashirinchha kelib-ketib yurgan ekan. Biroq chetda yurganida ham tinch yurmay, olib sotarlik qilib, qo'y o'g'irlab, qo'lga tushib qolibdi. Tergovda uning burungi qilmishlari ochilib qolib, bizning ovulga so'roq qilishga olib kelishgan ekan. Qishloq Kengashining odami meni ham guvoh bo'lasan, deb kelibdi. Ko'chada ketayotsam, Aliman ketmon ko'tarib ishdan kelayotgan ekan. Sekin yurib, eldan ajralgan kishidek mung'ayib, yolg'iz o'zi kelayotibdi. Ko'rinishdan xafa, ozib, ko'zi kirtayib qolibdi. O'sha yozda yuzini ham dog' bosib ketgan edi. Yuragim achishib ketdi. Endi uyga borib, tag'in yolg'iz o'zi o'tirmasin, degan xayol bilan: «Yur, bolam, idoraga birga borib kelamiz» – dedim. Shunday desam: «Yo'q, ena, u yerda nima bor menga. Boshim og'rib turibdi, uyga borayin» – dedi. «Mayling, – dedim, – dam olib yotib tur, sigirni o'zim kutib olaman».

Idoraning yonida hamma yog'i yopilgan mashina turibdi. Guvohlikka chaqirilgan va ishdan qaytayotib bu yerga kelgan bir to'da kishilar ochiq derazaning yonidan gapga qulog solib turishibdi, men ham o'shalarga qo'shilib turdim. Jekshenqulni ko'rmaganimga ancha yil bo'lgan, to'lishib, semirib ketibdi. Yelkalari etga to'lib, ko'zları qisilib, olayib o'tirgan ekan. Sog'ib o'tirgan yolg'iz sigirlarimizni qo'shga qo'shib, ochdan o'lib horayotganimizda, topgan-tutganimizni qo'limizdan tortib olgan shu it emasmidi? Mening Xudo qo'shgan yorim, bolalarim frontda qon kechib jangda yurganda, bu la'nat o'zini eldan ortiq tutib qochib yurmabmidi? Endi

bo'lsa ovuldagi oqsoqlollar bilan aytishmagani qolibdi.

«Shu ham gap bo'lidi, frontda o'lganlarning o'z ajali o'zi bilan, menga ularning nima aloqasi bor? – deydi. – O'g'ri deysizlar, ko'zlarining bilan ko'rib, qo'llaringiz bilan tutib olganlaringiz yo'q. Ming gapiringlar – hammasi quruq so'z. Dalil kerak». Buni eshitganda qonim qaynab ketdi: «Joningni sotma, imonsiz! Dalil kerakmi senga, men dalil!» – deb derazadan turib qichqirdim.

«Opa, ichkariga kiring. Bu yoqqa kirib gapiring» – dedi o'rnidan turib tergovchi. Kirib bordim-da, hammasini aytib berdim. «Ha, biz seni qo'limiz bilan tutib olganimiz yo'q, sening orqangdan tushib ushlashga vaqtimiz ham bo'lganmas. Biz u vaqtida yer tirmałab frontga non bergenmiz, biz undan mashoq terib bolalarni boqqamiz. Sen esa unda qo'shga bog'langan otlarni haydab ketib, elning bitta donalab yig'gan urug'ini olib qochib, bola-chaqalarning nasibasini quritib, qo'l solgansan. Demak, sen shu bilan frontdagи soldatlarning qo'lidan nonini tortib olgansan, orqangdan yetib borib: «To'xta! Men bilaman seni, Jekshenqul. To'xta!» deganimda, qayrla solib, meni otgansan!» – deb yurakda qaynagan so'zlarimni barini aytaverdim. Shunda, ayt, tortinmay aytaver, degandek, Oysha qo'shniining bo'zargan yuzidan oqqan qator-qator yosh, o'sha munchoq ko'z yoshlaredek bo'lib miltillagan osmondagи somon yo'li ko'z oldimga kelib turdi. «Dalil deb hiyla qilib qutulsang qutulib ketarsan, lekin bilib qo'ygin, el-yurting mushkulidan o'zingni chetga olib, uning o'lim-yetimida baravar qayg'u chekmaganing uchun odam sonidan chiqib, umring yakkamoxovlikda o'tadi. Senga dalil ham, jazo ham shu» – dedim.

Men gapirib bo'lganimdan keyin tergovchi: «Rahmat sizga, ona. Endi bo'shsiz, uyingizga boravering» – dedi.

Idoradan kelayotsam Jekshenqulning xotini eshikni to'sib oldi. Jin tekkan narsadek o'zini urib qichqirdi: «O'ligingni ko'ray, qoqbosh. Vijdonim sof deb nima yaxshilik ko'rning. Sen toza, vijdoning sof ekan, kelingning qornidagiga nima deysan? U qayoqdan bo'lgan? Uyingda bo'layotgan sharmandalikni ko'rmay, nima qilib yuribsan? Sharmandalar?!»

Yuragim «shuv» etib, junjikib ketdi. Ha, ha, bu xotinning aytganlari to'g'ri emasmi? Ko'pdan beri o'ylab, gumon qilib yurgan narsalarim shu zahoti ochiq-oydin bo'lib qoldi. Shunda eshikda turgan kishilar: «Ovozingni o'chir, o'lasan» deyishib, Jekshenquuning xotiniga hamla qilib qolishdi. «Tegmanglar, unga qo'l urmanglar» – deb indamay jo'nab ketdim. Ko'chada kelayotib, turli o'y-xayollarga berildim. Bunday bo'larini o'ylamagan edim. Keyingi kezlarda Aliman qandaydir o'zini xalqdan chetga tortgandek, fe'l-atvori ham o'zgarib, begona odamdek, gapirmay, kulmay qolganiga men shunchaki xafa bo'lib yurgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Haligi cho'pon yigit ko'ngliga o'tirmay, kelisholmay qolishgan bo'lilha kerak, deb gumon qilardim. U, o'shanda ko'rinxmay toqqa ketib qolgan edi. Uni ikkinchi hech kim ko'rmadi. Keyin bilsam, ish boshqacha ekan. Afsus, afsus... Bunday bo'lischini kim bilgan edi. Endi qanday bo'larkin deb o'ylayverib, qaddim dol bo'ldi.

– Ha, To'lg'anoy, sen o'shanda menga kelib, endi nima qilaman, deb siringni aytgan eding.

– Senga aytmay, kimga ham aytardim. Jonim tutashgan, dehqon dalam, mushtdayligimdan boshlab, shu qarigan chog'imgacha sening harorating bilan, sening kuch-quvvating bilan hayotda qanchadan qancha dovon oshib yashab kelyapman. Nima qilayin, desam, sen o'shanda: «O'ylab ko'r, To'lg'anoy, chuqurroq o'ylab ko'r. Ko'nglingni keng qil, uzoqni ko'zlab ish tutgin. Nomus qilib yurish bilan ish bitmaydi, aqlsizlik qilma» – degan eding.

Bu menigina emas, balki boshqalarni ham o'ylan-tirganidan mammunman. Ichgan suvimiz bir, ko'rgan kunimiz bir, taqdirimiz ham bir bo'lgan zamondosh ovul-doshlarimning keng fe'liga rahmat aytib, ta'zim qilaman. O'sha voqeanning ertasiga Oysha qo'shnim uyiga choyga chaqirib, so'z orasida uni-buni gapirib: «Haligi Jekshenquuning xotini kechasi bilan ko'chib ketibdi» – dedi. Indamadim. Ko'chsa har kimning o'z ixtiyor. Keyin oradan ancha vaqt o'tgandan keyin bilsam, u o'zi emas, o'sha kechasi, butun el to'planib kelib: «Bizning ovuldan chiqib ket!» – deb aravaga solib, ko'chirib yuborishibdi.

O'shandan keyin katta-kichikning birontasi bu haqda gap-so'z qilmadi. Balki, tengqurlari Alimanning o'ziga ayt-sa aytgandir. Lekin menga hech kim bu haqda gapirgani yo'q. O'shandan beri qancha vaqt o'tdi, hali ham hamma hurmat qiladi. Rahmat, ko'zim yumulguncha roziman. Agar ilgarigi zamonlar bo'lsa, ne-ne achchiq so'zlarni yuzimga solmasmidi, deb o'zimcha o'yladim. Endi bo'lsa, bu urushning qancha azob-uqubatini tortib, tirik qolgan har bir odamning bahosi, qadr-qimmati qanchalik mo'tabar ekanligini, uning ko'ngli qanchalik yarim ekanligini, zamonaning katta sabog'ini olgan elning o'zi ham tushundi. Alimanning gunohini kechirdi. Agarda ular Aliman ikkalamizdan kulishsa, o'zlaridan kulgan bilan barobar emasmidi. Darvoqe, shunday bo'lardi. Mayli, odamlar har nima deyishi mumkin. Mol olasi sirtida, odam ketsa, bas, yetadi odamlarga. Shunday odamlar hozir ham oramizda bor. Lekin asliga kelganda, umuman olib baho berganda, odamday beg'ubor narsa yo'q, bunga aminman, bunga faxrlanaman. O'zimning boshimdan o'tdi-ku bular, bilasanki, ona-Yer, o'sha yili men uchun qanday mashaqqatli yil bo'ldi.

— Ha, To'lg'anoy, sen o'sha yil cho'kib qolding.
— Cho'kkanim ham mayli-ya, Alimanimni hozir o'yla-sam, ich-ichim achishadi. O, Xudo-yey, Xudo-yey, qayerda topib, qayerda yo'qotdim uni... Alimanning bo'yida bo'lib qolganini bilib qolganimdan keyin, doim uni avaylashga tirishdim. Ko'zga tashlanib qolgan bo'lsa ham nima uchundir, bilmaslikka solib, gap-so'z qilib yurmadik. Tirikchilikka doir hamma narsani avvalgidek kengashib, bor-yo'g'imizni birga baham ko'rib yurdik. Biroq haligi xususda gap ochishga botinolmadi. Men uning ko'nglini og'ritmayin dedim, u esa to'g'ridan to'g'ri aytishga uyaldimi, xayolida ketmoqchi bo'lib yurib, ungacha meni qizartirib-bo'zartirib yurmay, hammasini ketish oldida aytaman dedimi, har qalay, bilolmasdim. Men uchun o'sha kezlarda buni bilish ham qiyin edi. O'zi lom-mim demagandan keyin nima ham deya olardim, qanday so'ray olardim. Qo'qqisdan so'rab qolsam, uydan ketgin degandek tushunib, ketib qolmasmikin, deb xavotirlanardim. Sog' yurganda xo'p-xo'p

edi, ikkiqat bo'lganda yo'lingni top deb bo'larmidi. Yo'q, yo'q, Alimanimga bunday yomonlikni hech vaqt ravo ko'rmayman. Ko'nglimda, men uni ayblaganim ham yo'q. Butun narsani o'z ko'zim bilan ko'rib-bilib yur-mabmidim. Alimanning boshiga tushgan kun – mening ham boshimga tushgan kun, u tuqqan bola – mening ham bolam, nomus-orini, yaxshi-yomonini, hori-yo'g'ini birdek baham ko'raman, o'zimcha shunday qarorga kel-ganman. Aliman ketib qolsa, mensiz kuni o'tmay qo-larmidi, tashlab ketishga ko'zi qiymay yurib, shunday malomatga duchor bo'lishini bilmabmanmi. Ixtiyorini o'ziga qo'yib berdim. Ertami-kechmi, axiri bir kun vaqt-soati yetganda kelajak haqida ochiq-oydin gaplashib olarmiz. Ko'nglimizda shuni saqlab yurdik. Shunday bo'lsa ham, bugun-erta deb ketga surib kelmadikmi. U tugul Aliman ketib ham qoldi-ku. Bu ham mendan o'tdi, mening beparvoligimdan bo'ldi...

Yoz oxirida Alimanning bo'yidagi o'shanda besh-olti oylik kezi edi, erta bilan molni podaga qo'shayin, deb ko'chaga haydab chiqdim. Podachi ovozi qo'ng'iroqdek o'n ikki-o'n uch yoshlardagi yetim bola edi. O'sha kuni u ko'chaning narigi boshidan allanimalarni shang'llab qichqirib, oldi turib kelayotgan ovulni birdan uyg'otib yubordi. U uyimizning yaqiniga kelganda, sigirlarni «xo'sh-xo'shlab» kelayotib: «To'lg'an opa! – deb menga ham yalt etib qaradi. – To'lg'on opa, suyunchi bering! Jo'rabej akamning kelini ko'zi yordi, suyunchi be-ring!» – dedi.

«E, aylanayin, ko'paysin, ko'paysin. Qachon tug'di?»

«Tong mahali.»

«O'g'ilmi, qizmi?»

«Qiz. Otini To'rg'ay qo'yamiz, deyishdi. To'lg'an opa, tong mahali tug'ilgan, to'rg'ay, deyishdi.»

«Juda yaxshi bo'libdi, bolam. Umrini bersin» – dedim.

Birovning yorug' dunyoga kelganiga o'zicha quvonib, shu katta quvonchni hammaga bo'lishib, xabar qilib yur-gan podachi bolaning so'zi mehrimni qo'zg'ab yubordi. Qandaydir bir musaffo iliqlik yuragimga to'planib kelib, darvozadan kirib kelayotganimda, yursam ham, tursam

ham doim dilimda turgan narsani qanday qilib esimdan chiqarib yuborganimni bilmayman: «Aliman, suyunchi! Jo'rabeckning kelini tug'ibdi. Eshitdingmi? Oy-kuni yetib yurgandi, bechora, omon-eson...» – deb gapirib kela-yotib, Alimanni ko'rganda mum tishlagandek bo'ldim. Uyning devoriga suyanib shalipayib turgan ekan. Boshini arang chayqab, lablarini tishlab bo'sharib turgan ekan. «Men tuqqanda hech kim bunchalik suyunchi tortib xabar qilmaydis», degan o'yga bordi shekilli, kim bilsin, o'zimning gapimdan o'zim xijolat bo'lib, yuzim qizarib, nima qilarimni bilmay, gapirolmay qolib, tandirning yoniga o'tirdim-da, tezak qalay boshladim. Yuzimning qizargani tarqaganda qayrilib qarasam, Aliman hali ham o'sha bo'yicha bo'sharib turibdi. Hushim uchib, nima qilarimni bilmay: «Biron yering og'riyaptimi?» – dedim yoniga borib. «Yo'q, ena, o'zim shunday» – deb qo'ydi. «Biron yering og'risa, uyga kirib yotsang-chi, qiynal-may». «Qiynalayotganim yo'q. Tamaki bargini ipga ti-zishning nima qiyinchiligi bor, borayin» – deb juvoldiz-larini qo'liga olib chiqib ketdi. Shunday bo'lgandan keyin endi ochig'ini aytayin. «Tortinma, bolam, uyalma. Buning hech qanday uyati yo'q, bu ham hayotning ajoyib bir tomoni. Kimning qanday tug'ilgani ham gap ekanmi, tug'ilganlarning hammasi birdek, ayirmasi yo'q. Dunyoga kelgan har bir norasta hamma odamzodning bolasi, demak, bu mening ham bolam, sen tug'sang u menga begona bo'lmaydi, o'z bolamdek ardoqlab boqar-man. Shuni tushungin. Ko'nglingni yozib xursand bo'lib yurgin» – deb ilgaridan tayyorlab qo'yan so'zlarimni aytayin degan o'y bilan orqasidan yugurib ko'chaga chiqdim. «Hoy, Aliman, to'xtab tur. Bu yoqqa qara» – desam, eshitmaganga solib yurib ketaverdi.

«Xafa bo'ldi shekilli», degan o'y kun bo'yи ichimni tirnadi. Ayollar bilan tamaki yulib yurib hammasini bir-bir o'ylab: «Mayli endi, kechqurun aytayin, bun-day yurishimiz yaxshi emas» – deb o'zimni pishiqlab oldim. Lekin bu o'y-xayollarimni aytish nasib bo'lmadim. Kechqurun ishdan qaytib uyga kelsam, Aliman yo'q. Ana keladi, mana keladi, deb o'tirib yuragimni vahima bosdi. Nima falokat bo'ldi ekan. Ko'chaga chiqib izla-

yin-chi, degan xayol bilan uydan chiqib borayotsam, ekin tarafdan o'tin ko'tarib Bektosh kelayotgan ekan. Bektosh unda kolxozning aravasini shaldiratib haydaydigan yigit bo'lib qolgan edi... U indamay kelib, o'tinni uyning orqasiga tashladi-da, menga javdirab qarab qo'ydi. «To'lg'an opa, Aliman, meni enam izlamasin, deb aytib ketdi. Qayindidagi qarindoshlarimnikiga ketdim, dedi». Bo'g'in-bo'g'inim bo'shashib, bo'sag'aga o'tirdim. «Qachon ketdi?» «Boya. Tushdan keyin ko'chadan mashina o'tib borayotgan ekan, o'shangacha tushib ketdi». O'z yog'imga o'zim qovrilib o'tirsam, sadag'ang ketay Bektosh: «Kabinkasiga minib ketdi, opa. Sira qo'rwmang, shofyori durust odam ekan» – deb qo'ydi. Bektoshni o'zim ham yaxshi ko'rар edim. Unga yana mehrim ortdi. «Ha, bechoram, odam bo'lar ekansan» – dedim ichimda. Bola bilinmay o'saverar ekan-da, mana hozir er yetib, es-hushlikkina, peshonasi yorug' yigit bo'ldi. Ko'zimga shunday ko'rindi. Ariqdan suv olib kelib, Bektosh eshikning oldiga sepdi. «Dah-lizni supurib-sidirib salqin qilib qo'yayin. Onam, sizning choyingizni sog'inib qoldim, deydi. Hozir keladi» – deb o'zicha kuymanib samovar qo'ydi.

Oyshalar uzoq o'tirib choy ichib ketishdi. Uyda yotolmadim. Osmondag'i chamandek yulduzlar tong ot-guncha charaqlab, so'ng birin-ketin so'nishib, eng oxiri porlab turgan yolg'iz Cho'lpon yulduzi qolib, u ham asta-sekin uzoqlashib, allaqayoqqa g'oyib bo'ldi.

Aliman ketgandan keyingi kunlarim qursin. Butunlay yolg'iz qoldim. Uch-to'rt kun eplab, o'zimni yupatib yurdim. Keyin chiday olmadim, shartta turib qayoqqadir bosh olib chiqib ketmoqchi ham bo'ldim, Alimanni ko'rishni eslasam, yurak-bag'rim battarroq eziladi. Agar uni tug'ishganlari xushfe'llik bilan kutib olsa – ko'p yaxshi, boshida, mening turmushimga aralashmanglar, deb katta ketgan eding, endi bizni yo'qlab keldingmi, deyishsa, sho'rlik bolam, bu xo'rlikka qanday chiday olar ekan. Xayoliga allanimalar kelib, shunday qilib yashagandan ko'ra o'lsam bo'lmaydimi, deb hayotdan bezib yurmasa-da. Yonimda bo'lganda hech kimga xo'rlatmas edim-a. Qanday qilib ketib qoldi ekan, bu

ham sho'rim-da. Nima bo'lsa ham borayin, o'z ko'zim bilan ko'rayin. Borsam balki men bilan qaytib kelar. Shunday qilsa ekan, Xudo-ya, shunday qilsa ekan. Bormayman, qolaman, desa – buni ham bilayin, nima qilardim, roziligidimni aytib, oq fotiha berib qaytib kelardim. Kiyim-kechagini ham olib ketmadi, ularni ham eltib berayin. Kelsa-kelmasa ham aytar so'zimni aytishim kerak. Burchim emasmi. Voy, ko'p kechikmay jo'nayin, deb ertasi uyni-joyni Oyshaga tayinlab, yo'lga chiqdim. Qayindi tomonga borayotgan mashinani Bek-tosh to'xtatib berdi. Shu mashinaga tushib ovuldan sal uzaygan edim, so'qmoq yo'l bilan narigi daladan piyoda yurib kelayotgan bir ayolni ko'rib qoldim. Darrov tani-dim – Aliman ekan! Xuddi o'zi, bo'yginangdan o'rgilay, qaytib kelayotgan ekan. Shu zahotiyog o'rnimdan irg'ib turib, mashinani dukullatib ura boshladim. «To'xtat! To'xtat, hozir men tushaman!» – dedim. Mashina biroz yurib borib to'xtagandan so'ng, xurjunimni olib, shoshib undan tushdim. Shu orada uyulgan quyuq chang yetib kelib, ko'zimga hech nima ko'rinnmay qoldi. Boyagi ko'rganim o'ngimmi, tushimmi deb taajjublanib turib qoldim. Kattakon mashinaning orqasidan tushib, yuragim qinidan chiqib ketgudek bo'ldi-da: «Aliman!» – deb qattiq qichqirdim. Oh, aylanayin dehqon dalam, o'zing ko'rmanmiding, bu voqeal ham o'shanda bo'limganmidi?

– Ha, To'Ig'anoy, o'shanda, hu, ana shu yo'lda bo'lgan edi. Sen: «Aliman!» deb qichqirganingda, Aliman yalt etib qarab, seni ko'rib qoldi-da, so'ng: «Enal Enajonim!» – deb sen tomonga yugurdi. Sen o'shanda esing chiqib: «Yugurma, bolam, yugurma, aylanay, yiqlasan!» – deb yolvorib kelayotib, o'zing yiqlilib tushib, yana irg'ib turib chopib ketding.

– Ha, ha, xuddi o'shanday bo'lgan edi. Qanday yetib borganimni bilmayman. Aliman ikkovimiz quchoqlashib ko'rishdik. Rosa sog'inib qolgan ekanmiz: «Keldingmi, keldingmi, bolam, enangga qaytib kel-dingmi?» – desam: «Keldim, enajon, keldim. O'zingizga qaytib keldim» – dedi. Xuddi shu mahalda Alimanning qornidagi bolasi qo'zg'alib «bilq-bilq» etib ikki-uch marta tepib qo'ydi.

Uni ikkovimiz ham birdek sezib qoldik. Aliman qor-nini ushlab ohista silab menga qa-radi. Uning shu ko'z qarashi butun vujudimni vayron qilib yubordi. Men ham ba'zan bir nimani gumon qilib, ichimdan kuyinib yurgan ekanman-da! Qandaydir bir daqiqalik vaqt ichida hayotning eng bir haxtli, eng bir totli damlarini boshidan o'tkazib turgandek Alimanning quvnoq yuzlari mehrimni o'ziga tortib, kipriklariga ilingan munchoq munchoq yosh donalari yuzlariga yumalab tushdi. Oh, muqaddas enalig-e! Go'yo ko'z yoshlari hayot-dagi hamma azob-uqubatlarni yuvib yuborayotgandek! «Ko'zingdan aylanayin, boqishingdan aylanayin!» – deb bet-boshimni silab, yalinib-yolvorib, hiqillab yig'lab yubordim. Shunday qilsam: «Yig'lamang, ena, – deb meni yupatdi. – Kechiring meni, kechiring. Sizni tashlab ketolmas ekanman. Chidolmadim, ko'nglim bo'lmasdi». Ko'pdan beri aytaman deb yurgan gapimni endi ay-tayin, payti kelib qoldi: «Nima uchun ketding, xafa bo'ldingmi?» – dedim. Aliman indamay turib qoldi-da: «So'ramang, ena. So'rab nima qilasiz, menga hech nima demang, men ham sizga hech nima demayin. Qiynamang meni, enajonim, qiynamang?» – dedi.

Shunday qilib, bu safar ham aytolmadim. Yana nima uchundir har qachon aytar gapimni sezib turgandek so'zlashishdan qochib, o'zini shunday tortib turib ol-madimi boyaqish bolam. Bir gapni o'rtaga tashlasa o'ziga ham, menga ham yengilroq bo'lmasmidi. Esingdadir, ona-Yerim, o'sha yili kuz uzoq cho'zilib, so'nggi kuni-lari seryog'in bo'lmasdimi. Havo bir ochilib, bir tutilib, izillagan sovuq ko'p vaqt uydan chiqarmay qo'ydi. Kuz havosi kabi kun sayin Alimanning qovog'i ham uyulib, gaplashmaydigan, kulmaydigan bo'lib qoldi. O'zicha tashvish tortib o'tirgan o'tirgan. Chamamda, oy-kuni ham yaqinlashib qolgan edi. G'amga cho'kib qolmasin, deb qo'limdan kelgancha erkalatib, hazil-huzul gapirib, u qilgan, bu qilgan bo'laman. Biroq yosh bola bo'lidan keyin qiyin ekan. Mengina emas, boshqalar ham bunga urinib ko'rishihibdi. Bektosh, onam tumovlanib yotib qoldi, degan edi. Oyshani ko'rayin-chi, deb bor-sam, isitmasi chiqib, yo'talib yotgan ekan. «O'zing-ku

yarimjon odam eding, jimgina o'tirmay, ovul qidirib yurding» – desam, astagina jilmayib kulib qo'ysi. Bundan ikki-uch kun burun uch-to'rtta ayol bo'lib Bektoshning aravasiga tushib nariga ovulga to'yga borib kelishgan edi. Bilsam, ish boshqacha ekan. «Issiqroq o'ranib, yaxshi bo'lib ketgin» – deb o'rnimdan turayotsam, Oysha: «To'xtab tur-chi, To'lg'anoy, xafa bo'lmasang aytadigan bir og'iz gapim bor edi» – dedi. «Aytkin» – dedim.

«Quyi ovulga biz to'yga borganimiz yo'q, unda mening qarindosh-urug'im ham yo'q. Buni o'zing ham bilasan. Sendan yashirib bir ish qilgan edim. To'lg'anoy, kechirgin, – dedi. – Haligi cho'pon yigitni topib, o'rtaga oldik. Alimanning oy-kuni yetib turibdi, uning uvsavobini kim ko'taradi, desak, baribir hech nima chiqmadi. U o'zi ayolmand ekan, ikkinchidan, vijdonini yutib, men uningni ko'rgan emasman, bilgan emasman, deb tonib turibdi. Xotini ham bir shallaqi ekan, sezib qolib, betga chopib, itdek sharmandamizni chiqardi. Qaytib kelayotganimizda yo'l bo'yi yomg'ir yog'ib, kechki sovuq turib qoldi. Bunisi ham mayli-ya, Aliman endi nima qiladi?» – deb Oysha yuzini to'sib yig'lab yubordi. «Yig'lama, men turganda Aliman xor bo'lmaydi» – deb chiqib ketdim. Boshqa nima ham der edim.

Alimanni eti-boshi og'rib qoldimi, deb hadiksirab, keyingi kunlarda ko'zimni uzmay, uning yonidan sira jilmay yurdim. Birdan eshikka chiqib ketsa ham, orqasidan ergashib: «E-e, Aliman, qayoqda yuribsan?» – deb shoshib qolaman. To'lg'oq tutib qolmasin, deymanda, bo'lmasam, men sho'rlikning boshqa nima ishim ham bor edi.

Bir kuni u issiq kiyinib olib, eshikka chiqib ketayotgan edi: «Qayoqqa borasan, bolam?» – dedim. «Katta suvga boraman» – dedi. «E bo'tam, kun bunday bo'lib tursa, entikib qanday borasan. Uyginada o'tirsang-chi. Suvda nima bor deysan. Yo yoz kuni bo'lmasa» – dedim. «Yo'q, boraman» – dedi. «Unda men ham birga boraman, yo'g'iz yubormayman» – desam, jahli chiqib ketdi. Ko'pdan beri achchiqlanib yurganining qusurini chiqardi: «Nima uchun menga ergashib, qadam-

baqadam poylab qoldingiz. Nimangiz bor menda. Meni o'z holimga qo'ysangiz-chi. O'ladi deysizmi, o'lmayman, o'lmayman!» – deb eshikni tars yopib chiqib ketdi. Tumshayib o'tirib qoldim. So'zi og'ir botdi. Qattiq xafa bo'ldim. Shunday bo'lsa ham ko'nglim tinchimadi. Ikki-uch marta eshikka chiqib qaradim, suvga ketgan bo'yicha ko'rmasdi.

Ko'zga ilinmagan mayda yomg'ir savalab, shamol oq parq-u bulutlarni ag'dar-to'ntar qilib haydardi. Dovdaraxtning tanasi, butoqlari sovuqdan qorayib ketibdi. Elning bari uy-uyida, hech kimsa yo'q, qishloq ichi egasizdek jimjit. Yuzlariga chimmat tutgandek tog' cho'qqlari g'ira-shira ko'rini turardi.

Yomon ko'rsa ko'rsin, orqasidan borayin, to'lg'og'i tutib zax yerga yotib qolmasin, deb tomorqaning etagiga yetib borganimda Aliman ko'rindi. Boshini quyi solib og'ir yurib kelayotgan ekan. Orqamga darrov qaytib keldim-da, choy qaynatib, tuxum solib, quymoq qildim. Saqlangan olmadan tanlab, qizillarini dasturxon ga qo'ydim. Aliman kirib keldi-da, dasturxoni ko'rib, indamay kulimsiradi. «Kechikib ketding-ku, bolam. Endi o'tirib choy ichgin» – dedim. «Ko'nglim hech nimani tortmay turibdi, ena. Olmadan bittasini heringchi, o'shani yeyayin» – dedi. «Nima bo'ldi senga, Aliman? Yoki biron yering og'riyaptimi?» – desam, labini tishlab: Boya sizga qattiq gapirib qo'ydim. Meni o'z holimga qo'ying» – deb qo'l siltab qo'ydi.

Yana kech bo'lib, tun kirib keldi. To'shakka yotganimda, mening so'zim ham unga yoqmay qolibdi-ku, deb ichimdan o'ksinib, yotib uxbab qolibman. Boshqa vaqtda uzoq tun bo'yi tez-tez uyg'onib, Aliman tomonga qarab qo'yardim. Bu kecha nima balo bo'lib uxbab qolganimni bilmay qolibman. Uxlamay ko'zim o'yilsa-chi...

Tunning qaysi vaqtি ekanini bilmayman, birdan uyg'onib ketdim-da, Alimanga qaradim. O'rnida yo'q. Eshikka chiqib ketgandir, deb biroz kutdim, yana kutdim. Yo'q. Tura solib, Alimanning to'shagini ushlab ko'rdim: muzdek, qachonlardir turib ketgan, darrov uni-buni kiyina solib, eshikka otlib chiqdim. Hovlining ichini aylanib qarab, ko'chaga chopib chiqib, undan to-

morqa tomonga o'tdim. «Aliman! Aliman!» – deb qichqirsam ham, hech kim yo'q. Itlargina hurib qo'yishdi. Bo'g'inlarim bo'shashib ketdi. Ketgan ekan-ku, endi qanday qildim? Uyga qaytib chopib kelib, dahlizdagi fonusni yoqib, burchak-burchaklarni qarab, endi eshikni izlayin deb fonusni ko'tarib hovliga chiqqanimda, narigi saroydag'i somonxonaning ichidan odamning ingragan, qichqirgan tovushi eshitildi. Somonxonaning eshigini tez ochib kirib borib, serrayib turib qoldim. Somonning ustiga chalqancha tushgan Aliman tug'a olmay qiynalib yotgan ekan, ko'riboq, esim chiqib ketdi. «Bu nimang, voy tushmagur! Nima uchun aytmading?» – deb qo'ltiqlab ko'taray deb oyog'iga qo'limni tekkizganimda, bilchillab qonga botgan chopon, ko'ylaklar issiq bo'lib bilagimga urildi. Yuzlari ko'karib, ko'zлari olayib nafas ololmay hiqillab: «O'ldim! O'ldim!» – deb inqillab yotibdi. Qornini ushlab ko'rib ish chatoq ekanini darhol tushundim. Xudoning o'zi saqlasin, qon ko'p ketib qolibdi. O'zi ham anchadan beri to'lg'oq tutib yotgan ekan. Bunday vaqtida do'xtirdan boshqa davo yo'q, jonini olib qolsa o'sha olib qoladi.

Tentiraklab ko'chaga chopib chiqib, Oyshalarining derasasini mushtlab yubordim: «Turinglar, voy, turinglar! Bektosh, aylanayin, aravangni tezda tayyorla. Alimanni do'xtirga olib bormasak bo'lmay qoldi» – deb ularni uyg'otib qaytib chopib kelib, Alimanga suv ichirdim. Qalt-qalt etib, tishi tishiga tegmay, arang ichdi. Unga-cha to'shakda kasal yotgan Oysha chopib keldi. Alimanning aftini ko'rib, bo'zdek oqarib, titrab: «Aylanayin, Aliman, chidab tur. Chidab tur, Xudo, Xudo!» – deb kuyundi. O'sha kechasi Bektosh ishdan kech qaytib, Xudo yarlaqab, otlarini bostirmaga bog'lab, aravasini uyga kiritib qo'ygan ekan. Ko'p o'tmay aravani hovliga haydab kirdi. Aravaga ko'rpa-to'shak solib, yostiq qo'yib, qorong'ida timirskilanib uch kishi bo'lib Alimanni zo'rg'a ko'tarib yotqizdik. Shu bilan u-buga qaramay tez jo'nayverdik.

Oh, o'shandagi yo'l azobi-yey, oh, o'shandagi qorong'i tun-ey... Do'xtirxona u vaqtida suvning narigi bo'yida, katta qishloqda emasmidi. Ko'rik bo'lsa hov pastda, ancha yiroqda edi.

Uydan chiqqanimizdan Alimanning to'lg'og'i qayta kuchayib, besh bukilib, besh yozilib, ustidagi yopinchilarini irg'itib, odam chiday olmaydigan tovush bilan chinqirardi.

— Ha, To'lg'anoy, o'sha qorong'i, izg'irin tunda qish kelishini kutib junjikib, sovuqdan qaltirab yotgan edim, odamning qattiq chinqirgan yagona tovushidan seskanib qo'zg'aldim. O'sha sizlar ekansizlar-ku.

— Ha, ona-Yerim, men shunda nima qilishimni bilmay shoshib qoldim. Bektosh aravani tezroq haydasa, Aliman chidamay qichqiradi, sekinroq haydasa, sabr chidamasdi: qon to'xtamay ketaverdi, mayib bo'lib qoladi-ku, deb menda jon qolmadi. Shu zaylda g'ildirab boravererdik. Bunday yo'l bir tekisroq bo'lsa-chi, aylanay. Alimanning boshini tizzamga qo'yib, bo'ynidan quchoqlab o'tirdim. Goh yopinchilarini o'nglayman, goh fonusni yuziga tutib qarayman. Bektosh aylanayin, qayta-qayta qayrilib: «Chidab tur, yanga, mana yetamiz» — deb ovutmoqchi bo'ladi. Muzdek yomg'ir savalay boshladi. Bir vaqt inqillab qichqirib yotgan Aliman chirani, qayta buklanib, baqirib, qichqira boshladi. «Aliman! Aliman!» — deb cho'g'dek yuzlarini siypalab, yoriqqa tutsam, jon talashgan, qiyalgan ko'zları bilan menga ayanchli bir holda, tikilib: «To'xtanglar. O'lyapman. To'xtanglar» — dedi. Aravani to'xtatdik. «Boshimni qattiqroq bosing, ena» — deb entikib yig'lab gapirdi. «Ena, enajonim! Ichim ku'yib, o'lib boryapman, tirik qolmayman. Xosiyatingizdan aylanayin enajonim, u dunyo, bu dunyo roziman sizdan. O'g'lingiz qarshisida men pokman, gunohim yo'q. Qosimning ko'zi tirik turganda men shunday bo'larmidim... A-a-a, Qosim-ey... Men ham joni bor odam emasmanmi, ayolman-da... Bu dunyoning rohatini ko'rmay ketdim, qanday qilayin, qanday qilayin. Kechiring, kechiring, enajon, Xudo shu ko'yga soldi, yomon ko'rmang». Bag'rim ezilib yalindim: «Chidab tur, bolam, chidagin, sen poksan, senda hech qanday gunoh yo'q. Sen eng halol ayolsan. Sen o'lmaisan. Chidagin, mana ko'prikkä yetib oldik. Endi tez yetamiz, sen o'lmaisan!» O'sha mahalda Aliman yana chalqancha yotib, kuchanib, qorni yana siqila boshladi. Bolaning qo'li chiqib kelayotgan

ekan. Qon hali ham ketib turibdi. Biroz vaqt o'tsa o'lib qolishiga ko'zim yetib: «Bektosh, qo'lting'idan yuqori ko'tarib, qornini siq, — dedim. — Uyalma, ko'tar tez-roq!» Boyadan beri yig'lab o'tirgan Bektosh irg'ib turib, Alimanni ko'tarib, qornini bosganda, bolaning qo'lidan ushlab tortdim. Bola chiqmay yotardi. Aliman bir yoqda qichqirib jon talashib yotsa, tavba, qulog'imni tindirib, tag'in o'sha eshelon: bir-biriga ularshgan ikki parovoz olib uchgan vagonlar miyamni qoq yorib o'tib bora-yotgandek tuyuldi... «Ona-a, Alima-an!» — deb shamol olib qochgan hayqiriq tovushga chaqaloqning «Ingga-al» degan tovushi qo'shildi... Eh, hayot-ey, nega buncha berahm bo'lding, nega buncha ko'r bo'lding? Bola ham tushdi. Alimanning joni ham chiqqa boshladи. Qip-qizil etni etagimni nari-beri o'ray solib qarasam, Bektosh qo'lting'idan olib ko'targan bo'yicha, Alimanning bir oyog'i qiyshayib, qo'llari salanglab qolibdi. «Voy, Ali-man!» — deb tomirini ushlab ko'rsam, jon yo'q, chiqib bo'pdi... Hayqirgan shamolni yorib eshelonning shaq-shaq urgan ovozi qulog'imdan hech vaqt ketmaydi... Dunyoga kelgan zahoti «Ing-ga-al» deb qichqirgan bola birinchi to'ng'ich tovushi-la o'lib borayotgan onasi bilan xo'shlashiyotgandek yig'lar edi... Alimanning ko'zi muz-lab olayib qoldi. Nima qilishimni bilmay qoldim. Bir vaqtning o'zida birini uzatib, birini kutib oldim. Bir vaqtning o'zida biri o'lib, biri tug'ilib, ko'z oldimda ajal bilan hayotning to'qnashgani esimni og'dirdi. Undan keyin o'zim ham nima bo'lganini bilmayman...

— Sizlarning tovushlaringizni men eshitdim, To'l-g'anoy. «Aliman! Aylanayin qarog'im! Ko'zingni och! Ko'zingni och!» — deb sen zor qaqqash yotding. Yangi tug'ilgan chaqaloq ko'lning qirg'og'ida yolg'iz qolgan o'rdak bolasidek bo'zlab, emchak so'rayotganga o'xshardi. Bu tongga yaqin yomg'ir qorga aylanib yog'a boshlagandek bo'ldi.

— Ha, ko'prikkha yetmasdanoq orqaga qaytib kela-yotganimizda tong yorishdi. Bo'shargan osmonning beti zangori tusga kirib, g'ira-shira yorug'da yumshoqqina oppoq qor sepkilab yog'ib turardi. Tevarak-atrofda na bironta jon ko'rinar va na bironta tovush eshitilardi.

Dunyo bir tekisda sukonatga cho'mgan edi. Tabiatning o'sha horg'in holatini buzib, yolg'iz bizning arava kelardi. Bektosh aravada o'tirgan joyida boshini quyi solib, yo'l bo'yи hiqillab yig'lab keldi. Otlar arang bosib, yoliga, quyrug'iga qor yopishib, aravani tortolmay charchab, arang kelishardi. Bolani chonponimga o'rabi, men aravaning yonida piyoda kelardim.

Shunday qilib, urush eng oxirgi o'chini olib tinchidi. O'sha kungi bosilgan yo'l hayotimdag'i eng og'ir yo'l bo'ldi. «Tfu, sening betingga, dunyo! – derdim. – Kechdim sendan, kechdim. Yashashni istamayman! Bunday qilib yashagandan ko'ra, bugunoq o'lganim bo'lsin!» – deb niyatim buzilib, hayotdan bezib kelaverdim. Men shunday kelayotganimda, chonponimdag'i bola, tirik jon-da, bir qimirlab, bir ovoz chiqarib, bir ingalab yig'lab kelardi. Uning tanasi borgan sari qalbimni isitib, yuragimga yaqinlasha bordi. O'g'ilmi, qizmi ekanligini ham bilganim yo'q. Obbo bechora-yeys, hadeganda onangni yo'qlab qolding-ku, deb undan battar uvvos tortib yig'ladim. O'sha kuyguli, iztirobli yig'ining orasida qandaydir g'alati bir fikr tug'ildi: «Umr tap-taqir tugab qolmabdi-ku. Orqasidan kichkina-gina tirik jon qolibdi-ku. Hayot bilan yana bir marta bellashib ko'rsak qanday bo'larkin?» Birozdan keyin yana o'yladim: «Ona sutini totmagan go'dak odam bo'ladi deysanmi. Qancha yashay olardi deysan» – deb gumon qildim. Unga ham ko'nmay: «Xudo-yeys, endi shu norastaning umrini ber!» – deb tilayman. Qo'ychi, shunday har xil o'y-fikrlar bilan olishib oppoq tong otganda ovulga yetib keldik. Ukkining patidek yumshoq qor uchqunlari birini biri quvishib havoda aylanmachoq o'ynab yog'ib turdi. Ovulga kiraverishdag'i hali yangi ko'cha deganimiz ko'zimga allaqanday sovuq, ayanchli bo'lib ko'rindi o'shanda. Uy-joy solib, bog' qilib, oz-moz chorva ko'paytiramiz, kun ko'ramiz deganlarning bundan yetti yil burun boshlagan ishlari ilgari bosmay, orqaga ketib, mehnatlarining izigina qolgan edi. Qo'nqaygan xarobalarni oqquray, tikanaklar g'ovlab bosib ketgandi. Qor yog'ib, ularning kemtik-semtigini yashirib yotardi. Qosimlarning chorborg'iga qarasam,

Aliman ikkovining orzu-tilaklariga o'rnatilgan haykaldek uyulgan tosh tepa, allaqachon tuproqqa aylanib ketgan g'ishtlarning unutilib yotgani yurak-bag'rimni ezib yubordi. A-a, qarog'larm, orzularingga yetmay qoldilaring-ku, deb aravada yotgan Alimanning aftiga qarasam, yuzi oppoq bo'lib, dunyoning hamma yaxshi, yomoniga rozi bo'lgandek tinchib, ko'zi yumilgan. Yuziga tushgan qor erimay, arava qimirlaganda sidirilib tushib turdi.

Ko'chaga kirib kelgan ekanmiz... Aylanayin Bektosh yigitlardek aravadan sakrab tushdi-da, umrida birinchi marta yig'i boshlab: «Jigarim-eyl Jigarim-eyl» – deb butun ovulni boshiga ko'tarib yubordi.

Har tarafdan el yugurib kela boshladи. Yig'lab, bo'zlab yetib kelgan Oysha: «Bolani menga ber endi» – deb oldi-da, chophoniga o'rab, uyiga ko'tarib ketdi. Oradan bir kun o'tib Alimanni o'rning qo'yidik. Ayol kishi bo'lsa ham qabrining boshigacha o'zim bordim, kelinimni o'z qo'lim bilan qo'ydim, manguga vidolashdim. U kuni ham qor uchqunlab turdi. Uyulgan qora tuproq tezda oppoq tepaga aylandi. O'sha yili, ko'klamda kelinimning qabriga gul o'tqazdim. O'shandan beri har yili gul ekip o'stiraman. Yodgorligim, ermagim shu. Alimanim gul suygan kelin emasmidi...

Shu bilan u qilib, bu qilib Jonbo'lotni echkining suti bilan boqib katta qilib olmadimmi. U ikkovimiz ko'rmagan azobning littasi ham qolmadi. Haytovur, tuz-nasibasi bor ekan, omon qoldi. Mana hozir o'n ikki yoshga kirib qoldi. Aylanib kelib qariganda topganim, ko'rар kumin shu bo'lib qoldi. Shunisiga ham qanoat qilaman, yoqamni ushlayman. Aytgandek, o'sha paytdagi do'xtir yigit endi katta kishi bo'lib qolmadimi, har safar yo'liqqanda so'rab qoladi: «Qanday opa, o'g'ling katta bo'lib qoldimi?» – deydi. «Xudoga shukur, yigit bo'lib qoldi» – deyman. Shunda u jilmayib qarab qoladi. «Shunday qil, opa, yaxshi odam qilib o'stirgin» – deydi. Jonbo'lot go'dakligida qattiq shamollab, bir kun qarasam, lablari ko'karib, ko'zları olayib mazasi qochib boryapti. Esim chiqib, o'sha yerdan ola yugurdim. Tun edi. Do'xtirga tezroq yetayin, deb qish bo'lsa ham katta suvdan kechib o'tmadimmi. Kiyim-kechagim jiqla ho'l

kirib borsam, do'xtir yangidan kelgan yosh bola ekan, qo'rqib ketdi. «Nima uchun suv kechib yuribsiz, tinchlikmi? Buning ota-onasi qayerda?» «Buning otasi ham, onasi ham men. Bolam, shunimni omon saqlab qol. Bu o'Isa meni tiriklay ko'maver. Yashamayman» – dedim.

Kechasi bilan yonidan ketmay dori-darmon qilib turdi. Menga ham yangi ust-bosh, dori berib, oldini oldi, lekin erta bilan isitma bosib, qon yo'talib yiqildim. Qalin tuman ichida kuyib borayotgandek es-hushimni bilmay yotsam, do'xtir dam-badam kelib, muzdakkina qo'li bilan chakkamni ushlab: «Opa, o'g'ling yaxshi bo'lib qoldi. Bo'shashma, boy berma kasalga!» – deb g'ayratlantirdi. «Unday bo'Isa, o'lmayman, o'lmayman» – deb shivirlab qo'ydim. O'lmay tirik qolganimga ham shu sabab bo'ldi deyman...

– O'g'ling yigit bo'lib qolibdi, To'lg'anoy. Bu yil o'roq mahalida shu o'rtada chopib yurgan ekan, Ali-manga o'xshashligidan tanib oldim.

– Ha, qutlug' dalam, onasiga o'xshashligi chin. Biroq hech nimani bilmaydi-da. Otam frontda o'lgan, deydi, onamning qabri bo'lsa ovulning chetida, deb qo'yadi. Bu yil yozda bir qiziq voqeа bo'ldi. Yozgi ta'til kuni-lari edi. Qosimning haligi bir velosipedi bor emasmidi. U yigirma yildan beri saroyda qoziqda osiqlik turardi. Jonbo'lot o'shani eshikka olib chiqib tuzatdi. Bola-da, qachonlar zang bosib, yaroqsiz bo'lib qolgan emasmidi. Bir vaqt Bektosh ham unga yopishib olibdi. Ikkalasi tuzatmoqchi bo'lishdi. Rosa ovora bo'lishdi. Jonbo'lotni Bektosh boshidan o'z bolasidek ko'rardi. Hozir uchting otasi, og'ir, salmoqli, miqti kishi bo'lmadimi. Ko'pdan beri kombayn haydaydi. Oysha bo'Isa – o'lgan. Tengdoshimdan ajralib, shunday qattiq o'ksidim.

Xullas, bir kun qarasam Jonbo'lotim yugurib-yelib velosipedini yetaklab qoldi. «Ena, qarang otamning velosipedi qanday yaxshi bo'lib qoldi» – dedi. Yuragim allaqanday bo'lib ketdi. Shunda maqtanib: «O-o, men o'rganib qoldim, ena. Qarab tur hozirl» – deb velosipedning egariga bo'yi yetmay bir yoq tomoniga qiyshayib yopishib, lapanglab, goh bu yog'iga og'ib, goh u yog'iga og'ib haydaganda yiqilib ketadimi deb

qo'rqib: «Tush, voy sho'rim, yiqilasan!» – desam, yana qattiqroq haydab borib, velosipedi bilan birga yiqildi, qattiqqina yiqildi. «O'rgilay, qayoqdagi ishni boshlading, o'lasan-ku bundaydal» – deb xalloslab yetib bordim. Yerdan dast ko'tarib, yuz-boshini artdim. Shunda qarasam, narigi yoqda Bektosh tek, anchayingina qarab turgandek tikilib turibdi. Indamadi, men ham indamadi. Bir-birimizni tushundik.

Oradan ko'p o'tmay ekinlar pisha boshladi, bir kun Bektosh kelib: «Jonbo'lotni kombaynga yordamchi qilib olayin», degan edi. «Yarasa ola qol» – dedim.

Aytishga aytib qo'yib, ikki kundan keyin ko'nglim chidamay bolamni ko'rgani bordim. Podada kelayotgan moldek dimiqib garmsel yurib tursa ham, pishiqlik mahaliga nima yetsin! Dehqonning yil bo'yi to'kkkan terining, qilgan mehnatining natijasi, samarasi shunda ko'rinnmaydimi. Boyligi qo'liga sig'may, mardligi terisiga sig'may yerdan topgan oziq-ovqati qancha odamzodga nasib bo'ladi. Dehqon olamni boqadi.

Donning anqigan xushbo'y hididan, aylanay dehqon dalam, mavjlangan ekinlarni ko'rib xumordan chiqmadiimmi! Hov olis-olislarda goh ko'rini, goh ko'rinnmay chopib kelayotgan otliqqa qaraganingdagina dunyoning naqadar kengligini bilar ekansan.

Jonbo'lot kombaynda somon tashib yurgan ekan, meni ko'ra solib: «Ena, ena! Men bu yoqdamani» degandek maqtanib qichqirdi. Shturvalning yonida mag'rurona turgan Bektosh boshini irg'ab qo'ydi.

Ariqning bo'yida tolning soyasiga o'tirib kechgacha tomosha qildim. Yo'l changitgan mashinalar bir-biriga ulanib bug'doyni xirmonga tashib turdi.

Qosh qorayganda kombaynchilar dam olgani kelishdi. Bektoshning yonida mag'rurlanib kelayotgan Jonbo'lot anchagacha gapirolmay, yarmigacha yalang'och bo'lib ariqdagi suvga yuvindi-da, olib kelgan tugunchagimni ko'rib: «Ena, olma olib keldingizmi?» – deb sevinib ketdi. «Olib keldim» – desam, yugurib kelib bo'ynimdan quchoqlab o'pa boshladi. Bektosh piqillab kulib yubordi: «Boyadan beri shunday qilsang bo'lmasmidi. Mayli, buguncha erkalanib ol enangga» – dedi.

Ko'chma uyning yonida o'tirib choy ichdik – yangi-gina yopilgan issiq non ekan. Jonbo'lot katta kishilardek non to'g'rab: «Oling, ena» – dedi. Bir burda non olib tishlaganimda, Qosimning qo'lining hididek kombayn-chining moyli qo'lining hidi anqib turdi. Ha, ha, xuddi o'shanday – kerosin, quyosh, somon hidi kelayotgandek shirin non ekan. Ko'z yoshlarim bilan qo'shib yutib yubordim. «Non o'lmas ekan-da! – dedim ichimda. – Hayot o'lmas ekan-da, mehnat o'lmas ekan-da!»

«Qo'noqlab kelib qolibsiz, opa. Yotib keting bugun biznikida» – deb Bektosh uyg'a ketkizmay qo'ydi. Somon ustiga to'shak solib berishdi. O'sha kechasi osmonga qarab yotsam, somon yo'li yangigina tushgan-dek, allakim hozirgina katta bir quchoq somon ko'tarib o'tgandek, yiltillagan mayda to'ponlar shamol tek-kandek sochilib, tovlanib yotardi. Go'yo osmon-u falak-da o'sha somon yo'li bo'ylab tobora olislab borayotgan eshelonning «shaq-shuq» ovozi yuragimni zirqiratib, uzoq vaqt eshitilib turgandek bo'ldi. Temir izlarga urilgan g'ildiraklari meni tebratgandek, ko'zim ilinib, bugungi tunda dunyoga yana bir dehqon keldi-ku, umrini bersin, sepgan urug'i yulduzlardek hisobsiz bo'lsin, deb somon yo'liga tikilib uxlab qolibman.

G'ira-shira tongda o'rnimdan turib ishlayotganlarga xalaqit bermayin deb ovulga jo'nadim.

Ko'pdan beri bunday musaffo tongni ko'rmagan edim. Ko'pdan beri to'rg'ayning bunday sayraganini eshitmagan edim. Cheki yo'q, chegarasi yo'q ko'm-ko'k musaffo osmonga ko'rк bo'lib, bo'zto'rg'ay, odamning osmonga uchib chiqqan yuragi kabi tinim bilmay, qanot qoqib pirpirab, bir nuqtadekkina bo'lsa ham naqadar nozik, naqadar to'lqinlantiruvchi kuylarni taratib xonish qilardi. Tilginangdan aylanayin, to'rg'ayim. «Ana, bizning to'rg'ay sayradi», deb qo'yardi Suvonqul. Sen ham o'lmas ekansan, to'rg'ayim!

VII

— O', qutlug' dalam, sening hozir dam olib yotgan payting. Kecha o'roqqa tushgan odamlarning ovozi ham eshitilmaydi. Bug'doy tashib yo'l changitgan mashinalar ham yo'q, yaqin orada kombaynlar ham ko'rinxmaydi, mollar ham tog'dan tushgani yo'q. Odamga buyurgan non-u nasibasini o'ziga buyurib, bir qarzingdan qutulgandek yer haydash uchun qo'sh chiqqunga qadar osuda yotadigan mahaling. Hech kim yo'q, ikkovimiz — sen va men. Ko'zi yorigan ayoldek cho'zilib yotganingdan aynalayin, ona-Yerim. Men senga bugun butun hayotimni aytib berdim.

Bugun mening sig'inadigan kunim, bugun mening Suvonqulni, Qosimni, Maysalbekni, Jaynoqni va Alimanni eslaydigan kunim. Men ularni o'la-o'lgunimcha unutmayman. O'rni kelganda hammasini Jonbo'lotga tushuntirib aytib beraman. Esi bo'lsa tushunar, aqli bo'lsa kechirar bizni... Lekin boshqalar-chi, quyosh ostida yashagan barcha odamzodga aytar so'zim, aytar gapim bor. Uni qanday aytaman, uni qanday qilib hammaga aytib chiqaman?

Ey osmonda yarqiragan Quyosh, yer yuzida yurib sen aytgin!

Ey ko'chib yuruvchi bulutlar, yomg'ir bo'lib yog'ilib, har bir tomching bilan sen aytgin!

Yer, barcha odam bolasini to'yg'azgan Yer, sen, sen aytgin, jonim tutashgan Yer.

— Yo'q, To'lg'anoy, sen aytgin. Sen — Insonsan. Sen hammamizdan buyuk, sen hammamizdan ulug' bo'lib yaratilgan jonsan, sen aytgin, sen — Insonsan!..

VIII

- Ketdingmi, To'lg'anoy?
- Ketdim. Xayr, omon bo'l, o'lmasam yana kelarman.

ALVIDO, GULSARI



I

Eski aravani keksa bir kishi haydab borardi. Saman yo'rg'a – Gulsari ham juda qari edi...

Yassi tog' tepasiga olib chiqadigan yo'l tinkani quritadigan darajada olis bo'lib, yaydoq kulrang adirlarda qishda doim sovuq shamol yer yalab izg'ib yurar, yozda esa tandirdek qizib ketardi.

Bu dovon Tanaboy uchun jon azobi edi. U aravani sekin haydashni yoqtirmasdi. Sekin yursa yuragi tars yorilib ketay derdi. Yoshlik kezлari tuman markaziga tez-tez qatnab turishga to'g'ri kelar, uyga qaytishida u har gal otning boshbini qo'yib yuborib, toqqa chop-tirib chiqib ketar, otni ayamas, qamchi bilan savalar edi. Agarda hamrohlari bilan bir aravada ketayotgan va buning ustiga aravaga ho'kizlar qo'shilgan bo'lsa hormi, undan yerga sakrab tushib, indamay kiyimlarini olardi-da, yayov ketardi. Xuddi hujumga ketayotgandek jon-jahdi bilan, qahr-g'azab bilan yurar,adirga chiqib borgachgina to'xtar edi. U yerda harsillab nafas olib, pastda imillab kelayotgan beso'naqay aravani kutib turardi. Tez yurib chiqqanidan yuragi gupullab urar va ko'kragida sanchiq turganini sezardi. Har qalay aravada imillab kelgandan ko'ra, bu unga yaxshi edi.

Marhum Jo'ra ba'zida do'stining bunday g'alati qiliqlaridan kulib, uning g'ashiga tegishni yaxshi ko'rardi.

– Nega omading kelmaydi, bilasanmi, Tanaboy? – der edi u. – Besabrligingdan. Xudo haqqi. Senga qolsa hamma narsa tezroq, darrov hal bo'lsa. Jahon revolutsiyasi ham birdan amalga oshsa! Revolutsiya-ku mayli-ya, Aleksandrovkadanadirga olib chiqadigan oddiy yo'lga ham sabring chidamaydi. Hamma odamlar aravada xotirjamgina o'tirib borishadi-yu, sen bo'lsang sakrab tushib, xuddi orqangdan bo'rilar quvayotgandek toqqa qarab yugurasan. Xo'sh, nima foyda ko'rasan? Hech narsa.

Baribir tepada o'tirib olib, boshqalarni kutasan. Jahon revolutsiyasiga ham bir o'zing kirib bormaysan, bilib qo'y, boshqalarning ham yetib olishlarini kutasan.

Ammo bu bir zamonlardagi, o'tmishdagi gaplar edi. Tanaboy bu gal Aleksandrovkadagi balandlikka qanday chiqib olganligini sezmay ham qoldi. Qarilikka, demak, ko'nikib qolibdi. Aravani tez ham, sekin ham haydagani yo'q. Otni o'z holiga qo'yib berdi. Endi u doim yo'lga yolg'iz chiqardi. O'ttizinchi yillarda bu yo'llarda u bilan birga shovqin solib yurgan bir to'da yoshlarni endi qidirib ham topa olmaysan. Ba'zilari urushda halok bo'lgan, ba'zilari o'lgan, ba'zilari esa ovulda, lekin ularning ham kunlari sanog'lik qolgandi. Yoshlar esa mashinada yurishadi. Oriq, qirchang'i ot qo'shilgan aravada u bilan birga yurisharmidi.

Eski yo'lida g'ildiraklar g'ijirlab borardi. Yo'l uzoq, oldinda cho'l yastanib yotardi, kanalning naryog'ida esa tog' etagi bo'ylab yana anchagina yurish kerak bo'lardi.

U otining bo'shashib, majolsizlanib borayotganligini allaqachon sezsa boshlagandi. Lekin o'zining og'ir xayollari bilan bo'lib, bunga unchalik e'tibor bermasdi. Otning yo'lida toliqib qolishidan tashvishlanib o'tiradimi? Undan battarlar bo'lgan. Manzilgacha yetkazadi, amallab sudrab olib boradi...

Rangi sap-sariq bo'lGANI uchun Gulsari deb nom olgan qari yo'rg'asining umrida so'nggi marta Aleksandrovka balandligiga ko'tarilayotganligini va u hozir o'z yo'lining oxirgi chaqirimlarini bosib o'tayotganligini bu qayoqdan bilsin. Otning boshi bangidevona o'tini yegandek gir aylanayotganligini, uning xira ko'zlar o'ngida yer rangli halqalar singari suzib o'tayotganligini va qiyshayib goh u, goh bu tomoni bilan ufqqa tayayotganini, Gulsariga yo'l birdan qop-qorong'i bo'shliqqa tushib ketib, oldindagi tog'lar o'rnida qizg'ish tuman yoki tutun suzayotgandek tuyulayotganligini Tanaboy qayoqdan bilsin.

Otning allaqachon zo'riqib qolgan yuragi zirqirab og'rirdi, xomutda nafas olish tobora og'irlashib borardi. Bir yonboshga sirg'alib ketgan egar-jabduq beliga qattiq

botar, chap tomonda bo'yincha ostida allaqanday uchli narsa yelkasiga muttasil qadalib sanchilayotgandek edi. Ehtimol, bu tikanak yoki xomutning kigiz bo'yinchasidan chiqib qolgan mixning uchidir. Yelkasidagi qadoq bo'lib ketgan eski yag'ir o'rniда ochilgan yara chidab bo'lmas darajada zirqirab og'rir, achishar edi. U xuddi nam shudgordan ketayotandek, oyoqlari ham borgan sari og'irlashib borardi.

Ammo shunday bo'lsa ham qari ot so'nggi kuchlarini to'plab yurib borardi, keksa Tanaboy esa ahyon-ahyonda unga «chuh-chuh»lab, jilovini tortib-tortib qo'yar va xayol surishda davom etardi. Uning o'ylari ko'p edi.

G'ildiraklar eski yo'ldan g'ijirlab borardi. Gulsari ilk bor oyoqqa turib, onasi – yoldor katta biya ortidan o'tloq bo'ylab qo'rqa-pisa yo'rtib ketgandan buyon biron marta ham adashmagan o'sha yo'rg'a qadam bilan hamon bir maromda yurib borardi.

Gulsari tug'ma yo'rg'a edi va ana shu dong'i chiqqan yo'rg'asi tufayli Tanaboyning boshiga umrida ko'p yaxshi va yomon kunlar tushgandi. Ilgari Gulsarini aravaga qo'shish hech kimning xayoliga ham kelmasdi, uni aravaga qo'shish ko'rnamaklik edi. Lekin ot boshiga ish tushsa, suvlug'i bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa, etigi bilan suv kechar, deganlaricha bor ekan.

Lekin bularning hammasi endilikda orqada qolib ketgan gaplar edi, albatta. Hozir yo'rg'a bor kuchini sarf qilib, o'zining so'nggi marrasiga intilardi. U hech qachon manzilga bunchalik sekin bormagan, hech qachon unga bunchalik tez yaqinlashmagan edi.

G'ildiraklar eski yo'ldan g'ijirlab borardi.

Tuyoqlari ostidagi qattiq yerning omonatligini his etish otning so'niq xotirasida uzoq o'tmishidagi o'sha yoz kunlarini, tog'lardagi o'sha shabnamli yumshoq o'tloqlarni, osmonda charaqlab va tog'-u toshni orqada qoldirib ketayotgan quyoshni, u tentak esa to uyurboshi ayg'ir g'azabdan quloqlarini ding qilib uni quvlab yetib olib, orqasiga qaytarmagunicha daryo va o'tloqlarni, butazorlarni kesib o'tib, quyosh ortidan quvib ketgan o'sha ajoyib va g'aroyib damlarni g'ira-shira jonlantirdi. Endi uzoq o'tmishga aylangan o'sha paytlarda yilqilar

xuddi ko'l tubida oyoqlarini osmonga qilib yurgandek, uning onasi – yoldor katta biya esa go'yo iliqqina sutli bulutga aylangandek tuyular edi. U onasining birdan mehribonlik bilan pishqiruvchi bulutga aylanib qoladigan shunday damlarni xush ko'rardi. Uning em-chaklari taranglashib, lazzatli bo'lib ketar, lablarida sut ko'piklanar, u bo'lsa sutning mo'lligi va shirinligidan entikib qolar edi. U ulkan yoldor onasining qorniga tumshug'ini qadab turishni yaxshi ko'rardi. Naqadar lazzatli, mast qiladigan sut edi bu! Butun olam – quyosh, yer onasi bir qultum sutga joylashgandek edi. To'yib emib bo'lganidan keyin ham yana bir qultum, yana va yana emish mumkin bo'lardi...

Afsus, bunday damlar uzoqqa cho'zilmadi. Oradan ko'p o'tmay hamma narsa o'zgarib ketdi. Ko'kdagi quyosh charaqlamay, tog'dan toqqa sakramay qo'ydi, endi kun sharqdan chiqib g'arbga tomon og'ishmay borardi, yilqilar esa oyoqlarini osmonga qilib yurmaydigan bo'lib qolishgandi, payhon bo'lgan sizot o'tloq ularning tuyoqlari ostida chapillar va qorayib borar, qirg'oqlardagi toshlar qarsillar, yorilardi. Ulkan yoldor biya mehri qattiq ona bo'lib chiqdi, toychog'i haddan ortiq bezor qilganida uning yolidan qattiq tishlab olardi. Endi sut yetishmas, o'tlash kerak edi. Uzoq yillar cho'zilgan, hozir oxirlab borayotgan hayot boshlangan edi.

Abadiy yo'qolgan o'sha yoz yo'rg'aning shu o'tgan uzoq umri davomida hech qachon takrorlanmadidi. U egarlangan holda har xil yo'llarni bosib o'tdi, uni har xil chavandozlar mindi, lekin hamon yo'llarning oxiri ko'rinasdi. Faqat endigina – quyosh yana o'z o'rnidan qo'zg'algach, yer esa oyoqlari ostida chayqalayotgan, ko'zlarini jimirlab, xiralasha boshlagandagina, shuncha yillardan beri qaytib kelmagan o'sha yoz yana uning ko'ziga ko'riniib ketdi. Hozir uning ko'z o'ngida o'sha tog'lar, o'sha sizot o'tloqlar, o'sha yilqilar, o'sha yoldor katta biya miltillab, g'ira-shira namoyon bo'ldi. U do'g'adan, xomut va shotidan qutulib olib, to'satdan paydo bo'lgan o'tmishga qadam qo'yish uchun kuchi boricha talpinar, jon-jahdi bilan depsinardi. Lekin al-

damchi sarob har gal uzoqlashib ketar, bu unga juda alam qilardi. Onasi uni qulunlik paytidagidek sekin kishnab chaqirar, yilqilar biqinlari bilan turtib, dumlari bilan urib o'tar, uning esa shamolga bardosh berishga kuchi yetmasdi – shamol tobora kuchayar, uni savalar, ko'zlar va burun kataklarini qor bilan to'ldirar, u qora terga botib, sovuqdan qaltirar, erishib bo'lmas o'sha olam esa izg'irin quyunlar ichida unsiz ko'milib, yo'q bo'lib ketmoqda edi. Mana endi tog'lar ham, o'tloqlar ham, daryo ham g'oyib bo'ldi, yilqilar qochib ketdi, faqat onasi – yoldor katta biyaning sharpasi oldinda g'ira-shira ko'rinish turibdi. U bolasini tanho tashlab ketishni xohlamasdi; uni oldiga chorlardi. Gulsari faryod chekib kishnab yubordi, ammo o'z ovozini o'zi eshitmadi. Hamma narsa g'oyib bo'ldi, izg'irin ham tindi. G'ildiraklar g'ijirlamay qo'ydi. Xomut ostidagi yaraning achishgani ham sezilmay qoldi.

Yo'rg'a to'xtadi, gandiraklab qoldi. Uning ko'zlar achishar, kallasi tinmay g'uvullardi.

Tanaboy jilovni aravaning bosh tomoniga tashladi, beso'naqay tushdi, uvushib qolgan oyoqlarinining chigilini yozdi va qovog'ini solib otning oldiga keldi.

– Hah, harom o'lmagur! – deb sekin so'kindi u yo'rg'asiga qarab.

Ot ozib ketgan uzun bo'ynini cho'zib, kattakon kallasini xomutdan osiltirib olgandi. Yo'rg'aning qovurg'aları eski-tuskilar yopilgan, ich-ichiga kirib ketgan biqinlarini turtib ko'tarilib tushib turardi. Qachonlardir sap-sariq tillarang bo'lgan ot endi ter va changdan qo'ng'ir tusga kirgan edi. Nim ko'kish ter tomchilari mag'zavadek iz qoldirib, qoq suyak sag'risidan qorniga, oyoqlariga, tuyoqlariga oqib tushardi.

– Qattiq haydamovdim shekilli, – deb to'ng'illadi Tanaboy va shoshib-pishib ayilni bo'shatdi, suvlug'ini chiqardi. Suvluq issiq, yopishqoq so'lakka bulangandi. Po'stinining yengi bilan yo'rg'aning tumshug'ini va bo'ynini artib qo'ydi. Keyin qolgan qutgan pichanlarni yig'ish uchun aravaning yoniga o'tdi, supurib-sidirib yarim quchoq to'plab, otning oldiga tashladi. Lekin u pichanga qayrilib ham qaramadi, dir-dir titrardi.

Tanaboy yo'rg'aga bir tutam pichan tutdi.

— Ma, ol, e, senga nima bo'lди?

Yo'rg'aning lablari qimirladi, lekin pichandan ilintira olmadi. Tanaboy uning ko'zlariga qaradi-yu, qosh-qovog'i solinib ketdi. U otning ich-ichiga cho'kib ketgan yarim ochiq ko'zlarida hech narsa ko'rмади. Ular tashlandiq uyning derazalari kabi xira va ma'nosiz edi.

Tanaboy sarosimaga tushib u yoq-bu yoqqa qaradi: uzoqda — tog'lar, atrof biyday cho'l, yo'lда hech kim ko'rимасди. Yilning bu faslida yo'lovchilar bu yerda kamdan-kam uchrardi.

Qari ot va keksa odam kimsasiz yo'lда yakka-yolg'iz turishardi.

Fevral oyining oxirlari edi. Yalangliklardagi qorlar erib ketgandi, faqat jarliklar va qamish bosgan soyliklardagi qishning yashirin uyalaridagina so'nggi qor uyumlari hali saqlanib qolgandi. Shamol eski qorning nimxush hidini uchirib keltirardi, yer hali ham muzlab yotar, jonsiz edi. Qish oxirlarida toshloq dasht g'amgin huvullab yotardi. Unga bir qarashdayoq Tanaboyning ichi muzlab ketdi.

U ko'kish cho'qqi soqolini dikkaytirib, po'stinining yog' bosgan yengi ostidan g'arb tomonga uzoq qarab qoldi. Quyosh yerning bir chekkasida, bulutlar orasida osilib turardi. Uning xira shafaq nuri ufqqa tarala boshlagandi. Havoning aynashidan darak beradigan hech qanday belgi sezilmас, shunday bo'lса-da, kun sovuq va vahimali edi.

«Bilganimda, yaxshisi — yo'lga chiqmagan bo'lardim, — deb afsuslanardi Tanaboy. — Endi esa na u yoqqa, na bu yoqqa yura olaman, tap-taqir dalaning о'rtasida qolib ketdim. Otni ham behudaga nobud qilaman».

Yaxshisi, ertalab yo'lga chiqish kerak edi. Kunduzi yo'lда bir narsa bo'lib qolsa ham, har qalay, biron yo'lovchi duch kelib qolishi mumkin edi. U bo'lса tushdan keyin yo'lga chiqdi. Bunday bemahalda yo'lga otlanish mumkinmi axir?

Tanaboy, orqadan yoki qarshi tomondan biron mashina ko'rинib qolmasmikin, deb do'nglikka chiqib atrofga boqdi. Ammo na u yoqdan, na bu yoqdan biron narsa

ko'rinmasdi ham, eshitilmasdi ham. U orqaga, arava turgan yerga qaytdi.

«Bekorga yo'lga chiqibman» deb o'yladi Tanaboy yana shoshqaloqligi uchun qayta-qayta o'zini koyib. U alam qilganidan o'zidan ham, o'g'lining uyidan tezroq jo'nab ketishga majbur etgan hamma narsadan ham achiqlanardi. Tunab qolishi, otga dam berishi kerak edi, albatta. U bo'lsa!..

Tanaboy jahl bilan qo'l siltadi. «Yo'q, baribir qolmasdim. Yayov bo'lsa ham ketardim, – deb o'zini oqlardi u. – Qayin otaga shunaqa gaplarni gapirish mumkinmi axir? Har qalay, men otaman-ku, seni qara-yu... «Butun umringizni cho'ponlig-u yilqichilik qilib o'tkazar ekansiz, partiyaga kirib nima qilardingiz, mana qariganingizda haydashdi» deydi-ya. O'g'limgayam balli-e. Miq etmaydi-ya, xotinining yuziga qaragani qo'rqaadi. Agar xotini unga, otangdan kech desa, yo'q demaydi. Latta, tag'in u boshliq bo'lib ko'tarilishga urinib yuribdi. E, gapirishdan nima foyda! Hozir ilgarigi odamlar emas, boshqacha bo'lib ketishgan!»

Tanaboy qizib ketdi, ko'ylagining yoqasini yechib yubordi va og'ir-og'ir nafas olib, arava atrofida yura boshladi. U otni ham, yo'lni ham, tun kirib kelayotgанини ham unutgan edi. U o'zini bosolmasdi. U yerda-o'g'lining uyida kelin bilan adi-badi qilib o'tirishni ep ko'rmadi, o'zini bosdi. Endi esa birdan qaynab toshib ketdi, hozir u bo'lganida, yo'l bo'yi alam bilan o'ylab kelgan gaplarining hammasini shartta yuziga aytardi: «Meni partiyaga qabul qilgan sen emassan, chiqargan ham sen emassan, o'sha vaqtida nima bo'lganligini sen qayoqdan bilarding, kelinposhsha. O'shanda bo'lib o'tgan narsalar haqida hozir fikr yuritish oson. Endi hamma savodli bo'lib ketgan. Hammaning izzat-hurmati o'z joyida. Bizdan esa talab qilishardi, ha, shunaqangi talab qilishardiki, otang uchun, onang uchun, do'sting va dushmaning uchun, o'zing uchun, qo'shningning iti uchun, olamdag'i jamiki hamma narsa uchun javobgar edik. Meni partiyadan o'chirganlari bilan esa – sening ishing bo'lmasin! Bu, mening dardim, kelinposhsha. Bu bilan sening ishing bo'lmasin!..»

— Bu bilan sening ishing bo'lmasin! — ovoz chiqarib takrorlashda davom etdi u aravaning oldidan nari ketmay. — Ishing bo'lmasin! — deb takrorladi u yana. Eng alam qilgan xo'rligini keltirgani shu ediki, u «ishing bo'lmasin!» deyishdan bo'lak gap topolmasdi.

Biron chorasin topish kerakligi esiga tushmaguncha, u arava atrofida yuraverdi. Axir, bu yerda tunab qolib bo'lmaydi-ku.

Gulsari aravaga qo'shiqligicha avvalgidek jimgina, hamma narsalarga beparvo, bukchayib, oyoqlarini bir joyga to'plab, go'yo qotib qolgandek turardi.

— Senga nima bo'ldi? — dedi Tanaboy va ildam otning oldiga keldi va uning cho'zib, sekin ingraganini eshitdi. — Mudrab qoldingmi? Kasalmisan, qariya? Ahvoling chatoqmi? — u shoshib-pishib yo'rg'aning muzdek quloqlarini ushlab ko'rdi, yollarri tagiga qo'lini suqdi, bo'yni ham sovuq va nam edi. Ammo uni hammasidan ham yollarining ilgarigidek vazmin emasligi qo'rqtib yubordi. «Juda qaribdi, yoli sob bo'libdi, pardek yengil. Hammamiz ham qariyapmiz, hammamiz ham o'lamiz» — deb o'yładi u iztirob bilan. Nima qilishini bilmay, boshi qotib o'rnidan turdi. Agar ot bilan aravani tashlab yayov ketsa, yarim kechada uyiga, daradagi qorovulxonasiga yetib olishi mumkin. U yerdagi bazada xotini bilan yashar, daryodan bir yarim kilometr yuqorida o'rashib olgan suv xo'jaligi qorovuliga qo'shni edi. Tanaboy yozda pichan o'rimiga, qishda esa cho'ponlar pichanni talon-taroj qilmasin, muddatidan oldin isrof etishmasin, deb g'aramlargacha ko'z-quloq bo'lib turardi.

O'tgan kuzda bir ish bilan idoraga kelgan edi, yangi brigadir — bu yerga boshqa joydan kelgan yosh agronom unga:

— Oqsoqol, birrov otxonaga o'ting, biz u yerda sizga boshqa ot tanlab qo'ydik. Qarirog'-u, lekin sizning ishingizga yarayveradi, — dedi.

— Qaysi otni? — deb sergaklandi Tanaboy. — Yana biron qirchang'inimi?

— O'sha yerda ko'rsatishadi sizga. Saman ot. Bilsangiz kerak, aytishlaricha bir mahallar uni mingan ekansiz.

Tanaboy otxonaga yo'l oldi va qo'rada turgan yo'rg'ani ko'rishi bilan yuragi achishib ketdi. «Mana, yana uchrashdik» dedi u ichida, hadeb minilaverib, ni-hoyat holdan toygan qari otga qarab. Lekin «kerakmas» deyishga ko'ngli bo'lindi. Otni yetaklab ketdi.

Uyda xotini yo'rg'ani zo'rg'a tanidi.

— Tanaboy, nahotki bu o'sha Gulsari bo'lса? — deb hayron qoldi u.

— O'sha, o'shaning o'zi. Nima qipti? — deb to'ng'il-ladi u xotininig ko'ziga qaramaslikka tirishib.

Yo'rg'a bilan bog'liq bo'lgan xotiralarni eslab o'tirishning hojati yo'q edi ularga. Tanaboyning yoshligida qilgan gunohi bor edi, ha. Gap o'ziga yoqmay-digan mavzuga o'tib ketishidan qochib, u xotiniga dag'al gapirdi:

— Nima qilib turibsan, yeishiga bir narsa tayyorlasang-chi. Itdek ochman.

— Hozir otga qarab turib, qarilikning nimaligini o'ylab qoldim, — deb javob berdi xotini unga. — Agar siz menga o'sha Gulsari ekanligini aytmaganingizda, tanimagan ham bo'lardim.

— Nimasiga hayron qolasan buning. Biz ikkimizning ahvolimiz bundan yaxshiroqdir deb o'ylaysanmi? Hamma narsaning ham o'z vaqt soati bor.

— Men ham shuni aytyapman-da, — deb o'ychan bosh chayqadi xotini va oq ko'ngillik bilan kulimsirab hazil qildi: — Ehtimol, siz yana yo'rg'angizda tunlari daydib yurarsiz? Mayli, endi ruxsat beraman.

— Qayda!..

Tanaboy o'ng'aysizlanib qo'l siltadi va xotiniga ters o'girilib oldi. Hazilga hazil bilan javob qaytarsa bo'lardi-yu, biroq uyalganidan og'il ustiga pichan olgani chiqib ketdi. U yerda ancha vaqtgacha ivirsib yurdi. Xotinim o'tgan voqealarni unutib yuborgan, deb o'ylab yurardi. Unutmagan ekan.

Mo'ridan tutun ko'tarilardi, xotini sovib qolgan ovqatni isitardi. U bo'lса to xotini eshikdan turib qich-qirmaguncha ivirsib, pichan bilan ovora bo'lib yurdi.

— Tushing, bo'lmasa ovqat yana sovib qoladi.

Xotini o'tgan ishni boshqa eslamadi, eslashning nima ham hojati bor edi?..

Butun kuz va qish bo'yi Tanaboy yo'rg'ani parvarish qildi, ilitilgan kepak tert, maydalangan lavlagi bilan boqdi. Gulsarining tishlari tushib bo'lay degan, faqat bitta-yarimtasi qolgan edi. Otni endi oyoqqa turg'izdim, deb o'ylovdi, ammo bunisiga davo bormi. Endi uni nima qilishi kerak?

Yo'q, otni yo'lning qoq o'rtasida tashlab ketishga uning ko'zi qiymasdi.

– Xo'sh, Gulsari, shunday turaveramizmi? – Tanaboy yo'rg'ani qo'li bilan itargan edi, u tebranib oyoqlari chalishib ketdi. – Qani, to'xtab tur-chi, men hozir...

U kelininikiga kartoshka olib kelgan bo'sh qopni qamchi sopi bilan aravadan ko'tardi-da, undan tuguncha chiqardi. Xotini yo'lga non yopib bergandi, esidan chiqarib yuboribdi, ovqatni o'ylaydigan vaqt emasdi. Tanaboy nonning yarmini sindirdi, uni maydalab peshmatining etagiga soldi-da, otga tutdi. Gulsari pishqirib nafas olib nonni hidjadi, lekin uni yeya olmadi. Shunda Tanaboy unga kaftida yegiza boshladı. Og'ziga bir necha bo'lagini tiqdi, ot chaynay boshladı.

– Yo, balki yetib olarmiz, a? – Tanaboyning dili yorishgandek bo'ldi. – Ehtimol, bir amallab, asta-sekin yetib olarmiz, a? U yog'iga tashvishlanmasang ham bo'ladi. Uyda kampir ikkalamiz seni parvarish qilib oyoqqa turg'azib olamiz, – derdi u otiga. Otning esa lablaridan so'lak oqar va buning titroq qo'llariga tushib, so'lagining iliy borayotganidan cholni quvontirar edi.

Keyin u yo'rg'aning jilovidan ushladi.

– Qani, ketdik! Turishdan foyda yo'q! Ketdik! – deb buyurdi u qat'iy.

Yo'rg'a joyidan qo'zg'aldi, arava g'ijirladi, g'ildiraklar yo'l bo'ylab taraqlab sekin yurib ketdi. Ular – chol bilan qari ot asta-sekin ketishardi.

«Holdan toyibdi, – deb o'ylardi Tanaboy yo'l chetidan odimlab bora turib. – Nechaga kirding, Gulsari? Yigirma, yoki undan ham ortiqdir. Ortiqroq bo'lsa kerak...»

II

Ular birinchi marta urushdan keyin uchrashgan edilar.

Yefreytor Tanaboy Bekasov G'arbda ham, Sharqda ham bo'lgan. Kvantun armiyasi taslim bo'lganidan so'ng, armiyadan qaytib kelgan edi. U soldat yo'llarida hammasi bo'lib deyarli olti yil yurdi. Unga hech narsa qilmadi, Xudo asradi, bir marta obozda kontuziya bo'ldi, ikkinchi marta snaryad parchasi bilan ko'kragidan yaralandi, ikki oycha gospitalda yotib chiqqach, yana o'z qismiga yetib oldi.

Uyga qaytayotganida esa stansiyalardagi bozorchi ayollar uni chol deb atashdi. Bu ko'proq hazil edi, albatta. Tanaboy ulardan uncha xafa ham bo'lmasdi. U yosh emasdi, albatta, lekin qari ham emasdi, ko'rinishdangina go'yo qariga o'xshardi, urush davomida qorayib kuyib ketdi, mo'yloviga oq oralay boshladi. Ammo jismi va ruhi hali baquvvat edi. Bir yildan so'ng xotini qiz ko'rdi, keyin esa ikkinchisini tug'di. Hozir ikkalasi ham erga chiqqan, bolalari bor. Yozda tez-tez kelib turishadi. Katta qizining eri – shofyor. U, xotin bola-chaqasini kuzovga o'tqizadi-da toqqa, chol-kampirlarning oldiga haydaydi. Yo'q, chol-u kampir qizlari va kuyovlaridan xafa emas, lekin o'g'ildan yolchimadilar. Ammo bu bo'lak masala...

O'shanda, g'alabadan keyin yo'lda kelayotganida chinakam hayot endi boshlanayotgandek tuyulgan edi. Ko'ngli biram shod ediki, asti qo'yavering. Katta stansiyalarda eshelonni duxovoy orkestr bilan kutib olishar, kuzatib qo'yishar edi. Uyda xotini kutar edi, o'g'ilchasi sakkizga qadam qo'yan, mакtabga borish taraddudida edi. Tanaboy xuddi dunyoga qayta kelgandek, xuddi shu mahalgacha bo'lib o'tgan hamma narsa go'yo hozir hisobmasdek, g'lati bir his-tuyg'u bilan qaytayotgandi. U hamma narsani unutgisi, faqat kelajak haqida o'ylagisi kelardi. Istiqboli ham xayolida aniq va rasmana bo'lib ko'rindirdi: yashash, bolalarni o'stirish, xo'jalikni tiklash, uy qurish, xullas, yashash kerak edi. Bunga endi xalaqit beradigan hech narsa bo'lmasligi zarur, chunki butun

o'tmish garovga qo'yilgan, chinakam hayot, nihoyat, endi boshlanib kelyapti, o'tgan shuncha yillar davomida odamlar ana shu hayotga intilishgan edi, azbaroyi ana shu hayot uchun odamlar urushda g'alaba qozonishdi, qurbanlar berishdi.

Ammo ma'lum bo'lishicha, Tanaboy shoshilgan, ortiqcha shoshilgan ekan; kelajakning garovi uchun yana yillar va yillarni o'tkazish kerak ekan.

Dastlab u temirchilik ustaxonasida bosqonchi bo'lib ishladi. Qachonlardir bu ishning hadisini olgan edi, sandon yonida turib ertalabdan kechgacha qulochkashlab shunday bolg'a urardiki, temirchi qizdirilgan temir parchasini bolg'a ostida ag'darib turishga zo'rg'a ulgurardi. Hozir ham barcha kulfat va tashvishlarga barham beradigan temirchi do'konidagi o'sha taqa-tuq, jarang-jurunglar unga goho eshitilayotgandek bo'lardi. Non, kiyim-kechak yetishmasdi, ayollar sarpoychang kalish kiyib yurishardi, bolalar qand nimaligini bilishmasdi, kolxoz qarzga botgan, bankadagi schyotlar xatlangan edi, u bo'lsa bolg'a urish bilan bularning hammasini unutmoqchidek bo'lardi. U bolg'ani gursullatib urar, sandon jaranglar, uchqunlar ko'k tomchilar kabi sachrar edi. «Huh-ha, huh-ha!» – deb nafas olardi u bolg'ani ko'tarib tushirar ekan va: «Hamma ish o'nglanib ketadi, eng muhimi – biz g'alaba qildik, ha, g'alaba qildik!» deb o'yldardi. Bolg'a esa «g'alaba qildik, g'alaba qildik!» degandek, duk, duk, duk tushardi. Faqat ugina emas, o'sha kunlarda hamma xuddi nondek aziz g'alaba nafasi bilan yashar edi.

Keyin esa Tanaboy yilqichilikka o'tdi, toqqa chiqib ketdi. Jo'ra uni shu ishga ko'ndirdi. Rahmatlik Jo'ra o'sha paytda kolxoz raisi edi, u butun urush davomida raislik qildi. Xasta yuragi tufayli uni armiyaga olishmadidi. U front orqasida qolgan bo'lsa-da, juda qarib ketgan edi, Tanaboy qaytganida buni darrov payqadi.

Temirchilikni tashlab, yilqichi bo'lishiga ehtimol uni boshqa odam ko'ndira olmasdi. Ammo Jo'ra uning eski do'sti edi. Ular bir vaqtlar komsomol edi, kolxozga kirishga birgalikda tashviqot qilishgan, birgalikda quloglarni tugatishgan edi. Ayniqsa u, Tanaboy, o'sha

paytlar g'ayrat ko'rsatgandi. U qulqlar ro'yxatiga tushganlarni ayamasdi.

Jo'ra uning oldiga – temirchilik do'koniga kelib, uni yangi ishga o'tishga ko'ndirgandi va ko'ndira olganidan chamasi, juda mamnun bo'lgandi.

– Men bo'lsm, sen bolg'ani qo'ldan tashlamassan, undan seni ajrata olmasman, deb o'ylovdim, – degan edi u kulimsirab.

Jo'ra kasal edi, ozib ketgan, bo'yni cho'zilib, cho'kib ketgan yonoqlarini ajin bosgan edi. Hali kunlar iliq edi, ammo Jo'raning fufaykasi yozda ham ustidan tushmasdi.

Ular temirchilik do'koni yaqinidagi ariq bo'yida cho'qqayib o'tirib olib subbatlashishardi. Jo'raning yoshligi Tanaboyning esiga tushib ketdi. O'sha davrda u ovulda eng savodxon, kelishgan yigit edi. Odamlar uni vazminligi, xushtabiatligi uchun hurmat qilishardi. Tanaboyga esa uning ko'ngilchanligi yoqmasdi. Majlislarda u ba'zan o'rnidan sakrab turardi-da, dushman bilan sinfiy kurashda yo'l qo'yib bo'lmaydigan bo'shangligi uchun Jo'rani rosa savalardi. Uning so'zлari xuddi gazeta so'zlaridek shiddatli edi. Ovoz chiqarib gazeta o'qish paytlarida nimaiki eshitgan bo'lqa, hammasini yodaki takrorlardi. Ba'zan o'zining so'zlaridan o'zi dahshatga tushib ketardi. Lekin juda zo'r nutq chiqardi.

Bilsang, seshanba kuni men tog'da edim, – dedi Jo'ra. – Chollar hamma soldatlar ham qaytib kelishdimi, deb so'rashdi. Ha, tirik qolganlarning hammasi, dedim. «Qachon ish boshlashmoqchi?» deyishdi. Ishni boshlagan, biri dalada, biri qurilishda, boshqalari yana bo'lak yerlarda, deb javob berdim. «Buni biz ham bilamiz. Yilqilarga kim qarashi kerak? Bizning o'lishimizni kutishmoqchimi, bir oyog'imiz to'rda bo'lqa, bir oyog'imiz go'rda-ku» – deb qolishdi. Juda uyalib ketdim. Tushunyapsanmi muddaolarini? Biz bu chollarni urush yillari tog'larga yilqichilikka yuborgandik. Shundan beri ular o'sha yodqa. Senga aytib o'tirishimning hojati yo'q, chollarning ishi emas bu. Doim egardasan, na kunduzi, na kechasi halovat bor. Qish kechalarini aytmaysanmi!

Darveshboy esingdami, u egarda o'tirgancha muzlab tarasha bo'lib qolgandi. Ular otlarni yurishga, minishga ham o'rgatishardi-da – armiyaga kerak edi bu otlar. Yetmish yoshingda tog'-u dashtlarda u yoqdan-bu yoqqa kezib ko'rgin-a. Ta'ziringni yeysan. Shuncha chidab bergenlari uchun rahmat ularga. Frontchilar, mana, qaytishdi, ammo burunlarini jiyirishyapti, madaniyatli bo'lib ketishibdi, endi yilqichilikni yoqtirmay qolishibdi. Tog'larda sarson-sargardon bo'lib nima qilaman emish. Ahvol mana shunday. O'zing yordam ber, Tanaboy. Sen borsang, boshqalarni ham majbur qilamiz.

– Xo'p yaxshi, xotinim bilan gaplashib ko'ray, – deb javob berdi Tanaboy. O'zi esa: «Ne kunlarni boshimizdan o'tkazmadik, sen bo'lsang, Jo'ra, hali ham boyagideksan. Ko'ngilchanliging tufayli adoyi tamom bo'lyapsan. Ehtimol, bu ham yaxshidir. Urushda nimalarni ko'rmasdik axir, hammamiz ham ko'ngilchanroq bo'lsak yaxshi bo'lardi. Balki hayotda eng to'g'risi ham shudir?» deb o'yldari.

Ular gapni bir joyga qo'yib ajralishdi. Tanaboy o'z do'konni tomon yo'l oldi. Lekin Jo'ra uni birdan chiqirib qoldi:

– Tanaboy, to'xta! – Jo'ra otda uning oldiga kel-di va egar qoshiga engashib, Tanaboyning yuziga tikildi: – Sen xafa bo'l madingmi? – deb so'radi u sekingina. – Bilasanmi, hech vaqt topa olmayapman-da. Ilgarigi paytlardagidek dilkashlik qilgim keladi. Necha yil ko'rismadik. Urush tamom bo'lsa, yengilroq bo'lar, deb o'ylagandim, tashvish kamaymayapti. Ba'zan har xil fikrlar boshingga kelib, mijja qoqmay chiqasan. Xo'jalikni yuksaltirish, xalqni to'ydirish va hamma planlarni bajarish kerak. Odamlar ham avvalgi odamlar emas, yaxshiroq yashashni xohlashadi...

Ammo dilkashlik qilib suhbatlashib o'tirish ularga nasib bo'l madi, xoli o'tirishga fursat ham topisha ol-madi. Vaqt o'tib borardi, keyinchalik esa kech bo'lib qolgandi...

Tanaboy xuddi o'sha kezlarda, toqqa yilqichi bo'lib borganida, u yerda, keksa To'rg'ayning yilqilari orasida bir yarim yashar saman toyni bиринчи мarta ko'rgandi.

— Merosga nima qoldiryapsiz, oqsoqol? Yilqila-ringiz unchalik aytadigan emas-ku, a? — deb qochirim qildi Tanaboy o'shanda keksa yilqichiga, otlar sanalib, qo'tondan haydab chiqarilgandan keyin.

To'rg'ay ajin bosgan yuzida bironta ham tuki yo'q, qotmagina, o'smirlardek jikkakkina chol edi. Boshidagi qo'y terisidan tikilgan kattakon pahmoq telpagi xuddi qo'ziqoringa o'xshardi. Bunday chollar odatda epchil, tili achchiq va baqiroq bo'ladi.

Lekin To'rg'ayning jahli chiqmadi.

— Bori shu, anchayin yilqilar-da, — deb javob berdi u pinagini buzmay. — Maqtanadigan joyi yo'q, boqib ko'rsang bilasan.

— Ota, men shunchaki aytdim-qo'ydim-da, — dedi Tanaboy murosasozlik bilan.

— Bittasi bor! — deb To'rg'ay ko'ziga tushib ketgan telpagini ko'tarib qo'ydi-da, uzangida turib, qamchi soipi bilan ko'rsatdi: — O'ng tomonda o'tlab yurgan huv anovi saman toy. Zo'r ot bo'ladi.

— Qaysi biri, huv anovi koptokdek yum-yumalog'imi? Ko'rinishdan uvoqqina-ku, beli ham kaltagina.

— Vaqtidan o'tib tug'ilgan. Quvvatga kirsa zo'r bo'ladi.

— Nima fazilati bor? Nimasi yaxshi?

— Tug'ma yo'rg'a.

— Xo'sh, nima qipti?

— Bundaylarni kam uchratganman. Ilgarigi zamonalarda u bebafo ot hisoblanardi. Bunday ot uchun chavandoz yigitlar poyga-ulqlarda jonlarini tikishardi.

— Qani ko'raylik-chi! — deb taklif etdi Tanaboy.

Ular otlariga qamchi bosib, yilqilarni chekkalab borishdi-da, saman toychoqni bir chetga chiqarishdi va oldilariga solib haydab ketishdi. Toyning chopgisi kelib turardi. Peshonasidagi yolini sho'x silkitib pishqirdi-da, o'rnidan qo'zg'alib, prujinali o'yinchoq otdek bir maramoda shitob bilan yo'rg'alab ketdi, keyin yilqilarga qo'shilishi uchun katta yarimdoira yasab aylanib chiqdi. Uning chopishiga maftun bo'lgan Tanaboy qichqirib yubordi:

— Ho'-o'-o', qadam tashlashini qarang-a! Qarang!

— Sen nima deb o'yloving! — deb g'urur bilan javob qildi keksa yilqichi.

Ular yo'rg'aning ketidan tez yo'rttirib horishar va poygadagi bolalardek qichqirishardi. Ularning ovozlarini go'yo toychoqni savalayotgandek bo'lar va u o'zini deyarli zo'riqtirmas, qadamini tobora tezlashtirib, lo'killamasdan bir tekis yo'rg'alab borar edi.

Ularga otlarini choptirishga to'g'ri keldi, saman toychoq esa hamon avvalgidek yo'rg'alab borardi.

Ko'ryapsanmi, Tanaboy! — deb qichqirardi To'rg'ay otta telpagini silkitib chopib borayotib. — Ziyrakligini qara-ya, ovozingga qadam tashlaydi-ya! Hayt, hayt, hayt-e!

Saman toychoq nihoyat yilqilarga kelib qo'shilganida, To'rg'ay bilan Tanaboy uni tinch qo'yishdi. Lekin otlarini sovitayotganda ham anchagacha hayajonlarini bosisholmadi.

— Rahmat-e, To'rg'ay aka, yaxshi ot yetishtiribsiz. Ko'nglim ancha ko'tarildi.

— Yaxshi ot, — deb tasdiqladi chol. — Ammo ehtiyyot bo'l, — gardanini qashib, birdan qovog'ini solib oldi u. — Ko'ziktirib qo'yma. Mahmndonalik qilib eldan burredun gapirib yurma. Go'zal qizlar kabi yaxshi yo'rg'aning ham xushtori ko'p bo'ladi. Qiz taqdiri shundayki, yaxshi odamga tushsa, ochilib ketadi, ko'z ko'rib quvonadi, biron ahmoqning qo'liga tushsa, qizni ko'rib xafa bo'lib ketasan. Yordam ham bera olmaysan. Yaxshi ot ham xuddi shunday bo'ladi. Nobud qilib qo'yish hech gap emas uni. Poygada qoqilib yiqlidi.

— Tashvishlanmang, oqsoqol, axir bunday ishga mening ham aqlim yetadi, kichkina bola emasman.

— Ha, balli. Men shunchaki gapirdim qo'ydim-da. Uning oti Gulsari. Esingda tut.

— Gulsari?

— Ha. Bultur yozda nevaram mehmon bo'lib kelgandi. Bu otni unga o'sha qo'ygan. Sevib qolgandi. O'sha vaqtida u qulun edi. Esingda tut: Gulsari.

To'rg'ay ezma chol chiqib qoldi. Tun bo'yini nasihatgo'ylik qildi. Tanaboy uni sabr-toqat bilan tingladi.

U To'rg'ay bilan xotinini manzildan yetti chaqirim narigacha kuzatib qo'ydi. Bo'sh o'tov unga qoldi, endi u oilasi bilan birga shu o'tovga ko'chib kirishi lozim edi. Boshqa o'tovga uning yordamchisi o'rnashishi kerak edi. Ammo hali yordamchi topishmagandi. Hozircha uning bir o'zi edi. Xayrlashayotganida To'rg'ay yana:

— Saman toyga hozircha tegmay tur, — dedi. — Hech kimga ishonib topshira ko'rma. Bahorda o'zing minishga o'rgat. Ha, ehtiyot bo'l. Egar urganingdan keyin qattiq haydama. Tizginini hadeb tortaversang, yo'rg'asi bu-ziladi, otni aynitib qo'yasan. Tag'in qara, birinchi kun-lari issiqlab turib ko'p suv ichib qo'ymasin. Oyoqlariga suv tushib, oqbosh yara paydo bo'ladi. Agar o'lmasam, minishga o'rgatganingdan keyin ko'rsatarsan...

To'rg'ay unga yilqilarni, o'tovni, tog'-toshlarni qoldirib, ko'ch-ko'lalarini tuyaga ortib, kampiri bilan jo'nab ketdi...

Gulsari o'zi haqida qancha gap-so'zlar bo'lganini, yana qancha so'zlar aytishini va bularning oqibati nima bo'lishini bilsa edi!..

U yilqilar orasida avvalgidek erkin yurardi. Chor atrofda hech narsa o'zgarmagandi: hamon o'sha tog'lar, o'sha maysalar va o'sha daryolar edi. Faqat ularni chol o'rniga qo'ng'ir shinel va soldatcha qulochchin kiyib olgan boshqa xo'jayin haydaydigan bo'ldi. Yangi yilqichining ovozi xirildoq, lekin baland va kuchli edi. Yilqilar ko'p o'tmay unga o'rganib qolishdi. Mayli, o'ziga shuni ma'qul ko'rsa atrofda aylanib yuraversin.

Keyin esa qor yog'di. Qor tez-tez yog'ar va erimay uzoq yotar edi. Otlar o't-o'lan topish uchun tuyoqlari bilan qor titkilashardi. Xo'jayinning yuzlari qorayib, qo'llari shamoldan tarashadek qotib ketdi. Endi u kigiz etik kiyib katta po'stinga o'ranib yurardi. Gulsaraning junlari o'sib ketgandi, shunday bo'lsa-da, u sovqotar, ayniqsa tunlari qattiq sovuq yerdi. Ayozli tunlarda yilqilar bir yerga zich bo'lib to'planishardi-da, to quyosh chiqquncha ustlariga qirov tushib, shu ko'yda turi-shardi. Xo'jayin shu yerdan nari ketmay yurar, qo'lqop kiygach qo'llarini bir-biriga urar, yuzini ishqalar edi. Ba'zan ko'rinxayotganida To'rg'ay yana paydo bo'lardi. Uning

ketmagani yaxshi edi. Qichqirsa yoki sovuqdan tomoq qirsa yilqlilar boshlarini dik etib ko'tarishar, quloqlarini ding qilishar, ammo xo'jayinlari yonlarida ekanligiga darrov ishonch hosil qilishib, tungi shamolning guvullashi, hushtagi ostida mizg'iy boshlashardi. O'sha qishdan buyon Gulsari Tanaboyning ovozini bir umrga eslab qoldi.

Bir kuni tunda tog'da bo'ron boshlanib, tikandek quruq qor yog'ib berdi. Qor ot yolining ich-ichiga kirar, dumini og'irlashtirar, ko'zlarini ochtirmas edi. Yilqlilar bezovta bo'lib qolishdi. Otlar bir-biriga tiqilishar, qaltirashar, qari biyalar qulunlarini uyurning o'rtafiga haydab, besaranjom bo'lishib pishqirishardi. Ular Gulsarini eng chekkaga siqb chiqarishardi, u to'daning orasiga hech kira olmasdi. Shundan keyin u tepinib boshqalarni u yoq-bu yoqqa sura boshladi. Lekin shunga qaramay, hamon ichkariga kira olmay, butunlay bir chekkaga chiqib qoldi. Shunda uyur ayg'iri rosa uning ta'zirini berdi. U ko'pdan beri atrofni aylanib, kuchli oyoqlari bilan qorni bosib-yanchib, yilqlarni bir joyga yig'ib yurar edi. Ba'zan boshini egib, quloqlarini chimirib, qayoqqadir bir chekkaga tashlanar, qorong'ilikda ko'rinxmay ketar, uning faqat pishqirishi eshitilar, so'ng yana otlarning orasiga chopib qaytib kelar, g'azabnok va bahaybat ko'rinar edi. U bir chekkaga chiqib ketgan Gulsarini payqab qolib, uni to'shi bilan bostirib keldida, orqasiga o'girilib, keyingi tuyoqlari bilan uning biginiga shunaqangi qattiq tepdiki, Gulsari og'riqdan o'lar holatga keldi. Uning ichida nimadir guvullab ketdi, og'riqdan qichqirib yubordi va yiqilib tushishiga sal qoldi. U boshqa o'zboshimchalik qilishga urinmadid. Biqini zirqirab og'rirkan, zolim ayg'irdan achchiqlanib uyurning bir chekkasidan qimir etmadi. Otlar tinchib qolishdi, shunda u allaqanday cho'ziq uvlashni eshitdi. U hech qachon bo'rinining uvlashini eshitmagandi, bir nafas tomir urishi to'xtab, badani muzlab ketganligini sezdi. Yilqlilar cho'chib tushishdi. Ular quloqlarini ding qilib qimir etmay turishardi. Ammo bu sukunat vahimali edi. Hamon shuvullab yog'ayotgan qor Gulsari ning ko'tarilgan tumshug'iga tushib yopishib qolardi.

Xo'jayin qayerda qoldi? Shu daqiqada u judayam kerak edi, loaqal ovozini eshitsa, po'stinining dudli hidini hidlasal U bo'lsa yo'q. Gulsari bir chekkaga ko'z qirini tashladi va qo'rquvdan qotib qoldi. Yon tomondan qorda sudralib allaqanday ko'lanka lip etib o'tgandek bo'ldi. Gulsari birdan o'zini orqaga tashladi va shu zahoti yilqilar hurkib joyidan qo'zg'alishdi. Es-hushini yo'qotgan otlar qattiq kishnab, baravariga zulmat og'ushiga otilishdi. Endi ularni to'xtata oladigan hech qanday kuch yo'q edi. Otlar tog' o'pirilganda qoyadan uzilib tushgan toshlar kabi bir-birlarini itarib, kuchlarining boricha olg'a tomon talpinishardi. Gulsari hech narsani tushunmay, terlab-pishib, jon-jahdi bilan chopib borardi. Shunda birdan o'q ovozi eshitildi, keyin yana gumburladi. Otlar chopib ketayotgan egalarining darg'azab qichqirig'ini eshitishdi. Qichqiriq qayerdandir yon tomondan eshitildi, keyin bu qichqiriq otlarning yo'lini kesib o'ta boshladi, so'ng old tomondan eshitildi. Ular endi bu to'xtovsiz eshitilayotgan ovozga yetib oldilar: bu ovoz ularni o'z ortidan ergashtirib borardi. Xo'jayin ular bilan birga edi. U oldida, har lahzada jarlik yoki daraga yiqlilib tushish xavfi ostida chopib borardi. U endi bo'g'iq ovoz bilan qichqirardi, keyin xirillay boshlardi, ammo ovozi tinmasdi: «Hayt, hayt, hayt-a-hayt!» Otlar ta'qib qilayotgan dahshatdan qutulish uchun uning izidan chopishardi.

Tongga yaqin Tanaboy yilqilarni eski joyiga haydab keldi. Faqat shu yerdagina otlar to'xtashdi. Yilqilar ustidan quyuq tuman kabi bug' ko'tarilardi, otlarning biqinlari ko'tarilib-tushib turar, boshlaridan kechirgan dahshatdan hamon qaltirashardi. Ular qor yeyishardi. Tanaboy ham qor yerdii. U tizzalab o'tirib olib, og'ziga siqimlab qor tiqardi. Keyin u yuzini kaftlari orasiga olib, qimir etmay uzoq o'tirdi. Osmondan hamon yog'ayotgan qor otlarning issiq sag'risida darrov erib, loyqa, sarg'ish tomchilarga aylanib, pastga oqib tushardi...

Qalin qorlar erib, o'tlar ko'karib qoldi. Gulsari tez etga kirdi. Yilqilar tullab, terilari yiltillab qoldi. Endi qish va yem-xashak tanqisligi ortda qolgandi. Bu qiyinchiliklar allaqachonoq otlarning esidan chiqib ketgan va buni faqat ularning egasigina xotirlar edi. Sovuq, bo'ronli tunlar yodida, egar ustida qotib o'tirgan payt-lari muzlab qolgan qo'l va oyoqlarini gulxan yonida isita turib, yig'lab yubormaslik uchun lablarini tishlagan vaqtłari yodida uning. Bahorda yer yuzini yupqa muz bilan qoplab olgan «yut» yodida, o'shanda uyurdagi nochor yilqilar halok bo'lganligi, tog'lardan tushib, kol-xoz idorasida ko'zini yerdan uzmay otlarning o'lganligi haqidagi aktga imzo chekkanligi va birdan g'azabnok bo'lib, rais stoliga musht urib baqirgani – hammasi yodida.

– Sen menga bunaqa qarama! Men senga fashist emasman, – degan edi Tanaboy o'shanda. – Yilqilar uchun otxona qani, yem-xashak qani, suli qani, tuz qani? E'tiborsiz qolib ketganmiz! Axir xo'jalikni shunday olib borish kerak deyilganmi? Qara, qanaqa yirtiq-yamoq kiyimda yuribmiz! O'tovlarimizni ko'r, qanday yashayotganligimizni ko'r! To'yib non yemaymiz! Hatto urushda ham bundan yuz marta yaxshi yashardik. Sen bo'lsang menga, bu otlarni go'yo men o'zim bo'g'ib o'ldirgandek o'qrayasan!

Raisning mum tishlab qolgani, uning rangi bo'zarib ketganligi hali ham esida edi uning. So'ngra esa o'z so'zlaridan uyalib ketganligi va uzr so'ray boshlaganligini ham eslaydi u.

– Sen... kechir meni, qizishib ketdim, – deb duduq-lanib, zo'rg'a tilga kirgandi u shunda.

– Sen meni kechirishing kerak, – dedi unga Jo'ra.

Rais omborchi ayolni chaqirib:

– Tanaboya besh kilo un ber, – deganda, bu undan ham beshbattar uyalib ketgandi.

– Yasliga nima beramiz?

– Qanaqa yasli? Doim sen hamma narsani chalkashtirib yurasan! – Ber! – deb buyurdi Jo'ra, qat'iy qilib.

Tanaboy, yaqinda sut sog'ila boshlandi, qimiz bo'ladi,

deb un olishdan bosh tortmoqchi edi-yu, lekin raisga nazar tashlab va uning laqillatganini payqab, indamay qo'ya qolishga majbur bo'lgandi. Keyinchalik shu undan qilingan ugra oshdan icharkan, har gal og'zini kuydirib olardi. Shunda qoshiqni tashlab:

- Bu nimasi, og'zimni kuydirmoqchimisan? - der edi.
- Sovitib iching, kichkina emassiz-ku, - deb bamay-lixotir javob berardi xotini.

Esida uning, hammasi esida...

Mana, may oyi yetib keldi. Ayg'irlar kishnashar, bir-birlari bilan urishib, begona uyurlardan yosh biyalarni haydar olib ketishardi. Yilqichilar urishqoq otlarni quvib yuborish uchun kuyib-pishib chopishar, bir-birlari bilan so'kinishar, ba'zan o'zлari ham yoqalashib ketishar, qamchi ko'tarishar edi. Gulsarining bular bilan ishi yo'q edi. Bir yoqdan yomg'ir yog'ib, bir yoqdan oftob chiqar, tuyoqlar ostida o't unar edi. O'tloqlar yam-yashil, ufqda esa tizma tog'lar tepasida oppoq qorlar yarqirab turardi. O'sha bahorda saman yo'rg'a yoshlikning ajoyib davrini sura boshlagan edi. Bir yarim yasharli kalta dumli, pahmoq toychadan kelishgan, baquvvat ayg'irga aylanib borayotgandi. Uning bo'yi o'sdi, tanasi yumshoq tarhlarini yo'qotib, uchburchak shakliga kira boshlagandi - ko'kragi keng, orqasi ingichka edi. Kallasi ham yo'rg'a otlarnikidek ozg'in, peshonasi do'ng, ko'zlarining oralig'i keng, lablari yig'iq va tarang edi. Ammo uning chopishdan boshqa ishi yo'q bo'lib, shu sababdan ham xo'jayiniga ko'p tashvish orttirardi. O'z tengdoshlarini orqasidan ergashtirib, bularning orasida uchar yulduzdek chopib yurardi. Allaqanday bitmas-tuganmas kuch uni tog'larga, yon bag'irlardan pastliklarga, toshli qirg'oq, tik so'qmoqlar bo'ylab baland-past joylarga haydardi. Hatto yarim kechada, yulduzlar ostida uyquga ketganida ham oyoqlari tagidagi zaminning qochib ketayotganligi, yoli va quloglarida shamolning hushtak chalayotganligi, tuyoqlari taqillayotganligi tushiga kiradi.

U o'ziga bevosita aloqador bo'limgan hamma narsaga qanday qarasa, xo'jayiniga ham xuddi shunday qarardi. Uni sevmasdi ham, shuningdek unga hech qanday adovati ham yo'q edi, chunki u xalaqit bermasdi. Faqat

uzoqqa chopib ketishganida, ularni quvib so'kinardi. Ba'zan saman yo'rg'aning sag'risiga ukruk – sirtmoq bilan bir-ikki urib qolishga ulgurardi. Bunday paytda Gulsarining butun tanasi titrab ketar, ammo kaltakdan ko'ra zarbning to'satdan kelib tushganligidan cho'chib ketardi, shunda u qadamini yanada tezlashtirar edi. U yilqilar yoniga qaytayotib qanchalik tez chopsa, ukrukni ko'ndalang tutib izma-iz quvib kelayotgan xo'jayiniga shunchalik ko'p yoqardi. Yo'rg'a o'z ortidan ruhlanti-ruvchi qichqiriqlarni, xo'jayinining egar ustida o'tirgancha o'lan ayta boshlaganini eshitar, bunday damlarda u egasini yaxshi ko'rib ketar edi, qo'shiq ostida chopishni xush ko'rardи. Keyinchalik u bu qo'shiqlarni yaxshi bilib oldi – ularning orasida har xili, quvnog'i va g'amgini, uzun va qisqasi, so'z bilan va beso'z aytildiganlari ham bor edi. U xo'jayinining yilqilarga tuz yedirishini yaxshi ko'rardи. Qoziqlar ustida o'rnatilgan uzun taxta oxurga egasi yalama tuz parchalarini tashlardi. Butun yilqilar yopirilib kelardi, ana rohat, ana maza. Uni qo'lga tushirgan ham shu tuz bo'ldi. Bir kuni xo'jayin bo'sh chelakni taqillatib chalib, otlarni «po', po', po'!» deb chorlay boshladi. Otlar chopib kelishdi. Gulsari boshqalarning o'rtasida turib tuz yalardi va xo'jayini sherigi bilan birga qo'llarida sirtmoq bilan yilqilarni aylana boshlaganidan sira ham bezovtalanmasdi. Buning unga daxli yo'q edi. Ukruk bilan miniladigan otlarni, sog'iladigan biyalarni va boshqa yilqilarni tutishardi, lekin unga tegishmasdi. U erkin edi. Birdan qil sirtmoq uning boshidan sirg'alib tushib, bo'ynida osilib qoldi. Sirtmoq uni qo'rqtib yubormaguncha, Gulsari nima bo'layotganligini tushunmasdan tuz yalahsha davom etaverdi. Boshqa otlar bo'yinlariga ukruk tashlanganida o'zlarini har yoqqa tashlardilar, oyoqlarini ko'tarib sap-chirdilar, Gulsari bo'lsa qimir etmadi. Lekin daryoga chopib borib suv ichgisi kelib qoldi. Bo'ynidagi sirtmoq esa tortilib, uni to'xtatib qo'ydi. Bunaqasi sira bo'limgandi. Gulsari sapchib o'zini orqaga tashladi, ko'zları ola-kula bo'lib xirillay boshladi, so'ng shiddat bilan old oyoqlarini osmonga tikka ko'tardi. Atrofdagi otlar birpasda tumtaraqay qochib ketishdi, shunda u

o'zini qil arqonda ushlab turgan odamlar o'rtasida ko'r-di. Egasi oldinda, uning orqasida esa ikkinchi yilqichi turardi. Yaqindan beri bu yerda paydo bo'lib qolishgan va yilqilar tevaragida tinmay ot choptirib, uning joniga tekkan yilqichilarning bolalari ularni o'rab olishgandi.

Yo'rg'ani dahshat bosdi. U tag'in bir sapchib oyoqlarini baland ko'tardi, so'ng yana osmonga sapchidi, ko'z o'ngida quyosh olovli doiralarga bo'linib xiralashib ketdi, tog'lar, yer, odamlar qulab, chalqanchasiga yi-qilib tusharkan, ko'z oldini bir lahma qop-qora, vahimali bo'shliq qopladi, u bu bo'shliqni oldingi oyoqlari bilan tepkilab turardi.

Ammo u qancha tipirchilamasin, sirtmoq bo'yynini borgan sari qattiqroq siqib borardi, yo'rg'a samanning nafasi bo'g'ilib, o'zini odamlardan chetga olish o'rniغا, ularga tashlandi. Odamlar o'zlarini olib qochishdi, sirtmoq bir daqiqa bo'shashdi va u odamlarni sudrab chopib ketdi. Ayollar qichqirib, bolalarini o'tovlarga hayday boshlashdi. Lekin sudralishib borayotgan yilqichilar o'rinalidan turib olishga ulgurishdi va sirtmoq yana Gulsarining bo'ynidan siqa boshladı. Bu gal u shu qadar qattiq siqdiki, nafas olib bo'lindi. Shunda u boshi aylanib, nafasi bo'g'ilib, to'xtab qoldi.

Xo'jayin arqonni qo'lidan chiqarmay, yon tomondan Gulsarining yoniga yaqinlashib kela boshladi. Gulsari uni bir ko'zi bilan ko'rib turardi. Xo'jayinning kiyimlari tilka-pora bo'lib ketgan va yuzlari sbilingan edi. Ammo shunga qaramay uning ko'zlarida g'azab uchqunlari ko'rmasdi. U og'ir nafas olar va yorilib ketgan lablarini chapillatib, sekin shivirlab gapirardi:

— Tek, tek, Gulsari, qo'rqma, to'xta, to'xta!

Uning ortidan arqonni bo'shatmay, ehtiyyotkorlik bilan yordamchisi yaqinlashib kela boshladi. Xo'jayin ni-hoyat qo'lini cho'zib saman otga yetkazdi, uning boshini siypadi, o'girilmay turib yordamchisiga:

— Yuganni ber, — dedi.

U yuganni uzatdi.

— Tek tur, Gulsari, tek tur, jonivor, — der edi xo'jayin. So'ng yo'rg'aning ko'zlarini kafti bilan berkitib turib, boshiga yugan soldi.

Endi uni jilovlash va egarlash kerak edi. Kallasiga yugan tashlaganida Gulsari xirillab, qochishga urinib ko'rdi. Lekin egasi uning yuqori labidan ushlab qolishga ulgurdi.

— Burov sol! — deb qichqirdi u yordamchisiga. Yordamchisi chopib kelib, otning labiga qayish burov soldi va g'altakni aylantirgandek tayoq bilan buray boshladi.

Yo'rg'a og'riq azobidan orqa oyoqlariga o'tirib qoldi va ortiq qarshilik ko'rsatmadni. Sovuq temir suvluq tishlariga taqillab tegdi va ezuвшисьini yirib yuborgudek bo'lidi. Uning ustiga nimadir tashlashdi, beliga qayish solib shunday tortishdiki, ko'kragi qisilib, tebranib ketdi. Bular ham ko'ziga ko'rinxmay, endi lab-lunjidagi dahshatli og'riqnigina sezardi, xolos. Ko'zlar kosasidan chiqib ketayozgandi. Na qimirlab, na nafas olib bo'lardi. U hatto egasi qachon va qanday qilib ustiga minib olganligini ham sezmay qoldi va tumshug'idan burovni olishgandagina o'ziga keldi.

Hamma yog'idan qayish bilan tortilgan va og'irlashgan ot hech narsani tushuna olmay bir-ikki minut turib qoldi, keyin yelkasi osha ko'z qirini tashlab, birdan ustida odam borligini ko'rdi. Cho'chib o'zini bir chekkaga otdi, lekin suvliq og'zini yirar, odamning oyoqlari esa biqinlariga qattiq botib turar edi. Saman oldingi oyoqlarini tikka ko'tardi, g'azabnok va jon achchig'i bilan kishnadi, shataloq otib u yoqdan-bu yoqqa yugurib yeldi va o'zini bosib turgan hamma yukni ustidan uloqtirib tashlash uchun kuch to'plab bir tomonga tashlandi, biroq ikkinchi uchini boshqa bir otliq odam mahkam ushlab turgan arqon uni qo'yib yubormasdi. Shunda u doira yasab chopcha boshladi va doiradan chiqib qochish payiga tushdi. Biroq doiradan ketib bo'lmasdi. Odamlarga xuddi mana shunisi kerak edi. Egasi uni qamchi bilan urib turar, etik poshnasi bilan niqtardi. Shunday bo'lsa ham saman uni ikki marta ustidan uloqtirib tashladi. Ammo u o'rnidan turar va yana egarga minardi.

Bu holat shu yo'sinda uzoq, juda uzoq davom etdi. Uning boshi aylanardi, atrofdagi yer, o'tovlar aylanardi, uzoqlarga tarqalib ketgan otlar, tog'lar, osmondag'i bu-

lutlar aylanardi. Keyin u charchadi va qadamlab yurib ketdi. Juda chanqadi.

Ammo unga suv berishmasdi. Kechqurun ustidan egarni olmay, faqat ayilini salgina bo'shatib, uni ot qoziqqa qantarib qo'yishdi. Jilovi egarning qoshiga qat-tiq o'rabi bog'lab qo'yilganidan, boshini tik tutishga to'g'ri kelar va bu holda yerga yota olmas edi. Uzangilar ko'tarilib, egar qoshiga ilib qo'yilgandi. Tun bo'yishu taxlitda turib chiqdi. U o'z boshidan kechirgan bug'aroyib narsalarning hammasidan dovdirab, esankirab tikka turardi. Og'zidagi suvluq hamon unga xalaqit berar, salgina qimirlasa og'zini og'ritar, temirning mazasi ham yoqimsiz edi. Shishib ketgan ezuvlarini suvluq shilib yuborgandi. Qornidagi qayish qiyib yuborgan joylari achishardi. Egar tagidan qo'yilgan namat terlik ham belini og'ritardi. Juda-juda suv ichgisi kelardi. Udaryoning shovullashini eshitar va bundan chanqog'i yanada kuchayardi. U yoqda – daryoning narigi betida har vaqttagidek yilqilar o'tlab yurishardi. Ko'p tuyog-larning taqir-tuquri: otlarning kishnashi va yilqilarning tungi qichqirig'i eshitildi. O'tovlar oldidagi odamlar gulxanlar yonida o'tirib olishar, bolalar itlarni mayna qilib vovullashardi. U bo'lsa o'z joyida turar, hech kimning u bilan ishi yo'q edi.

So'ng oy ko'tarildi. Tog'lar zulmat quchog'idan chiqib, oyning sarg'ish nuri ostida sekin tebrana boshladi. Yulduzlar tobora yerga yaqinlashib, yorqinroq porlardi. U bir joyga mahkam bog'langanicha qimir etmay turar va uni kimdir izlar edi. U o'zi bilan birga o'sgan va o'zidan hech ajralmaydigan jiyron qunanning kishnashini eshitardi. Qunanning peshonasida oq qashqasi bor edi. U saman toy bilan chopib yurishni yaxshi ko'rardi. Ayg'irlar uning ortidan quva boshlashganda, u tutqich bermas, yo'rg'a toy bilan birga ulardan uzoqqa qochib ketar edi. Jiyron qunan hali yoshiga yetmagan edi, saman toy ham yosh edi. Hali u boshqa ayg'irlar jiyron qunan bilan qilmoqchi bo'lgan ishni qiladigan yoshga yetmagan edi.

Mana u qaydadir, juda yaqin joyda kishnadi. Ha, bu o'sha qunan edi. Saman toy uning ovozini aniq tanidi.

So'ng javob qaytarmoqchi bo'lardi-yu, ammo shilinib, shishib ketgan og'zini ochgani qo'rqardi. Juda ham og'rirdi. Nihoyat, qunan uni izlab topdi. Oydinda peshonasiagi oq yulduzchani yaraqlatib chopib keldi. Dumi va oyoqlari ho'l edi. U daryoni kechib o'tib, o'zi bilan birga suvning sovuq nafasini keltirgandi. Tumshug'ini tirab, yumshoq, iliq lablarini tegizib, uni iskay boshladi. Qunan erkalanib pishqirar, uni o'zi bilan birga ketishga chorlar, saman toy bo'lsa joyidan qo'zg'ala olmasdi. So'ng qunan uning bo'yniga kallasini qo'ydi-da, tishlari bilan yollari orasini qashiy boshladi. Saman toy ham uning bo'yniga kallasini qo'yidi-da, tishlari bilan yollari orasini qashiy boshladi. Saman toy ham uning bo'yniga kallasini qo'yishi va yag'rinini qashishi kerak edi. Ammo uning mehribonligi mehribonlik bilan javob qaytara olmasdi, hatto qimir etishga ham holi kelmas, u chanqagan edi. Qunan chopib ketganida, to uning soyasi daryo ortidagi tun qorong'iligiga singib ketguncha orqasidan qarab qoldi. Keldi-yu ketdi. Samanning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqdi. Yirik-yirik yosh tomchilari tumshug'idan oqib, oyoqlari ostiga sekingga dumalab tushardi. Saman yo'rg'a umrida birinchi marta yig'layotgan edi.

Erta tongda xo'jayin keldi. U atrofdagi ko'm-ko'k tog'larga qaradi, kulimsirab bir kerishib oldi, suyaklari zirqirab og'riganidan ingrab qo'ydi.

— Oh, Gulsari, kecha meni rosa sudrading-a. Nima? Sovqotdingmi? Voy seni qara-yu. Ha, durust.

U yo'rg'aning bo'ynini silab-siypadi va unga qandaydir iliq, hazilomiz so'zlarni gapira boshladi. Odam nimalarni gapirayotganini Gulsari qayoqdan bilsin? Tanaboy bo'lsa shunday derdi:

Ha, xafa bo'lma, birodar. Umr bo'yi ishsiz, bekor yurmayсан-ку, axir. Ko'nikib qolasan, hamma ish o'nglanib ketadi. Qiyonalding-a, hechqisi yo'q, busiz bo'lmaydi. Hayot mana shunaqa, birodar, to'rttala tuyog'ingni ham taqalaydi. Qaytaga, keyinchalik yo'lingda uchragan har bir toshga ta'zim qilib yurmaysan. Qorning ochdimi, a? Chanqadingmi? Bilaman...

U samanni daryo tomon yetaklab ketdi. Yaralangan

og'zidan suvlug'ini avaylab chiqardi. Gulsari titrab-qaqshab suvgaga tashlandi, sovuqdan ko'zlariga yosh keldi. Oh, suv naqadar mazali edi, u buning uchun odamdan qanchalik minnatdor edi!

Shunday qilib, oradan ko'p vaqt o'tmay u egarga shunchalik ko'nikib ketdiki, uning og'irligini deyarli sezmay qo'ydi. O'z ustida chavandozni olib yurish yengil va ko'ngilli bo'lib qoldi. Chavandoz jilovni hamisha sal tortib yurar, u bo'lsa bir maromda oyoq tashlab, yo'rg'alab oldinga intilar edi. U egar ostida shunchalik tez va tekis yurishga o'rgangan ediki, odamlar qoyil qolib:

— Ustiga bir chelak suv qo'y — bir tomchi ham to'kilmaydi! — deyishardi.

Avvalgi yiqlichi To'rg'ay chol Tanaboya shunday dedi:

— Rahmat, yaxshi o'rgatibsani. Yo'rg'angning yulduzi charaqlashini endi ko'rasan!

III

Eski arava g'ildiraklari kimsasiz yo'lida sekin g'ichillab borardi. Ba'zan g'ildiraklarning tovushi eshitilmay qolardi. Holdan toygan yo'rg'a to'xtab qolar, sukunat cho'kkani damda yuragining gup-gup, gup-gup etib urayotganligi qulog'iga chalinar edi.

Keksa Tanaboy otning nafasini rostlab olishini kutib turar, so'ng yana uning jilovidan tortar edi:

— Ketdik, Gulsari, ketdik, qara, qorong'i tushib qoldi.

Ular bir yarim soatlarcha yurishdi, keyin yo'rg'a taqqa to'xtab qoldi. U aravani ortiq torta olmasdi. Tanaboy yana ot atrofida aylana boshladи.

— Senga nima bo'ldi, Gulsari, a? Qara, tezda tun kiradi!

Lekin ot uni tushunmasdi. Gulsari hatto kallasini ko'tarishga ham majoli qolmagan, boshini silkitib, chay-qalib turardi. Qulog'iga esa hamon yuragining gup-gup, gup-gup urishi eshitilardi.

Kechir meni, — dedi Tanaboy. — Darrov fahmim

yetmaganini qara-ya. Qurib ketsin bu arava ham, egar-jabduq ham, seni bir amallab uyga yetkazib olsam bo'lgani.

U po'stinini yerga tashladi va shoshib-pishib ot ni aravadan chiqardi, boshidan xomutni oldi-da, hamma anjomlarni aravaga tashladi.

— Mana vassalom, — dedi u va po'stinini kiyib aravadan chiqarilgan saman otiga qaradi. Xomutsiz, anjomsiz, haddan ortiq katta kallali ot hozir kechki sovuqdan cho'l o'rtasida arvohdek turardi. — Yopiray, Xudoyim-e, qay ahvolga tushib qolding, Gulsari? — deb pichirladi Tanaboy. — Agar seni hozir To'rg'ay ko'rganidami, go'rida tik turardi...

U samanning jilovidan tortdi, ular yana asta yurib ketishdi. Qari ot va keksa odam. Arava ortda qolib ketdi, oldinda, g'arb tomonda yo'lni qoramtil binafsha rang zulmat bosib kelayotgandi. Tun tog'larni chulg'ab, ufqni berkitib, cho'l ustiga unsiz-tovushsiz yoyilib kelardi.

Tanaboy yurib borarkan, uzoq yillar davomida samani bilan bog'liq bo'lgan voqealarni eslar va alamli kulimsirab, odamlar haqida o'ylar edi: «Biz hammamiz mana shunaqamiz. Umrimizning oxirida, birortamiz og'ir kasal bo'lib qolganimizda yoki dunyodan o'tayotganimizda bir-birimizni eslaymiz. Ana shunda kimni yo'qotganimiz, u qanday odam bo'lganligi, nimasi bilan dong chiqarganligi, qanday ishlar qilganligi birdan hammamizga ayon bo'lib qoladi. Tilsiz maxluq haqida nima deyish mumkin? Gulsari kimlarni olib yurmadi axir? Kimlar uni minmadil Mana, qarishi bilan hamma uni unutdi-qo'ydi. Endi oyoqlarini zo'rg'a sudrab yuribdi. Qanaqa ot edi-ya!..»

So'ng u yana o'tgan voqealarni eslay boshladi va ko'pdan beri xayolan o'tmisht kunlariga qaytmaganligiga o'zi ham hayron bo'ldi. Qachonlardir bo'lib o'tgan ishlarning hammasi uning xotirasida jonlana boshladi. Hech narsa ham yo'qolmas ekan. Ilgarilar u o'tmisht haqida kam o'ylardi yoki, to'g'rirog'i, o'ylash uchun o'ziga-o'zi yo'l qo'ymasdi, endi-chi, o'g'li va kelini bilan bo'lgan gap-so'zdan keyin kuni tugab horayotgan saman otning

jilovidan ushlab, yo'lda borarkan, o'tgan yillarni alam va hasrat bilan eslardi va bu yillarning hammasi uning ko'z o'ngida yaqqol gavdalanardi.

U o'z xayollari bilan band bo'lib qadam tashlab borardi, saman esa jilovini tobora ortga tortib, sudralib kelardi. Cholning qo'li tolib qolganida, jilovni boshqa yelkasiga oshirar va yana yo'rg'ani sudrab ketardi. Keyin, bunday yurish malol kelib qoldi va samanga dam berish uchun to'xtadi. O'ylab turib, otning kallasidan yuganini chiqarib oldi.

— Oldinda yur, holing kelganicha yur, men orqangdan boraman, seni tashlab ketmayman, — dedi u. — Qani, yur, asta-asta.

Endi saman oldinda, Tanaboy esa yelkasida yugan, orqada borardi. U yuganni hech tashlamaydi. Gulsari to'xtaganida, Tanaboy, u kuch yig'ib olsin, deb kutib turar, so'ng yana yo'lda sudralib ketishar edi. Qari ot va keksa odam.

Bir vaqtlar Gulsari mana shu yo'ldan orqasida chang-to'zon qoldirib yelib o'tganini eslab, Tanaboy g'amgin kulimsirab qo'ydi. Cho'ponlar mana shu chang-to'zondan saman otning chopib o'tganligini bilib olishlarini aytishardi. Tuyoqlari ostidan chiqqan chang cho'lda oppoq bo'lib suzar va shabada yo'q kunlari esa xuddi reaktiv samolyotning tutunidek yo'l ustida mual-laq osilib turardi. Bunday damlarda cho'pon kaftini ko'zları ustiga soyabon qilib o'zicha: «Gulsari kelyapti! Bu o'sha Gulsari!» derdi va issiq shamolda yuzini kuydirib, bu ot ustida yelib kelayotgan baxtli kishi haqida hasad bilan o'yldi. Dong'i ketgan mana shu yo'rg'ada yurish qirg'iz uchun buyuk sharaf edi.

Gulsari kolxoz raislaridan qanchasini ko'rgandi. Ularning har xili — aqli va tentaklari, sofdiril va vijdonsizlari bo'lardi. Ammo hammasi ham o'z raisligining birinchi kunidan to so'nggi tunigacha saman otni minib o'tishgandi. «Qani endi ular? Ertadan kech-gacha ularni olib yurgan Gulsarini goho-goho eslab qo'yisharmikin?» — deb o'yldi Tanaboy.

Ular nihoyat jarlik ustidagi ko'prikkka yetib olishdi. Bu yerda yana to'xtashdi. Saman ot yerga yotish uchun

oyoqlarini buka boshladi, lekin Tanaboy bunga yo'l qo'yishi mumkin emasdi: keyinchalik hech qanday kuch bilan uni joyidan turg'iza olmasdi.

— Tur, tur! — deb qichqirib yubordi u va tizgin bilan otning kallasiga tushirdi. So'ng urgani uchun o'zidan xafa bo'lib, yana baqira boshladi: — Nega tu-shunmaysan, axir? Harom o'lmoqchimisan? Bunga si-rayam yo'l qo'ymayman! Tur, tur, deyman! — deb u otning yolidan tortardi.

Gulsari oyoqlarini zo'r-bazo'r tiklab oldi, og'ir ingradi. Qorong'i bo'lsa ham otning ko'ziga qarashga Tanaboyning yuragi dov bermadi. U otni silab-siyapadi, u yer-bu yerini paypaslab ko'rdi, so'ng qulog'ini uning chap biqiniga tutdi. U yerda, otning ko'kragida yuragi xuddi yo'sinlarga o'ralib qolgan tegirmon parragidek pixillab zo'rg'a urib turardi. U to beli qaqshaguncha otning yonida shu ko'yda uzoq egilib turdi. Keyin qaddini rostlab, boshini silkidi, xo'rsindi, so'ng tavakkal qilish — ko'prikdir o'tgach, soy yoqalab boruvchi so'qmoqqa burilishga qaror qildi. Bu so'qmoq tog'liqqa olib chiqardi va uyga tezroq yetib olish mumkin edi. To'g'ri, tunda adashib qolish ham hech gap emas, ammo Tanaboy o'ziga ishonardi, bu yerlarni ko'pdan beri bilardi, faqat ot chidash bersa bo'lgani.

Chol shular haqida o'ylar ekan, uzoqdan yo'lovchi mashinaning chiroqlari porlab ko'rindi. Chiroqlar zulmat quchog'idan bir juft yorqin shar kabi to'satdan qalqib chiqdi-da, uzun, tebranuvchi yog'dulari bilan o'z oldidagi yo'lni paypaslab tez yaqinlashib kela boshladi. Tanaboy saman ot bilan ko'priq yonida turardi. Mashina ularga hech qanday yordam bera olmasdi, shunday bo'lsa ham Tanaboy uni, sababini o'zi ham bilmasa-da, kutib turardi. «Nihoyat, loaqlal bittasi uchradi» — deb o'yladi u yo'lda odamlar paydo bo'lganligidan mamnun bo'lib. Yuk mashinasining chiroqlari o'tkir nurlari bilan uning ko'zlarini qamashtirgan edi; u ko'zlarini qo'li bilan berkitib oldi.

Mashina kabinasida o'tirgan ikki kishi ko'priq yonidagi qari kishi va uning oldida go'yo ot emas, balki odamga ergashib olgan itga o'xshab turgan egarsiz,

yugansiz qirchang'ini ko'rib, hayron qolishdi. To'g'ri tushgan yorug'lik chol va otni bir lahza yoritib yubordi va ular birdan jismsiz oppoq shaklga aylanib qolgandek bo'lishdi.

— Tavba, tun yarmida bu yerda nima qilib yuribdi? — dedi shofyorning yonida o'tirgan qulochchinli novcha yigit.

Bu o'sha, anovi yoqdagi arava shuniki, — deb tu-shuntirdi shofyor va mashinasini to'xtatdi. — Sizga nima bo'lidi, chol? — deb qichqirdi u kabinasidan boshini chiqarib. — Yo'lda aravani tashlab ketgan sizmisiz?

— Ha, men, — deb javob berdi Tanaboy.

— Shunaqa deng. Qarasak, yo'lda shalag'i chiqqan arava yotibdi. Atrofda hech kim yo'q. Abzal-anjomini olmoqchi edik, u ham hech narsaga arzimas ekan.

Tanaboy indamadi.

Shofyor mashinadan tushdi, aroqning o'tkir badbo'y hidini cholga ufurib, u yoq-bu yoqqa bir necha qadam tashladi, so'ng yo'l ustiga yozila boshladni.

— Nima bo'lidi? — deb so'radi u keyin qayrilib.

— Ot torta olmadi, kasal bo'p qoldi, buning ustiga, o'zi ham qari.

— Hm-m. Xo'sh, endi qayoqqa bormoqchisiz?

— Uyga. Sarigov darasiga.

— O'-ho'! — hushtak chalib yubordi shofyor. — Toq-qami? Yo'limiz bir emas ekan. Xohlasangiz, kuzovga chiqing, sovxoza eltab qo'yaman, u yerdan ertaga ketarsiz.

— Rahmat, otim bor.

— Manavi o'limtikmi? Itga tashlang uni, huv anavi jarlikka itarib yuboring, vassalom, qarg'alar cho'qib tamom qilishadi. Xohlasangiz, ko'maklashib yuboraylik...

— Yo'q, ketaver, — dedi Tanaboy qovog'ini uyib.

— Bilganingizni qiling, — deb tirjaydi shofyor va eshikni yopa turib, kabina ichiga qarab so'z qotdi: — Miyasi aynib qolibdi cholning!

Mashina qo'zg'alib, xira nur oqimini o'zi bilan olib ketdi. Stop signallarining to'q qizil nuri bilan yoritilgan soy ustidagi ko'prik g'irchillab qoldi.

— Nega u odamning ustidan kulasan, agar o'zingning boshingga shunday kun tushsa, nima bo'lardi? — dedi

shofyorga ko'prikan o'tgach, uning yonida o'tirgan qulqchinli yigit.

— Hechqisi yo'q... — dedi shofyor va esnab barankani aylantirdi. — Har qanaqasiga duch kelganman. Men gapning po'skallasini gapirdim. Qandaydir bir qirchang'ini deb... O'tmishning sarqiti u. Hozir, birodar, hamma narsaning otasi texnika. Hamma yerda texnika. Urushda ham. Bunaqa chollar bilan otlarning davri o'tib ketgan endi...

— Hayvon ekansan! — dedi unga yonida o'tirgan yigit.

— Tufladim hammasiga, — javob berdi shofyor.

Mashina ketgandan so'ng, yana hammayoqni tun zulmati qopladi, ko'z esa yana qorong'ilikka o'rgandi. Tanaboy samanni hayday boshladi.

— Qani, ketdik, chuh, chuh! Yursang-chi!..

Ko'prikan o'tgandan keyin u otqi katta yo'lidan so'qmoqqa burdi. Endi ular qorong'ilikda zo'r-bazo'r ko'rinish turgan so'qmoqdan soy yoqalab ilgarilab borishardi. Oy tog'lar orqasidan endigina ko'rinish kelardi. Yulduzlar sovuq yaltillashib, uning chiqishini kutilshardi.

IV

Gulsari minishga o'rgatilgan yili yilqilar ni kuzgi yaylovlardan kech qaytarishdi. Kuz odatdagiga qaraganda cho'zilib ketdi, qish ham yumshoq keldi, qor tez-tez yog'di-yu, ammo uzoq turmadni, yem-hashak yetarli edi. Bahorda esa yilqilar yana tog' yon bag'irlariga qaytib kelishdi va cho'l gullab-yashnashi bilanoq pastlikka tusha boslashdi.

Urushdan keyin Tanaboy hayotida bu, ehtimol, eng yaxshi davr bo'lgandir. Qarilikning qo'ng'ir oti uni hali dovon ortida, garchand bu dovon yaqin bo'lsa ham, kutib turar, Tanaboy hali yosh saman yo'rg'ani minib yurashdi. Bu yo'rg'a unga bir necha yil keyin uchraganda, u Gulsarini hozir minib yurganidek, o'zini bu qadar baxtli sezmagani bo'larmidi. Ha, Tanaboy goho odamlar oldida o'zini ko'z-ko'z qilishdan ham qaytmadi.

Yelib ketayotgan saman ot ustida gerdgaymay bo'larmidi? Gulsari buni yaxshi bilardi. Ayniqsa, Tanaboy ovulga ketayotganida ishga to'da-to'da bo'lib borayotgan ayollar yo'lda uchrab qolgan kezlarda, Tanaboy ulardan ancha uzoqdayoq qaddi-qomatini rostlab, egar ustida g'oz o'tirib olar va uning hayajoni otiga ham o'tardi, Gulsari dumini sag'risi baravar ko'tarib olar, yoli shamolda hilpirab turardi. U pishqirib yo'rg'alab, ustidagi chavandozni yengilgina eltid borardi. Oq va qizil durrali ayollar yo'l chekkalariga chiqib, tizzalariga qadar yashil bug'doyzorlarga ko'milishib turishardi. Ular go'yo sehrlangandek to'xtab qolishar, hammasi birdaniga qayrilib qarashar, chehralar, porlab turgan ko'zlar, tabassumlar va oppoq tishlari lip-lip etib ko'rinar edi.

— Hey, yilqichi! To'xta-a!

Izma-iz kulgi va qochiriqlar eshitilardi:

— Shoshmay tur, qo'lga tusharsan, tutib olarmiz!

Bir-birlarining qo'llaridan ushlashib, yo'lni to'sib, uni tutib olishgan kunlar ham bo'lgan. Nimalar qilishmas edi deng! Xotinlar hazil-mazax qilishni yaxshi ko'rishadi-da. Tanaboyni egardan sudrab tushirishar, qo'lidan qamchinini tortib olishib, qah-qahlab kulishar, qiyqirishar edi:

— Rostini ayt, qachon qimiz keltirasan?

— Biz bu yerda ertalabdan kechgacha dalada ishlaymiz-u, sen bo'lsang saman otda sayr qilib yurasan!

— Kim sizlarni ushlab turibdi? Yilqichilikka o'ting.

Faqat yerlaringga tayinlab qo'yinglar, o'zlariga boshqasini qidirishsin. Tog'da sumalakdek muzlab qolasizlar.

— Ho, hali shunaqami! — yana uni tortqilay boshlashardi.

Ammo Tanaboy biron kishini saman yo'rg'aga minishga sira yo'l qo'ymasdi. Hatto uchrashganida darhol kayfiyati o'zgaradigan va otini sekin yuritishga sababchi bo'ladigan o'sha ayol ham biron marta uni minib ko'rmagan edi. Ehtimol, u buni istamagan hamdir.

O'sha yili Tanaboyni kolxoz taftish komissiyasiga saylashgandi. U ovulga dam-badam kelib turar va deyarli har gal bu ayol bilan uchrashar edi. U idoradan ko'pincha achchig'lanib chiqardi. Gulsari uning ko'zları,

ovozi, qo'llarining harakatiga qarab buni sezardi. Ammo u haligi ayol bilan uchrashganida doim muloyim va xushfe'l bo'lib qolardi.

Hay-hay, sekinroq, qayoqqa shoshasan! – deb shivirlardi u o'ynoqi otini tinchlantirib va ayol bilan tenglashib olgach, sekin haydardi.

Ular nima haqdadir asta gaplashishar, ba'zan indamay borishar edi. Gulsari xo'jayinning yuragidagi alam qanday tarqalayotganligini, uning ovozi qanday muloyimlashib, mehri tovlanib borayotganini qo'llaridan his qilardi. Shuning uchun ham u yo'lda bu ayolni quvib yetishni yaxshi ko'rardi.

Kolxozda turmush og'irligini, mehnat kuniga deyarli hech narsa tushmayotganligini, qanday qilib shunday ahvol yuz berayotganligini, davlatga ham bir narsa berish mumkin bo'ladi, odamlar ham bekorga ishlamaydigan kunlar qachon kelishini taftish komissiyasining a'zosi Tanaboy Bekasov so'rab-surishtirib, idoradagilarning boshini qotirayotganligini ot qayoqdan bilsin.

O'tgan yili hosil bitmadi, yem-xashak qahatchiligi bo'ldi, bu yil tumanning yuzi yerga qaramasin, deb boshqalar uchun ham plandan tashqari don va mol topshirishdi, oxiri nima bo'ladi, kolxozchilarning hollari nima kechadi – bunisi noma'lum edi. Vaqt o'tib borardi, urushni esdan chiqara boshlashdi, lekin tomorqadan olganlari va dalalardan yashirinchha tashib keltirganlari bilan hamon ilgarigidek kun kechirishardi. Kolxozda pul ham yo'q edi; g'alla, sut, go'sht – hammasi zarariga topshirilardi. Yozda chorvachilik rivojlana boshlardi, qishda esa uning ahvoliga maymunlar yig'lardi, mollar yem-xashak tanqisligi vasovudan qirilardi. Zudlik bilan qo'tonlar, molxonalar, yem-xashaklar uchun bazalar qurish kerak edi, qurilish materiallarini esa hech qayerdan topib bo'lmas va ularni topib berishga ham hech kim va'da bermas edi. Urush yillari turar joylar ne ahvolga kelib qolgan edi. Ko'proq bozorma-bozor kezib, mol hamda kartoshka bilan savdo-sotiq qilib yurganlarga uy-joy qurib olishgandi. Bundaylar kuch-qudratga kirib, qurilish materiallarini ham qayoqdandir chetdan topib kelishardi.

— Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas, o'rtoqlar, bunda nimadir chatoq, qandaydir katta ishkal bor, — derdi Tanaboy. — Shunday bo'lishi kerakligiga ishonmayman. Yo biz ishdan chiqib qoldik, yo sizlar bizga noto'g'ri rahbarlik qilyapsizlar.

— Nimasি joyida emas? Nimasি noto'g'ri? — deb buxgalter unga qog'ozlarni tutardi. — Mana, planlarni qara... Manavi olganlarimiz, manavi topshirganlarimiz, manavi debet, manavi kredit, manavi saldo. Daromad yo'q, faqat zarar. Yana nima demoqchisan? Avval tu-shunib ol. Faqat sen kommunistsan-ku, biz xalq dushmanimizmi, shunaqami?

Gappa boshqalar aralashar, bahs, shovqin-suron boshlanar, Tanaboy bo'lsa boshini qo'llari orasiga olib o'tirar va kuyib-pishib nega bunday bo'layotganini o'ylar edi. U shu yerda ishlayotganligi tufayli va kolxoz uchungina kuyinmayotgandi, balki bu yerda boshqa alohida sabablar — Tanaboy bilan qadimdan xusumati bo'lgan kishilar ham bor edi.

Ular endi bundan zimdan kulib yurganlarini, uni ko'rganlarida: «Xo'sh, o'zlarining ishlari qalay endi? Ehtimol, yana quloqlarni tugata boshlarsan? Faqat endi bizdan oladiganing yo'q. Qo'ling kaltalik qiladi. U-uh, nega urushda daf bo'lib keta qolmadi-ya!» — degandek surbetlik bilan yuziga tik boqishlarini yaxshi bilardi.

Tanaboy ham ularga: «Shoshmay turinglar, ablalalar, baribir biz aytganday bo'ladi!» degandek ma'noli qarash bilan javob berardi. Holbuki, bu odamlar yot odamlar emas, o'z odamlari edi. Uning o'gay akasi Quliboy hozir qarib qolgan bo'lib, u urushga qadar yetti yil Sibirda qamoqda yotib kelgan edi. O'g'illari ham otasiga tortgandi; Tanaboyni o'lgudek yomon ko'rishardi. Nima uchun ham ular buni yaxshi ko'rishsin. Ehtimol, ularning bolalari ham Tanaboy urug'idan nafratlanishsa kerak. Buning sababi bor. Bu ish allaqachonlar bo'lib o'tgan bo'lsa ham, ammo hanuzgacha alami ketmagan edi. Quliboyni shunday qilish kerakmidi? Axir, shunchaki, uddaburon, ishbilarmon kishi, o'rtahol dehqon emas-midi? Qarindosh-urug'likka rioya qilmay bo'ladimi? Quliboy katta xotindan tug'ilgan farzand, bu bo'lsa —

kichik xotindan edi, lekin qirg'izlarda bunday aka-ukalar bir qorindan tushgandek hisoblanadi. Demak, u qarindosh-urug'likka ham daxl qildi, o'sha vaqtida qancha gap-so'zlar bo'lgan edi. Endi, albatta har xil mulohaza yuritish mumkin. Ammo o'shanda-chi! Axir u bu ishlarni kolxozni deb qilmadimi? Lekin shunday qilish kerakmidi? Ilgarilar hech shubhalanmas edi. Ammo urushdan so'ng esa ba'zan boshqacharoq o'ylab qoladigan bo'ldi. O'ziga va kolxozga ortiqcha dushman orttirib olmadimikin?

Nega o'tiribsan, Tanaboy, ko'zingni och, — deb gapga tortishardi uni. Yana o'sha eski tashvish: qish ichida hamma go'nglarni dalaga olib chiqish, hovlimahovli yurib yig'ish kerak. G'ildiraklar yo'q, demak, qayrag'och, chambarak uchun temir sotib olish kerak — lekin qaysi pulga, qarz berisharmikin, nimaning evaziga? Bank quruq gapga ishonmaydi. Eski ariqlarni rostlash, tozalash, yangilarini qazish kerak, ish hajmi katta, og'ir. Qishda xalq bunday ishlarga chiqmaydi, yer muzlagan, qazib bo'lmaydi. Ko'klamda esa ulgurmaysan ekish-tikish, qo'zilatish, o'toq qilish, undan keyin esa pichan o'rimi boshlanadi. Qo'ychilikni nima qilish kerak? Urchitish uchun binolar qani? Sut fermasida ham ahvol yaxshi emas. Tomi chirib ketgan, yem-xashak yetishmaydi, sut sog'uvchilarning ishlagisi yo'q. Ertadan kechgacha tinim bilishmaydi, ammo nima haq olishadi? Boshqa yana qancha har xil tashvish, kamchiliklar bor. Vahima bosib ketardi ba'zan.

Shunday bo'lsa ham o'zlarini qo'lga olib, partiya majlisida, kolxoz boshqarmasida bu masalalarni yana muhokama qilishar edi. Jo'ra rais edi. Faqat keyingina Tanaboy uning qadriga yetdi. Tanqid qilish oson ekan. Tanaboy bir uyur otlar uchun javob bersa, Jo'ra kolxozdagi hamma odamlar va barcha ishlar uchun javob berar edi. Ha, Jo'ra metin odam edi. Hamma ishlar barbos bo'layotganidek tuyulganida, tumanda unga qarab stolni dukullatganlarida va kolxzoda yoqalaridan tutgallarida Jo'raning ruhi tushmadi. Tanaboy uning o'rnida bo'lganida yo aqldan ozardi, yo o'zini o'zi o'ldirardi. Jo'ra bo'lsa xo'jalikni saqlab qoldi, oxirigacha, yuragi

ishdan chiqquncha chidab berdi, keyin ham yana ikki yilcha partiya tashkilotchisi bo'lib ishladi. Jo'ra ishon-tira olar, odamlar bilan gaplasha bilar edi. Tanaboy uni tinglab, hamma ish o'nglanib ketishiga, turmush nihoyat odamlar dastlabki paytlarda orzu qilganlaridek bo'lishiga yana ishona boshlardi. Uning Jo'raga bo'lgan ishonchi bir martagina susaydi, lekin shunda ham uning o'zi ko'proq aybdor edi.

Tanaboy idoradan qosh-qovog'i osilib chiqqanida egarga zarb bilan o'tirib, jilovni siltab tortganida, uning ko'nglidan nimalar kechayotganini yo'rg'a bilmassi. Lekin u egasining ahvoli juda yomonligini sezardi. Garchand Tanaboy uni hech qachon urmagan bo'lsa ham, saman bunday paytlarda egasidan cho'chib turardi. Yo'lida o'sha juvonni ko'rishi bilan xo'jayini ancha yengil tortib ko'ngli yumshashini, uni to'xtatib ayol bilan nimalar haqidadir sekin gaplashib turishini, juvonning qo'llari esa Gulsarining yollarini tarab, bo'ynini silab-siyipashini ot bilardi. Hech vaqt odamning qo'llari bunchalik muloyim emasdi. Bu qo'llar yu'duz qashqali huv o'sha jiyron qunanning lablari singari yoqimli va yumshoq edi. Tanaboy egardan egilib u bilan gaplashar, juvon bo'lsa goh jilmayar, goh xo'mrrayar, nimadandir rozi bo'lmas, boshini tebratar, ko'zlari tez oqar dar-yoning tubidan oydinda ko'rinish turuvchi toshlar kabi yaltirardi. Ketayotib u qayrilib qarar va yana boshini tebratardi.

Shundan keyin Tanaboy ot ustida o'ychan ketadi. U jilovini erkin qo'yib yuborar, yo'rg'a ham o'z erkiga qarab tuyoqlarini taqillatib bamaylixotir yurib borardi. Go'yo egarda xo'jayini yo'qdek. Go'yo ularning har biri o'z holicha ketayotgandek. Shunda qo'shiq ham o'zidan o'zi kela qolardi. Tanaboy ot tuyoqlarining bir maromdag'i taqa-tuqi ostida allaqachonlar o'tib ketgan odamlarning azob-uqubatlari haqida, so'zlarni aniq talaf-fuz etmay, sekin xirgoyi qilib borardi. Ot esa mashqini olgan yurish bilan uni daryo ortiga, yilqilar tomon olib ketardi.

Gulsari xo'jayinning kayfi shunda chog' bo'lishini sevar, bu juvonni ham o'zicha yaxshi ko'rardi. U juvon-

ni qaddi-qomatidan, qadam tashlashidan tanirdi, hatto undan tarqaluvchi notanish o'tning qandaydir g'alati hidini sezgirlik bilan payqab olardi. Bu – qalampir-munchoq edi. U qalampirmunchoqdan marjon taqib yurardi.

– Ko'ryapsanmi, saman seni naqadar yaxshi ko'radi, Bibijon, – derdi Tanaboy juvonga. – Qani, silab-siyapa-chi, yana bir silab-siypa... Ha, quloqlarini solintirib yubordi-yu! Xuddi buzoqning o'zginasi-ya. Yilqilarga esa buning dastidan kun yo'q. Erkiga qo'yib bersang bas. Ayg'irlar bilan xuddi itdek tishlashishadi. Shuning uchun ham buni minib yuribman, mayib qilib qo'yishmasin, deb qo'rqaman. Hali yosh.

– Bu-ku yaxshi ko'radi-ya, – deb javob berardi juvon, xayolini band qilgan bir nima haqida o'ylab turib.

– Boshqalar yaxshi ko'rmaydi, demoqchimisan?

– Men bo'lak narsani gapiryapman. Bizning sevishadigan vaqtimiz o'tib ketdi. Sizga achinaman.

– Nega endi?

– Siz unaqa odam emassiz, keyin qiyin bo'ladi sizga.

– Senga-chi?

– Menga nima? Men bevaman, soldat xotiniman. Siz bo'lsangiz...

– Men bo'lsam taftish komissiyaning a'zosiman. Mana, seni uchratib qoldim-u u-bu faktlarni surishtirib olyapman, – deb hazil qilishga urinib ko'rardi Tanaboy.

– Negadir siz faktlarni tez-tez surishtiradigan bo'lib qoldingiz. Hushyor bo'ling.

– Men nima qilibman? Men ham yo'limda ketayotgandim, sen ham...

– Men o'z yo'lim bilan ketayotibman. Bizning yo'limiz bir emas. Xo'p, xayr. Vaqtim yo'q.

– Qulok sol, Bibijon!

– Xo'sh, nima? Kerakmas, Tanaboy. Nima keragi bor? Aqli odamsiz-ku axir. Sizsiz ham yuragim siqilib yuribdi o'zi.

– Nima, men senga dushmanmanmi?

– Siz o'zingizga dushmansiz.

– Bu nima deganing?

– Qanday xohlasangiz, shunday tushunavering.

U ketardi, Tanaboy bo'lsa go'yo ish bilan qayoqqadir ketayotgandek qishloq ko'chalar bo'ylab yurardi, tegirmon yoki maktab tomon burilardi va loaqal uzoqdan bo'lsa ham juvonning qaynonasi uyidan chiqishini (ish paytida u qizini shu yerda qoldirardi), qizning qo'lidan yetaklab ovul chekkasidagi uyiga qanday olib ketishini bir ko'rishga zor edi. Uning hamma narsasi juda aziz edi. Juvonning u tomonga qaramaslikka tirishib, qadam tashlab borishi ham, qora ro'mol ichidan oqarib ko'rinish turgan yuzi ham, qizchasi ham, yonida chopib borayotgan laychasi ham qadrondi unga.

Nihoyat, juvon o'z hovlisiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lardi, Tanaboy bo'lsa uning qanday qilib bo'm-bo'sh uyi eshigini ochishni, to'zib ketgan paxtalik choponini yechib, ko'yakchan suv keltirgani chopib ketishini, o'choqqa olov yoqib, qizini yuvintirishini, ovqatlantirishini, podadan qaytgan sigirini kutib olishini va tunda qop-qorong'i huvullab yotgan uyda yolg'iz yotib, o'zini ham, Tanaboyni ham, ular bir-birlarini sevish mumkin emasligiga, uning oilasi borligiga, uning yoshida sevish kulgili ekanligiga, har bir narsaning o'z vaqt soati borligiga, Tanaboyning xotini yaxshi ayol ekanligiga, u yerining boshqa xotin dardida oh-voh qilib yurishiga loyiq ish qilmaganligiga ishontirishga urinayotganligini xayolan tasavvur qilib, yo'lida davom etardi.

Bunday fikrlardan Tanaboy o'zini noqulay sezardi.
«Demak, nasib bo'imas ekan-da» deb o'ylardi u va daryo ortidagi surmarang olisliklarga boqib, dunyodagi hamma narsani – ishni ham, kolxozni ham, bolalarning kiyim-kechaklarini ham, do'st va dushmanlarini ham, necha-necha yillardan beri gaplashmay yurgan o'gay akasi Quliboyni ham, beixtiyor tushiga kirib, unisovug terga botirib yuboradigan urushni ham unutib, qadimiy ashulalarni kuylay boshlardi. Otining daryoni kechib, narigi qirg'oqqa o'tib, yana yo'lini davom ettirayotganligini ham payqamasdi. Faqat saman yo'rg'a yilqilarga yaqinlashib qolganligini sezib, qadamini tezlashtirganda-gina u o'ziga kelardi.

— Tr-r-r, Gulsari, qayoqqa shoshilyapsan! — deb tizginini tortardi so'ng Tanaboy es-hushini yig'ib olib.

V

Har qalay o'sha paytlarda Tanaboy ham, saman yo'rg'a ham davrini surib olishdi. Uchqur otning dovrug'i futbolchining dovrug'iga o'xhash bo'ladi. Ko'cha-ko'yda koptok tepib yurgan kechagi bola birdan hammaning arzandasini bo'ladi-qoladi, bilimdonlarning og'ziga tushadi, olomonning zavq-shavqiga sabab bo'ladi. Darvozaga to'p kiritib yurgan mahalda uning dovrug'i oshib boradi. So'ng u asta-sekin diqqat markazidan tusha borib, keyinchalik butunlay unutiladi. Hammadan ham ortiq zavqlangan kishilarning o'zлari birinchi bo'lib uni eslaridan chiqarib yuborishadi. Buyuk futbolchining o'rnini boshqasi egallaydi. Uchqur ot dovrug'inining qismati ham xuddi shunday. Musobaqalarda g'olib chiqaverar ekan, uning shuhratni osha boradi. Oralaridagi farq shundaki, otga hech kim hasad qilmaydi. Otlar hasad qilishini bilmaydi, odamlar esa, Xudoga shukur, otlarga hasad qilishni hali o'rganganlaricha yo'q. Lekin gapning ochig'i hasad aql bovar qilmaydigan narsalarga ham qodir, shunday hodisalar ham bo'lganki hasadgo'ylar odamga yomonlik qilish uchun ot tuyog'iga mix qoqishgan. Oh, bu mash'um hasad! Ha, mayli, jin ursin ularni...

Keksa To'rg'ayning karomati to'g'ri chiqdi. O'sha bahorda saman yo'rg'aning baxt yulduzi porladi. Keksa-yu yosh hamma uni tanirdi: «Gulsari!», «Tanaboyning yo'rg'asi», «Ovulning ko'rki» deb tilga olishardi.

Hali «» harfini ayta olmaydigan isqirt bolalar ham saman yo'rg'aning yelishiga taqlid qilishib, ko'chan ni changitib chopisharkan: «Men Gulsaliman...» «Yo'q, men Gulsaliman... Oyi, ayting, men Gulsaliman-a... Chu-chu, olg'a, he-y-y, men Gulsali» deb qichqirishardi.

Shuhratning nimaligini va u qanday buyuk qudratga ega ekanligini saman o'zining birinchi katta poygasida bilgan edi. Bu Birinchi mayda bo'lgandi.

Daryo yoqasidagi katta o'tloqda o'tkazilgan mitingdan

so'ng sayil boshlandi. Har yoqdan son-sanoqsiz xaloyiq yig'ilgandi. Odamlar qo'shni sovxozdan, tog'lardan, hatto Qozog'istondan ham kelishgan edi. Qozoqlar o'z otlarini chiqarishdi. Aytishlaricha, urushdan keyin hali bunaqa katta bayram bo'limgan ekan.

Ertalabdanoq – Tanaboy egarlayotgan, ayil va uzangilarini diqqat bilan tekshirayotgan paytdayoq – saman ot egasining ko'zları yonishidan va qo'llarining qaltirashidan favqulodda bir narsa bo'lishini sezgan edi. Tanaboy juda hayajonlanardi.

– Hushyor bo'l, Gulsari uyaltirib qo'yma, – deb shivirladi u otining yoli va manglayidagi kokilini tarab. – Sen o'zingni sharmanda qilishing kerakmas, eshityapsanmi? Bunga haqimiz yo'q bizning, eshityapsanmi?

Odamlarning ovozlari va yugurib yelishidan ham favqulodda bir nima kutilayotganligi sezilardi. Qo'shni yaylovlarda yilqichilar otlarini egarlashardi. Bolalar allaqachon otlarga minib olishgandi, ular qiyqirib atrofda chopib yurishardi. Keyin yilqichilar to'planishdi-da, hammasi birgalikda daryo tomon yo'l olishdi.

Gulsari o'tloqda bunchalik ko'p ot va odam yig'ilganidan gangib qolgandi. Daryo bo'yida, tepaliklar ustida shovqin-suron hukmron edi. Rang-barang ro'mol va ko'yylaklardan, qip-qizil bayroqlar va ayollarning oppoq lachaklaridan ko'zlar qamashardi. Otlarga eng yaxshi abzallar taqilgan, uzangilar jaranglar, suvluqlar va otlarning ko'kraklariga osib qo'yilgan kumush o'mildiriqlar shaqirlardi.

Chavandozlar ostidagi otlar qatorda siqilishib, toqatsizlanib depsinishar, jilovni yulqib, tuyoglari bilan yer tepishardi. O'rtada chollar – sayilni boshqaruvchilar otlarini gijinglatib yurardi.

Gulsari g'ayrati oshib, kuchga to'lib-toshib bora-yotganligini his qilardi. Go'yo allaqanday otashin ruh vujudiga kirib olgandek: bundan qutulish uchun tezroq davraga otilib kirish, so'ng o'qdek uchib ketish kerak edi.

Boshqaruvchilar davraga kirishga ishora qilishgach, Tanaboy tizginni bo'shatdi, ot uni o'rtaga olib kirdi va hali qayoqqa qarab chopishni bilmay aylana boshladi.

Qator oralari guvullab «Gulsari!» «Gulsari!» degan so'zlar eshitildi.

Katta poygada qatnashishni istaganlarning hammasi davraga kirdi. Ellikka yaqin chavandoz yig'ildi.

Xalqdan fotiha oling! – dedi sayilning bosh boshqaruvchisi tantanali suratda.

Peshonalarini tang'ib olgan taqir boshli chavandozlar kaftlarini ochganlaricha qo'llarini baland ko'tarishib qator bo'ylab yurishdi va «o-mi-in!» degan ovoz u chekkadan bu chekkagacha gurullab tarqaldi, yuzlab qo'llar peshona baravar ko'tarilib, kaftlar oqim suv singari yuzlar ustidan sirg'alib tushdi.

Shundan so'ng chavandozlar bu yerdan to'qqiz chaqirim naridagi poyga boshlanadigan joyga otlarini yo'rttirib ketishdi.

Bu orada davrada piyoda va otliqlarning kurashi, egardan tortib tushirish, chopib ketayotgan yerda yotgan tangani olish va boshqa musobaqa o'yinlari boshlandi. Bularning hammasi faqat katta tomoshaning boshlanishi edi, xo'los, eng muhimi u yoqda, chavandozlar chopib borayotgan tomonda boshlanardi.

Gulsari yo'lda keta turib qizishar, toqatsizlanar edi. U egasining nega jilovini qo'yib yubormasligini tu-shunmasdi. Atrofda boshqa otlar ham gijinglashar va yulqinishar edi. Ularning ko'pligi va hammasi chopishni xohlayotganligidan saman yo'rg'a asabiylashar va toqatsizlanib qaltirardi.

Nihoyat, hamma startga – poyga boshlanadigan joyda boshlarini bir tomonga qilib safga tizildi, poygaboshi safdagilarning oldidan u chekkadan bu chekkaga qadar chopib o'tdi-da, oq ro'molchani ko'tardi. Hamma sergaklanib qotib qoldi. Ro'molcha silkindi. Otlar olg'a tashlanishdi, g'ayrati oshgan Gulsari ham hamma bilan birga oldinga intildi. Son-sanoqsiz tuyoqlar ostida yer gumburlab ketdi, chang-to'zon ko'tarildi. Chavandozlarning «ha, chuh, ha, chuh!»lari va qiyqiriqlari ostida otlar o'qdek uchib borardilar. Sakrab chopishni bilmagan Gulsarigina yelib borardi. Uning ojizligi ham, qudrati ham shunda edi.

Dastlab hammasi g'uj bo'lib, bir necha minutdan

keyin oldinma-keyin chopib ketishdi. Gulsari buni ko'rmasdi. U faqat chopqir otlarning uni orqada qoldirib, oldinda, yo'lda chopib ketayotganliginigina ko'rardi. Tuyoqlar ostidan uchib chiqqan issiq shag'al va kesak parchalari tumshug'iga urilar, atrofda esa otlar chopishar, chavandozlar qichqirishar, qamchilar qarsillar, chang-to'zon ko'tarilar edi. Chang-to'zon bulutga aylanib, yer uzra uchib borardi. Ter, chaqmoqtosh va payhon qilingan yovshonlarning achchiq hidi kelardi.

Deyarli yo'lning yarmiga qadar shu ahvol davom etdi. Oldinda o'ntacha ot yo'rg'a saman yeta olmaydigan sur'at bilan uchib borardi. Atrofda shovqin pasaya boshladi, orqadagilarning suroni sekin eshitilar, lekin oldinda boshqalarning ketayotganligi, bunga esa Tanaboy tortib ushlab olgan tizginning erk bermayotganligi uning g'azabini keltirardi. Ko'z oldi g'azab va shamoldan qorong'ilashib, yo'l shiddat bilan oyoqlari ostidan orqaga o'tib borar, quyosh osmondan olovli kop-tokdek u tomon dumalab kelardi. Uning butun tanasini issiq ter bosgan, saman yo'rg'a qanchalik ko'p terlasa, shunchalik yengil tortib borardi.

Chopqir otlar charchab, chopishlari borgan sari sekinlasha boshladi, saman yo'rg'a esa endigina kuchga kirayotgan edi. Nihoyat, u egasining: «chuh Gulsari, chu!» – degan tovushini eshitdi. Shundan so'ng quyosh u tomonga yana ham tezroq yumalab kela boshladi. Quvib yetilgan va ortda qoldirilgan chavandozlarning g'azabdan burishgan yuzlari, osmonga ko'tarilgan qamchilar, otlarning irjaygan og'izlari, xirillab nafas olgan tumshuqlari birin-ketin ko'zga chalina boshladi. Birdan suvluq va tizginlarning hukmronligi yo'qoldi, Gulsari egarning ham, chavandozning ham borligini sezmay goldi – u chopish ishtiyoqi bilan yonar edi.

Har qalay, oldinda qo'ng'ir va mallarang ikki chopqir ot yonma-yon borardi. Ikkalasi ham bo'sh kelmas, chavandozlarning qichqiriqlari va qamchilari zarbi ostida uchib borardi. Bular baquvvat chopqir otlar edi. Gulsari ularni anchadan keyin quvib yetdi va nihoyat tepalikka ko'tarilishda ularni ham orqada qoldirib ketdi. U go'yo katta bir to'lqinning qirrasiga chiqib olgandek, tepe-

likning ustiga sakrab chiqdi va bir necha daqqa havoda vaznsiz holatda muallaq qolgandek bo'ldi. Nafasi qaytib ketdi, quyoshning yanada yorqin, olovli nuri ko'zlariga qadaldi, u yo'l bo'ylab pastga tomon o'qdek tez uchib tusha boshladi, lekin ko'p o'tmay orqasidan quvib yetayotgan tuyoqlarning taqir-tuqurini eshitdi. O'sha qo'ng'ir va mallarang ikki ot alamini olishmoqchi edi. Ular ikki tomondan deyarli yonma-yon kelishar, endi bir qadam ham ortda qolishmayotgan edi.

Ular uchalasi boshlarini boshlariga tegizib, birga chopishardi, endi ular sira ham chopmayotgandek, qandaydir g'alati, harakatsiz va unsiz qotib qolgandek tuyulardi Gulsariga. Endi ularning ko'zlaridagi ifodani, taranglashgan tumshuqlarini, chaynalgan suvliqlarini, yugan va tizginlarini ko'rish mumkin edi. Qo'ng'ir rang ot g'azab va qaysarlik bilan qarar, mallarang esa hayajonlanar, ishonchsizlik bilan u yoqdan-bu yoqqa alanglar edi. Xuddi ana shunisi birinchi bo'lib ortda qola boshladi. Eng avval uning gunohkordek javdiragan ko'zları g'oyib bo'ldi, so'ng burun teshiklari kengayib ketgan tumshug'i orqada qoldi, shundan keyin u boshqa ko'rinnadi. Qo'ng'ir ot esa juda qiyinlik bilan sekinsta orqada qola boshladi. U chopib turib sekin taslim bo'layotgandi, ojizlikdan, qahr-g'azabdan uning ko'z qarashlari asta-sekin xiralashib borardi. U mag'lubiyatni tan olgisi kelmay, shu ko'yda ortda qolib ketdi.

Raqiblar ortda qolganida nafas olish ham osonlashgandek bo'ldi. Oldinda esa daryoning muyulishi kumushdek yaltirab ko'rina boshlagan, yashil o'tloq ko'zga tashlanmoqda va olisdan odamlarning qiyqiriq, hayqiriqlari eshitilmoxda edi. Ashaddiy ishqibozlar yo'lda kutib turishgan ekan. Ular «hayt-huyt!» qilishib, hayqirihib ikki tomondan otlarini choptirishib borishardi. Shunda yo'rg'a birdan o'zining holdan toyganligini sezdi. Masofa o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. Orqada nima bo'layotganligini, uni quvib yetishyaptimi, yo'qmi — buni Gulsari bilmasdi. Chopish haddan ortiq og'irlashib, u holsizlanib bormoqda edi.

Lekin huv oldinda ko'p sonli olomon guvullar va to'lg'anar, otliq va piyoda kishilar peshvoz chiqib, ikki

yoqdan oqib kelar, qichqiriqlar borgan sari kuchayar edi. Birdan u: «Gulsari! Gulsari! Gulsari!» degan ovozlarni aniq eshitdi. Bu hayqiriqlar, nido-xitoblar bilan to'lgan havodan nafas olayotgan saman yangi kuch bilan olg'a intildi. Eh, odamlar, odamlar! Ular nimalarning uddasidan chiqmaydi.

Gulsari shodlik suronlari va qiyqiriqlar bilan kutib olayotganlarning oralaridan o'tib, qadamini sekinlatdi-da, o'tloqni aylanib chiqdi.

Ammo ish shu bilan tamom bo'lindi. Endi uning ham, egasining ham ixtiyor o'zida emas edi. Saman yo'rg'a biroz nafasini rostlab, tinchib qolganida, xaloyiq davrani katta ochib, g'oliblarni qutladi: «Gulsari, Gulsari, Gulsari!» degan ovozlar ko'kka o'rлади. U bilan birga esa «Tanaboy! Tanaboy! Tanaboy!» degan hayqiriqlar ham yangradi.

Odamlar saman yo'rg'aga yana qandaydir mo'jizali kuch bilan ta'sir qilishdi. Mag'rur va uchqur ot boshini baland ko'targanicha ko'zlarini chaqnatib sahnaga chiqdi. Gulsari shuhrat havosidan mast bo'lib, yana chopishga intilar, o'yinga tushgudek bir yonlab qadam tashlab borardi. U o'zining chiroyli, qudratli va mashhur ekanligini bilardi.

G'olib Tanaboy qo'llarini ochib xaloyiq oldidan o'tdi, yana bir og'izdan chiqqan «o-min!» so'zi yangradi, tag'in yuzlarcha qo'llar peshona baravar ko'tarilib, kaftlar oqim suv singari yuzlar ustidan sirg'alib tushdi.

Shunda saman yo'rg'a olomon orasida birdan tanish ayolni ko'rib qoldi. Garchand u bu gal qora ro'mol emas, oq ro'mol o'ragan bo'lsa ham, fotiha uchun qo'lini yuziga olib borganida ot uni darrov tanidi. U odamlarning birinchi qatorida baxtiyor va shod-xurram bo'lib turar, tez oqar zilol suv tubidagi toshlarga o'xshab porlab turuvchi ko'zlarini bulardan uzmashi. Uning oldida biroz turishi, xo'jayini u bilan gaplashib olishi, yulduz qashqali o'sha jiyron biyaning lablariga o'xshash silliq va mehribon qo'llari bilan yollarini tarashi, bo'yinini silab-siypashi uchun, Gulsari odati bo'yicha ayol tomon yurdi. Lekin Tanaboy nima uchundir jilovni boshqa tomonga tortar, saman toy bo'lsa

xo'jayinini tushunmay turgan joyida gir aylanib, tinmay ayol tomon intilardi. Nahotki xo'jayini o'zi albatta gaplashib olishi lozim bo'lgan o'sha ayolning shu yerda turganini ko'r mayotgan bo'lsa?..

• • •

Ikkinchı kuni, ya'ni ikkinchi may ham Gulsarining kuni bo'ldi. Bu gal tush paytida cho'l bag'rida uloq o'tkazildi. Cho'l yana qiy-chuv, hayqiriqlarga to'ldi, yer yana tuyoqlar ostida nog'ora qilib chalindi. Son-sanoqsiz otliq ishqibozlar hayt-huyt qilishib, qiyqirishib uloqchilar atrofida girdikapalak bo'lib chopib yurishardi. Yana Gulsari kunning qahramoni bo'ldi. Lekin Tanaboy uni oxirgi o'yin – kim epchil va tezkor bo'lsa, o'sha uloqni o'z ovuliga olib ketishga ruxsat beriladigan erkin olomon-poygaga saqlab turardi. Olomon-poygani hamma kutardi, chunki u musobaqaning cho'qqisi edi, istagan chavandoz unda qatnasha olardi. Har kim ham o'z baxtini sinab ko'rishni istardi.

May quyoshi esa uzoqda, qozoq yerlarida sekin cho'kmoqda edi. Barkashdek oftob xuddi tuxum sarig'iga o'xshardi. Qarasang, ko'zing qamashmasdi.

Qirg'izlar va qozoqlar to kechga qadar ot choptirib, egarlardan engashib, uloqqa chang solishar, uni bir-birlaridan yulqib olishib, goh suron ko'tarishar, goh g'uji bo'lib olishar, goh qiyqirishib yana tarqalib ketishar edi.

Cho'ldagi soyalar uzayganda qariyalar nihoyat olomon-poygani boshlashga ruxsat berishdi. Uloq o'rtaga tashlandi. «Olomon!»

Hamma birdan tashlanib, echkini yerdan ko'tarib olishga urindi. Lekin ur-yiqit to'polonda un olish oson emasdi. Otlar telbalanib gir aylanishar, tishlarini irjaytirib bir-birlarini tishlashar edi. Gulsari bu ur-yqitda qiynalari, keng maydonga chiqqisi kelar, ammo Tanaboy uloqni hech qo'lga tushira olmas edi. Birdan: «Ushla-a, qozoqlar olishdi!» degan kuchli ovoz yangradi. Otlar girdobida gimnastyorkasi dabdala bo'lib ketgan yosh qozoq quturib ketgan to'riq otda otilib chiqdi. U taqimiga uloqni qistirib olib, otni choptiriganicha ketdi.

— Ushla-a! Ketdi qora to'riq! — deb hamma qichqirdi quvishga tashlanib. — Tezroq, Tanaboy, faqat sen quvib yeta olasan!

Qora to'riq otdagi qozoq uzangining ostida selkillab osilib borayotgan uloq bilan to'ppa-to'g'ri quyosh qizarib botayotgan tomonga ketib horardi. Go'yo yana biroz chopsa ana shu alangananayotgan quyoshga uchib kirib, o'sha yerda qizil tutun bo'lib erib ketayotgandek tuyulardi.

Gulsari Tanaboy nega jilovini tortib borayotganini tushunmasdi. Lekin egasi qozoq yigitning ta'qib qilib borayotgan sonsiz-sanoqsiz chavandozlardan ajralib olishini, unga yordamga oshiqayotgan bir to'da urug'doshlaridan uzoqroq ketishini kutish kerakligini bilardi. Ular to'riq otqi chopqir otlar bilan o'rabi olishsa bormi, qo'lidan boy berilgan o'ljani hech qanday kuch bilan qaytarib bo'lmasdi. Faqat yakkama-yakka kurashdagina biron muvaffaqiyatga umid bog'lash mumkin edi.

Payt poylab, Tanaboy saman yo'rg'aning boshini qo'yib yubordi. Gulsari quyosh nuri ostida o'zi tomon yugurib kelayotgan yer ustida uchib borardi, dukur-dukur ovozlar ortda qolib, uzoqlasha boshladi, qora to'riqqacha bo'lgan masofa esa qisqara berdi. Qora to'riq og'ir yuk bilan chopib borardi, uni quvib yetish uncha qiyin emasdi. Tanaboy saman otqi qora to'riqning o'ng tomoniga olib o'tdi. Otning o'ng biqinidagi chavandoz taqimiga qistirib olgan uloq osilib borardi. Mana, tenglasha boshladi. Tanaboy echkinining oyog'idan ushlab tortib olish uchun egardan engashdi. Lekin qozoq o'ljani chaqqonlik bilan o'ng tomonidan chap tomonga oshirib o'tkazib oldi. Otlar esa hamon to'ppa-to'g'ri quyosh tomon yelib borishardi. Endi Tanaboy biroz ortda qolishi va chap berib yana quvib yetishi kerak edi. Saman yo'rg'ani qora to'riqdan ayirish qiyin edi, lekin har qalay, bunga erishish mumkin bo'ldi. Gimnastyorkali qozoq uloqni yana boshqa tomonga o'tkazishga ulgurdi.

— Qoyil! — deb zavqlanib qichqirib yubordi Tanaboy.
— Otlar esa hamon quyosh tomon yelib borishardi.
Vaqtni boy berish kerak emasdi, Tanaboy saman otqi qora to'riq ayg'irga yondashtirib, qo'shnisining

egari qoshi ustiga engashdi. Qozoq yigit qutulishga urindi, lekin Tanaboy qo'yib yubormadi. Yo'rg'a otning chaqqonligi va hipchaligi unga qora to'riq ayg'irning bo'yniga deyarli yotib olishga imkon berdi! Shu tarzda u uloqqa qo'l cho'zib, uni o'zi tomon torta boshladи. Unga o'ng tomondan harakat qilish oson edi, buning ustiga, ikkala qo'li bo'sh edi. Mana, u echkining deyarli yarmisini o'ziga tortib oldi.

— Endi ehtiyyot bo'l, qozoq birodar! — deb qichqirdi Tanaboy.

— Bekor aytibsан, bermayman! — deb javob qildi u.

Ular shiddat bilan chopib borayotib ot ustida kurash boshlashdi. Bitta o'ljaga tashlangan burgutlardek uloqqa mahkam yopishib olishib, bir-birlariga o'shqirishar, xirrillashar va bir-birlarini qo'rqtish uchun yirtqichlardek bo'kirishar edi, qo'llari bir-birlarinikiga chirmashib ketgan, tirnoqlari ostidan qon sizib oqar edi. Chavandozlari yakkama-yakka kurashayotganlarida tiqilishib yonmaydon ketayotgan otlar esa qirmizi quyoshni quvib yetish uchun shoshilar, ko'zlar qonga to'lgan edi.

Shunday mardona o'yinlarni bizga qoldirgan ajdollarimizga ofarin!

Uloq endi ikkalasining o'rtasida, chopib borayotgan otlar orasida osilib borardi. Ular indamay, tishlarini tishlariga qo'yib bor kuchlarini ishga solib uloqni tortishar, bir-birlaridan qutulish va chetga chiqib olish uchun ikkalasi ham echkini taqimga bosishga urinardi. Qozoq baquvvat edi. Qo'llari katta, serpay, buning ustiga, Tanaboydan ancha yosh edi. Lekin tajriba — zo'r narsa. Tanaboy o'ng oyog'ini to'satdan uzangidan chiqarib oldi-da, uni qora to'riq ayg'irning biqiniga tiradi. Uloqni o'ziga tortib, ayni paytda oyog'i bilan raqibining otini itarib yubordi. Qozoqning panjasni astasekin yozila boshladи.

Ehtiyyot bo'l! — deb Tanaboyni ogohlantirishga ulgurdi yengilgan qozoq.

Kuchli siltovdan Tanaboyning egardan uchib tushishiga sal qoldi. Lekin o'zini tutib oldi. Shodligidan qiyqirib yubordi. Saman otni birdan keskin burdi-da, halol kurashda qo'lga kiritilgan o'ljani taqimiga bosib qocha

boshladi. U tomon esa bir gala chavandozlar baqirib-chaqirib kelishayotgan edi.

— Gulsari! Gulsari oldi!

Qozoqlar bir to'da bo'lishib, uning yo'lini to'sishga tashlanishdi.

— O'y-bay, jiberme, Tanaboydi tut!

Endi eng muhimmi ularga chap berish va ovuldoshlari-qurshoviga tezroq o'tib olish edi.

Tanaboy tutib olmoqchi bo'lgan kishilardan o'zini chetga tortib, saman otni yana birdan keskin burdi. «Balli, Gulsari, rahmat senga, aqli samanim!» — deb minnatdor bo'lardi u yo'rg'adan. Yo'rg'a o'z egasining salgina egilishini ham payqab, goh u, goh bu tomonga burilib, quvib kelayotgan raqiblariga chap berib borardi.

Yo'rg'a deyarli yer bag'irlagandek chopib keta turib, qiyin ahvoldan chiqib oldi va to'g'riga o'qdek uchib ketdi. Bu orada Tanaboyning ovuldoshlari ham yetib kelishdi, ikki tarafdan va orqadan uni o'rabi olibshib, hammasi birqalashib, zinch to'da bo'lib qochib qolishdi. Lekin quvayotganlar yana oldilaridan chiqib qolishdi. Tag'in burilib qochishga to'g'ri keldi. Goh u, goh bu qanotga tashlanib uchuvchi tezuchar qushlar galasi singari, keng cho'l bo'ylab qochuvchilar va ularni quvuvchi chavandozlar galasi uchib borishardi. Havoni chang-to'zon qoplagan, ovozlar jaranglar, kimdir oti bilan birga yiqilar, kimdir o'mbaloq oshib tushar, kimdir oqsoqlanib o'z otini quvar edi, lekin hammani musobaqaaning zavq-shavqi qamrab olgandi. O'yinda hech kim javobgar emas. Tavakkal bilan dovyuraklikning onasi bir...

• • •

Botib borayotgan quyoshning bir chekkasigina ko'rinish turardi, qosh qorayib qolgan, yerni larzaga keltirayotgan olomon-poyga esa moviy oqshomning salqinida hamon davom etardi. Endi hech kim qichqirmas, hech kim hech kimni ta'qib etmas, hamma jo'shqin harakatdan mast bo'lib chopishda davom etar edi. Choplisht maromi va ko'yiga berilib yoyilib ketib borayotgan

chavandozlar oqimi to'lqin kabi tepalikdan tepalikka ko'chib yurardi. Chavandozlarning yuzlaridagi jiddiylik va ularning kamgapligi balki shundandir? Qozoqlar do'mbirasi va qirg'izlar qo'biziining jarangdor ovozini shular tug'dirmadimikin?..

Daryoga yaqinlashib qolishgandi. U oldindagi quyuq changalzorlar ortida xira yiltillardi. Yana ozroq qolgan-di. Daryoning narigi betida o'yin tugaydi, u yog'i esa ovul. Tanaboy va uni qurshab olganlar bir to'da bo'lib chopishardi. Gulsari xuddi qo'riqlab ketilayotgan bosh kemadek o'rtada borardi.

Lekin u charchagan, juda charchagan edi – kun o'ta mashaqqatli bo'ldi. Saman yo'rg'a holdan toydi. Ikki yonboshida ketayotgan ikki yigit uning suvlug'idan ushlab borishar, otni yiqligani qo'yishmasdi. Qolgan-lari Tanaboyni orqadan va yon tarafдан qo'riqlab chopishardi. U bo'lsa egarning oldiga tashlangan uloq ustiga ko'ksini qo'yib yotib olgan edi. Tanaboyning boshi chayqalar, o'zi bo'lsa egar ustida zo'rg'a o'tirardi. Yonida qo'ltiqlab borayotgan chavandozlar bo'lmanaga edi, o'zining ham, yo'rg'aning ham qo'zg'alishiga holi kelmagan bo'lardi. Ilgarilari, ehtimol o'ljani olib shunday qochishgandir, balki, yarador botirni asirlikdan shunday qutqarishgandir...

Mana daryo, mana o'tloq, shag'al toshli keng ke-chuv. Qorong'i tushgan bo'lsa-da, u hali ko'rini turardi.

Chavandozlar chopganlaricha suvgaga otlishdi. Taqalar-ning quloglarni kar qilgudek taqir-tuquri ostida suvni sachratib, yo'rg'a otni narigi qirg'oqqa olib chiqishdi. Olomon poyga tamom bo'lgan edil G'alaba!

Kimdir Tanaboyning egaridan uloqni olib, ovulga chopib ketdi.

Qozoqlar daryoning narigi betida qolishdi.

– Biz bilan uloq chopishganingiz uchun rahmat siz-larga! – deb qichqirishdi qirg'izlar ularga.

– Sog' bo'linglar! Kuzda yana uchrashamiz! – deb javob berishdi qozoqlar va otlarini orqaga burishdi.

Qorong'ilik tushgan edi. Tanaboy mehmondorchilikda o'tirar, saman yo'rg'a esa boshqa otlar bilan birga hovlida bog'log'liq turardi. Minishga o'rgatilgan

birinchi kunni hisobga olmaganda, Gulsari hech qachon bunchalik charchamagan edi. Lekin o'sha paytda u hozirgiga nisbatan nozikkina nihol edi. Ziyofatda u haqda so'z borardi:

- Tanaboy, Gulsari uchun qadah ko'taraylik: agar u bo'lmasa, bugun g'alabaga erisha olmasdik.
- Ha, qora to'riq ayg'ir arslondek zo'r ekan. Anovi yigit ham juda baquvvat ekan. Yigitlarning istiqboli porloq.
- Rost gap. Gulsarining o'zini tutqizmaslik uchun yer bag'irlab chopishi hali ham ko'z o'ngimda. Qarab turib hayajonimdan nafasim qaytib ketay derdi-ya.
- Nimasini aytasan. Ilgari zamonlarda bunday otda botirlar jangga kirgan bo'larmidi. Ot emas, dul-dul bu!
 - Tanaboy, qachon uni biyalarga qo'ymoqchisan?
 - E-e, u hozir ham biyalarni quvlab yuribdi, lekin hali erta deb o'ylayman. Kelgusi bahorda esa ayni vaqt bo'ladi. Et olishi uchun kuzdan o'z holiga qo'yib beraman...

Kayfi oshib qolgan odamlar olomon poyganing tafsilotlari va saman yo'rg'aning xislatlari to'g'risida gapirishib, uzoq o'tirib qolishdi. Gulsari bo'lsa teri qotib, suvliqni chaynab hovlida turardi. U tongga qadar och holda qantariqlik turishi kerak edi. Lekin uni qiy Nayotgan ochlik emasdi. Yelkalari zirqirab og'rir, oyoqlari ham go'yo o'ziniki emasdek, tuyoqlari qizishib yonar, kallasi esa hamon olomon-poyganing shovqinsuronidan garang edi. Qiyqiriqlar, baqiriqlar hali ham uning qulog'idan ketmasdi. Vaqt-vaqt bilan cho'chib tushar va pishqirib quloqlarini chimirar edi. Maysa ustida ag'anab yotgisi, bir silkinib olgach, yaylovda otlar orasida yayrab yurgisi kelardi. Lekin xo'jayini uzoq o'tirib qoldi.

Ko'p o'tmay xo'jayini qorong'ilikda sal-pal gandiraklab chiqib keldi. Undan qandaydir o'tkir, achchiq hid anqirdi. Tanaboy bunday holatga juda kam tushardi. Oradan bir yil o'tgach, saman yo'rg'a doim mana shunaqa hid anqib turadigan odamning qo'liga tushib qoladi. Shunda u o'sha odamni ham va bu badbo'y hidni ham umrbod yomon ko'rib qoladi.

Tanaboy saman otning yoniga keldi, yag'rinini silabsiyapadi, terlikning ostiga qo'lini suqib ko'rib dedi:

— Biroz sovuding shekilli? Charchadingmi? Men ham o'lguudek charchadim. Lekin bunaqa o'grayib qarama menga, axir ichsam sening sog'liging uchun ichdim. Bayram. Shunda ham qittak ichdim. Men o'z o'Ichovimni bilaman. Sen buni hisobga olib qo'y. Urushda ham me'yorini bilganman. Qo'y, Gulsari, bunaqa o'grayib qarama. Hozir yaylovga ketamiz, dam olamiz...

Xo'jayin ayillarni siqib tortdi, uydan chiqqan odamlar bilan biroz gaplashib turdi, so'ng hammalari otlariga minishib, tarqalib ketishdi.

Tanaboy ovulning uyquga ketgan ko'chalari bo'ylab borardi. Atrof jimjit. Derazalar qop-qorong'i. Dalada eshitilar-eshitilmas traktor tirillardi. Tog'lar ustida oy turar, bog'larda gullagan olmalar oqarib ko'rindi, qayerdadir bulbul chahchahlardi. Nima uchundir butun ovulda atigi bitta bulbul bor edi. U o'zi sayrab, o'zi tinglar keyin jimib qolar, so'ng yana chahchahlay boshlardi.

Tanaboy saman yo'rg'ani to'xtatib turdi.

— Biram chiroyli, — dedi u ovoz chiqarib. — Munchayam jimjit-al Faqat bulbulgina sayramoqda. Tushunyapsanmi, Gulsari, a? Qayoqdan tushunarding. Sen yilqilarning oldiga borishing kerak, men bo'lsam...

Ular temirchilik ustaxonasidan o'tib ketishdi, bu yerda eng chekkadagi ko'cha bilan yurib daryoga chiqishlari, undan keyin esa yilqilar uyuriga borishlari kerak edi. Lekin xo'jayini nima uchundir ot boshini boshqa tomonga, o'rtadagi ko'chaga burdi, uning oxirida o'sha ayol yashaydigan hovli yonida to'xtadi. Ko'pincha qizcha bilan birga chopib yuradigan laycha yugurib chiqdi, biroz vovulladi-da, dumini likillatib tinchib qoldi. Xo'jayin egar ustida jim o'tirar, nimanidir o'ylar edi, so'ng bir xo'rsindi-da, istar-istamas jilovni siltadi.

Yo'rg'a oldinga yurib ketdi. Tanaboy uni daryo to-monga burdi va yo'lga chiqib olganidan so'ng otning yurishini tezlashtirdi. Gulsarining o'zi ham yaylovga tezroq yetib olgisi kelardi. Ular o'tloq bilan ketishdi. Mana, daryoga ham yetib kelishdi, qirg'oqda taqalari toshga urilib taraqlay boshladi. Suv muzday, shovul-

lar edi. Suvning qoq o'rtasiga kelganlarida xo'jayin ot jilovini qattiq tortib, keskin orqaga burdi. Gulsari xo'jayinini adashgandir, deb o'ylab, boshini siltadi. Ular orqalariga qaytishlari kerak emasdi. Hadeb yuraveradimi? Lekin xo'jayini uning biqiniga qamchi bilan tushirdi. Gulsari kaltak yeyishni yoqtirmasdi. U suvlug'ini asabiy chaynab xo'jayiniga istar-istamas bo'ysundi va orqasiga burildi. Yana o'tloq orqali, yana o'sha yo'l bilan o'sha hovli tomon jo'nashdi.

Hovli oldiga kelganlarida xo'jayini egar ustida yana tipirchilab qoldi. Suvluqni goh u yoqqa, goh bu yoqqa tortar, uning nima qilmoqchiligin tushunib bo'lmasdi. Darvoza oldida to'xtashdi. Sirasini aytganda, darvozanning o'zi yo'q edi. Unda faqat qiyshaygan ustunlargina qolgandi. Yana laycha chopib chiqdi. Biroz vovulladi-da, dumini likillatib tinchib qoldi. Hovli tip-tinch va qop-qorong'i edi.

Tanaboy egardan tushib, yo'rg'ani jilovdan ush-laganicha yetaklab hovliga kirdi, derazaga yaqinlashib borib, oynani chertdi.

— Kim u? — degan ovoz chiqdi ichkaridan.

— Bu men, Bibijon, och, eshityapsanmi, menman!

Uyda chiroq yondi va derazalar xira yorishdi.

— Sizga nima bo'ldi? Bemahalda qayoqdan kelyapsiz? — deb eshik oldida Bibijon paydo bo'ldi. U yoqasi ochiq ko'yakda, qop-qora sochlari yelkasiga tushgan edi. Undan badanning iliq hidi va notanish o'tning g'alati isi kelardi.

— Kechir, — sekin gapirdi Tanaboy. — Olomon poy-gadan kech qaytdik. Charchadim. Otning ham tinkasi qurigan. Uni qantarib qo'yish kerak, o'zing bilasan, yaylov uzoq.

Bibijon indamadi.

Uning ko'zlar oydinda zilol suv tubida ko'ringan toshlar kabi yalt etib yondi-yu, yana so'ndi. Saman yo'rg'a juvonning unga yaqin kelishini va bo'ynini silab-siypashini kutardi, lekin u bunday qilmadi.

— Sovuq, — Bibijonning yelkalari silkindi. — Nega turibsiz? Unday bo'lsa kira qoling. O'ylab topganingizni qarang-u, — deb sekin kuldji u. — Siz bu yerda ot

ustida tipirchilab turganingizda, men ham bo'larimcha bo'ldim. Bolaga o'xshaysiz.

— Men hozir. Otni bog'lay.

— Huv anovi yerga, devor yonidagi burchakka bog'lab qo'ya qoling.

Xo'jayinning qo'llari hech qachon bunchalik titramagandi. U suvluqni chiqarishga shoshilar, ayillarini darrov bo'shata olmasdi. Ayilning birini pitcha bo'shatdi, ikkinchisini esa esdan chiqarib qoldirdi.

U juvon bilan birga ketdi, ko'p o'tmay derazalardagi chiroq o'chdi.

Begona hovlida turish saman otga g'alati tuyulardi.

Oy butun yog'dusini sochardi. Gulsari devor osha qarab, osmonga bo'y cho'zgan, oqimtir-ko'kish shu'laga chayib olingan tungi tog'larni ko'rardi. U quloqlarini dikkaytirib tinglardi; ariqda suv shildirardi. Uzoqda dalada hamon o'sha traktor tirillar, bog'larda esa hali ham o'sha yolg'iz bulbul xonish qilardi.

Qo'shni hovlidagi olma daraxti butoqlaridan oppoq gul yaproqlari to'kilib, otning kallasi va yoliga sekin qo'nardi.

Tun yorishib borardi. Saman ot tanasining og'irligini goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga solar, tik turib xo'jayinini sabr-toqat bilan kutar edi. Hali yana ko'p marta tunlarni tongga ulab, bu yerda turishini bilmasdi u.

Tanaboy tongga yaqin uydan chiqdi, iliq qo'llari bilan Gulsarining og'ziga suvluq sola boshladи. Endi uning qo'llaridan ham o'sha notanish o'tning g'alati isi kelardi.

Bibijon Tanaboyni kuzatishga chiqdi. Uning pinjiga suqildi, Tanaboy uni uzoq o'pdi.

— Mo'ylovingizni sanchib oldingiz, — deb shivirladi u. — Ildam bo'ling, qarang, tong yorishib qoldi. — U ketmoqchi bo'lib o'girildi.

Bibi, bu yoqqa kel, — deb chaqirdi uni Tanaboy. — Menga qara, buni bir silab-siypab qo'y, erkala, — deb imo qildi u saman yo'rg'aga qarab. — Bizni xafa qilma sen!

— Voy, esimdan ham chiqibdi-ya, — juvon kulib yubordi. — Buni qarang, ustini olma guli qoplabdi. —

U shirin so'zlarini aytib turib, yułduz qashqali o'sha to'riq qunanning lablari singari ajoyib, silliq va yoqimli qo'llari bilan otni silab-siypadi.

Daryodan o'tgach, xo'jayini o'lan ayta boshladi. Uning qo'shig'i ostida qadam tashlash Gulsariga yoqar, shunda yaylovdagi uyurga tezroq yetib olishga oshiqar edi.

Bu may kunlarida Tanaboyning omadi keldi. Yilqilarni tunda boqish navbatni unga kelgandi. Saman yo'rg'a uchun yangi hayot boshlandi. Kunduzi u o'tlab yurar, dam olar edi, tunda esa xo'jayini yilqilarni pastqam yerga haydab, uni minib, yana o'sha hovli tomon yo'l olardi. Tong g'ira-shirasida ular orqaga, go'yo ot o'g'rilaridek cho'lning kamqatnov so'qmoqlaridan yurishib, pastqamlikdagi otlar tomon shoshilishardi. Bu yerda xo'jayini yilqilarni bir joyga yig'ib, qayta-qayta sanab chiqar, shundan keyingina ko'ngli tinchir edi. Saman yo'rg'aga qiyin bo'ldi. Xo'jayinning bir oyog'i u yoqda, bir oyog'i bu yoqda edi. Tunlari esa yo'liz joylardan chopib yurish oson emasdi. Lekin xo'jayinning irodasi, istagi shu edi.

Gulsarining erki o'zida bo'lganida, uyurdan sira ajralmas edi. Unda ayg'irlilik alomatlari paydo bo'layotgandi. Hozircha-ku to'dadagi ayg'ir bilan murosa qilib kelapti. Lekin kunlar o'tgan sari ikkalasi ham bitta biyaga aylanishib, dam-badam to'qnashadigan bo'lib boryapti. U bo'yinini tik ko'tarib, dumini xoda qilib yilqilar oldida tez-tez o'zini ko'rsatib yuradigan bo'lib qoldi. Qattiq kishnar, achchiqlanar, biyalarning sonidan asta tishlar edi. Bu esa ularga yoqsa kerak, uyur ayg'irlarining rashkini keltirib, Gulsariga suykalishardi. Saman yo'rg'a rosa adabini yerdii, qari ayg'ir beshafqat va urishqoq edi. Lekin tun bo'yi hovlida turishdan ko'ra, bezovtalanib, ayg'irdan qochib yurish yaxshi edi. Bu yerda - hovlida u biyalarni sog'inar, anchagacha tipirchilab turar, yer tepinar, keyin yuvoshlanib qolar edi. Agar anovi hodisa bo'l'maganida, kim biladi, bu tungi safarlar qachongacha davom etardi...

O'sha tunda saman yo'rg'a uyurni qo'msab, egasini kutib, odatdagidek hovlida turar va biroz mudray bosh-

lagandi ham. U tom to'siniga qantarilib qo'yilgandi. Bu yotishiga yo'l qo'ymasdi: har gal mudrab, boshi tushib ketganda, suvluq og'ziga qattiq botardi. Shunday bo'lsa ham uyqu bosardi uni. Havo vazminlashib, qop-qora bulutlar osmonni qoplab olgandi.

Gulsari mudrab, turib, uyqu aralash, go'yo qandaydir bir kuch to'satdan daraxtlarni qulatmoqchi bo'lib silkitayotganini, ular shovullab ketganini payqab qoldi. Shamol guvullab, sigir sog'adigan bo'sh chelakjni taraqlatib hovlida yumalatib, arqondagi kiyim-kechaklarni yulib-yulqib uchirib ketardi. Laycha qayoqqa yashirinshini bilmay tipirchilab g'ingshiy boshladи. Yo'rg'a jahl bilan pishqirdi, qulqolarini dikkaytirib qotib qoldi. U boshini devordan oshirib cho'l tomonga qaradi, u yerdan, zulmat ichidan qandaydir dahshatli narsa guvullab yaqinlashib kelayotgan edi. Bir zumdan so'ng xuddi daraxt qulagandek qars-qurslab ketdi. Momaqaldiroq gulduradi, chaqmoqlar bulutlarni qaychiladi. Sharillab yomg'ir quydi. Saman yo'rg'a qamchi yegandek jilovini uzmoqchi bo'ldi va uyurni o'ylab, dahshatga tushib, jon-jahdi bilan kishnab yubordi. Unda o'z urug'ini xavf-dan saqlashdek azaliy tabiiy sezgi uyg'ongan edi. Ot es-hushini yo'qotib, suvluq, jilov, ayil, jun arqondan – uni bu yerda mahkam ushlab turgan hamma narsadan qutulish uchun isyon ko'tardi. U har qayoqqa tashlanib, tuyoqlari bilan yerni qaziy boshladи va yilqilar sadosini eshitish umidida tinimsiz kishnashga kirishdi. Ammo faqat bo'rongina hushtakchalar va uvullar edi. Oh, o'shanda bog'loqlik joyidan bo'shay olganda edi u!..

Xo'jayin ichki oq ko'ylakda otilib chiqdi, uning ortidan ayol ko'rindi, u ham oppoq ko'ylakda edi. Ular yomg'ir ostida birpasda qorayib ketishdi. Chaqmoq ularning ho'l yuzlari va qo'rquv bosgan ko'zlariga nur sochib, qorong'ilikdagi uyning bir qismini, uning shamolda ochilib-yopilib turgan eshigini ham yoritdi.

– To'xta, to'xta deb chilvirni yechishga urinib otga baqirdi Tanaboy. Lekin ot endi unga bo'ysunmasdi. Saman ot xo'jayiniga yirtqichlardek tashlandi, tuyoqlari bilan devorni qulatdi, u chilvirni uzish uchun tinmay yulqinardi. Tanaboy devorga qapishib, uning yoniga

pisib bordi, qo'llari bilan boshini berkitib, oldinga tashlandi va jilovga osilib qoldi.

— Tezroq yech! — deb qichqirdi u juvonga.

Ayol chilvirni yechgan ham ediki, yo'rg'a sapchib, Tanaboyni hovli bo'ylab sudrab ketdi.

— Qamchini ber tezroq!

Bibijon qamchini keltirgani yugurib ketdi.

— To'xta, to'xta, o'ldiraman! — deb qichqirdi Tanaboy otning tumshug'iga qamchi bilan savalab. U egarda o'tirishi, hozir yilqilar oldida bo'lishi lozim edi. U yoqda nima bo'layotganikin? Dovul otlarni qayoqlarga haydah ketdiykin? Lekin saman yo'rg'a ham yilqilar oldida bo'lishi kerak edi. Hozirning o'zida — qudratli sezgi chorlayotgan xavf-xatarli damlarda tezda yetib borishi lozim. Shuning uchun ham u kishnar va osmonga sapchir, shuning uchun ham u bu yerdan tezroq ketishga shoshilar edi.

Yomg'ir esa chelaklab quyardi, chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburlab yerni larzaga keltirardi.

— Ushla! — deb buyurdi Tanaboy Bibijonga. Juvon jilovini ushlab olganida u egarga sakradi. U otning yolidan ushlab olishi bilan, egarga o'tirishga hali ulgurmasdanoq Gulsari juvonni turtib, halqobga ag'anatib yubordi-da, hovlidan otilib chiqib ketdi.

Gulsari endi na suvluqqa, na qamchiga, na ovozga bo'ysunar, tabiiy sezgi bilangina yo'l topib, bo'ronli tunda shatirlatib yog'ayotgan jala ostida uchib horardi. U endi o'z hukmini yo'qotgan xo'jayinini suvning shovullashi va momaqaldiroqning guldur-gulduri ostida qaynab-toshib oqayotgan soy o'rtasidan, butazorlar orasidan, soyliklar, jarliklardan olib o'tdi. U shiddat bilan olg'a tomon chopar edi. Gulsari hech qachon: katta uloqda ham, olomon-poygada ham o'sha dovulli kechadagidek chopmagan edi.

Quturgan saman uni qayoqqa, qanday qilib olib ketayotganini Tanaboy bilmasdi. Yomg'ir yuzi va bandalarini kuydirayotgan kuchli olovdek tuyulardi unga. Uning miyasini faqat birgina fikr o'yar edi: «Yilqilarga nima bo'ldiykin? Otlar hozir qayerda ekan? Temiryo'l tomonga qochib ketishlaridan Xudo asrasin. Poyezd

halokati! O'zing panohingda saqla. O'zing qo'llab-quvvatla, Xudol Arvochlari qaydasiz, yordam beringlar. Yiqilib tushma, Gulsari, yiqilib tushma. Cho'lga olib chiq, o'sha yoqqa yilqilarga olib bor!»

Cho'lda esa ko'zni qamashtiradigan oq yolqin taratib goh u, goh bu yerda chaqmoq chaqnab turardi. So'ng atrofni qorong'ilik qoplar, mamaqaldiroq gumburlar, yomg'ir aralash shamol tinimsiz savalar edi. Goh yorishar, goh qorong'ilashar, goh yorishar, goh qorong'ilashar edi...

Yo'rg'a osmonga sapchir, og'zini katta ochib kishnar edi. U chaqirar, u chorlar, u izlar, u kutardi. «Qaydasiz? Qaydasiz? Javob bering!» Unga javoban osmon gumburlar, so'ng yana chopish, yana izlash, yana bo'ron qo'yniga otilish...

Havo goh yorishar, goh qorong'ilashar, goh yorishar, goh qorong'ilashar edi...

Bo'ron faqat tongga borib tindi. Bulutlar birin-ketin asta tarqalishdi, lekin sharqda momaqaldiroq hali ham tinmasdi – osmon gumburlar, qarsillar, momaqaldiroqlar bir-biriga qo'shib ketar edi. Ezilib ketgan yerdan bug'ko'tarilardi.

Bir necha yilqichi tarqalib ketgan otlarni to'plab, tevarak-atrofda izg'ib yurishardi.

Tanaboyni esa xotini izlab yurardi. To'g'rirog'i, kutib o'tirardi. U tundayoq qo'shnilar bilan birga otga minib, eriga yordam berishi uchun choppandi. Ular yilqilarni topishdi, jarlikda ushlab qolishdi. Lekin Tanaboy yo'q edi. Adashib qolgandir deb o'ylashdi. Ammo u erining adashmaganligini bilardi. Shuning uchun ham qo'shnisining o'g'li: «Huv ana eringiz, Jaydar opa... Huv ana kelyapti!» deb quvonib qichqirib, u tomon otini choptirib ketayotganida, Jaydar joyidan ham qo'zg'almadi. Daydi erining qay ahvolda qaytib kelayotganligiga ot ustida jimgina qarab turardi.

Tanaboy bir tunning ichida oriqlab ketgan saman ot ustida jiqla ho'l ichki ko'yakda, vajohatli bir ko'rinishda jimgina qaytib kelardi, Gulsari o'ng oyog'iga oqsardi.

– Biz bo'lsak sizni qidirib yuribmiz! – quvonib

xabar qildi uning oldiga chopib borgan yigitcha. — Jaydar opa endi tashvishlana boshlagandi...

Eh, bolakay, bolakay...

— Adashib qoldim, — deb to'ng'illadi Tanaboy.

Er-xotin shu tarzda uchrashishdi. Bir-biriga hech narsa deyishmadi. Yigitcha jarlikdagi yilqilarni haydash uchun uzoqlashib ketganidan keyingina xotini sekin dedi:

— Bu nimasi, hatto kiyinishga ham ulgurmabsiz, yaxshiyamki, ishtoningiz bilan etiklaringiz bor. Uyatmasmi? Axir endi yosh emassiz-ku. Ana, bolalaringiz yaqinda ulg'ayib qolishadi, siz bo'lsangiz...

Tanaboy miq etmasdi. Nima ham der edi.

Bu orada yigitcha yilqilarni haydab keldi. Hamma otlar va toylar sog'-salomat edi.

— Uyga ketdik, Oltivoy, — deb yigitchani chaqirdi Jaydar. — Bugun sizlarning ham, bizlarning ham bir dunyo ishimiz bor. Shamol o'tovlarimizni ag'dar-to'ntar qilib tashladi. Yur, yig'ishtirib olaylik.

Tanaboya bo'lsa sekin dedi:

— Siz shu yerda tura turing. Sizga ovqat, kiyim-kechak keltiraman. Odamlarning ko'ziga qanday ko'rinasiz bu ahvolda?

— Huv, anovi yerda, pastda bo'laman, — deb ishora qildi Tanaboy. Ular jo'nab qolishdi. Tanaboy yilqilarni yaylovga haydab ketdi. Uzoq haydadi. Oftob yoyilib, kun ilidi, cho'l bug'lanib jonlandi. Yomg'ir va ko'katlarning hidi anqiy boshladi.

Otlar baland-pastliklardan, jarliklardan shoshilmay lo'killab, sayhonlikka chiqishdi. Bu yerda Tanaboyning ko'zi oldida go'yo boshqa bir olam ochilgandek bo'ldi. Uzoq-uzoqlarda ufq oq bulutlarga burkangandi. Osmon cheksiz, baland va tip-tiniq edi. Bu yerdan juda uzoqda, cho'lda poyezd tutun taratib borardi.

Tanaboy otdan tushib, o't-o'lanlar ustidan yurib ketdi. Yonginasidan to'rg'ay «pir» etib uchdi-da, balandga ko'tarilib, sayray ketdi. Tanaboy boshini quyi solib borardi, to'satdan gurs etib o'zini yerga tashladi.

Gulsari xo'jayinini hech qachon bunday ahvolda ko'rmagandi. U yuztuban yotar, yelkalari yig'idan qalt-qalt qilardi. U nomus va alamdan yig'lardi. Shuning-

dek, umrida so'nggi bor erishgan baxtidan ayrilganini ham bilardi. To'rg'ay bo'lsa hamon sayrardi...

Ertasiga yilqilar tog'lar tomon yo'l olishdi – endi ular bu yerkarda faqat kelgusi yil bahorda qaytishlari kerak edi. Ko'chmanchilar daryo bo'ylab ovul yaqinida-gi sizot pichanzorlardan o'tib borishardi. Qo'y-qo'zilar, sigirlar, yilqilar, yuk ortilgan tuyalar va otlar egarlarida ayollar va bolalar o'tib borishardi. Pahmoq itlar chospishardi. Havoni har xil ovozlar: baqiriqlar, kishnashlar, ma'rashlar larzaga keltirar edi.

Tanaboy o'z yilqilarini keng o'tloqdan, keyin yaqindagina, bayramda xaloyiqning g'ala-g'ovuri, shovqinsuroni hukm surgan tepalikdan haydab borar va ovul tomonga qaramaslikka harakat qilardi. Gulsari bir mahal to'satdan chekkadagi hovli tomon qayrilganida, bu qilib'i uchun qamchi edi. Shunday qilib, ular yulduz qashqali o'sha to'riq qunanning lablari singari silliq va mehribon qo'lli ayolning hovlisiga kirishmadi.

Yilqilar baravariga chopib borishardi.

Saman yo'rg'a xo'jayinning o'lan aytishini istardi, lekin u miq etmasdi. Ovul ortda qoldi. Xayr, ovul. Oldinda tog'lar. Kelgusi bahorgacha xayr, cho'l. Oldinda tog'lar.

VI

Tun yarimlashib qolgandi. Bundan bu yog'iga Gulsari ortiq yura olmasdi. U bu yerga, jarlikka qadar necha marta lab to'xtab-to'xtab, bir amallab yurib keldi, lekin jarlikdan o'tishga endi majoli yetmasdi. Otdan bundan ortiq talab qilish mumkin emasligini keksa Tanaboy tu-shundi. Gulsari azoblanib ingrar, odam kabi ingrar edi. U endi yota boshlaganda, Tanaboy xalaqit bermadi.

Sovuq yerda yotganida ham saman ot kallasini u yoqdan-bu yoqqa tebratib ingrashdan to'xtamasdi. U sovuq qotgandi, butun tanasi qaltirardi. Tanaboy ustidan po'stinini yechdi va uni otning beliga yopib qo'ydi.

– Nima bo'ldi, ahvoling yomonmi? Juda yomonmi? Sovuq qotibsan, Gulsari. Sen hech qachon sovuq qotmas eding-a...

Tanaboy yana allanima deb g'uldiradi, lekin saman yo'rg'a endi hech narsani eshitmasdi. Uning yuragi naq qulog'ining ostida halloslab, zarb bilan gum-gup, gum-gup, gum-gup etib urar – go'yo yilqilar o'zlarini ta'qib qilayotganlardan dahshatga tushib ochayotgandek tuyular edi.

Tog'lar ortidan oy ko'tarildi va tuman ichida osmonda osilib qoldi... Yulduzlar tovushsiz uchar va so'nar edi.

– Sen shu yerda yota tur, men borib quvray terib kelay, – dedi chol.

U bulturgi quruq burgan o'tlarni yig'ib, atrofda uzoq daydib yurdi. Bir quchog'ini terguncha qo'llarini tikandal tirnab ketdi. Keyin, har ehtimolga qarshi, qo'lida pichoq tutib jarlikka tushdi va bu orada yulg'unga duch keldi-yu, chinakam gulxan qiladigan bo'lilik, deb quvonib ketdi.

Gulsari yaqinida yonayotgan olovdan doim qo'rqardi. Hozir esa qo'rqmadi, yonidan issiq va dud urib turardi. Tanaboy qop ustida indamay o'tirar, gulxanga goh yulg'un, goh burgan tashlab, olovdan ko'z uzmay, qo'llarini isitardi. Ba'zan o'rnidan turib, ot ustiga tashlangan po'stinini tuzatib qo'yar va yana olov yoniga o'tirar edi.

Gulsari isinib oldi, qaltirashi to'xtadi, ammo ko'z oldi qorong'ilashar, ko'kragi qisilar, nafas olishga havo yetishmas edi. Shamolda olov goh pasayar, goh kuchayardi. Qarshisida o'tirgan, uzoq vaqtдан beri uning xo'jayini bo'lib kelgan chol esa goh g'oyib bo'lar, goh paydo bo'lardi. Alahsirayotgan saman otga go'yo u egasi bilan birga bo'ronli tunda chopib borayotgandek, o'zi osmonga sapchib kishnayotgandek, yilqilarni qidirayotgandek, ammo ular topilmayotgandek tuyulardi. Oppoq chaqmoqlar yalt-yult chaqnab va o'chib turganga o'xshardi.

Osmo goh yorishar, goh qorong'ilashar, goh yori-shar, goh qorong'ilashar edi.

Qish tugadi. Endi, yashash unchalik og'ir emasligini cho'ponlarga ko'rsatish uchun qish vaqtincha o'rnni bahorga bo'shatib beradi. Issiq kunlar keladi, mollarga jir bitib, et oladi, sut va go'sht mo'l-ko'l bo'ladi, poyga va bayramlar keladi, oddiy kunlar boshlanadi: qo'zilatish-qulunlatish, jun qirqish, yosh molni o'stirish, yaylovdan yaylovga ko'chish, go'sht kombinatiga qo'y-yilqilarni haydab borish, bu ishlar orasida har kimning o'z tashvishi – muhabbat va ayriliq, tug'ilish va o'lim bor... Farzandlarning muvaffaqiyatlaridan odamlar g'ururlanishadi, ularning haqida internatlardan noxush xabarlar olganda: «o'zimning oldimda bo'lganida, ehtimol, yaxshiroq o'qirmidi?» deb kuyib-pishishadi. Nimalar bo'lmaydi deysiz, tashvishlar boshingizdan oshadi va qishki azob-uqubatlar vaqtincha esdan chiqadi. «Yut» keladi, mollar nobud bo'ladi, yerlar yaxmalak bilan qoplanadi, yirtiq, teshik o'tovlar va muzdek molxonalar kelgusi yilgacha svodkalarda va hisobotlarda qolib ketadi. Keyin yana qish bosib keladi – oq tuyasida chopib keladi va tog'dami, cho'ldami, qayerda bo'lmasin, cho'ponni izlab topadi hamda unga o'z hunarini ko'rsatadi. Vaqtincha unutilgan hamma narsani esga tushiradi u. Yigirmanchi asrda ham qish qishligini qiladi...

O'shanda ham xuddi shunday bo'lgan edi. Oriqlab ketgan mollar va yilqilar tog'lardan tushishib, cho'lga yoyilib ketishdi. Bahor. Qishdan omon chiqishdi.

O'sha bahorda ayg'ir Gulsari yilqilar orasida yurardi. Tanaboy endi uni kamdan kam egarlar, unga rahmi kelar, minaverish mumkin ham emasdi – qochirish mavsumi yaqinlashib qolgan edi.

Gulsari yaxshi ayg'ir bo'ladi ganga o'xshardi. Jajjigina qulunlarni xuddi otadek kuzatib yurardi. Ona biya alahlab qolsa, u qulunning bir yoqqa dumalab ketishiga, yoki yilqilardan ajralib qolishiga yo'l qo'ymasdi. Gulsarining yana bir fazilati shu ediki, u otlarni bekordan bekorga bezovta qilishlarini yoqtirmasdi, agar bezovta qilaverishsa, yilqilarni darrov uzoqroqqa haydab ketardi.

O'sha yilning qishida kolxozda o'zgarishlar bo'ldi. Yangi rais yuborishdi. Jo'ra ishlarni topshirdi-da, tuman kasalxonasiga yotdi. Uning yuragi juda zaiflashib qolgandi. Tanaboy ko'p marta do'stini ko'rgani bormoqchi bo'ldi-yu, ammo ishni tashlab ketib bo'larmidi? Cho'pon ko'p bolali onaga o'xshaydi – doim tashvishda bo'ladi, ayniqsa kuz va ko'klamda tashvishi juda ko'p bo'ladi. Mol mashina emaski, murvatini burab ketaversang. Shu tariqa Tanaboy tuman kasalxonasiga bora olmadi. Endi uning yordamchisi yo'q edi. Xotini yordamchi yilqibogaq hisoblanardi – turmush kechirish uchun bir amallab pul topish kerak edi-da axir: mehnat kuniga kam haq to'lansa ham, har holda bir mehnat kuniga qaraganda ikki mehnat kuniga ko'proq haq olinadi-ku.

Lekin Jaydarning qo'lida bołasi bor edi. U qanaqa yordamchi bo'la olardi? Kun-u tun o'zi ko'z-qulqoq bo'lib turishi kerak edi. Tanaboy qo'ni-qo'shnilar bilan gaplashib, yordamchi topgunicha, Jo'raning kasalxonadan chiqib, ovulga qaytganligi haqida xabar keldi. Shunda u xotini ikkisi keyinchalik – tog'dan tushganlarida uni-kiga borishga qaror qilishdi.

Vodiya qaytib tushib, yangi joyga endigina ko'nika boshlaganida, Tanaboy haliga qadar hayajonsiz eslay olmaydigan voqeа yuz berdi...

Yo'rg'a ot dong chiqarsa, oqibati uning uchun yaxshi ham bo'lishi mumkin, yomon ham. Tevarak-atrofga uning dovrug'i qanchalik ko'p taralsa, boshliqlar unga shuncha ko'p ko'z olaytirishadi.

O'sha kuni Tanaboy ertalabdan otlarni yaylovga haydadi, o'zi esa ovqatlanish uchun uyiga qaytdi. Qizini tizzasiga olib, xotini bilan oilaviy ishlar haqida gaplashib, choy ichib o'tirardi.

Internatdagи o'g'lining oldiga, shu bilan birga bir yo'la stansiyaga – chayqov bozoriga ham borish, bolalari va xotini uchun u-bu kiyim sotib olishi kerak edi.

– Unday bo'lsa, Jaydar, yo'rg'ani egarlay, – dedi Tanaboy choydan ho'plab. – Bo'lmasa qaytib kelishga ulgurmayman. Oxirgi marta minib borib kelaman, keyin unga taqilmayman.

– Mayli, o'zingiz bilasiz, – deb rozi bo'ldi Jaydar.

Tashqarida otlarning dupuri eshitildi, kimdir ular tomon kelardi.

Qara-chi, — dedi Tanaboy xotiniga. — Kim ekan u? Xotini tashqariga chiqib qaytib keldi-da, ferma mudiri Ibrohim bilan birga ovuldan yana kimdir kelganini aytdi.

Tanaboy o'rnidan istar-istamas qo'zg'aldi, qizini qo'liga ko'tarib o'tovdan chiqdi. Garchand u yilqichilik fermasining mudiri Ibrohimni uncha yoqtirmasa ham, mehmonni kutib olish kerak edi. Ibrohimni nima uchun yoqtirmasligini Tanaboyning o'zi ham bilmasdi. U boshqalarga qaraganda, xushmuomala edi, ammo shunday bo'lsa ham nima uchundir subutsiz odamga o'xshardi. Eng yomoni shu ediki, hech qanday ish bilan shug'ullanmasdi, faqat hisob-kitob olib borardi. Fermada yilqichilik ishlari o'lida-jo'lida edi: har bir yilqiboqar o'z holiga tashlab qo'yilgandi. Partiya majlislarida Tanaboy bu haqda necha bor gapirgandi, hamma uni ma'qullar. Ibrohim ham qo'shilib, tanqid uchun minnatdorchilik bildirar, lekin keyin hamma narsa yana ilgarigidek qolib ketaverar edi. Yaxshiyamki, vijdonli, halol yilqiboqarlar tanlangan. Ularni Jo'raning o'zi tanlagan edi.

Ibrohim egardan tushib, ochiq yuz bilan qulochini yozdi.

— Assalomu alaykum, xo'jayin! — u hamma yilqiboqarlarni «xo'jayin» deb atardi.

— Vaalaykum assalom! — deb vazmin javob berdi Tanaboy kelganlarning qo'lini olib.

— Sog'-omonmisizlar? Otlar qalay. Tanaka, o'zingiz qalaysiz? — Ibrohim og'zi o'rganib qolgan savollarni yog'dirar, odatdag'i tabassumidan uning semiz yuzi yoyilib ketgan edi.

— Joyida.

— Xudoga shukur. Sizdan ko'nglim to'q.

— O'tovga marhamat.

Jaydar mehmonlar uchun yangi kigiz to'shadi, kigiz ustiga esa echki terisidan qilingan po'stak tashladи. Unga ham Ibrohim iltifot qildi:

— Salom, Jaydar boybicha. Sog'ligingiz qalay? Erin-gizga yaxshi qarayapsizmi?

— Salom, kiringlar, bu yoqqa o'tiringlar.

Hammasi o'tirishdi.

— Bizga qimizdan quy, — dedi xotiniga Tanaboy.

Qimiz ichishdi, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi.

— Hozir eng yaxshi ish — chорvachilik. Hech bo'lma-ganda yozda sut, go'sht bo'ladi-ku — deb mulohaza qilardi Ibrohim. — Dalachilikda yoki boshqa ishlarda umuman hech vaqo yo'q. Shuning uchun hozir yilqilar-u qo'y-qo'zilar yonida bo'lgan ma'qul. To'g'rimasmi, Jay-dar boybicha?

Jaydar bosh silkidi, Tanaboy bo'lsa indamadi. Buni uning o'zi ham bilardi, chорvachilikni qadrlash kerakligiga ishora qilish uchun har bir imkoniyatdan foydalananidan Ibrohimdan ham bunday gapni birinchi bor eshitayotgani yo'q edi. Tanaboyning unga: agar odamlar sut-go'shtli issiqqina joylarga suqiladigan bo'lsa, buning hech yaxshi tomoni yo'q, degisi keldi. Boshqalar-chi? Qachongacha odamlar bekorga ishlashadi? Urushga qadar axir shundaymidi? Kuzda har bir uyga ikki-uch aravadan g'alla keltirildi. Endi-chi? Biror yerdan biron narsa undirish uchun qop ko'tarib yugurib yurishadi. O'zları g'alla yetishtirib, o'zları nonsiz o'tirishadi. Bu yaxshi emas. Faqat majlislar-u pand-nasixatlar bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Quruq gap bilan qorin to'ymaydi. Jo'ra odamlarga ularning mehnatlari evaziga yaxshi so'zdan bo'lak hech narsa bera olmay kelayotganligi uchun ham yurak kasaliga yo'liqdi.

Ammo fikr-xayolini band etgan bu masalalarni Ibrohimga gapirib o'tirishning foydasi yo'q. Tanaboy hozir gapni cho'zishni istamasdi ham. Bularni tezroq kuzatish, ishlarini tezroq bitirish uchun yo'rg'ani egarlash — barvaqtroq qaytish kerak edi. Nega kelishdiykin ular? Lekin so'rab-surishtirish noqulay edi.

— Negadir seni taniyolmayapman inim, — dedi ni-hoyat Tanaboy Ibrohimning hamrohi bo'lgan kamgap yosh yigitga murojaat qilib. — rahmatlik Abal akaning o'g'limasmisan?

— Ha. Tanaka, men o'shaning o'g'liman.

— O', vaqt qanday tez o'tyapti-ya! Yilqilarni ko'r-gani keldingmi?

— Yo'q, biz...

— U men bilan birga keldi, — deb uning so'zini bo'ldi Ibrohim. — Biz bu yerga bir ish bilan keluvdik. Keyinchalik gaplasharmiz u haqda. Qimizingiz, Jaydar boybicha, juda ajoyib ekan. Hidini qarang, qanday o'tkir. Yana bir kosa quying-chi.

Yana u-bu haqda gaplashib o'tirishdi. Tanaboyning dili ko'ngilsiz bir narsani sezib turardi, lekin Ibrohimning bu yerga nima maqsadda kelganligiga sira aqli yetmasdi. Nihoyat, Ibrohim cho'ntagidan allaqanday bir qog'ozni oldi.

— Tanaka, biz sizning oldingizga mana shu ish bilan, manavi qog'oz bilan keluvdik. O'qib ko'ring.

Tanaboy qog'ozni olib ovoz chiqarmay xijjalab o'qirdi, o'qirdi-yu ko'zlariga ishonmasdi. Yirik-yirik harflar bilan qog'ozga shunday deb yozilgandi:

«Farmoyish.

Yilqichi Bekasovga.

Saman yo'rg'a Gulsari minib yurish uchun otxonaga jo'natilsin.

Kolxoz raisi (aji-buji imzo). 1950-yil, 5-mart».

Kutilmaganda ishning bunday tus olishidan esankirab qolgan Tanaboy indamay qog'ozni to'rt bukladi-da, gimnastyorkasining ko'krak cho'ntagiga soldi va ko'zini yer-dan uzmay uzoq o'tirib qoldi. Badani yoqimsiz jimirlab ketdi, ko'ngli behuzur bo'la boshladni. Sirasini aytganda, kutilmagan, tasodifiy hech narsa yo'q edi. Axir, u otlarni vaqt kelganda ishlatish, minib yurish uchun parvarish qilyaptig'da. Bu yillar ichida u qancha-qancha otlarni brigadalarga jo'natdi. Lekin Gulsarini berib yuborishl Yo'q, u hech qachon bunday qilolmaydi. Shuning uchun ham u saman yo'rg'ani qanday qilib olib qolish haqida zo'r berib o'ylar, o'ylaganda ham puxta o'ylab ish qilish kerak edi. O'zini bosishi, vazmin bo'lishi kerak. Ibrohim bezovtalana boshladni.

— Mana shunday arzimagan ish bilan sizning oldingizga keldik, Tanaka, — dedi u nihoyat ehtiyyotkorlik bilan.

— Ma'qul, Ibrohim, — deb xotirjam boqdi unga Tanaboy. — Ish bo'lsa qochib ketmas. Yana qimizdan ichaylik, gaplashib o'tiraylik.

— Ha, albatta, siz aqli odamsiz-ku, Tanaka.

«Aqli! Sening avrab-aldashlaringga uchib bo'pman!» — dedi ichida Tanaboy achchiqlanib.

Yana anchayin suhbat boshlandi. Endi shoshilishning hojati yo'q edi.

Tanaboy kolxozning yangi raisi bilan ilk bor shu tarzda to'qnashdi. To'g'rirog'i, shaxsan o'zi bilan emas, balki uning aji-buji imzosi bilan. Uning o'zini hali yuzma-yuz ko'rmagandi. U Jo'raning o'rniga kelganda Tanaboy tog'da qishlagan edi. Uni qattiqqo'l odam, katta lavozimlarda ishlagan, deyishardi. Birinchi yig'ilishdayoq ishyoqmaslarni qattiq jazolashni aytib ogohlantirib qo'ygan, mehnat kuni minimumini bajar-maganlarni esa sudga beraman, deb do'q qilgan, barcha qiyinchiliklar ko'lxozlarning mayda xo'jaliklardan iborat ekanligi tufayli yuz berayotganligi, endi esa ular yiriklashtirilib, tez orada ahvol yaxshilanishini, uni bu yerga shuning uchun ham yuborishganini, u xo'jalikni ilg'or agroteknika va zootexnikaning barcha, qonun-qoidalariga muvofiq olib borishni — o'zining asosiy vazifasi qilib olganligini aytgan edi. Buning uchun esa hamma agroteknika va zootexnika to'garaklarida o'qishga majbur ekanligi ham ta'kidlanib o'tilgandi.

Chindan ham o'qishni boshlab yuborishdi — plakatlar osib qo'yishdi, leksiyalar o'tkaza boshlashdi. Agar cho'ponlar leksiyalar paytida pinakka ketib qolishayotgan bo'lsa, bu endi ularning ishi.

— Tanaka, biz jo'nashimiz kerak, — dedi Ibrohim nihoyat va Tanaboydan bir narsani kutgandek unga qarab etiklarining sirg'alib tushgan qo'njilarini tortib, tulki telpagini qoqib, u yer-bu yerini tuzata boshladи.

— Gap bunday, ferma mudiri, raisga borib ayt: men Gulsarini bermayman. U uyur ayg'iri. Biyalarga q'o'yamiz.

— Voy-bo'y, Tanaka, biz uning o'rniga besh ayg'ir beramiz, biron ta biya ham qisir qolmaydi. Shu ham gapmi? — deb ajablandi Ibrohim. U ish xamirdan qil sug'urgandek osongina hal bo'layotganidan xursand edi, birdan... Eh, Tanaboyning o'rnida boshqa biron kishi bo'lganida-ku, gapni qisqa qilgan bo'lardi-ya! Ammo Tanaboy Tanaboyligini qiladi-da, u o'zining akasini

ham ayamagan, buni unutmaslik kerak. Ehtiyyotlik bilan ish tutmasa bo'lmaydi. Menga sizning besh ayg'iringiz kerak emas! — dedi-da, Tanaboy terlab ketgan peshonasini artdi va biroz indamay turgach, ochiqchasiga gaplashishga qaror qildi. — Nima, raisingga, minishga ot topilmadimi? Otxonada otlar qurib ketibdimi? Nega endi boshqa ot emas, Gulsari kerak bo'lib qoldi?

Nega bunday deysiz, Tanaka? Rais — bizning rahbarimiz, demak, uni hurmat qilish kerak. Axir u tumanga boradi, uning oldiga ham odamlar kelib turishadi. Rais xalq orasida yuradi, xo'sh, aytaylik...

— Nima, xo'sh? Boshqa ot ni minsadodamalar uni mensimay qo'yishadimi? Yoki rahbar bo'lsa albatta yo'rg'a ot minishi kerakmi?

— Albattami, albatta emasmi, ammo shunday bo'lishi kerak. Mana siz, Tanaka, urushda soldat bo'lgansiz. Siz yengil mashinada, generalingiz yuk mashinasida yurganni, axir? Yo'q, albatta. Generalga — generalligiga munosibi, soldatga esa — soldatligiga yarashasi. To'g'rimi?

— Uning yo'rig'i boshqa, — dedi Tanaboy e'tiroz bildirib, lekin nega yo'rig'i boshqa ekanligini tushuntirib o'tirmadi, ochig'ini aytganda, tushuntira olmasdi ham. U saman yo'rg'a bo'yniga tushgan sirtmoq tor tilayotganini sezib, jahl bilan gapirdi: — Bermayman. Agar ma'qul ko'rmayotgan bo'lsalaring, yilqiboqarlikdan olib tashlanglar. Temirchilik ustaxonasiga boraman. U yerda sizlar mendan bolg'ani tortib ololmaysizlar.

— Nega bunday deysiz, Tanaka! Biz sizni hurmat qilamiz, qadrlaymiz. Siz bo'lsangiz xuddi yosh bolaning gapini qilyapsiz. Axir shu sizga munosibmi? — deb Ibrohim o'tirgan joyida tipirchilab qoldi. Ish pachava bo'ldi shekilli. O'zi va'da bergandi, o'zi maslahat qilgandi, o'zi «to'g'rileyman» deb maqtanuvdi, manavi qaysar nusxa bo'lsa hamma ishni barbod qilmoqchi.

Ibrohim chuqur xo'rsindi-da, Jaydarga murojaat qildi:

— O'zingiz o'ylab ko'ring, Jaydar boybicha, bitta ot nima bo'pti, mayli yo'rg'a bo'lsa ham? Uyurda qanaqa otlar yo'q deysiz — istaganingizni tanlab oling. Ataylab shuning uchun oldingizga odam yuborishgan bo'lsa...

— Sen nega buncha jon koyityapsan o'zi? — deb so'radi Jaydar.

Ibrohim hayron bo'lib tutilib qoldi:

— Bo'lmasam-chi? Tartib-intizom. Menga topshirishdi, men kichik odamman. O'zim uchun emas axir. Men eshakda ham yuraveraman. Mana, so'rang, Abal akaning o'g'lini yuborishdi yo'rg'a ot ni minib kel, deb.

U indamay bosh silkitdi.

— Yaxshi ish bo'lmayapti, — deb davom etdi Ibrohim. — Uni bizga rais qilib yuborishdi. U bizning mehmonimiz, biz butun ovul bir bo'lib ot ni bermasak, xalq nima deydi? Qirg'izlar qachon shunday qilgan?

— Xo'p yaxshi, — deb javob berdi Tanaboy. — Ovul-doshlar bilsin, mayli. Men Jo'raning oldiga boraman. U bir yoqlik qilsin bu masalani.

— Jo'ra berma, deydi, deb o'ylaysizmi? U bilan kelishilgan. Faqat uni uyaltirib qo'yasiz. Qasddan bo'yintoblik bo'lib ko'rinishi mumkin. Yangi raisni tan olmasak, eskisiga arz qilgani borsak. Jo'ra kasal odam bo'lsa. Uning rais bilan munosabatini buzishning nima hojati hor? Jo'ra partiya tashkilotchisi bo'ladi, u rais bilan birga ishlashi kerak. Xalaqt berishning nima keragi bor ularga...

Jo'ra haqida so'z ketganida Tanaboy indamay qoldi. Hamma jim bo'ldi. Jaydar og'ir xo'rsindi.

— Bering, — dedi u eriga, — odamlarni tutib turmang.

— Mana bu aqli gap, allaqachon shunday qilish kerak edi. Rahmat sizga, Jaydar boybicha.

Ibrohim bekorga qayta-qayta minnatdorchilik bildirmagandi yangi raisga. Shundan keyin uncha ko'p vaqt o'tmayoq u ferma mudirligidan chorvachilik bo'yicha rais muovinligiga ko'tarildi...

• • •

Tanaboy egar ustida yerga tikilib o'tirardi, qaramasa ham hamma narsani ko'rib turardi. Gulsari qanday utilgani va unga qanday qilib yangi no'xta urilganini (o'zinikini Tanaboy sira ham bermagan bo'lardi) ko'rib turardi, Gulsarining uyurdan ketgisi kelmayotganini,

Abal akaning o'g'li tutib turgan jilovdan qutulish uchun har tomonga tashlanayotganini, Ibrohim goh u yonidan, goh bu yonidan ot choptirib kelib, qamchi bilan qulochkashlab savalayotganini ko'rib turardi. U yo'rg'a otning ko'zlarini, bu ko'zlar sarosimaga tu-shib, notanish kishilar uni biyalar va qulunlardan, o'z xo'jayinidan ayirib qayoqqa va nega olib ketayotganliklarini tushunmayotganini, kishnaganida uning ochiq og'zidan otilib chiqqan bug'ni, yolini, belini, sag'risini, bel va biqinlaridagi qamchi izlarini ko'rib turardi, butun bastini, hatto oldingi o'ng oyog'ining to'pig'idan yuqorisidagi kichikroq g'urrani ham ko'rib turardi, uning oyoq tashlashlarini, tuyaq izlarini, och-sarg'ish to'riq junlarining so'nggi qiligacha - hammasini ko'rib turar va lablarini tishlab indamay iztirob chekar edi. U boshini ko'targanida Gulsarini olib ketayotganlar tepalik orqasida ko'zdan g'oyib bo'lishgan edi. Tanaboy ingrab yubordi-da, ularning ortidan otini choptirib ketdi.

- To'xtang, qaytara ko'rmang! - dedi Jaydar va o'tovdan yugurib chiqdi.

Chopib ketayotib birdan uning xayolidan, xotinim anovi tunlardagi qilmishlarim uchun saman yo'rg'adan qasos olyapti, degan dahshatli taxmin o'tdi. U otini to'satdan keskin burib, qamchi bilan savalab orqasiga qaytardi. O'tov yonida otni shartta to'xtatdi-da, sakrab tushdi va yuzi burishgan, rangi quv o'chgan, dahshatli bir qiyofada xotinining oldiga chopib bordi:

- Sen nima uchun berib yubor, deding! - deb pichirladi u xotiniga tik boqib.

- O'zingizni bosing! Qo'lingizni tushiring, - dedi xotini va har doimgidek xotirjamlik bilan yerini hovuridan tushirib qo'ydi. - Gapimga qulq soling. Gulsari axir sizning xususiy otingizmi? Shaxsiy otingizmi? O'zingizga tegishli nimangiz bor sizning. Bizdagi hamma narsa kolxozniki. Shu bilan tirikmiz. Saman yo'rg'a ham kolxozniki. Rais esa - kolxozning xo'jayini: nima desa shu bo'ladi. Endi anuv ayol to'g'risida esa ko'nglingizga hech narsa kelmasin, istasangiz, hozir ham ketishingiz mumkin. Ketavering. U mendan yaxshiroq, chiroyliroq, yoshroq. Yaxshi ayol. Men ham beva qolishim mumkin

edi, lekin siz qaytib keldingiz. Qancha kutdim sizni! Mayli, bu to'g'rida gapirib o'tirmaylik ham. Sizning uch bolangiz bor. Ularni nima qilasiz? Keyinchalik nima deysiz ularga? Ular nima deyishadi? Men nima deyman ularga? O'zingiz hal qiling...

Tanaboy cho'lga chiqib ketdi. Yilqilar oldida kechga qadar qolib ketdi. U hamon o'zini bosib olmasdi. Yilqilar yetim bo'lib qolishdi. Tanaboyning qalbi bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Yo'rg'a o'zi bilan birga uning qalbini olib ketdi. Hammasini olib ketdi. Hamma narsa o'zgargandek. Quyosh ham bo'lakcha, osmon ham bo'lakcha, o'zi ham ilgarigi Tanaboy emasdek edi.

U qorong'i tushganda qaytdi. O'tovga indamay qop-qorayib kirib keldi. Qizlari uxbab qolishgandi. O'choqda olov yonardi. Xotini qo'liga suv quydi, keyin ovqat olib keldi.

— Yemayman, — deb rad qildi Tanaboy. So'ng yana shunday deb qo'shimcha qildi: — Changovuzni ol: «Ona tuyaning bo'zlashini» chalib ber.

Jaydar changovuzni oldi, uni lablariga tutdi, barmog'ini ingichkagina po'lat «til»ga tegizdi, unga pulfadi, so'ng nafasini ichiga tortdi. Ko'chmanchilarning qadimiylar kuyi quyilib oqa boshladi. Oq bo'talog'ini yo'qotgan ona tuya haqida qo'shiq. U cho'l-u dashtlarda uzoq kunlar yugurib-yelib yuradi. Bo'talog'ini chaqiradi, qidiradi. Endi uni oqshomlari jarlik yoqalab, ertalab yallangliklarda o'z orqasidan ergashtirib yura olmasligidan, butoqlardan barglarni birgalikda terib yeya olmasligidan, ko'chma qumlar ustida yugura olmasligidan, bahor paytida dalalarni birga keza olmasligidan, uni erkalab, iyib emiza olmasligidan zorlanardi. Qaydasan, qora ko'z bo'talog'im? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti va oyoqlarimdan sirg'alib tushyapti. Qaydasan? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti. Oppoq sut...

Jaydar changovuzni yaxshi chalardi. Tanaboy uni qizlik vaqtida shuning uchun sevib qolgandi.

Tanaboy boshini quyi solib tinglardi va boshini ko'tarib qaramasa ham, yana hamma narsani ko'rib turardi. Xotinining ko'p yillik mehnatdan, issig'-u sovuqdan

dag'allashib ketgan qo'llarini, oppoq oqargan sochlari, bo'ynida, lablari va ko'zlarining atroflarida paydo bo'lgan ajinlarni – hammasini ko'rib turardi. Bu ajinlar ortida o'tib ketgan yoshlik – sochlari yelkasiga tushib turgan sariqmag'iz qizcha va uning o'zi – Tanaboyning o'sha kezlardagi yosh yigitlik davri hamda ular ikkala-sining o'sha yillardagi samimiy yaqinligi ko'zga ko'riniib ketardi. Hozir xotini uning shu yerda ekanligini sezmayotganligini Tanaboy yaxshi bilardi. Jaydar o'z ko'yiga, o'z xayollariga g'arq bo'lgan edi. Xuddi shu damda u yana o'z kulfatlari va azob-uqubatlarining yarmini xotinining hayotida, taqdirida ko'rardi. Ha, bu kulfat va uqubatlarni Jaydar o'z ustiga olgan edi...

... Ona tuya qancha kunlardan buyon yelib-yugurib o'z bolasini qidiradi, chaqiradi. Qaydasan, qora ko'z bo'talog'im? Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti va oyoqlarimdan oqib tushyapti. Qaydasan? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti. Oppoq sut...

Qizlar bir-birlarini quchoqlab uxbab yotishardi. O'tov ortida esa tun qorong'iligidagi bepoyon cho'l, ko'z ilg'amash cho'l yastanib yotardi.

Shu paytda Gulsari otxonada to's-to'polon qilayotgan, otboqarlarga uyqu bermayotgan edi. U otxonaga – otlar qamoqxonasiga birinchi tushishi edi.

VIII

Kunlardan birida Tanaboy ertalab yilqilar orasida o'z saman yo'rg'asini ko'rib qolib, quvonchi ichiga sig'may ketdi. U, no'xtalab qo'yilgan arqonini uzib qochgan bo'lib, ustida egari ham bor edi.

– Gulsari, Gulsari, omomisan? – Tanaboy qo'lida sirtmog'i bilan yugurib bordi va yaqinlashib borib, uni begona yuganda, og'ir uzangili qo'pol begona egar ostida ko'rdi. Uni ayniqsa egari ustidagi qalin duxoba ko'pchik g'azabga keltirdi, go'yo otni erkak kishi emas, balki semiz dumbali xotin minib yurgandek edi.

– Tuf! – dedi Tanaboy va g'azablanganidan tuflab yubordi. Otni tutmoqchi, uning ustidagi mana bu

bema'ni abzal-anjomlarning hammasini uloqtirib tashlamoqchi bo'ldi, lekin Gulsari tutqich bermay qochib ketdi. Saman yo'rg'aning hozir Tanaboy bilan ishi yo'q edi: u biyalarga aylanishardi. Yo'rg'a ularni shu qadar sog'ingan ediki, sobiq xo'jayinini hatto payqamagan ham edi.

«Demak, oxir qochib kelibsanda, tizginni uzibsanda. Balli! Qani, chop, o'ynab qol, o'ynab qol, mayli, men ularga aytmayman» – deb o'yladi Tanaboy va yilqilarning biroz chopib yurishiga erk berishga qaror qildi. Mayli, orqasidan odamlar quvib kelishmaguncha, Gulsari o'z uyidagidek quvnab yura bersin.

– Hayt-hayt-hayt! – deb qichqirdi Tanaboy, uzangiga oyoq tirab va sirtmoqni havoda o'ynatib yilqilarni haydadi.

Biyalar qulunlarini chaqirib qo'zg'alishdi, baytallar o'ynoqlab chopib ketishdi. Shamol ularning yollarini o'ynardi. Ko'katlar bilan qoplanayotgan yer quyosh nuri ostida yashnardi. Gulsari seskanib tushdi, so'ng qaddini rostlab oldi-da, gerdayib chopib ketdi. U uyur oldiga tushib oldi va yangi ayg'irni uyurdan quvib chiqardida, orqaga haydab yubordi, o'zi bo'lsa pishqirib, uyur oldida o'zini ko'z-ko'z qilib o'ynoqlab, yilqilarning goh u yonboshiga, goh bu yonboshiga chopib o'ta boshladi. Uyurning hidi – biyalar sutining hidi, dasht shamolining hidi uning boshini aylantirardi. Ustida bema'ni duxoba yostiqli beso'naqay egarning borligi, zildek uzangilarning biqinlariga urilayotganligi bilan uning ishi yo'q edi. U kecha guvullab o'tayotgan yuk mashinalaridan hurkib, tumandagi qator ot qoziqlarning birida suvlug'ini chaynab turganligini unutgandi. Keyin esa badbo'y aroqxona yonidagi ko'lmanda turgani va yangi xo'jayini o'z ulfatlari bilan chiqqani, ularning hammasidan badbo'y hid burqsib taralgaligini ham unutgan edi. Yangi xo'jayini pishillab, kekira-kekira unga mingandi. Yo'lda ular loy kechishib, bema'ni poyga uyuşhtirganlarini, yangi xo'jayinni qanday surib olib ketganligini va u egar ustida beso'naqay lo'killab borganligini, keyin esa yuganni qattiq tortib, uning boshiga qamchi tushira boshlaganini ham hozir u unutgan edi.

Hammasini unutgandi saman yo'rg'a, hammasini. Uyurning hidi – biyalar sutining hidi, qulunlar hidi, dasht shamolining hidi uning boshini aylantirardi... Saman yo'rg'a chopib yurardi – orqasidan quvib kelayotganlarni tasavvur etmagani holda yelib-chopib yurardi.

Tanaboy yilqilarni avvalgi joyiga qaytargan edi hamki, ovuldan ikki otboqar kelib qoldi. Ular Gulsarini uyurdan olib ketishdi.

Lekin ko'p o'tmay Gulsari yana paydo bo'lib qoldi. Bu gal no'xtasi ham, egari ham yo'q edi uning. U bir amallab yuganini boshidan chiqarib, tunda otxonadan ochgandi. Tanaboy avval kulib yubordi, so'ng jimb qoldi va o'y lab turib, yo'rg'aning bo'yniga sirtmoq tashladi, o'zi tutdi, o'zi jilovlab, ovulga yetaklab ketdi. Qo'shni yaylovdagi yosh yilqiboqardan yo'rg'ani orqadan haydab borishni iltimos qilmoqchi bo'ldi. Yarim yo'lida qochoq yo'rg'a ot ketidan kelayotgan otboqarlarni uchrattdi. Gulsarini ularga topshira turib, Tanaboy hatto po'ng'illab ham qo'ydi:

– Nima, u yoqda nuqul qo'lsizlar to'planganmisizlar? Nahotki raisning otiga tuzukroq qaray olmaysizlar... Qattiqroq bog'langlar uni...

Gulsari uchinchi marta qochib kelganida, Tanaboyning hazilakamiga jahli chiqmadi:

– Nima qilyapsan, ahmoq! Qaysi jin seni bu yoqqa boshlab kelyapti? Ahmoqsan-da, ahmoq! – deb so'kinardi u sirtmoq bilan saman yo'rg'aning ketidan quvib. Yana uni qaytarib olib borib berdi va tag'in otboqarlarni koyidi.

Lekin Gulsari aqli bo'lishni xayoliga ham keltirmasdi, har gal qulay paytdan foydalanib qochib kelardi. Otboqarlarning ham joniga tegdi, Tanaboyning ham...

... O'sha kuni Tanaboy kech yotdi – yaylovdan kech qaytgan edi. Har ehtimolga qarshi, yilqilarni o'tovga yaqin haydab keltirib qo'ydi-da, uxbab qoldi, uyqusi notinch bo'ldi. Kun bo'yi charchagandi. Qanaqadir g'alati bir tush ko'rди: u yana urushda yuribdimishmi, yo qayerdadir qushxonadami, anglash qiyin emish... Hammayoq qon, qo'llari ham yopishqoq qon emish. Tushga kirgan qon yaxshilikka bo'lmaydi, deb o'ylar-

mish u tushida. Qo'llarini biron yerda yuvib olmoqchi bo'larmish. Uni bo'lsa itarib tashlasharmish, mazax qilib kulisharmish, qah-qab urisharmish, chinqirisharmish. Tanaboy esa ularning kimligini bilmasmish. Bir kishi unga: «Tanaboy, qo'lingni qonga yuvyapsan, qonga. Bu yerda suv yo'q, Tanaboy, bu yerda hammayoq qon! Ha-ha-ha, ho-ho-ho, hi-hi-hi!..» – deb kularmish...

– Tanaboy, Tanaboy! – deb yelkasidan silkirdi xotini. – Turing o'rningizdan.

– A, nima?

– Eshityapsizmi, uyurda bir narsa bo'layotganga o'xshaydi. Ayg'irlar urishyapti. Ehtimol, tag'in Gulsari qochib kelgandir.

– Padariga la'nat uning! Tinim bermadi, – dedi Tanaboy va tezgina kiyinib, sirtmoqni oldi va allaqanday to's-to'polon bo'layotgan pastqamlikka qarab chopib ketdi. Tong yorishib qolgandi.

Chopib kelib Gulsarini ko'rdi. Lekin bunisi nima? Oyoqlariga temir kishanlar solingan yo'rg'a hakkalab yurardi. Kishanlar jaranglardi, u gir aylanardi, oyoqlarini osmonga ko'tarardi, ingrardi, kishnardi. Manavi landavur – uyur ayg'iri bo'lsa uni bekordan bekorga tepib tishlar edi.

– Hah, berahm! – Tanaboy yeldek uchib borib, landavurni shunday urdiki, sirtmoqning bandi sinib ketdi. Haydab yubordi. Tanaboyning ko'zlariga yosh keldi. – Seni nima qilishibdi-ya? Kim oyog'ingga kishan soldi-a? Nega bu yoqqa sudralib kelding, badbaxt, tentak?..

«Buni qara-yu – shunday uzoq joydan, daryodan soylik va do'ngliklardan bu yergacha kishanda hakkalab kelibdi, yilqichilarga axir yetib olibdi. Tun bo'yi, ehtimol, sakrab-sakrab yurib kelgandir. Surgundan qochgan maxbusdekk yakka o'zi kishanni jarang-jurung qilib yo'l yurgandir...»

«Qoyil-el» – boshini chayqadi Tanaboy. Saman yo'r-g'ani silab-siypay boshladi, yuzini uning lablariga tutdi. U bo'lsa sekin-asta labini qimirlatar, ko'zlarini yumar edi.

Nima qilamiz endi, a? Bu qilig'ingni tashlasang bo'lardi, Gulsari. Oxiri yomon bo'ladi. Tentaksan, tentak. Hech narsani bilmaysan...

Tanaboy saman yo'rg'ani ko'zdan kechirib chiqdi. Tishlangan yerlari bitib ketishi mumkin. Ammo kishan oyog'ini qattiq shilib yuboribdi. To'piqlaridan qon oqmoqda edi uning. Kishanga qoplangan kigizga kuya tushib chirib ketgan ekan. Suvdan hakkalab o'tganida kigiz tushib ketib, temiri ochilib qolibdi. Ana shu uning oyoqlarini qonga belabdi. «Daqqiyunusdan qolgan bu kishanni hoynahoy Ibrohim chollardan olgan bo'lsa kerak. Bu uning ishi» – deb o'yładi Tanaboy g'azab bilan. Kimniki bo'lardi bo'lmasa? Kishan – eskilardan qolgan. Har bir kishanning maxsus qulfi bo'ladi, kalitsiz ocha olmaysan. Ilgarilari ot o'g'rilar otlarni yaylovlardan haydab ketib qolmasliklari uchun eng yaxshi otlarning oyoqlarini kishanlab qo'yishardi. Oddiy arqon tushovni pichoq bilan kessang – bas, kishanlangan otni esa olib keta olmaysan. Ammo bunday voqealar qachonlardir bo'lardi, hozir esa kishan kamyob narsa bo'lib qolgandi. O'tmishdan xotira sifatida biron ta cholda saqlanib qolgan chiqar... Lekin bunisiga nima deyish mumkin, hoynahoy, kimdir maslahat bergen. Ovul yaylovidan uzoqqa ketib qolmasligi uchun saman yo'rg'ani kishanlab qo'yishibli. U bo'lsa baribir qochib kelibdi...

Butun oila bir bo'lib Gulsarining oyog'idan kishanni yechib olishdi. Jaydar jilovidan ushlah, yo'rg'aning ko'zini berkitib turdi, qizlari atrofida o'ynab yurishardi. Tanaboy bo'lsa, hamma asboblarni keltirib, qulfni ochishga kalit tanlash bilan ovora bo'lib, terlab-pishib ketgandi. Temirchilik malakasi, uquvi yarab qoldi. Uzoq pishillab urindi, qo'llari shilinib ketdi, lekin baribir yo'lini topib ochdi.

Kishanni uloqtirib yubordi. Yo'rg'aning oyoqlaridagi qon oqayotgan joylariga malham qo'ydi. Jaydar uni otqoziqqa bog'lagani olib ketdi. Katta qizi singlisini orqasiga opichib olib, ular ham o'tovga yo'l olishdi.

Tanaboy bo'lsa hamon hansirab, pishillab o'tirardi, u qattiq charchagandi. Keyin asboblarni yig'ishtirib, yerdan kishanni oldi. Qaytarib berish kerak, bo'lmasa yana javob berishga to'g'ri kelib qolar. Zanglagan kishanni tomosha qila turib, ustaning ishiga qoyil qoldi. Juda puxta ishlangan. Keksa qirg'iz temirchilarining ishi.

Ha, bu hunar endi yo'qolgan, umrbod unutilgan edi. Kishanlar endi kerakmasdi. Ammo boshqa buyumlarning yo'qolganiga afsuslanasan, kishi. Kumushdan, misdan, yog'ochdan, teridan qanday bezaklar, qanday asbobanjomolar yasashardi! Qimmat ham emasdi, lekin chiroyli buyumlar edi. Har birining o'ziga xos chiroyi bor edi. Endi bunaqlar yo'q. Endi hamma narsani: krujklar, laganlar, qoshiqlar, ziraklar va tog'orachalarni alyumindan yasashadi – qayoqqa borsang, hamma yerda bir xil narsa. Joningga tegib ketadi. Egarsoz ustalarning ham eng oxirgilar qoldi. Qanaqa egarlar qila bilishardiya! Har bir egar o'z tarixiga ega edi: kim, qachon, kim uchun ishlangan va mehnati qanday taqdirlangan. Yaqinda hamma xuddi u yoqda, Yevropadagidek, mashinada yuradigan bo'lsa kerak. Hammasiniki bir xil mashina, faqat nomerlaridan ajratasan xolos. Bobolar hunarini esa unutib yuboryapmiz. Qadimiy qo'l hunarini yo'qotdik, holbuki, inson qalbi ham, ko'zi ham qo'llarda...

Goho Tanaboyni shunday xayollar chulg'ab olardi. Xalq hunari haqidagi mulohazalarga berilib ketardi, uning yo'qolib borayotganligi uchun kimni ayblashni bilmay kuyib-pishar, g'azablanar edi. Holbuki, uning o'zi ham yoshligida qadimdan meros qolgan narsalarning dushmani bo'lgan edi. Bir kuni hatto komsomol yig'ilishida o'tovlarni tugatish haqida nutq ham so'zlagandi. Kimdandir o'tovlar yo'qotilishi kerakligini, o'tov inqilobdan oldingi turarjoy ekanligini eshitgandi. «Bitsin o'tov! Eskichasiga yashashni bas qilaylik!»

O'tovni ham «qutoq qilishdi». Uylar qura boshlashdi, o'tovlar esa sindirib tashlandi. Kigizlarni ham qirqib, har xil narsalarga ishlatishdi, yog'ochlari – keraga va chang'aroqlari esa hovli devorlariga, mol qo'ralariga ishlatildi, o'tin qilindi.

Keyin ma'lum bo'lishicha, uzoq yaylovlarda o'tovlarsiz chorvachilik qilib bo'lmas ekan. Tanaboy bunday so'zlarni aytishga og'zi qanday borganligiga, ko'chma chorvachilik uchun hali o'tovdan durustroq boshqa hech narsa o'ylab topilmaganligiga qaramay, uni nega qoralaganiga endi o'zi ham hayron qolardi. Har bir kichik

bo'lagi ajdodlarning asriy tajribasidan o'tgan o'tov o'z xalqining ajoyib kashfiyoti ekanligini u nega ko'ra olmagan ekan?

U endi qari To'rg'aydan qolgan ilma-teshik, is bosgan o'tovda yashardi. O'tov juda eski edi, faqat Jaydar benihoya sabr-toqatli bo'lgani uchungina undan foydalanib kelayotgan edilar. U bir necha kunlab o'tovni yamab-yasqar, yashab bo'lar holga keltirar, bir-ikki haf-tadan so'ng esa chirik kigiz yana sitilib ketar, yana teshiklar ko'rinish qolar, g'uvullab shamol kirar, qor kirar, yomg'ir o'tar edi. Tag'in Jaydar uni tikish-yamashga kirishardi, bu ishning poyoni ko'rinasdi.

— Qachongacha azob chekamiz? — deb zorlanardi u. — Qarang, kigiz emas bu — kukun, qumdek to'kilib ketyapti. Keragasi bilan uvoqlari nimaga o'xshab qoldi! Aytgani uyalasan. Iltimos qiling, talab eting, loaqal yangi kigiz berishsin. Shu uyning egasimisiz yoki yo'qmi? Axir biz ham odamga o'xshab yashashimiz kerak-ku...

Tanaboy avvallari uni yupatib, va'da qilib yurdi. Ovulda o'ziga yangi o'tov tikib berishlari zarurligi haqida og'iz ochganida esa, keksa ustalar allaqachonlar o'lib ketishgan, yoshlar bo'lsa o'tovni qanday yasash to'g'risida tasavvurga ham ega emasligi ma'lum bo'lib qoldi. O'tov uchun kolxoza kigiz ham yo'q edi.

Bo'limasa jun beringlar, o'zimiz kigiz bostirib olamiz, — deb iltimos qildi Tanaboy.

Qanaqa jun, — deyishdi unga. — Sen nima, osmondan tushdingmi? Junning hammasi plan bo'yicha sotilyapti, xo'jalikda bir gramm ham qoldirish mumkin emas... — So'ng o'tov o'rniqa brezent chodirni taklif qilishdi.

Jaydar qat'iy rad etdi:

— Chodirda yashagandan ko'ra yirtiq-yamoq o'tovda yashagan yaxshiroq.

Ko'pgina chorvadorlar bu vaqtida chodirlarga ko'chib o'tishga majbur bo'lishgandi. Ammo bu o'zi qanaqa turar joy? Na turib yura olasan, na o'tira olasan, na olov yoqib bo'ladi? Yozda haddan tashqari isib ketadi, qishda esasovug'iga it ham chiday olmaydi. Na buyum-larni joylashtira olasan, na o'choq qura olasan, na

chiroyliroq qilib bezata olasan. Mehmonlar kelib qolsa qayoqqa o'tqazishingni bilmaysan.

— Yo'q, yo'q! — deb bosh tortdi Jaydar. — Nima qilsangiz qiling-u, lekin men chodirda yashamayman. Chodir bo'ydoqlar uchun, u ham bo'lsa vaqtinchalikka, bizning esa bola-chaqamiz bor. Ularni cho'miltirish kerak, tarhiyalash kerak, yo'q, chodirda turmayman.

Bir kuni Tanaboy Jo'rani uchratib qoldi va bu haqda unga hammasini gapirib berdi.

— Bu yog'i nima bo'ladi, rais?

Jo'ra g'amgin bosh chayqadi:

— Bu haqda biz ikkimiz o'z vaqtida o'yashimiz kerak edi. Yuqoridagi rahbarlarimiz ham. Hozir bo'lsa xatlar yozyapmiz-ku nima deyishlarini bilmaymiz. Jun — qimmatbaho xomashyo, kamyob narsa, eksport qilinadi, deyishadi. Uni xo'jalikning ichki ehtiyojlariga sarflash maqsadga muvofiq emasmish.

Shundan keyin Tanaboy jimib qoldi. Demak, qisman uning o'zi ham aybdor ekan bu yerda. U o'zining tentakligidan un chiqarmay kula boshladi: «Maqsadga muvofiq emas! Ha-ha-ha! Maqsadga muvofiq emas!»

«Maqsadga muvofiq emas» degan bu chayir so'z uzoq vaqtgacha xayolidan ketmadи.

Shunday qilib, ular qirq yamoq bo'lib ketgan-a, tuzatish uchun oddiy jun zarur bo'lgan eski o'tovda yashayverishdi. Junni esa kolxoz o'tarlarida tonnalab qirqishar edi...

Tanaboy qo'lida kishan ushlaganicha o'z o'tovi oldiga keldi. U shu qadar g'aribona ko'riniб ketdiki, hamma narsaga — o'ziga ham, saman yo'rg'aning oyoqlarini qonatgan manavi kishanga ham g'azabi oshib ketdi, hatto tishlarini g'ijirlatib qo'ydi. Ana shunday g'azabi qaynab turgan bir paytda, yana Gulsarining ketidan quvib kelishayotgan otboqarlar kelib qolishsa bo'ladi.

Olib ketinglar! — deb baqirdi Tanaboy ularga va g'azabdan lablari titray boshladi. — Manovi kishanni esa raisga beringlar, aytинглар, agar u saman yo'rg'ani yana kishanlaydigan bo'lsa, naq men mana shu kishan bilan uning boshini majaqlab tashlayman. Shunday deb aytинглар!

U bekorga shunday degan edi, albatta. Attang! Chunki uning bunday qiziqqonligi va to'g'riso'zligi unga hech qachon yaxshilik keltirmagan edi...

IX

Serquyosh, charog'on kun edi. Bahor quyoshga boqib, ko'zini suzar, bargaklardan sochpopuk taqib bezanar, shudgorlardan bug' chiqar, so'qmoqlarda, naq oyoq ostida maysa o'tlar barq urib yashnardi.

Otxona oldida bolalar chillak o'ynashardi. Chaqqon-gina bir bola chillakni osmonga otadi-da, poylab turib uni chillak dasta bilan qulochkashlab urib, uchirib yuboradi. Oraliqni chillak dasta bilan o'lchay boshlaydi – bir, ikki, uch... yetti... o'n... o'n besh... Injiq hakamlar anovi g'irromlik qilmasligi uchun uning orqasidan gala-gala bo'lib kuzatib borishardi. Yigirma ikkita.

– Avval yetmish sakkiz edi, endi yigirma ikki, – deydi hisoblab bola va yakunlab bo'lgach, shodligini ichiga sig'dirolmay qichqirib yuboradi: – Yuz! Yuz bo'ldi!

– Ur-a-a-a, yuz! – deb boshqalar ham qo'shilishadi.

Demak, naq mo'ljalga urgan. Ortiq ham emas, kam ham. Endi yutqizgan «zuv»lashi kerak. G'olib ganakka – marra chizig'iga boradi-da, u yerdan chillak otadi. Tag'in ham uzoqroqqa tushadigan qilib otadi. Hamma chillak tushgan joyga qarab chopadi, u yerda chillakni yana bir bor uradi, xullas, shu tarzda uch marta uriladi. Yengilgan bolaning yig'lab yuborishiga sal qoladi – u shuncha uzoq yerga «zuv»lab borishi kerak! Lekin o'yin qonuni qat'iy. «Nega turibsan, qani zuvla!» Zuvlovchi o'pkasini to'ldirib chuqur nafas oladi-da:

*Oqboy, Ko'kboy,
Buzoqlarni haydama.
Haydasang-u yetmasang,
Balalarga aytaman – zu-u-u-uv... –*

deya chopib ketadi.

Uning kallasi g'ovlay boshlagan bo'lsa-da, «zuv»lashda davom etadi. Ammo chiziqqacha yetkaza olmaydi.

Orqaga qaytib, yana boshqatdan boshlash kerak. Yana yetkaza olmaydi. G'olib tantana qiladi. Nafasing yetmayaptimi – opichib bor! U zuvlovchiga opichib oladi, unisi bo'lsa eshakdek ko'tarib ketadi.

– Qani, tezroq, ildamroq yur! – deb oyog'i bilan niqtaydi minib olgan bola. – Bolalar, qaranglar, bu mening Gulsarim. Qara, u qanday yo'rg'alab boryapti...

Gulsari bo'lsa devor ortida, otxonada turgandi. Toliqqandi. Negadir bugun uni egarlashmadi ham. Ertabdan beri yem-xashak ham berishmadi, sug'orishmadi ham. Esdan chiqarib yuborishdi shekilli. Otxona allaqachon bo'shab qolgandi, aravalarni ham olib ketishgan, otliqlar tarqalishib, otxonada uning bирgina o'zi qolgan edi.

Otboqarlar otxonani tozalashar, bolalar devor orqasida qiy-chuv ko'tarishib o'ynashar edi. Gulsari hozir cho'lga, yilqilarning oldiga borsa! Keng yalandliklar ko'ziga ko'rinish ketdi... Bepoyon cho'lda yilqilar erkin daydib yurbanligini ko'z oldiga keltirdi. Kulrang g'ozlar ustidan uchib o'tishyapti, qanotlarini qoqishyapti, o'z orqalaridan ergashishga chorlashyapti.

Gulsari bir silkinib, arqonni uzishga urinib ko'rdi. Yo'q, qo'shqavat zanjir bilan uni mahkam bog'lab qo'yishibdi. Ehtimol, o'zinikilar eshitib qolar? Gulsari derazaga kallasini cho'zib, oyoq ostidagi taxtani tepib: «Qaydasizla-a-r?»... degandek bo'g'iq ovozda cho'zib kishnab yubordi.

– Ovozingni o'chir, shayton, kishnab bo'lding! – dedi otboqar chopib kelib va unga belkurakni o'qtaldi. So'ng eshik orqasidagi allakimga murojaat qilib qichqirdi:

– Olib chiqaymi?

– Olib chiq! – deb javob berishdi unga hovlidan.

Mana, ikki otboqar yo'rg'ani hovliga olib chiqishdi. Uh, buncha yorug'! Havo qanday yaxshil Saman yo'rg'aning yupqa burun parraklari ko'klamning sarxush etuvchi havosidan titray boshladi. Barglarning nim achchiq hidi, nam tuproq isi kelyapti. Tanasida qon qaynayapti. Qani endi hozir chopib ketsa. Gulsari yengilgina sakrab qo'ydi.

— Tek, tek! — birdaniga bir necha ovoz uni to'xtatdi.

Nega bugun uning atrofida odamlar bunchalik ko'p? Kulrang xalat kiygan, yenglari qayrilgan, qo'llari baquvvat, jundor kishi oq lattaga qanaqadir yaltiroq buyum-larni terib qo'yamoqda. Ular quyosh nuri ostida ko'zlarni qamashtiradigan darajada yaltiraydi. Boshqalari arqon ushlab turishibdi. Iye, yangi xo'jayini ham shu yerda-kul Keng galifedagi semiz oyoqlarini kerib, gerdayib turibdi. Hammaniki kabi uning ham qoshlari uyulgan bo'lib, faqat yenglari shimarilmagan edi. Bir qo'lini beliga tirab olgan, ikkinchisi bilan kitelidagi tugmalarini aylantirib o'ynamoqda. Kecha undan yana o'sha badbo'y hid anqigandi.

— Xo'sh, nega qarab turibsizlar, boshlanglar! Boshlasinlarmi, Jo'raqul Oldanovich? — deb murojaat qildi raisga Ibrohim. U indamay bosh silkidi.

Qani boshlanglar! — dedi-da, Ibrohim shoshib-pishib, ottona darvozasidagi mixga tulki teri telpagini ilib qo'yadi. Telpak go'ng ustiga dumalab tushib ketadi. Ibrohim uni jirkanib qoqib-silkitib, yana ilib qo'yadi. — Siz sal chekkaroqqa borib tursangiz bo'lardi, Jo'raqul Oldanovich, — dedi u raisga. — Tag'in, kim bilsin, tuyog'i tegib ketishi ham mumkin. Ot — ahmoq maxluq, shikast yetkazishi hech gapmas.

Bo'ynidagi qil arqonni his etgach, Gulsari bir seskanib tushdi. Tikandek arqon. Arqonni sirg'aluvchi sirtmoq qilib ko'kragi ustidan bog'lashdi, uchini ustidan oshirib yonboshiga tashlashdi. Nima kerak ularga? Negadir arqonni orqa oyog'iga solib, to'pig'idan o'tkazishyapti, oyoqlarini tushovlashyapti. Gulsari asablana boshladи, pishqirdi, ko'zini ola-kula qildi. Nima qilganlari bu?

— Tezroql — deb shoshirdi Ibrohim va kutilmaganda ingichka ovoz bilan chiyillab yubordi: — Yiqit!

Ikki juft baquvvat jundor qo'l arqonni zarb bilan o'zları tomonga tortdi. Gulsari ildizi qirqilgan daraxtdek yerga gursillab yiqilib tushdi. Quyosh gir aylanib ketdi, zarbdan yer gumburladi. Bu nimasi? Nega u yonboshlab yotibdi? Nega odamlarning yuzlari yuqori tomon g'alati cho'zilib ketgan, nega daraxtlar balandga ko'tarilgan?

Nega u yerda bunday noqulay vaziyatda yetibdi? Yo'q, bunaqasi ketmaydi!

Gulsari kallasini ko'tarib bir silkindi, butun tanasi bilan qo'zg'alishga harakat qildi. Arqonlar uning oyoqlarini qorniga tortib, terisiga botib ketdi. Saman yo'rg'a ijirg'anib, bog'lanmagan bitta orqa oyog'ini jongahdi bilan siltay boshladidi. Arqon tortildi, chirsilladi.

— Ustiga tashlan, bos, ushla! — deb tipirchilab qoldi Ibrohim.

Hamma otga tashlandi, tizzalari bilan bosishdi.

— Boshini, boshini yerga bosinglar! Bog'la! Tort! Ha, shunday. Tezroq bo'lsanglar-chi! Mana bu yeridan yana bir o'tkaz. Tort, yana bir tort, tag'in. Ha, balli. Endi bu yeridan ilintir, tugun qilib bog'la! — deb tinmay chiyillardi Ibrohim.

Saman yo'rg'aning oyoqlarini arqon bilan tobora qisishib, to hammasi qattiq bir tugun bo'lib yig'ilmaguncha tortishaverishdi.

Gulsari oyoqlarini chirmab olgan arqondan qutulish uchun hamon urinib, bo'yni va kallasiga o'tirib olgan odamlarni itqitib tashlab, qattiq ingrab yubordi. Lekin odamlar uni tag'in tizzalari bilan bosa boshladilar. Yo'rg'aning terga botgan tanasi changak bo'lib, tomirlari tortishib, oyoqlari uvishib qoldi. Shunda u taslim bo'ldi.

— Uf-f, xayriyat-ey!
— Xo'p kuchi bor ekan-da!
— Traktordek kuchi bo'lganida ham endi qimir eta olmaydi!

Shu payt xo'jayinning o'zi saman yo'rg'aning yoniga yugurib kelib, uning bosh tomonida cho'qqayib o'tirib oldi. Yana kechagi aroqning hidi gup etdi va go'yo uning oldida ot emas, balki odam — ashaddiy dushmani yotgandek oshkora nafrat va tantana bilan tirjaydi.

Terlab-pishib ketgan Ibrohim ro'molchasi bilan artina-artina uning yoniga o'tirdi. Rais ikkalasi yonma-yon o'tirishib, bundan keyin yuz berishi lozim bo'lgan hodisani kutib, papirosh cheka boshlashdi.

Hovlining orqasida esa bolalar chillak o'yashardi:

*Oqboy, Ko'kboy,
Buzoqlarni haydama.
Haydasang-u yetmasang,
Bolalarga aytaman – zu-u-u-uv... –*

Quyosh hamon ilgarigidek nur sochardi. Yo'rg'a so'nggi marta poyonsiz dashtni ko'rib turgandi, u yerlarda yilqilar erkin daydib yurganligini ko'rayotgandi. Ular ustidan kulrang g'ozlar uchib o'tishyapti, qanotlarini qoqishyapti, o'z orgalaridan ergashishga chorlashyapti... Gulsarining tumshug'iga esa pashshalar yopishgan. Hayday olmaydi...

– Boshlaymizmi, Jo'raqul Oldanovich! – deb so'radi tag'in Ibrohim. Unisi indamay bosh silkidi. Ibrohim o'rnidan turdi.

Hamma yana harakatga keldi, yopirilib bog'langan yo'rg'ani tizzalari va ko'kraklari bilan bosishdi. Uning kallasini tag'in ham qattiqroq yerga bosishdi, choti orasida kimningdir qo'llari g'imirlab qoldi.

Bolalar devor ustiga chiqib chumchuqlardek tizilib olishdi.

- Qaranglar, bolalar, qaranglar, nima qilishyapti.
- Saman yo'rg'aning tuyoqlarini tozalashyapti.
- Bilarkansan, Tuyoqlarinimish! Hech-da!
- Hey, nima bor sizlarga bu yerda, qani, jo'nab qolinglar! – deb qo'l siltadi ularga Ibrohim. – Boringlar, o'ynanglar, pishirib qo'ygani yo'q.

Bolalar devordan sirg'alib tushib ketishdi.

Jimjit bo'lib qoldi.

Gulsari turtki va muzdek bir narsaning tegishidan g'ujanak bo'lib qoldi. Yangi xo'jayini esa uning oldida cho'qqayib qarab o'tirar, nimanidir kutar edi. Birdan kuchli og'riqdan yo'rg'aning ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Voh! Qizg'ish alanga yalt etib yondi-yu, darrov hammayoqni qorong'ilik bosdi.

Hamma ish bitganida ham Gulsari hamon bog'loqlik yotardi. Qon tinguncha bo'shatmaslik kerak edi uni.

Mana, Jo'raqul Oldanovich, ish tamom, – dedi Ibrohim qo'llarini ishqalab. – Endi u hech qayoqqa qochib keta olmaydi. Qochib bo'pti endi. Tanaboya esa parvo

qilmang. Tuf deng... U hamisha shunaqa bo'lgan. U o'z akasini ham siylamagan — qulq qilib, Sibirga jo'natgan odam. U kimga yaxshilikni ravo ko'radi, deysiz...

Ibrohim mamnun bo'lib mixdan tulki teri telpagini oldi, uni silkib qoqdi, silab-siypadi va terlagan boshiga kiydi.

Bolalar esa hamon chillak o'ynashardi:

Oqboy, Ko'kboy,
..... *zu-u-u-uv... -*

— Ha-ha, yeta olmadingmi, qani engash. Chuh, Gulsari, olg'al Ura-a-a, bu mening Gulsarim!

Serquyosh, charog'on kun edi...

X

Tun. Yarim tun. Keksa odam bilan qari ot. Jarlik yorqasida gulxan yonmoqda. Olov shamolda goh pasa-yadi, goh kuchayadi...

Muzlagan qattiq yer saman otning biqinini muzlatadi. Bo'ynini cho'yandek og'ir narsa bosib turgandek, kishanlangan oyoqlari bilan hakkalab yurgan paytla-ridagidek kallasini goh yuqoriga ko'tarib, goh pastga tushirishdan charchadi. Gulsari endi o'sha vaqtidagidek yelib-yugurib chopa olmasdi, zanjir kishanlarni uzib tashlay olmasdi. U paytlarda Gulsari chopganida tuyoqlaridan o't chaqnashi uchun oyoqlarini erkin tashlashni istardi, ko'krak qafasini to'ldirib-to'ldirib nafas olish uchun yer uzra parvoz qilgisi kelardi, yilqilarni chorlab, ovozi boricha kishnash uchun, biyalar va qulunlar u bilan birga bepoyon yovshonzor dasht bo'ylab chopib yurishlari uchun yaylovga tezroq yelib borgisi kelardi, lekin kishanlar yo'l qo'ymasdi. Zanjirlarning jarang-jurungi ostida u surgundan qochgan maxbus singari hakkalab borardi. Hammayoq huvullagan, qop-qorong'i, o'zi yakkayu yolg'iz. Shamol yelib turgan osmonda miltillab oy ko'rinardi. Saman ot hakkalab yurib kallasini osmonga ko'targanida ko'z oldida oy gavdalanardi, kallasini yerga osiltirganida esa oy toshdek dumalab tushardi.

Goh yorug', goh qorong'i, goh yorug', goh qorong'i...
Qarayverib ko'zlar toliqdi...

Zanjirlar jaranglardi, oyoqlar qonga bulanardi. Sakrardi, tag'in sakrardi, tag'in. Hamma yoq bo'm-bo'sh, qop-qorong'i. Kishanda uzoq yurish kerak, kishanda yurish buncha ham qiyin...

Jarlik yoqasida gulxan yonmoqda. Yaxlagan, toshdek qattiq yer saman otning biqinini muzlatadi...

XI

Ikki haftadan keyin yangi yaylovga, yana toqqa ko'chish kerak edi. Butun yoz, butun kuz va qish bo'y, kelgusi ko'klamga qadar shu yodda bo'lism kerak. Hatto bir uydan ikkinchi uyga ko'chish qanchalik mushkul! Shuncha ashqol-dashqol qayoqdan yig'ilarkin? Shuning uchun ham qirg'izlar qadimdan: kambag'al bo'lsang, ko'chib ko'r, deyishgandir.

Hozirdan ko'chishga tayyorlanish kerak edi. Bir dunyo har xil ishlarni qilish: tegirmonga, bozorga, etikdo'zga, internatga o'g'lining oldiga borib keli-shi kerak... Tanaboy bo'lsa suvga bo'kkan nondek bo'shashib yurardi. O'sha kunlari u xotiniga juda g'alati ko'rindari. Erta turib yilqilar oldiga ketardi — xotini gaplashishga ham ulgurmay qolardi. Tushga yaqin qovoqlarini osib, asabiylashib qaytib kelardi. Bir narsani kutgandek, doim quloqlari ding edi uning.

Sizga nima bo'ldi? — deb surishtirardi Jaydar.

U indamasdi, bir kuni ochilib gapirdi:

— Yaqinda yomon tush ko'rdim.

— Mendan qutulish uchun shuni o'ylab topdingizmi?

— Yo'q, chindan ham. Miyamdan ketmayapti o'sha tush.

— Shu kunga qoldikmi? Ovuldagি Xudosizlarning boshlig'i siz emasmidingiz? Kampirlar sizni qarg'ash-masmidi? Qarib qolyapsiz, Tanaboy. Hamma gap shunda. Yilqilarning oldidan aylanib ketmaysiz, yaylovga ko'chish vaqtি juda yaqin kelib qolganligi esa parvoyi-ningizga ham kelmaydi. Axir mening bir o'zim bola-

larni eplay olamanmi? Loaqal Jo'rani ko'rib kelsangiz bo'lardi. Es-hushli odamlar ko'chish oldidan kasallarni ko'rib kelishadi.

— Ulguraman, — deb qo'l siltadi Tanaboy, — keyin.

— Keyiningiz qachon? Nima balo, ovulga borgani qo'rqyapsizmi? Ertaga birga boramiz. Bolalarni olamizda, ketamiz. Men ham ovulga borib kelishim kerak.

Ertasiga yosh qo'shnidan yilqilariga qarab turishni iltimos qilishib, butun oila otlarda yo'lga chiqishdi. Jaydar kichik qizi bilan, Tanaboy kattasi bilan. Bola-larni egarlarning oldiga o'tqazib jo'nashdi.

Ovul ko'chalaridan o'tib borishar, yo'lda uchraganlar va tanish-bilishlar bilan salomlashishar edi. Temirchilik ustaxonasi oldida esa Tanaboy birdan otini to'xtatdi.

— To'xta, — dedi xotiniga. Keyin o'zi egardan tushdi-da, katta qizini xotini mingan otning sag'risiga o'tqazdi.

— Nima bo'ldi? Qayoqqa?

— Men hozir qaytaman, Jaydar. Sen ketaver, Jo'raka ayt, men tezda yetib boraman, idorada shoshilinch ishlar bor, tushlikkacha yopilib qoladi. Ustaxonaga ham birrov kirib chiqish kerak. Ko'chish oldidan taqalarni g'amlab qo'yish kerak.

— Oldinma-ketin borishimiz yaxshi emas-ku.

— Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q. Sen ketaver. Men hozir...

Tanaboy na idoraga, na ustaxonaga kirdi. U to'ppato'g'ri otxonaga qarab yo'l oldi.

Otdan tushib, hech kimni chaqirmay bir o'zi otxonaga kirdi. Ko'zlari qorong'ilikka ko'nikkuncha tomog'i qaqrab ketdi. Otxona bo'm-bo'sh va jimjit, hamma otlar minib ketilgan edi. U yoq-bu yoqqa qarab olgach, yengil nafas oldi. Otboqarlarning birortasini ko'rish uchun yon eshikdan otxona hovlisiga chiqdi. Bu yerda u so'nggi kunlarda ko'rishdan yuragi bezillab yurgan narsasini ko'rdi.

— O'zim ham shundaydir deb o'ylovdim-a, ablalar! — dedi u sekin mushtlarini qisib.

Gulsari, dokaga o'ralgan dumi arqon bilan bo'yniga bog'lab qo'yilgan holda, bostirma tagida turardi. Ke-

rilgan orqa oyoqlari orasida kattaligi quvachadek keldigan yallig'langan tarang shish qorayib ko'rindi. Ot kallasini oxur ustiga osiltirib, qimir etmay turardi. Tanaboy lablarini tishlab ingrab yubordi, yo'rg'aning yoniga bormoqchi bo'ldi-yu, lekin jur'at eta olmadi. Uni vahima bosdi. Bo'm-bo'sh otxona, huvullagan hovli va bichib qo'yilgan yakka-yolg'iz yo'rg'a otni ko'rib vahimaga tushdi. U ortiga qayrildi va indamay chiqib ketdi. Tuzatib bo'lmaydigan ish sodir bo'lgan edi.

Ular kechqurun o'z o'tovlariga qaytib kelishganlardan keyin, Tanaboy xotiniga hasrat bilan dedi:

— Tushim to'g'ri chiqdi.

— Nima bo'ldi?

— Mehmondorchilikda bu haqda gapirib o'tirmadim. Gulsari endi qochib kelmaydi. Uni nima qilishganini bilasanmi? Bichishibdi, padar la'natlar!

— Bilaman. Shuning uchun sizni ovulga sudragan edim. Siz buni bilishdan qo'rquvdingizmi? Nimasidan qo'rqsiz? Kichkina emassiz-ku!.. Otlarni axir birinchi va oxirgi marta bichishyaptimi? Azaldan shunaqa bo'lgan, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Axir bu har bir kishiga ma'lum-ku.

Tanaboy bunga javoban hech narsa demadi. Faqat:

— Yangi raisimiz, nazarimda, yomon odamga o'xshaydi. Ko'nglim sezib yuribdi, — deb qo'ydi.

— Qo'ysangiz-chi bu gaplaringizni, Tanaboy, — dedi Jaydar. — Sizning yo'rg'a otingizni bichgan bo'lishsa, darrov rais ham yomon bo'lib qoldimi. Nega unday deysiz? U yangi odam bo'lsa. Xo'jalik katta, uni boshqarish qiyin. Ana Jo'ra, endi kolxozlarning ahvolini o'rganishadi, yordam berishadi, deb aftyapti-ku. Qanaqadir rejalar tuzilayotgan emish. Siz bo'lsangiz hamma narsa haqida eldan burun hukm chiqarasiz. Biz, axir, ko'p narsalarni bilmaymiz-ku.

Kechki ovqatdan so'ng Tanaboy uyurga jo'nadi va yarim kechgacha u yerda qolib ketdi. U o'zini koyir, hamma narsani unutishga o'zini majbur etar, lekin kunduzi otxonada ko'rgani miyasidan ketmasdi. U yilqilarni aylanib, cho'l kezarkan, o'ylardi: «Ehtimol, rostdan ham bir odam haqida bunday fikr yuritish kerak emasdir? Bu

bema'nilik, albatta. Ehtimol, qarib borayotganligimdan, yil – o'n ikki oy yilqilarning ketidan yurganligimdan hech narsani ko'rmasman, bilmasman. Ammo qachonga-cha turmush shunaqa og'ir bo'laveradi? Nutqlarga quloq solsang, go'yo hamma narsa yaxshilanib kelayotgandek. Xo'p, mayli, men yanglishyapman, deylik. Xudo yo men yanglishayotgan bo'lay. Lekin boshqalar ham, ehtimol, shunday o'ylashayotgandir...»

Tanaboy cho'lda aylanib yurib o'ylar, biroq o'z shubhalariga javob topa olmas edi. Shunda o'zlarining bir vaqtlar qanday qilib kolxoz tuza boshlaganliklari, xalqqa baxtli turmush va'da qilganliklari, odamlarning nimalar ni orzu qilganliklari esiga tushib ketardi. O'sha orzularning ro'yobga chiqishi uchun qanaqa kurashishdi! Hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib tashlashdi, eskilikka zarba berishdi. Dastlabki paytlar turmush yomon emasdi. Agar manavi la'natni urush bo'limganida ham yana ham yaxshiroq yashashgan bo'lishardi. Endichi? Urushdan keyin mana necha yillar o'tib ketdi-yu, hamon xo'jalikni eski o'tovdek yamab-yasqab yotibmiz. Bir joyini yamasang, boshqa joyidan yirtig'i ko'rinish qoladi. Nima uchun? Nima uchun kolxoz o'sha paytlardagidek o'zingniki emas, go'yo begona? U vaqtarda yig'ilish nimaga qaror qilsa – shu qonun edi. Qonunni o'zları qabul qilishgan va uni bajarish kerakligini bilishardi. Endi esa yig'ilish quruq gapdan iborat bo'lib qoldi. Sen bilan hech kimning ishi yo'q. Kolxozni go'yo kolxozchilarning o'zları emas, kimdir tashqaridan boshqarayotgandek. Go'yo nima qilish, qanday ishslash, xo'jalikni qanday olib borish kerakligi sirt-dan yaxshiroq ko'rindigandek. Xo'jalikni goh unday, goh bunday aylantirib ko'rishadi, lekin hech qanday natija yo'q. Odamlar bilan yuzma-yuz bo'lgani ham qo'rqasan. «Qani ayt-chi, sen partiya a'zosisan, kolxoz tuza boshlaganimizda hammadan ko'p sen vaysagansan, bu narsalar qanday yuz berayotganligini bizga tushuntirib ber-chi?» – deb so'rab qolishlari mumkin. Nima deysan ularga? Loaqal odamlarni bir joyga yig'ib, nimalar bo'layotganligini so'zlab berishsa ham mayli edi. Kimning ko'nglidan nimalar kechayotganligini, qanaqa

fikrlari, qanaqa tashvishlari borligini so'rashsa edi. Rayondan kelayotgan vakillar ham negadir avvalgilariga o'xshamaydi. Ilgari vakil xalqqa aralashardi, hammaga yaqin edi. Endi esa, keldi deguncha idorada raisga baqirib-chaqiradi, qishloq Kengashi bilan esa mutlaqo gaplashmaydi ham. Partiya yig'ilishida so'zga chiqsa, ko'proq xalqaro ahvol haqida gapiradi, kolxozdagi ahvol esa go'yo unchalik muhim emasdek. Ishlanglar, planni bajaringlar, vassalom...

Tanaboy bu yerga bir odam kelganligi, til haqidagi qandaydir ta'limot to'g'risida tinmay gapirganligini esladi. Tanaboy u bilan kolxozning turish-turmushi haqida gaplashmoqchi bo'luvdi, uning ko'zi ola-kula bo'lib ketdi: sizning fikrlaringiz shubhali, dedi. Ha, uning fikrlarini ma'qul topmadi. Nimalar bo'lyapti o'zi?

«Mana, Jo'ra tuzalib ketsin, — dedi Tanaboy o'ziga. — Ko'nglidagi bor gapini to'kib solishga uni majbur qilaman. O'zim ham ochiq gapiraman. Men yanglishayotgan bo'lsm, aytsin, agar yanglishmayotgan bo'lsm-chi? Unda nima bo'ladi? Yo'q, yo'q, unday bo'lishi kerak emas. Men yanglishyapman, albatta. Kimman men? Oddiy yilqiboqarman, cho'ponman. U yoqdagilar esa dono odamlar...»

Tanaboy o'toviga qaytib keldi va uzoq vaqt uxbay olmay yotdi. Hamon bosh qotirardi u. Gap nimada o'zi? Ammo yana o'z savoliga javob topa olmasdi.

Jo'ra bilan shu-shu suhbatlasha olmadi. Ko'chish oldidan ishlar bilan o'ralashib qoldi. Ko'chmanchilar yana ko'klamga qadar, butun yoz, butun kuz va qishni o'sha joylarda o'tkazish uchun toqqa ko'chib ketishdi. Yana qoramollar podasi, yilqilar uyuri, qo'y qo'tonlari daryo yoqalab, o'tloqlar kezib yurib ketishdi. Ko'chko'ron ortilgan karvon yo'lida. Shovqin-suron havoda muallaq turib qolgan. Ayollarning rang-barang ro'mol va ko'ylaklari ko'zga chalinadi, qizlar ayriliq haqidagi qo'shiqlarni kuylaydilar. Tanaboy o'z yilqilarini ulkan o'tloqdan, ovul yaqinidagi do'ngliklardan haydab borardi... U yo'rg'a otida kelib ketadigan o'sha uy, o'sha hovli hamon ovulning bir chekkasida o'shandoqligicha turardi. Yuragi orziqib ketdi. Endi u o'sha juvondan

ham, saman yo'rg'a Gulsaridan ham judo bo'lgan edi. Hammasi orqada qolib ketdi, ko'klamdag'i kulrang g'ozlar galasi singari shovqin solib o'tib ketdi u davrlar...

... Ona tuya ko'p kunlar davomida yelib-yuguradi, bo'talog'ini izlaydi, chorlaydi. Qaydasan, qora ko'zli bo'talog'im? Javob ber. Yelinimdan, tirsillagan yelinimdan oyoqlarimga tizillab sut oqmoqda. Oppoq sut...

XII

O'sha yilning kuzida Tanaboy Bekasovning taqdiri bordaniga o'zgarib ketdi. U dovonning narigi tomonidan qaytib kelib, tez orada yilqilarini tog' oralig'idagi qishlovg'a haydab ketish uchun tog' yonbag'ridagi kuzgi yaylovlarga qo'ndi.

Kuddi shu kunlarda kolxozdan chopar keldi.

— Jo'ra yubordi meni, — dedi u Tanaboya. — Ertaga ovulga kelsin deb aytdi, u yerdan tumanga kengashga borar ekansizlar!

Ertasiga Tanaboy kolxozi idorasiga keldi. Jo'ra shu yerda, partorg xonasida edi. Garchand lablarining gezargani va o'zining ozg'inligidan hali kasallik undan arimaganligi bilinib tursa ham, u ko'klamdagidan ancha sog'lom ko'rindi. U o'zini tetik tutar, ish bilan g'oyat band, atrofini xalq o'rabi olgan edi. Tanaboy do'stini ko'rib quvonib ketdi. Demak, sog'ayib ketibdi, yana ishga tushibdi.

Ular ikkalasi yolg'iz qolishganda, Jo'ra Tanaboya qaradi. Qotib ketgan ozg'in yuzini kafti bilan ishqab:

— Sen, Tanaboy, qarimayapsan, hamon o'shandaysan. Qachondan beri ko'rishmadik — ko'klamdan berimi? Qimiz va tog' havosi zo'r narsa-da... Men bo'lsam, mana, asta-sekin so'lib boryapman. Payti kelganga o'xshaydi... — dedi-da, biroz jimiib, so'ng yana ish haqida so'z boshladi. — Gap bunday, Tanaboy, bilaman, bezbetga qoshiq bersang, bir marta o'rniga, besh marta osh oladi, deysan. Tag'in sening aytganing kelyapti. Ertaga chorvadorlar kengashiga boramiz. Chorvachilikning ahvoli chatoq, ayniqsa qo'ychilikning va xususan bizning kolxozimizning ahvoli juda og'ir. Ish pachava.

Raykom: kommunist va komsomollar – qoloq uchastkالarga, o'tarlarga, degan chaqiriq bilan murojaat qildi. Yordam ber! Huv, o'sha paytda yilqilar masalasida yordam berganding, rahmat, endi yana ko'maklashib yubor. O'tarlarni ol, cho'ponlikka o't.

– Juda shoshqaloqsan-da, Jo'ra, – dedi Tanaboy va birdan jimib qoldi. «Otlarga o'rganib qoldim, – deb o'yladi u. – Qo'ylni boqish zerikarli ish. Oqibati nima bo'larkin?»

– Seni zo'r lamayman, Tanaboy, – dedi tag'in Jo'ra. – Lekin iloj qancha. Partiyaviy topshiriq. Achchig'ing kelmasin. Bir vaqt kelib, do'stlaracha esimga solarsan, hammasiga birdan javob beraman!..

– Ha, vaqt kelganda esingga solib qo'yarman, o'zing ham xursand bo'l maysan! – dedi kulib Tanaboy, Jo'raga hammasini eslatishga to'g'ri keladigan vaqt uncha uzoq emasligini sezmay. – O'tar masalasida esa o'ylab ko'rish kerak, xotinin bilan gaplashib ko'ray...

– Xo'p, mayli, o'ylab ko'r. Ammo ertalabgacha hal qil, ertaga kengash oldidan hisob berish kerak. Jaydar bilan keyin maslahatlashasan, hammasini tushuntirasan unga. Mening o'zim ham bir payti kelib qolganida unga uchrashaman, so'zlab beraman. U aqlli ayol, tushunadi. U yoningda bo'l maganida edi, allaqachon biron yerda bo'yning uzilardi, – deb hazillashdi Jo'ra. – Jaydarning ahvoli qalay? Bolalar-chi?

Ular oila haqida, kasalliklar haqida, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Tanaboy Jo'raga muhim bir narsa haqida gap ochishni mo'ljallar edi, biroq tog'lardan chaqirilgan molboqarlar kirib kelib qolipshdi. Jo'raning o'zi ham soatiga qarab shoshib qoldi.

Demak, shunday. Otingni otxonaga topshir. Ertalab mashinada hammamiz birga ketishga qaror qildik. Biz, axir mashina oldik-ku, yaqinda ikkinchisini olamiz. Ishimiz yurishib ketadi! Men esa hozir jo'nayman, soat yettida raykomga yetib borishga buyruq berilgan. Rais hozir u yerda. Yo'rg'ada kechga qadar yetib olarman, deb o'layman, o'sha mashinadan yomon yurmaydi.

– Iya, Gulsarini sen minib yuribsammi? – deb hayron bo'ldi Tanaboy. – Siylabdi-da rais...

Nima desam ekan. Siyladimi, siylamadimi, har holda uni menga berdi. Bilasanmi nima bo'lganini? – dedi Jo'ra va kulib, qo'llarini kerib qo'ydi. – Gulsari nima uchundir raisni juda yomon ko'rib qoldi. Sira ham aql bovar qilmaydi. Uni o'ziga yaqin keltirmaydi. Unday ham, bunday ham qilib ko'rlik. Hech eplab bo'lmadi. Urib o'ldirsang ham yo'latmaydi. Men minsam yaxshi yuradi. Uni yaxshi o'rgatibsan, minishga. Bilasanmi, ayrim paytlarda yuragimning og'rig'i tutib qoladi, yo'rg'a otga o'tirib bir aylanib kelsam, og'riq birpasda o'tadi ketadi. Birgina shu uchun umr bo'yi partorg bo'lib ishlashga tayyorman, u meni davolayapti! – deb kului Jo'ra yana.

Tanaboy kulmasdi.

- Uni mening ham jinim suymaydi, – dedi u.
- Kimni? – deb so'radi Jo'ra kulgidan yosha langan ko'zlarini arta turib.

– Raisni.

Jo'ra jiddiy lashdi.

- Nima sababdan?
- Bilmayman. Nazarimda, u quruq odam, quruq va johil odam.
- Sening ko'nglingni topish qiyin o'zi... Meni umr bo'yi bo'shangligim uchun koyib kelding. Mana, endi buni ham yomon ko'rkar ekansan... Bilmadim. Men ishga yaqinda chiqdim. Hali tushunib, bilib ololganimcha yo'q.

Ular jimib qolishdi. Tanaboy Jo'rarga kishan haqida, bichish haqida gapirib bermoqchi edi-yu, lekin endi bu narsa unga o'rinsizdek bo'lib ko'rindi. Gap uzilib qolmasligi uchun Tanaboy o'zini xursand qilgan yangilik haqida so'z ochdi:

- Mashina berishgani juda yaxshi bo'libdi-da. Demak, endi kolxozlarga ham mashina kela boshlarkan-da. Kerak, kerak. Vaqtি keldi, esingdami, urushdan avval biz birinchi polutorkani olgandik. Miting bo'lib o'tgandi. Bo'lmasam-chi, kolxozening mashinasi-ya! Sen kuzovda turib nutq so'zlaganding: «Mana, o'rtoqlar, sotsializm samarasil...» deb. Keyinchalik esa uni ham frontga olib ketishdi...

Ha, shunday zamonlar ham bo'lgandi... Quyoshning chiqishidek ajoyib zamon. Avtomashina ham gapmil Chu kanali qurilishidan qaytishgan kishilar o'zлari bilan dastlabki patefonlarni olib kelishganlarida, ovul yangi qo'shiqqa qanday qiziqqandi! Yozning oxirlari edi. Oqshomlari hamma patefoni bor odamlarnikida to'planishar, ularni ko'chaga olib chiqishar, so'ng hammalari qizil durrali zarbdor qiz haqidagi plastinkani qayta-qayta eshitishgani eshitishgan edi. «Ey qizil durrali to'lin oy, qaynatib bersang-chi menga choy!..» Bu ham ular uchun sotsializm samarasini edi...

— Bizning o'zimiz-chi, esingdami, Jo'ra, mitingdan keyin polutorkaga rosa tigilishgandik — mashina liq to'lgan edi! — deb eslardi ruhlanib Tanaboy. — Men bayramdagidek kabina yonida qizil bayroq ko'tarib turardim. Biz shunchaki, biron zaruriyatsiz stansiya tomonga qarab ketdik, u yerdan esa temiryo'l yoqalab boshqa stansiyaga, Qozog'istonga bordik. Parkda pivo ichdik. U yoqqa borishda ham, bu yoqqa qaytishda ham butun yo'l bo'yi hammamiz qo'shiq aytgandik. U yigitlardan hozir oz qoldi — hammasi urushda halok bo'lib ketishdi. Ha... Tunda ham, bilasanmi, o'sha qizil bayroqni qo'limdan tushirmagandim. Tunda uni kim ham ko'rardi? Men bo'lsam qo'limdan tushirmay, hamon ushlab borardim... Bu mening bayrog'im edi. Tinmay ashula aytardim, xirillab qolgandim, esimda... Nega hozir shunday ashulalar aytmaymiz-a, Jo'ra?..

— Qarib boryapmiz, Tanaboy, endi negadir yarashmaydi ham...

— Yo'q, men buni aytayotganim yo'q, biz aytadigan qo'shig'imizni aytib bo'ldik. Yoshlar-chi? Mana men internatga o'g'limning oldiga borib turaman. Qanday ta'lim olarkin u yerda? Hozirdanoq boshliqqa xushomad qilishni biladi. Dada, maktab direktoriga tez-tez qimiz olib kelib turing, deydi. Xo'sh, nega, deyman... O'qishi yomon emas... Qanday qo'shiq aytishlarini tinglab ko'rsang edi. Bolaligimda Aleksandrovkada Yefremovniga batraklik qilgandim, bir kuni u diniy bayramda meni cherkovga olib borgandi. Bizning bolalarimiz ham qollarini yonlariga tushirib olib, yuzlari toshdek qotgan

holda xuddi cherkvdagidek ashula aytishadi. Bir xil ashula aytishadi... Menga yoqmaydi bu. Umuman, endi men ko'p narsani tushunmay qoldim, so'zlashib olsak bo'lardi... Hayotdan ortda qolib ketdim, hamma narsani ham tushunavermayman...

— Mayli, Tanaboy. Boshqa vaqtida gaplashib olamiz, fursat toparmiz, — dedi-da, Jo'ra qog'ozlarini yig'ishtirib, dala sumkasiga sola boshladı. — Lekin sen ko'p kuyinavurma. Men, masalan, aminman, juda aminmanki, qanchalik qiyin bo'lmasin, baribir qaddimizni rostlab olamiz, orzu qilganimizdek yashay boshlaymiz... — U ostonaga yetganida orqasiga qayrilib qarab dedi: — Menga qara, Tanaboy, bir kuni men ko'chalaringdan o'tib qoldim — uying juda huvullab qolibdi. Qaramay qo'yibsan. Sen doim tog'dasan, uying bo'lsa xo'jasiz. Jaydar urush yillari yakka-yolg'iz bo'lsa ham uni hozirgisidan yaxshiroq saqlagandi. Bir borib ko'r. Nima kerak bo'lsa aytarsan, bahorda yordamlashib, shikast rehtini tuzatib berarmiz. Bizning Shomansur ham yozda kanikulga kelganida, hovlingni ko'rib, chidab turolmadi, qo'liga o'roq oldi... Tanakening hovlisidagi burganlarni o'rib tashlayman, deydi. Suvoqlari ko'chib, oynalari singan, chumchuqlar xonalarda xuddi xirmondagidek uchib yuribdi, deydi.

— Uy haqidagi gaping to'g'ri. Shomansurga ham rahmat. Uning o'qishlari qalay?

Ikkinci kursda endi. O'qishi, meningcha yaxshi. Mana, sen yoshlarni gapirding, men esa o'g'limga qarab, hozirgi yoshlар yomon emas, degan fikrga keldim. Uning so'zlaridan bildimki, institutdagilar qobil bolalar ekan. Keyin ma'lum bo'lar, yoshlар bilimdon, o'zlar haqida o'ylab ko'rishar...

Jo'ra otxonaga ketdi, Tanaboy esa o'z uyini ko'rgani jo'nadi. Hovlining hamma yerini aylanib chiqdi. Yozda Jo'raning student o'g'li o'rib tashlagan, chang-to'zon bosib qovjirab yotgan burgan oyog'i ostida shitirlar edi. Uni egasiz, qarovsiz qolganligidan nomusi kelib ketdi. Boshqa chorvadorlarning uylarida qarindosh-urug'lari qolar yoki kimdir qarab turar edi. Uning opa-singlisi boshqa ovullarda yashashar, akasi Qiliboy bilan mun-

sabatlari yomon bo'lib, Jaydarning esa umuman yaqin qarindoshlari yo'q edi. Mana shunday qilib, uy qarovsiz qolib ketgandi. Tag'in uzoq yaylovda cho'pon bo'lib ishlashga to'g'ri kelyapti. Tanaboy ham ikkilanayotgan bo'lsa ham, Jo'ra baribir uni ko'ndirishini, uning so'zini qaytara olmasligini, har vaqtdagidek rozi bo'lismi bilardi.

• • •

Ular ertalab mashinada ovuldan chiqishdi va tuman markaziga jo'nab ketishdi. Yangi uch tonnali GAZ ham-maga yoqdi. «Xuddi podsholardek ketyapmiz-a?» – deb hazillashishardi molboqarlar. Tanaboy ham xursand edi – ko'pdan beri, urushdan qaytganidan buyon mashinada yurmagandi. O'shanda Amerikaning «studebekker»larida Slovakiya va Avstriya yo'llarini kezib chiqqandi. U yuk mashinalari kuchli, uch o'qli edi. «Bizga shundaylari kerak edi-da, – deb o'ylagandi o'shanda Tanaboy. – Ayniqsa, tog' etaklaridan g'allalarni tashib olishga juda bop ekan. Bunaqasi hech qayerda tiqilib qolmaydi». Urush tugagandan keyin bizda ham shunaqa mashinalar bo'lismiga ishongandi. G'alabadan keyin hammasi bo'ladi!..

Ochiq kuzov ustida shamolda gap-so'z qovushmasdi. Tanaboy yoshlarga gap qotmaguncha hamma jim borardi.

– Qo'shiq aytinlar, bolalar, – dedi u. – Biz keksalarga qarab o'tirmanglar. Kuylanglar, kuylash sizdan, tinglash bizdan.

Yoshlar qo'shiq boshlab yuborishdi. Boshda ashula qovushmay turdi, keyin esa jonlanib ketdi. Yo'l yurish zavqliroq bo'ldi. «Mana bu yaxshi ish bo'ldi, – deb o'yldi Tanaboy. – Shunday bo'lgani yaxshi. Eng muhim, bizni nihoyat to'plashib, yaxshi ish qilish-yapti. Ehtimol, ahvol qanday ekanligi, kolxoz xo'jaligini rivojlantirish uchun nima qilish kerakligini aytishar. Bizga qaraganda boshliqlarga ayonroq-ku. Biz faqat o'zimizni bilamiz, boshqa ko'p narsalarni bilmaymiz. Maslahatlar berishar, yo'l-yo'rqliar ko'rsatishar, qarabsizki, biz ham ishni yangichasiga boshlab yuboramiz...»

Rayon markazi shovqin-suronli va gavjum edi. Mash-

nalar, aravalar, juda ko'p otliqlar klub oldidagi butun maydonni to'ldirishgandi. Kabobchilar, choyxonachilar ham shu yerda hozir-u nozir edilar. Tutatishib, jaz hidi taratishib: «Kep qoling, yeb qoling» deb kelganlarni chaqirishardi.

Jo'ra kutib turgandi.

— Tezroq tushinglar, joylarni egallanglar. Hademay majlis boshlanib qoladi. Tanaboy, sen qayoqqa?

— Hozir, — dedi Tanaboy bir to'da miniladigan otlar orasidan o'tib ketarkan. U mashinadayoq o'zining Gulsarisini payqagan, endi u tomon ketayotgan edi. Ko'klamdan beri uni ko'rmagandi.

Egarlog'liq saman yo'rg'a o'zining sariq guldek rangi, keng pishiq sag'risi va qop-qora ko'zli, do'ng peshonali etsiz boshi bilan boshqa otlardan ajralib turardi.

— Salom, Gulsari, salom! — deb pichirladi Tanaboy u tomon turtinib-surtinib borarkan. — Xo'sh, ahvoling qalay?

Yo'rg'a ko'z soqqasini qiyshaytirib qarab, eski xo'jayinini tanidi vadepsinib pishqirib yubordi.

— Ko'rining yomon emas, Gulsari. Qara, ko'kraging kengayib to'lishib ketibdi. Ko'p chopadiganga o'xshaysan. O'shanda ko'p azob chekdingmi? Bilaman... Ha, mayli, yana yaxshi odamning qo'liga tushibsan. Tinch yursang, hammasi joyida bo'ladi, — derdi Tanaboy xurjundagi suli qoldiqlarini paypaslab ko'rib. Demak, Jo'ra uni bu yerda och qoldirmayotgan ekan. — Xo'p, sen tura tur, men boray...

Klubga kiraverishdagi devorda «Kommunistlar, olg'al!» «Komsomol — sovet yosHLarining avangardi!» deb yozilgan alvonlar tovlanib turardi.

Odamlar to'da-to'da bo'lib kelib, foye va tomosha zallariga tarqalib ketishardi. Eshik oldida Tanaboyni Jo'ra va kolxozi raisi Oldanov kutib olishdi.

— Tanaboy, bir chekkaga chiqaylik, — dedi Oldanov. — Mana senga yon daftar. Sen so'zga chiqishing kerak. Biz seni belgilab qo'yidik. Sen partiya a'zosisan, eng yaxshi yilqiboqarimizsan.

— Nima haqda gapirishimiz kerak?

— Sen kommunist sifatida qoloq uchastkaga bo-

rishga qaror qilganligingni ayt. Sovliq qo'ylar suruviga cho'pon bo'lmoqchi ekanligingni gapir.

– Shugina xolosmi?

– Nega shugina? O'z majburiyatlariningni aytasani. Har yuz sovliqdan yuz o'ntadan qo'zi olish va ularni omon saqlab qolishga, har bosh qo'ydan uch kilogramdan jun qirqib olishga partiya va xalq oldida majburiyat olaman, deysan.

– Qo'ylarni ko'rмаган bo'lsam men qanday gapiramani?

– Nima bo'libdi, o'tarni olasan-ku.

Jo'ra gapni yumshatdi:

– O'zingga ma'qul kelgan sovliqlarni tanlab olasan. Xavotirlanma. Tag'in ikkita komsomol cho'ponlarni otaliqqa olaman, deb ham ayt.

– Kimlarni?

Odamlar turtinib o'tishardi. Jo'ra ro'yxatni ko'zdan kechirib chiqdi.

– Bo'latbekov Eshim va Zorliqov Bektoyni.

– Men axir ular bilan gaplashmadim-ku, ular bunga nima deyisharkin?

– Tag'in o'zingnikini ma'qullaysan-a! – deb raisning jahli chiqdi. – G'alati odam ekansan. Ular bilan gaplashib o'tirishing shartmi? Baribir emasmi? Ular hech qayoqqa qochib ketishmaydi, biz ularni senga birkitib qo'yanmiz, masala hal bo'lgan.

– Masala hal bo'lgan bo'lsa men bilan gaplashib o'tirishning nima hojati bor? – deb Tanaboy nari ketdi.

– Shoshma, – dedi Jo'ra uni to'xtatib. – Hammasini esda saqlab qoldingmi?

– Eslab qoldim, eslab qoldim, – dedi Tanaboy ensasi qotib.

XII

Kengash kechga yaqin tugadi. Rayon markazi huvul-lab qoldi. Odamlar har tarafga: tog'larga, qo'y o'tarlari va qoramol podalari oldiga, fermalarga, ovul va qishloqlarga tarqalib ketishdi. Tanaboy ham boshqalar bilan

birga yuk mashinasida Aleksandrovkadagi qirdan os-hib, yassi tekislik orqali jo'nab ketdi. Qorong'i tushib qolgan, shamol badanni junjiktirardi. Kuz. Tanaboy kuzovning burchagiga o'tirib oldi va yoqasini ko'tarib, o'z fikrlari bilan band bo'lди. Mana kengash ham tugadi. Uning o'zi biron bama'ni gapni aytal olmadi-yu, ammo boshqalarning gapini tinglagandi. Demak, ishlaringning yurishib ketishi uchun hali ko'p mehnat qilishlari kerak ekan-da. Axir, to'g'ri gapirdi o'sha ko'zoynakli obkom kotibasi: «Hech kim bizga yo'lni tap-tayyor qilib qo'ygan emas, o'zimiz uni ochishimiz kerak». O'ylab ko'ring-a, o'ttizinchi yillardan beri goh yuksalish, goh pasayish, goh ko'tarilish, goh ortga qaytish... Demak, kolxoz ishi jo'n emas ekan. Mana, o'zining ham sochlarning yarmi oqargan va butun yoshligi o'tib ketgan edi. Lekin shu davr ichida nimalarni ko'rmadi, nimalarni qilmadi, necha bor tentaklik ham qildi. Baxtli kun ana keladi, mana keladi, deb kutib o'tib ketaverar ekansan va shu bilan birga kolxozning mashaqqatidan ham baribir qutulmas ekansan...

Ha, mayli, ishlash kerakmi, demak, ishlash kerak. To'g'ri aytdi kotiba – hayot, urushdan keyin, bir mahallar odamlar o'ylaganidek, hech qachon o'z-o'zidan yurishib ketmaydi. O'zing tirik ekansan, uni doim yelkang bilan itarib yurishing lozim. Faqat u har gal o'tkir qirralari bilan o'girilib qoladi, yelkalarimizning hamma yeri yag'ir bo'lib ketdi. Qilayotgan ishingdan, boshqalarning ishidan ko'ngling to'lsa, bu ishlar baxt keltirsa-ku mayli edi-ya... Endi ishlari qanday bo'larkin? Jaydar nima derkin? Qizlariga loaqal konfet olish uchun magazinga bir kirib chiqishga ham ulgurmadi. Har yuz bosh sovliqdan yuz o'ntadan qo'zi, har boshdan uch kilogrammdan jun olish aytishgagina oson. Har bir qo'zi tug'ilishi, buning ustiga yana tirik qolishi ham kerak, yomg'ir, shamol, sovuq esa unga qarshi turadi. Jun-chi? Jun tolasini olib ko'r, ko'zing ilg'amaydi, puflasang yo'q bo'lib ketadi-qo'yadi. Kilogrammlarni qayoqdan olasan? Uh, oltunga barobar-a bu kilogrammlar. Lekin ba'zilar bularning hammasi qayerdan, qanday qilib olinishini, ehtimol, tasavvur ham qila olishmasa kerak...

Ha, Jo'ra uni yo'ldan urdi, adashtirdi... «So'zga chiq, — dedi, — lekin qisqa qil, o'z majburiyatlarin haqida so'zla. Boshqa hech narsa gapirma. Maslahatim shu». Tanaboy ko'na qoldi. Minbarga chiqdi-yu, yuragi po'killadi, shunday qilib, dilida qaynab-toshib yurgan gaplarni ayta olmadi ham. Majburiyatlarin haqida ming'irlab gapirdi-da, tushib ketdi. Eslasang uyalasan. Jo'ra bo'lsa mammun. Nega u bunchalik ehtiyyotkor bo'lib qoldi? Kasalligidanmikin yoki endi kolxozga bosh bo'lmanidanmikin? Tanaboyni ehtiyot bo'lishga cha-qirishning nima keragi bor ekan? Yo'q, aynagan, negadir o'zgargan! Ehtimol, umr bo'yisi rais bo'lib kolxozni sudraganidan, boshliqlar umr bo'yisi so'kkalaridandir. Epchillik, ustalik qilishga o'rganib qolganga o'xshaydi...

«Hap senimi, to'xtab tur, do'stim, bir kunmas, bir kun yuzma-yuz kelganda eslatib qo'yaman men senga...» — deb o'ylardi Tanaboy po'stiniga yaxshiroq o'ralar ekan. Sovuq shamol urib turibdi, uygacha hali uzoq. U yoqda nimalar kutayotganikin uni?..

• • •

Jo'ra yo'rg'a otta yolg'iz jo'nadi. Hamrohlarini kutib o'tirmadi. Uyga tezroq yetib olgisi kelar, yuragi og'riy boshlagan edi. U otni o'z holiga qo'yib berdi, ot kun bo'yisi dam olganidan endi bir tekis yelib bordi. Mashina singari bir maromda tuyoqlarini taqillatib ketayotgandi. Avvalgi hamma narsasidan endi unda faqat chopish ishtiyogigina qolgandi. Boshqa hamma narsa unda allaqachon o'lgan edi. U endi faqat egar-u yo'lnigina bilsin uchun qolgandi. Gulsari chopish bilan tirik edi. Go'yo odamlar tortib olgan narsalarga yetib olmoqchidek, hormay-tolmay astoydil chopardi. Chopardi-yu, lekin yeta ololmasdi.

Shamolda Jo'ra biroz yengil tortdi. Yuragidagi og'riq o'tib ketdi. U kengashdan umuman mammun edi, ayniqsa, obkom sekretarining chiqishi unga juda yoqib tushgandi. Jo'ra ilgarilarini uning haqida ko'p eshitgan bo'lsa ham, lekin o'zini birinchi marta ko'rishi edi. Shunday bo'lsa-da, partor, o'zini noqulay sezardi. Ko'ngli g'ash edi. Axir u Tanaboyga yaxshilik qilmoq-chi edi.

Axir u bunday kengashlar, majlislar va yig'ilishlarda qatnashaverib pixi qayrilgan, qayerda nima gapirish kerag-u, nima kerak emasligini bilardi. Tajribasi bor edi. Tanaboy esa garchand qulq solgan bo'lsa ham, buni tushunishni xohlamadi. Kengashdan so'ng unga bir og'iz ham so'z aytmadı. Mashinaga o'tirdi-yu, teskari o'girilib oldi. Xafa bo'libdi. Eh, Tanaboy, Tanaboy! Soddasan, hayot seni hech narsaga o'rgatmabdi. Sen hech narsani bilmaysan ham, payqamaysan ham. Yoshligingda qanday bo'l sang, shundayligingcha qolibsang. Hamma narsani shartta-shartta qilsang. Zamon bo'Isa hozir boshqacha. Endi hammadan ham muhimi, qanday gapirishni, kimning oldida nima deyishni bilish, so'zing barcha odamlarniki singari zamon ruhida jaranglashi, boshqalarnikidan ajralib turmasligi, xuddi yozib qo'yilgandek silliq bo'lishi kerak. Shunda hamma narsa joyida bo'ladi. Seni, Tanaboy, ko'ngling istaganicha qo'yib bersa bormi, hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib tashlaysan, yana javob berishga ham to'g'ri keladi. «O'z tashkilotingiz a'zolarini siz qanday tarbiyalamoqdasisiz? Bu qanaqa tartib-intizom? Bu qanaqa beboshlik?» Eh, Tanaboy, Tanaboy...

XIV

Hamon o'sha tun, keksa odam va qari ot. Jarlik yoqasida gulxan yonmoqda. Tanaboy o'rnidan turadi, jon berayotgan Gulsari ustiga yopgan po'stinini nechanchi bor to'g'rilib qo'yadi. Yana uning bosh tomoniga o'tiradi. U xayolan butun umrini birma-bir nazardan o'tkazadi. Saman otning chopishidek tez o'tgan yillar, yillar, yillar. O'shanda: Tanaboy qo'y larga cho'pon bo'lib yurgan o'sha yili, o'sha kech kuzda, o'sha erta qishda nima bo'lgandi?..

XV

Butun oktabr oyi tog'larda qurg'oqchilik bo'lib, hammayoq oltin tusga kirgan edi. Boshda ikki kungina yomg'ir yog'ib havo sovidi, tuman tushdi. Keyin bir kechada bulutlar tarqab ketdi, erta bilan Tanaboy

o'tovdan chiqdi-yu, orqasiga qarab qochishiga sal qoldi – go'yo cho'qqilari oppoq qorga burkangan tog' u tomon bostirib kelayotgandek edi. Qor bu cho'qqilarga qanday yog'di ekan? Ular go'yo hozirgina yaratilgandek musaffo turar, soyada ham, yorug'likda ham ko'zga yaqqol tashlanar edi. Qor yotgan joydan ko'mko'k bepoyon bo'shliq boshlanardi. Uning tubida esa olis-olislardan koinotning xayoliy zumrad ufqi ko'rini turardi. Nur va sof havoning mo'lligidan Tanaboy jun-jikib ketdi va yuragi hasratga to'ldi. U yana Gulsarida qatnab yurgan o'sha juvonni esladi. Qani endi yo'rg'asi yonida bo'lsa-yu, uni minib, shavq-zavqdan qiyqirib, mana shu ertalabki oppoq qordek kutilmaganda uning huzuriga yetib borsa...

Ammo bu faqat orzugina ekanligini bilardi u. Ni-mayam qilardi axir, umrning yarmi orzu-xayol bilan o'tadi, shuning uchun ham, ehtimol, hayot shunchalik lazzatli, orzu qilganlarining hamma-hammasi ham ro'yobga chiqavermaganligi uchun azizdir. U tog' va os-monga tikilib turib, hamma odamlarning ham bir xilda baxtli bo'lishi qiyin, deb o'ylardi. Har kimning o'z taqdiri-qismati bor. Bir tog'da bir paytning o'zida ham yorug'lik, ham qorong'ilik bo'lganidek, har bir taqdiring o'z quvonchlari, o'z g'am-u g'ussalari bo'ladi. Hayot shular bilan to'la-to'kis... «U juvon, ehtimol, endi meni kutmayotgandir ham. Agar tog'lardagi yangi qorni ko'rib eslagan bo'lmasa...»

Kishi kundan kun qarib boraveradi-yu, ko'ngil esa qarishni xohlamaydi, abyon-ahyonda bir tipirchilab, mayliga solmoqchi bo'ladi.

Tanaboy otни egarladi, qo'ylar qo'rasini ochdi, o'tovga qarab xotiniga qichqirdi:

– Jaydar, men qo'ylarni haydah ketyapman, sen ish-laringni qilib bo'lguningcha qaytib kelaman.

Qo'y-qo'zilar bir-birini biqin-boshi bilan surib-turtib tashqariga otildi-da, tepalikka qarab to'lqindek o'rlay boshladи. Qo'shni cho'ponlar ham qo'ylarni haydah chiga boshlagandi. Tog' yonbag'ri, pastliklar, jarliklarda u yer-bu yerda qo'y suruvlari yer-zaminning azaliy tortig'i o't-o'lanylarni terib yeya boshladи. Ular tog'ning

kuzgi sarg'ish, qo'ng'ir rang, turli-tuman o't-o'lanylari ichida to'da-to'da bo'lib o'tlab yurishardi.

Hozircha ishlar joyida edi. Tanaboyga yomon o'tar tegmadi – ular ikki va uch marta qo'zilagan sovliqlar edi. Yarim ming bosh, yarim ming tashvish. Qo'zilagandan keyin esa ular yana ikki baravardan ziyodroq ko'payadi. Lekin qo'zilatishga, cho'ponlarning tashvishi boshlaridan oshib yotadigan kunlarning boshlanishiga hali uzoq edi.

Yilqilarga qaraganda qo'ylarni boqish ancha tinchroq, albatta, lekin Tanaboy ularga darrov ko'nika qolmadi. Otlarni boqish boshqacha edi-dal Ammo, aytilishlaricha, yilqichilik o'z ahamiyatini yo'qotgan emish. Mashinalar paydo bo'lganmish. Demak, otlar endi foyda bermaydigan bo'lib qolibdi-da. Endi muhimi qo'ychilik, jun, go'sht, teri. Garchand Tanaboy bunday oqilonha hisob-kitobda haqiqat borligini tushunsa ham, bu unga qattiq botardi.

Yaxshi ayg'iri bo'lgan uyurni goh paytlarda vaqtincha, yarim kunga yoki undan ham ko'pga tashlab ketib, o'z ishlari bilan shug'ullansa bo'lardi. Qo'ylarni esa hech qayoqqa tashlab ketib bo'lmaydi. Kunduzi bir qadam ham jilmay ularning ketidan yurish, tunda qorovullik qilish kerak. Cho'pondan tashqari o'tovda cho'liq bo'lishi kerak edi, lekin cho'liq berishmayotgandi. Shuning uchun navbat almashmay, tinimsiz ishlashga to'g'ri kelardi. Jaydar qorovul hisoblanardi, kunduzi faqat ba'zi vaqtlardagina qizlari bilan qo'ylarga qaray olardi, tun yarmiga qadar miltiq ko'tarib qo'ra atrofida aylanib yurardi, keyin Tanaboyning o'ziga qorovullik qilishga to'g'ri kelardi. Endi kolxozdagi butun chorvachilikka xo'jayin bo'lib olgan Ibrohim esa har bir narsaga bahona topa olar edi.

– Xo'sh, men qayerdan olaman cho'liqni, Tanake? – derdi u kuyungandek bo'lib. – Aqli odamsiz-ku o'zingiz. Yoshlarning hammasi o'qishda. O'qimayotganlarga qo'ydan gap ochsangiz tepa sochi tikka bo'ladi, ular shaharga, temiryo'lga, hatto allaqayaoqlardagi konlarga ham ketib qolishyapti. Nima qilishga aqlim yetmay qoldi. Sizda hammasi bo'lib birgina o'tar – shunga ham

oh-voh qilasiz. Men-chi? Butun chorvachilik mening bo'ynimda. Sudga tushaman. Bu ishga behuda o'tgan ekanman, behuda. Siz otaliqqa olgan Bektoya o'xshash kishilar bilan ishlab bo'larmidi. Sen, deydi, meni radio, kino, gazetalar bilan ta'minla, yangi o'tov ber, tag'in har haftada oldimga magazin kelib tursin, bo'lmasa boshim oqqan tomonga ketaman-qolaman, deydi. Siz u bilan gaplashsangiz bo'lardi, Tanake!..

Ibrohim aldamayotgandi. Uning o'zi ham bu mansabga minganidan xursand emasdi. Bektoy haqidagi gapi ham to'g'ri edi. Tanaboy ba'zan bir amallab vaqt topib, otaliqqa olgan komsomollar oldiga borib turardi. Eshim Bo'latbekov garchand unchalik epchil bo'lmasa ham ko'ngilchan, yumshoq tabiatli yigit edi. Bektoy esa chiroyli, kelishgan yigit-u, ammo uning qora qiyiq ko'zlaridan g'azab o'ti chaqnab turardi. U Tanaboyni qovoq uyib kutib olardi.

— Siz, Tanake, ko'p kuyib-pishavermang, yaxshisi, o'z bolalaringiz oldida o'tiring. Sizsiz ham meni tek-shiruvchilar ko'p, — der edi u.

— Senga nima, bir narsa yutqizyapsanmi bunday?

— Yutqazishga yutqazmayman-u, lekin sizga o'xshaganlarni yoqtirmayman. Sizlar, o'zlarining suvgaga ham, o'tga ham urgansizlar. Doim haybarakallachilik: «ura, ura!» qilgansizlar. O'zingiz bo'lsangiz odamga o'xshab hayot kechirmadingiz, o'zgalarning ham odamdek yashashiga yo'l qo'yamadingiz.

— Sen, yigit, haddingdan oshaverma, — dedi Tanaboy va zo'r-bazo'r o'zini tutib, ijirg'anib gapirdi. — Qo'lingni menga bigiz ham qilma. Sening ishing emas. O'zimizni suvgaga, o'tga urgan bo'lsak, biz urganmiz. Afsuslanmaymiz ham bundan. Sizlarni deb qilganmiz shuni. Shunday qilmaganimizda edi, ko'rardim hozir ahvoling nima kechishini. Kino ko'rish, gazeta o'qish bu yoqda tursin, o'z ismingni ham bilmagan bo'larding. Uch harfdangina iborat «qul» degan noming bo'lardi sening...

Tanaboy ham Bektoyni yoqtirmasdi. Lekin u buni mana shunday to'g'riso'zligi uchun dilidan hurmat qildi. Bektoyning fe'l-atvori aynab borayotgandi. Tanaboy bu yigitning to'g'ri yo'lidan bormayotganligini ko'rib

achinardi. Keyinchalik, ularning yo'llari boshqa-boshqa bo'lib ketib, Tanaboy uni shaharda tasodifan uchratib qolganida, hech narsa demadi, uning gaplariga quloq ham solmadi.

* * *

O'sha qishning boshlari edi...

Qish o'zining oppoq qahrlı tuyasida yelib-yugurib kelib, cho'ponlarni beg'amligi uchun jazołay ketdi.

Butun oktabr oyи quruq kelgandi, hammayoq oltin tusga kirgandi. Noyabr oyida esa birdaniga qish tushib qoldi.

Tanaboy kechqurun qo'ylarni haydab kelib, ularni qo'raga qamadi. Hamma narsa go'yo o'z joyida edi. Ammo yarim kechasi uni xotini uyg'otib qoldi:

— Turing, Tanaboy, men juda sovuqqa qotib qoldim. Qor yog'yapti.

Uning qo'llari muzdek edi, butun vujudidan qor hidi kelardi. Miltiq nam, sovuq edi.

Sutdek oydin kecha edi. Qor gupillab yog'ardi. Qo'ylar qo'ralarda bezovtalanib yotishardi, qorga ko'nik-maganliklaridan silkinishar, kallalarini chayqashar, qor bo'lса hamon shig'ab yog'ardi. «Shoshmanglar, hali siz bilan bizning boshimizga bundan ham battarroq kunlar keladi, — deb o'ylardi Tanaboy po'stiniga o'ralib. — Ertа, juda erta kelding, sen qish. Oqibati nima bo'larkin, yaxshilikmi, yomonlikmi? Balki, keyinchalik yumshab qolarsan-a? Faqat qo'ylar qo'zilaguncha o'tib ketsang bo'lgani. Bor iltimosimiz shugina xolos. Hozircha esa o'z bilganiningi qilaver. Bunga haqqing bor, hech kimdan so'ramasang ham bo'ladi...»

Qish, odamlar uh tortib, u yoqdan-bu yoqqa yugurgilab qolsin, deb qorong'ida indamay o'z ishini qilar edi.

Tog'lar tunda qorayib bahaybat turishardi. Ular qishni pisand qilishmasdi. Bu cho'ponlar suruvlari bilan yelib chopishaverishsin. Tog'lar esa qanday turgan bo'lса, shunday turaveradi.

Esdan chiqmайдиган о'sha qish boshlandi, ammo uning oqibati nima bo'lishini hozircha hech kim білмас edi.

Qor erimay yotardi, bir necha kundan so'ng u yana gupullab yog'ib berdi, keyin yana, yana yog'di va cho'ponlarni kuzgi manzillaridan haydab tushirdi. Suruvlar daydib, tarqalishib, daralar, ovloq joylar, kam qorli yerlarga berkina boshladilar. Cho'ponlarga eski tajriba ish berdi. Ular, boshqa odamlar bu yerda qordan bo'lak hech narsa yo'q, deb qo'l siltab ketadigan joylardan suruvlarga yem-xashak izlab topib berishardi. Shuning uchun ham ularni cho'pon deyishardi-da... Ba'zan biron boshliq kelib qarab turardi-da, uni-buni surishtiradi, bir dunyo narsani va'da qiladi va darhol jo'nab qoladi. Cho'pon bo'lsa yana tanho qish bilan yuzma-yuz qoladi.

Kolxozdagilar qo'zilatishni qanday o'tkazish haqida nima o'ylayotganliklarini, hamma ishlar qilinganmi, hamma narsa jamg'arilganmi, shularni bilish uchun Tanaboy ko'pdan beri kolxozga bir amallab borib kelmoqchi bo'lardi. Ammo qayoqda deysiz! Bosh qashishga ham qo'l tegmasdi. Jaydar bir kuni internatga o'g'lining oldiga borib keldi, lekin u yerda uzoq turmadi, chunki usiz juda qiyin bo'lishini Jaydarning o'zi ham bilardi. Tanaboy qizlar bilan qo'ylarni boqib qolgandi. Kichik qizini oldiga egarga o'tqazib, po'stin bilan o'rab olardi, u issiqda, joni tinch edi, kattasi esa sovuqqa qotardi – u otasining orqasida o'tirardi. Hatto o'choqdagi olov ham o'zgacha bo'lib g'aribona yonardi.

Ertasiga onalari qaytganda nima bo'ldi deng-a! Bolalar onalarining bo'yinlariga tashlanishdi, kuch bilan ajratib olishga to'g'ri keldi. Ha, ota – ota-yu, ona – ona ekan. Uning o'rnini hech kim bosolmas ekan.

Vaqt shu zaylda o'tib borardi. Havo o'zgarib turardi – goh qish qahriga olar, goh biroz yumshardi, ikki marta bo'ron ham bo'ldi, keyin tinchib, yerlar eriy boshladidi. Tanaboyni xuddi mana shu narsa tashvishlantirardi. Qo'ylarning qo'zilashlari iliq kunlarga to'g'ri kelsa yaxshi-ya, agar to'g'ri kelmasa-chi, unda nima bo'ladi?

Bu orada qo'ylarning qorinlari ham ancha og'irlashib qoldi. Bolasi yirik yoki egizak bo'lgan ayrim sovliqlarning qorinlari osilib ketdi. Sovliq qo'ylar ehtiyotkorlik

bilan zo'r-bazo'r qadam tashlashar, juda ozib ketishgandi. Orqa suyaklari turtib chiqib qolgandi. Hayron bo'ladigan joyi ham yo'q buning – bola qorinda o'sib, onasining bor-yo'g'ini so'rib, yetilib-to'lishardi, bu yerda bo'lса har bitta o'tni qor ostidan timirskilab topish kerak. Cho'pon qo'ylarni ertalab va kechqurun qo'shimcha boqsa, toqqa yem-xashaklar keltirsa bo'lardi-yu, lekin kolxoz omborlarida hech narsa topilmasdi. Urug'liklar va aravaga qo'shiladigan, miniladigan otlar uchun asrab qo'yilgan sulidan bo'lak hech narsa yo'q edi.

Tanaboy har kuni ertalab qo'ylarni qo'ralardan haydab chiqarayotganda, sovliqlarga razm solar, qorni, yelinini paypaslab ko'rар edi. U o'zicha chamalab, agar hamma balo-qazolardan sog'-salomat chiqarsa, qo'zilar bo'yicha majburiyatini bajarishi, jun bo'yicha esa bajara olmasligiga ko'zi yetardi. Chunki qish ichida qo'ylarning juni yomon o'sdi, ba'zilariniki hatto siyraklashib qoldi, to'kila boshladi – ularni yana ham yaxshiroq bo-qish kerak edi. Tanaboyning qosh-qovog'i osilar edi, g'azablanardi, ammo hech narsa qila olmasdi. Shunda Jo'raning so'ziga kirgani uchun o'zini yomon so'zlar bilan koyirdi. Va'dani katta berdi. Minbarga chiqib gapirdi. «Men falonchi-pistonchi ilg'or odam, partiya va Vatan oldida so'z beraman». Loaqlal mana shu keyingi so'zlarni gapirmsa ham bo'lardi! Partiya va Vatanning bunga nima daxli bor-a! Odatdagи xo'jalik ishi. Yo'q, tartib-qoida shunday. Nega endi o'rni kelsa-kelmasa har qadamda mana shu so'zlarni tiqishtiraveramiz-a?..

Nima ham qilardi, o'zi aybdor. O'ylab ko'rmagan. O'zgalarning gapi bilan ish qiladigan bo'lib qolgan. Ularga nima, aldab-suldab qutulib ketaverishadi, lekin Jo'raka qiyin. Hech omadi kelmayapti-da uning. Bir kun sog' bo'lса, ikki kun kasal. Umr bo'yi u yoqqa yuguradi, bu yoqqa yuguradi, unga yalinadi, buni ko'ndiradi, lekin nafi qani? Ehtiyyotkor bo'lib boryapti, so'zni tanlab gapiradi. Modomiki kasal ekansan, dam olishga chiqsang ham bo'larmidi...

Qish cho'ponlarni goh umidlantirib, goh tashvishlantririb o'z yo'lida davom etardi. Tanaboyning otarida ikki sovliq juda nimjon bo'lib qolgan ekan. Quvvatdan ketib

halok bo'lgan. Uning otalig'idagi yosh cho'ponlarning ham bir nechtadan qo'yłari o'lди. Busiz bo'lmaydi ham. Bir qish ichida o'n sovliqni yo'qotish bu oddiy hol. Eng muhimi oldinda, ko'klam arafasida.

Birdan havo ilib, sovliqlarning yelinlari darrov to'lisha boshladı. Oriqlab ketishgan, qorinlarini zo'rg'a ko'tarib yurishgan bo'lsa ham, yelinlari kun sayin emas soat sayin qizishib, shishib borardi. Nima sababdanikin? Qayoqdan bunchalik kuch-quvvat olishadi-ya! Kimningdir bir necha sovliqlari qo'zilab qo'yibdi, degan ovoza tarqaldi. Demak qochirish davrida e'tiborsizlik, beparvolik qilingan ekan-da. Bu birinchi ogohlantirish edi. Bir-ikki haftadan keyin qo'zilar pishgan olmadek «yog'ilib» ketadi. Ulgura olsang bas. Cho'ponlarning sermashaqqat, qizg'in ish pallasi shunda boshlanadi. Har bir qo'zi uchun cho'pon titrab turadi va qo'ylar ketidan yura boshlagan kunini la'natlaydi, agar barra qo'zichoqni saqlab qola olsa, agar qo'zilar oyoqqa turib, qishga qadar dumlari ko'rinish qolsa, quvonchi cheksiz bo'lardi.

Koshki, shunday bo'lsa, koshki edi. Keyinchalik odamlardan ko'zini yashirib yurmas edi.

Qo'zilatish davrida kolxozdan saqmonchilarni – aksariyati qari va bolasiz ayollarni bir amallab yordamga yuborishdi. Tanahoyning suruviga ham ikki saqmonchini jo'natishdi. Ular ko'rpa-to'shaklari, chodirlari, qozontovoqlari bilan kelishdi. Hammaning ko'ngli ko'tarildi. Saqmonchilardan kam deganda yetti kishi kerak edi. Ibrohim, suruvlar Besh tol vodiysidagi qo'zilatish punktiga ko'chganida, yana saqmonchilar yuborishni va'da qilib, hozircha shularning o'zi kifoya, degandi.

Suruvlar g'imirlab qolishdi, pastroqqa, tog' yon bag'irlariga, qo'zilatish bazalariga tusha boshlashdi. Tanaboy o'zi qo'ylarni haydab borguncha ayollarning manzilga yetib, u yerda o'rashib olishlariga yordam berishni Eshim Bo'latbekovdan iltimos qildi. Ayollarni bir karvon qilib jo'natdi, o'zi esa qo'ylarni to'pladi-da, bo'g'oz sovliqlar qiynalmasin, deya ularni o'z yurishiga qarab bamaylixotir haydab ketdi. Keyinchalik Beshtol vodiysiga olib boradigan shu yo'lni tag'in ikki marta

bosib o'tishi, otalig'idagi cho'ponlarga ko'maklashishi kerak edi.

Qo'ylar asta-sekin o'tlab borishardi, ularni shoshirib bo'lmasdi. Hatto it ham zerikib ketdi, u yoqdan-bu yoqqa izg'ib chopas boshladidi.

Quyosh bota boshlagandi, ammo hali tafti bor edi. Suluv tog' etaklariga tushgan sari havo isib borardi. Kungay joylarda o'tlarni o'ra boshlagan edilar.

Yo'lda biroz to'xtab qolishdi – birinchi sovliq qo'zilab qo'ydi. Buni hech kim kutmagan edi, Tanaboy kuyib-pishib yangi tug'ilgan qo'zining qulog va burun kovaklariga pufladi. Yalpi qo'zilashning boshlanishiga hali bir haftacha vaqt bor edi. Bu tomdan tushgan tarashadek bo'ldi.

Yo'lda boshqa ba'zi sovliqlar ham qo'zilab qo'yishi mumkin. U qolgan sovliqlarni ham ko'zdan kechirdi – yo'q, unaqaga o'xshamaydi. Xotirjam bo'ldi, hatto kayfi chog' bo'lib ketdi. Uning qizlari birinchi qo'zichoqni ko'risha, rosa quvonishadi. To'ng'ich doim aziz bo'ladi. Qo'zichoq ham yaxshigina edi. Kipriklari qora, tuyoqlari qora, o'zi oppoq. Suruvda bir nechta yarim dag'al junli qo'ylar bor edi. Xuddi ana shular dan biri qo'ziladi. Ularning qo'zilari, odatda, mayin junli qo'ylarning deyarli qip-yalang'och tug'iladigan qo'zilariga nisbatan baquvvat, junli bo'lishardi.

– Ha mayli, shoshilgan ekansan, ana, yorug' dunyon ni ko'rib ol, – derdi Tanaboy. – Bizga ham baxt keltir! O'zingga o'xshagan qo'zichoqlardan shuncha ko'p ergashtirib keltirginki, qadam bosishga joy qolmasin, sizlarning ovozlarining quloklarimiz bitib ketsin, biron ta qo'zichoq o'lmasin, hammasi tirik qolsin, – deb u qo'zichoqni boshi uzra ko'tardi. – Qarab qo'y, qo'ylar homisi, mana to'ng'ich qo'zichoq, bizga madad ber!

Tavarak-atrofda tog'lar turar, ular sukul saqlashardi.

Tanaboy qo'zichoqni po'stini ostiga oldi va qo'ylarni yana haydab ketdi. Ona sovliq izma-iz chopar, bezovtalanar, ma'rар edi.

– Yur, ketdik! – dedi unga Tanaboy. – U shu yerda, hech qayoqqa ketmaydi.

Po'stin ostida qo'zichoq quridi, isinib oldi.

Tanaboy suruvni bazaga kechga yaqin yetkazib keldi.

Manzilga hamma yetib olgan, o'tovdan tutun o'rlardi. Chodir oldida saqmonchilar ivirsib yurishardi. Demak, bir amallab kelib olishibdi. Eshim ko'rmasdi. Ha, rostdanam, u ertaga o'zi ko'chib kelish uchun yuk tashuvchi tuyani olib ketuvdi. Hammasi to'g'ri.

Lekin Tanaboyning keyinchalik ko'rgan narsasi uni bulutsiz kunda bo'lgan momaqaldiroydek larzaga soldi. U hamma narsa yaxshi bo'ladi deb o'ylagandi. Ammo sovliqlar qo'zilaydigan qo'yxonaning qamish tomi chirib, o'pirilib tushganini, devorlari teshilib, derazasiz, eshiksiz qolganini, shamol bu biqinidan kirib, u biqinidan chiqishini xayoliga ham keltirmagandi. Atrofda qorlar deyarli erib ketgan, qo'yxona ichida esa hamon qor uyulib yotar edi.

Qachonlardir harsang toshlardan qurilgan qo'ra ham xaroba, vayrona holda yotardi. Tanaboy shu qadar xafa bo'lib ketdiki, qizlari qo'zichoqni ko'rib xursand bo'lganlari ham ko'ngliga sig'madi. Qo'zichoqni ularning qo'liga berdi-da, tevarak-atrofni ko'zdan kechir-gani ketdi. Qayerga qadam qo'ymasin – hamma yerda toqat qilib bo'imas darajada xo'jasizlik edi. Urush boshlanganidan beri bu yerda barcha narsa o'z holiga tashlab qo'yilgan, sovliqlarni qo'zilatishni bir amallab eplashtirib, keyin hammasini yomg'ir va shamolga tashlab ketaverishgan bo'lishsa kerak. Saroy tomi ustida bir tomonga qiyshayib chirigan xashak g'arami turardi, somon uyumlari sochilib yotardi. Agar burchakdag'i yarimlab qolgan ikki qop arpa uni-yu bir yashik tuzni hisobga olmaganda, butun suruvdag'i qo'zichoqlar hamda sovliqlarga atalgan yem-xashak va to'shamaning bori mana shugina edi, xolos. Shu yerdagi bir burchakka shishalari singan bir necha fonus, kerosin qo'yilgan zanglagan bidon, ikkita belkurak va siniq panshaxalar tashlab qo'yilgandi. Mana shularning hammasiga kero-sin sepib yondirib, kulini ko'kka sovurgisi va bu yerdan boshqa – boshi oqqan tomonga ketib qolgisi keldi uning.

Tanaboy o'tgan yilgi go'ng va qorning yaxlab qolgan uyumlariga qoqilib-suqilib yurar va nima deyishini bilmas edi. So'z topolmasdi. Xuddi aqldan ozgan kishidek: «Shunday bo'lishi mumkinmi-a? Shunday bo'lishi mumkinmi-a?» deya takrorlar edi.

Keyin qo'yxonadan yugurib chiqib, otini egarlashga shoshildi. Otga egar urar ekan, qo'llari titrar edi. Hozir u boshqarma tomonga otini yeldirib ketadi, tun yarmida hammani oyoqqa turg'izadi va nimadir qiladi, lekin nima qilishligini o'zi ham bilmasdi. Anovi Ibrohimni ham, rais Oldanovni ham, Jo'rani ham yoqasidan tutadi. Undan rahm-shafqat kutishmasin! Ular Tanaboyga shunday qilishdimi, endi undan yaxshilik ko'rib bo'lishibdi! Bo'lди, tamom!..

— Qani, to'xtang-chi! — deb jilovni ushlab qolishga ulgurdi Jaydar. — Qayoqqa! Bora ko'rmang. Otdan tushing, gapimga quloq soling.

Qayoqda! Tanaboyni endi to'xtatib bo'larmidi?!

— Qo'yib yubor! Qo'yib yubor! — deb baqiradi u jilovni tortib, xotinining ustiga ot surib, qamchi bilan otni savalab. — Qo'yib yubor, deyapman! Men hozir borib ularni o'ldiraman! Men ularni o'ldiraman!

— Qo'yvormayman! Biron kishini o'ldirgingiz kelyaptimi? Meni o'ldira qoling, meni!

Bu orada saqmonchilar Jaydarga ko'makka yugurib kelib qolishdi, qizlari chopib chiqishdi, qiy-chuv ko'tarishdi.

— Dada! Dada! Qo'ying!

Tanaboy jahlidan tushdi-yu, lekin hamon ketmoqchi bo'lib yulqinardi.

— Ushlama meni, axir ko'rmayapsanmi bu yerdagi ahvolni? Axir anovi qo'zichoqlar bilan turgan sovliqlarni ko'rmayapsanmi? Ertaga biz ularni qayoqqa qo'yamiz, tom qani? Yem-xashak qani? Hammasi harom o'ladi. Kim javob beradi? Qo'yvor!

— He, to'xtasangiz-chi, to'xtang. Xo'sh, mayli bordingiz ham deylik, baqirib-chaqirib janjal-to'polon qildingiz ham deylik. Xo'sh, bundan nima chiqadi. Agar ular shu kunga qadar hech narsa qilishmagan bo'lsa,

demak, ularning bunga kuchlari yetmabdi-da. Agar iloji bo'lganda kolxoz yangi qo'yxona qurgan bo'lmasmidi?

Tomni yopish mumkin edi-ku? Eshiklari qani? Derazalari qani? Hamma yoq vayrona, qo'yxonalar qor, o'n yillik qiy to'planib yotibdi, tozalashmagan! Buni qara, bu chirik xashak qancha vaqtga yetadi? Axir qo'zichoqlarga shunaqa pichan beriladimi? Qo'y-qo'zilar tagiga nima to'shaymiz? Qo'zichoqlar balchiqqa botib o'laverishsinmi, a? Shundaymi? Senga ma'qulmi shu? Qoch, yo'limni to'smal

— Bo'ldi, Tanaboy, o'zingizni bosing. Nima, siz hammadan ortiqmisiz? Ko'pchilik nima bo'lsa, biz ham shu-da. Tag'in sizni erkak deyishadi-ya! — deb uyaltirdi xotini uni. — Yaxshisi, nima qilish mumkinligini o'ylab ko'ring, hali ham kech emas. Parvo qilmang ularga. Biz javohgarmiz, biz shu ishni qilishimiz kerak. Men huv anovi jarlikka tushaverishda qalin o'sgan na'mataklarni ko'rdim, to'g'ri tikanakli-yu, lekin ularni chopib, tomni bekitsa bo'ladi, ustidan go'ng tashlaymiz. Qo'y-qo'zilar tagiga esa quvray o'rishga to'g'ri keladi. Agar havo aynab qolmasa, bir amallab qishdan chiqib olamiz...

Saqmonchilar ham Tanaboyni tinchita boshlashdi. U egardan sirg'alib tushdi, xotin-halajlarga parvo qilmay, o'tovga kirib ketdi. Xuddi og'ir kasallikdan turgandek boshini xam qilib o'tirdi.

Uyda hamma jim qoldi. Gaphaelgani qo'rqishardi. Jaydar tezak yoqib qaynatilgan qumg'onnei oldi-da, achchiq choy damladi. Ko'shada suv keltirib, yerining qo'liga quydi. Ozoda dasturxonni yoydi, xatto qayoq-dandir konfet ham topib keltirdi, likobchada sariyog' qo'ydi. Saqmonchilarni taklif qilishdi va choy ichishga o'tirishdi. Eh, bu xotinlar! Piyolalardan choy ichib, go'yo mehmonga kelishgandek turlituman narsalar haqidagi hamaylixotir gaplashib o'tirishardi. Tanaboy jimgina o'tirib choy ichdi-da, so'ng o'tovdan chiqib, qo'raning qulab tushgan toshlarini qalay boshladi. Bu bitadigan ish emasdi. Lekin qo'ylarni tunda qamash uchun biron narsa qilish kerak-ku. Ayollar ham chiqishib toshlarga yopishishdi. Xatto qizaloqlar ham tosh ko'taraman deb chirishardi.

— Uyga jo'nanglar, — dedi ularga otasi.

U nomus qilardi. Ko'zlarini yerdan ko'tarmay, tosh tashirdi. Jo'ra haq gapni aytgan-da, agar Jaydar bo'lma-ganida, Tanaboy bechora boshini omon saqlay olmasdi.

XVI

Ertasiga Tanaboy o'z otalig'idagi cho'ponlarni ko'-chirib kelishga ketdi. Keyin butun hafta bo'yи tinmay ishladi. U hech qachon bunchalik qattiq ishlamagandi. Faqat frontda kecha-yu kunduz mudofaa liniyasini qur-ganlarida shunchalik bo'lгandir. Biroq u yerda polk bilan, diviziya bilan, armiya bilan birga edi. Bu yerda-chi — o'zi, xotini va saqmonchilardan biri. Ikkinchisi yaqin o'rtada qo'ylarni o'tlatib yurardi.

Hammadan ham qo'yxonani go'ngdan tozalash, na'mataklarni chopib keltirish qiyin bo'ldi. Butazor qalin, turgan-bitgani tikan edi. Tanaboyning etigi yir-tiq, eskirib qolgan soldatcha shineli ham ilma-teshik bo'lib ketgandi. Kesilgan na'matak shoxlari arqon bi-lan bog'lanib sudrab keltirilardi, chunki ularni tikanli bo'lganidan na otga ortib, na orqalab bo'lardi. «Besh tol vodiysi emish, undan beshta to'nkani ham izlab to-polmaysan» — deb so'kinardi Tanaboy. Ular bu la'natni na'matakni ikki bukilib, egilib terga botib sudrashar, qo'raga keladigan yo'l esa shudgor bo'lib ketgan edi. Tanaboy xotin-qizlarga achingani bilan iloj qancha tash-vishlari zo'r. Vaqt esa tig'iz. Ishqilib havo aynamay tursin. Qor urib bersa, bularning hammasi, bir pul bo'lardi. Tanaboy qo'ylar qo'zilab qolmadimikin, deb xabar olib kelish uchun katta qizini yogurtirib turardi.

Qo'yxonani go'ngdan tozalash undan ham mashaqqat-li edi. Bu yerda qiy shunchalik ko'p ediki, tashib chiqarish mumkin emasdi. Agar qiy qo'yxonada qor-yomg'ir tegmasdan quruq saqlangan va shibbalangan bo'lsa, uni qirqish qulay bo'lardi. Bir-biriga zichlashib, qotib qolgan qiyini kessang, palaxsa-palaxsa bo'lib ko'chib chiqardi. Ularni quritish uchun katta-katta uyum qilib taxlab qo'yilardi. Qo'y qiyining cho'g'i beg'ubor bo'ladi, qish sovug'ida cho'ponlar uni yoqib isinadilar. Ammo qiy

bu yerdagidek yomg'ir yoki qor ostida qolgan bo'lsa, u holda uni tozalashdan ham og'irroq ish yo'q edi, tinki quritardi. Vaqt esa kutib turmaydi. Ular kechasi tutab turgan fonus yorug'ida bu muzdek, yopishqoq, qo'rg'oshindek og'ir balchiqni zambilda tashishda davom etdilar. Mana, ikkinchı sutka ishlashlari.

Qo'yxona orqasiga kattakon go'ng uyumini tashib chiqarishgan edi. Qo'xonadagi go'ng uyumini tashib bo'ladijan emasdi. Kutib turgan qo'zichoqlar uchun, hech bo'limganda, qo'xonaning biron burchagini ochishga shoshilishardi. Ona-bola qo'yarning hammasini joylashtirish uchun, butun bir qo'yxona torlik qilib turgan paytda, uning bir burchagi nima bo'lardi, axir kuniga yigirma-o'ttiztadan qo'ylar qo'zilayotgan bo'lsal Nima bo'larkin? Zambilga go'ng solayotganda ham, tashiyotganda ham, uni to'kib qaytib kelayotganda ham Tanaboy faqat shu haqda o'ylardi. Shu zaylda yarim kechagacha, tong otguncha o'ylagani o'ylagan edi. Nihoyat holdan toyib qo'llari uvushib qoldi. Buning ustiga shamol fonusni o'chirib qo'yardi. Yaxshiki, saqmonchilar hayallamay, Tanaboy va Jaydar singari ishlashardi.

Oradan bir kun o'tdi, yana bir kun va yana... Ular esa hamon go'ng tashir, devor va tomdagi teshiklarni berkitar edilar. Bir kun kechasi Tanaboy qo'xonadan zambil bilan chiqayotib, suruvda qo'zichoqning ovozini va ona qo'yning unga javoban bezovtalanib,depsinib ma'rakanini eshitib qoldi. «Boshlandi!» — uning yuragi shuv etib ketdi.

— Eshityapsanmi? — dedi Tanaboy xotiniga o'girilib.

Ular go'ng solingan zambilni birdan oyoqlari ostiga tashlab, fonusni ushlaganlaricha suruv tomon yugurib ketishdi. Fonusning xira nurida qo'ylar orasini timirskilab qaray boshlashdi. Qayoqda u? Huv ana, burchakda! Sovliq qo'y hozirgina tug'ilgan va sovuqda qaltirab turgan uvoqqina qo'zichoqni yalab turar edi. Jaydar uni bariga solib oldi. Yaxshiyam o'z vaqtida ulgurishdi, bo'lmasa qo'rada muzlab qolgan bo'lardi. Ularning yonginasida yana bir sovliq qo'zilaganligini ko'rdilar. U egizak tuqqan edi. Bularni Tanaboy yomg'irpo'shining etagiga soldi. Beshtasi to'lg'oq tutib, kuchanib ma'rab

yotgan edi. Demak, boshlanibdi. Ertalabgacha ular ham qo'zilaydi. Saqmonchilarni chaqirishdi. Qo'zilagan qo'ylarni qo'yxonaning haligi naridan-beri tozalangan burchagiga joylashtirmoq uchun ularni qo'radan olib chiqa boshladilar.

Tanaboy devor ostiga poxol to'shab, onasining og'iz sutini birinchi tatib ko'rgan qo'zichoqlarni yotqizib, ularning ustini qop bilan yopib qo'ydi. Sovuq. Ona qo'ylar ham shu yerga kiritildi. Tanaboy labini tishlaganicha o'ylanib qoldi. Lekin o'ylab o'tirishdan nima foyda? Faqat, bir iloj topilar, degan umid qoldi. Qancha ish, qancha tashvish. Hech bo'lmasa poxol yetarli bo'lganda edi, u ham yo'q. Ibrohim bunga ham uzrli sabab topadi. Yo'lsiz tog'da poxol tashib ko'r-chi, deydi u.

E, nima bo'lsa bo'lar! Borib siyoh solingan bankani olib keldi. Bitta tug'ilgan qo'zichoq orqasiga ikki, egizaklarga esa uch raqamini yozib qo'ydi. Ona qo'ylarni ham xuddi shunday nomerlab chiqdi. Yuzlab qo'y qo'zilagandan so'ng ularni bir-biridan ajratib ko'r-chi.

Cho'ponlar ishining eng qizg'in pallasi boshlandi. Boshlanganda ham u xuddi mudofaadagidek, bosib kelayotgan tanklarni hech qanday kuch bilan daf eta olmaydigan paytidagidek shafqatsizlik bilan boshlangan edi. Sen esa okopda turasan va hech qayoqqa ketmaysan, chunki ketish mumkin emas. Ikkidan biri – yo oxirigacha tik turib olishish, yoki o'lish kerak.

Tanaboy har kun ertalab qo'ylarni yaylovga chiqarib yuborish oldidan, go'yo o'z jabhasini baholayotgandek, tepalik ustida jimgina turib atrofga qarardi. Uning mudofaa marrasi ko'hna va yaroqsiz edi. Biroq u turib berishi kerak. Uning hech qayoqqa ketishi mumkin emas. Sayozlanib qolgan soy oqib o'tadigan bu egribusri kichik dara do'ngliklar orasida siqilib turar, undan keyin balandroq tepaliklar, ular ortida esa qorli tog'lar qad ko'targan edi. Oppoq yon bag'irlar tepasida yalang'och qoyalar qorayib ko'rindardi. U yerdagi tog'lar ustida yoppasiga muz bilan qoplangan qish yotardi. U juda yaqin turardi. Faqat harakatga kelsa, bulutlarni pastga siljitib yuborsa bas, dara zulmat ichida g'arq bo'ladi, keyin uni qidirib topolmaysan.

Havo aynab, osmon kulrang tusga kirgan edi. Shamol yer bag'irlab esardi. Tevarak bo'm-bo'sh edi. Tog'lar, hamma yodqa tog'lar. Qo'rquvdan kishining yuragi muzlab ketardi. Xaroba qo'yxonada qo'zichoqlar ma'rashardi. Suruvdan qo'zilay deb qolgan yana o'n besh sovliqni qo'yxonaga haydab kelishdi.

Suruv jindek bo'lса-da, xashak topish uchun sekin yurib ketdi. Endi yaylovda ham ulardan ko'z-quloq bo'lib turish kerak. Shunday paytlar ham bo'ladiki, sovliqning bugun-erta qo'zilab qo'yishini bilmay qolasan kishi. U esa biron ta butaning orqasiga boradi-da, bo'shanib oladi. Agar vaqtida qaralmasa, qo'zichoq zax yerda yotib shamollab qoladi, keyin uning nobud bo'lishi turgan gap.

Shunday bo'lса ham Tanaboy tepalikda uzoq turib qoldi. So'ng qo'lini siltab, qo'yxona tomon yurib ketdi. U yerda hali ishlar ko'p, yana nimalardir qilib ulgurish kerak edi.

Keyin Ibrohim keldi, u un keltirgan edi. Vijdonsiz... «Men sizga saroyni qayerdan topaman. Kolxozdagi qo'yxonalarning bo'lgani shu. Boshqasi yo'q. Kommunizmga borib yetganimizcha yo'q hali», deydi-ya.

Tanaboy unga musht ko'tarib tashlanishdan o'zini arang tutib qoldi.

— Bu yerda sening pichingga balo bormi? Men ish haqida gapiryapman, men ish haqida o'layayapman. Men javobgarman.

— Demak, men sizningcha, o'ylamayotgan ekanmandi? Siz qandaydir bir suruv uchun javob berasiz, men esa hammasi uchun, siz uchun, boshqalar uchun, butun chorvachilik uchun javob beraman. Menga oson deb o'ylaysizmi? — Ibrohim birdan kaftlariga yuzini qo'yib yig'lab yubordi. Bu ayyorning yig'isidan Tanaboy hayratda qoldi. Ibrohim esa ko'z yoshi to'ka turib yana shunday deb g'o'ldirardi: — Men sudga tushaman! Sudga! Hech yerdan biron narsa ololmaysan. Odamlar hatto vaqtincha saqmonchilikka ham borishmayapti. Meni o'ldiringlar, tilka-tilka qilib tashlanglar, boshqa hech narsa qilolmayman. Menden boshqa hech narsa kutmanglar ham. Men behuda, behuda bu ishga o'tgan ekanman...

Shunday qilib, u sodda Tanaboyni xijolatda qoldirib jo'nab ketdi. Keyin uni bu yerda boshqa ko'rishmadi ham.

Hozircha birinchi yuz bosh sovliq qo'ziladi. Vodiyning yuqori qismiga joylashgan Eshim bilan Bektoylarning suruvida qo'zilash hali boshlanganicha yo'q edi. Lekin Tanaboy ofat kelayotganligini sezgandi. Ularning hammasi – hozir qo'ylni boqib yurgan qari cho'pon ayolni hisobga olmaganda – katta yoshdagi uch kishi hamda olti yashar katta qizi qo'zichoqlarni artish, onalarining oldiga olib borish, nima bilan bo'lsa ham istish, go'nglarni tashib chiqarish va to'shash uchun xashak tashib keltirishga arang ulgurishardi. Qo'zichoqlar ochlikdan ma'rashar, ularga sut yetishmas, holdan toygan ona qo'ylarning suti yo'q edi. Endi bu yog'i nima bo'lar ekan?

Cho'ponlarning bosh qashishga qo'li tegmaydigan kunlar va tunlar boshlandi. Qo'ylar shu darajada ko'p qo'zilay boshladiki, ular nafas olishga ham imkon bermasdi.

Kecha havo ularni bir qo'rqtidi! Birdan qattiq sovuq bo'lib, osmonda qora bulutlar o'rmalay boshladni, quruq qor yog'a ketdi. Hamma narsa tumanlikka cho'kib gorong'ilashdi...

Biroq bulutlar tezda tarqalib, havo iliy boshladni. Havodon ko'klam hidi, nam hidi kelardi. «Xudø xohlasa, bahor ham kelib qolar. Kelganda ham muqimroq bo'lib kelsin, agar bir kelib, bir ketadigan bo'lsa, undan yomoni yo'q», – deb o'ylardi Tanaboy panshaxada poxol bilan birga qo'yning yo'l doshini olib chiqar ekan.

Bahor ham keldi, ammo Tanaboyning kutganidek bo'lmadi... U to'satdan tunda yomg'ir, tuman va qor bilan kirib keldi. O'zining butun sovuq yomg'iri bilan o'tov, qo'yxona, xullas, nimayiki bo'lsa, hammasining ustiga tashlandi. Botqoqqa aylangan sovuq yerda ariqlar, ko'lmaklar hosil qilib, ko'pirib tosha boshladni. Chirigan tomdan sizib o'tayotgan chakka devorlarni yuvib, qo'yxonani suv bilan qopladi, qo'y-qo'zilarni qaltiroq bosib, suyak-suyagidan sovuq o'tib ketdi. Hammani oyoqqa turg'izdi. Hamma qo'zichoqlar suvda g'uj

bo'lishib, bir yerga to'planishdi. Ona qo'yalar suvda qo'zilab ma'rashardi. Qo'zichoqlarning tug'ilishi bilanoq bazo'r ularni muzdek suvda cho'miltirib oldi.

Yomg'irpo'sh kiyib, fonus ko'tarib olgan kishilar sarosimada. Tanaboy oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab qoldi. Katta etiklari bilan qorong'ilikda ko'lmaqlar, go'ng shiltalarini kechib yurardi. Yomg'irpo'shining etaklari yaralangan qush qanotidek shapillardi. U xiril-lar, o'zicha so'kinar, odamlarga baqirardi:

– Tezroq misrangni ber! Belkurak? Go'ngni bu yoqqa ag'daringlar! Suvni to'singlar!

Hech bo'limganda qo'yxonaga oqib kirayotgan suvni tezda chetga burib yuborish kerak edi. Muzlab yotgan yerni chopib, ariq qazishdi.

– Fonusni tut! Bu yoqni yorit! Nega qarab turib-san!

Tun tumanli edi. Qor aralash yomg'ir yog'ardi. Uni hech qanday kuch bilan to'xtatib bo'lmasdi.

Tanaboy bir vaqt o'tovga qarab yugurdi. Chiroqni yoqdi. Bu yerda ham hammayoqdan chakka o'tayotgan edi. Biroq qo'yxonadagidek emasdi. Botalari uxlashardi, ularning ko'rpa-to'shami bilan bir quchoq qilib o'rav ko'tarib oldi-da, bir burchakka yotqizdi. U o'tovda qo'zilar uchun joy hozirlamoqda edi. Ko'rpa ivib qolmasin uchun bolalarining ustiga kigizni yopib tashladi, so'ng chiqib qo'yxonadagi ayollarni chaqira boshladi:

– Qo'zichoqlarni o'tovga olib kelinglar! – dedi-yu, o'zi ham o'sha yoqqa chopib ketdi.

Ammo o'tovga bulardan qanchasini joylashtirish mumkin? Ko'p deganda o'ttiz-qirqtasini. Qolganlarini nima qilish kerak? E, hech bo'lmasa qo'ldagilarni saqlab qolsak edi.

Nihoyat tong ham otdi. Yog'ingarchilikning esa hali oxiri ko'rinxmasdi. Biroz tingan bo'lardi-da, keyin yana goh yomg'ir, goh qor, goh yomg'ir, goh qor yog'ishda davom etaverardi...

O'tov qo'zichoqlarga to'lib ketdi. Ular to'xtovsiz ma'rasha boshladi. O'tovda sassiq hid tarqaldi. Tanaboy bilan xotini buyumlarni bir joyga uyib, brezent bilan

yopib qo'yishdi. O'zları esa saqmonchilarning chodiriga ko'chib o'tishdi. Bolalar sovuqqa qotib yig'lasha boshlashdi.

Cho'ponning qora kunlari kelgan edi. U o'z taqdirini qarg'ardi. Hammani, olamdagı hamma narsani so'kardi. Na ovqat yerdı, na yotib uxlardı. Boshidan oyog'igacha jiqla ho'l bo'lgan qo'ylar, sovuqqa qotgan qo'zichoqlar orasida bir nafas tinim bilmasdi. O'lim esa zax qo'yxonadagi qo'y-qo'zilarni qiyrata boshladı. O'limning bu yerga ilma-teshik tom orqali, oynasiz devara orqali, eshiklarning bo'sh o'rni orqali, istagan joydan kirib kelaverishi qiyin emas edi. U kirib keldi-yu, qo'zichoqlarni va zaiflashib qolgan ona qo'ylarni qira boshladı. Cho'pon ko'karib ketgan o'limtik qo'ylarni bir nechtalab tashib, qo'yxona orqasiga uya boshladı.

Dalada, qo'rada esa qorni osilgan bo'g'oz sovliqlar qor va yomg'ir ostida turishardi. Buflarning ham bugunerta qo'zilashi aniq edi. Yomg'ir savalayverganidan ularning jag'lari qarishib, ho'l junlari tutam-tutam bo'lib osilib tushgandi.

Qo'ylarning yaylovga borgisi yo'q edi. Shunday sovuq va loygarchilikda yaylovda nima bor? Qop yopinib olgan keksa saqmonchi ayol qo'ylarni haydardi, ular esa, go'yo bu yerda o'zlariga jannat tayyorlab qo'yilgandek, hadeb orqaga tisarilishardi. Ayol yig'lardi, ularni to'plardi, yana haydardi, qo'ylar esa, tumtaraqay bo'lib yana orqalariga qochishardi. Tanaboy g'azablangan holda chopib chiqdi. Qani endi bu tentak qo'ylarni tayoq bilan savalasang... Ammo ularning qornida bolasi bor. Boshqalarni chaqirib, hammalari birgalikda ne mashaqqatlar bilan qo'ylarni yaylovga haydab yuborishdi.

Bu ofat boshlanganidan beri Tanaboy qancha vaqt o'tganini bilmasdi. U qo'zilatish paytidagi hisob-kitobidan adashib qolgandi. Chunki qo'ylarning ko'pchiligi ikkitadan, hatto uchtadan qo'zilashdi. Ammo butun boylik nobud bo'ldi, hamma mehnat zoye ketdi. Qo'zichoqlar tug'ilgan kuniyoq loy va go'ng shiltasi ustida harom o'lib qolaverdi. Qolganlari ham yo'talardi, xirillardi, ichi ketib, bir-birini bulg'ab, iflos qilib tash-

lardi. Bolasiz qolgan sovliqlar ma'rashar, u yoqdan-bu yoqqa yugurishar, to'lg'oq tutib yotganlarini turtib bosib o'tishardi. Bularning hammasi qandaydir g'ayritabiyy ofat edi. Tanaboy qo'zilashning hech bo'limganda biroz kechroq boshlanishini juda-juda istardi.

Sovliqlar esa xuddi maslahatlashib qo'ygandek birining ketidan biri, birining ketidan biri qo'zildi.

Tanaboyning qalbida shunday dahshatli g'azab o'ti yongan ediki, u bu yaramas qo'yxonada sodir bo'lgan jamiki narsalarga – qo'ylarga ham, o'ziga ham, o'z hayotiga ham, bu yerda jon berib, jon olib yurgan ishiga ham nafrati oshib, ko'z oldini qorong'ilik qoplay boshladи.

U alamdan es-hushini yo'qotib qo'yan edi. O'yayxollardan ko'ngli behuzur bo'lar, ularni qanchalik quvib yuborishga urinmasin, sira nari ketmas, qalbiga, miyasiga joylashib olmoqchi bo'lardi: «Nega bunday? Bu kimga kerak edi? Nega biz qo'ylarni qo'zilatyapmiz, agar ularni saqlay olmasak? Kim aybdor bunga? Kim? Javob ber, kim? Sen va senga o'xshagan vaysaqilar. Biz hammasini ko'taramiz, yetib olib, o'zib ketamiz, so'z beramiz. Chiroqli gapiramiz. Mana endi harom o'lgan qo'zichoqlarni ko'tar. Chiqarib tashla ularni. Huv anovi halqobda o'lib yotgan sovliqni sudrab kel. Ko'rsat o'zingning kim ekanligingni...»

Ayniqsa, kechalari tizzasigacha loy va qo'y siydigini kechib yurarkan, alamli va iztirobli o'ylardan Tanaboyning nafasi qisilardi.

O', bu qo'zilatish pallasining uyqusiz tunlari! Oyoq ostingda bijib ketgan go'ng botqog'i, tepanagdan esa yomg'ir quyib turardi. Qo'tonda tinimsiz shamo'l izg'ib, dam o'tmay fonusni o'chirardi. Tanaboy yangi tug'ilgan qo'zichoqlarni bosib olmaslik uchun paypaslanib, qoqilib-surinib emaklab borib, fonusni topib yoqar va uning yorug'ida o'zining go'ng va qonga belanib qop-qora bo'lib shishib ketgan qo'llarini ko'rар edi.

U ko'pdan beri o'zini oynada ko'rmagan edi. Sochlari oqarib, ancha keksayib qolganini sezmasdi. Endi uni keksalar qatoriga qo'shsa bo'lardi. O'ziga qaray olmasdi, bunga fursat ham yo'q edi. Ovqatlanishga, yuvinishga vaqt topmas edi. Bir zum o'ziga ham,

boshqalarga ham tinchlik bermasdi. Nihoyat ishining batamom barbod bo'layotganini ko'rib, yosh saqmonchi qizni otga mindirdi:

— Yo'rtib borib Jo'rani top. Ayt, tezda yetib kelsin. Agar kelmaydigan bo'lsa, u holda qaytib ko'zimga ko'rmasin.

Kechga tomon qiz ot choptirib, ko'm-ko'k ko'karib, butunlay ivib ketgan holda qaytib keldi va otdan sakrab tushib:

— Kasal ekan u, Tanake, to'shakda yotibdi. «Agar o'lmasam bir-ikki kundan so'ng borib qolaman» deb aytdi, — dedi.

— Ilohim shu kasaldan o'nglanmasin! — deb qarg'adi Tanaboy.

Jaydar uning tanobini tortib qo'yemoqchi bo'ldi-yu, lekin botina olmadi, hozir buning mavridi emasdi.

Oradan uch kun o'tgandan so'ng havo ochila boshladi. Bulutlar erinchoqlik bilan sudralib ketishdi, tog'lardan tuman ko'tarildi. Shamol tindi. Biroq endi vaqt o'tgan edi. Bu kunlar ichida bo'g'oz sovliqlar shu daraja oriqlab ketgan ediki, hatto ularga qarab ham bo'lmasdi. Quruq suyaklari qolgan bu jonivorlar shishgan qorinlarini osiltirib, cho'pdek oyoqlarida arang turishardi. Ularni bolasiga sut beradigan sovliq deb bo'lmasdi. Qo'zilab, hozircha tirik qolgan sovliqlar va qo'zichoqlar-chi? Ulardan qanchasi bahorga yetib olib, ko'katga og'zi tekkandan keyin sog'ayib ketarmikin? Ertami-kechmi, kasallik ularni yiqitadi. Tirik qolgan taqdirda ham, hech balo bo'lmaydi: ulardan na jun chiqadi, na go'sht...

Havoning endigina ochilishi bilan yana boshqa falokat yuz berdi — yer yuzi muzlay boshladi. Biroq tushga borib yumshadi. Tanaboy quvonib ketdi. Eh-timol, qolganini saqlab qolish mumkin bo'lar. Yana belkurak, panshaxa, zambilni ishga solishdi. Oz bo'lsa ham qo'yxonaga yo'l ochish kerak edi. Bo'lmasa qadam bosishga yo'l qolmagandi. Biroq bu ish bilan uzoq shug'ullanishmadidi. Chunki onasiz qolgan qo'zichoqlarni emizishi, ularni bolasiz sovliqlarning yoniga olib borishi kerak edi. Ular esa bo'ysunishmas, begona qo'zichoqlarni

yaqiniga yo'latishmasdi. Qo'zichoqlar tumshuqlari bilan turtib-niqtab sut so'rashar, muzdek og'izchalari bilan harmoqlarni tortqilab so'rishardi. Barmog'ingni tortib olsang, yomg'irpo'shingning iflos barini shimishardi. Ular och edi. Ma'rab yurgan qo'y to'dalari orqasidan chopishardi.

Dod-faryod qil, tars yoril – baribir befoyda edi. Yolg'iz xotin-xalajdan nima ham talab qilishi mumkin. Oyoqda arang turishibdi bechoralar. Mana, necha kundirki, yomg'irpo'shlari qurigani yo'q. Tanaboy ularga hech nima demasdi. Lekin bir safar o'zini tutib turolmadi. Keksa xotin qo'ylarni kunning yarmida qo'raga haydab keldi va Tanaboyga yordamlashmoqchi bo'ldi. Tanaboy qo'ylarning ahvolidan xabar olmoqchi bo'lib yugurib chiqdi. Ularga ko'z tashlashi bilan tutaqib ketdi. Qo'ylar turgan joyida bir-birovining junini yamlab yeyishayotgan edi. Demak, bu qo'ylar ochligidan o'lib ketadigan bo'libdi. Tanaboy o'dag'aylab ayolning oldiga bordi:

– Senga nima balo bo'ldi! Ko'rmayapsanmi? Nega nafasing chiqmaydi? Yo'qol bu yerdan! Suruvni hayda. Bir yerda turib qolmasin. Bir-birining junini g'ajishga ham yo'l qo'yma. Yurib tursin. Biror minut ham to'xtatma. Bo'lmasa o'ldiraman!

Bu yerda yana boshqa falokat – egizak tuqqan sovliqlardan biri o'z bolalarini yaqiniga yo'lattirmayapti. Ularni suzib, tepib haydab yuboryapti. Qo'zichoqlar bo'lsa intilib, zorlanishadi. Bu hol ona qo'yning o'z jonini saqlab qolish uchun qo'zichoqlarni emizishdan g'ayri ixtiyoriy ravishda voz kechganida yuz berishi mumkin edi, chunki, uning organizmi kuch-quvvatdan ketgan bo'lib, boshqani boqishga holi kelmaydi. Bu hodisa yuqumli kasallikdek juda tez tarqaladi. Bitta sovliq bolasini emizmay qo'ysa bas, boshqalar ham undan o'rnak oladi. Tanaboy sarosimaga tushib qoldi. U qizi bilan birligida ochlikdan vahshiy holatga kelib qolgan ona qo'yni qo'zichoqlari bilan tashqariga, qo'raga olib chiqdi. Boshlab Tanaboyning o'zi sovliqni ushlab turdi. Qizi esa qo'zichoqlarni uning yeliniga olib bordi. Biroq ona yulqinar, tipirchilar, tepib tashlar edi. Qizcha bu ishni uddalay olmadi.

- Dada, ular emisha olmayapti.
- Emishadi, o'zingning uquvining yo'q, eplay olma-yapsan.
- Yo'g'-e, ko'ryapsiz-ku, ular yiqilib tushishyapti, - dedi qizcha yig'lagudek bo'lib.
- Qani ushlab tur-chi, men o'zim!

Koshki uning kuchi yetsa ona qo'yni ushlab turishga. Otasi qo'zichoqni ona qo'yning yeliniga tutishi, u endigina ema boshlashi bilan ona qo'y qizchani yigitib qochib qoldi. Tanaboyning toqati toq bo'ldi. Qizning yuziga bir tarsaki tushirdi. U hech qachon bolalarini urmagan edi. Endi esa alamini qizidan oldi. Qizcha burnini tortib yig'lay boshladi. Tanaboy bo'lsa uni tashlab, qo'l siltagancha chiqib ketdi.

Biroz yurib qaytib keldi, qanday kechirim so'rashini bilmasdi. Uning esa o'zi chopib keldi:

- Ota, ona qo'y qo'zichoqlarni emiza boshladi. Biz oyim bilan ushlab turdik. U endi qo'zichoqlarini haydab yubormayapti.

- Unday bo'lsa juda soz. Balli, qizim.

Tanaboy birdan o'zini yengil his qildi. Go'yo ishlar biroz yurishib ketgandek bo'ldi. Ehtimol, qolganlarini ham saqlab qolish mumkin bo'lar. Qara, havo ham yumshayapti! Balki birdan chinakam bahor boshlanib, cho'ponning qora kunlari o'tib ketar? Yana u ishga tutindi. Ishlash, ishlash, ishlash kerak edi – ofatdan qutulishning shundan boshqa yo'li yo'q edi.

Otda o'spirin hisobchi yigit kelib qoldi. Xayriyat... Hol-ahvol so'ray boshladi.

Tanaboy uni so'kmoqchi bo'ldi-yu, biroq u bechorada nima ayb?

- Ilgariroq qayerda eding?
- Qayerdasi nimasi? Yaylovma-yaylov yuribman, yakka o'zim ulgurolmayapman.
- Boshqa suruvlarda ahvol qalay?
- Ahvol chatoq, shu uch kun ichida ko'pi qirilib ketdi.
- Cho'ponlar nima deyishyapti?
- Eh, so'ramang. So'kinishadi. Bir xillari gaplashishni ham istamaydi. Bektoy meni hovlidan haydah

chiqarib yubordi. Xunob bo'lib yuribdi, yaqiniga yo'lab bo'lmaydi.

— Ha-a. Uning holidan xabar olgani borishga mening ham qo'lim tegmayapti. Balki vaqt topib birrov borib kelarman. Sen-chi?

— Nima men? Hisob qilaman.

— Bizga biron yordam bo'larmikin?

— Bo'ladi. Jo'ra sog'ayib chiqibdi, deyishyapti. Aravalarda pichan, poxol yuborgan emish. Otxonalardagi yem-xashaklarning hammasini olishihdi. O'lsa ham otlar o'lsin degan emish. Ha, aravalarni qayerdadir tiqilib qolishgan deyishadi, yo'lning qanaqaligini bilasiz-u...

— Yo'l emish! Nega ilgariroq o'ylab ko'rismabdi? Hamisha ahvol shu. Endi aravalarni yuborishdan ne foya-da. Hali men ularning adabini berib qo'yaman! — deb do'q urdi Tanaboy. — So'rab o'tirmsandan o'zing borib ko'r, hisoblab yozaver. Endi menga baribir! — dedi u va qo'lini siltab qo'yxonaga kirib ketdi. Bugun yana o'n beshta sovliq qo'zilagan edi.

Tanaboy yangi tug'ilgan qo'zichoqlarni yig'ib yurgan edi, bir mahal hisobchi unga qog'oz uzatdi:

— Nobud bo'lgani to'g'risidagi aktga qo'l qo'ying.

Tanaboy qaramasdan qo'l qo'ydi. U shunday zarb bilan imzo chekdiki, qalam sinib ketdi.

— Xayr, Tanake. Balki biron gapingiz bordir, ayting, yetkazaman.

— Aytadigan hech qanday gapim yo'q, — dedi u yigitga, so'ng yana har qalay uni to'xtatdi. — Bektoyga yo'liqib o't. Ayt: ertaga vaqt topib tushga yaqin borib qolarman.

Tanaboy behuda tashvishlangan edi. Bektoyning o'zi ilgariroq yetib keldi. Kelganda yana qanday keldi deng...

O'tgan kecha yana shamol esib, ertalabgacha yengilgina qor yog'ib chiqdi. Qo'rada tun bo'yi oyoqda turgan qo'ylarning ustini oqartirib qo'ydi. Ular endi yotishmasdi. G'uj bo'lib olib, qimir etmasdan, atrofdagi hamma narsaga beparvo turishardi. Yem-xashaksiz uzoq qolib ketishdi. Bahor bilan qish o'rtasidagi kurash juda ham cho'zilib ketdi.

Qo'yxona sovuq. Qor uchquni tomning yomg'ir

yuvib ketgan joylaridan uchib tushib, fonusning xira yorug'ida parvonadek aylanib, sekingina pastga, sovuq qotgan qo'y va qo'zichoqlarning ustiga qo'nardi. Tanaboy bo'lsa jangdan keyin o'liliklarni ko'mish komandasidagi soldatlardek hamon qo'ylarning orasida turtinib-surtinib yurib, o'z xizmatini bajarish bilan ovora edi. Endi u o'zining mushkul ahvoliga ko'nikkan, og'ir xayollar, g'azabi alamzadalikka aylangan edi. Alamlari yuragiga nashtar bo'lib qadalib, egilishga ham imkon bermasdi. U etigi bilan atalaga aylangan loyni kechib, o'z ishini bajarib yurarkan, bu tungi soatlarda ba'ziba'zida o'zining o'tgan hayotini eslardi...

U yoshlik kezlarida dastyor cho'pon bo'lib yurgandi. Akasi Quliboy bilan birgalikda bir qarindoshlarining qo'ylarini boqishardi. Oradan bir yil o'tgach, ularning faqat ovqat uchun, kundalik tirikchilik o'tkazish uchun ishlab yurganlari ma'lum bo'ldi. Xo'jayin ularni aldadi. U gaplashishni ham istamadi. Shu tariqa ular yirtiq choriqlarini sudrab, quppa-quruq, eski xaltalarini yelkalariga osgancha, jo'nab ketishdi. Keta turib, Tanaboy xo'jayiniga do'q urdi:

«Qarab tur hali, ulg'ayganimdan keyin buni esingga solib qo'yaman!» Quliboy esa hech nima demadi. U ukasidan besh yoshlar chamasi katta edi. U bu bilan xo'jayinni qo'rqiqa olmasliklarini yaxshi bilardi. O'zi xo'jayin bo'lib qo'ylarga, yerlarga ega bo'lsa, unda boshqa gap. «Xo'jayin bo'lsam, ishchilarni hech qachon xafa qilmayman», deb aytgan edi u o'sha kezlardayoq. Shu bilan ular o'sha yili ajralishib ketdilar. Quliboy boshqa boyning qo'ylarini boqishga ketdi. Tanaboy bo'lsa Aleksandrovkaga borib, muxojir rus Efremov qo'lida batrak bo'lib ishladi. Bu kishi uncha badavlat bo'lmay, bir juft ho'kizi, bir juft oti va o'z yeriga ega edi. G'alla ekardi. Avliyoota shahridagi voltsov kali tegirmonda bug'doy torttirardi. O'zi ertadan to kechgacha ishlardi. Tanaboy ko'proq uning ho'kizlariga va otlariga qarash bilan ovora bo'lardi. Efremov talabchan edi, ammo adolatsizlik ham qilmasdi. Belgilangan haqni berib turardi. O'sha davrda qirg'iz kambag'allari o'z hamyurtlari qo'lida ishlashdan ko'ra rus xo'jayinlariga

yollanishni afzal ko'rishardi. Tanaboy ruscha gapirishni o'rgandi, xo'jayini bilan bирgalikda yuk tashib Avliyo ota shahriga borib keldi, oz bo'lsa-da begona joylarni ko'rди. Ko'p o'tmay revolutsiya yetib keldi va hamma narsa ostin-ustin bo'lib ketdi. Tanaboylarning kuni tug'di.

Tanaboy ovulga qaytib keldi. Endi o'zgacha hayot boshlangan edi. Yer ham, erk ham, hakam ham – hammasi birdan kelgan edi. Tanaboyni batraklar komitetiga saylashdi. U Jo'ra bilan o'sha yillari topishgan edi. Jo'ra xat-savodli edi, yoshlarni harf yozishga, xijjalarga bo'lib o'qishga o'rgatardi. Tanaboy singari batraklar uchun qanday bo'lmasin xat-savod o'rganish juda zarur edi. Tanaboy Jo'ra bilan bирgalikda komsomol yacheykasi-ga kirdi. Ular partiyaga ham bir vaqtida o'tishgan edilar. Hammasi o'z yo'lida ketayotgan, kambag'allar katta yo'lga chiqib olishgan edi. Kollektivlashtirish boshlanganda Tanaboy bu ishga butun vujudi bilan berilib ketdi. Yer, qoramol, mehnat istak-orzularning hammasi umumiy bo'lganligidan, yangi dehqon turmushi uchun kurashda u jonbozlik ko'rsatmasa, kim ko'rsatardi. Yo'qolsin quloqlar! Jang-u jadal, keskin kurash davri boshlandi. Kunduz – egarda, tunda – majlis-u ken-gashlarda. Quлоqlar ro'yxatga olinardi. Boylar, mul-lalar va boshqa davlatmand kishilar daladagi yovvoyi o'tlar singari surib tashlanardi. Yangi maysalarning unib chiqishi uchun dalalarni tozalalash kerak edi. Quлоqlarni tugatish ro'yxatida Quliboy ham borligi ma'lum bo'lib qoldi. O'sha kezlarda Tanaboy majlis va miting o'tkazib, ot choptirib yurar ekan, akasiga jir bitib qolgan edi. Bir bevaga uylanib olgan, xo'jaligi rivojlanva boshlagan edi uning. U qo'y, sigir, bir juft ot, qulunli sog'in biya, so'qa, borona va boshqa narsalarga ega edi. Yig'im-terim paytida odam yollardi. Uni boyib ketdi deb bo'lmasdi. Ammo kambag'al ham emas edi. Yaxshi yashar, yaxshi ishlar edi.

Qishloq sovetining majlisida navbat Quliboya kelganda, Jo'ra:

– Qani o'rtoqlar, bir o'ylashib ko'raylik. Uni quloq qilish kerakmi yoki yo'qmi? Quliboy singari kishilar-

ning kolxozga ham foydasi tegib qoladi. Axir uning o'zi kambag'allardan chiqqan-ku. Teskari tashviqot ham olib bormagan, — dedi.

Qiliboy haqida turlicha gaplar bo'ldi. Kimdir uning tarafini oldi, kimdir qarshi chiqdi. So'zlamagan Tanaboy qolgan edi. U qarg'a singari hurpayib o'tirgan edi. O'gay aka bo'lsa ham baribir aka emasmi... Lekin hozir unga qarshi borishi kerak edi. Ular bir-birlarini kam ko'rishsa ham, tinch-totuv yashashardi. Har biri o'z ishi bilan ovora edi. Unga tegmanglar, desa, unda boshqalar nima bo'ladi — boshqalarning ham himoya-chisi, qarindosh-urug'lari topilib qoladi. O'zlarining hal qilinglar, desa-chi — unda o'zini bir chekkaga tortdi, deyishlari mumkin.

Odamlar uning nima deyishini kutayotgan edilar. Ular kutayotganliklari uchun ham Tanaboyning jahli chiqar edi.

— Sen, Jo'ra, hamma vaqt shunaqa qilasan! — deb so'zlay boshladи u o'rnidan turarkan. — Gazetalarda kitobiy odamlar, haligi ziyolilar haqida yozadilar. Sen ham ziyolisan. Sen doimo shubhalanasan, biron ishkali chiqib qolmasin, deb cho'chiganing-cho'chigan. Nimaga shubhalanish mumkin? Ro'yxatda bor ekan — demak quloq! Hech qanday rahm-shafqat ham kerak emas! Sovet hokimiyyati uchun men o'z otamga ham rahm-shafqat qilmayman. U bo'lsa mening akam, sizlar xijolat tortmasanglar ham bo'ladi. Sizlar yo'q desangiz, uni mening o'zim quloq qilaman.

Qiliboy ertasiga unikiga keldi. Tanaboy akasini sovuq kutib oldi, ko'rishish uchun qo'l ham bermadi.

— Nima uchun meni quloq qilasizlar? Axir, birga batrak bo'lib ishlaganmidik? Axir, boy o'z hovlisidan sen bilan meni birga haydar yubormaganmidi?

— Endi buning ahamiyati yo'q. Sening o'zing boy bo'lib qolding.

— Qanday boy bo'layin men? O'z mehnatim bilan topdim-ku bularning hammasini. Hech narsani ayamayman, kerak bo'lsa olinglar hammasini. Faqat nega meni quloqqa chiqarasizlar? Xudodan qo'rq, Tanaboy!

— Baribir sen dushman sinfsan. Biz esa kolxoz qu-

rishimiz uchun seni yo'qotishimiz kerak. Sen bizning yo'limizda ko'ndalang bo'lib turibsan, biz seni yo'ldan olib tashlashimiz kerak...

Bu ularning so'nggi marta so'zlashishi edi. Mana, oradan yigirma yil o'tdi, ular bir-biri bilan gaplashgani yo'q. Qilibayni Sibirga surgun qilganlarida, ovulda qancha gap-so'z bo'ldi. Ozchilik Tanaboyning tarafini olardi. Ko'pchilik esa: «Bunaqa ukani Xudo ko'rsatmasin. Bundan ko'ra qarindosh-urug'siz bo'lganing yaxshi» – deb qoralashardi uni. Ayrim kishilar esa hatto bunday gaplarni to'g'ridan to'g'ri uning yuziga ham aytishar edilar. Ochig'ini aytganda, odamlar o'shanda undan yuz o'girgan edilar. Oshkora suratda bo'lmasa ham, uning nomzodini ko'rsatganlarida ovoz berishdan bosh tortib, betaraf qolardilar. Shu tariqa u bora-bora aktivlikdan chetga chiqib qoldi. Qulqlar kolxozlarga o't qo'yib, kishilarni otganlardan so'nggina, u o'zini oqlab oldi, eng muhim, kolxozi jonlanib, yildan yilga ishlar yurishib ketdi. Endi butunlay o'zgacha hayot boshlangan edi. Yo'q, o'sha paytlarda bo'lib o'tgan ishlarning hammasi zoye ketmagan edi.

Tanaboy o'sha yillardagi bo'lib o'tgan hamma narsalarni to ipidan ignasigacha xotiridan o'tkazardi. Go'yo uning butun hayoti kolxozlar kuchga kirgan o'sha ajoyib damlarda o'tib ketgandek edi. U yana o'sha kezlardagi «Qizil durrali zarbdor qiz» ashulasini esladi, kolxozga bиринчи мarta berilgan polutorka mashinasini, uning kabinasi yonida o'zining qizil bayroq ushlab turganini esladi...

Tanaboy tuni bilan qo'yxona atrofida yurib chiqdi. U shunday qilib o'zining og'ir vazifasini o'tar va achchiq o'ylarini o'ylar edi... Nega endi hamma ishdan bunchalik putur ketyapti? Balki boshqa yo'ldan ketishgandir? Ehtimol yanglishishgandir? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas! Tanlangan yo'l – to'g'ri yo'l edi. Bo'lmasa nega bundoq bo'ldi? Adashib qolishdimikin? Yo'ldan ozishdimikin? Qachon va qanday yuz berdi bu ahvol? Mana endi musobaqa ham boshqacha bo'lib ketdi – majburiyat yozishadi-yu, vassalom, ahvoling nima kechdi, senga nima bo'ldi, nima qo'ydi, bu bilan hech kimning

ishi yo'q. Ilgari qizil, qora doskalar bo'lardi, har kuni qancha gap-so'z, qancha bahslashuvlar bo'lardi: kimni qizil doskaga, kimni qora doskaga yozishardi, kishilar uchun bu muhim edi. Endi bo'lsa bularning hammasi eskirgan, vaqt o'tib ketgan narsalar emish. Xo'sh, ular nima bilan almashdi? Quruq gap, va'dabozlik bilan. Amalda esa hech narsa yo'q. Nega shunday? Bularning hammasiga kim ayhdor?..

Bunday cheksiz o'y-xayollardan Tanaboy toliqib ketdi. Kalavaning uchini topolmay sarosimaga tushdi. Ishning ko'pligidan gangib qoldi. U yosh saqmonchi ayolning devorga suyanib ko'z yumganini, uning yallig'lanib qizarib ketgan ko'zlarining uyqu bilan olishayotganini va keyin sekin sirg'alib yerga o'tirib qolib, boshini tizzasiga qo'yanini ko'rди. Uni uyqudan uyg'otmadи. O'zi ham devorga suyanganicha, sekin pastga sirg'alib tusha boshladi, o'zini tuta olmadi, yelkasidagi og'irlik uni ham asta-sekin pastga bosa boshladi.

U bo'g'iq qiyqiriqdан va yerga allaqanday bir narsaning «gup» etib yiqilib tushganidan uyg'onib ketdi. Hurkib ketgan qo'ylar uning oyoqlarini bosib o'tishdi. Tanaboy nima gap ekanligini bilmasdan o'rnidan irg'ib turib, atrofni ko'zdan kechira boshladi. Tong yorishib qolgan edi.

— Tanaboy, Tanaboy, yordam bering, — deb chaqirayotgan edi xotini.

U tomon saqmonchi xotinlar, ularning orqasidan Tanaboy yugurib borishdi. Qarashsa, u shiftdan qulab tushgan to'sin yog'och ostida yotibdi. To'sinning bir uchi yomg'ir yuvib ketgan devordan sirg'alib chiqib, chirib qolgan tomoning og'irligidan qulab tushgan ekan. Uyqudan asar ham qolmadi.

— Jaydar! — deb baqirib yubordi u va yelkasi bilan to'sining tagiga kirib, kuch bilan uni ko'tara boshladi.

Jaydar voy-voylaganicha yog'och ostidan emaklab chiqdi. Xotinlar bir narsalar deb yig'lab uni paypaslab ko'ra boshladilar. Qo'rquvdan hech narsani tushunolmay qolgan Tanaboy ularni har tomonga surib, qaltiroq qo'llari bilan xotinining guppisi ostini paypaslay boshladi.

– Nima, nima bo'ldi senga?
– Voy belim! Belginam!
– Lat yedimikin? Qani, kelinglar! – dedi Tanaboy va darhol yomg'irpo'shini yechib berdi. So'ng unga Jaydarni yotqizishib qo'yxonadan olib chiqishdi.

Palatkaga olib borib sinchiklab ko'rishdi. Sirtdan qaraganda lat yemagandek edi. Ammo to'sin qattiq tekkan ekan. Og'riq azobidan qimirlay olmasdi.

Jaydar yig'lay boshladi.

– Endi nima bo'ladi? Shunday dolzarb kunlarda-ya?
Endi nima qilasizlar?

«Ey Xudo! – dedi Tanaboy xayolan. – Tirik qolganingga shukur qilsang-chi. Qurib ketmaydimi bu ishlar! Faqat sog' qolgan bo'lsang bas, boyoqishim...»

U xotinining boshini silay boshladi.

– Nima bo'ldi senga, Jaydar, tinchlan. Sog'ayib oyoqqa turib ketsang bo'Igani. Bu ishlar hech gapmas, eplaymiz...

Shundan keyingina ayollar o'zlariga kelib, birbirlariga gap berishmasdan Jaydarga nasihat qilib, uni tinchlantira boshladilar. Jaydar ham yengil tortgandek, ko'z yoshi aralash kulimsiradi.

Mayli, bo'lar ish bo'ldi. Xafa bo'lmanglar. Men uzoq yotmayman. Bir-ikki kundan so'ng turib ketaman, mana ko'rasizlar.

Ayollar unga o'ren solishga va gulxan qalashga hozirlik ko'rdilar. Tanaboy esa qo'yxonaga qaytib ketdi. U baxtsizlik yonlamalab o'tib ketganiga hamon ishonmasdi.

Tong otganda hammayoqni oppoq momiq qor bosgan edi. Qo'yxonada Tanaboy to'sin ostida qolgan yana bitta ona qo'yni topib oldi. Boya ular to'polonda buni ko'rishmagan ekan. Qo'zichoq o'lib yotgansovliqning yelinini tumshuqchasi bilan turtkilab yotardi. Buni ko'rib Tanaboyning yuragi orqasiga tortib ketdi. Biroq xotinining omon qolganini o'ylab, ko'ngli biroz taskin topgandek bo'ldi. Tanaboy qo'zichoqni olib, boshqa sovliqni izlab ketdi. So'ng to'sin ostiga devorga suyab tirgovich qo'ya turib, xotinining ahvoldidan xabar olish uchun borish zarurligi haqida o'yADI.

Tashqariga chiqqanda yaqinginada qor ustida tentirab yurgan qo'ylar suruviga ko'zi tushdi. Begona bir cho'pon qo'ylarni bu tomon haydab kelayotgan edi. Bu qanday otar bo'ldi? Nega u qo'ylarni bu yoqqa haydab kelyapti? Ular aralashib ketadi-yu, bu qandoq bo'ldi endi? Tanaboy bu ovsar cho'ponga begona joylarga kelib qolganini aytib ogohlantirmoqchi bo'ldi.

Tanaboy yaqinroq borib, suruvni Bektoy haydab kelayotganini ko'rди.

— Hoy, Bektoy, senmisan?

Bektoy hech nima demadi. Indamasdan qo'ylarini bu tomon haydab kelaverdi, u tayoq bilan qo'ylarning orqasiga do'pposlardi. «Iye, bo'g'oz sovliqlarga nega buncha azob beryapti u?» — deb Tanaboyning jahli chiqdi.

— Qayerdan kelyapsan? Qayoqqa? Salomatmisan?

— O'sha yoqdan. Qayoqqa kelayotganimni esa, o'zingiz ko'rib turibsiz, — deb Bektoy unga yaqin keldi. U belini chilvir bilan mahkam bog'lab, qo'lqopini qo'yniga, yomg'ir-po'shining ostiga tiqib qo'ygan edi.

Tayog'ini orqasida tutganicha bir necha qadam narida to'xtadi, ammo salomlashmadi. Jahl bilan tupurdi-da, qor ustidagi tupugini oyog'i bilan ezg'iladi. Boshini ko'tardi. O'sib ketgan qop-qora soqoli uning yosh va chiroyli yuziga xuddi yopishtirib qo'yilgandek edi. Chaqnab turgan o'tkir ko'zları qovoq ostidan xo'mrayib, nafrat va adovat bilan qarardi. U yana tupurdi va qo'lida ushlab turgan tayog'i bilan qo'ylar tomonishora qilib, titrab-qaqshab shunday dedi:

Oling ularni. Istanangiz sanang, istamasangiz o'zingiz bilasiz, uch yuz sakson besh bosh.

— Nima uchun?

— Ketaman.

— Ketamaning nimasi? Qayoqqa ketasan?

— Boshim oqqan tomonga.

— Axir men aybdormanmi?

— Aybingiz shuki, siz meni otaliqqa olgansiz.

— Nima bo'pti? To'xta, to'xta deyman, qayoqqa? Qayoqqa otlanyapsan? — dedi u va faqat shundan keyingina o'z otalig'idagi cho'ponning niyatini anglab

yetdi. Boshiga qo'yilib kelgan qondan yuragi siqilib, butun vujudi qizishib ketdi. — Bu nimasi, a? — dedi u bo'shashib.

— Bo'lar ish bo'ldi. Qo'lidan kelgani shu. Jonimdan to'ydin!

— Sen nimalar deyayotganiningni tushunyapsanmi? Bugun-erta sovliqlar qo'zilaydig'ku. Shunaqayam bo'ladimi?

— Bo'ladi. Biz bilan shunday muomala qilar ekanlar, biz ham shunday qilishimiz kerak. Xayr! — Bektoy tayoqni boshi uzra aylantirib bor kuchi bilan uloqtirib yubordi-da, yurib ketdi.

Tanaboy hayron bo'lib turgan joyida qotib qoldi. Biron narsa deyishga so'z topolmadi. U bo'lsa orqasiga qaramasdan ketib borar edi.

— Esingni yig', Bektoy! — dedi Tanaboy va uning orqasidan yugurdi. — Bunday qilish yaramaydi. Nima qilayotibman, deb o'ylab ko'r! Eshityapsanmi!

— Qo'ysangiz-chi! — Bektoy keskin burildi. — Buni siz o'ylab ko'ring. Men esa odamlar qanday yashayotgan bo'lsa shunday yashashni istayman. Mening boshqalar dan bir yerim kammi? Men ham boshqalar singari shaharda ishlab, moyana olishim mumkin. Nega men bu yerda qo'ylar bilan birga nobud bo'lib ketishim kerak. Yem-xashak bo'lmasa, qo'yxona bo'lmasa, biron boshpana bo'lmasa. Meni tinch qo'ying. Ishingizga boravering. Joningizni jabborga berib, go'ngga botib yuravering! O'zingizga bir qarang, kimga o'xshah ketibsiz. Bu yerda halok bo'lasiz. Sizga bu ham oz, yana shiorlar bilan jar solasiz. Boshqalarni ham orqangizdan ergashtirmoqchi bo'lasiz. Yetar! Meniki bo'ldi! — dedi-yu, oppoq qor ustidan shiddat bilan yurib ketdi va uning izlari qorayib suvg'a to'lib qoldi.

— Bektoy, so'zimga qulog sol! — dedi Tanaboy uning ketidan yetib borib. — Men senga hammasini tushuntiraman.

— Boshqalarga tushuntiring, sizning so'zingizni tinglaydigan ahmoq yo'q endi!

— To'xta, Bektoy, gapirishib olaylik.

Bektoy uning so'zlarini eshitishni ham istamay jo'nab qoldi.

– Sudga tushasan!

– Bundan ko'ra sudga tushgan ham ma'qull – deb javob qaytardi Bektoy jahl bilan va boshqa o'girilib qaramadi.

– Sen qochqinsan!

U ketaverdi.

– Bunaqalarni frontda otib tashlashadil

U hamon to'xtamadi.

– To'xta, deyman! – dedi-da, Tanaboy unga yana yetib olib, qo'lidan ushladi. U esa qo'lini tortib olib, yana yurishda davom etdi.

– Bunga yo'l qo'yimayman, ketishga haqqing yo'q! – dedi Tanaboy va uni yelkasidan burib, o'ziga tortdi. Shu payt to'satdan ko'z o'ngi xiralashib, atrofdagi op-poq tepalar gir aylanib ketdi. Kutilmaganda jag'iga kelib tushgan musht uni oyoqdan qulatgan edi.

U hushini yig'ib, boshini ko'targanda, Bektoy al-laqachon tepalik orqasida g'oyib bo'lgandi. Uning ortida zanjir halqalari singari yolg'iz oyoq izlari qorayib qolgan edi.

– Sob bo'ldi bu yigit, ketdi, – deb ingrardi Tanaboy emaklab o'rnidan turarkan. Qo'llari qor aralash loyga botgan edi. Nafasini rostlab oldi. Bektoyning qo'ylarini to'plab, boshini quyi solgancha, o'z suruvi tomon hay-dab ketdi.

XVII

Ovuldan chiqqan ikki otliq tog' tomon yo'rtib kelardi. Ularning biri saman otda, ikkinchisi to'riq otda edi. Otlarning dumi qattiq tugib qo'yilgan bo'lib, aftidan, ular olisga ketishayotgandi. Qor aralash loy parchalari tuyoq ostidan shaloplab otilib chiqib, atrofga sachrardi.

Gulsari jilovni tortib yo'rtib borardi. Xo'jayin sog'ayguncha u qantariqda turib dam olgan edi. Biroq hozir uning ustida xo'jayini emas, balki charm palto

ustidan kiyib olgan brezent yomg'irpo'shining barlarini hilpiratib borayotgan allaqanday notanish kishi o'tirardi. Uning kiyimlaridan biroz kraska va rezinka hidi kelib turardi. Jo'ra bo'lak otda, uning yonida borardi. Yo'rg'ani u tumandan kelgan o'rtoqqa bergandi. Gulsari ustida kim o'tirgani bilan endi ishi yo'q edi. Yilqidan, avvalgi xo'jayinidan ajratib olganlaridan beri unga ko'p kishilar mingandi. Har xil odamlar – yaxshilari ham, yomonlari ham, egarda qulay va noqulay o'tiradiganlari ham bor edi ularning ichida. Oliftalarning ham qo'liga tushdi. Ular otga mingandan keyin suyulib ketishar edi! Ular otni choptirib, birdan jilovini tortib to'xtatar, sapchitib orqa oyoqlarida tikka turg'izar va yana urib haydar va yana jilovini zarb bilan tortgancha uni taqqa to'xtatar edilar. Nima qilayotganini o'zлari ham bilmasdilar, faqat hamma uning Gulsarida ketayotganini ko'rsa bas. Hamma-hammasiga ko'nikib qolgan edi Gulsari. Uni otxonada saqlab zeriktirib qo'yimasalar bo'lgani. U hamon avvalgi havas, ishtiyoy bilan yashardi: yugurish, yugurish va yana yugurish kerak edi unga. U kimni olib ketyapti, buning unga ahamiyati yo'q edi. Buning faqat ot ustida borayotgan kishi uchun farqi bor edi. Saman yo'rg'ani berib qo'yishibdimi, demak uni hurmat qiladilar, undan hayiqadilar. Kuchli va chiroyli ot edi Gulsari. Unga mingan kishi tinch, rohat qilib ketardi.

Bu safar yo'rg'aga kolxozga vakil qilib yuborilgan tuman prokurori Segizboyev mingan edi. Unga kolxoz partorgi hamroh bo'lib yurar va bu katta hurmat edi. Partorg og'iz ochmasdi, ehtimol cho'chiyatgandir. Chunki qo'zilatish yomon ahvolda edi. Juda yomon edi. Shunday ekan, og'iz ochmagani, cho'chigani ma'qul. Quruq so'zdan nima foyda. Pastgi lavozimdag'i kishi yuqori lavozimli kishidan hayiqmog'i kerak. Aks holda, hech qanday tartib-intizomning bo'lishi mumkin emas. Shundaylari ham bo'ladiki, ular itoatlaridagi kishilarni o'zлari bilan teng ko'rib muomala qilishadi, keyin esa ana shu kishilardan shunaqa pand yeyishadiki, hasratlaridan chang chiqadi. Hokimiyat katta ish, mas'uliyatli ish, uni boshqarish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Segizboyev egar ustida yo'rg'aning bir tekisda qadam tashlashiga monand tebranib, shularni o'ylab borardi, uning kayfiyati yomon deb ham bo'lmasdi, lekin har holda cho'ponlarni tekshirishga yuborilayotgan ekan, u yerda ehtimol ko'ngilsiz ahvolga duch kelishi mumkin, buni u bilar edi. Qish bilan bahor to'qnash ham-madan ham qo'ylar bilan qo'zichoqlar ko'proq nobud bo'lardi. Ularni saqlab qolishning hech imkoni yo'q edi. Har yili ahvol shunday kechardi. Bundan hamma xabardor edi. Modomiki, uni vakil qilib yuborishgan ekan, demak, u kimnidir javobgarlikka tortishi kerak edi. Rayonda qo'yarning ko'plab qirilib ketishi endi unga qo'l kelishini ham u ichida bish, yurardi. Axir, chorvachilikning og'ir ahvolga tushib qolganiga u, tu-man prokurori, raykom byurosining a'zosi emas, balki birinchi kotibasi javob berishi kerak edi-da. Hali yangi, tumanga yaqindagina kelgan, boshqalarni azobini ham u cheksin. Segizboyev bo'lsa, chetdan qarab turadi, u yoqda yuqoridagi o'rtoqlar ham ko'rishsin, chetdan yangi kotiba yuborib, xato qilib qo'yishmadimikin... Yangi kotibani tayinlashganda Segizboyevning xunobi oshgan, o'zini saylamaganlaridan g'oyat xafa bo'lgan edi. Prokuror bo'lib ishlayotganiga ham necha yillar bo'ldi. U o'zining nimalarga qodir ekanligini necha bor ko'rsatdi. Hechqisi yo'q, uning do'stlari bor, biron nima bo'ladigan bo'lsa, himoya qilishadi. Vaqt yetdi, endi u partiyaviy ishga o'tishi kerak, prokurorlik stulida uzoq o'tirib qoldi... yo'rg'a yaxshi, loy demay, shilta demay kema singari beozor ketib borardi. Partorgning oti terlab-pishib ketgan edi, holbuki, yo'rg'a endigina ter chiqara boshlagandi...

Jo'ra esa o'z o'yłari bilan band. Uning rangi ro'yi bir holatda ozib, so'lg'in yuzi za'faron tortib, ko'zlari kirtayib ketgandi. Yurak kasalidan necha yillardan beri azob chekardi. Vaqt o'tgan sari kasali og'irlashib borar, fikrlari mungli edi. Ha, Tanaboy haq edi. Rais baqirrardı-chaqirardı, lekin bundan nima foyda? Ko'pincha tumanda qolib ketar, doimo qandaydir ish bilan band bo'lar edi. Partiya majlisiga uning masalasini qo'yish kerak edi, tumanda bo'lsa orqaga siltab, kutib turishni

tavsiya qilishardi. Nimani kutish kerak? Go'yo Oldanov o'z istagi bilan ketmoqchi emish, ehtimol, shuning uchundir? Tezroq ketganda ma'qul bo'lardi. Jo'raka ham ketish vaqtি yetgan edi. Undan nima foyda? Doimo kasal. Shomansur kanikulga kelgan edi, u ham bu ishdan bo'shashni maslahat berdi. Ketish-ku mumkin-a, vijdon-chi? Shomansur aqlli bola edi – ko'p narsalar haqida otasidan ko'ra yaxshiroq fikr yuritardi. Qishloq xo'jaligini qanday boshqarish va hokazo – hammasiga aqli yetardi. Ularga yaxshi ta'lim berishyapti, vaqtি kelib, ular ham ta'lim berayotgan professorlarga yetib qolishar, biroq, hali nima bo'ladi, nima qo'yadi, Jo'ra o'lib ketadimi! Ammo o'z g'am-alamlaridan bosh olib ketolmaydi. O'zingdan qochib qutula olmaysan. Ha, odamlar nima deyishadi? Va'da berdi, ishontirdi. Endi bo'lsa kolxozni qarzga botirib, mushkul ahvolga solib qo'yib, o'zi chetga chiqib olib, tinchgina yashayapti, deyishadi? Yo'q, unga tinchlik yo'q, bo'lmaydi ham, yaxshisi – oxirigacha turib berishi kerak. Yordamga kelishar, shuncha uzoq vaqt yordamsiz qoldirishmas, faqat tezroq kelishsa, kelganda ham manaviga o'xshamay, haqiqiy yordam berishga kelishsa edi... bu bo'lsa, ish barbos qilinganligi uchun sud qilamiz, deydi. Sud qilsang qilaver! Hukm chiqarish bilan ishni tuzata olarmiding. Qovog'ini solib kelishini qarang: go'yo tog'dagilarning barisi jinoyatchilar-u, faqat ugina kolxoz ishi uchun jonkuyar... Unga bularning hammasi bir pul, faqat xo'ja ko'rsingagina kelib ketadi. Ammo shunday deb uning o'ziga aytib ko'r-chi...

XVIII

G'ira-shira tuman ichra ulkan tog'lar qad ko'tarib turardi. Ular quyosh nurini ko'rmay, qovoq solgancha, bahaybat pahlavonlar singari mag'rur tumtayardi. Bahor havosi rutubatli, tuman, namgarchilik edi.

Tanaboy o'z qo'yxonasida jon olib, jon berardi, kun sovuq edi. Birdaniga bir necha sovliq qo'zilagan, qo'zichoqlarni qo'yishga joy yo'q, dodini kimga aytishni bilmasdi. Qo'y-qo'zilar ma'rashardi, turtinishardi. Bar-

chasi yeish-ichishni istardi, pashsha singari qirilardi. Bu yoqda esa beli shikastlanib xotini yotibdi. Turmoq-chi bo'ldi-yu, qaddini rostlay olmadi. Mayli, nima bo'lsa bo'lar. Pichoq borib suyakka qadaldi.

Hamon xayolidan Bektoy ketmasdi, befoyda g'azab Tanaboyni ruhan ezib, izardroga solayotgan edi. Bosh olib ketib qolganligi uchun emas (o'sha yoqda daf bo'lsin), boshqalarning iniga tuxum qo'yib ketgan kakku qush singari o'z suruvini unga tashlab ketganligi uchun ham emas (chunki pirovardida birontasini yuborib, uning qo'ylarini olib ketishlari ham mumkin edi), balki bu muttahamning avra-astarini ochib tashlay olmagani, bir gap bilan uni uyaltirib yerga kirgizib yubormagani uchun alam qilardi. Go'dak! Esi yo'q go'dak. Butun hayotini kolxoz ishiga sarflagan keksa communist Tanaboy bo'lsa unga boplab javob qaytarish uchun so'z topolmasa! Cho'ponlik tayog'ini uloqtirganicha ketdi bu ona suti og'zidan arimagan tirrancha. Tanaboy shunday voqeal yuz beradi deb sira o'ylamagan edi.

«Bas!» – deb o'zini to'xtatardi u, ammo bir minutdan so'ng yana o'sha o'ylarga qaytardi.

Mana, yana bitta sovliq qo'ziladi, egizak tug'ibdi, qanday chiroqli qo'zichoqlar. Ammo ularni qayerga joylashtirish mumkin? Qo'ylarning yelini ham shalvirab yotibdi, ha, ularda qayoqdan ham sut bo'lsin? Demak, bular ham nobud bo'ladi! Eh, falokat! Ana, allaqachon u yerda sovuqda qo'y-qo'zilar o'lib yetishibdi. Tanaboy o'limtik qo'zichoqlarni yig'ib olib chiqib ketayotgan edi, halloslaganicha qizi yugurib keldi.

– Dada, boshliqlar kelishyapti.

– Mayli, kelishaversin, – dedi to'ng'illab Tanaboy. –

Sen bor, qizim, oyingga qara.

Tanaboy qo'yxonadan chiqib, ikki otliqqa ko'zi tushdi. «O'! Gulsari! – deb quvonib ketdi u. Qalbidagi eski tor yana bir karra ovoz chiqarib qo'ydi. – Ko'rishmaganimizga qancha vaqt bo'ldi! Uning yurishiga qara, hamon o'shanday!..» Ularning biri Jo'ra edi. Yo'rg'a otda kelayotgan charm paltoli kishini esa u tanimadi. Rayondan kelgan birontasi bo'lsa kerak.

«Ha, nihoyat kelishdi» – deb o'yladi u alamzadalik

bilan. Bu yerda uning shikoyat qilishi, o'z qismatini aytib, yuragini bo'shatib olishi mumkin edi, biroq u bunday qilmaydi, zorlanmaydi, mayli, ular uyalishsin, o'z qilmishlaridan qizarishsin. Shunday ham bo'ladimi? «O'l» deb tashlab qo'yib, o'zlar qoralarini endi ko'rsatishayotgan bo'lsa...

Tanaboy ularning kelishini kutib turmay harom o'lgan qo'zichoqlarni qo'yxona burchagidagi uyumga olib borib tashlash uchun ketdi. Shoshilmasdan qaytib keldi. Ular bu orada qo'raka kirishgan edi. Ottar og'ir nafas olardi. Jo'ra gunohkor va ayanchli bir qiyofada ko'rinardi. Demak, do'sti oldida javobgarligini sezgan. Yo'rg'a ot ustidagi kishi esa g'azabli, dahshatli ko'rinardi. U hatto Tanaboy bilan salomlashmadi ham. Darhol tutaqib ketdi:

— Bu qanday hol! Qayerga borma shu ahvol! Bu yerda nimalar bo'layotganini ko'ryapsanmi? — deb o'shqirdi u Jo'raka yuzlanib. So'ng Tanaboy tomon o'girildi. — Bu nima qilganing, o'rtoq? — dedi u nobud bo'lgan qo'zichoqlarni Tanaboy olib borib tashlagan tomonga ishora qilib. — Cho'pon — kommunist, qo'ylar bo'lsa o'lyapti.

— Ular, ehtimol, mening kommunist ekanligimni bishmas, — deb achitib gapirdi Tanaboy va shu zahotiyog go'yo uning ichida bir narsa shartta uzilgandek, ko'ngli vayron bo'lib, hamma narsa unga farqsiz ko'rinib, ko'z o'ngi qorong'ilashib ketdi.

— Bu bilan nima demoqchisan? — dedi Segizboyev qizarib. — Sotsialistik majburiyat olganmisan?

— Ha, olganman.

— U yerda nima deyilgan edi?

— Eslay olmayman.

— Mana shuning uchun ham sening qo'zichoqlaring harom o'lyapti! — dedi-da, Segizboyev qamchi dastasi bilan yana haligi tomonga ishora qildi va birdan uzangidan ko'tarilib, bu surbet cho'ponning ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'ldi. Lekin u avval Jo'raka o'shqirdi: — Siz qayoqqa qarayapsiz? Odamlar hatto o'z vazifalarini ham bilmaydilar. Rejani buzyaptilar, mollarni o'ldiryaptilar! Siz bu yerda nima ish bilan shug'ullanyapsiz? O'z kom-

unistlaringizni qanday tarbiyalayapsiz? Qanaqa kom-munist u? Men sizdan so'rayapman?!

Jo'ra boshini quyi solib jim turar va qo'lidagi tizginni g'ijimlar edi.

— Bo'lgani shu, — dedi Tanaboy uning o'rniga javob berib.

— Ha, ha, bo'lgani shu degin. Sen zararkunandasan! Sen kolxozi mulkini yo'q qilib yuboryapsan. Sen xalq dushmanisan! Sening o'rning partiyada emas, turmada. Sen musobaqa ustidan kulyapsan.

— Ha, turmada, mening joyim turmada, — deb tas-diqladi Tanaboy boyagidek osoyishtalik bilan. Uning qalbini timdalagan alam va sabr kosasini to'ldirgan achchiq hasratdan jilmaygan lablari pirpirab ketdi. — Xo'sh, yana nima deysan? — dedi u va lablarini qisib, Segizboyevga tikilib turib oldi.

— Nega sen bunaqa gaplashyapsan, Tanaboy? — deb gapga aralashdi Jo'ra. — Nega? Yotig'i bilan tushuntirsang-chi.

— Shunaqami! Hali senga ham tushuntirish kerakmi? Sen nima uchun bu yerga kelding, Jo'ra? — deb baqirdi Tanaboy. — Nega kelding? Sendan so'rayapman? Mening qo'zilarimning o'layotganini aytish uchunmi? Buni o'zim ham bilaman! Yoki tomog'imgacha go'ngning ichida ko'milib o'tirganimni aytish uchun keldingmi? Buni o'zim ham bilaman! Men kolxozni deb jonimni jabborga bergenim uchun aybdormanmi? Buni ham o'zim bila-man...

— Tanaboy! Tanaboy! Es-hushingni yig'ib ol! — dedi Jo'ra va rangi quv o'chgan holda sakrab egardan tushdi.

— Nari turl! — deb itarib yubordi uni Tanaboy. — Men o'z majburiyatimga ham, butun hayotimga ham tu-purdim. Qoch! Mening joyim turmadal! Sen nima uchun manavi charm paltoli yangi manapni boshlab kelding? Meni xo'rash, mening ustididan kulish yoki masxara qilish uchunmi? Meni qamash uchunmi? Qani, ablah, qama meni turmaga! — deb Tanaboy biror narsa olish uchun olazarak bo'lib turdi va qo'liga devorga suyog'liq panshaxa ilinishi bilan Segizboyevga tashlandi. — Qani,

ket bu yerdan, ablah, yo'qol – dedi u va o'zining nima qilayotganini idrok etmay panshaxani silkita boshladi.

Q'o'rqib ketgan Segizboyev yo'rg'aning boshini goh u tomonga, goh bu tomonga tortar edi. Panshaxa gangib qolgan otning boshiga urilib sapchib ketar, sharaqlab yana uning boshiga kelib tushar edi.

G'azabga to'lgan Tanaboy nima uchun Gulsari titrab boshini silkitayotganini, nima uchun suvluq uning qizariq ketgan jag'ini yirayotganini, nima uchun uning qinidan chiqib ketay deb turgan ko'zlarini vahima bosib, ola-kula bo'layotganini tushunmasdi.

– Qoch, Gulsari, nari tur! Men charmga o'ralgan manavi manapni tutib olay, – deb baqirardi Tanaboy gunohsiz yo'rg'aning boshiga ustma-ust tushirib.

Shoshilib kelgan yosh saqmonchi ayol uning qo'liga osilib, panshaxani yulib olishga urindi. Lekin Tanaboy uni itarib yubordi. Otiga minib olgan Jo'ra.

– Qochaylik! Orqaga qochaylik! O'ldirib qo'yadil – deb Tanaboy bilan Segizboyevning o'rtasiga tashlandi.

Tanaboy panshaxa bilan unga ham hamla qildi. Ikkala otliq ham qo'rada chiqib qochib qolishdi. It otlarning dumiga, uzangisiga sapchib, hurib, ularning orqasidan yugurdi.

Tanaboy bo'lsa qoqilib-suqilib ularning izidan chopar, yerdan loy olib orqalaridan otar va hamon baqirardi:

– Mening joyim turmada! Turmada! Yo'qol! Yo'qol bu yerdan! Mening joyim turmada. Turmada!

Keyin u orqaga qaytdi. Lekin hamon nafasi bo'g'ziga tiqilib, o'zicha g'uldirab kelardi: «Mening joyim turmada, turmada! Uning yonida o'z burchini bajarganidan gerdayib ko'ppak it chopib kelardi. U o'z xo'jayinining maqtovini kutardi, lekin xo'jayin unga e'tibor bermasdi.

– Qo'rquvdan rangi o'chib ketgan Jaydar hassaga suyanib oqsoqlanib ro'paradan kelardi.

– Nima qilib qo'ydingiz? Nima qilib qo'ydingiz?

– E, attang!

– Nima attang deyapsiz? Albatta, attang, deysiz.

– Yo'rg'ani bekordan bekorga urganimga achinaman.

— Aqlingiz joyidami o'zi? Nima qilib qo'yaningizni bilasizmi?

— Bilaman. Men zararkunandaman. Xalq dushmaniman, — dedi u nafasi siqilib. Keyin jim bo'lib qoldi va qo'llari bilan yuzini mahkam bekitganicha ikki bukilib, ho'ngrab yubordi.

— O'zingizni bosing, o'zingizni bosing, — deb yalnardi xotini, o'zi ham unga qo'shilib yig'larkan. Lekin Tanaboy hamon tebranib yig'lardi.

Jaydar hech qachon Tanaboyning yig'laganini ko'r-magan edi...

XIX

Shu favqulodda hodisaning uchinchi kuni tuman partiya komitetining byurosi bo'ldi.

Qabulxonada Tanaboy Bekasov o'zini kabinetga chaqirishlarini kutib o'tirardi. Ichkarida u haqda gap borardi. Shu kunlar ichida u ko'p o'yldi. Lekin aybdormi yoki yo'qmi, buni hozircha bila olmasdi. Hokimiyat vakiliga qo'l ko'tarib, og'ir jinoyat qilganini tushunardi. Lekin gap faqat shundagina bo'lganida-ku hamma narsa osonlikcha hal bo'lardi-ya. U o'zining nojo'ya xatti-harakati uchun har qanday jazo berishlariga tayyor edi.

Axir u g'azabdan o'zini bosa olmay, kolxozi uchun jon kuydirib qilgan xizmatlarini shamolga uchirib yubordi, o'zining butun tashvish va ezgu o'ylarini barbos qildi. Endi unga kim ishonadi? Uning ahvolini endi kim tushunadi? Ehtimol, tushunishar? — degan umid uchqunlari ham miltillar edi unda. Hammasini gapiraman: bu yilgi qish haqida, qo'yxona, o'tov haqida, yem-xashak tanqisligi haqida, uyqusiz tunlarim haqida. Bektoy haqida... Mayli, tekshirib ko'rishsin. Xo'jalikni shunday boshqarish mumkinmi?» Endi u bo'lib o'tgan ishlarga sira afsuslanmasdi. «Mayli, meni jazolasinlar, — deb o'yldi u. — Ehtimol, shunda boshqa larga yengil bo'lar, ehtimol, shundan keyin cho'ponlarga qarashar, bizning turmushimiz, qiyinchiliklarimizga e'tibor berishar». Lekin bir minut ham o'tmasdan u butun kech-

mishlarini eslab, yana g'azabiga chiday olmay, tizzalari orasida mushtlarini qisar, qaysarlik bilan o'zinikini o'zi ma'qullardi: «Yo'q, mening hech qanday aybim yo'q!» Keyin yana shubhalanardi...

Qabulxonada negadir Ibrohim ham o'tirardi. «U nima qilib yuribdi bu yerda? O'limtik qidirgan quzg'undek uchib kelibdi» – deb Tanaboyning joni xalqumiga kelib, unga teskari qarab o'tirib oldi. U ham boshini quyi solib, cho'ponga qarab xo'rsinib, jimgina o'tirardi.

«Nega buncha cho'zishyapti? – deb o'yлardi stulda tipirchilab o'tirgan Tanaboy. – Jazo berishadigan bo'lsa – berishmaydimi?» Kabinetga deyarli hamma yig'ilib bo'lgan edi. Bundan bir necha minut avval hammadan keyin Jo'ra kirib ketdi. Tanaboy uni etigining qo'njiga yopishib qolgan jundan tanidi. Saman yo'rg'aning sariq juni edi. «Juda shoshibdi, Gulsari ham terga pishib ketgan bo'lsa kerak» – deb o'yлadi u. Lekin boshini ko'tarmadi. Qo'njiga jun yopishgan, ot teridan biroz namlangan etik Tanaboy oldidan asta bosib o'tib, eshik ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Kotiba qiz kabinetdan chiqquncha ancha vaqt o'tdi.

– Kiring, o'rtoq Bekasov.

Tanaboy cho'chib o'midan turdi-da, kabinet tomon yura boshladi. Yuragining gupillab urishi eshitilib turardi. Uning ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. U yerda o'tirgan odamlarni deyarli bir-biridan ajrata olmasdi.

– O'tiring.

Rayon partiya komitetining birinchi kotibasi Qashqatoev Tanaboya uzun stolning oxiridan joy ko'rsatdi. Tanaboy o'tirdi. Og'irlashib ketgan qo'llarini tizzasiga qo'yib, ko'z oldini bosgan qorong'ilikning tarqashini kutdi. Keyin stolning narigi chetiga qaradi. Birinchi kotibaning o'ng tomonida kekkayib Segizboyev o'tirardi. Tanaboy bu odamga shunday nafrat bilan boqdiki, uning ko'z oldini o'rab turgan qorong'ilik bir zumda tarqab ketdi. Endi unga stol atrofida o'tirganlarning yuzlari aniq va ravshan ko'rinaldi. Segizboyevning qovog'i osilib, qizarib-bo'zarib ketgan edi. Jo'raning rangpar yuzi esa butunlay qonsiz edi. U eng chetda, hammadan ko'ra Tanaboya yaqin yerda o'tirardi.

Uning orig qo'llari stolga yopilgan yashil movut us-tida asabiy titrab turadi. Jo'raning qarshisida o'tirgan kolxoz raisi Oldanov achchig'lanib qattiq pishillar va atrofiga xo'mrayib nazar tashlardi. U ko'rildigan ishga o'z munosabatini yashirmsди. Boshqalar, aftidan, nima bo'lismeni kutib turardilar. Nihoyat birinchi kotiba pap-kadagi qog'ozlardan bosh ko'tardi.

— Kommunist Bekasovning shaxsiy ishini ko'rishga o'tamiz, — dedi u so'zlarini chertib-chertib.

— Ha, agar uni kommunist deb atash mumkin bo'lsa, — dedi kimdir istehzo bilan tirjayib.

«Yovuzlar! — deb qo'ydi o'zicha Tanaboy. — Ulardan rahm-shafqat kutma. Nima uchun men shafqat kutishim kerak? Nima, men jinoyatchimanmi?»

U o'zi haqidagi masalaning hal qilinishida ikki yashirin raqib tomonning to'qashib qolganini va ularning har biri bu ayanchli hodisadan o'zlaricha foydalanishga tayyor ekanliklarini bilmas edi. Birinchi tomon Segizboyev va uning tarafdorlari bo'lib, ular yangi kotibaning qarshiligini sinab ko'rish va agar iloji bo'lsa uni qo'lga olishni o'yldi. Boshqa, ikkinchi tomon, bu — Qashqatoyev edi. Qashqatoyev o'z o'rniga Segizboyev ko'z tikayotganini bilar edi. Shuning uchun u o'z obro'sini yerga ham urmasligi va bu xavfli odamlar bilan bo'lgan munosabatini ham keskinlashtirmasligi kerak edi.

Raykom kotibasi Segizboyevning axborot xatini o'qib berdi. Xatda «Oqtosh» kolxzoning cho'poni Tanaboy Bekasovning haqoratlari va qilgan barcha jinoyatlari batafsil yozilgan edi. Axborotda Tanaboy rad qiliishi mumkin bo'lgan biror ortiqcha yeri yo'q bo'lib, faqat uning yozilish obangi va qo'yilgan ayblarning bayon etilish tarzi uning tarvuzini qo'ltig'idan tushirib yubordi. U o'zining mana shu dahshatli qog'oz oldida mutlaqo ojiz ekanini tushunib yetdi-yu, a'zoyi badanidan ter chiqib ketdi. Segizboyevning axboroti uning o'zidan ham dahshatliroq bo'lib chiqdi. Bu qog'ozga panshaxa bilan ham hamla qilib bo'lmasdi, qarshilik ham ko'rsata olmaysan. Tanaboy o'zini oqlash uchun nimalarni aytishni mo'ljallagan bo'lsa, hammasi bir

zumda puchga chiqdi. Hammasi uning ko'z oldida o'z ahamiyatini yo'qotib, cho'ponning o'z ahvoldidan nolib qilgan ayanchli arz-dodiga aylanib qoldi. Uning o'zi ahmoq. Bu dahshatli qog'oz oldida o'zini oqlay olarmidi? U kim bilan olishmoqchi?

— O'rtoq Bekasov, siz byuro a'zosi o'rtoq Segizboyevning xatida keltirilgan faktlarning to'g'riligini tan olasizmi? — deb so'radi Qashqatoyev axborotni o'qib bo'lib.

— Ha, — deb javob berdi Tanaboy bo'g'iq ovoz bilan.

Hamma jim o'tirardi. Hamma bu qog'ozdan va himaga tushib qolgandek edi. Oldanov, ko'rdingizmi, nimalar bo'lyapti, degandek stol atrofida o'tirganlarga surbetlik bilan qarab qo'ydi.

— O'rtoq byuro a'zolari, agar ruxsat bersalaringiz, men bu ishning tub mohiyatiga aniqlik kiritam, — deb dadil gapira boshladi Segizboyev. — Men komunist Bekasovning bu ishini shunchaki bezorilik deb tushunmoqchi bo'lgan o'rtoqlarni darhol ogohlantirib qo'ymoqchiman. Agar shunday bo'lganda edi, menga ishoning, bu masalani byuroga kiritmagan bo'lardim. Bezarilar bilan kurashning bizda boshqa yo'llari bor. Gap, albatta, mening shaxsiyatimning tahqirlanishida emas. Mening orqamda tuman partiya komitetining byurosi turibdi, bilsangiz, butun partiya turibdi. Men uning obro'siga putur yetkazishga, uni tahqirlashga yo'l qo'ya olmayman. Yana ham muhimi — bu ish komunistlar va partiyasizlar o'rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni o'z holiga tashlab qo'yilganidan, raykomning ideologiya sohasida olib borayotgan ishidagi muhim kamchiliklardan darak beradi. Bizning hammamiz Bekasovga o'xhash komunistlarning mafkurasini uchun javob beramiz. Yana bizga, uni o'zi yolg'izmi yoki hamfikrlari ham bormi, degan masalani aniqlashga to'g'ri keladi. «Charm paltoli yangi manap!» Bu bilan nima demoqchi u? Paltoni bir chetga qo'yib turaylik. Bekasovning fikricha, men, sovet kishisi, partianing vakili — yangi manap, boyvachcha, xalqni bo'g'uvchi ekanman! Qarang-a! Tushunyapsizmi, bu nima degan gap? Nima ma'nno bor bu gapning tagida? Men buni tushuntirib

o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak deb o'ylayman... Endi, masalaning ikkinchi tomoniga o'taylik. «Oqtosh»dagi chorvachilikning o'taketgan darajada yomon ahvolda ekanidan xafa bo'lib, ko'zimga hech narsa ko'rinxaymay, o'z sotsialistik majburiyatini unutib qo'ygan Bekasovning kishini g'azablantiradigan so'zlariga javoban uni zararkunanda, xalq dushmani, deb atadim va uning joyi partiyada emas, turmada, dedim. Tan olaman – haqorat qildim va uning oldida kechirim so'rashga tayyor edim. Endi bilsam, haqiqatan ham shunday ekan. Aytganlarimni qaytib olmayman va dangal aytaman: Bekasov dushmanlik kayfiyatidagi xavfli odam ekan...

Tanaboy nimalarni boshdan kechirmadi. U boshdan oxirigacha urushda bo'ldi. Ammo uning yuragi hozirgidek sado chiqarib urishi mumkinligini u hech qachon xayoliga ham keltirmagan edi. Quloqlari ostida bolg'aning zARBIDEK gursillab eshitilayotgan bu sado uning ruhini ezar, qalbini tirnar, o'zini o'nglab olishga imkon bermasdi. «Tavba, – boshi lo'q-lo'q qilardi Tana boyning, – hayotimning butun mazmuni, ishlariuning butun mazmuni qayoqda qoldi? Mana endi kelib-kelib xalq dushmani bo'ldim... Qandaydir qo'yxona uchun, o'limtik qo'zichoqlar uchun, yo'ldan ozgan Bektoy uchun azob chekyapman. Bu tashvishlarning nima keragi bor edi menga?...»

– Axborotimdan kelib chiqadigan xulosalarni yana bir marta eslatib o'taman, – deb davom etdi Segizboyev so'zlarini joy-joyiga qo'yib. – Bekasov bizning tuzumimizni, kolxozni, sotsialistik musobaqani, bizning butun turmushimizni ko'rolmaydi – hammasiga tupperadi. Buni uning o'zi kolxozi partorgi o'rtoq Sayoqov oldida oshkora aytdi. Bundan tashqari, uning harakatlarida o'z xizmat vazifasini o'tab turgan hukumat valigliga suiqasd qilish kabi jinoiy javobgarlik elementlari ham bor. Meni to'g'ri tushunishlaringizni so'rayman. Bekasovni sud javobgarligiga tortish uchun sanktsiya berishlaringizni va bu yerdan chiqishi bilanoq darhol qamoqqa olinishini so'rayman. Uning jinoyatlari ellik sakkizinch moddaga tamoman mos keladi. Bekasovning partiya safida qo'dirilishi haqida menimcha, gap ham bo'lishi mumkin emas!..

Segizboyev ortiqcha talab qo'yanini bilardi. Lekin u shuni hisobga olgan ediki, agar byuro Tanaboy Bekasovni jinoiy javobgarlikka tortish lozim deb topmasa ham, har holda uni partiya safidan chiqarishi aniq edi. Bu taklifni Qashqatoyev quvvatlamay iloji yo'q edi. Ana shunda Segizboyevning mavqeyi yanada mustahkamlanardi.

— O'rtoq Bekasov, siz o'z xatti-harakatlaringiz haqida nima deysiz? — deb so'radi Qashqatoyev biroz asabiylashib.

— Hech narsa. Hammasi aytildi, — deb javob berdi Tanaboy. — Demak, men zararkunanda, xalq dushmani ekanman, bundan keyin ham shunday bo'lib qolarkanman. Shunday bo'lgach, nima haqida o'ylaganimni bilishning nima keragi bor? Sizlar hal qilinglar, o'zlarining bilasizlar...

— Siz o'zingizni sof vijdonli kommunist deb hisoblaysizmi?

— Endi buni isbot qilib bo'lmaydi.

— Siz o'z aybingizni tan olasizmi?

— Yo'q.

— Nima, siz o'zingizni hammadan ko'ra aqlliroy deb bilasizmi?

— Yo'q, aksincha, hammadan ko'ra nodonroq deb bilaman...

— Ruxsat bering, men gapiroq, — deb ko'kragini komsomol znachogi taqqan yosh yigit o'rnidan turdi. U o'tirganlar ichida hammadan yosh bo'lib, nimjingga, cho'ziq yuzli, ko'rinishdan yosh bolaga o'xshardi.

Tanaboy uni endi payqagan edi.

«Fosh qilaver, bola, ayama, — dedi u o'zicha. — Men ham qachonlardir shunaqa edim, hech ayamasdim...»

— Gapiring, Karimbekov, — deb bosh irg'adi unga Qashqatoyev.

— Men o'rtoq Bekasovning xatti-harakatlarini ma'qullayman. U qilmishiga yarasha partiya jazosini olishi kerak. Shuningdek o'rtoq Segizboyevga ham qo'shila olmayman. — Karimbekov ovozidagi hayajonli titroqni bosib davom etdi: — Men o'rtoq Segizboyevning o'zini ham muhokama qilish kerak, deb hisoblayman.

— Ana xołos! — deb uning so'zini bo'ldi kimdir. — Nima, sizda, komsomolda tartib shunaqami?

— Tartib hammada ham bir xill — deb javob berdi Karimbekov yana ham hayajonlangan holda qizarib. Lekin u shunday deb biroz duduqlanib qoldi. So'ng yana tang ahvoldan qutulishga urinib so'z qidira boshladi va birdan g'azab bilan keskin gapira boshladi: — Kolxozchi, cho'pon, keksa kommunistni haqorat qilishga sizning nima haqingiz bor edi? Mana, meni xalq dushmani, deb ko'ring-chi... Siz buni kolxoza chorvachilikning ahvoli yomonligidan xafa bo'lganim, qayg'urganim uchun ayt-dim, deb isbot qilmoqchi bo'lasiz. Nahot cho'ponning sizdan ham ko'proq qayg'urganini tasavvur qila olmagan bo'lsangiz? Siz uning oldiga borganingizda uning tur-mush sharoiti bilan, ishlari qanday borayotgani bilan, qo'zilar nega o'layotgani bilan qiziqdingizmi? Yo'q! Sizning axborotingizga qaraganda, siz to'g'ridan to'g'ri uni haqorat qilishdan boshlagansiz. Hozir kolxozlarda qo'zilatish kampaniyasi og'ir ahvolda ekan hech kimga sir emas. Men joylarda bo'lib turaman. Biz ulardan talab qilamiz, lekin amalda hech qanaqa yordam bermaymiz. Men komsomol cho'ponlar oldida juda noqulay ahvolda qolaman, to'g'risi uyałaman. Kolxozlarda qo'yxonalar qay abvolda ekanini borib bir ko'ringlar. Ozuqa masala-si-chi? Mening o'zim cho'pon bolasiman. Qo'zichoqlar o'lganda qanday ahvol yuz berishini yaxshi bilaman. Institutda bizni boshqa narsalarga o'qitishgan edi. Joylarda esa ahvol eskicha, ko'rib joning achiydi...

— O'rtoq Karimbekov, — Segizboyev uning so'zini bo'ldi, — rahmdillik uyg'otishga urinmay qo'ya qoling! His-tuyg'u emas, faktlar kerak, faktlar.

— Kechirasiz, bu yerda jinoyatchi ustidan sud bo'-layotgani yo'q. Balki partiya safidagi bir o'rtoq'imizning ishi o'rtoqlarcha muhokama qilinmoqda, — deb davom etdi Karimbekov. — Kommunistning taqdiri hal qilinmoqda. Kelinglar, birgalashib o'ylab ko'raylik. O'rtoq Bekasov nima uchun shunday qildi. Albatta, uning qilmishini qoralash kerak. Lekin bu hol qanday yuz berdi. Kolxozening eng yaxshi chorvadorlaridan bo'lgan Bekasov qanday qilib bu ahvolga tushib qoldi?

— O'tiring, — dedi norozi ohangda Qashqatoyev. — Siz bizni masalaning asl mohiyatidan chetga tortyapsiz, o'rtoq Karimbekov. Menimcha, bu yerda o'tirganlarning hammasiga shu narsa aniq ravshanki, kommunist Bekasov og'ir jinoiy ish qilgan. Axir bu nimasi? Shunaqayam bo'ladimi? Biz o'z xodimlarimizning obro'sini tushirishga, bizning vakillarimizga panskha ko'tarib hamla qilishga hech kimga yo'l qo'ymaymiz! O'rtoq Karimbekov, siz qalb, hissiyat haqidagi o'rinsiz tortishuvlar o'rniga komsomol ishlarining qanday borayotgani haqida o'ylab ko'rsangiz bo'lardi. Gap boshqa-yu, ish boshqa, uka. Bekasovning qilgan ishi bizga saboq bo'lishi kerak. Unga partiya safida o'rin yo'q. O'rtoq Sayoqov, siz kolxozi partorgi sifatida bu voqealarning hammasini tasdiqlaysizmi? — deb so'radi u keyin Jo'rada.

— Ha, tasdiqlayman, — dedi rangi quv o'chgan Jo'ra sekin o'rnidan turib. — Lekin men bir narsani aytmoqchi edim...

— Nima demoqchisiz?

— Birinchidan, men Bekasovni o'zimizning partiya tashkilotimizda muhokama qilishimizni so'rardim.

— Bu shart emas. Partiya tashkilotining a'zolariga raykom byurosi qarori haqida axborot berasiz. Yana nima kerak?

— Shuni aytib o'tmoqchi edimki...

— Nimani, o'rtoq Sayoqov? Bekasovning partiya qarshi xatti-harakatlari ko'rinib turibdi. Endi buni tushuntiradigan joyi yo'q. Siz ham javobgarsiz. Kommunistlarni tarbiyalash sohasida ishlarni barbos qilganingiz uchun sizga ham chora ko'ramiz. Nima uchun siz o'rtoq Segizboyevni bu masalani byuroga qo'ymaslikka ko'ndirishga harakat qildingiz? Haspo'shamoqchimidingiz? Bema'nigarchilik! O'tiring!

Munozara boshlandi. MTS direktori va tuman gazetasining redaktori Karimbekovni quvvatlab chiqdilar. Hatto bir nafas ular Tanaboyni himoya qilishlari mumkindek ko'rinib ketdi. Tanaboyning esa ruhi tushgan va hayajonlanganidan hech kimning gapini eshitmas edi. U hadeb o'z-o'ziga savol berardi: «Mening butun orzu umidlarim qayoqqa ketdi? Bizning suruvlarda, podalarda

bo'layotgan ahvol bilan bu yerdagilarning ishlari ham yo'q. Men ahmoq bo'lib yurgan ekanman. O'z umrimni kolxozni deb, qo'y-qo'zilarni deb o'tkazdim. Hozir esa bularni hisobga olmayaptilar. Endi men xavfli odaman. Bilganlaringni qilinglar. Agar shu bilan ahvol yaxshilanib ketadigan bo'lsa achinmayman. Qani, meni orqamga tepib haydanglar, mening kunim bitgan, boplayveringlar, ayamanglar...»

Kolxozi raisi Oldanov so'zga chiqdi. Tanaboy uning basharasi va harakatlaridan kimnidir koyiyotganini sezdi. Lekin kimni? U «Kishan.. yo'rg'a Gulsari...» degan so'zni eshitmaguncha buni tushunib yetmadi.

— ... Nima bo'ldi deysizmi? — dedi Oldanov jahl bilan. — Biz otni tushovlab qo'yishga majbur bo'lganimiz uchun u ochiqdan ochiq menga, boshingni urib yoramani, deb do'q urdi. O'rtoq Qashqatoyev, o'rtoq byuro a'zolari, men kolxozi raisi sifatida bizni Bekasovdan qutqarishlaringizni so'rayman. Haqiqatan ham uning joyi turmada. U rahbar xodimlarning hammasini ham ko'rolmaydi. O'rtoq Qashqatoyev, u yerda, eshik orqasida Bekasovning menga qilgan do'q-po'pisalarini tasdiqlovchi guvohlar o'tirishibdi. Ularni bu yerga taklif qilish mumkinmi?

— Yo'q, hojati yo'q, — deb jirkangandek yuzini burushtirdi Qashqatoyev. — Shu ham yetadi. O'tiring.

Keyin ovozga qo'yishdi.

— O'rtoq Bekasov partiya a'zolari safidan o'chirilsin degan bitta taklif kiritildi. Kim qo'shiladi?

— Bir daqiqa, o'rtoq Qashqatoyev, — dedi Karimbekov va yana irg'ib o'rnidan turdi. — O'rtoq byuro a'zolari, biz bu bilan og'ir xatoga yo'l qo'yayotganimiz yo'qmi? Boshqa taklif bor — Bekasovning shaxsiy delosiga yozib qo'yish sharti bilan, qattiq xayfsan e'lon qilish bilan chegaralansin va shu bilan birga kommunist Bekasovning partiyaviy va insonlik nafsoniyatini tahqirlagani, raykomning vakili sifatida yaramas ish metodi qo'llagani uchun byuro a'zosi Segizboyevga ham xayfsan e'lon qilinsin.

— Demagogiya! — deb baqirdi Segizboyev.

— Tinchlaninglar, o'rtoqlar, — dedi Qashqatoyev,

— Sizlar raykomning byurosida o'tiribsizlar, uylaringda emas, tartibga rioya qilishlaringizni so'rayman. — Bu yog'i endi raykomning birinchi kotibiga bog'liq edi. U masalani Segizboyev mo'ljallagan tomonga burib yubordi. — Bekasovni jinoiy javobgarlikka tortishning menimcha keragi yo'q. Lekin u partiya safida qolishga loyiq emas. Bu masalada o'rtoq Segizboyev butunlay haqli. Ovozga qo'yaman. Bekasov partiyadan o'chirilsin, degan o'rtoqlar qo'l ko'tarsin.

Byuro a'zolari yetti kishi edi. Uchtasi «o'chirilsin» deb qo'l ko'tardi, uchtasi qarshi chiqdi. Faqat Qashqatoyevning o'zi qoldi. U biroz hayallab, o'chirilsin, deb qo'l ko'tardi. Tanaboy hech narsani ko'rmadi. U o'z masala-sining hal qilinganligini faqat Qashqatoyevning kotiba ayolga aytgan so'zlarini eshitganidan keyingina bildi:

Protokolga yozib qo'ying. Raykom byurosining qarori bilan o'rtoq Bekasov Tanaboy partiya safidan o'chirildi.

«Tamom!» — dedi ichida Tanaboy, murdadek oqarib.

— Men Segizboyevga xayfsan berilishini talab qilaman, — dedi bo'sh kelmasdan Karimbekov.

Buni ovozga qo'ymasa ham bo'lardi. Lekin Qashqatoyev ovozga qo'yish kerak, degan qarorga keldi. Chunki bu yerda uning o'zining yashirin maqsadi ham bor edi.

Kim o'rtoq Karimbekovning taklifiga qo'shiladi? Qo'l ko'tarishlaringizni so'rayman. — Yana uch kishi uni yoqlab, uch kishi qarshi qo'l ko'tarib, Qashqatoyev Segizboyevni xayfsandan qutqarib qoldi. «Lekin u buni bilarmikin, bunday xizmatning qadriga yetarmikin? Kim biladi buni... Makkor, quv».

Odamlar ketishga tayyorlanib, o'rinalardan qo'zg'alishdi. Tanaboy, endi hamma narsa tamom bo'ldi, deb o'ylab, indamay o'rnidan turdi va hech kimga qaramay eshik tomon yurdi.

— Bekasov, qayoqqa? — deb to'xtatdi uni Qashqatoyev. — Partiya bileytingizni qoldirib keting.

— Qoldirib ketay? — nima hodisa bo'lganini Tanaboy endi tushungan edi.

— Ha. Stolga qo'ying. Endi siz partiya a'zosi emassiz va uni olib yurishga haqqingiz yo'q.

Tanaboy partbiletini olish uchun qo'yniga qo'l soldi. Oraga cho'kkан jimlikda u ancha ivirsidi. Uning partbileti fufaykasi, kostumi ostidagi charm xaltachada bo'lib, buni Jaydar tikib bergen edi. Bu xaltachani Tanaboy qayish o'tkazib, yelkasiga osib yurardi. Xullas, u xaltachani chiqarib, undan ko'ksining harorati bilan iligan partiya biletini oldi va Qashqatoyevning sovuq qotgandek junjikib ketdi. Keyin yana hech kimga qaramasdan xaltchasini qo'yniga solib ketmoqchi bo'ldi. Shu payt yana uning ketidan:

— O'rtoq Bekasov, — degan Karimbekovning ovozi eshitildi. Uning yuragi achigani bilinib turardi. — O'zingiz nima deysiz? Axir siz bu yerda hech gap aytmadingiz-ku. Ehtimol sizga qiyin bo'lgandir? Biz o'yalmizki, sizning yuzingizga eshik yopilgani yo'q, shunday ekan, ertami, kechmi yana partiya safiga qaytishingiz mumkin. Shuning uchun, aytung-chi, hozir nima haqda o'ylayapsiz?

Tanaboy hali ham qanday bo'lmasin uning yelkasiga tushgan g'am yukini yengillatishga harakat qilayotgan notanish yigitga noqulay ahvolda alam bilan qayrilib qaradi.

— Men nima ham derdim? Bu yerda hammasini gapirib bo'lmaydi, — dedi u g'amgin. — Faqat bir narsani aytishim mumkin. Agar qo'l ko'targan bo'lsam ham, yomon gaplar aytgan bo'lsam ham, hech aybdor emasman. Buni men sizlarga tushuntira olmayman. Bor gapim shu.

Oraga og'ir jimlik cho'kdi.

— Hm. Demak, sen partiyadan xafa bo'lyapsan! — dedi Qashqatoyev jahli chiqib. — Lekin o'zing bilasan, o'rtoq. Partiya senga maslahat berib, to'g'ri yo'lga soldi, seni suddan asrab qoldi. Sen bo'lsang bundan rozi emassan, aksincha, xafa bo'lyapsan. Demak sen, haqiqatan ham partiya a'zoligiga munosib emas ekansan. Binobarin, bundan keyin senga partiya eshigi ochiq bo'lishi dargumon endi.

Tanaboy raykomdan bosiq tortib chiqdi. U haddan ziyyod xotirjam ko'rinardi. Bu — yomon alomat edi, albatta. Havo iliq, quyosh charaqlab turardi. Kech

kirmoqda. Odamlar o'z ishlari bilan ketib borishar edi. Klub oldidagi maydonda bo'lalar yugurib o'ynashardi. Tanaboy bularga qaragan sari o'z-o'zidan yuragi ezilardi. Bu yerdan tezroq jo'nash kerak. Toqqa – o'z uyiga, bundan ham yomonroq hodisa yuz bermasdan jo'nab qolish kerak.

Ot bog'laydigan g'ov oldida uning oti bilan yonmaydon Gulsari turardi. Tanaboy yaqinlashishi bilan katta, uzun, baquvvat ot bir depsinib qo'ydi va qora, osoyishta ko'zlari ishonch bilan unga qaradi. Tanaboyning panshaxa bilan boshiga urganini yo'rg'a allaqachon unutgan edi. Shuning uchun ham u ot-da.

Esingdan chiqar, Gulsari, xafa bo'lma, – deb shivirladi Tanaboy yo'rg'aga. – Mening ahvolim og'ir. Juda og'ir. – U shunday deb otning bo'ynidan quchoqlab xo'rsindi va o'tib turgan odamlardan uyalganidan o'zini zo'rg'a yig'idan tiyib qoldi.

Tanaboy otiga minib uyiga jo'nadi. Aleksandrovka te-paligidan o'tganida Jo'ra unga yetib oldi. Orqadan yelib kelayotgan yo'rg'aning tanish tuyoq dupurini eshitishi bilan Tanaboy zarda bilan labini qimtib, o'shshaydi. Qayrilib ham qaramadi. Alamdan uni ko'ngli g'ash, ko'z oldi qorong'i edi. Endi Jo'ra butunlay boshqa, avvalgiga sira o'xshamasdi. Mana bugun Qashqatoyev bir baqirib berishi bilan xuddi intizomli o'quvchidek itoatkorona o'miga o'tirib qoldi. Keyin nima bo'ladi? Odamlar unga ishonishadi, u bo'lsa to'g'ri gapni ay-tishdan qo'rqedidi. O'zini ehtiyot qiladi, o'ylab gapiradi. Buni unga kim o'rgatdi? Mayli, Tanaboy qoloq odam, oddiy kolxozchi, u esa savodli, hamma narsani biladi, bir umr rahbar bo'lib keladi. Bularning hammasi Segizboyevlar va Qashqatoyevlar aytganidek emas ekanligini nahotki Jo'ra payqamasal! Ularning so'zlari ma'nolikdek tuyulsa-da, aslida esa yolg'on va safsatadan iborat ekanligini nahotki bilmasa. U kimni aldayapti, nima maqsadda?

Jo'ra unga yetib olib, chopaverib qizib ketgan yo'rg'ani jilovidan tortib, yonma-yon keta boshlaganida ham, Tanaboy unga o'girilib qaramadi.

– Men birga qaytamiz deb o'ylagan edim, Tanaboy, –

dedi u nafasini rostlab. – Qarasam, sen jo'nab qolib-san...

– Senga nima? – dedi hamon unga qaramay Tanaboy. – O'z yo'lingga ketaver.

– Kel, gapirishib olaylik. Yuz o'girma, Tanaboy. Do'stona, kommunistlarcha gapirishamiz, – dedi unga Jo'ra yalingandek.

– Men senga do'st emasman, buning ustiga endi kommunist ham emasman. Ha, sen ham ko'pdan beri kommunist emassan. Til yog'lamatik qilyapsan.

– Sen buni jiddiy gapiryapsanmi? – deb so'radi Jo'ra past ovoz bilan.

– Albatta, jiddiy. So'z tanlashni ham o'rganganim yo'q. Nimani, qayerda va qanday gapirishni ham bilmayman. Xayr bo'lmasa, sen to'g'riga ketasan, men esa bu yoqqa burilaman.

Tanaboy shunday deb otni yo'ldan chetga burdi, o'girilmasdan va do'stining yuziga biron marta ham qaramasdan otini to'g'ri dala orqali toqqa haydab ketdi.

U Jo'raning murdaga o'xshab oqarib ketganini, qo'lini cho'zib uni to'xtatmoqchi bo'lganini va keyin tomirlari tortishib, ko'kragini ushlaganicha, yo'rg'aning yoliga yotib qolganini, og'zini kappa-kappa ochib nafas olayotganini ko'rmadi.

– Ahvolim chatoq, – deb pichirladi Jo'ra, chidab bo'lmas og'riqdan g'ujanak bo'lib. – Voy, ahvolim yomon! – deb xirilliardi u yana ko'karib ketgan holda nafasi qisilib. – Tezroq ovulga, Gulsari, tezroq ovulga.

Yo'rg'a qorong'i, kimsasiz dashtda ovul sari uchib borardi, ustidagi odamning ovozi otni cho'chitardi, bu ovozda allaqanday qo'rinchli, vahimali bir narsa se-zilardi. Gulsari chopib borayotib qo'rquvdan pishqirar va qulogqlarini chimirardi. Egar ustidagi odam esa azob chekar, g'ujanak bo'lib titragan qo'llari va tishlari bilan otning yoliga mahkam yopishib olgan edi. Tizgin chopib borayotgan Gulsarining bo'ynida osilib borardi.

XX

Kech bo'lib qolgan, Tanaboy hali yo'lida toqqa keta-yotgan bir paytda ovul ko'chalarida bir otliq chopib yurar va bezovta itlar beto'xtov hurishar edi.

— Hoy, bu hovlida kim bor? Bu yoqqa chiq! — deb chaqirardi u hovli egasini. — Idoraga, partiya majlisiga.

— Nima gap o'zi? Nima buncha shoshilinch?

— Bilmadim, — deb javob berardi xabarchi. — Jo'ra chaqiryapti. Tezroq kelishsin, dedi.

Jo'raning o'zi esa bu paytda idorada o'tirgan edi. U yelkalarini stol chetiga tirab, hansirab nafas olar, panjasni bilan ko'ylagi ostidan ko'kragini qattiq g'ijimlar edi. Og'riqdan ingrab, lablarini tishlardi. Ko'karib ketgan yuzlarini sovuq ter bosgan va ko'zlari ichiga botib ketgan edi uning. Ba'zan hushidan ketib, nazarida yana qorong'i dashtlikda yo'rg'a ustida kelayotgandek tuyulardi... Jo'ra hadeb Tanaboyni chaqirishni istardi, u esa nashtardek botadigan so'zlarni aytib, orqasiga ham qaramay ketib borardi. Tanaboyning so'zlari uning yurak-bag'rini cho'g' bo'lib kuydirar edi...

Partorgni bu yerga qo'llitig'idan suyab otxonadan keltirishgan edi. U pichan ustida yotib biroz dam ol-gach, picha o'ziga kelgan edi. Otboqarlar uni hovlisiga olib ketmoqchi bo'ldilar, lekin u ko'nmadni. Kommunistlarni chaqirib kelishga odam yuborib, endi ularni ana keladi, mana keladi deb kutardi.

Qorovul ayol chiroqni yoqib, Jo'rani xoli qoldirdida, dahlizdagi pechkaga o't yoqish bilan ovora bo'lidi, u ba'zan qiya ochilgan eshikdan qarab, uh tortib boshini chayqab qo'yardi.

Jo'ra odamlarni kutardi, vaqt esa imillab o'tar edi. Unga ato qilingan va ko'pgina qismini yashab bo'lgandan keyingina Jo'ra qadriga yeta boshlagan bu hayot endi har daqiqa sayin achchiq va alam tomchilar singari tomib tugab borayotgandek edi. U kunlari va yillari qanday o'tganini payqamay qoldi. Hash-pash deguncha mehnat bilan, tashvish bilan o'tib ketdi. Uning kutgan narsasining hammasi ro'yobga chiqmadi, hamma narsa u istagancha bo'lindi. Harakat qildi, kurashdi,

biroq mushkuldan qutulish uchun, yurish bunchalik xatarli bo'lmasin uchun, chetlab o'tish uchun, allaqa yerlarda chekindi ham. Ammo ularni chetlab o'tolmadi. U to'qnash kelib qolishdan qo'rqib yurgan kuch uni boshi berk ko'chaga siqib qo'ygan edi, endi chekinishi mumkin emasdi, yo'l tamom bo'lgandi. Eh, agar u o'z xatosini ertaroq tushunganda, hayot ko'ziga tik qarashga o'zini vaqtliroq majbur etganda edi... Hayot achchiq va alamli tomchilar singari tomib tugab borayotgandi. Odamlar tezroq kela qolsa bo'lmaydimi? Muncha uzoq kuttirishyapti?

«Faqat ulgursam bo'lgani, — deb o'ylardi Jo'ra qo'rquv aralash. — Hammasini aytishga ulgursam bas! — derdi u yana va o'zini tashlab ketayotgan umr-hayotni unsiz shiddatli nido bilan ushlab turardi. O'zini dadil tutishga harakat qilib, so'nggi jangga hozirlanardi. — Ishning qanday sodir bo'lganligini, byuroning qanday o'tganligini, Tanaboyning partiyadan qanday chiqarganliklarini — hammasini gapirib beraman. Bilib qo'yishsin: men raykomning bu qaroriga qo'shila olmayman. Bilib qo'yishsin: men Tanaboyning partiyadan chiqarilishiga rozi emasman. Oldanov haqida qanday fikrda bo'lsam, barisini aytib beraman. Mayli, mendan keyin uning ma'rzasini eshitishsin. Mayli, komunistlar hal qilihsin. Men kim ekanligimni batafsil so'zlab beraman. Kolxozimiz haqida, kishilar haqida gapiraman... Faqat ulgurish kerak, tezroq kelishsa edi, tezroq...»

Birinchi bo'lib xotini dori bilan yetib keldi. U juda qo'rqib ketgan edi, oh-voh qilib yig'lardi.

— Aqling joyidami o'zi? Nahotki shu majlislarga to'ymagan bo'lsang? Yur uyga. Rangi-ro'yingga qara. Hech bo'lmasa o'zingni o'ylasang-chi!

Jo'ra eshitishni istamasdi. Dorini icha turib qo'l siltadi. Tishlari stakanga urilib, suv ko'kragiga oqib tushdi.

— Hechqisi yo'q, endi o'zimni yaxshi his qilyapman, — dedi u bir maromda nafas olishga harakat qilib. — Sen meni u yerda kutib tur, keyin boshlab olib ketasan. Qo'rhma, chiqaver.

Ko'chada kishilarning oyoq tovushlari eshitilishi bilan Jo'ra qaddini rostlab stoldan turdi, o'zining so'nggi

burchi deb hisoblangan narsani ado etish uchun og'riqqa bardosh berib, bor kuchini to'pladi.

— Nima bo'ldi? Senga nima bo'ldi, Jo'ra — deb so'rashardi kommunistlar undan.

— Hech nima. Hozir aytaman, hammasi kelishsin, — deb javob berardi Jo'ra ularga.

Umr achchiq va alamli tomchilar singari tugab borar edi.

Kommunistlar to'planishgach, partorg Jo'ra Sayoqov stoldan turib, boshidan telpagini oldi va partiya majlisini ochiq deb e'lon qildi...

XXI

Tanaboy uyiga tunda yetib keldi. Jaydar hovliga fonus ko'tarib chiqdi. Kutaverib ko'zlar to'rt bo'lgandi. U eriga ko'zi tushishi bilan allaqanday musibat yuz bergenini anglatdi. Tanaboy jimgina otining suvlug'ini chiqarib, egarini olib qo'ydi. Jaydar esa chiroqni tutib turardi. Tanaboy lom-mim demasdi. «Rayonda ichib olganida, ehtimol, o'zini yengil sezarmidi» deb dilidan o'tkazdi xotini. Tanaboy esa hamon gapirmasdi. Uning bu sukuti tobora dahshatliroq bo'lib tuyulardi. Bechora Jaydar bo'lsa uni xursand qilmogchi edi: tumandan biroz xashak, somon va arpa uni keltirishgandi. Havo ham ancha isib, qo'zilarni yaylovga chiqarishgandi. Ular endi maysalarni chimtiy boshlashgan edi.

— Bektoyning suruvini olib ketishdi, yangi cho'pon yuborishdi, — dedi u.

— E, Bektoyning ham, o'sha cho'pon-u suruvning ham padariga la'nat...

— Charchadingizmi?

— Nega charchar ekanman? Partiyadan haydashdi!

— Sekinroq, saqmonchilar eshitib qolishadi.

— Eshitsa nima? Nega yashirar ekanman. Daydi itdek haydab yuborishdi. Shunday qilishlari kerak edi. Seni ham shunday qilish kerak. Bizdaqangilarga bu ham oz. Nega turib qolding? Muncha angrayasan?

— Boring, damingizni oling.

— Buni o'zim ham bilaman.

Tanaboy qo'yxona tomon ketdi. Qo'ylarni ko'zdan kechirdi. So'ng o'rga chiqib qorong'ida tentirab yurdi-da, yana qo'yxonaga qaytib keldi. O'zini qo'yarga joy topolmasdi. U ovqatlanishdan ham, gapirishdan ham bosh tortgan edi. Bir burchakdag'i somon ustiga o'zini tashlab, qimir etmay yotdi. Tirikchilik, kundalik tash-vish, hadiksirashlar endi bir pul edi. Uning ko'ngliga qil sig'masdi. Yashashni ham, o'ylashni ham, atrofdagi biron narsani ko'rishni ham istamas edi endi u.

U yoqqa ag'anar, bu yoqqa ag'anar, uxlamoqchi, hamma narsani esdan chiqarmoqchi bo'lardi. Biroq unutib bo'larmidi? U yana Bektoyning qay tarzda suru-vini tashlab ketganligi, oppoq qorda uning qora izlari qolganligi, Bektoyning so'ziga javoban og'iz ocha ol-maganligini esladi... Yana Segizboyevning yo'rg'a otda turib baqirib, og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan so'kkanini, turmaga jo'nataman, deb do'q urganini, tuman partiya komitetining byurosida Tanaboyning zararli shaxs va xalq dushmani deb ataganlarini xayoli-dan o'tkazdi... Shu bilan endi hamma narsa va uning butun hayoti tugagandek edi. U biron ta jarga yiqlilib tushib nobud bo'lmaguncha panskhanani ushlab, qorong'i tun qa'riga qarab chopishni va butun olamga jar solib faryod chekishni istardi.

U uyquga ketarkan, bunday yashagandan ko'ra o'lgan yaxshiroq, deb o'ylardi. Ha, ha, o'lim afzall...

U uyqudan uyg'onganida kallasi g'ovlar edi. Bir necha daqiqa o'zining qayerdaligini, nima bo'lganligini angray olmadı. Yonida qo'ylar yo'talishar, qo'zichoqlar ma'rashardi. Endi bilsa qo'yxonada yotgan ekan. Hov-lida tong yorishib qolgan. Nega uyg'ondi? Nima uchun? Hech ham uyg'onmagani ma'qul edi. O'lish qoldi xolos, o'zini o'ldirish kerak...

Keyin u ariqdan hovuchlab suv ichdi. Yupqa muz pardasi qoplagan suv nihoyatda sovuq edi va uning qaltiroq barmoqlari orasidan shildirab oqib tushardi. U bo'lsa yana hovuchini suvg'a to'ldirib shimirardi. Biroz nafasini rostlab o'ziga keldi, faqat shundagina u o'zini o'ldirish haqidagi qarori ahmoqona fikr ekanligini tu-shunib yetdi. Insonga bir marta beriladigan hayotdan

qanday qilib o'zini mahrum etish mumkin? Segizboyevlar shunga arziydimi? Yo'q, hali Tanaboy yashaydi, hali u ko'p ishlarni qiladi!..

Uyiga qaytib kelib miltiq va patrontoshni sekkingina bekitib qo'ysi va shu kuni kechgacha tinmay ishladi. Xotini bilan, qizlari va saqmonchi ayollar bilan shirin muomalada bo'lmoqchi edi-yu, lekin xotinlar biron narsani sezib qolishmasin, deb o'zini tiydi. Xotinlar esa go'yo hech narsa ro'y bermagandek, hamma ish joyida ekandek, o'z ishlari bilan mashg'ul edilar. Tanaboy ularning bu qilig'idan mamnun edi. U indamay ishlab yuraverdi. Yaylovga borib, qo'ylarni haydab kelishga yordam berdi.

Kechqurun havo aynay boshladidi. Qor yoki yomg'ir yog'ishi aniq edi. Atrofdagi tog'larni tuman qoplabi, ko'k yuzini esa qalin bulutlar chulg'ab olgandi. Yana qo'zichoqlarni sovuqdan asrash haqida bosh qotirish kerak edi. Yana qirg'in boshlanmasin uchun qo'yxonani tozalab, ostiga somon sochish lozim edi. Tanaboy diqqat bo'llar, lekin o'tgan voqealarni imkoniyati boricha unutishga, umidsizlikka tushmaslikka harakat qilardi.

Qorong'i tusha boshlaganda qo'rada bir otliq paydo bo'ldi. Uni Jaydar qarshi oldi. Ular allanimalar haqida gaplashishardi. Bu vaqt Tanaboy qo'yxonada ish bilan band edi.

— Hoy, Tanaboy, bu yoqqa qarang, — deb chaqirdi uni xotini. — Ovuldan bir odam kelibdi.

Tanaboy xotinining so'z ohangidan qandaydir ko'ngilsiz voqeа ro'y berganini sezdi.

U hovliga chiqib, otliq bilan ko'rishdi. Kelgan odam qo'shni ovulning cho'poni ekan.

— E, Aytboy, senmisan? Otdan tush. Qayerlardan so'raymiz?

— Ovuldan kelayotirman. Bir ish bilan borgan edim. Aytishlaricha, Jo'ra qattiq kasal ekan. Siz albatta uning oldiga borarmishsiz. Shunday deb tayinladilar.

«Yana Jo'ra». Salgina bo'lsa ham unutila boshlagan g'am-alamlar yana qaytadan yangilandi. Lekin afsuski, Tanaboy uning diyordini ko'rishni istamas edi.

— Nima, men doktormidim? U hamisha kasal. Usiz

ham tashvishim boshimdan oshib yotibdi. Ko'rib turibsan, havoning avzoyi buzuq.

— Borasizmi, bormaysizmi, bu sizning ishingiz, o'zingiz bilasiz. Menga tayinlagan gaplarini aytib qo'ydim. Xayr, vaqtim ziq, kech kirib qoldi.

Aytboy otini yo'lga burdi-yu, lekin yana jilovini tortib dedi:

— Tanake, yana bir o'ylab ko'ring. Ahvoli juda og'ir. O'g'lini o'qishdan chaqirtirishibdi, vokzalga kutib olgani ketishibdi.

— Xabar keltirganing uchun rahmat. Ammo men bormayman.

— Boradi, — Jaydar orlanib gapga aralashdi. — Tashvish tortmang, boradi.

Tanaboy indamadi. Ammo Aytboy biroz uzoqlashgach, xotiniga o'shqirdi:

— Sen bu odatingni tashla. Nega men uchun sen javob berasan? Nima qilishimni o'zim bilaman. Bormayman, dedim, bormayman!

— Nima deyotganingizni o'zingiz bilyapsizmi, Tanaboy?

— O'ylab o'tirishimning hojati yo'q. Yetar endi. Andisha qila-qila shu darajaga yetdimki, partiyadan ham haydashdi. Mening endi hech kimim yo'q. Men kasal bo'lsam, biron kimsa ko'rgani kelmay qo'ya qolsin. Bir o'zim peshonamdagini ko'raveraman! — dedi u g'azab bilan qo'l siltab va qo'yxona tomon ketdi.

Lekin ko'ngli hamon joyiga tushmasdi. Ona qo'ylar oldidan yangi tug'ilgan qo'zichoqlarni ko'tarib olib, ularni bir burchakka eltar, ma'rayotgan qo'y larga o'shqirar, o'zicha do'ng'illar edi:

— Ishdan oldinroq ketganida bunchalik azob tortmasdi. Qachon qarasang yuragini changallab yuradi-yu, lekin egardan tushmaydi. Boshliq emish! Yelkamning chuquri ko'rsin seni. Xafa bo'lsang bo'laver, men ham sendan xafaman. Hech kim bilan ishim yo'q...

Hovli qorong'i. Asta-sekin qor yog'a boshladi. Koinot shu darajada xomush va sokin ediki, hatto siyrak qor zarrachalarining yerga tushayotgani ham eshitilib turardi.

Tanaboy o'tovga kirmadi, xotini bilan gaplashishdan o'zini olib qochib yurdi. Jaydar ham uning oldiga kelmasdi.

«O'sha yerda o'tirsang o'tiraver, — deb o'yładi Tanaboy. — Lekin meni borishga majbur etolmaysan. Endi men uchun bularning ahamiyati yo'q. Men bilan Jo'ra mutlaqo begona kishilarmiz. Uning yo'li boshqayu, mening yo'llim boshqa. Oldin do'st bo'lsak ham, endi begonamiz. Agar men uning do'sti bo'lsam shu mahalgacha u qayerda edi? Yo'q, endi men uchun baribir...»

Axir Jaydar uning oldiga keldi. U erining yomg'irpo'shini, yangi etik, belbog', qo'lqop, kishilik telpagini keltirgandi.

— Kiyimingizni kiying, — dedi u.

— Bekorga ovora bo'lyapsan. Hech qayerga bormayman.

— Vaqt ni o'tkazmang, biron narsa bo'lib qolsa, keyin umr bo'yi pushaymon qilib yurasiz.

— Pushaymon ham qilmayman. Unga ham hech narsa bo'lmaydi. Biroz yotadi-da, yana ishga chiqib ketadi. Biz uni endi ko'ryapmizmi.

— Tanaboy, men sizdan hech vaqt biron narsa iltimos qilmagan edim. Hozir esa iltimos qilyapman. Alamingizni menga qoldiring-u, o'zingiz boring, bir odamgarchilik qiling!

— Yo'q! — dedi Tanaboy qaysarlik bilan boshini chayqab. — Bormayman. Endi men uchun baribir. Sen odob va odatni o'ylaysan. «Odamlar nima deyishadi», deb o'ylaysan. Men esa endi hech narsa bilan ishim yo'q.

— Es-hushingizni yig'ib oling, Tanaboy. Men borib o'choqdan xabar olib kelay, yana kigizga cho'g' tushib ketmasin.

Jaydar erining ust-boshlarini uning oldida qoldirib ketdi. Lekin Tanaboy o'rnidan qimirlamadi. Bir burchakda xayolga cho'mib o'tiraverdi, o'z qarorini buzishga jur'at etolmadi, Jo'raga aytgan so'zlarini ham xotirasidan chiqarib tashlay olmasdi. Endi-chi: «Assalomu alaykum, bir ko'rib ketay, deb keldim, sog'lig'ing

qalay? Biron yordamim kerak emasmi?» deb borsinmi? Yo'q-yo'q, u bunday qila olmaydi va bunga odatlanmagan ham.

Jaydar qaytib keldi.

- Hali kiyanganingiz yo'qmi?
- Jonimga ko'p tegaverma. Bormayman, dedim-ku, axir senga.

- O'rningdan tur! – deb baqirdi Jaydar g'azab bilan. Tanaboy xuddi komandirning buyrug'ini bajargan soldatdek o'rnidan sakrab turganini o'zi ham sezmay qoldi. Jaydar yaqin kelib, fonusning xira shu'lasida g'am cho'kkani g'azabli ko'zlarini eriga tikdi. – Agar sen erkak bo'lmasang, inson bo'lmasang, mushtipar bir ojiza bo'lsang, sen uchun men boraman, sen esa lab-lunjingni osiltirib o'tiraver! Hoziroq jo'nayman. Bor, otni darhol egarla!

Tanaboy xotinining farmoniga bo'ysunib, otni egarlagani ketdi. Eshikda hamon maydalab qor yog'ardi. Zulmat go'yo teran girdobbdagi suvdek atrofda un chiqarmay sekin aylanardi. Zim-ziyo qorong'ilikda hatto tog'lar ham ko'rinasdi. «Endi bu ko'rgilik ham bor ekan! Shunday qorong'i kechada tanho o'zi qayerga boradi? – deb dilidan o'tkazdi u qorong'ida ot ustiga egar tashlar ekan. – Koshki gapga kirsa. Aytganini qilmasdan qo'ymaydi. O'ldirsang ham qaytmaydi. Yo'lda biron hodisa yuz bersa nima bo'ladi? O'zidan ko'rsine...»

Tanaboy otni egarlar ekan, o'zidan o'zi uyalib ketdi. «Rostdan ham men odam emasman, hayvonman. Alamid dan aqlimni yeb qo'yibman. Alamimni hammaga namoyish qilyapman: mana ko'ring, men qanday baxtsizman, mushkulim og'ir. Bechora xotinimni ham qiynab yubordim... Unda nima gunoh? Nega uni bunchalik qiynayman? Bu ishim yaxshilikka olib bormaydi. Men yaramas odamman. Hayvonman, ha, hayvon!»

Tanaboy ikkilanib qoldi. Lekin o'z gapidan qaytish ham oson emasdi endi unga. U boshini quyi solganicha qaytib kirdi.

- Egarladingmi?
- Ha!
- Bo'lmasa otlan! – dedi Jaydar unga va yomg'ir-

po'shini uzatdi. Tanaboy indamay kiyina boshladi. U xotinining birinchi bo'lib murosaga kelganidan xursand edi. Ayni vaqtda u xo'jako'rsinga sarkashlik qilib:

- Ertaga borsam-chi? - deh qo'ydi.
- Yo'q, hozir yo'lga tush. Keyin kech bo'ladi.

Tun tog'da sokin girdob bo'lib aylanardi. Laylak qor sekin-asta, bir maromda yerga qo'nardi. Tanaboy qop-qorong'i yon bag'irlar bo'ylab o'zi rad etgan do'stining chaqirig'iga tanho ketib borardi. Boshiga, yelkalariga, soqoli va qo'llariga qor uchqunlari yopishardi. Tanaboy egarda qimirlamay o'tirar, ustidagi qorlarni ham qoqmas edi. Shu zaylda unga xayol surish qulay edi. U Jo'ra haqida, uzoq yillar davomida ularni bir-biriga yaqinlashtirgan narsalar haqida o'ylardi. Jo'ra unga savod o'rgatgan paytlarini, keyin esa birgalikda komsomolga, so'ngra partiyaga kirgan kezlarini o'ylardi. Bir vaqtlar Jo'ra bilan kanal qurilishida ishlaganlarini, kunlardan birida Jo'ra Tanaboyning surati va u haqdagi kichik maqola bosilgan gazetani hammadan oldin olib kelib, hammadan oldin Tanaboyning qo'lini siqib tabriklaganini esladi.

Tanaboyning ko'ngli borgan sari yumshar va qalbini allaqanday tashvishli his qamrab borar edi: «Ahvoli qanday ekan-a? Balki, haqiqatan ham ahvoli og'irdir? Bo'lmasa o'g'lini nega chaqirtirdi ekan? Yoki unga biron narsa demoqchimikin? Vidolashmoqchimikin?...»

Tong yorishib qolgan edi. Hamon charx urib qor yog'ardi. Tanaboy otini yeldirib haydab ketdi. Hademay anovi tepaliklar etagidagi pastqamlikda ovul ko'rindi. Jo'raning ahvoli qalay ekan? Tezroq yetib borsa edi.

Nogahonda tong sukunatida ovul tomondan allanechuk mungli nola qulog'iga chalindi. Kimningdir faryodi eshitilib, yana jimb qoldi. Tanaboy otning jilovini tortib shamol kelayotgan o'sha tomon qulq solib turdi. Hech narsa eshitilmasdi. Ehtimol, unga shunday tuyulgandir.

Ot Tanaboyni tepalikka olib chiqdi. Pastlikda, qor ostida qolgan polizlar va yalang'och daraxtlar orasida kimsasiz ovul ko'chalari cho'zilib yotardi. Hali erta bo'lgani uchun ko'chalarda hech kim ko'rinasdi. Faqat

bir hovli oldida odamlar to'dasi qorayib ko'rinar, otlar daraxtlarga qantarib qo'yilgan edi. Bu Jo'raning hovlisi edi. Nega u yerda odamlar bunchalik ko'p? Nima bo'ldi ekan? Nahotki...

Tanaboy uzangiga oyoqlarini tirab, bo'yini cho'zib, muzdek havodan entikib nafas oldi-da, jimb qoldi va shu zahotiyog otini pastlikka qarab shitob bilan surib haydab ketdi. «Bo'lishi mumkin emas! Bu nimasi? Bo'lishi mumkin emas!» Uning dili vayron bo'ldi va butun vujudini ko'ngilsiz hijillik qoplab oldi. Go'yo u yerda sodir bo'lgan voqeа uchun bu gunohkordek edi. Yagona do'sti abadiy ko'z yumish oldida vidolashmoq uchun uni chaqirsa-yu, u qaysarlik qilib, o'jarlik qilib arazlab o'tirsa. Endi u nima degan odam bo'ldi. Nega xotini uning yuziga «tuf» demadi? O'lim to'shagida yotgan kishining oxirgi iltimosini bajo keltirishdan ham zarurroq narsa bormi bu dunyoda?..

Tanaboyning ko'z o'ngida yana Jo'ra yo'rg'a sampa manda orqasidan yetib kelgan o'sha dasht yo'li namoyon bo'ldi. O'shanda u Jo'raka nimalar degandi? Endi o'zining bu gunohini kechira oladimi?

Tanaboy o'z aybi va or-nomus yuki ostida egilgani-cha qorli ko'chadan ot ustida noxush ketib borardi... Birdan u Jo'raning hovlisi ro'parasida bir to'p otliqlarni ko'rди. Ular un chiqarmasdan yaqinlashib kelishardi. Keyin birdan hammasi egarda to'lg'anib, baravariga dod-faryod ko'tarishdi.

— O'yboy, bovrimoy! O'yboy, bovrim!

«Qozoqlar kelishibdi» — deb o'yladi Tanaboy va do'stidan judo bo'lganini endi bildi. Daryoning naryog'idan kelgan qo'shni qozoqlar Jo'rani o'z og'aynisi, qo'shnisi, yaqin kishisi sifatida hamda butun okrugda mashhur kishi sifatida yo'qlab yig'lashar edilar. «Rahmat sizlarga do'stlar, — deb ko'nglidan o'tkazdi Tanaboy shu daqiqada. — Azaldan, ota-bobolarimiz davridan beri sizlar shodligimizga ham, g'am-anduhimizga ham sheriiksizlar, to'yu uloqlarda ham biz bilan bargasizlar. Yig'langlar, biz bilan birga yig'langlar!»

Tanaboy ham ularga ergashdi. Uning alamli faryodi tonggi ovulga taraldi.

— Jo'ra-a-a! Jo'ra-a-a!

U ot ustida lo'killab, egarning hali u, hali bu tomoniga og'ib borar va dunyodan ko'z yumgan do'stini yo'qsab zor-zor yig'lar edi.

Mana, Jo'raning hovlisiga ham yetib keldi. Ana, uy oldida ustiga motam yopig'i yopilgan Gulsari turibdi. Uning sag'risiga tushayotgan qor uchqunlari o'sha zahoti erib ketar edi. Gulsari egasiz qoldi. Endi u quruq egar bilan turardi.

Tanaboy o'zini otining bo'yniga tashlar, qaddini ko'tarib, yana tashlanar edi. Atrofda odamlar xuddi tumandagidek arang ko'rinar va tinimsiz yig'i eshitilardi. U g'ala-g'ovur ichida kimningdir:

— Tanaboyni otdan tushirib, Jo'raning o'g'li yoniga olib boringlar, — deganini ham eshitmadi.

Bir necha juft qo'l unga cho'zildi va uning otdan tushishiga yordamlashdi. So'ng qo'lting'idan suyashib, odamlar orasidan olib o'tib ketishdi.

— Meni kechir Jo'ra, meni kechir! — deb bo'zlab yig'lardi Tanaboy.

Hovlida Jo'raning o'g'li student Shomansur uy devoriga yuzini qo'yanicha turardi. U Tanaboyga o'girildi, ko'zlari jiqla yoshga to'lgan edi. Ular yig'lab quchoqlashib ko'rishishdi.

— Sen otangdan, men do'stimdan judo bo'ldik! Meni kechir, Jo'ra! Meni kechir! — deb entikib ho'ngrab yig'lardi Tanaboy.

So'ngra ularni ajratishdi. Shu payt Tanaboyning ko'zi xotinlar orasida turgan Bibijonga tushdi. U Tanaboyga qarab unsiz ko'z yoshi to'kardi. Tanaboy yanada qat-tiqroq ho'ngrab yubordi.

U Bibijonning yaqinroq kelib tasalli berishini, ko'z yoshlarni artishini istardi. Ammo u yaqin kelmadi. Joyida turganicha yig'lashda davom etdi.

Tanaboyni boshqalar ovutmogchi bo'lishardi:

— Bas qil, Tanaboy, yig'idan naf yo'q, o'zingni bos. Bunday yupatishlardan u yengil tortmas, aksincha, dardi, alami yanada kuchayardi.

Marhumni peshindan keyin olib chiqishdi. Quyoshning so'niq gardishi harakatsiz oqish bulutlar orasidan zo'rg'a ko'rindi. Hamon havoda yumshoq ho'l qor uchqunlari suzib yurardi. Dafn marosimiga ketayotganlar oppoq dalada sokin qoramtil daryo kabi oqib borishardi. Bu daryo go'yo bu yerda kutilmaganda paydo bo'lib, birinchi daf'a o'ziga yo'l ochib borayotgan edi. Oldinda bortlari ochiq mashinada oppoq namatga mahkam o'ralgan Jo'raning jasadi borardi. Uning yonida xotini, bola-chaqalarning hammasi otlarda borishardi. Tanaboy va Shomansur mashina orqasidan piyoda borishardi. Tanaboy marhum do'stining oti - egarlog'liq Gulsarini yetaklab olgan edi.

Ovuldan chiqaverishda yo'l yumshoq qor bilan qoplangan edi. U ot tuyoqlari ostida toptilib, odamlar ketidan qora bir tasma singari cho'zilib borardi. Bu yo'l, go'yo Jo'raning so'nggi yo'lini belgilab berayotgandek edi. Yo'l tepalik orqali qabristonga burildi. U yerda endi Jo'raning yo'li abadiy tugargan edi.

Tanaboy otni yetaklab borar ekan, unga qarata dilida der edi:

«Mana, Gulsari, ikkovimiz ham Jo'ramizdan ajraldik. Endi u yo'q, endi uni topib bo'lmaydi... O'sha kuni meni nega chaqirmading, nega meni yo'lda to'xtatmading? Xudo senga til bermagan-da. Men odam bo'lsam ham sendan tuban ekanman. O'z do'stimni yo'l o'rtasida tashlab ketdim, unga qayrilib ham qaramadim, yo'limdan ham qaytmadim, o'ylab ham ko'rmadim. Jo'rani men o'ldirdim, ha, so'z bilan o'ldirdim, so'z bilan...»

Tanaboy to qabristonga yetguncha yo'l bo'yi Jo'radan kechirim so'rab bordi. Go'rda ham Shomansur bilan birgalikda lahadga tushib Jo'raning jasadini mangu yotog'iga qo'yayotib dedi:

- Alvido, Jo'ra! Meni kechir, eshityapsanmi, Jo'ra, meni kechir!

Avval odamlar kaftlarida siqimlab tuproq tashlashdi. So'ng chor tarafdan belkuraklarda tuproq tortib

tushirishdi. Birpasda go'r to'lib, tepalik ustida yangi qabr hosil bo'ldi.

Kechir, Jo'ral..

* * *

Fotihadan so'ng Shomansur Tanaboyni bir chekkaga chaqirib:

— Tanake, sizda ishim bor, gaplashib olishimiz kerak, — dedi.

Ular samovarlar va gulxanlar tutab yotgan hovlidan o'tib, boqqa chiqishdi. Ariq labidan yurib, polizning narigi yonidagi yangi yiqitilgan daraxt tanasiga borib o'tirishdi. O'rtaga bir zumlik jimlik cho'kdi. Ular har qaysisi o'zicha o'ylar edi.

«Inson hayoti shu ekan-da, — deb o'yaldi Tanaboy. — Shomansur kechagina bola edi, bugun ajabtovur yigit bo'lib qopti. G'am-g'ussa uni yana ulg'aytirib qo'yibdi. Endi u Jo'raning o'rniga qoldi. Endi bir-birimiz bilan teng odamlardek gaplashamiz. Shunday bo'lishi ham kerak. O'g'illar otalarining o'rnini bosishadi. O'g'illar otalarining ishini davom ettirishadi. Ilohim, otasidek bo'lsin. Lekin bizlardan ilgarilab ketishsin, aql-farosatda, ishbilarmonlikda bizdan balandga ko'tarilishsin, xalqqa xizmat qilib, o'zları ham baxtli bo'lishsin. Biz, otalar, bizdan o'zib ketsinlar, bizdan ko'ra yaxshiroq ishlab, yaxshiroq yashasinlar, degan umidda farzand o'stiramiz... Ha, bizning umidimiz shu...»

— Shomansur, sen endi oila boshlig'isan, — dedi ni-hoyat Tanaboy keksalardek soqolini silab. — Endi sen Jo'raning o'rnini bosasan. Men esa sening gaplaringni Jo'rani tinglagandek eshitaman.

— Tanake, men otamning vasiyatini sizga aytmog'im kerak, — dedi Shomansur.

Tanaboy Shomansurning talaffuzida otasining ovozini, so'z ohangini aniq his etib, bir seskanib tushdi. U Shomansurning otasiga, yosh yigit Jo'raning yoshligiga juda o'xshashligini hozir birinchi marta payqadi. Jo'raning yoshlik yillarini Shomansur bilmasdi, Tanaboy esa uni bilardi va esda yaxshi saqlab qolgan edi. Uni

bilgan kishilar tirik ekan, inson o'lmaydi, deb bekorga aytishmagan ekan-da.

— Qulog'im senda, o'g'lim.

— Men kelganimda otam tirik edi, Tanake. Kecha tunda o'limidan bir soat ilgari yetib kelishga ulgurdim. Oxirgi nafasiga qadar es-hushi o'zida edi. Sizni, Tanake, intizor bo'lib kutdi. Hadeb: «Tanaboy qani? Kelmadi-mi?» deb so'rardi. Biz sizni yo'lda, hozir yetib keladi, deb tasalli berardik. Aftidan, sizga nimadir aytmoqchi edi. Lekin ulgurmadi.

— Ha, Shomansur. Bizning bir-birimiz bilan ko'ri-shishimiz juda zarur edi. Bir umrga dilimda armon bo'-lib qoldi. Bunga men aybdorman. Ertaroq yetib kelol-madim.

— Aytgandek, otam menga bir narsani tayinladi. O'g'lim, dedi u, Tanakengga aytgin, kechirim so'rayman, gina-qudurat saqlab yurmasin, mening partiya biletimni uning o'zi tuman partiya komitetiga olib borib topshirsin. Mening biletimni Tanaboyning o'zi, o'z qo'li bilan eltib topshirsin, unutib qo'yma tag'in, albatta unga ayt, deb vasiyat qilgan edi. Shundan so'ng hushi-dan ketdi. Qiynaldi. Jon berayotganda ham kimnidir kutayotgandek qaradi. Yig'i aralash nimalardir dedi, ammo biz so'zlarini anglay olmadik.

Tanaboy indamay o'tirar, piq-piq yig'lab, soqolini silardi. Jo'ra ketdi. Ha, u Tanaboy qalbining yarmini, hayotining bir qismini olib ketdi.

— So'zlarining uchun rahmat, Shomansur, baraka top. Otangga ham rahmat! — dedi nihoyat Tanaboy o'zini qo'lga olib. — Lekin mening ko'nglimni bir narsa g'ash qilmoqda. Sen meni partiyadan chiqarganlarini bila-sanmi?

— Bilaman!

— Axir men, partiyadan haydalgan odam, Jo'raning partiya biletini qanday qilib raykomga eltaman. Bunday qilishga haqqim yo'q-ku!

— Bilmadim, Tanake. O'zingiz bilasiz. Men otamning vasiyatini bajarmog'im lozim. Men sizdan yana o'tinib so'rayman, otamning so'zini yerda qoldirmang.

— Men joni dilim bilan bajarar edim. Ammo boshim-

ga musibat tushgan. O'zing eltib topshirsang durust bo'lmasmikin-a, Shomansur?

— Yo'q, bo'lmaydi. Otam so'ragan narsasini o'zi yaxshi bilgan. Modomiki, u sizga ishonibdi, nega endi men ishonmas ekanman? Rayon partiya komitetiga borib ayting, otamning, Jo'ra Sayoqovning vasiyati shunday ekan, deng.

Hali tong otgancha yo'q edi. Tanaboy kallayi saharlab turib ovuldan chiqdi. U o'sha uchqur otga minib olgandi, ha, o'sha yaxshi va yomon kunlarida sadoqatli yo'ldosh bo'lgan Gulsarining ustida o'tirardi. Saman yo'rg'a yo'l chetidagi muzlab qolgan yerni ezib, parchalab yelib borardi. U bu safar marhum do'sti communist Jo'ra Sayoqovning maxsus topshirig'i bilan tumanga borayotgan Tanaboyni — o'zining sobiq xo'jayinini eltardi.

Oldinda, zaminning ko'zga ko'rincas etaklarida astasekin tong yorishib kelardi. Subh og'ushida yangi tong otmoqda edi. U qo'ng'ir tuman orasida keng tarqalib borardi...

Yo'rg'a ot o'sha shafaq nur tomon, hanuz osmon etagida yolg'iz yog'du sochayotgan yulduz tomon dasht yo'llarda dupur-dupur qilib tanho ketib borardi. Tanaboy ko'pdan beri saman-yo'rg'ani minmagan edi. Gulsari odatdagidek tez va beozor yo'rg'alab borardi. Shamol otning yolini tarab, Tanaboyning yuzlariiga urilardi. Gulsari hali ham kuchdan qolmagan, baquvvat ot edi.

Tanaboy butun yo'l davomida xayol surib bordi, lekin nima uchun Jo'ra o'limi oldidan o'z partbiletini raykomga eltib topshirishni unga, partiyadan chiqarilgan Tanaboya vasiyat qilganiga aqli yetmas edi uning. Jo'raning bundan maqsadi nima ekan? Yoki uni sinamoqchi bo'ldimikin? Yo, ehtimol, bu bilan Tanaboyning partiyadan haydalishiga aslo rozi emasligini bildirmoqchimikin?.. Endi bu muammo hech qachon yechilmaydi. Jo'ra endi hech qachon hech narsa deya olmaydi. Ha, bu dunyoda «hech qachon!» degan kabi dahshatlari so'zlar ham mavjud. Shu bilan so'z ham tamom...

Yana allaqanday fikrlar uning miyasini chulg'ab oldi. Butunlay xayolidan chiqarib tashlamoqchi bo'lgan

narsalar yana jonlana boshladi. Yo'q, hali «tamom» deyishga erta. Jo'raning vasiyati yodida. U do'stining bileyti bilan tumanga boradi. Do'sti haqida nimaiki bilsa, hammasini aytib beradi, xalq uchun, Tanaboy uchun Jo'raning qilgan yaxshiliklarini birma-bir aytib beradi. O'zi haqida ham gapirib beradi, chunki Jo'ra bilan u - bir qo'lning ikki barmog'i edilar.

Ha, ularning yoshlik kezlarida qanday bo'lganliklarini va qanday hayot yo'lini bosib o'tganliklarini hamma bilib qo'ysin. Zora, odamlar Tanaboyni Jo'rada tirkligida ham, o'lganidan keyin ham ajratish insofdan emasligiga tushunib yetsalar. Faqat gapiga quloq solsalar bas, ko'ngil dardini izhor etishga imkon bersalar bo'lgani.

Tanaboy raykom kotibi qoshiga qanday kirib borishni, Jo'raning partiya biletini uning stoli ustiga qo'yib, barcha bo'lib o'tgan voqealarni qanday aytib berishini o'ylab borardi. U o'z gunohini bo'yniga olib kechirim so'raydi, o'zini yana partiya safiga qaytarishni iltimos qiladi, chunki u partiyasiz yashay olmaydi va busiz o'z hayotini tasavvur ham qila olmaydi.

Bordi-yu, partiyadan o'chgan shaxsning partiyaviy hujjatni keltirishga nima haqi bor, deyishsa-chi? «Sen kommunistning partbiletiga qo'l tegizmasliging, bunday ishlarga aralashmasliging kerak edi. Sendan boshqa odam ham topilardil!» deyishsa-chi? Biroq Jo'raning so'nggi istagi shu edi-da. U o'limi oldidan shunday vasiyat qilgan edi. Buni uning o'g'li Shomansur ham tasdiqlaydi. «Xo'sh, nima bo'libdi, axir jon talvasasida, behushlikda yotgan odam nimalar demaydi?» deyishsa-chi? Unda Tanaboy nima deb javob beradi?..

Gulsari muzlab, qotib qolgan yo'ldan tasirlatib chopib borardi. Mana bu bepoyon dashtni orqada qoldirib Aleksandrovka tepaligiga chiqib oldi. Gulsari Tanaboyni juda tez olib borardi. U tuman markaziga qanday yetib borganini ham bilmay qoldi.

Rayon tashkilotlarida ish kuni endigina boshlangan edi. Tanaboy hech qayerda to'xtamasdan, jiqla terga botgan yo'rg'ani to'g'ri raykom binosi tomon haydadi. Otni qoziqqa bog'lab, ust-boshini qoqdi-da, yuragi «duk-duk» urib raykom binosiga kirdi. Unga nima

der ekanlar? Qanday qabul qilishar ekan? Koridorda hech kim ko'rinnasdi. Hali kishilar ovullaridan kelib ulgurmagandi. Tanaboy Qashqatoyevning qabulxonasiga kirdi.

- Salom, – dedi u kotiba qizga.
- Salom!
- O'rtoq Qashqatoyev o'zlaridami?
- Ha, o'zlarida.
- Men u kishining oldiga keldim. «Oqtosh» kolxozining cho'poniman, familiyam Bekasov, – dedi u qizga.
- Bilaman, sizni taniyman, – dedi kotiba qiz kulsirab.

– Unday bo'lsa, kirib u kishiga ayting, partiya tashkilotimizning kotibi Jo'ra Sayoqov vafot etdi. U o'limi oldidan partiya biletini raykomga eltib berishimni iltimos qilgan edi. Shunga kelgan edim.

- Mayli. Bir zum kutib turing.

Kotiba qiz Qashqatoyev kabinetida uzoq turib qolmagan bo'lsa-da, uni kutib Tanaboyning toqati toq bo'ldi, o'zini qo'yarga joy topmadni.

– O'rtoq Qashqatoyev band ekanlar, – dedi kotiba qiz kabinetdan chiqib eshikni jipslab yopar ekan. – U kishi Sayoqovning partbiletini hisobga olish sektoriga topshirishingizni aytdilar. Hu ana, koridor bilan borsangiz, o'ng qo'lda.

«Hisobga olish sektori... Koridor bilan borsangiz, o'ng qo'lda...» Bu nimasi? – Tanaboy tushunmasdi. Keyin hammasini bir yo'la tushundi, ruhi ham birdan tushib ketdi. Nahotki shunday bo'lsa? Nahotki hamma narsa shunaqa jo'ngina bo'lsa? U o'ylagandiki...

– Mening unga gapim bor. Iltimos, kirib aytsangiz, juda zarur gapim bor.

Kotiba qiz istar-istamas kabinetga kirdi va qaytib chiqib:

– U kishi juda band, – dedi yana. Keyin xayrixohlik bilan qo'shib qo'ydi: – Axir sizning masalangiz hal bo'lgan edi-ku?! – So'ng yanada sekin dedi: – U sizni qabul qilmaydi. Yaxshisi, qaytib ketavering.

Tanaboy koridordan yurib o'ngga burildi. «Hisobga olish sektori» degan yozuv. Eshikda darcha. Tiqillatdi. Darcha ochildi.

– Nima deysiz?

– Sizga partiya biletini topshirish uchun olib keldim. Partorgimiz Jo'ra Sayoqov vafot etdi. «Oqtosh» kolxoziidan.

Tanaboy to kamzuli ostidagi tasmali charm xaltachani olguncha, hisobga olish sektorining mudiri – ayol kishi sabr bilan kutib turdi. Tanaboy bu xaltachada yaqindagina o'zining partiya biletini olib yurgan edi, bu safar esa unda Jo'raning partiya biletini olib keldi. Biletni darchadan uzatdi: «Alvido, Jo'ra!»

Ayol vedomostga Jo'raning partiya biletini nomerini, familiyasini, ismini, otasining otini, partiya safiga kirgan yilini qanday yozayotganligiga Tanaboy qarab turdi. Bular uning haqidagi oxirgi xotira edi. Ayol vedomostni qo'l qo'yishga uzatdi.

– Bo'ldimi? – deb so'radi Tanaboy.

– Bo'ldi.

– Xayr.

– Xayr.

Darcha qattiq yopildi.

Tanaboy ko'chaga chiqdi. Yo'rg'aning tizginini yecha boshladi.

– Tamom, Gulsari, – dedi u otga, – vassalom.

Tolmas yo'rg'a uni orqaga, ovulga uchirib olib ketdi. Bahori keng dasht ot tuyog'ining dupur-dupuri ostida shamoldek o'tib horar edi. Tanaboyning dilidagi og'riq faqat otning chopishidagini barham topardi.

Shu kuni kechqurun Tanaboy uyiga, toqqa qaytib keldi.

Xotini uni jimgina kutib oldi. Otning jilovidan tutib, erining qo'llitig'idan ushlab egardan tushishga yordamlashdi. Tanaboy o'girilib xotinining kiftiga o'zini tashlab quchoqladi. Xotini ham yig'lab uni quchoqladi.

Jo'rani dafn etdik! U yo'q oramizda, Jaydar. Yo'q mening do'stim! – derdi Tanaboy yana ko'z yoshlariга erk berib.

Keyin u o'tov oldidagi xarsang toshda jimgina o'tirdi. Yakka qolishni istardi. Oppoq qorli tog'ning qirrali cho'qqilari orqasidan sekin ko'tarilib kelayotgan oyning chiqishini ko'rishni istardi. Xotini o'tovda bojalarni yotqizayotgan edi. O'choqda yonayotgan olovning

chirsillashi eshitilardi. Keyin temir qo'bizning yurakni ezuvchi titroq ohangi yangradi. Go'yo shamol alam bilan ingrayotgandek, go'yo bir odam dalada mungli ashula aytib, yig'lab chopib ketayotgandek, atrofdagi hamma narsalar esa nafasini ichiga yutib, jim tur-gandek, hamma narsa sukutga cho'mgandek va faqat insoniy qayg'u-hasrat nola chekayotgandek edi. Go'yo u yugurar va o'zining qayg'u-alami bilan qayerga bosh urishni, bu sokin va kimsasiz yerda alamlarini kimga aytib, ko'nglini qanday bo'shatishni bilmas va unga hech kim ham javob bermas edi. U yig'lar va o'zini o'zi tinglardi. Tanaboy xotinining u uchun «Keksa ovchining qo'shig'i» kuyini chalayotganini anglatdi...

*Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,
Holimga yig'lar kim, o'g'lim Qoragul,
Taqdir jazoladi, o'g'lim Qoragul.*

*Qismat o'ch oldi, o'g'lim Qoragul,
Ovchilik kasbiga, o'g'lim Qoragul,
Oh, nega o'rgatdim, o'g'lim Qoragul?*

*Qush-hayvonni qyrratding, o'g'lim Qoragul,
Jonivorlarni otding, o'g'lim Qoragul,
Har bir tirik mavjudot, o'g'lim Qoragul,
Dastingdan olsa nahot, o'g'lim Qoragul.*

*Yolg'iz qoldim olamda, o'g'lim Qoragul,
Hech bir inson shu damda, o'g'lim Qoragul,
Yig'imga solmas quloq, o'g'lim Qoragul,
Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,
Joningga qasd qildi qo'lim, Qoragul...*

... Tanaboy o'tov oldida o'tirib, qadimiylar qirg'iz mar-siyasini tinglar, xomush turgan qop-qora tog'lar ortidan oyning sekin-asta ko'tarilishini va o'tkir qirrali qorli cho'qqilar tepasida, bir-birining ustiga qalashib ketgan qoyalar tepasida uning muallaq turib qolganini tamosha qilar edi. Shunda u marhum do'stidan kechirim so'rab yana iltijo etardi.

Jaydar esa o'tov ichida qo'bizda hamon ulug' – ovchi Qoragul haqidagi marsiyani chalardi:

*Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,
Holimga yig'lar kim, o'g'lim Qoragul...*

XXIII

Tong otib qolgandi. Keksa Tanaboy gulxan yonida, jon berayotgan yo'rg'a otning bosh tomonida o'tirib, shundan keyin bo'lib o'tgan voqealarni eslab ketdi.

Uning o'sha kunlari oblast markaziga borganini hech kim bilmagan edi. Bu uning oxirgi marta urinib ko'rishi edi. U rayondagi kengashda nutqini eshitgan obkom kotibini ko'rgisi va unga o'zining hamma qayg'u va hasratlarini so'zlab bergisi kelardi. Bu odamning uni tushunishiga va unga yordam berishiga ishonardi. Jo'ra ham u haqda iliq gaplar aytgan edi, boshqalar ham uni maqtashardi. Biroq u bu kotibining boshqa oblastga ishga o'tkazilganini obkomga kelgandan keyingina bildi.

- Eshitmovdingizmi hali!
- Yo'q.
- Agar ishingiz juda muhim bo'lsa, men yangi kotibimizga aytaman, balki, u sizni qabul qilar, — deb taklif qildi qabulxonadagi ayol.

- Yo'q, rahmat, — deb rad etdi Tanaboy uning il-tifotini. — Men shunchaki, o'zimcha shaxsiy ish bilan keluvdim. Men axir uni tanirdim, u ham meni bilardi. Bo'lmasa, uni bezovta qilib o'tirmasdim. Kechirasiz, xayr.

U dilida avvalgi kotibni yaxshi bilganligiga, u ham buni — cho'pon Tanaboy Bekasovni shaxsan taniganligiga ishongan holda qabulxonadan chiqdi. Nega tanishmasin axir? Ular bir-birlarini tanishlari va hurmat qilishlari mumkin edi, u bundan shubhalanmasdi, shu-ning uchun ham shunday dedi.

Tanaboy ko'chaga chiqib, avtobus stansiyasi tomon yo'l oldi. Pivo do'koniga oldida ikki ishchi mashinaga bo'sh bochkalarini ortishmoqda edi. Kuzovda turgan sheringiga bochkani g'ildiratib chiqarib berayotgan pastdagi ishchi yonidan o'tib ketayotgan Tanaboya tasodifan ko'zi tushib qoldi-yu, tusi o'zgarib ketdi. Bu Bektoy edi. U mashina kuzoviga qiya qilib tirab qo'yilgan taxta ustidagi bochkani ushlab, Tanaboya qisiq ko'zlarini adovat bilan tikkanicha, kutib turardi.

— Hey, senga nima bo'ldi, uxlab qoldingmi? — dedi g'jinib Bektoya mashina ustida turgan sherigi.

Bochka pastga dumalamoqda, Bektoy esa uni ushlab, bochkaning og'irligidan bukchayib, Tanaboydan ko'zini uzmay qarab turardi. Lekin Tanaboy u bilan salomlashmadi. «E-e, sen bu yerda ekansan-da. Shu yerda ekansan-da. Tuzuk, ishingni topibsani. Pivo korxonasiiga o'tnashibsan-da, — deb o'yladi Tanaboy va to'xtamay o'tib ketdi. — Lekin u bu yerda nobud bo'ladi! — deb o'yladi u yana qadamini sekinlatib. — Yaxshi odam bo'lishi mumkin edi, yo gaplashib ko'rsammikin?» U orqasiga qaytmoqchi bo'ldi. Bektoya rahmi keldi, uning hamma gunohini kechirishga tayyor edi, faqat aql-u hushini yig'ib olsa bas. Ammo bunday qilmadi. Agar Bektoy uning partiyadan o'chirilganligini bilsa, suhbatdan foyda bo'lmasligini tushundi. Tanaboy bu tili zahar yigit oldida o'zini, o'z taqdirini, o'zi hamon sodiq bo'lgan ishini beobro' qilishni istamasdi. Shundan keyin u indamay, shu bo'yicha ketdi. Shahardan yo'lovchi mashinada qaytdi va yo'l bo'yi Bektoy haqida o'ylab keldi. Dumalab tushayotgan bochkaning og'irligidan uning bukchayib turganligi, nimanidir kutib Tanaboyga tikilib qaraganligi uning ko'z o'ngidan ketmadi.

Keyinchalik Bektoyni sud qilishganlarida Tanaboy Bektoyning suruvni tashlab ketganinigina aytdi. Boshqa hech narsa demadi. U Bektoyning pirovardida o'z xatosini tushunib olishini va tavbasiga tayanishini juda xohlardi. Lekin u tavba qilishni xayoliga ham keltirmaydiganga o'xshardi.

— Qamoq muddatini o'tagach, mening oldimga kel, — degan edi Tanaboy Bektoya. — Keyin nima qilish to'g'risida gaplashamiz.

U esa hech narsa demagan, hatto boshini ham ko'tarmagan edi.

Tanaboy undan nari ketdi. Chunki uni partiyadan chiqarganlaridan keyin, u o'ziga ishonqiramay yuradigan, hammaning oldida o'zini gunohkordek his etadigan va negadir qo'rqedigan, hadiksiraydigan bo'lib qolgandi. U shunaqa narsalar yuz berishini umrida hech qachon xayoliga keltirmagandi. To'g'ri, hech kim bu haqda uning

yuziga solmasdi-yu, lekin baribir u o'zini odamlardan chetga olar, gap-so'zlarga aralashmas, ko'proq sukut saqlab yurar edi.

XXIV

Yo'rg'a Gulsari kallasini yerga qo'yib, gulkhan yonida qimir etmay yotardi. Hayot uni asta-sekin tark etmoqda. Endi u xirillar, ko'zлari olayib, bo'zrayganicha olovga qarab yotar, tayoqdek cho'zilgan oyoqlari jonsizlanib borar edi.

Tanaboy yo'rg'asi bilan vidolashar, unga so'nggi so'zлarni aytardi: «Sen ajoyib ot eding, Gulsari. Sen mening do'stim eding, Gulsari. Sen o'zing bilan birga mening eng ezgu xotiralarimni olib ketyapsan, Gulsari. Men umrbod seni eslayman, Gulsari. Hozir o'z oldingda seni esga olayotganimning boisi shuki, sen jon beryapsan, dongdor otim Gulsari. Biz albatta sen bilan, qachonlardir sen bilan u dunyoda uchrashamiz, Gulsari... Lekin men u yoqda sening tuyoqlaringning dupurini eshita olmayman. Axir u yoqda hayot yo'q. Ammo men tirk ekanman, sen o'lmysan, chunki men seni eslab yuraman, Gulsari. Tuyoqlaringning dupuri men uchun sevimli qo'shiq bo'lib qoldi, Gulsari...»

Keksa Tanaboy shu taxlitda xayol surar va o'zining umri ham mana shu saman yo'rg'aning chopishi singari tez o'tib ketganini, ular negadir tez qarib qolganliklarini o'ylab mung'ayib o'tirardi. Tanaboy o'zini qari deb hisoblashiga balki hali ertadir... Lekin odam keksaligidan, o'zining qarib borayotganligi, davri o'tib ketganligi, endi faqat bundan buyongi umrini bir amallab o'tkazishgina qolganini his etishdan ham qariydi.

Hozir ham, yo'rg'a jon berayotgan shu tunda ham Tanaboy o'zining o'tgan umrini ko'z o'ngidan qayta o'tkazarkan, qarilikka bunchalik barvaqt ko'nikayotganidan, uni unutmagan, qidirib topib, o'zi oldiga kelgan odamning maslahatiga darrov ko'na qolmaganidan afsuslandi...

Bu voqeа uni partiyadan o'chirganlaridan so'ng yetti yil o'tgandan keyin yuz bergandi. Tanaboy o'sha vaqt-

larda Sari hovuz darasida kolxoz ekinzorlariga nazoratchi bo'lib ishlar va u yerdagi qorovulxonada kampiri Jaydar bilan birga yashardi. Qizlari o'qishga ketishdi, keyin esa kuyovga chiqishdi. O'g'li tehnikumni bitirgach, rayonda ishga tayinlandi, u ham endi oilali bo'ldi.

Yoz kunlaridan birida Tanaboy daryo bo'yida o't o'rib yurgandi. Havo ochiq, oftob charaqlab turardi. Pichan o'radigan kun edi. Dara jimjit. Chigirtkalar chirillardi. Qariyalar kiyadigan oppoq keng ishtonni ustidan ko'ylagini tushirib olgan Tanaboy o'tlarni shig'illatib o'rib, bir tekisda yotqizib ketayotgan cholgi o'roq ortidan zavq bilan odimlab borardi. U shunda sal nariroqqa yengil mashina - «Gazik» kelib to'xtaganligini va mashina ichidan ikki kishi chiqib, u tomon yo'l olganligini ham sezmay qoldi.

- Assalomu alaykum, Tanake, hormang! - degan so'zlarni eshitdi u yon tomondan va qayrilib boqib, Ibrohimni ko'rди. U hali ham uddaburon, ikki beti qip-qizil, semiz, qorni qappaygan edi. - Mana biz sizni oxir qidirib topdik, Tanake, - dedi Ibrohim va og'zi qulog'iga yetib tirjaydi. - Sizni ko'rgilari kelib raykom kotibining o'zları keldilar.

«Ha, tulki-yel - deb Tanaboy uning haqida beixtiyor zavqlanib o'yladi. - Har qachon ham o'ziga issiq o'rın topa oladi. Qara, qanday xushomad qilyapti. Eng yaxshi oq ko'ngil odamday-a. Har qanaqa odamga esh bo'la oladi, har qanaqa odamning ko'ngliga yo'l topa oladi!..»

- Vaalaykum assalom, - deb Tanaboy ularning qo'lini qisib ko'rishdi.

- Tanimayapsizmi, ota? - deb so'radi Ibrohim bilan birga kelgan kishi xushmuomalalik bilan Tanaboyning qo'lini qo'yib yubormay.

Tanaboy javob berishga shoshilmasdi. «Qayerda ko'r-gan ekanman uni?» - deb o'ylardi u o'ziga-o'zi savol berib. Uning oldida qandaydir juda tanish, shu bilan birga, nazarida juda o'zgarib ketgan odam turardi. U yosh, sog'lom, baquvvat, oftobda qoraygan, ochiq yuzli, qarashlari dadil, kulrang movutdan kostum, poxol shlyapa kiygan yigit edi. «Shaharlik birontasidir-da» - deb o'yladi Tanaboy nihoyat.

— Axir, bu kishi o'rtoq... — deb Ibrohim esiga solmoqchi edi.

— To'xta, to'xta, o'zim aytaman, — deb to'xtatdi uni Tanaboy va o'zicha kulib dedi: — Tanidim, o'g'lim. Tanimay bo'ladi? Yana bir marta ko'rishib qo'yaylik. Seni ko'rganimdan xursandman.

Bu Karimbekov edi. Tanaboyni partiyadan o'chirayotganlarida raykomda uni dadil himoya qilgan komsomol kotibi edi.

— Agar tanigan bo'lsangiz, keling, bir gaplashib olaylik, Tanake. Yuring, sohil bo'ylab bir aylanib kelaylik. Siz esa cholg'ini olib, o'rib tura turing, — deb taklif qildi. Karimbekov Ibrohimga.

Ibrohim kamzulini yechib, bajonu dil rozilik bildirdi:

— Albatta, jonom bilan, o'rtoq Karimbekov.

Tanaboy va Karimbekov pichanzor bo'ylab yurib ketishdi va borib daryo yoqasidagi tosh ustiga o'tirishdi.

— Men sizning oldingizga qanday ish bilan kelganligimni balki sezayotgandirsiz, Tanake, — deb so'z boshladi Karimbekov. — Ko'rib turibman, siz hamon ilgarigidek tetksiz, pichan o'ryapsiz, demak, sog'lig'ingiz joyida. Shunga xursandman.

— Qulog'im senda, o'g'lim, men ham sendan xursandman.

— Gap shunday, sizga ochiq-ravshan bo'lsin uchun shuni aytayki, Tanake, hozir o'zingiz bilasiz, ko'p narsa o'zgarib ketgan. Ko'p narsalar o'nglanib kelyapti. Buni siz o'zinigz ham, har qalay, yaxshi bilsangiz kerak.

— Bilaman. Gaping to'g'ri. Kolxzozimiz ishlaridan ham ma'lum. Ishlar yurishib ketgandek ko'rinyapti. Hatto ishonging ham kelmaydi. Yaqinda men Besh tol vodisi-da bo'ldim. Huv o'sha yili men naq shu joyda cho'ponlik azobini tortgandim. Endi havasim kelib ketdi. Yangi qo'yxona — besh yuz bosh qo'y sig'adigan shifer tomla yaxshi qo'yxona va cho'ponlar uchun uy qurishibdi. Yonida esa somonxona, otxona. Bizning vaqtimizdagidek emas, batamom boshqacha bo'lib ketibdi. Qo'ylar qishlaydigan boshqa joylarda ham xuddi shunday. Ovulning o'zida ham xalq uy-joy qurib yotibdi. Qachon borsam,

ko'chada yangi uy qad ko'tarayotganini ko'raman, ilo-him, bundan buyon ham shunday bo'lzin.

— Biz ham shuning g'amida, shuning tashvishida yurib-miz, Tanake. Hali hamma narsa ham ko'ngildagidek emas. Ammo vaqt soati kelib hammasini ham to'g'rilaymiz. Men sizning oldingizga bir ish bilan keldim. Partiyaga qayting. Ishingizni qayta ko'ramiz. Siz haqda byuroda gap bo'ldi. Hech bo'lmanidan kech bo'lgani yaxshi, deyishadi.

Tanaboy indamadi. Xijil bo'ldi. Quvonib ham ketdi, alam ham qildi unga. U butun kechmishlarini xotirladi. Alam-iztirob unga chuqur o'rnashib qolgandi. Shuning uchun ham u o'tmishni titkilagisi va u haqda o'ylagisi kelmasdi.

— Iliq so'zing uchun rahmat, — deb minnatdorchilik bildirdi Tanaboy raykom kotibiga. — Cholni unutmaganing uchun rahmat. — So'ng biroz o'ylanib ochig'ini ayta qoldi: — Endi men qarib qoldim. Partiyaga endi mendan nima foyda? Partiyaga men nima qilib bera olardim? Endi men hech narsaga yaramayman. Mening davrim o'tgan. Sen xafa bo'lma. O'ylab ko'rishga ruxsat ber...

• • •

Tanaboy ancha vaqtgacha bir qarorga kelolmadi. Ertaga boraman, indinga boraman, deb ishni paysalga soldi. Vaqt esa o'tib borardi. Dovondan oshib o'tish qiyin bo'lib qolgan edi endi unga.

Nihoyat bir safar otni egarlab yo'lga ham tushdi, biroq yana yarim yo'ldan qaytib keldi. Nega? Nodonlik qilib qaytib kelganini o'zi tushunardi. O'ziga-o'zi «qariganda es-hushimni yo'qotib, yosh bolaga o'xshab qoldim» dedi. Bularning hammasiga aqli yetardi, lekin o'zini idora qilishga kuchi yetmay qolgan edi endi uning...

U bir kuni dashtda chopib ketayotgan yo'rg'aning changini ko'rib qoldi va uning Gulsari ekanligini darhol bildi. Tanaboy endi uni kamdan kam ko'rardi. Gulsari yozgi taqir dashtlikda oppoq iz qoldirib borardi. Tanaboy unga uzoqdan qarab turib, xafa bo'lib ketdi. Ilgari

tuyoqlari ostidan ko'tarilgan chang-tuproq yo'rg'aga yetib ololmasdi. U qo'ng'ir uchqur qush singari orqasida dumga o'xhash changni qoldirib, o'zi oldinda uchib borardi. Endi bo'lsa yo'rg'ani hadeb chang-to'zon bulutlari o'rab olardi. U oldinga o'tib ketar, ammo bir nafas o'tmay yana o'zi ko'targan quyuq chang ichida g'oyib bo'lardi. Yo'q, endi u chang-to'zondan o'zib ketolmaydi. Demak, juda qarib qolibdi, holdan toyibdi. «Ahvoling chatoq, Gulsari», deb o'yaldi Tanaboy alam bilan.

Uning changda nafasi qisilayotganini, chopishga qiynalayotganini, chavandozning jahl bilan uni qanday qamchilayotganini tasavvur qildi. U ko'z o'ngida yo'rg'aning sarosimaga tushib qolgan ko'zlarini, quyuq chang tumani ichidan chiqib olishga bor kuchi bilan qanchalik urinmasin, lekin chiqqa olmayotganligini ko'rib turardi. Masofaning uzoqligidan uning qichqirgan ovozini chavandoz eshitmasa ham, Tanaboy shunda: «To'xta, otni qattiq haydama!» deb qichqirdi va o'z otini choptirgancha uning yo'lini kesib chiqmoqchi bo'ldi.

Biroq yetolmasdan, tezda to'xtadi. Agar chavandoz uni tushunsa-ku, yaxshi-ya, bordi-yu tushunmasa-chi? «Sening ishing nima? Sendaqa buyruq beradigandan o'rgildim! Qanday istasam, shunday ketaman. Yo'qol bu yerdan, qari tentak!» deb javob qaytarsa-chi?

Yo'rg'a esa bu orada dam chang-to'zon orasida ko'rinxmay qolar, dam undan otilib chiqar, qiynalib chopib, uzoqlashib borardi. Tanaboy uning orqasidan uzoq qarab turdi. Keyin otini burib, orqaga qaytib ketdi. «Davrimiz o'tib ketdi, — der edi u. — Qaridik, Gulsari. Endi biz shu ahvolda kimga ham kerakmiz? Endi mening ham oldingidek kuch-quvvatim yo'q. Oxirgi kunlarimizni kechirish qoldi, Gulsari...»

Bir yildan keyin Tanaboy yo'rg'ani aravaga qo'shilgan holda ko'rdi. Tanaboyning yana ko'ngli buzildi. U safdan chiqib qolgan, endigi qismatga bo'yniga kuya tushgan bo'yincha ilib, eski aravani tortishdan iborat bo'lgan qari yo'rg'aga qarab turish ayanchli edi. Tanaboy qarashni istamay orqasiga o'girildi.

Tanaboy yo'rg'ani keyin yana bir marta uchratdi. Uning ustida trusik va yirtiq mayka kiyib olgan yetti

yoshlardagi bola ko'cha bo'ylab borardi. U yalang'och oyoqlari bilan otni niqtab, uni o'zi hoshqarayotganidan quvonib mag'rurlanardi. Aftidan, bolaning otga birinchi marta minishi edi. Shuning uchun ham uni juda yuvosh va itoatkor bo'lib qolgan eski yo'rg'a Gulsariga mingizib qo'yishgandi.

— Bobo, menga qarang! — deb maqtanardi u keksa Tanaboyga. — Men Chapayevman! Men hozir soydan o'taman.

— Qani-qani, o'tgin-chi, men ko'rayin! — deh ma'qulladi Tanaboy.

Bola ot jilovini dadil ushlab, soyni kechib o'ta boshladidi. Ammo ot narigi qirg'oqqa chiqayotganida bola o'zini tutolmay suvga shaloplab yiqlilib tushdi va:

— O-yil — deb qo'rquvdan ho'ngrab yig'lab yuhordi.

Tanaboy uni suvdan chiqarib oldi va otning yoniga keltirdi. Gulsari so'qmoq yo'lida og'irligini navbat bilan dam u oyog'iga, dam bu oyog'iga tashlab turardi. «Otning oyog'i og'riyapti, demak ahvoli chatoq», deb o'yaldi Tanaboy. U bolani qari yo'rg'aga mindirdi.

— Haydayver, endi yiqlima.

Gulsari yo'lidan sekin yurib ketdi...

Shundan so'ng yo'rg'a yana Tanaboyning qo'liga keldi. U otni parvarish qilib oyoqqa turg'izgandan so'ng, Gulsari uni oxirgi marta Aleksandrovkaga olib borgan edi, hozir esa qaytayotib yo'lida o'lmoqda...

Tanaboy o'g'li va kelininikiga nabira ko'rganligi, oilada ikkinchi farzand tug'ilganligi munosabati bilan borgan edi. Ularga sovg'a qilib bir nimta qo'y go'shti, bir qop kartoshka va xotini yopgan non hamda boshqa har xil yemishlarni olib borgandi. U Jaydarning kasalman degan bahona bilan bormaganligining sababini keyinchalik tushundi. U hech kimga aytmagan bo'lsa-da, kelinini yoqtirmas edi. O'g'li irodasiz, bo'shang yigit bo'lib, xotini esa shafqatsiz, hukmdor ayol edi. Uy bekasi bo'lib olgan bu ayol erini «gah» desa qo'liga qo'nadigan qilib olgandi. Odatda arzimagan narsa uchun kishini xafa qiladigan, haqorat qiladigan, faqat o'zini yuqori tutib, so'zini o'tkazadigan odamlar ham bo'ladi. Kelini ham xuddi shundaylardan edi. Uning o'g'lini yuqori

lavozimga ko'tarishlari kerak ekan, ammo keyin negadir boshqa kishini tayinlashib, uni esa chetga qoldirishibdi. Buning uchun kelini gunohsiz cholga vaysab ketdi.

— Butun umringiz cho'ponlikda, yilqichilikda o'tar ekan, partiyaga kirishning nima hojati bor edi sizga. Baribir oxirida haydabdilar. Shu vajdan o'g'lingizga ham yo'l yo'q endi. U endi yuz yilgacha bir lavozimda yuraveradi. Sizlar u yoqda, tog'da, o'z uyingizdasiz, siz keksalarga bundan ortiq nima kerak! Bizlar bo'lsak, mana, kasofatlaringizga qolyapmiz...

Qolgan gaplari ham shu mazmunda edi.

Tanaboy kelganiga pushaymon bo'ldi. U kelinini tinchlantirish maqsadida ishonchsizlik bilan shunday dedi:

— Agar ish shunday bo'ladigan bo'lsa, balki men yana partiyaga qabul qilishlarini so'rayman.

— Sizga ko'zi uchib turibdi ularning. Sizdaqa qari-qartanglarsiz ish bitmas emish! — kelini unga javoban piqillab kulib yubordi.

Agar u kelini bo'lmay, kimdir boshqa odam bo'lganda Tanaboy shunaqa gaplarga chidab o'tirarmidi. Ammo yaxshimi, yomonmi, ular o'zingniki bo'lgandan so'ng nima ham qila olarding. Chol indamay qo'ya qoldi, gap ko'paymasin dedi. Uning erini yuqori lavozimga ko'tarmaganlariga sabab otasining aybdor bo'lganligi emas, balki o'zining uquvsizligi va shunaqa xotinga duchor bo'lganligidan edi. O'z qadrini bilgan kishi bunday xotindan boshi oqqan tomonga qochib qutulishi kerak: «Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham xotin» deb bekorga aytmagan xalq. Biroq chol yana o'g'lini xotini oldida beobro' qilishni istamadi. Mayli, ular chol aybdor, deb o'ylab yuraversinlar.

Shuning uchun ham Tanaboy o'g'linikidan tezroq jo'nab ketdi. Ularnikida qolishga yuragi bezillardi.

— Ahmoqsan, ahmoq! — der edi u endi gulxan oldida o'tirib kelinini so'karkan. — Ajabo, qayoqdan ham bu yorug' dunyoga kelarkan sendaqa betamizlar? Na or-nomus, na izzat-hurmat, na boshqalarga yaxshilik qilishni bilasizlar. Faqat o'zlarining o'ylaysizlar. Hammani ham o'z gazlaring bilan o'lchaysizlar. Ammo

sening o'ylaganingcha bo'lmaydi. Men hali odamlarga kerakman, kerak bo'laman...»

XXV

Subhidam. Tog'lar qorayib ko'rina boshladi. Dasht kengayib, ravshanlashib borardi. Jarlik yoqasidagi o'chib qolgan gulxanning qorayib qolgan cho'g'lari sekin so'nar edi. Uning yonida yelkasiga po'stinini tashlab, sochlari oqarib ketgan chol turardi. Endi yo'rg'aning ustini po'stin bilan yopishga hojat yo'q edi. Gulsari narigi dunyoga ravona bo'lgandi...

— Alvido, Gulsari!..

Tanaboy o'lgan otga qarab turib hayratda qoldi — unga nima bo'ldi! Gulsari kallasini orqaga tashlab yotar va yuganning chuqur botib ketgan o'rni ko'rinishi turardi. Tars-tars yorilgan tuyoqlaridagi taqalari yeyilib, bukilmas oyoqlari cho'zilib yotardi. U endi boshqa yura olmaydi, yo'llarda o'z izlarini qoldirolmaydi. Ketish kerak edi. Tanaboy otga oxirgi marta egilib qaradi va uning sovib qolgan ko'zlarini berkitdi. So'ng yuganini oldi va orqasiga qaramasdan yurib ketdi.

U dashtlik orqali toqqa yo'l oldi. Chuqur o'yga tolib ketib borardi. Qarib qolganligini, kuni bitib qolganligini o'ylardi. U qanotlaridan ajralib qolgan yolg'iz qush kabi tezuchar, sheriklaridan orqada qolib o'lishni istamasdi. U parvoz qila turib o'lishni istardi.

«Shomansurga xat yozaman, — deb jazm qildi Tanaboy. — Xatga shunday deb yozaman: — Yo'rg'a Gulsari esingdami? Albatta esingdadir. Men unga minib raykomga otangning partbiletini olib borgan edim. Sen o'zing jo'natib qo'ygan eding meni. O'tgan kechasi Aleksandrovkadan qaytib kelayotgan edim, yo'lda mening ajoyib yo'rg'am o'lib qoldi. Tun bo'yi otning yonida o'tirib, butun hayotimni o'ylab chiqdim. Yo'rg'a Gulsari singari men ham yo'lda o'lib qolamanmi... Sen mening partiyaga qaytishimga yordamlashishing kerak, o'g'lim Shomansur. Mening sanoqli kunlarim qoldi. Ilgari qanday bo'lgan bo'lsam shunday bo'lishni istayman. Otang Jo'ra o'zining partbiletini raykomga olib borishni

menga bekorga vasiyat qilmaganini endi tushundim. Sen esa otangning o'g'lisan va meni, keksa Tanaboy Bekasovni yaxshi bilasan...»

Tanaboy yuganni yelkasiga tashlab, dasht bo'ylab ketib borardi. Yuzlaridan oqib tushayotgan ko'z yoshlari soqolini ho'l qilib yuborgandi. Lekin Tanaboy uni artmasdi. Bu yo'rg'a Gulsari uchun to'kilayotgan yoshlari edi. U ko'z yoshlari orqali yangi tongga, tog' etagiga tez uchib borayotgan tanho kulrang g'ozga boqdi. G'oz o'z galasiga shoshilardi.

— Uchaver, uchaver! — deb shivirladi Tanaboy. — Qanoting tolmay, sheriklaringga yetib ol. — Keyin yana xo'rsinib dedi: — Alvido, Gulsari!..

U ketib borar, qulog'iga yana qadimgi qirg'iz ashulasi eshitilar edi.

... Ona tuya bir necha kundan beri yelib-yuguradi. Bolasini chaqiradi, izlaydi. Qaydasan, qora ko'zli bo'talog'im? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab ketgan yelinimdan sut oqyapti, oyoqlarimdan oqib tushyapti. Qaydasan? Javob ber. Yelinimdan tirsillab ketgan yelinimdan sut oqyapti. Oppoq sut...

..

1966-yil.

SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR



Vladimir Sangiga bag'ishlanadi.

Rutubatli, izg'irinli, qop-qorong'i tun qo'ynida hay-hotday yastanib yotgan Oxota dengizi sobillarida tabiatning ikki qudratli kuchi – quruqlik bilan dengiz o'rtaida azaliy, tinimsiz kurash davom etadi: quruqlik dengizning asov to'lqinlariga to'sqinlik qilishga intiladi, dengiz esa quruqlikka hujum qilishda tinim bilmaydi.

Dengiz to'lqinlari zulmat qo'ynida guvullab, o'kirib, shiddat bilan qoyalarga kelib urilib, parchalanib ketadi. Dengiz hamlalarini qaytaraverib tosh-metin bo'lib ketgan qirg'oq xo'rsinib, uf tortadi.

Olam-olam bo'lib yaralganidan buyon, tun kundan tug'ilgan, kun tundan tug'ilgan zamonalardan buyon ahvol shu – ikki qudratli kuch o'rtaсидаги олишув давометади; bundan buyon ham kun-u tun, tun-u kun, yoki yer bilan suv bor ekan, ular abadul-abad shunday kurashaveradi.

Kun-u tun, tun-u kun...

Shunday kechalardan yana biri o'tdi. Dengiz oviga jo'nash arafasidagi kecha edi bu. Bola shu kecha uxlolmay chiqdi. Umrida bиринчи мarta уxlayolmади, umrida bиринчи мarta tunni bedor o'tkazdi. Qani endi, tezroq tong ota qolsa, dengizga, ovga chopqillab keta qolsa. U nerpa¹ terisi ustida yotarkan, ostidagi yer dengiz zarbalaridan bilinar-bilinmas titrayotganini sezar, ko'rfazdagи to'lqinlarning bir-biriga urilib, o'kirayotganini elas-elash eshitar edi. U tun bo'yi sergaklanib uxlay olmadи...

Qadim-qadimlarda ahvol butunlay boshqacha edi. O'sha vaqtlnari endi tasavvur qilib bo'lmaydi, qadimgi o'rdak voqeasi haqida hozir hech kim hech narsa bilmaydi, bilish u yoqda tursin, hatto bu hodisani xayoliga ham keltirmaydi, mabodo o'sha qadim zamonalarda Luvr degan o'rdak bo'limgaganida olam allaqanday, boshqacha

¹ Tyulenlar ollasiga mansub dengiz hayvonи.

tarzda tuzilib, hozirgiday, quruqlik suvga, suv esa – quruqlikka qarshi turmagan bo'lardi. Axir olamning boshlanishida – azal-azallardan – tabiatda quruqlik u yoqda tursin, hatto gard ham yo'q edi. Butun atrof suvdan, faqat suvdan iborat edi. Suv o'z-o'zidan qorong'i tubsizliklardan, cheksiz girdoblardan paydo bo'lgan, so'ng atrofga tarqala boshlagan. Shundan boshlab, to'lqinlar to'lqinlarga urilib, tarafsiz olamning hamma taraflariga oqa boshlagan: suvning qayoqdan kelib, qayonna borishini hech kim bilmagan.

Luvr o'rdak esa, ha, hozir ham har kuni tepamizdan g'ag'illab to'dasi bilan uchib o'tadigan o'sha o'rdak ilgari dunyoda yolg'iz, yakka o'zi yashardi. U samoda tanho uchib yurarkan, tuxum qo'yishga ham tangaday joy topmasdi. Chunki olamda suvdan boshqa hech bir narsa, uya qurish uchun hatto birorta has ham yo'q edi.

Luvr o'rdak qo'nadigan joy topolmay faryod chekar, chidolmayman, tuxumimni tubsiz girdobga tushirib yuboraman, deb yuragi shuvullardi. O'rdak qayoqqa yo'l olmasin, qay tarafga uchmasin, qanotlari ostida shovullab yotgan to'lqinlarni ko'rardi – chor-atrofni hadsiz-hududsiz, avvali-yu oxiri yo'q mahobatli suv qoplab olgan edi. Uchaverib holdan toygan, majolsiz o'rdak uya qurish uchun butun olamda biror parcha yer yo'qligiga ishonch hosil qildi.

Shunda o'rdak suv ustiga qo'ndi-da, ko'ksidagi patlardan tumshug'i bilan yulib olib, o'ziga uya qurdi. Xuddi mana shu suzib, qalqib yuruvchi uyadan yer paydo bo'la boshladi. Bora-bora yer kengayib, asta-sekin uning ustida turli jonivorlar paydo bo'ldi. Jonivorlar ichida inson hammasidan epchil, abjir chiqib qoldi. U qor ustida chang'ida uchishni, qayiq yasab suvda suzishni o'rganib oldi. Hayvonlarni, baliqlarni ovlashni o'rgandi, shular bilan tirikchilik qilib, o'z naslini ko'paytira boshladi.

Butun olamni qoplab olgan suv o'rtasida quruqlikning paydo bo'lishi qanday oqibatlarga olib kelishini Luvr o'rdak bilmagan edi. Chunki yer paydo bo'lgan vaqtidan boshlab, dengiz tinchini yo'qotdi; mana endi o'shandan beri dengiz – quruqlikka, quruqlik – dengizga

qarshi jang qiladi. Bular o'rtasiga tushib qolgan insonga oson tutib bo'lmaydi, u dengiz bilan yer o'rtasida, yer bilan dengiz o'rtasida azob chekadi. Odamlar ko'proq yerga bog'lanib qolganliklari uchun dengiz ularni xush ko'rmaydi...

Tong bo'zara boshladidi. Yana bir tun o'tdi. Yana bir kun dunyoga keldi. Bo'zara boshlagan tong g'ira-shirasida dengiz bilan qirg'oqning quturib olishayotgani kiyik labidan uchgan hovuriday elas-elas ko'zga chalindi. Dengiz shunday nafas oladi. Dengiz va qirg'oqning qizg'in to'qnashuvlaridan hamisha pag'a-pag'a sovuq hovur ko'tarilib turadi. Yastanib yotgan sohil bo'ylab, hamma yerda o'jar to'lqinlarning shovqini eshitiladi.

To'lqinlar o'jarligini qo'ymaydi, o'rkach-o'rkach to'lqinlar qirg'oqning muzday yonbag'irlariga, suv yalab silliqlab yuborgan toshlar uyumiga jon-jahdi bilan, bor kuchi bilan hamla qiladi, keyin esa taqdirga tan ber-ganday xo'rsinib, majolsizlanib, iziga qaytadi. Ortida o'tkinchi ko'piklar va chayqatilgan o't-o'lanlarning chirkin hidi qoladi.

Bahorda okean harakati bilan allaqayerlardan kelib qolgan muz parchalari goh-gohida o'rkach-o'rkach to'lqinlar kuchi bilan qirg'oqqa chiqib qoldi. Qum ustiga uloqtirib tashlangan bu bevosh muz parchalari darhol dengizning to'ng'ib qolgan ojiz zarralariga aylanadi. Keyin kelgan to'lqinlar tezda ortga qaytib, ularni ham o'z og'ushiga olganicha yana dengiz bag'rige eltadi.

Zulmat chekinib tong ota boshladidi. Qirg'oq ohista ravshanlashdi, dengiz ohista yorisha boshladidi.

Tungi shamol qo'zg'atgan oq yolli o'rkach-o'rkach to'lqinlar hamon qirgo'qqa talpinib, shovqin solib tur-gan bo'lسا-da, dengizning olisdagi teran joylari endi insofga kelganday tinchlanib, qo'rg'oshin singari xira ko'kish rang tortib, vazmin mavjlanib yotardi.

Dengiz ustidagi bulutlar qirg'oqdagi tepaliklar sari siljiy boshladidi.

Dengizning xuddi o'sha qismida, Olapar qo'llitig'iga yaqin yerda dengiz tomon yarim orol shaklida qiyalab turtib chiqqan tepalik — qoya bo'lib, u olisdan qara-

ganda haqiqatdan ham sohil bo'ylab chopib borayotgan kattakon olapar itni eslatardi.

Yonbag'irlarida u yer-bu yerda turli-tuman butalar o'sib, chakalakzorlarga aylanib ketgan va yozning eng issiq kunlarida ham boshidan qori arimagan qismi shalpaygan kattakon qulogqa o'xshaydigan, «chotida» – soyada qolgan pastqam joyida ham oq qashqasi bo'lgan Olapar qoyasi dengiz tomondan qaraganda ham, o'rmondan qaraganda ham olis-olislardan ko'zga tashlanib turadi.

Mana shu Olapar ko'rfazidan erta tong payti quyosh ikki terak bo'yи ko'tarilganda bir nivx qayig'i de-nizga tushdi. Qayiqda uch ovchi bilan bir bola bor edi. Yoshroq va norg'ulroq ikki yigit to'rt eshkakni eshib borishardi. Qayiq quyrug'ida yuzi qo'ng'ir tus olgan, ozg'in, kekirdagi turtib chiqqan, manglayi va aynilsa, bo'yinlarini taram-taram ajin bosgan, qo'llari ham yirik, suyakdor panja bo'g'inlari yong'oqday shishib chiqqan keksa ovchi tamaki trubkasini so'rganicha, rulni boshqarib borardi. Sochlariqa oq oralagan, butunlay oq desayam bo'ladi. Qoraygan yuzida oqish qoshlari ko'zga aniq tashlanardi. Cholning yoshlanib, qizargan ko'zları odadtagiday hamisha qisilgan – umr bo'yи quyosh nuri tushib, ko'zni qamashtiruvchi suv yuziga qarayverib o'rganib qolgan, u ko'rfazda qayiqni go'yo ko'r-ko'rona haydayotganga o'xshardi. Qayiqning narigi tumshuqqinasida o'n bir-o'n ikki yoshlardagi qora ko'z bola sug'urday cho'nqayib o'tirib olgan: ahyon-ahyonda kattalarga qarab qo'yar, joni ichiga sig'masdan o'zini zo'rg'a tutib o'tirar, xo'mrayib o'tirgan qariyani koyitmaslik uchun hadeb tipirchilayverishdan o'zini tiyib o'tirardi.

Bola qattiq hayajonda edi. Hayajondan burun katklari kerilgan, yuzidagi bilinar-bilinmas sepkillar sirtiga tepib chiqardi. Onasi ham shunaqa, juda xursand bo'lib ketsa yuzidagi sepkillar bo'rtib turardi. Bolaning hayajonlanishiga sabab bor edi. Bugungi ov bolaga atalgan, bolaning dengiz bilan birinchi marta ellashuviga atalgan edi-dal Shuning uchun Kirisk sug'urga o'xshab dam u yoqqa, dam bu yoqqa qiziqib qarardi. Bola umrida birinchi marta chinakam ovchilar bilan ochiq

dengizga chiqishi, urug'lariga tegishli rostakam katta qayiqda, katta o'lja olish maqsadida chinakam katta ovga chiqishi edi. Bolaning o'rnidan turib ketgisi, eshkakchilarni tezroq eshinglar, deb qistagisi, o'zi qo'liga eshkak olgisi, kuchining boricha eshib, dengiz hayvonini ovlagisi, katta ov boshlanadigan orollarga tezroq yetgisi kelardi. Lekin bu go'daklarcha istaklar kattalarga kulgili tuyulishi mumkin edi. Shundan hadiksirab, bola iloji boricha sir bermaslikka harakat qilardi. U baxtiyorligini sira yashirolmasdi – qoramag'iz tarang yanoqlari yal-yal yonardi, hammadan ham uning chaqnab porlab turgan ko'zlarida qalbidagi quvонч va g'urur sezilib turardi. Oldinda dengiz, katta ov kutardi uni!

O'rxon bobo bolaning dilidagini sezardi. U qisiq ko'zları bilan dengiz ufqiga boqar ekan, shodligini yashirolmay toqatsizlanayotgan bolaning ruhiyatini ham sezib turardi. Cholning ko'zlarida mayinlik balqidi – eh, bolalik ekan-da. Biroq u kulimsirashdan o'zini tiyish uchun chala yongan tamaki trubkasini bosib-bosib so'ra boshladи. Miyig'idagi kulgini bolaga sezdirmasligi kerak. Ular oralarida qayiqda o'tirgan bolani ermak uchun olib ketayotganlari yo'q-ku, axir. U chinakam dengiz ovchisi bo'lishga chog'langan. Bola bu hunarni dengizda boshlab, qachonlardir ehtimol yana dengizda tugatar. Dengiz ovchisining qismati shu: zero dengiz ovidan mushkulroq va xavfliroq ish dunyoda bo'lmasa kerak. Bolalikdan o'rganish kerak bu hunarni. Shuning uchun ham eskilar «bola – boshdan, hunar yoshdan», deb bejiz aytishmagan. Yana deganlarki, «Yomon ovchi yo'ldoshin yo'ldan ozdirar». Shundan ayonki, erkak odam ro'zg'or tebratish uchun bolalikdan kasb o'rganishi kerak. Kiriskka ham hunar o'rganish vaqtি keldi. Bolani o'zları bilan birga dengizga olib chiqish, uni ovga o'rgatish vaqtি yetdi.

Olapar qoyasidagi Ona baliq jamoasi yashaydigan butun qishloq aholisi bugungi ov safari Kirisk uchun, bo'lg'usi ovchi va ro'zg'or boshlig'i Kirisk uchun uyuşhtirilganini bilishardi. Azaldan shunday erkak bo'lib tug'ilgan har bir odam yoshligidanoq dengiz bilan do'stlashuvi, og'a-ini tutinishi lozim, chunki dengiz uni

bilib qo'ysin, odam ham dengizni do'st bilib hurmatlaydigan bo'lzin. Xuddi shuning uchun jamoa oqsoqoli O'rxon boboning o'zi bosh bo'lib, yana eng yaxshi ovchilardan ikkitasi – bolaning otasi Emrayin bilan tog'asi Milxunni yoniga olib, kattalarning kichiklar oldidagi, bu gal esa kichkintoy Kirisk oldidagi muqaddas, ezgu burchclarini hajarish uchun safarga chiqishdi. Bola shu kundan boshlab, umrining oxirigacha, quvonchli kunlarda ham, kulfatli kunlarda ham dengiz bilan do'st tutinishi kerak edi.

Kirisk hozir bola, og'zidan ona suti ketmagan go'dak bo'lsa ham mayli, u kelgusida ishga yaraydimi, yo'qmi, hozir gap bunda emas. Kim bilsin, ehtimol bir kun vaqt kelib yoshi ulug'lar holdan toyib, keksayib qolganlarida, mana shu bola jamoaning kuniga yarar, uning tayanchi bo'lib qolar. Shunday bo'lishi kerak ham. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan azaliy hayot qonuni bu. Hayot shu asosga qurilgan.

Qayiqdagilar shularni o'ylashar, ammo hech kim bu haqda churq etib og'iz ochmasdi. Bunday fikrlar odamning dilidan kechadi-yu, tiliga kamdan kam ko'chadi. Shuning uchun ham Olapar sohilida yashovchi Ona baliq – Suv parisi jamoasining odamlari Kiriskning birinchi ovga chiqishiga unchalik e'tibor berishgani yo'q. Aksincha, qabiladoshlar bolaning katta ovchilar bilan dengizga chiqib ketayotganiga ahamiyat bermaganday ko'rsatar edilar o'zlarini. Go'ya bu voqeа e'tiborga arzimaydigan edi.

Bolani faqat onasi kuzatib qo'ydi. U ham bo'lajak safar haqida churq etmadni, qo'ltiqqa yetmasdanoq o'g'li bilan xayrlasharkan, «Endi o'rmonga boraver!» dedi u aniq eshittirib, hech narsadan xabari yo'qday. Ona dengizga emas, o'rmon tomonga qarab qo'shib qo'ydi: «Ehtiyyot bo'l, olib kelgan o'tinlaring quruq bo'lzin, o'zing o'rmonda adashib qolmagin!» Ona bu so'zlarni bolani kinrlar – jin-ajinalardan asrash uchun, yovuz ruhlarni chalg'itish uchun aytdi. Ona Kiriskning otasi Emrayin to'g'risida ham og'iz ochmadi. Go'yo ovga ota-bola emas, tasodifiy odamlar birga borayotganday edi. Bu ham jinlarni chalg'itish uchun; jinlar Emrayin

bilan Kiriskning ota-bola ekanligini bilishmasin. Chunki otalar bilan bolalar birga ovga chiqishlarini jinlar yoqtirishmaydi. Agar bilib qolishsa, ota-boladan birortasini halok qilishlari mumkin. Ota yoki boladan birortasi o'lsa, tirik qolgani vahimaga tushsin, qayg'ursin, azob chekib, ikkinchi dengizga chiqmayman, boshqa o'rmonga kirmayman, deb qasam ichsin, deyishadi. Kinrlar ana shunaqa yovuz, makkor bo'lishadi, odamlarga ziyon yetkazish uchun har doim payt poylab turishadi.

Kiriskning o'zi yovuz kinrlardan qo'rqligida. Endi go'dak emas, axir. Ammo onasi qo'rqadi, qo'rqqanda ham bolamga biron falokat yopishmasin, deb juda qo'rqadi. Kirisk hali yosh, uni halok etish jinlar uchun qiyin emas, deb o'ylaydi. Onaning aytganlarida ham jon bor-da! Eh, nimasini aytasan, bu la'natni kinrlar bolalarga ozmuncha azob keltirdimi – bolalar ulg'ayib, ovchi bo'lib yetishmasin, deb ularga turli kasalliklarni ilashtirishadi, ziyon-zahmat yetkazib, mayib-majruh qilib qo'yishadi. Bunday nogiron odamlarning kimga ham keragi bor? Shuning uchun odam ayniqsa go'daklikda kinrlardan o'zini asrashi kerak. Odam ulg'ayib, oyoqqa turib, o'zligini tanib olganidan keyin har qanaqa jinpinlardan qo'rqligida. Bunday odamga jinlarning kuchi yetmaydi, ular bunday kuchli kishilardan hayiqishadi.

Ona-bola shunday xayrlashishdi. Ona bir lahza jum qoldi; bu sukunat zamirida onaning tashvishli iltijosi, umidlari yashiringan edi. Shundan so'ng u bir marta ham orqasiga o'girilmay qaytib ketdi. Dengiz tomonga ota-bolaning qayoqqa borishidan zarracha xabari yo'qday edi. Qiziq, bir kun avval ularni safarga shaylagan, uch kunlik dengiz safariga oziq-ovqat tayyorlab bergen edi-ku. Endi bo'lsa xuddi ularni tanimayotganday ko'rsatardi o'zini. Bolasiga biror nima yopishmasin, jinlar biror narsani bilib qolmasin, deb qo'rqqanidan tashvishlarini yuzaga chiqarmasdi.

Shunday qilib, ona qo'lтиqqa yetmasdan xayrlashishdi. Bola esa onasi tayinlaganday, butalar orasida ko'rinxmas jinlardan izlarini yashirgan bo'lib, birpas aylandi va shundan so'nggina uzoqlashib ketgan kattalarga yetib olish uchun halloslab yugurib ketdi.

U birpasda kattalarga yetib oldi. Ular qo'llarida miltiq, har xil tugun, yelkalarida to'rlarni ko'targancha bamaylixotir borishayotgandi. Oldinda jamoa oqsoqoli O'rxon bobo, keyinidan gavdali va daroz, keng yag'rinli sersoqol Emrayin, uning ketidan esa g'o'labirdan kelgan, dum-dumaloq va chayir Milxun chayqalib borardi. Ular ustlariga boshdan oyoq sovuq va nam o'tkazmaydigan po'stinlarini kiyib olgan edilar. Kirisk ularga qaraganda bayramdagiday yasanib olgandi. Onasi anchadan beri uni dengiz safariga shaylab, kiyim-kechak hozirlab yur-gandi. To'rv'a hamda ustki kiyimlarining yenglari yax-shilab hoshiyalangan. Aslini aytganda, dengizda bunday hashamning hojati yo'q. Ammo ona onaligini qiladi-da.

— Eh-ha, biz seni endi qoldi, qo'lingdan yetaklagancha uyga olib ketishdi, deb o'ylabmiz, — masxaraomuz hayratlandi Milxun, bola unga yetib olganida.

— Nega endi? Men umrimda bunday!.. — ranjigandan bo'g'ilib gapirdi Kirisk.

— Bo'ldi, bo'ldi, hazilni ham tushunmaysan, — deb tinchlantirdi uni Milxun. — Xafa bo'lma! Dengizda bir-birimiz bilan gapirishmasak kim bilan gapirishamiz. Yaxshisi, manavini olib yur, — deya bolaga miltiqni uzatdi. Bola bundan mamnun bo'lib, ular bilan birga shaxdam odimlab ketdi.

Qayiqlarga yuk ortish va qirg'oqdan siljish vaqt ham keldi.

Shunday qilib ovchilar dengiz tomon suzib ketishdi. Biroq agar ov baroridan kelib, boy o'lja bilan uylariga qaytib kelishsa, unda butunlay boshqacha bo'ladi. Ana o'shanda bolani qanday izzat-hurmat qilishganini ko'rasiz. Yosh ovchini kutib olish bayramga aylanadi, dengiz saxovati haqida qo'shiqlar aytildi: dengizning xayol yetmas chuqurliklarida baliqlar va boshqa hayvonlar urchib ko'payadi, ular kuchli, jasur ovchilarga nasib etadi. Qo'shiqlarida qabila odamlarini dunyoga keltirgan Suv parisi madh etiladi. Nog'oralarni zarang daraxtidan yasalgan tayoqchalar bilan urib chalishadi. O'yin tushayotganlar ichida eng donosi — shomon, u Yer va Suv bilan suhbatalashadi. Yangi yosh ovchi Kirisk to'g'risida gaplashadi. Ha, shunday, shomon yosh ovchiga hamisha

xayrixoh, mehribon bo'linglar, deb Yer, Suvga iltijo qiladi. Yerda va Suvda shu bola ulug' mergan bo'lib yetishsin, u doimo topgan o'ljalarni yosh-u qariga odilik bilan ularshib berib tursin, deb duo qiladi. Dono shomon yana zikr tushib, Kirisk ulg'ayib, bola-chaqa ko'rsin, ulug' Suv parisi – Buyuk Ona baliq avlodko'paysin, hamisha avlodiga avlod qo'shilsin, deb duo-iltijo qiladi:

*Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Sening qaynoq pushtingdan – mangu hayot boshlangan,
Sening qaynoq pushtingdan – undik dengiz bo'yida,
Sening qaynoq bag'ringdir – ochunda eng go'zal joy.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Xuddi nerpa boshiga o'xshaydi oppoq siynang,
Bizni boqdi dengizda xuddi shu oppoq siynang.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Eng devkor, alp erkak suzib borar sen tomon,
Sening pushting, urug'ing gullab-yashnasin debon,
Yer yuzinda avloding unib-ko'paysin debon...!*

Bayramda o'yin-kulgi, shovqin-suron bilan shunday qo'shiqlar kuylanadi. Ana shu bayramda Kirisk taqdirda yana bir muhim voqeа yuz berdi. Jazava bilan raqsga tushayotgan shomon ovchi Kirisk taqdirini osmondagи yulduzlardan biriga topshiradi, bolaga «hamisha panoh bo'lgin» deydi. Axir, har bir ovchining o'ziga tegishli, o'z panohida saqlaydigan yulduzi bor-da. Kiriskning taqdiri qaysi yulduzga topshirilganligini hech kim, hech qachon bilmaydi. Buni faqat shomonu o'sha noma'lum panohkor yulduz biladi. Boshqa hech kim bilmaydi. Osmon to'la yulduz bo'lsa...

Albatta, bu bayramda onasi bilan singlisi hammadan ko'ra ko'proq sevinishadi, hammadan ko'ra baland kuylab, hammadan ko'proq raqsga tushishadi. Otasi Emrayin esa hammaning oldida ota deb ataladi, u bundan quvonib, g'ururlanadi. Hozir esa u ota emas. Dengizda ota-bola degan gaplar bo'lmaydi, dengizda hamma birdek, yoshi ulug'ining aytganiga bo'ysunishi kerak. Yoshi ulug'ning aytgani aytgan, degani degan.

¹ Zoh she'rlarni shoir Azim Suyun tarjima qilgan.

Ota o'glining ishiga aralashmaydi. O'g'il ham otasiga shikoyat qilmaydi. Uдум shunday.

Aytmoqchi, bayramda yana bir qizaloq – Muzluk rosa xursand bo'lsa kerak. Kirisk u bilan go'dakligidan birga o'ynab, birga o'sishgan. Endi ular kamdan kam birga o'ynaydigan bo'lib qolishdi. Bundan buyog'iga umuman o'ynashmasa kerak: ovchiga o'yin qayoqda deysiz.

* * *

Qayiq to'lqinlar ustidan bilinar-bilinmas chayqalib, yengilgina suzib borardi. Olapar qo'ltig'i allaqachon ortda qoldi. Ular uzun burundan o'tib dengizga chiqishgach, to'lqinlar bu yerda ko'rfazdagiga qaraganda unchalik kuchli emasligini ko'rishdi. To'lqinlar bir me'yorda tebranib turardi. Bunday to'lqinlarda suzish ancha oson bo'ladi.

Bahaybat terak tanasidan o'yib yasałgan qayiq ravn, chaqqon suzardi. U to'g'ri to'lqinlarda ham, ko'ndalang to'lqinlarda ham rul izmidan chiqmay, bemalol borardi.

O'rxon chol o'chib bo'lgan trubkasini so'rganicha, qayiqning erkin suzib borayotganidan huzur qilar, ko'nglida muzday suvga to'sh urgancha olg'a borayotgan qayiq – go'yo cholning o'zi bo'lib tuyilardi; u o'zini eshkaklarning bir maromdag'i harakati bilan, tirkakdan chiqayotgan g'iychillagan sadoga jo'r bo'lib poyonsiz dengizda suzib ketayotgan qayiq o'rnida ko'rardi; go'yo uning o'zi o'tkir tumshug'i bilan qarshidan kelayotgan to'lqinlarni yorib, suv zarbalari va zarblaridan yengil chayqalib suzayotganday edi. Qayiq bilan birday harakat qilish sezgisi g'alati xayollarga olib horardi cholni. Uning qayiqdan ko'ngli to'q, hatto juda mammun edi, axir uni o'zi randalagan, o'zi o'yib yasagan; terakni bирgalashib yiqishdi, bir odam uni eplayolmasdi, to'rt kishiga ham og'irlik qilardi bu ish. Lekin uyog'iga bir o'zi ishladi – xodani uch yoz quritdi, yo'ndi, o'sha vaqtdayoq bilgan edi – umrida yasagan qayiqlari ichida eng yaxshisi shu bo'ladi. Chol shu haqda o'yladi-yu, beixtiyor ko'ngli g'ash tortdi: yopiray ishqilib, bu oxirgisi bo'lmasin-da.

Yana bir necha yil yashasaydi. Yana bir necha bor dengiz oviga chiqsaydi. Hozircha ko'z nuri, qalb qo'ri borligida yana bir juft qayiq yasasaydi.

Chol shularni o'ylar ekan, xayolan qayiq bilan gaplashardi. «Seni yaxshi ko'raman va senga ishonaman, inim, — derdi u qayiqqa. — Sen dengizning tilini bilasan, to'lqinlar fe'lini bilasan! Kuchli ekanliging ham shunda-da. Sen munosib qayiqsan, yasagan qayiqlarim ichida eng dilbarisan. Sen ulkan qayiqsan — ikkita laxtak, yana bir nerpa sig'adi senga. Sen bizga rizq-ro'z berasan. Shuning uchun seni hurmat qilaman. O'ljalarmizni arang ko'tarib kelayotganiningni, hatto yuking og'irligidan suvg'a botay-botay deb qirg'oqqa qaytayotganiningni ko'rib hammamiz seni qanchalar sevamiz. Shunda seni kutib olish uchun sohilga hamma yugurib chiqadi, mening qadrdon qayig'im, inim!».

Agar men o'lib ketsam ham, sen uzoq yillar suzaver, o'ljaga boy suvlarda suzaver. Agar men o'lib ketsam, ularga ham menga xizmat qilganday xizmat qilaver. Ha, inim, tumshug'ingda boshini likillatib, joni ichiga sig'may o'tirgan anavi bola ham o'sib, voyaga yetguncha kutgin, sen bilan uzoq-yaqinlarga ovga boradigan bo'lgunicha kutgin. Bolaning g'ayratiga qara, qarshisida suv emas, yer bo'lganda hozir chopqillab borib, qanday ov qilishni ko'rsatardim, deb turibdi uning ko'zları. Bugun bolaning birinchi marta biz bilan dengizga chiqishi. Axir bir kun chiqishi kerak edi ham. O'rgansin. Biz ketamiz. U qoladi. Uzoq yashaydi. Otasi Emrayinga o'xshasa durust odam bo'ladi. Qandaydir safsataboz bo'lmaydi. Emrayin hozirgi ovchilar ichida eng zo'ri. Zabardast yigit, ishiga puxta. Bir vaqtlar men ham shunday zabardast edim. Ayni kuchga to'lgan paytim edi. Ayollar meni yaxshi ko'rishardi, men bo'lsam umr bo'yи shunday bo'laveradi, deb o'yabman. Lekin hamisha shunday bo'lavermasligini kech tushundim. Yoshlar esa buni tushunishni istashmaydi. Manavi Emrayin bilan Milxun ham qarilikni xayoliga keltirmasa kerak. Hay, mayli. Hali vaqt bor ularga. Eshkak eshishga kelganda ular boplashadi, zalvar bilan eshishadi. Milxun bilan Emrayin bir-biriga mos tushishgan. Ishonsa bo'ladijan,

chidamli sheriklar. Qayiq o'z-o'zidan bemalol suzib keta-yotganday tuyuladi. Aslida unday emas. Dengizda axir qo'l bilan yuriladi. E-he, hali oldinda qanchalab eshkak eshishga to'g'ri keladi. Xo'sh, bugun qosh qorayguncha, Uchinchi siynaga yetib borish mumkin. Ertaga erta tongdan to qosh qorayguncha suzib yana orqaga qaytamiz. Goh unisiga, goh bunisiga dam berish uchun navbat almashib, eshkak eshaman. Ammo-lekin eshkaklar bilan butun dengizni chayqaltirib chiqish hazilakam ish emas. O'lja bilan qaytsak, bayram qilamiz.

Eshityapsanmi, so'zlarimga tushunyapsanmi, inim? Sen bizni Uch siyna orollariga olib borasan, katta ov o'sha yerda bo'ladi. Hozir shu yoqqa qarab borayapmiz. O'sha yerdagi sohilda, qumloqlarda nerpani ko'ramiz. Hademay ular bolalashadi, orollarda to'da-to'da nerpa yig'iladi.

So'zlarimga tushunyapsanmi, inim? Tushunasan al-batta. Sen bilan gaplasha boshlaganimda hali dengizni ko'rмаганды, она қорнода ўтгандай, о'рмандыгы буюк тераңнинг қорнода ўтган един. Мен сени дарахтнинг қорндан чиқардим, mana endi dengizda birga suzib yuribmiz.

Dunyodan ko'z yumib ketganimda ham meni unutmagin, qadrdonim. Dengizlarda charx urib suzayotgangingda meni ham esla.

O'rxon bobo qирғоздаги белги – Olapar qoyasidan dengiz tomonga qayiqni to'g'ri yo'naltirar ekan, ko'nglidan shu o'ylar o'tdi. Dengiz safariga chiqqanlarning hammasi Olapar qoyasining ajoyib xosiyati borligi to'g'risida gapirishadi. Havo ochiq kunlari qayiqlar dengiz qирғоғидан қанча узоqlashsa, Olapar ham shunchalik kattayib, go'yo ortda qolib ketishni istamay ularning ketidan kelayotganday bo'ladi. Qancha uzoqdan qarasang ham Olapar sira ko'zdan yo'qolmaydi. Qayiq uzoqlashgandan so'ng ham ancha vaqtgacha ko'rinib turadigan Olapar, suvning qaysidir muyulishida birdan ko'zdan g'oyib bo'ladi. Demak, Olapar uyga qaytib ketdi, qирғоқ жуда узоқ-узоqlarda qolib ketdi desa bo'ladi...

Ana shu vaqtda Olapar qaysi tomonda qolgанини, shamol qayoqdan esayotganligini, quyosh qoyaning qaysi tomonida ekanligini eslab qolish, eslab qolganda

ham yaxshilab eslab qolish zarur, havo ochiq bo'lsa, bulutlarga e'tibor berish va shundan so'nggina dengiz safarini davom ettirish, orollargacha suzib borish kerak. Poyonsiz dengizda yo'ldan adashmaslik uchun xayolan Olaparning qayerdaligini mo'ljallab suzish kerak.

Ovchilar taxminan bir kunlik masofadagi orollarga yo'l olishdi. Kimsasiz, huvullagan, kichik tosh orolchalar qirg'oqsiz, hadsiz-hududsiz dengiz o'rtasida uch qoramtil siynaday suvdan turtib chiqib turishardi. Shuning uchun orolchalarni Katta siyna, O'rta siyna, Kichik siyna deb atashardi. Ulardan o'tgandan so'ng, agar yana olislab suzib ketishaversa, okeanga – ummon yo'liga chiqib qolishar, bu ummonning had-hududini ham, nomini ham bilmas edilar. Mana shu mangu, buyuk, kimsasiz, noma'lum, sirli ummon olam yaralganidayoq o'z-o'zidan paydo bo'lgandi. O'sha qadimgi Luvr o'rdak in qurish uchun kaftday yer topolmay faryod chekib, charx urib, giryon-u sargardon bo'lib yurgan vaqtarda ham ummon bor edi. Ana shu orollarda, dengiz va ummon sarhadida mana shu bahor kunlari nerpalari bozori qiziydi. Ana shuni deb shu yoqqa otlanishgan, ana shularni deb shu yoqqa kelishayotgan edilar...

Bola dengizni ko'rib, hayratlarga g'arq bo'ldi, dengiz Olapar yonbag'irlarida o'ynab yurganida tasavvur qilganiday emas ekan. Qayiqda ko'rfaz bo'ylab suzib yurganlarida ham dengiz boshqacha ko'rinardi. Bola ko'rfazdan chiqishlari bilan qarshisidagi manzarani ko'rib lol qoldi: dengiz birdan yoyilib, ko'z ilg'agan va ilg'amagan samolargacha butun borliqni egallab, olamning yakka-yu yagona, poyonsiz bir butun aylanganida hayratdan hang-u mang bo'lib qoldi.

Ochiq dengiz Kiriskni esankiratib qo'ydi. Bunaqa manzarani xayoliga ham keltirmagandi u. Atrofda qo'r-g'oshin tusdag'i vahimali chayqalib turgan suvdan boshqa narsa yo'q, zumda paydo bo'lib, zumda yo'qoladigan tezkor to'lqinlar, qora-ko'kish tortgan dahshatli tubsizlig-u osmon-u falakda yengilgina suzib yurgan oppoq bulutlargina hukmron edi olamga. Olam boshdan oyoq dengizdan iborat edi, cheksiz dengizdan boshqa na qish, na yoz, na tepalik, na sayhonlik – hech narsa yo'q edi.

Olamni u chekkasidan-bu chekkasiga suv qoplab olgandi.

Qayiq esa avvalgiday to'lqinlarga sho'ng'ib hamon suzib borardi. Haqiqiy, katta ovni kutib qayiqda ketayotgan bola o'z quvonchi va o'y-xayollari bilan band edi. Ammo u suv va suv yuzida ko'rayotganlariga hozir unchalik e'tibor bermas, bayramda yurganday diqqatini yig'olmas, butun vujudi, fikr-u zikri kutilayotgan o'zgacha taassurotlar bilan to'lib-toshgan edi. Boshqa vaqt bo'lganda suv sathini har lahzada ming tusga - nimrang binafshadan qora-ko'kishgacha, qora-ko'kishdan to qayiq ko'lankasidagi tim qora ranggacha tovlanayotgan to'lqinlarning tinimsiz jimirlashi bolaning diqqatini o'ziga jalg etardi; to'satdan qayiq yonida paydo bo'lib qolgan, har narsaga qiziquvchan baliqlarni ko'rib, ichiga sig'may sevinardi, qayiqqa to'qnashgan bir to'da baliqlarning tarqalib qochish o'rniqa qo'rqqanlaridan battar bir joyga to'planishib, suvdan yuqoriga sakrayman, deb chalqancha yiqilib tushishlari kulgili bo'lardi.

Bola bularning hammasiga unchalik e'tibor bermas, bular mayda-chuyda narsalar, eng qizig'i oldinda, deb o'ylardi. Orollarga tezroq yetib olsaydik, tezroq ish boshlasaydik, deb toqatsizlanardi.

Ammo ko'p o'tmay, bolaning ko'ngli g'ashlana boshladi, biroq u buni sezdirmasdi. Ularning qayig'i yerdan uzoqlashganida, ayniqsa Olapar to'satdan to'lqin mavjulari ortida ko'rinnmay qolganida bolaning ko'ngli qandaydir xavf-xatarni ilg'ay boshladi. Dengiz xatarli ekanligini, endi dengizga bog'lanib qolishganligini, buyuk tabiat qudrati oldida o'zlarining zarraday kichikligini va zarraday ojizligini payqay boshladi.

Bu uning uchun yangilik edi. Shunda u ilgari e'tibor bermaydigan Olaparning naqadar azizligini tushundi. Olapar qoyasi yonbag'irlarida cho'chimasdan huzur qilib chopqillab o'ynab yurgan kezlari qayerda ekanligini o'ylab o'tirmsadi. Olaparning o'z o'rnidan qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini, qanchalik matonatli va saxiy ekanligini, hamisha o'rnidan jilmay, dengizning har qanday hamlalariga bardosh berib turganligini endi tushundi.

Quruqlik bilan dengizning farqini bola endigina ang-ladi. Odam yerda yurganida yer to'g'risida o'ylamaydi ham. Dengizda ho'lganingda esa mudom dengiz to'g'risida o'ylaysan. Xayolingda boshqa narsa kezsa ham dengizni o'layverasan. Shuni anglagach, bola hushyor tortdi. Dengiz doim meni o'ylanlar, deb zo'rlaydi. Mana shu zo'rlik ostida qandaydir sirli, qaysar va hokim kuch bor edi...

Shunga qaramay, kattalar xotirjam edilar. Emrayin bilan Milxun hamon bir zaylda, go'yo bir odamday, baravar qulochlab, baravariga eshkak suv yuziga bir-daniga tushib tortilganda qayiq yengil va erkin suzardi. Ammo bunday tinimsiz harakat eshkakchilar uchun juda og'ir ish edi. Eshkakchilar o'girilib o'tirishgani uchun bola ularning yuzlarini ko'rmasa-da, harakatdan bo'rtib chiqqan yelka va bilaklarini ko'rib turardi. Ular ahyon-ahyonda bir-biriga so'z qotib qo'yishardi. To'g'ri, otasi gohida bolaga o'girilib, «Qalay o'tiribsan?» deganday, miyig'ida jilmayib qo'yardi.

Ular shu asnoda suzishda davom etardilar. Kattalar o'zlariga ishonganlaridan xotirjam va tetik edilar. O'rxon bobo-ku, pinagini buzmasdi. U hamon trubkasini so'rganicha o'tirgan joyida qayiqni boshqarib borardi. Shu zaylda har kim o'z ishi bilan band bo'lib, olg'a siljishardi. To'g'ri, Kirisk bir-ikki marta, goh Milxun bilan, goh otasi bilan sherik bo'lib eshkak eshishga urindi. Kattalar sen ham eshib ko'r, deb unga eshkak-larni tutqazishardi. Axir, u ham mehnatga o'rgansin-da. Garchi Kirisk ikkala qo'li bilan yopishib, bor kuchi bilan eshsa-da, baribir bu ish unga og'irlik qildi, uning uchun qayiq ham, eshkak ham zilday .og'ir tuyul-di. Ammo hech kim Kiriskka eplayolmayapsan, deb o'pkalamasdi.

Olapar qoyasi to'satdan g'oyib bo'lganida, negadir, hammalari jonlanib qolishdi:

- Olapar uyga qaytib ketdi! - xitob qildi otasi.
- Ha, qaytib ketdi, - ta'kidladi Milxun.
- Yo'g'-e! To'g'ri, qaytib ketganga o'xshaydi, - o'sha tomonga qaradi O'rxon bobo. - Unday bo'lsa ishlar chakki emas. Hoy, Kirisk, - u bolaga quvlik bilan qarab qo'ydi, - Olaparni chaqirsang qaytib kelmasmikin?

Hamma kulib yubordi. Kirisk ham. So'ng u o'ylanib turib, baland ovoz bilan dedi:

— Unday bo'lsa orqaga suzishimiz kerak, ana shunda Olapar qaytib keladi!

— Ho, bilag'on ekansan! — xitob qildi O'rxon bobo jilmayib.

— Yaxshisi, ke, ish qilaylik. Yonimga o't. Dengizga hadeb qarayverma. Qaraganing bilan oxirgacha ko'rolmaysan baribir.

Kirisk qayiq tumshug'idan turdi. Oyoq ostidagi narsalarni — bug'u terisiga o'ralgan ikkita vinchester, nayza, arkon o'rami, suvli bochka, oziq-ovqat solingan to'rva va yana qandaydir tugun va kiyim-kechaklarni bosib, qayiqning quyrug'iga o'tdi. Qayiq chetini ushlab eshkaklarning dastasi ustidan hatlagancha o'tar ekan, ovchilarining bo'yni-yu yelkalaridan chiqqan ter va tamaki hidini tuydi. Uyda otasining kiyimidan shunday o'tkir hid kelar, otasi ovga ketgan paytlarda esa oyisi uning eski charm kamzulini suyib hidlar, yuziga bosar edi.

Otasi o'g'lini bosh irg'ab, yelkasi bilan biqiniga salgina turtib erkalatgan bo'ldi, ammo eshkakni qo'lidan qo'ymadidi. Ammo Kirisk otasining beixtiyor erkalatishiga erib ketmadi, qayrilib ham qaramadi. Ha-da, dengizza hamma birday. «Kemaga tushganning joni bir», deb bekorga aytmag'anlar. Dengizda ota, bola degan gap bo'lmaydi. Dengizda faqat darg'aning gapi — gap. Uning buyrug'isiz qayiqda biror cho'pni u yerdan-bu yerga olib bo'lmaydi...

— O'tir, mana bu yoqqa, — dedi O'rxon bobo unga joy ko'rsatib, uzun, sertomir qo'llarini bolaning yelkasiiga qo'yar ekan. — Ozgina cho'chiding-a? Avvaliga xotirjam o'tirding, keyin esa...

Kirisk xijolat tortganday bo'ldi: demak, O'rxon bobo uning qay ahvolda o'tirganini sezganga o'xshaydi. Biroq shunga qaramay u e'tiroz bildirdi:

— Yo'g'ay, atkichx¹, sirayam cho'chiganim yo'q! Niman dan cho'chirdim!

— Har holda dengiz safariga birinchi chiqishing...

¹ Atkichx — nivxcha «atkichx» degani.

— Nima bo'pti, birinchi chiqsam? — Bo'sh kelmadi Kirisk. — Men hech narsadan qo'rqlayman.

— Bo'pti, bo'pti. Men esa, birinchi bor dengiz safariga chiqqanimda, bunga juda ko'p yillar bo'ldi, rostini aytsam, qo'rqlib ketganman. Bir vaqt qarasam qirg'oq allaqachon ko'rilmay qolibdi. Olapar it ham allaqayoqqa qochib ketibdi. Qayooqqa qarasam to'lqin... O'shanda darrov uyga qaytib ketgim keldi. Ana, Emrayin bilan Milxundan ham so'rab ko'r-chi, birinchi marta dengizga chiqqanlarida qanday bo'lgan ekan?

Ular javob berish o'rniga tushunganday bosh irg'ab kulib qo'yishdi-yu, yana eshkakka zo'r berishdi.

— Men bo'lsm qo'rqladim, — deb gapida turib oldi Kirisk.

— Demak, botir ekansan, — tinchitdi uni O'rxon bobo. — Qani endi aytgin-chi, Olapar qaysi tomonda qoldi?

Kirisk kutilmaganda bir zum o'ylab turdi-da, so'ng qo'li bilan ko'rsatdi:

— Hov anov yoqda!

— Rostdanmi? Negadir qo'ling sal qaltirayotipti-ya?

Qo'lining titrog'ini bosishga uringan bola sal o'ngroq tomonni ko'rsatib:

— Anov yoqda! — dedi.

— Mana endi to'g'ri aytding! — dedi O'rxon bobo. — Agar qayig'imizning tumshug'i manavi tomonga burilib turgan bo'lsa, Olapar shunda qaysi tomonda qoladi?

— Anov yoqda!

— Agar shamol qayiqni bu yoqqa burib yuborsa-chi?

— Anov yoqda!

— Agar chap tomonga qarab suzsak-chi?

— Unda mana u tarafda bo'ladi.

— Yaxshi, endi aytgin-chi, qanday aniplayapsan, axir to'rt tarafimiz faqat suvdan iborat bo'lsa? — o'smoqchilab so'radi O'rxon bobo. — Shuni aytib bera olasanmi?

— Meni boshqa ko'zim ham bor, — javob berdi Kirisk.

— Qanaqa ko'z u?

— Bilmadim. Qornimda bo'lsa kerak. Ana shu qornimdag'i ko'zim yumuq tursayam ko'raveradi.

— Qornida ko'z bor ekan! — kulib yubordi hamma.

— Aytganicha bor, — dedi uning gapini ma'qullab O'rxon bobo. — Odamda shunaqa ko'z ham bo'ladi. Ammo u qorindamas, boshda bo'ladi.

— Mening ko'zim qornimda, — o'zinikini ma'qullab turib oldi Kirisk, garchi bunday ko'z qorinda emas, balki boshda bo'lishiga ishonayotgan bo'lsa ham.

Oradan sal o'tib, chol yana Kiriskni sinovdan o'tkaza boshladi, bolaning dengiz tomonlarini yaxshi bilishiga ishonch hosil qilgach, xotirjam bo'lib o'zicha g'udurladi:

— Yaxshi, qorningdagi ko'zlarining chakki emas ekan.

Maqtovdan ko'ngli o'sgan Kirisk o'ziga-o'zi savollar berib, ularga o'zi javob topishga harakat qildi. Dengiz biroz tinchlanib turgan paytda bu jumboqlarni yechish uncha qiyin emasdi. Kirisk qayerda bo'lmasin, qayerda turmasin, sadoqatli va ulug'vor Olapar qoyasini o'ylagan vaqtida u har gal xotiradan o'chmay, beixtiyor ko'z o'ngida paydo bo'lar va bolani o'ziga chorlayotganday qaysi tarafdaligini eslatib turardi. Hatto yonbag'irlaridagi to'qayzorlar, yuqoridagi qoyalar-u po-yidagi qashqa qorlargacha, hamisha tinim bilmay to'lqin urib oqqan tik jarliklarigacha go'yo butun borlig'i bilan xayoliga kelib turadi. Bola Olapar qoyasini ko'z oldiga keltirar ekan, uning atrofdagi boshqa tepaliklarni ham o'yamasligi mumkin emas edi. Shuningdek, u beixtiyor o'z uyini ham o'ylay boshladi. Ko'z oldiga qirg'oqdagi tepaliklar orasidan kichik vodiy keldi, u yerdagi o'rmon chetida, anhor bo'yida joylashgan manzildagi kesilgan yog'och uyumlari, kapponlar, itlar, tovuqlar, baliq qoqlanadigan ilgaklar, mo'ridan chiqayotgan tutunlar, odamlarning g'ala-g'ovuri, oyisi va singlisi Psulk paydo bo'ladi. Bola ularning shu damda nima qilishayotganini ham ravshan tasavvur etardi. Oyisi, albatta Kiriskni, otasini, dengiz oviga chiqqanlarining hammasini ko'nglidan o'tkazyapti. Ha, hozir ham shubhasiz ular haqida o'ylayapti. O'ylayapti-yu, «Yovuz ruhlar fikrlarimni, qo'rqayotganimni bilib olishmasin», deb hadiksiraydi. Kiriskni yana kim ham o'ylardi, ehtimol Muzluk o'ylasa kerak. Shu damlarda Muzluk ularning uyiga, go'yo Psulk bilan o'ynagani kelgan bo'ladi. Agar

u bilmasdan dengizga, ovga ketganlar to'g'risida gapirib qolsa, oyisi, «Sen nimalar deb vaysayapsan, ularni o'rmonga o'tin tergani ketganidan bexabarmisan», deb koyib berishi turgan gap. Qizaloq birdan xato qilgalligini bilib, uyalib jim bo'lib qoladi. Kirisk: «U meni o'yłasa qanday yaxshi bo'lardi», deb orzu qilar, ammo o'zi uni deb qizning ta'na-dashnom eshitishini aslo istamasdi.

Qayiq esa hamon avvalgiday, to'lqinlarga sekin to'sh urib, yengil suzib borardi. Atrofda kuchsiz to'lqinlar quyosh nurida mavjlanib, dengiz yuzi ko'piklanib yotardi. Nivxlar choshgohgacha, hech bo'lmasa, kunbotishgacha birinchi orolga, eng yaqini, Kichik siynaga yetib olishni, ishlari o'ngidan kelsa, ovni boshlab yuborishni mo'ljallagan edilar. So'ng iloji bo'lsa qorong'i tushmasidan orollardan ikkinchisiga – O'rta siynaga yetib borib, tunab qolishmoqchiydi: u yerda qayiqni qo'yish uchun qulay joy bor edi. Ertasiga ertalab yana dengizga otlanishardi. Shu kuning o'zida ovlari baroridan kelib, uchta nerpani saranjomlashsa, hayallamay, tongdayoq orqaga qaytishlari mumkin edi. Nima bo'lsayam, kunning birinchi yarmida, quyosh ikki terak bo'yи ko'tarilgan paytdan kechikmay yo'lga chiqishsa tuzuk bo'ladi. Dengizdan qanchalik tez qaytilsa, shunchalik yaxshi bo'lishini hamma biladi.

O'rxon bobo shularni nazarda tutib, hamma ishlarning hisob-kitobini olib qo'ygan edi. Uning yordamchilari Emrayin bilan Milxun ham Uch siyna orollariga birinchi borishlari emasdi. O'zлari ham ishni ko'zini bilishadi. Eng muhim – havoning avzoyi yaxshi bo'lsa, shuningdek, hayvonlarni vaqtida topishsa bo'lgani. Qolgani ovchilarning o'ziga, abjirligiga bog'liq.

O'rxon bobo dengiz safariga faqat tirikchilik uchungina chiqmasdi. To'g'ri, tirikchilik – tirikchilik, dengiz ne'matlarisiz yashab bo'lmaydi. Bundan tashqari, dengiz cholni har doim ohanraboday o'ziga tortar, poyonsizligi O'rxon boboning dilidagi muqaddas, ezgu o'ylariga erk berardi. Ha, cholning dilida sir saqlaydigan, ezgu o'ylari bor edi. Quruqlikda ko'p narsalarni o'ylashga fursat topilmaydi, mayda-chuyda kundalik tashvishlar

vaqtini oladi. Dengizda bu narsalarni o'ylash mumkin, dengizdagina O'rxon boboni buyuk o'ylaridan hech kim chalg'itolmasdi. Bu yerda u o'zini Dengizga va Osmonga yaqin sezardi.

Cheksiz kenglik qarshisida qayiqda o'tirgan odamning hech nimaga arzimasligini chol yaxshi tushunardi. Lekin inson o'ylari bilan Dengizga va Osmonga tenglasha oladi. Shu o'ylari bilan u tabiatning abadiy qudrati oldida o'zining mavjudligini isbotlaydi, shu bilan inson koinotning teranligi va yuksakligiga munosib bo'la oлади. Shuning uchun inson hayot ekan, u ruhan dengizday qudratli, ruhan osmonday cheksiz: chunki o'y-xayolotning cheki yo'q. Agar inson o'lsa, uning o'y-xayollarini boshqa bir inson davom ettiradi, u ham o'lsa, keyingisi va hokazo, bu hadis cheksiz davom etaveradi... Shuni angłaganidan chol chidab bo'lmas achchiq qismatga chidash kerakligini his qilib, taskin topar edi.

U hayot bor yerda o'lim haqligiga ishonardi. O'zining ham vaqt soati kelib umri tugashini bilardi. O'lgandan keyin hammasi bir puł, lekin shunday bo'lsa-da, nima uchundir qalbining to'ridagi ezgu niyatlari, Suv parisi haqidagi g'aroyib tushlarining abadiyligiga, o'lganidan keyin ham yashashiga ishonardi. U ko'rgan tushlarimni boshqalarga qoldirishim mumkin emas, tushni birov-larga qoldirib bo'lmaydi, shuning uchun ham ular izsiz yo'qolib ketmasligi kerak... Ha, yo'qolib ketishi mumkin emas. Buyuk Suv parisi mangu yashaydi, demak, u haqdagi tushlar ham mangulikka qolishi kerak-ku.

Dengiz safarida chol mana shular to'g'risida juda ko'p o'yldi. Shunday paytlarda u uzoq sukutga botar, o'zi bilan o'zi bo'lib, yo'Idoshlariga bir og'iz so'z qotmas edi. Dengizga boqib kimga murojaat etayotganini o'zi ham bilmay faqat bir narsani – buyuk Suv parisi yashaydigan tushlarini asrashni iltijo qilardi. Axir odamning tushlari o'zi bilan narigi dunyoga ham birga ketishi, u tushlar egasi bilan abadiy birga bo'lishi mumkin emasmi? U bunga javob topa olmagach, iztirobda o'y surib, «Aslida shunday bo'ladi, tushlarimdan abadiy ayrlmayman», deb o'zini ishontirishga urinardi.

...Qachonlardir juda qadim zamonlarda, Olapar

qoya-si sohilida uch aka-uka yashardi. To'ng'ichi – il-dam, tepaliklarga yugurib chiqadigan, istagan yeriga bir zumda yetib boradigan chaqqon yigit edi. U bir bug'uboqar odamning qiziga uylanibdi, hisobsiz bug'uga -ega bo'libdi-da, tundra tomonlarga ko'chib ketibdi. Kenja o'g'il iztopar va mergan yigit bo'lib, u ham o'rmonchi odamlarning birining qiziga uylanibdi va tayga tomonlarga ko'chib ketib, ovchilik bilan kun kechira boshlabdi. O'rtancha o'g'il oqsoq bo'lib tug'ilgan ekan. Ertas turib kech yotsa ham ishi yurishmas, bug'ularni quvib yetolmas va o'rmonda biron hayvonni tutolmas ekan. Shuning uchun ham tevarak-atrofdagi odamlar unga qizini bermabdi. Akasi bilan ukasi ham uni tashlab ketishibdi. Moviy dengiz bo'yida oqsoq yigit yolg'iz o'zi qolibdi. Shu tariqa u mayda-chuyda baliq tutish bilan tirikchilik qila boshlabdi. Ammo bu bilan o'tgan kun o'zingizga ma'lum...

Bir kuni tolesiz yigit o'z qayig'ida dengizga qarmoq tashlab o'tirgan ekan birdan qarmog'inining ipi yulqina boshlabdi, shunda u ovi baroridan kelishini his qilib quvonib ketibdi. Asta-sekin torta-torta baliqni qayig'iga yaqinlashtiripti.

Bir vaqt mo'jizaga ko'zi tushibdi! Qarmoqqa ilin-gan jonivor ayol qiyofasidagi baliq ekan! U jon-jahdi bilan suvni shaloplatib, har tomonga to'lg'anib sapchib qochishga urinibdi. Suv parisining husni jamoli ta'rifga sig'mas emish. Badani sip-silliq, sutday oydin kechadagi soy toshlari singari kumushday tovlanadi, oppoq siynalarining qoramtilr uchlari qarag'ay yong'og'iga o'xshab bo'rtib turar, ko'zlar yashil uchqun sochib porlardi. Yigit Suv parisini dengizdan ko'tarib chiqarib olgan paytda u ham yigitning bo'ynidan quchoqlagancha ikkalasi ham qayiqda yotib qolishibdi. Bunday baxt-dan oqsoq yigitning boshi aylanib, esankirab qolibdi. Nazarida qayiq birdan osmonga sapchib ketgan emish. Shunda dengiz ham osmonga sapchib, osmon dengizning ustiga yopirilib tushganday bo'libdi. So'ng bo'rondan keyin bo'lganidek hammayoq birdaniga jimb qolibdi va Suv parisi shu zahotiyoy qayiqdan sakrab tushib suzib ketibdi. Yigit olg'a tashlangancha Suv parisini chaqirib,

qayta qol deya yalinib-yolvoribdi. Lekin Suv parisi ovoz bermay, dengiz qa'rida g'oyib bo'libdi...

Kimsasiz dengiz bo'yiga tashlab ketilgan bechora oq-soq yigitning boshiga ana shunday savdo tushgan ekan. Suv parisi o'sha ketganicha qaytib kelmabdi. Oqsoq yigit esa shu kundan boshlab, Suv parisi hijronida tel-banamo bo'lib qolibdi. Shu kundan boshlab u kun-u tun sohilda ko'z yosh to'kib Suv parisini izlab yurar, atigi uzoqdan bo'lsa ham bir ko'rsam, deb yalinib-yolvorib so'rар ekan.

Vaqti-vaqti bilan dengiz toshganda u suv bo'yiga chiqib:

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq! – deb kuylar ekan. Suv qaytganda esa yana:

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq! – deb kuylarkan.

Oydin kechalarda kezar va kuylarkan:

*Bu dengiz sog'inchimdir,
Bu suvlar ko'zim yoshi.*

Qorong'i kechalarda kezar va kuylarkan:

Yer esa – yolg'iz boshim...

Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq!..

Suv toshganda kezar va kuylarkan, suv qaytganda kezar va kuylarkan...

Shu orada qish ketib, izidan bahor ham o'tibdi. Yoz kunlari baxtiqaro yigit sohilda maymoqlanib, giryon kezib yurar, tizzasigacha asov to'lqinlarga botib, Suv parisi ko'rinib qolarmikin, sado berarmikin, degan ilinjda dengizga uzoq-uzoq tikilar ekan. Ana shunday kurnlardan birida yigit dengizning qirg'oq yaqinidagi sayoz joyida bola yig'isiga o'xhash ovozni eshitibdi. Bola emas hozirgina tug'ilgan norasida chirillab yig'layotganday ovoz eshitilibdi. Yigit u yerga chopib boradi-yu, o'z ko'ziga o'zi ishonmay qoladi – suvning sayoz yerida, to'lqinlar ichida goh ko'rinib, goh ko'rinnay faryod chekib o'tirgan qip-yalang'och chaqaloqqa ko'zi tushadi.

Go'dak: «Mening otam kim? Qani mening otam?» – deb chirqirab yig'larmish. Oqsoq yigit buni ko'rib, hayratdan hang-u mang bo'lib qolibdi. Chaqaloq esa

uni ko'rishi bilan: «Dadajon, men sizning o'g'lingizman! Meni bu yerdan olib keting!» debdi.

Qarang, qanday ajoyib-g'aroyib voqealar yuz bermaydi deysiz! O'sha odam o'z bolasini bag'riga bosib uyga olib ketibdi.

Bola tez o'sib ulg'ayibdi. Dengizga ovga chiqadigan bo'libdi. Jasur va kuchli ovchi degan nom chiqaribdi. Toleyi baland bo'lib tug'ilgan ekan: dengizga to'r tash-lasa – g'ij-g'ij baliq chiqar, yoydan o'q otsa, dengiz hayvonining bo'g'zini teshib o'tar ekan. Uning shuhrati uzoq-uzoqlarga, o'rmonlar-u tog'lar ortiga ham taralibdi. O'rmon qabilasidan bo'lган esli-hushli bir qizni barcha rasm-rusumlari bilan unga olib berishibdi. Farzandlar tug'ilibdi. Shunday qilib, Suv parisi – Ona baliq avlodi ko'payib, dunyoga tarqalibdi. Bayramlarda aytildigan qo'shiq o'shandan qolgan ekan:

*Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Sening qaynoq pushtingdan – mangu hayot boshlangan,
Sening qaynoq pushtingdan – undik dengiz bo'yida,
Sening qaynoq bag'ringdir – ochunda eng go'zal joy.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq?
Xuddi nerpa boshiga o'xshaydi oppoq siynang,
Bizni boqdi dengizda xuddi shu oppoq siynang.
Qayda suzib yurasan, ey, Buyuk Ona baliq!
Eng devkor, alp erkak suzib borar sen tomon,
Sening pushting, urug'ing gullab-yashnasin debon,
Yer yuzinda avlodning unib-ko'paysin debon...*

* * *

Qudratli kuch ta'sirida cheksiz bahribar-ummon tublaridan chiqib kelib, qirg'oqlarni, maysalarni, qumtepalarni bosib, sehrli og'ushiga olgan dahshatli suv ko'tarilishi va qaytishidek mana shu tush ham o'z-o'zidan quyilib kelaverardi.

Har gal mana shu tushni ko'rganida O'rxon bobo uzoq vaqtgacha gangib yurardi. Tushining rostligiga u qattiq ishonardi. Biroq Suv parisi bilan ko'rishganlarini biror jonzotga aytmasdi. Bunday voqealarning tushida emas, o'ngida, shunday yashab yurgan paytda yuz bergenida ham albatta hech kimga aytmagan bo'lardi.

Mana shu voqea cholning tushlariga tez-tez kirib turar, uni ham quvontirib, ham qayg'uga solib, ruhan azoblardi. Bu tushning ajoyib-g'aroyib xosiyati shunda ediki, u har gal O'rxon boboga o'zining mohiyati, ma'nolari va ishoralarining teranligi va aql bovar qilmas darajadagi turlanishlari bilan lol qoldirardi. Chol ko'rgan tushlarining hayot bilan allaqanday mavhum, sezilar-sezilmas sirli munosabati haqida o'y surardi. Bu aloqaning sirli ekanligi va mavhum alomatlari odamni hamisha azobga solardi. O'rxon bobo beixtiyor shuni his etdiki, ko'ngli har qancha alg'ov-dalg'ov bo'lsa ham, u o'sha tushida ko'rganlarini yana va yana ko'rgisi kelaverar, doimo buyuk Suv parisi visol sog'inchi bilan yashardi.

O'rxon Suv parisi bilan dengizda uchrashardi. Uning paydo bo'lishini kutib, huvullab yotgan kimsasiz qumloq sohilda, botib borayotgan quyoshning so'niq nurlari shu'lasida uzoq vaqt kezib yurardi. Biroq qumdag'i oyoq izlari ko'rinsama ham quyosh botib ketgandan so'ng uning harakatsiz ko'lankalari o'rtovchi, g'ayriinsoniy sog'inch butun vujudini qamrab olgan O'rxon ana shu qop-qora qor ustida giryon kezardi. Vujudi ishq dardi, umid va istak dardi bilan to'lib-toshar, ammo yaydoq dengiz esa parvoysi falak sukut saqlab turardi. Mana shu hayhotday yolg'izlik olamida na g'ir etgan shabada, na bir inson ovozi, na bir sharpa sezilardi. Chol esa dengizdan ko'z uzmay mo'jizani, parini orziqib kutardi.

Qirg'oqqa urilgan unsiz to'lqinlar yo'liga bodroqday oppoq ko'piklardan poyandoz solishini ko'rib yuragi g'am-g'ussaga to'lardi. Boshi uzra sassiz oqchorloqlar laylakqorday bezovta charx uring uchishardi. Mana shu gang va gung makonda o'zini qayoqqa sig'dirishini bilmay, ko'ngli ozayotganini sezар, hijronda vaqt o'tgan sari uning tiyiqsiz, ayovsiz sog'inchi tobora qalbini o'rtab, azob berib, kuchaygandan kuchayib borar edi; hatto tushlarida ham Suv parisini ko'rmasa, ayol oldiga kelmasa yashayolmasligini, yolg'izlik sahosida xarob bo'lishini his qilardi. Ana shunday paytlarda u ovozining boricha qichqirib, Suv parisini yo'qlab chaqirishga kirishar, ammo u o'z ovozini farqlay olmasdi, chunki

bu g'alati tushdag'i hamma narsalarning ovozi o'chgan va o'zi ham ovozdan mahrum edi. Dengiz hamon sukul saqlardi. O'rxon faqat o'zining og'ir-og'ir, uzuk-yuluq harsillab nafas olishini, o'z yuragining qinidan chiqib ketguday bezovta dukullashini, chakkalarining nihoyatda lo'qillab, zirqirah aks sado berishini eshitardi, xolos. Mana shulargina uni ta'qib etardi. Bu tovushlar uni asabiylashtirardi, u o'zining yuragidan chiqqan ovozlardan qayoqqa qochib ketishini bilmay, g'ashlanardi. Cho'kayotgan odam qutulishga qanday jon-jahdi bilan intilsa, u ham Suv parisiga shu qadar ehtiros va telbalik bilan intilardi. O'rxon faqat suv parisigina baxt taqdim eta olishini bilar va u so'nggi nafasigacha uni kutardi.

Nihoyat, Suv parisi shiddat bilan to'lqinlar orasidan chiqib yalt-yult etgancha u tomonga qarab suzib kela-yotganda birdan tilsiz dunyo soqovligidan qutulib, tilga kirar, olam shovqini ko'shkiday bosib tushar, u olamning yana o'z holatiga kelganini quvonib, qiyqirab qarshilar, yana horliqni qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarning shovullashi, shamolning guvullashi hamda boshi uzra charx urib uchayotgan oqchorloqlarning g'ala-g'ovuri bosib ketardi. U sevinganidan qiyqirib, o'zini dengizga otar, tezsuzar nahangsimon allaqanday maxluqqa aylanib qolardi.

Suv parisi esa uning kelishini kutib, charx urib aylanar, o'zini suv ustiga otib, talpinib, to'lg'anib, bir lahma havoda muallaq osilib qolardi. Shunday paytda u to'satdan dengizga tushib qolgan haqiqiy xipcha bel ayolday aniq ko'zga tashlanardi.

O'rxon Suv parisi yoniga suzib borar, so'ng ikkalasi ummon sari yo'l olishardi.

Endi ular birga suzishar, bir-birlariga tegib-tegmay, tobora shiddat bilan oldinga intilishardi! U xuddi mana shunday lahzalar nasib qilar degan umidda sarxushlik, sog'inch azobida qovrilar edi.

Mana, nihoyat ular bir-birlarining visoliga noil bo'lishdi. Ular aql bovar qilmas kuch va shiddat bilan tungi okeanning tub-tubidan chiquvchi ajoyib-g'aroyib shu'la bilan jimirlayotgan ufqning tayinsiz hududi tomon intilishardi. Ular qarshilaridan tinim bilmay ko'pirib

kelayotgan o'rkach-o'rkach to'lqinlarni gavdalari bilan yorib, goh balandga, goh pastga parvoz qilishdan cheksiz lazzat olib o'qday uchishardi. Ularning yonginasidagi oy esa shoshilayotgan to'lqinlar tizmasidan ortda qolmay ko'zgu shu'lesi yanglig' bir yerda turmasdan ikkala-sining izidan mudom kuzatib borardi. Shu lahzalarda yolg'iz oy bilan yolg'iz ular - u bilan Suv parisi va cheksiz ummon kengligi hokim edi borliqqa. Olamda faqat ular-u faqat ummon bor edi! Mana shu lahzalarda ularning baxtiyorligi, shodonligi arshi a'loga yetmoqda edi. Bu erk lazzati, visol tantanasi lazzati edi...

Ular shiddat bilan tinim bilmay suzishar, olamda faqat o'zlariga atalgan olis maskanga tezroq yetib borish, u manzilga tezroq yetib, qovushish ehtirosida sarkash suzishar, nihoyat chaqinday birgina lahzada hayotning ibtidosi-yu intihosining butun lazzati-yu butun alam-achchig'ini totish nasib etadigan manzilga tezroq yetishish orzusida tinimsiz talpinishardi.

Shu asnoda ular tilaklariga tezroq yetishish orzusida jon-jahdlari bilan tinim bilmay, to'xtovsiz suzib borishardi.

Ular qanchalik tez suzishsa, bir-birovlariga ya-qinlashish tuyg'usi shunchalik alangalanib borardi. U charchash nimaligini bilmay, jonholatda suzar, urchish manziliga intilib, butun kuch-quvvatini, eng oxirgi, eng mayda tomchisigacha sarflaydigan losos balig'iday holdan toyguncha suzar edi. U ishq yo'lida o'limdan ham tap tortmay suzar edi. Sirli Suv parisi esa to'lqinlar uzra kamalak nurlari yanglig' SUV zarralari buluti orasida silliq badani marvaridday tovlanib, O'rxonni hayratga solgancha shiddat bilan olg'a intilardi. Suv zarralarining zangori va oppoq quyuni orasidagi Suv parisining benihoya go'zalligidan uning nafasi bo'g'ziga tiqilardi.

Ular sira so'zlashmas, faqat cheksiz ummonda bir-birlarining SUV ko'piklari va zarralari ichida ko'rinxmay ketgan chehralaridan bahramand bo'lish ishtiyoyqida sabr-u toqatlari tugab, istaklari tobora alangalanib, taqdir ularga ravo ko'rgan makon va zamonga qachon yetarkanmiz, deya tinimsiz suzishardi...

Ammo ular o'sha makonga, o'sha zamonga sira yetol-

mas edilar. U yerga yetib borishning vaqtisi-soati yo'qqa o'xshardi...

Ko'pincha O'rxonning tushlari nihoyasiga yetmas, to'satdan uzilib qolar, bir zumda tumanday tarqab ketardi. Shunday paytlarda u garangsib, taajjubda qolardi. Bundan u chinakamiga xafa bo'lar, nimagadir qoniqmaganidan, nimaningdir oxiriga yetolmaganidan uzoq vaqt ko'ngli g'ash bo'lib yurardi. Goho oradan juda ko'p vaqtlar o'tgan bo'lsa ham o'sha voqeani yana bir boshdan eslar, bularning hammasi nimani anglatishini jiddiy o'ylab qolar, har qalay, bularning hammasida allaqanday ma'nno borligini payqar, tushida ko'rganlariga chin dildan ishonardi, bu narsalar aslida oddiy tush emasligini his etar edi. Negaki, odatdagি tushlar ba'zan eslansa ham keyin butunlay unutilib ketardi. Bunday o'ylar haqida u boshini qotirib o'tirmasdi, chunki tushga nimalar kirmaydi deysiz. Suv parisini esa O'rxon hech qachon unutolmas, uni hayotida ilgari uchratgan va hozir ham olamda bor mavjudot deb o'yldi. Shuning uchun ham qariya tushida Suv parisi bilan uchrashib, kutilmaganda ayrilib qolganidan chinakamiga xafa bo'lardi. Bu uchrashuv va ayriliqlarni u chindan ham yuz bergen voqealar deb bilardi.

Ayniqsa, tushi noxush nihoyalanganda u qattiq iztirob chekardi. U ana shu paytda tushining sirli nihoyasiga hech qanday izoh topolmay chuqur g'am-anduh, qayg'u-hasratga cho'mardi.

Tushida ular orzudagi manzilga yetay-yetay deb qolishar, olisda qandaydir sohil ko'zga tashilanar edi. Bu - sevgi sohili edi, ikkalasi tezroq u yerga yetib, tezroq bir-birlari bilan qovushish uchun jon-jahdlari bilan intilar edilar. Ana shu sohilga endi yetay-yetay deb qolganlarida birdan suvi tizzasidan keladigan sayoz qumloq chiqib qolar va safarlari shu yerda uzilib qolardi. O'rxon o'zini o'nglab olib yon-veriga qaraganda Suv parisi jonholatda makkor sayozlikdan qutulishga urinardi. Manglayidan sovuq ter quyilayotgan O'rxon unga yordam berishga oshiqardi. Ammo yonginasidagi pariga yetib borish uchun bir umr ketadiganday tuyular, yutib borayotgan botqoqlik singari suv tubidan oyoqla-

rini chiqazolmay, tizzalab emaklar, ammo uvishib qolgan oyoqlari go'yo birovnikidek unga itoat etmay arang sudralardi. Suv parisi yonginasida, go'yo qo'l uzatsa yetadigan joyda bo'lsa ham unga yetolmay iztirob chekardi, nafasi bo'g'ilib, entikib, suv tubidagi yopishqoq o't-o'lanlarga o'rashib yiqilib tushardi. Ammo go'zal Suv parisining sayozlikda shaloplاب, o'zini u yoqdan-bu yoqqa urib, nafasi bo'g'ilayotganligini ko'rish yanada azob edi. Nihoyat, O'rxon bir amallab Suv parisi qoshiga yetib borib, uni ko'ksiga bosgancha boshi aylanib, gandiraklab, qirg'oq tomon yaqinlashar ekan, qizning yuragi parvozda urib tushirilgan yarador qushnikiday qinidan chiqay-chiqay deyayotganini aniq sezib turardi. U parini ko'ksiga qattiq bosgancha go'yo himoyaga muhtoj zaifa go'dakni ko'tarib ketayotganday avaylab, ardoqlab borayotganida unga mehri tovlanib, rahmi kelganidan qaynoq ko'z yoshlari tomog'iga tiqilib qolardi. U Suv parisi oldida hayajon va nomusdan yig'lab yubormaslik uchun o'zini zo'rg'a tiyib turardi. U Suv parisiga jon-tani bilan berilib nafasini ichiga yutganicha oyoq uchida, ohista-ohista avaylab ko'tarib borar ekan, har lahma uni o'yldi. Suv parisi esa ko'z yosh to'kib unga erk berishni, yana dengizga qo'yib yuborishini yalinib-yolvorardi. Suv parisi nafasi bo'g'ilib, so'liy boshlar, O'rxonni keng dengizdan boshqa joyda seva olmasdi. Qizning unsiz yig'lab, dardli va iltijoli termilayotganini ko'rgan O'rxon ham bunga chidayolmasdi. U ortiga qaytardi-da, sayozlikdan o'tib, asta-sekin dengizning odam botar-botmas yeriga yetganda qizni avaylagancha quchog'idan ohista bo'shatib yuborardi.

Suv parisi dengiz ostiga suzib ketar, u esa garangsib, yolg'iz o'zi qolardi. O'rxon uning ortidan tikilganicha ho'ngrab yig'layotganida uyg'onib ketardi.

Qayda suzib yurasan, ey Buyuk Ona baliq?

Bu dengiz sog'inchimdir,

Bu suvlar ko'zim yoshi.

Yer esa – yolg'iz boshim.

Qayda suzib yurasan, ey Buyuk Ona baliq?..

U bu voqeani eslaganda qattiq azoblanardi, chin-

dan ham Suv parisini ushlab quchog'iga bosganday va yana uni o'z erkiga qo'yib yuborganday bo'lardi. Nega shunday bo'larkin-a? Axir odam tushida har qanday istagiga erisha qolsa bo'lmaydimi? Bu narsa kimga bog'liq, bu qanday hikmat, nimaga yo'ysa bo'ladi uni? Bu jumboqning siriga tushuna olmagan O'rxon oxiri qo'l siltab, Suv parisini unutishga, uni o'ylamaslikka harakat qilardi.

Biroq dengiz oviga chiqishi bilan O'rxon o'zi sezmagani holda yana Suv parisini, u bilan bog'liq hamma voqealarni o'ylay boshlardi. O'sha g'aroyib tushidagi voqealarni dengizda yana qayta boshdan kechirganday bo'lar, xushyor tortib ajablangancha: «Nega endi hadeb Suv parisini o'ylaganim o'ylagan, aslida bo'limgan Suv parisini qarigan chog'imda menga kim qo'yibdi?» – deb o'zini-o'zi koyirdi. O'ziga-o'zi tanbeh berarkan, u nimagadir ishonardi: agar Suv parisi bo'limganida allaqachon jonidan bezgan bo'lardi, axir qaridi, quvvatdan qoldi, ko'zidan nur, yuzidan chiroyi ketdi, tishlari to'kildi. Ilgari qanday shuhrat topgan bo'lsa, endi hammasi yo'qolib, tugab boryapti, bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda, ammo hamon yuragida o'ti bor, dilidagi orzu-istiklari hamon avvalgiday, shuning uchun ham kishi mana shunday o'ylarga botadi, mana shunday tushlar ko'radi, chunki faqat tushlarida va xayollarida gina odam o'zini o'lmas va erkin his qiladi. Orzusida u osmonlarga chiqadi, dengiz tublariga tushadi. Inson shuning uchun ulug'ki, u so'nggi nafasigacha hayotda nimaiki bo'lsa – hammasini o'ylaydi. Lekin ajal bular bilan hisoblashib o'tirmaydi, inson qanday yashaydi, orzu-xayollarida qanday yuksaladi, qanday tushlar ko'rdi, kim bo'ldi, aqli nimalarga yetdi, qanchalik yetdi – ajalning bu narsalar bilan ishi yo'q. Nega shunaqa? Nima uchun dunyo bunday qurilgan? Mayli, Suv parisi xayol, tush ham bo'lsin, biroq koshki mana shu g'aroyib tushdan narigi dunyodayam sira ayrilmasa...

Har qalay, nima bo'lsa ham, O'rxon Suv parisiga qanchalik ishonsa, dengiz uni tinglayotganiga ham shunchalik qat'iy ishonardi. Dengizga chiqsa bo'ldi: yozilib-yayrab dam olar, emin-erkin fikrlardi. U o'zining xayol-

lariga g'arq bo'lganicha, «Suv parisi bilan xuddi shu yerdaga suzayotgan emasmidik?» — deya o'z-o'zidan so'rardi.

Shunday paytlarda u munshtugiga qaytadan tamaki to'lg'izar, tutunini buruqsatib, huzur qilar edi: «Qayerda o'sarkan bu g'aroyib ko'kat, — ajablanardi u. — O'zini achchiq bo'lsayam ko'ngliga taskin beradi... Savdogarlar aytishgan edi, Man'juriyada o'sadi, deb. O'sha yerdan olib kelisharkan tamakini. Juda uzoq bo'lsa kerak bu Man'juriya deganlari, ha, juda uzoq bu yer. Bizning odamlardan bирontasi ham hech qachon u yoqlarga bormagan... Nahotki o'sha yerlarda tamaki o'rmondagi maysa singari o'sib yotsa. Yopiray! Nimalar bo'lmaydi deysiz bu dunyoda...»

* * *

Kun peshindan o'tdi. Shu asnoda u goh birdan ufqning allaqayeridan kelib qolgan bulutlar orasiga kirib ketardi. Go'yo xuddi o'sha yodqa havoning avzoyi bu-zilganga o'xshar edi. Quyosh bulut orasida yashiringan ana shunday paytda dengizning to'satdan rangi o'chib qorayib, borliq ko'nglini g'ashlantiradigan zulmatga cho'madi. Goho esa quyosh bulutlar orasidan chiqib, yana bahorgiday sahovat bilan nur sochadi, ana shu paytda dengizda lak-lak jonli shu'lalar suzilib ko'zni qamashtiradi, odamning dili yana ravshan tortadi.

Kirisk dengizga xiyla o'rganib, hatto biroz zerika boshlagan bo'lishiga qaramay, dengiz yuzasining mahobatidan, poyonsizligidan hamon hayratda edi. Har qancha suzishsa ham suvning oxiri ko'rinxmaydi. Dengiz har qancha katta bo'lsa ham bola qirg'oqda yurganida undan bunchalik ajablanmasdi.

Kattalar esa hech nimadan ajablanishmaydi. Ular hamma narsaga odatlanib qolishgandi. Emrayin bilan Milxun hamon ilgarigiday, eshkaklarni suvga unchalik chuqur botirmay, raxon eshib borishardi. Ular tinim bilmas, nafas rostlab olish uchun ham biror zum O'rxonni yordamga chaqirishmas, «Keyinroq, qaytishda, qayiq yukka to'lganida yordamlashasiz, hozir esa qayiqni boshqarib boravering», deyishardi. Kekirdagi bo'rtib

chiqqan, uzunbo'yin qari O'rxon esa qayiq tumshug'ida, o'ljasini poylayotgan burgutday enkaygancha o'tirardi. Ko'pincha sukul saqlar, nimalarnidir o'ylar edi.

Qayiq esa avvalgiday to'lqinlarga to'sh urib, yengil suzib borardi. To'lqinlarning qarshiligi ham avvalgiday bir maromda edi. Shamol ham avvalgiday suv yuzalab esardi. Ular shu zaylda suzishardi...

— Atkichx! Atkichx! Ana orol! Kichik siyna! — shodlanib qichqirdi birdan Kirisk bobosining yengidan tortib.

— Qani orol? — ishonmay so'radi O'rxon kaftini peshonasiga qo'yib, olislarga qararkan. Eshkakchilar ham ajablanib, bola ko'rsatgan tomonga qarashdi.

— Orol u yoqda bo'lmasligi kerak, — g'udrandi chol, chunki bola ular kutmagan, butunlay boshqa tomonni ko'rsatayotgandi.

Bola yanglishmagandi, o'sha tomonda, olis-olislarda chindan ham dengizda qotib qolgan g'adir-budur qo'ng'ir-balchiqsimon yuza qimir etmay ko'rinishi turradi. U xuddi suv o'rtasida turtib chiqqan xarsangga o'xshardi. O'rxon o'sha yoqqa uzoq boqib turdi-da:

— Yo'q, u orol emas, — dedi nihoyat qat'iy ishonch bilan. — Kichik siynaga yetish uchun hali to'g'riga, kunbotarga qarab suzish kerak. Seni aytayotganing esa butunlay boshqa tomonda. Orol ham emas, — davom etdi chol. — Yo'q, menimcha, bu — orol emas.

— Bu suvlarda bunaqa orol yo'q edi, bunaqa orolni sira ko'rmaganmiz, — dedi Milxun. — Kichik siyna chap tomonda bo'ladi, bu esa bilmadim, nima ekan?

— O'sha narsa tuman yoki bulutmi bo'lmasin yana? — so'z qotdi Emrayin. — Yoki to'lqin o'rkachlarimi desam qimirlamayapti-ku?

— Shuni aytaman-da, nimaykin? Tuman yo bulut bo'lishi mumkin, yana kim bilsin? Juda uzoqda. Lekin orol emas, — xulosa qildi O'rxon. — Mabodo tuman bo'lsa yaxshilikka olib bormaydi.

— Hechqisi yo'q, faqat shamol o'zgarmasa bo'lgani, — eshkakka zo'r berarkan dilidagini aytди Emrayin. — Bir joyda turibdi, qimirlamasdan. Lekin u tomonda bizning qiladigan ishimiz yo'q, nima bo'lsa bo'laversin...

Kirisk, avvaliga, topgan narsaning nimaligi aniqlan-maganidan xafa bo'ldi, ammo ko'p o'tmay bu voqeani esidan chiqardi.

Ovchilar esa yanglishmagan edilar. Tez orada chap tomonda suv yuziga chiqib turgan Kichik siyna orolcha-si ko'rinib qoldi. Endi bunga shubha yo'q edi. Orolcha chindan ham siynaga — yelinga o'xshab suv yuziga tur-tib chiqqan, past-balandliklardan iborat quruqlik ekan.

Orolni ko'rib hamma sevinib ketdi, ayniqsa Kiriskning og'zi qulog'ida edi. Xuddi shu payt eng qiziq voqeal yuz berdi.

— Mana yetdik, — deb bolaning telpagini siypaladi O'rxon. — Olapar o'zi uyda qolsayam bizni shu yer-gacha boshlab keldi. Agar u izimizdan ergashganida cho'kib ketardi, to'g'rimi?

— Bo'limasam-chil — tasdiqladi Kirisk cholning gapi-dagi hazil ohangini payqab.

— Olapar shuning uchun ham kerakki, u qirg'oqda qolib, uyimizni qo'riqlaydi. Shu bilan birga biz doim uni eslاب, yo'lдан adashmay, ov joyiga yetib keldik. Qani, ayt-chi: Olapar bizga yana zarur bo'ladimi, yo'qmi?

— Yo'q, endi kerakmas! — tag'in ishonch bilan javob berdi Kirisk. — Endi qayoqqa suzish kerakligini o'zimiz bilamiz.

— Sal o'y lab ko'rsang bo'lardi! — koyiganday dedi O'rxon. — Axir shunday ziyrak bola o'ylamay gapi-radimi?

Dengizdag'i olis orolga yetib olishganida Olaparning endi nima hojati borligiga Kiriskning sira aqli yetmasdi.

— Olaparimizning endi nima keragi bor?

— Nima keragi bor deysanmi? Uyga qanday qaytasan? Qayoqqa suzasan, qaysi tomonga? Qani, o'y lab ko'r-chi? Tushundingmi endi? Orolning qaysi tomoniga keldik, orol Olaparning qaysi tomonida turibdi — shuni bilsang, qayoqqa yo'l olish va yana qaytib kelish mumkinligini bilasan.

Kirisk indamay rozi bo'ldi-yu, biroq izzat-nafsi yo'il qo'ymadi shekilli, qizishib, cholni so'roqqa tuta bosh-ladi:

— Agar qorong'i bo'lsa-chi, a? Agar kechasi dengiz o'rtaida qolsak, hech narsani ko'rib bo'lmasa-chi, a? Unda nima qilamiz?! A? Ana unda Olapar qay tomonda qolganini qayoqdan bilamiz, a?

— Nima qipti, o'shanda ham bilsa bo'ladi, — xotir-jamgina javob berdi O'rxon. — Buni osmondag'i yulduzlardan bilsa bo'ladi, yulduzlar odamlarni yanglishtirmaydi, hamisha to'g'ri yo'l ko'rsatishadi. Faqat o'zing qaysi yulduz qayerda joylashganini bilsang bo'ldi. Vaqt kelib buniyam bilib olasan. Sen Luvr o'rdagi yulduzlar to'pini bilasanmi?

— Bilardim shekilli, — ikkilanib javob berdi Kirisk, otasiga qarar ekan. Emrayin o'g'lining qiynalib qolganini sezdi.

— Sal-pal biladi, bir paytlar ko'rsatgandim. Lekin hali yetarli emas. Hali tuzukroq o'rganish kerak...

Shu asnoda suzib ular orolga yaqinlashib qolishdi. Qирг'оqdagi ba'zi xarsanglar va qoyalar ko'zga chalinchach, ular qaysi tomonda tyulenlar makoni bor ekan, deya orolning atrofini aylanib o'ta boshlashdi. Kirisk diqqat bilan tikilar, tyulenlar to'dasiní birinchi bo'lib ko'rishni xohlardi. Biroq jonivorlarni ko'rganda tag'in baqirib yubormagin, deb uni ogohlantirib qo'yishdi. O'rxon oqsoqolning aytishicha, nerpalari — tyulenlar sohilga yaqin joydagi toshlar orasida yotisharkan — ular quyoshda toblanib, isinib olish uchun qurg'oqlikka emaklab chiqisharkan. Nerpalarning qayerda joylashganini ko'rib olib, so'ng ularni cho'chitib yubormaslik uchun qirg'oq sari ohista, sharpasiz yaqinlashish kerak ekan. Ammo shuncha tikilsayam, Kirisk hech bir jonzotni ko'rolmadi. Orol qирг'oqlari kimsasiz, huvullab yotardi. Hammayoqda davr o'tishi bilan yemirilib ketgan, shakl-shamoyilsiz yovvoyi xarsanglar sochilib yotardi. Orol atrofini biqirlab qaynab-toshayotgan oppoq ko'pikli po'rtanalar xalqaday o'rabi olgandi. Bu oppoq xalqa jimirlab, ustini muz qoplagan ayqash-uyqash toshlardan oshib o'tishga intilardi. Yo'q, Kirisk orolchada biron nimani ko'ra olmadi. Butun atrof faqat qoyatoshlardan iborat, biror jonzotidan asar yo'q edi.

Milxun jonivorlarni birinchi payqab qoldi. Kirisk

nerpalarni qayerga yashiringanligini bilib olish uchun u yoq-bu yoqqa qaraguncha, qayiq uzoqlashib ketdi. Chunki qirg'oqdagi jonivorlar qayiqni ko'rib qolmasligi kerak edi.

Keksa O'rxon bolaning hech narsa ko'rmaganligini sezib:

— Biror narsani ko'ra oldingmi? — deb so'radi.

Bola yolg'on aytishga ko'ngli bormadi.

— Yo'q, ko'rmadim, — tan oldi Kirisk.

— Yana yaqinroq haydanglar, — buyurdi O'rxon. —

Har xil toshlar orasidagi nerpalarni ko'zing ilg'ab olsin. Aks holda sen ovchi bo'lomaysan.

Qayiqchilar qaltis bo'lsayam yana boyagi joyga yaqinlashishdi. Nerpaldardan bittasi ovchilarni payqab qolsa bo'lgani, hammasi o'zini dengizga otishi turgan gap edi. Xayriyatki, hayvonlar ovchilarni payqashmadi. Nerpalar tartibsiz, egri-bugri xarsangtoshlardan xosil bo'lgan tabiiy to'siq orqasida shundoqqina suvga yaqin joyda yotishardi.

— Huv, anavi singan tishga o'xshagan katta toshni ko'ryapsanmi? — so'radi Milxun boladan, — o'shandan sal narida qizg'ish, muzlagan do'nglik bor — shularning orasiga qaragin.

Kirisk diqqat bilan o'sha tomonga tikildi. Bu orada Milxun bilan Emrayin jadal eshkak eshib, qayiqni o'nglash bilan ovora edilar. Shu orada Kirisk dengiz hayvonlarining quyruqli katta gavdalarini ko'rdi. Hayvonlarning ku'rang, olachipor, sip-silliq va yaltiroq bo'yinlari qimir etmasdi. Tajribasiz g'o'r odam olisdan ularni toshlar orasidan ajratib olishi mushkul edi.

Shu zaxoti Kiriskni hayajon chulg'ab oldi. Ana endi, chinakam dengiz hayvonlariga duch kelishdi! Ana endi chinakam ov boshlanadi!

Shundan so'ng ovchilar qirg'oqqa tusha boshlashdi, bolaning vujudi jur'at va zavq-shavqqa to'lib-toshdi. Ha, u shu tobda jasur edi, chunki u hozir o'zini kuchli va qudratli odamday his etardi. Zavq-shavqqa to'lganining sababi — ovchilar mardonva abjirlik bilan harakat qilishardi: ular chaqqonlik bilan qayiqni qirg'oqqa taqab kelishdi. Emrayin bilan O'rxon atkichx qirg'oqqa

to'lqin urilayotgan notinch joyda eshkaklarni pastga tirab, qayiqni to'g'rilib turishdi, Milxun qirg'oqqa, shag'al ustiga sakrab tushdi-da, o'ziga tashlangan ar-qonning uchini darhol yelkasiga ilib olib, qirg'oqqa yaqinlashtirdi. Otasi ham shu zahoti miltiqlarni olib, qirg'oqqa sakrab tushdi. Keyin bolaning o'zi ham to'g'ri O'rxon cholning yordamida qirg'oqqa sakrab tushdi va to'lqin urilganda oyog'ini shalabbo qilgani uchun otasidan sal-pal koyish eshitdi.

O'rxon bobo qayiqni to'lqinlar xurujidan saqlash uchun suv bo'yida qoldi. Emrayin, Milxun va Kirisk uchalovi esa tyulenlar yotgan joyga shoshilishdi. Ular qirg'oq yoqalab, beixtiyor egilib, o'zlarini panalab, to'siqdan-to'siqqa yugurib o'tishar edi. Kirisk kattalar dan orqada qolmay yugurar, yuragi qinidan chiqquday potirlar, shodlik va hayajondan joni ichiga sig'may, boshi aylanib ketar edi.

Qani endi shu payt Kiriskni Suv parisi avlodidan bo'lgan odamlar ko'rishsa, uning hayvon oviga katta ovchilar bilan birga yugurib ketayotganiga shohid bo'lishsa! Qani endi uni shu payt onasi ko'rsa, bo'lg'usi ulug' ovchi bilan, urug'larning rizq-ro'z keltiruvchisi bilan faxrlansa! Qani endi shu payt qadrdon Olapar sohilidan uzoqda, po'rtana quturayotgan noma'lum sohil bo'ylab haybatli qoyalar va xarsanglar orasidan tyulenlar makoniga yugurib borayotganini Muzluk ham ko'rsa! Afsuski, endi Kirisk u bilan avvalgiday birga o'ynay olmaydi, endi Kirisk – ovchi. Miltiqlar faqat Emrayin va Milxunda bo'lsayam mayli, hechqisi yo'q: otasi, otish vaqt kelganda sengayam miltiq beramiz, deb aytgan edi-ku.

Shunday qilib, ular tyulenlar makoni tomon yaqinlashishdi, so'ng emaklab ketishdi, Kirisk ham emaklab ketdi. Qirrali toshlar va g'adir-budur muzliklar ustidan emaklab yurish qiyin edi, lekin Kirisk shunday qilmasa bo'lmasligini tushunardi.

Ular og'ir nafas olib, terga botib, gohida pisib-berkinib, gohida bo'yinlarini cho'zib, atrofni ko'zdan kechirib borishardi. Nihoyat, otish vaqt kelganda, bir yerda o'rnashib olib, nafas yutib, qotib qolishdi.

Mana shu lahzalarni, bahorning mana shu bir kunini, poyonsiz dengiz o'rtasidagi mana shu huvullab yotgan tog'-toshli orolni va undagi allaqanday mo'jiza kuchi bilan chor-atrofga sochib tashlangan mana shu qora-qo'ng'ir, haybatli toshlarni, hali erishga ulgurmay yotgan mana shu yalang'och, kimsasiz yerni, uning yonginasidagi otishga shaylanib turishgan otasi bilan Milxunni, oldinda, dengizning shundoqqina yorqasida esa shamollar va po'rtanalardan yemirilib ketgan, us-tini mayda giyoh qoplagan, qing'ir-qiyishi qoyatoshlar orasida, hech narsadan xabarsiz, xotirjam yotgan tyulenlarning kichik bir podasini Kirisk umr bo'yи eslab qoladi. Bola, nazarida, odamlar uzra, tyulenlar uzra, orol va dengiz uzra go'yo birinchi o'q otilishini nafas yutib kutib turganday qotib qolgan, sal-pal xo'mraygan osmonni umr bo'yи eslab qoladi.

«Ishqilib nishonga tegsin-dal!» – o'yladi u otasi bergen miltiqni yelkasiga taqib olar ekan.

Intizorlik bilan kutilgan shu qisqa lahzalarda u o'zini mashbur, jasur ovchiday his qilib, g'ururlanib ketdi. Ammo qachon quyosh mo'ralab, nurlari bizni sal-pal ilitarkan, degan maqsadda, xarsanglar orasidagi sayhonlikda tor joyga tiqilib olishgan mana shu beso'naqay, xo'ppasemiz hayvonlarning jonli bo'yinlari va yag'rinlarini qimirlatib nihoyatda panohsiz, himoya-siz, ochiq holda yotganligini ko'rib hayratlandi. Ammo boladagi bu holat uzoqqa cho'zilmadi. U o'zining ovchi ekanligini, odamlar undan o'lja kutayotganligini, tyulen go'shti va moyi bo'lmasa odamlar och-yalong'och qolishini eslatdi. Ayni vaqtida: «Birinchi bo'lib otib, o'zimni ko'rsatishim zarur», degan fikr miyasidan yalt etib o'tdi. U dadillanib, otasi o'rgatganiday, yirik, olachipor katta tyulenning chap qanoti ostini, to'g'risi, qanotining teparov'i va chaprog'ida joylashgan naq yuragini mo'ljalga oldi. Shu payt tyulen biron falokatni his etganday bezovtalanib qoldi. Holbuki, u ovchilarni ko'rmagandi, shamol dengiz tomondan esGANI uchun odamlarning hidini olmagan edi. Mo'ljallashga nimadir, allaqanday ko'lanka halal berayotganidan Kirisk sal-pal yoniga surilishi kerak bo'lib qoldi. Aksiga olib, xuddi

shu payt Kiriskning tirsagi ostidan bir tosh siljib ketib, boshqa toshlarga borib urildi, hammayoqni larzaga keltirdi. Olachipor katta tyulen uzoqdan g'ingshiganday qisqa-qisqa ovoz chiqardi va butun tyulenlar podasi harakatga kelib, na'ra tortib, o'kirishib, tezlik bilan birin-ketin o'zlarini suvga tashlay boshlashdi. Ammo shu payt ularning yo'lini to'sganday gumburlash eshitildi, podaning chetida borayotgan yirik tyulenni Milxun otib o'ldirgan, shu bilan boshqa ovchilarni noqulay ahvoldan qutqazgan edi. Kirisk nima qilishini bilmay, gangib goldi.

— Otsang-chi, tezroq! — buyurdi Emrayin.

Shu zahoti bolaning yelkasida qattiq og'riq paydo bo'ldi, qulog'i tom bitdi. U mo'ljalga tegizolmaganidan mulzam bo'ldi. Axir uning aybi bilan ov barbod bo'ldida. Lekin otasi uning qo'liga o'q tutqazib, shoshirdi:

— O'qla, tezroq ot!

Ilgari oson ish bo'lib ko'ringan o'qlash va otish (ilgari mashq qilgan vaqtlarida qoyillatardi) hozir juda mushkul bo'lib qoldi. Miltiqni o'qlagach, dastasi o'rnidan jilmayib turib oldi. Bu orada Milxun suvga tashlanayotgan tyulenlarga qarata tizzalab turib yana ikki marta o'q uzishga ulgurdi. Tyulenarning bittasi yaralandi. Yarador hayvon suvning bo'yida gir aylanib qoldi. Ovchilar o'sha yerga yugurib borishdi. Tyulenlar podasi yashirinib ulgurishgan, yarador tyulen esa jon-jahdi bilan suv tomonga intilardi. Odamlar dengiz bo'yiga yugurib kelishganida tyulen suv yuzida qonli dog' qoldirib, kurakoyoq panjalarini lapanglatib ko'kish tortib turgan dengizning tubiga hotib ketdi. Tiniq suvda tyul彭ning qo'rquvdan olaygan ko'zlar va bo'ynidan quyrug'iga qadar och gunafsha rangdagi umurtqa yo'li aniq ko'rinish turardi. Milxun o'qlangan miltig'ini pastga tushirdi, endi uni otish foydasiz edi.

— Qo'yaver, baribir cho'kib ketadi — dedi unga Emrayin.

Kirisk esa hansiraganicha, o'zidan norozi bo'lib, xafa bo'lib turardi. U bugungi ovdan ko'p narsalarni kutgan edi, lekin bo'lmadi. Yana katta ovchi bo'larmish!

Bola jim bo'lib, shumshayib qoldi, unga shunchalik

alam qilardiki, yig'lab yuborishdan o'zini arang tiyib turardi.

— Hechqisi yo'q, yanagi safar ishing o'ngidan kela-di, — deb yupatdi uni Milxun keyinroq, otib o'ldirilgan tyulenni ichak-chavoqlarini olib, nimtalashayotganida. — Mana endi O'rta siynaga boramiz, u yerda ham tyulen deganining tigilib yotibdi.

— Juda shoshib qoldim-da, — deb so'z ochgan edi, otasi uning gapini bo'lib qo'ydi:

— O'zingni oqlayverma. Hech kim onasining qorni-dan ovchi bo'lib tushmagan. Omon bo'l, otishni bilsang, o'lja sendan qochib qutulolmaydi.

Kirisk jimb qoldi, lekin hech kim unga ta'na qil-mayotganidan ko'ngli taskin topdi. Endi u: «Hech qachon otish vaqtida shoshib qolmayman, mo'ljalga olayotganimda endi hech narsani o'ylamayman, otam aytganiday, nafasimni chiqarmayman, ko'zim nishonda bo'ladi, ana shundan keyingina o'q uzaman!» — deb o'z-o'ziga so'z berdi.

Tyul彭ning tanasi kattagina, ancha og'ir va xuddi tirikday badani hali iliqqina edi. Hayvonning to'shini nimtalayotgan Milxun mammunlik bilan qo'llarini ishqalab: «Ko'rdilaringmi, to'rt enli yog'i bor, zo'r!» — deb qo'ydi. Kirisk endi ko'ngli g'ashligini unutib, qiziqib amakisiga yordam bera boshladidi. Emrayin esa bu orada qayiqni yaqinroq olib kelish uchun O'rxon bobo turgan tomonga ketdi.

Biroq u ko'p o'tmay, tashvishlangancha tezda qaytib keldi:

— Vaqtimiz ziq, tezroq bo'linglar! — u hamrohla-rini shunday shoshirdi-da, osmonga qarab yana o'zicha g'udranib qo'shib qo'ydi: — Negadir havoning avzoyi menga yoqmayapti...

Ovchilar shosha-pisha o'ljani nimtalab, jigari bi-lan yuragidan boshqa ichak-chavoqlarini tashlashdi-da, qolganini qayish bilan bog'lab, qayiq tomon sudrab ketishdi. Kirisk ularning ortidan ikkala miltiqni olib yugurdi.

Qirg'oqda, qayiq oldida ularni O'rxon bobo kutib turardi. Chol o'ljani ko'rib sevinib ketdi.

– O, Kurng¹ egam, yetkazganingga shukur! Ovimi-zning boshlanishi chakki emas! – deya u o'zining ov pichog'ini artib, tayyor qildi. Ovdan keyin eng muhim udum – tyulenning xom jigarini shu yerning o'zidayoq yeyish edi. O'rxon bobo nimtalangan nerpa to'shi oldida cho'nqayib o'tirib olib, jigarini bo'la boshladni. Ovchilar oz-moz tuz sepilgan mayin jigar burdalarini huzur qilib chapillatib yamlab yutar edilar. Jigar juda mazali – muloyim, iliq, to'yimli edi. U odamning tilini yog'li sharbatga botirib, og'izda erib ketardi. Kiriskning orzusi ushaldi – haqiqiy katta kishiday ovda xom jigar yedi!

– Yutaver, ko'proq yut, – maslaxat berardi bolaga O'rxon bobo. – Tunda sovuq kuchayadi, junjikib qolasan. Shunday vaqtda odamni isitadigan eng yaxshi narsa jigar. Tag'in u ming bir kasalga shifo bo'ladi.

Rosa maza qilishdi. Taom juda soz bo'ldi-yu, darrov chanqab qolishdi-da. Qayiqdag'i kichik bochkada suv bor edi.

– Hozir go'shtni nimtalashning hojati yo'q, – dedi Emrayin hamma to'yib bo'lganida va yana tashvishlanib osmonga qarab qo'ydi.

– Keyin nimtalasayam bo'laveradi, – ma'qulladi O'rxon bobo. – Choyni kechasi O'rta siynaga borganimizda ilitib ichamiz. Hozircha sabr qilib yuklarni orta qolaylik.

Qayiqni jildirish oldidan ovchilar yerni ham to'ydirishni unutmadiralar. Tyulen yuragini mayda-mayda bo'laklab yerga sochib, orol egasidan keyingi ovning ham baroridan kelishini tilashdi. Shu asnoda ular yana dengizga chiqishdi.

Kichik siyna ortda qoldi. Atrofini tund suvlar o'rab olgan yolg'iz orol huvullab qolgan, g'aribona va ayanchli ko'rindari. O'rta siynaga qarab yo'l olishdi. Qosh qoraya boshladni. Eshkakchilar qorong'i tushguncha O'rta siynaga yetib olib, qayiqni panaroq joyga qo'yib, tunab qolish maqsadida jon-jahdlari bilan harakat qilishardi. Kichik siyna go'yo suvga cho'kib ketganday

¹ Kurng – nivxlarning oliy tangrisi.

ko'zdan g'oyib bo'ldi, ammo O'rta siyna hali-veri ko'rinay demasdi. Yana borliqni suv qoplab oldi.

Ovchilar o'lja payiga tushishganida dengiz sezilarli darajada o'zgara boshlagan edi. To'lqinlar qalinishdi. Zichlashdi. Suvning mavji avvalgi yo'nalishda bo'lsa ham shamo'lning yo'nalishi o'zgargan edi. Qayiq endi avvalgidan ko'ra kuchliroq silkinib chayqalmoqda edi. Ammo ovchilar havoning avzoyidan ko'proq xavotir-lanishardi. O'zi nima bo'lyapti? Odatda yilning bu faslida havo aynimas edi-ku! Allaqayoqlardan uchib kelgan g'ubor olislardagi zulmatli o'rmonlardan chiqqan yong'in alangasining tutuniday, butun osmonni qoplab oldi. Tutun garchi osmonni o'rab olgan va hech kimga hech qanday halal bermayotgan bo'lsa ham ovchilar g'ashlanib qolishdi.

— Qayoqdan kelyapti bu balo? — o'zicha g'udrandi O'rxon bobo atrofga noxush boqar ekan.

Endi ular hozir O'rta siyna ko'rinib qoladi, deb zo'r berib eshkak eshar edilar — O'rta siyna hammasidan ko'ra qulay va tinch edi-da.

Bu orada havo biroz ochildi, xatto dengizning narigi chekkasidan quyosh mo'ralab qoldi. Bu yorug'lik aql bovar qilmas mo'jizaga o'xshar, go'yo u olamning narigi chekkasidan chiqayotgandek edi. Bu quyoshga hemalol qarash mumkin edi, u ko'zni qamashtirmsди. Quyosh qontalash tusga kirib, asta-sekin qizarib, alvonlanib, xira ufqqa bota boshladи. Osmonning chiroyi ochilgach, yana dengiz yuziga shu'la yugurdi, yana osoyishtalik hukm sura boshladи. Odamlar ham darrov xotirjam bo'la qolishdi. Ular endi orolda tinch joy topib, orom olishni xayol qila boshladilar.

— Ozgina sabr qilsang, oldinda O'rta siyna ko'rinib qoladi, — dedi O'rxon bobo yonida o'tirgan Kiriskning yelkasiga qoqib.

Bola allaqachon chanqagan, ammo otasining ta-qilalariga soddadillik bilan amal qilardi. Ovga chiqish oldidan otasi chuchuk suv dengiz safarida ham hamisha kamchil bo'lismeni tushuntirgan edi. Safarda uydagiday istagan vaqtingda suv ichish mumkin emas. Xatto uchala orolda ham biror tomchi chuchuk suv yo'q. Qayiqqa esa

ortiqcha yuk ortib bo'lmaydi. Hamma qachon suv ichsa, sen ham o'shanda ichasan.

To'satdan olisda quyosh ko'rinib, olam yorishgan lahzalarda bola O'rxon boboning ko'ngli yumshaganligini sezdi.

— Atkichx! Suv ichgim kelyapti, judayam! — dedi u yigitlarday kulimsirab, otasiga qarab qo'ydi.

— Shunday degin! — endi esiga tushganday miyig'ida kuldil O'rxon bobo. — Haligidaqa qoyilmaqom jigardan keyin albatta odam chanqaydi-da! Turgan gap, chanqaydi! Axir, hammamizning suv ichgimiz kelyapti, to'g'rimi?

Emrayin bilan Milxun tasdiqlab, bosh irg'ab qo'yishdi. Kirisk sevinib ketdi, demak, bitta o'zi emas, hammaning suv ichgisi kelayotgan ekan.

— Unday bo'lsa suv bilan siylaymiz o'zimizni, keyin bir chekib olsak ham bo'ladi! — dedi O'rxon bobo boshqaruvchi eshkakning dastasini o'z holiga qo'yib, so'ng qayiqning tubidan kichik bochkani oldi, uni qulayroq joylashtirib, ichi chegalangan tunuka cho'michga bochkaning og'zidan sekin jildiratib suv quya boshladidi. Suv muzdekkina, tiniq edi — Olapar qoyasining doimo ichib yurgan tip-tiniq, mazali va suyumli suvlardan edi. Yozda chayqalgan suv o'tlari hamda zax yerning hidi kelardi undan.

Kirisk cho'michni tutib turardi. Bolaning tezroq suv ichgisi kelardi. Cho'mich yarim bo'lganida, O'rxon bobo bochkaning teshigini po'kak bilan yopdi va bolaga qarab:

— Ichaver! — dedi. — Keyin boshqalarniyam chanqog'ini qondirasani. Chayqatib to'kvormagin tag'in, — ogohlantririb qo'ydi u.

Kirisk avvaliga yutoqlab icha boshladidi, so'ng sekinlashdi va oxiri suvdan bo'kkan yog'och hidi kelayotgанинни sezdi.

— To'ydingmi? — so'radi O'rxon bobo.

— To'ydim.

— Ko'zing aytib turibdi, to'ymabsan. Mayli aytganning bo'lsin, senga yana ozroq quyib beray. Jigar degani juda kuchli narsa. Yerdaligimizda chelaklab ichsang ham bo'laveradi — dedi O'rxon bobo yana jildiratib cho'michga suv quyarkan.

Bola suvgaga qonganidan keyin kattalarning bunday paytlarda aytadigan «Ko'nglim joyiga tushdi» degan gaplarining chin ekanligini his etdi.

O'rxon bobo eshkakchilarga ham chorakam bir cho'michda suv quyib berdi. Suvli cho'michni qayiqchilarga Kirisk uzatib turdi. O'zi suvgaga to'ygani uchun bola boshqalarning ham suvgaga qonib olishini xohlardi. O'rxon bobo boshqalarga nima uchun chorakam bir cho'michdan suv bergenligining sababini tushuntira ketdi.

— Sening hali jussang kichik, ularni ko'rdingmi, qanaqa? Bularni mehnatiyam og'ir. Eshkak eshgan odam ko'proq chanqaydi.

Emrayin bilan Milxun chindan ham cho'michni bir ko'tarishda bo'shatib qo'yishdi, ularga yana ozroqdan quyishga to'g'ri keldi. O'rxon oqsoqol kattalarga ta'na qildi:

— Bu deyman, og'aynilar, ja yuho bo'p ketmanglar. Daryo bo'yida o'tirganlaringiz yo'q-ku!

Emrayin bilan Milxun faqat jilmayib qo'yishdi. Go'yo, buni o'zimiz ham bilamiz, lekin nima qilaylik, axir suv ichgimiz kelib tursa, deyishayotganday edi.

Lekin O'rxon boboning o'zi ham o'z ulushini ichib bo'lib, miyig'ida kulib, bosh chayqadi:

— Eh-h, daryo bo'yida o'tirsak yaxshi bo'lardi. Xom jigarni odamni rosa ko'tararkan...

So'ng chol munshtugini tamakiga to'ldirib, tutun buruqsatib, huzur qilib cheka boshladи. Chol umrida oxirgi marta shunday huzur qilayotganini hali o'zi bilmasdi...

Falokatni birinchi bo'lib Kirisk payqadi!..

• • •

Shundan sal avval borliqqa ajoyib osoyishtalik cho'kkан, odamlar chanqog'ini bosib, ko'ngillari taskin topib, o'zlarini baxtiyor his etgan edilar.

Birinchi o'ljani qo'lga kiritishdi, ko'p o'tmay, orolda biroz orom olishib, azonda yana katta ovga chiqishadi. Ovdan so'ng, ivirsilab o'tirmay darhol uyga qaytishadi. Hamma ish ko'ngildagidek edi.

Qayiq hamon avvalgiday, to'lqinlarga to'sh urib bir maromda sekin suzib borardi. O'rxon bobo qa-

yiq quyrug'ida tamakisini tutatganicha darg'alik qilib o'tirardi. Shu lahzalarda ehtimol Suv parisini o'ylayotgandir. Emrayin hamda Milxun asosiy ishlari – eshkak eshib bilan band, ular ortiqcha kuch sarflamay qayiqni bemalol, aniq va qoyillatib haydab borar edilar. Kirisk beixtiyor ularning ishiga mahliyo bo'lib qarab turardi. Shu lahzalarda u bolalarga xos allaqanday ichki sezgi bilan goh otasi, goh amakisiga qarab, ularning har biri to'g'risida ayricha o'y surardi. U Emrayin bilan Milxun va O'rxon boboni butun vujudi bilan sevar, shu payt ular orasida ekanligidan g'ururlanardi.

Kirisk bu odamlarning boshqacha bo'lishini xayoliga ham keltirmasdi. Uning nazarida O'rxon bobo butun umr xuddi hozirgiday kekirdagi turtib chiqqan, uzun bo'yinli, qo'llari o'simlik ildizlariday sertomir, hamma narsani sezuvchi, ko'zları mudom yoshlanib turgan chol bo'lganday edi. Uni boshqacha tasavvur qilish mumkinmi axir? Bunday maslahatgo'y, hammaning izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarsiz ham yashash mumkin bo'larmikin?

Onasining aytishicha, Kirisk otasiga juda o'xshab ketarkan. Katta bo'lsa quyib quyganday Emrayinning o'zginasi bo'ladi-qoladi, deydi. Kiriskning ko'zlariyam otasiniki singari qo'yko'z, tishlariyam otasinikiday mustahkam, oldingi ikkita kurak tishi biroz turtib chiqqandi. Yana onasining aytishicha, katta bo'lsa Kiriskning ham otasinikiday qop-qora va dag'al qalin soqoli bo'larkan. Haytovur otasini sersoqol Emrayin deb bekorga aytishmaydi. Kirisk go'daklik chog'larida, anhorda yalang'och cho'milib yurgan kezlarida onasi singlisining biqiniga turtib: «Qara, qara, xuddi otasining o'zi!» – derdi. Ikkalasi nimadandir xursand bo'lib, ichaklari uzulguday qotib-qotib kulishar, quvlik bilan shivirlashardi. Onasi: «Kirisk katta bo'lsa, unga xuddi o'zimga o'xshagani duch kelsa o'sha kelin sira xafa bo'lmasdi, ko'ngli to'lardi, buni men bilib aytyapman», derdi u. «Qiziq, – o'ylardi Kirisk, – kim, nima uchun ko'ngli to'ladi? Kirisk otasiga tortgan bo'lsa, nima uchun unga tushgan xotinning ko'ngli to'ladi?»

Ana, hozir otasi qayiqning tumshuq tomonida o'tirib

eshkak eshyapti. Soqoli qop-qora, tishlari oppoq. Jussador, keng yag'rinli, xotirjam, sabr-toqatli. Boshqalarga o'xshab otasi biror marta unga baqirib, do'q-po'pisa qilganligini yoki aksincha, avaylab-ardoqlab, yupatganini eslayolmaydi. Chaqnab turgan ko'zlar haqiqatdan ham tip-tiniq, qo'yning ko'ziga o'xshardi.

Keyingi bir juft eshkak Milxunning qo'lida; u Kiriskning amakivachchasi, otasidan ikki yosh kichik. Emrayinning ukasiga unchalik o'xshamaydi, negaki, soqoli yo'q. Ammo uchlari osilib tushgan mo'ylovi xuddi morjnikiga o'xshaydi. O'ziyam xuddi morjga o'xshaydi. Gapni do'ndiradi, bahslashishni yaxshi ko'radi, ko'ngliga o'tirmasa, tepalashishdan ham qaytmaydi. Janjallashganda birovga haqini o'tkazmaydi. Bir marta sayyoh savdogar bilan jiqqamusht bo'lib qolishgan edi, keyin butun urug'-aymog'i bilan kechirim so'rab, tovon to'lab yurishdi. Milxunning o'zi pakana bo'yli, miqtidan kelgan bo'lsa ham hech kimga so'z bermaydi, haqiqat bo'lsin, deydi. G'irt mast edi o'shanda. Bunaqa ishga suyagi yo'q. Ko'pchilik qatori Emrayin ham uni tinchitmoqchi bo'lib rosa qiynalgan. O'ziniyam ayiqday kuchi bor-da. Kirisk uni aki¹-Milxun deydi. Otasi bilan ular juda inoq, ovga doim birga borishadi, hech qachon birbirini dog'da qoldirishmagan, ikkalasi ham uddaburon ovchilar. Milxunning o'g'li hali juda kichik – endigina atak-chechak qilyapti. Milxunning undan kattaroq ikkitat qizalog'i bor. Kirisk ularni doim himoya qilib yuradi, qani birortasi ularga tegib ko'rsin-chi! Kiriskning oyisi ham Milxunning qizaloqlariga jonini beradi. Ular tez-tez Psulk bilan o'ynagani kelishadi.

Biroq ovuldagi qizlar ichida eng chiroylisi – Muzluk! Faqat shunisi chatoqki, bo'yiga yetsa uni qo'shni qishloqqa erga berib yuborisharkan. Uni uzoqqa bermay qo'ya qolishsa qanday yaxshi bo'lardi-ya!..

Sohilda yurgan chog'larida Kirisk bunaqa narsalarni xayoligayam keltirmasdi. Endi esa, qadrdon uyidan uzoqda mayda-chuyda narsalar ham unga juda muhim va ta'sirli tuyulardi.

¹ Aki – aka ma'nosida.

Kirisk nogahon uyini eslab, sog'inganidan ko'ngli allaqanday bo'lib ketdi. Olapar qoyasining ortida, daryo atrofidagi vodiysida, dengiz yorqasidagi o'rmonda joylashgan qadimiy qishloqda yashovchi nivxlar - Suv parisi avlodlarining oldiga ketgisi kelib qoldi. Oyisini shunday sog'indiki, yuragi orziqib ketdi. Lekin ular hozir qadrdon sohildan, abadiy dengiz yoqalab o'z ishi bilan abadiy yugurib ketayotgan qadrdon Olapardan juda-juda uzoqda edilar. Xuddi shundayligiga ishonch xosil qilish uchun Kirisk beixtiyor orqasiga o'girilib, atrofga olazarak qaradi-yu, birdan kutilmagan manzara ga ko'zi tushib qoldi.

Dengiz ustini, ufqning deyarli yarmini ikkita tutash tilga o'xshagan quyuq tuman pardasi asta-sekin qoplab olayotgandi. U qoramtil suv yuzasiga yopirilib kelib, go'yo butun borliqni o'z og'ushiga olmoqchiday edi. Tirik mavjudotday, ulkan maxluqday olamdag'i barcha narsalarni, odamlarni ham qayiq-payig'i bilan yutib yuborgudek yovuz niyat bilan yopirilib kelardi. Tuman boyta Kirisk ko'rsatgan tomondan, dengiz o'rtasida noma'lum, xira narsa muallaq turib qolgan tomondan bosib kelardi. Endi u xamirday ko'pchib, hech qanday tap tortmasdan, shamol zo'ri bilan qayiq tomonga to'xtovsiz yaqinlashib kelardi.

- Qaranglar! Qaranglar! - qo'rqqanidan qichqirib yubordi Kirisk.

Hamma sarosimaga tushib qoldi. Bir lahza o'z holiga qo'yilgan qayiq to'lqinlar orasida pista po'choqday chayqala boshladi. Shu zahoti qalin tuman ortidan qudratli to'lqinning odamni seskantiruvchi gumburlashi eshitildi. Dahshatli to'lqin quturib, ko'pirib-toshib kelardi.

- Qayiqni bur! - jon-jahdi bilan qichqirdi O'rxon. - Qayiqning tumshug'ini to'lqinga qarab bur!

Eshkakchilar qayiqni to'lqin qarshisiga arang burib ulgurishi bilan po'rtananing birinchi zarbi qayiqni ag'darib yuborishiga sal qoldi. Birinchi dahshatli po'rtana ortidan yana dengiz g'alayoni ko'tarildi va shu zahoti qalin tuman yetib keldi. Tobora yopirilib kelayotgan tumanning old qismi juda yaqin qolganda mana shu girdobli tirik zulmatning naqadar yovuz kuch bilan,

naqadar mash'um niyat bilan bosib kelayotgani aniq ko'rini turardi.

— Shamolning qaysi tomondan esayotganini eslab qolinglar! Shamolning yo'nalishini unutmanglar! — deya qichqirishga ulgurdi O'rxon.

Shu zahotiyoy ularni quyuq zulmat yutib ketdi. Tuman go'yo tog' ko'chkisiday dahshat bilan yopirilib, ularni cheksiz zulmat girdobiga g'arq qilib yubordi. Shu lahzadayoq ular bir olamdan boshqa olamga tushib qolishdi. Hamma narsa zulmat qa'riga cho'mib ketdi. Shu lahzadan boshlab na osmon, na dengiz, na qayiq qoldi. Ular endi hatto bir-birlarining basharalarini ham ko'risholmasdi. Shu lahzadan boshlab ular o'z tinchlarini yo'qotgan edilar — dengiz quturayotgan edi. Po'rtanalar qayiqni dam balandga, dam pastga irg'itar, dam yuqoriga, dam to'lqinlar orasida hosil bo'lgan suv o'ralariga uloqtirib tashlardi. Toshqin va chayqalishlar dan ovchilarning kiyimlari shalabbo bo'lib, og'irlashib ketdi. Lekin, eng yomoni, quyuq tuman ichida qolgan odamlar atrofida nimalar borligini sezishmas va ko'rishmas, dengizda nimalar bo'layotganligini, nima chora ko'rish kerakligini bilmay garang edilar! Faqat bir narsa, u ham bo'lsa tavakkaliga suzish, qayiq ag'darilib kyetmasligi uchun bir amallab ko'r-ko'rona harakat qilish qolgan edi, xolos. Endi qayiqni qandaydir mo'ljalga qarab haydash to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. To'lqinlar qayiqni xohlagan ko'yiga solib, istagan tomoniga eltib tashlashi mumkin edi.

Kirisk ilgarilari ham shunday voqealar bo'lganligini eshitgandi. Ilgarilari ham ovchilar dengizda falokatga uchrashgan. Ilgarilari ham ovga ketgan odamlar izsiz g'oyib bo'lishganda umumiyl motam tutilgan. Ana shu motam paytida Olapar qoyasining yonbag'irlarida ayollar bilan bolalar bir necha kun gulxan yoqishardi — balki yo'qolganlar to'satdan topilib qolar, deb umid qilishar. Ana shu vaqtarda Kirisk ochiq dengizda halok bo'lish naqadar dahshatli, vahimali bo'lishini xayoliga ham keltirmagan edi. U, aksincha, qish faslining mehmonlari bo'lgan, butun olamni sutga chayqaganday oppoq va sokin qilib yuboradigan mana shu beozor tumanlarni

yaxshi ko'rardi. Butun olam sehrlanganday oppoq suknatga cho'mib, bir tekis oqlikka o'ralgan ana shu paytlarda yer yuzidagi barcha narsalar havoga parvoz qilib, rang-ro'yi oqarib, arvohga aylanib serrayib qolganday tuyulardi. Ana shu paytlarda bolaning yuragi orziqib ketar, allaqanday afsonaviy manzaralarni ko'radiganday, bayon qilib bo'lmaydigan qo'rquv va hayajonga cho'mar, ana shu go'zal ertakka o'xshash harir tumanlar shu qadar dahshatli kuchga aylanishini tasavvur qilolmasdi. Quturgan dengiz ustidagi bulutning dam sirg'alib eshilib, dam yoyilib va yana zichlashib qop-qora bo'lib buruqsab borishi ilonning harakatini eslatardi...

Qayiq eshkagini ikki qo'li bilan mahkam ushlab olgan Kirisk titrab-qaqshab, O'rxon boboning oyog'iga mahkam yopishib oldi.

— Sen meni ushlab oll! Qattiq ushlab ol! — deb qulog'i ostida qichqirdi O'rxon bobo va bolaga boshqa nima deyishini, qanday yordam qilishini bilmay jim goldi.

Endi hech kim bolaning ahvolini yengillashtira olmasdi, chunki dahshatli ofat oldida hozir hamma ojiz edi. Hatto, Kirisk dod solib, ota, deb baqirib-chaqirib yig'laganida ham Emrayin joyidan jilmagan bo'lardi. Chunki otasi bilan Milxunning zo'r berib, to'lqinlarning ko'tarilishi va pasayishlarini chamalab qayiqni to'g'rilab turishlari tufayligina ular cho'kmayotgan edilar.

To'lqinlar esa hech narsani ilg'ab bo'lmaydigan tuman ichida qayiqni tobora jadallatib allaqayoqlarga surib ketayotgan edi. O'rxon bobo qayiq ag'darib tushmasligi uchun bor kuchi bilan rulni to'g'rilashga harakat qilar, ammo dengiz borgan sari quturmoqda edi.

Chamasi tun yarmidan og'di. Tuman ichida qay mahal bo'lganini bilish mushkul edi. Kech kirganini ular qorong'ilikning yanada quyuqlashganidan taxmin qilishlari mumkin edi. Oxiri ko'rinnagan, tinkani quritadigan bu tengsiz va tinimsiz olishuvda ular ko'p vaqtlanri boy bergen edilar. Shunga qaramay, nivxlar hamon umid uzishmagandi: ehtimol, to'satdan boshlangan suv ofati yana to'satdan tinib qolar, tuman to'satdan tarqalib ketar, ana shunda qayoqqa qarab suzish kerakligini bilib

olarmiz, deb o'ylashardi. Bir mahal ularning umidi ush-alganday bo'ldi. Dengiz po'rtanalari sal tinchidi, tebranishlar, chayqalishlar, suv sochqilari kamaydi. Lekin havoning avzoyi avvalgiday – zim-ziyo zulmatda hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Birinchi bo'lib, O'rxon bobo dengiz shovqinini bosguday baqirib gapirdi:

– Men shu yerdaman! Kirisk ham men bilan birga! Eshityapsizlarmi?

– Eshityapmiz! Biz ham o'z o'rnimizdamiz! – xiril-laganicha javob berdi Emrayin.

– Shamolning yo'lini kim eslab qoldi? – ovoz berdi O'rxon bobo.

– Nima foydasi bor! – jahl bilan qichqirdi Milxun.

Chol jimib qoldi. Rostdan ham shamolning qayoq-dan esayotganligini bilish foydasiz edi. Shamol ularni qayoqqa surib ketgan, mo'ljal qilish mumkin bo'lgan orollar hozir ularga yaqinmi yo uzoqmi? Buni chamalash ham qiyin edi. Ehtimol, ular Siynalardan juda-juda uzoqlashib ketishayotgandir? Balki endi ular Siynalarni sira-sira topib olishmas? O'rxon bobo holdan toydiruvchi zulmat va chayqalishlardan ezilib, jimib qoldi. Buyuk O'rxon chuqur o'y larga botib, jimgina o'tirardi. Faqat bir narsa ularga taskin berardi – yax-shiki, taqdir taqozosi bilan ular qoyali orollarga urilib pachoqlanmay, chetlab o'tib ketishibdi. Biroq orollarsiz va yulduzlarsiz tun va tuman ichida hech qanaqa yo'lni aniqlab bo'lmasdi. O'rxon bobo biror narsa deyishga ojiz edi. Shunga qaramay, u oradan sal o'tgach yana qichqirdi:

– Tlangi-la' esayotgan edi! Qayig'imiz tumshug'ini po'rtanaga to'g'rilaganimizda Tlangi-la esayotgan edi!

Hech kim javob bermadi. Hamma o'z ishi bilan ovora edi. O'rxon yana jimib qoldi. Kirisk cholning oyog'iga O'rxon eshkakchilarni ogohlantirdi:

– Kirisk ikkalamiz qayiqqa to'lgan suvni cho'mich bilan sepib tashlaymiz. Sizlar mahkam bo'linglar!

U Kirisk tomonga engashdi, qorong'ida paypaslab, bolaning eson-omon o'tirganini bilgach:

¹ *Tlangi-la* – dengizda janubi-sharqdan esadigan kuchli izg'irin shamol.

— Qo'rqma, Kirisk! Ke, qayiqdan suvni sepib tashlaymiz. Yo'qsa, ish chatoq bo'ladi. Bitta cho'michimiz bor, mana, topdim. Sen manavi kurakchani ol, har holda yaxshi bo'ladi. Ushladingmi? Kurakchani ol, deyapman... — dedi.

— Ha, atkichx, ushladim. Hali bu uzoqqa cho'ziladimi? Qo'rqib ketyapman.

— Men ham qo'rqqiyapman, — deb yubordi oqsoqol kutilmaganda. — Lekin biz erkaklarmiz, shuning uchun ham ishning og'iri bizning yelkamizda.

— Bunaqada cho'kib ketmaymizmi, atkichx?

— Cho'kib ketmaymiz. Agar cho'kib ketadigan bo'l-sak, mayli, peshonada bori shu ekan. Ke, endi, bir qo'ling bilan meni ushlab turgin-da, ikkinchi qo'ling bilan suvni sepib tashlayerver.

Yaxshisi, vaqtida O'rxonning esiga tushib qolgan ekan, oz-moz nafasni rostlab olishgandan so'ng qayiqdagi suvni sepib tashlashdi. Suv ozayishi bilan chol qayiqdagi buyumlar orasida yotgan kichkina bochkaga nazari tushdi va uni bolaga ko'rsatdi. Kunduzi ham shu bochkadan suv ichishgan edilar.

— Kirisk, — dedi u qorong'ida bolaning qo'lidan ushlab. — Bu yerda kichkina suvli bochkamiz bor. Topdingmi? Esingda bo'lsin, har qanday mushkul vaqtida ham shu bochkachadan ayrılma. Undan ajralganimizdan ko'ra o'lganimiz yaxshiroq. Tushundingmi? Shundan boshqa hech kimga ishonmay qo'ya qol... Eshityapsanmi?

Yaxshiki, chol bu gapni bolaga aytib qo'ydi, yaxshiki, bolani vaqtida ogohlantirib qo'ydi. Tez orada bu narsa juda-juda asqatib qoldi.

Ko'p o'tmay dengiz g'alayoni avvalgidan ham battar dahshatli tus oldi. Go'yo u tun va tuman ichida hech narsani ko'ra olmay qolgan odamlarning nochorligidan foydalaniib, qayta hujumga o'tgan edi. Ilgari bitroz bo'shashgan bo'lsa ham endi quturib, o'chini olmoq-chiga o'xshardi. O'rxon boboning qayig'i to'lqinlar zarbidan chirpirak bo'lib, u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi. O'rakchlangan to'lqinlar qayiqni savalaganini savalagan edi. O'rxon tizzalab, emaklab cho'mich bilan har qancha harakat qilsa-da, qayiq ichiga kelib tu-

shayotgan suvni sepib tashlashga ulgurmasdi. Shu payt eshkakchilar birdan jon-jahdi bilan baqirib qolishdi:

— Tashlanglar hamma narsani! Cho'kyapmiz! Tashlanglar!

Kirisk qo'rqqanidan ho'ngrab yig'lab yubordi, ammo uning yig'isini hech kim eshitmas, hech kim unga e'tibor bermas edi. Bola qayiqning quyruq tomoniga tiqilib, suvli bochkaga mahkam yopishib oldi-da, uni ostiga bosib yotaverdi. U shu alfozda g'ujanak bo'lib, bochkaga biqini bilan qapishib olgancha titrab-qaqshab yig'lardi. U, nima bo'lsayam shu bochkani asrab qolish g'oyat muhim ekanligini tushunardi. U, qayiq bilan birga suvga cho'kayotganlarini anglatdi. Lekin baribir shu vaqtida ham O'rxon oqsoqol tayinlangan ishni qildi, suvli bochkani ehtiyot qila boshladi.

Yarmisigacha cho'kib borayotgan qayiqni zudlik bilan qutqarish zarur edi. Milxun hamon aql bovar qilmas darajada eshkak eshib, uning ag'darilmasligi chorasini ko'rardi. O'rxon bilan Emrayin esa qayiqda nimaiki bo'lsa hammasini uloqtirish bilan band edilar. Bundan boshqa chora qolmagan edi. Ikkala miltiq, garpun — nayza, arqon o'ramlari va boshqa narsalar, hatto O'rxon atkichxning tunuka choynagi ham dengizga uloqtirildi. Tyulen tanasini uloqtirish juda mushkul bo'ldi. Suvga bo'kib, og'irlashib, shilimshiq bo'lib qolgan tyulen tanasi sira qo'lga kirmasdi. Uni oyoq tagidan ko'tarib tashlash zarur edi. Mana shu hayvonni deb ular dengiz safariga chiqishgandi, endi esa xuddi shuni tashlab yuborish zarur bo'lib qoldi. Ular baqirganlaricha so'kinib, tor joyda tiqilishib, tyulen tanasini qayiqning chetiga surib kelishga muvaffaq bo'lishdi va niroyat uni dengizga tashlab yuborishdi. Xatto mana shu qiyomat-qoyimda, dengiz quturib turganda ham tyulen tanasidan xoli bo'lgan qayiq yengillashib, o'zini biroz o'nglab olgani sezildi. Ehtimol, xuddi shuning o'zi ularni suvga g'arq bo'lishdan saqlab qolgandir...

• • •

Birinchi bo'lib O'rxon bobo xushiga keldi. U huvul-lab yotgan bo'shliq orasida qayerga kelib qolganlarini, butun atrofni o'rab olib, bo'zrayib toshday qotib turgan bu ruhsiz narsalar nima ekanligini dabdurustdan anglayomadi. Bu tuman edi.

Ha, okeanning hammayog'ini tanho o'zi o'rab, egallab olgan va harakatsiz qotib qolgan bu sukunat Buyuk tuman edi. Buyuk tuman o'zining buyuk qatag'on davrini kechirmoqda edi...

O'rxon boboning ko'zları biroz ko'nikkach, qorong'ilikda qayiqning chetlarini, so'ng odamlarni ko'ra boshladi. Emrayin bilan Milxun o'z joylarida, eshkaklar oldida cho'zilib qolishgandi. Ular tungi olishuvda tinkalari qurib, holdan toyib, o'likday yotishardi. Ular go'yo jangda halok bo'lgan kishilarga o'xshar edilar, faqat o'qtin-o'qtin chiqayotgan xurrak tovushidangina ularning tirik ekanligini bilish mumkin edi. Kirisk bo'lsa cholning oyoq tarafida bochkaga yopishib, g'ujanak bo'lib yotardi. Bola uyqusida zax va sovuqdan qaltri-rardi. O'rxon bobo bolaga achinardi, ammo qo'lidan hech narsa kelmasdi.

Tungi qiyomat-qoyimdan gangib qolgan oqsoqol opopoq sochli boshini quyi solgancha qayiq quyrug'ida o'tirardi. Butun vujudi zirqirab og'rirdi. Uzun sertomir qo'llari qamchiday osilib turardi. O'rxon bobo umrida juda ko'p halo-qazolarni, falokatlarni ko'rgan, ammo u bunaqangi qiyomat-qoyim bilan birinchi marta to'qnash kelishi edi. U hozir qayerda suzib yurishganini, bo'ron ularni qayoqqa surib kelganini, yerdan qancha olislab ketishganligini, haliyam dengizda yurishibdimi yoki okeandami – sira tasavvur qilolmasdi. U hatto hozir qaysi vaqtligini ham bilolmasdi. Borliqni egallagan zim-ziyo tumanda kunduz bilan kechani ajratib bo'lmasdi. Lekin har holda dengiz g'alayoni ertalabga yaqin pasayishini hisobga olganda, hozir kunduzga o'xshardi. Ehtimol, kun qiyomga kelgandir?

O'rxon oqsoqol boshini quyi solishga sabab bor edi. U, mo'jiza bilan tirik qolishganiga xursand bo'lsa-da, baribir ahvol chatoqligini his qilardi. Chunki qayiqda

endi bir juft eshkak va ozrog'i ichilgan bir bochkacha-dagi suvdan boshqa hech vaqo qolmagandi. Qayiqdag'i hamma narsani tashlab yuborishgan. Hatto o'tib keta-yotgan savdogarlardan yuztacha mo'ynaga ayribosh qilib olingen multiqlar ham endi yo'q edi. Ularni oldinda nima kutayotgani ham noma'lum edi.

To'g'ri, eshkakchilar hushiga kelishlari bilan endi nima qilish kerakligini birgalashib o'ylab ko'rishadi. Lekin qay tarafga suzish kerakligini kim biladi deysiz? Bu asosiy masala. Undan keyin tunda, agar havo ochiq bo'lsa, yulduzlarga qarab yo'lni aniqlashga urinib ko'rish kerak. Lekin qancha vaqt suzishga to'g'ri kelar-kin? Qirg'oqni topguncha kuchlari, vaqlari yetarmikin? Manzilga yetguncha bardosh berisharmikin?

Tuman-chi, bu qanaqa tuman o'zi? Dengiz ustida shu qadar qalin, shu qadar uzoq turib qolgan bu qanaqa tuman? Xuddi u bu yerda abadiy o'rnashib olganga o'xshaydi. Nahotki hamma yoq shunday bo'lsa?.. Nahot-ki butun olam shunday tuman orasida qolgan bo'lsa?

Shu mahal oqsoqolning tamaki chekkisi, suv ich-gisi keldi. Tamaki topiladi-yu, mayli, ho'l bo'lsayam, ammo munshtugi qayoqda qoldiykin? Suv-chi? Ovgat-chi? O'rxon bu to'g'rida o'ylashdan ham qo'rqardi. Hozircha chidasa bo'ladi, hozircha hech narsani o'ylamasa bo'ladi...

Dengiz suvi sokin jimirlar, hamma yoq tinchib, huvillab qolgandi. Qayiq turgan joyida sal-pal chay-qalib turardi. Suv uni hech qayoqqa surmas, o'zi ham hech qayoqqa jilmasdi. Eshkaklar o'z holiga tashlab qo'yilgandi. Emrayin bilan Milxunning ahvoli ma'lum - ular shunchalik qattiq charchashgan ediki, eshkaklarni suvdan ko'tarishgayam majollari qolmay, o'likday dong qotishgandi.

Qilt etgan shamol yo'q, butun borliq g'ira-shira qorong'ilikka cho'mgan, harakatdan to'xtab qolgandi. Dengiz harakatsiz, tuman harakatsiz, qayiq harakatsiz edi... qayoqqa shoshishni ham, qayoqqa suzishni ham bilishmasdi...

Oqsoqol g'amga botganicha bukchayib uxlab qoldi. Uni birdan Kiriskning ovozi uyg'otib yubordi.

— Atkichx, atkichx! — deb yulqiladi bola uni. — Suv ichgimiz kelyapti.

O'rxon atkichx seskanib ketdi, uchala qabiladoshi oqsoqoldan izn so'rab turishganini sezdi, hozir eng mushkul ish — suvni avaylab ularshish kerakligini anglatdi...

Tuman hamon qalın va harakatsiz edi. Dengiz hamon sukunat qo'ynda edi.

* * *

Tunning qolgan yarmini tuman ichida asta-sekin suzish bilan o'tkazishdi. Ne maqsadda va qayoqqa suzi-shayotganlarini o'zları ham biliшmasdi.

Odamlar xushlariga kelib, qay ahvolga tushib qolganlarini anglashdi, endi bir joyda turib bo'lmasdi. Shuning uchun ular suzishda davom etdilar. Ehtimol, yerga yaqinlashib, ehtimol, yerdan uzoqlashib borishayotgandir?

Haytovur bir yerda turmay suzyapmiz, harakat qil-yapmiz-ku, deb o'yashardi.

Butun umid havoning ochilib ketishida, tumanning tarqalishida edi. Ana shunda nima qilish kerakligi oy-dinlashardi.

Har holda tuman tarqab ketsa, kechasi osmonda yulduzlar ko'rindi. Bor-yo'q umid faqat yulduzlarda bo'lib qoldi.

Yana bir narsadan umid bor edi — biror orolga duch kelib qolishsa yaxshi bo'lardi-ya. O'shanda mo'ljallab yo'l topish mumkin edi.

Hozircha ular maqsadsiz suzishardi, qayoqqa suzishmasin, tumanga peshvoz borishardi.

Shunga qaramay, O'rxon oqsoqol qayiqni biroz sarishta qilib qo'yish kerakligini aytди. Oyoq ostida suv shaloplamasligi uchun qayiqdagi suvni oxirgi tom-chisigacha tozalashdi. Chol Kiriskni qayiqning quyruq tomoniga, o'zining yoniga o'tqazdi — shunday qilsa, bola tezroq isinib, qurinib olardi. U suvni hammaga teng taqsimladi. Birinchi gal hammaga salkam chorak cho'michdan suv berdi. Bo'ronli kechadan so'ng aqalli bir marta to'yib suv ichib olish kerak edi. Ayni vaqtدا

O'rxon atkichx ogohlantirib qo'ydi: bundan buyon faqat u aytgan paytda va qancha quysa, shuncha suv ichilishinigina uqtirdi. U shu so'zlarni aytarkan, gapining isboti uchun yarmi bo'shab qolgan bochkachani chayqatib qo'ydi.

Kutilmaganda bir narsa ularni juda xursand qilib yubordi. Suv ichish uchun bochkani olishayotganida uning tagida, qayiq quyrug'ining bir burchida qolib ketgan, qoq baliq solingan to'rvani ko'rib qolishdi. Tyulen teri to'rvani safar oldida Milxunning xotini qayiqqa solib qo'ygan edi. Oziq-ovqat solingan katta to'rvani boshqa narsalar bilan dengizga uloqtirishgan, kichkina to'rva esa Kirisk avaylab saqlab o'tirgan bochka tagida yashirinib qolib ketgan ekan. To'g'ri, kichkinagina to'rvaga sho'rtang dengiz suvi to'lib qolgan, o'zi tuzlangan baliq yana beshbattar tuzlanib qolganidan og'izga olib bo'lmasdi. Shunga qaramay, har holda bu oziq edi. Mabodo ichimlik chuchuk suv yetarli bo'lganida, mana shu sho'r baliq ham asqatib qolardi.

Lekin hozircha sho'r baliqni hech kim yemadi, tashnalikni zo'raytiradi, deb qo'rqishdi...

Hamma bir narsani – tuman tarqalishini kutardi...

Hayhotday sukunat va sokin tuman ichida faqat eshkaklarning tirkaklari ma'yus g'iychillagani eshitildi. Buyuk tuman ichida bu g'iychillash adashgan va horigan yo'lovchining: «Bu yer qayer? Bu yer qayer? Qayoqqa yuray?» – deb faryod solayotgan tovushini eslatardi.

Hamma bir narsani – tuman tarqalishini kutardi...

• • •

Ammo tuman tarqamas, tarqalishni xayoliga ham keltirmasdi. Tuman qilt etmasdi. Go'yo quruqlikdan tashqari, yerga aloqasi bo'limgan, rutubatli havodan oluvchi aql bovar qilmaydigan allaqanday maxluq bu yorug' dunyoni – Yerni ham, Osmonni ham, Dengizni ham yutib yuborganday edi...

Tuman og'ushida yana kech kirdi. Kech kirganini faqat atrofda qorong'ilikning yanada quyuqlashganidan

sezish mumkin edi. Osmonda birorta yulduz yo'q, osmonning o'zi ko'rinasdi.

Maqsadsiz, shunchaki qayoqqadir suzish ma'nosiz edi.

Osmonda yulduz ko'riniq qolmasmikin, deya hamma orziqib kutar va umid qilardi. Soat sayin shuni kutishardi. Shamol turib qolishini – mana shu uch qatla la'nati tumanni biror yoqqa haydab yubora oladigan shamol turib qolishini kutganidan mijja qoqishmasdi. Yulduzlarni to'sib turgan ko'kimtir gumbazning ochilishini so'rab osmon ruhiga iltijo qilishardi. Shamollar egasini – seryol, hurpaygan maxluqni uyg'ona qol, deb iltijo qilishardi.

Lekin hammasi behuda edi. Ularning iltijosiga hech kim qulq solmas, tuman ham tarqalay demasdi.

Kirisk ham yulduzlarning chiqishini kutardi. Ilgari uning uchun osmonda o'yinchoqday yaltirab turadigan yulduzlar hozir hammadan ham zarur edi. O'tgan kechasidan beri ko'rgan kulfatlari uni esankiratib, yuragini olib qo'ygandi. Axir bola qalbi nozik bo'ladi, uni bir umrga mayib va majruh qilib qo'yish mumkin. Ammo qayiqda birga bo'lgan uch erkak umumiy o'lim xavfini, safarning xatarli oqibatini, quturgan dengiz ofatini yengishdi-ku! Shuning o'zi bolaning dilida bu gal ham najot yo'li topiladi, degan umid uyg'otardi. Osmonda yulduzlar ko'rinsa bas, boshimizga tushgan azob-uqubatlardan qutulamiz, deb ishonardi bola.

Faqat bu tashvishlar tezroq tugasaydi, tezroq o'z joylariga, yerga. Olapar qoyasiga tezroq yetib borishsaydi. Tezroq, tezroq, tezroq... Axir suvsab, och qolishdi, nihoyatda chanqashdi, nihoyatda ochiqishdi, borgan sayin battar chanqashyapti, borgan sayin ochlikdan sillalari quriyapti. Onasining yoniga, qarindosh-urug'larining yoniga, uylariga, o'choqlari, jilg'alari, o'tloqlariga tezroq borish istagi kuchaygandan-kuchayardi...

Falokatga uchraganlar kechasi bilan jon hovuchlab, havoning ochilishini kutib chiqishdi. Biroq hech nima o'zgarmadi, tuman joyidan siljimadi, osmonga yulduz chiqmadi, dengiz uzra zulmat tarqamadi.

Ular kechasi bilan chanqab, suvsab chiqishdi, zaxlik-

dan, rutubatdan, sovuqdan junjikib turishsa ham, bari-bir tashnaliklari kuchayib horardi. Kirisk faqat men qattiq chanqadim, deb o'ylashi mumkin edi, lekin kattalar ham tashnalik azobini tortayotgan edilar. Ammo bola hammadan ko'ra qattiq chanqayotgan edi. Hammadan ko'ra suv ichishni ko'proq xohlaganidan xijolatga tu-shib, battar azoblanardi.

Oxiri Kiriskning sabr-bardoshi tugab, ozgina suv so'ragan edi, O'rxon oqsoqol bermadi.

— Yo'q, — dedi u qat'iy. — Hozir mumkin emas. Sabr qil.

O'rxon bobo ularni sho'r baliq qanchalik chanqata-yotganligini bilsaydi: kechga yaqin Emrayin, Milxun va Kirisk ochlikdan sillalari qurib, sho'r baliqni bo'lib yeyishgan, chol esa o'zini tiygan edi. Shuning uchun tashnalikdan uchalasining bag'ri yonib ketayotgandi. Sho'r baliq orqasidan suv ichvorishgan bo'lsa ham, baribir, sal o'tmay tashnaliklari battar kuchaydi. Chol esa sho'r baliqni og'ziga ham olmadi, chidadi, suv ham ichmadi, suvni tejadi, biror tomchi og'ziga olmadi. O'sha kuni O'rxon oqsoqoldan boshqalar ikki mahal suv ichishdi. Kechqurun ichganlari juda oz — cho'michga arang yuq bo'lardi. Bochkachaning tagi esa tobora ko'rinish borardi.

Odam chanqab, suv ichgisi kelib, hadeb shuni intiqib kutaversa sabr-toqati battar tugab boraveradi.

Kechasi bilan shunday azob tortib chiqishdi... Tuni bilan dahshatli tuman tarqamadi. Dengiz ham qilt et-madi.

• • •

Ertalab ham jilla o'zgarish bo'lmasdi. Kulrang, qo'ng'ir tusli tumanning bag'ri salgina oqardi, ko'zga tashlanib turgan masofa salgina kengaydi, xo'los. Odamlarning yuz-ko'zları ko'rinish qoldi. Qayiq atrofida bir necha chaqirimgacha simobday qilqillab turgan og'ir, vazmin tuman kumush rangida tuslanib ko'rinaldi. Bunday ko'lmaq singari turib qolgan suvni Kirisk umri bino bo'lib ko'rmagandi.

Qilt etgan shabada, biron-bir o'zgarish yo'q edi.

Ammo shu kuni ertalab bola kattalarning afti angorini ko'rib, hang-u mang bo'lib qoldi. Uchalasi ham shu kunlar ichida cho'pday ozib, soqollari tikanday o'sib, ko'zları kirtayib, o'lish xavfi ostida qolishganday edi. Har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera oladigan otasi ham juda o'zgarib ketibdi. Faqat soqoli qolganga o'xshaydi. Lablari ko'karib, qorayib ketgan. U Kiriskka gapirmsa ham achinib boqardi. Ayniqsa, O'rxon oqsoqol o'zini oldirib qo'ygandi. U yanada bukchaygan, ranglari yanada unniqqan, kekirdagi chiqqan bo'yni yanada cho'zilgan, ko'zları avvalgidan battarroq yoshlangan edi. Faqat ma'noli boqishlaridan uning avvalgi O'rxon oqsoqol ekanligini bilib olish mumkin edi. Uning dono nigohida faqat o'zigagina ayon va o'zigagina tushunarli bo'lgan g'oyat muhim ma'no bor edi.

Kunni eng mushkul ishdan – bir necha qultumdan suv ulashishdan boshlashdi. Suvni O'rxon oqsoqolning o'zi quydi. U bochkachani qultillatib turib, cho'michga jildiratib, oz-ozdan quyar ekan, qo'llari qaltirar edi. Cho'michni birinchi Kiriskka uzatdi. Zo'rg'a chidab turgan bolaning cho'mich chetiga tekkan tishlari taqillab, suvni birpasda ichib qo'ysi. Faqat bir zumgina tashnaligi qondi, xolos. Tomog'ini namlashi bilan ichidagi o'tga suv sepilganday bo'ldi-yu, lekin cho'michni qaytarib berishi bilan yana yurak-bag'ri yonib, boshi aylana boshladidi. Go'yo ichidagi vahshiy hayvonning g'azabini qo'zg'atganday bo'ldi. Keyin Milxun, so'ng Emrayin ichdi. Ularning suv ichishlariga qarab, bola dahshatga tushdi. Titrigan qo'llari bilan cho'michni changallab, ichib bo'lib qaytarishar ekan, O'rxonning yuziga qarashmasdi. Go'yo suvning kam qolganiga u aybdorday edi. Oqsoqol o'ziga navbat kelganida, bir tomchiyam quymadi, indamay bochkachaning tinqinini yopib qo'ysi. Bu holdan Kirisk hang-u mang bo'lib qoldi. Agar bochkacha uning qo'lida bo'lganida edi, o'ziga cho'michni to'ldirib quyib olgan bo'lardi, ichib bo'lib yana quyardi, yana, yana ichaverardi... to yiqilib qolmaguncha ichardi. Aqalli bir marta to'yguncha

ichsin. Keyin nima bo'lsa bo'lar. O'rxon oqsoqol esa o'ziga tegishli suvni ham ichmadi. Cho'michning tagida qolgan ozgina suvdan ham bosh tortdi.

– Nega unday qilding, atkichx? Hamma qatori o'zinggayam quyda! – dedi chidab turolmagan Emrayin o'zini zo'r lab, xirillab gapirarkan. – Kechayam ichmading. Kemaga tushganning joni bir, o'lsak hammamiz birga o'lamiz!

– Hechqisi yo'q, – parvo qilmadi O'rxon bobo.

– Yo'q bunaqada bo'lmaydi! – ovozini balandlatdi Emrayin va jahl bilan qo'shib qo'ydi: – Unday bo'lsa men ham ichmayman!

– Ichadigan narsaning o'zi yo'q! Gapirishga ne hojat! – O'rxon «yosh bolamisanlar», deganday miyig'ida kulib qo'ydi. So'ng boshini sarak-sarak qilib, bochkachaning tiqinini ochdi, bir-ikki qultum suv quyib bolaga uzatdi. – Mayli, o'rnimga Kirisk icha qolsin.

Bola xayron bo'lib qoldi. Hamma jim edi. O'rxon buva esa cho'michni bolaga uzatarkan:

– Ol, Kirisk, ichaver. O'ylab o'tirma! – dedi.

Kirisk indamadi.

– Ichaver! – dedi Milxun.

– Ichaver! – dedi Emrayin.

– Ichaver! – dedi O'rxon bobo.

Kirisk ikkilanib qoldi. Mana shu bir necha qultum suvni shartta ichgisi kelib, ichi yonib, o'lar holga kelsayam indamadi.

– Yo'q! – dedi u bag'rini yondirayotgan tashnalik istagini arang yengib. – Yo'q, atkichx, o'zingiz ichaving, – shu tobda boshi aylanib, ko'zi tinib ketdi.

Bu so'zlardan O'rxon boboning qo'llari qaltiradi, chuqur xo'rsindi. Nigohi mayinlashib, bolaga mehr bilan boqdi.

– Men umrimda juda ko'p, oh, juda ko'p suvlarni ichganman.

Sen-chi, hali... ko'p yashashing kerak, – u gapping oxirini ichiga yutdi. – Gaplarimni tushundingmi, Kirisk? Ichaver, ha, shunday bo'lsin, sen ichishing kerak, mendan xavotir olma. Ma, ushlai!

Bola bu gal ham necha qultum suvni yutib, bir zum tashnaligi qonganday, ichidagi hovuri biroz so'nganday, ahvoli sal yengillashganday bo'ldi. Bu gal og'zida suvning nordon ta'mi qoldi. Lekin hozir buning ahamiyati yo'q, har qalay chuchuk suv-ku. Chuchuk suv esa tugab borardi...

– Endi nima qilamiz? – dedi O'rxon oqsoqol qabiladoshlariga o'girilib qarar ekan. – Suzaveramizmi?

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Hammalari atrofga ko'z tashlashди. Lekin quyuq tumanda ikki chaqirimdan narini ko'rib bo'lmasdi.

– Qayoqqa suzamiz? – xo'rsinib, jimlikni buzdi Emrayin.

– Qayoqqa deganing nimasi? – negadir kutilmaganda Milxunning jahli chiqdi. – Suzaveramiz. Ha, bir joyda turib qolgandan ko'ra suzganimiz yaxshi.

– Suzdik nima-yu, suzmadik nimal – uning so'zini bo'ldi Emrayin. – Bunaqa tumanda qayoqqa suzsang ham baribir, foydasi yo'q!

– Tupurdim tumaningga! – Battar xunobi oshdi Milxunning.

Sening tuman-pumaning bilan nima ishim bor? Tushundingmi? Suzsak suzaylik, bo'lmasa manavi la'nati qayig'ingning oyog'ini osmondan keltirib, asfalasofilinga jo'nataylik-da, so'ng baliqlarga yem bo'laylik! Tushundingmi, Soqol? Suzsak suzaylik! A, to'g'rimi?

Kirisk g'alati bo'lib ketdi. U Milxun amakisining yengiltakligidan xijolatga tushdi. Milxun bunaqa baqrimasligi kerak edi, haytovur u otasidan yosh edi. Unga bir balo bo'lganga o'xshaydi. Yoki bir qayiqdagagi nivxlar deb atalgan to'pga qandaydir darz ketdimi, nima balo? Hamma jim bo'lib qoldi. Emrayin boshini quyi soldi. O'rxon bobo esa chetga qaragancha o'tirar, yuzi xuddi borliqni qurshab olgan tumanga o'xhash sirli edi.

– O'zingni bos, Milxun, – dedi nihoyat Emrayin. – Shunchaki gap kelganda aytdim-qo'ydim-da. Bir joyda turgandan ko'ra suzgan yaxshi albatta. To'g'ri gapirding, qani ketdik...

Ular yana joylaridan qo'zg'alishdi. Yana tirkaklar g'iychillab, yana eshkaklar suvni shaloplatib, ko'tarilib

tusha boshladi. Lekin odamlarning nazarida qayiq silji-mayotganday, bir joyda turganday edi. Qayergacha suzishsa ham baribir butun atrofni quyuq tuman bosgan edi, go'yo sehr-joduli doiraga tushib qolgan edilar. Xuddi shu narsa Milxunning yana xunobini chiqardi.

— Sening manavi tumaningga tupurdim, eshitypsanmi, ey sersoqol Emrayin! — U darg'azab bo'lib javray ketdi. — Tezroq haydaylik qayiqni! Men shuni istayapman! Tezroq qimirla, hoy Soqol, uxlama, eshityps-sanmi? Tupurdim tumaningga!

Milxun javrar ekan, eshkakni yanada keskinroq esha boshladi.

— Qani, bo'l tez! Bo'l tez, deyapman! — deya qistadi u.

Emrayin bu gal Milxunning jahlini chiqarmaslik uchun indamadi.

Aksincha, uning ovsarona «o'yiniga» qo'shilganday tez eshkak esha boshladi.

Qayiqning tezligi osha boshladi. U tuman ichida tavakkaliga goh u tomonga, goh bu tomonga jadal suzar, ammo qayoqqa borishyotganini hech kim bilmasdi. Milxun bilan Emrayin esa telbalarcha harakat qilib, jon achchig'ida eshkak eshishar, go'yo tumanni quvib yetib, cheksiz chegarasidan chiqib ketishga uringanday, shafqatsiz bir jazava bilan harakat qilishiardi.

Eshkaklarning kuraklari qiyalab suv sачhratib, teztez ko'tarilib tushar, qayiq tashqarisida suv shovullardi; ovchilarning tuklari hurpaygan, ter bosgan yuzlari goh pastga, goh balandga ko'tarilar, ular eshkakni suvdan olayotganda yiqilguday gavdalarini oldinga tashlashar, eshkakni suvga tirashgandan keyin zo'r berib o'zlarini orqaga tashlar edilar...

Ular h-ha, deb nafas olib, h-ha, deb nafas chiqarishar edi; h-ha... H-ha... H-ha... H-ha... H-ha... H-ha... H-ha...

Oldinda — tuman, orqada — tuman, butun borliqni tuman qoplagan edi.

— Xana, xana¹! — ko'zлari yonib, baqirib, hammani tezlashga undardi Milxun.

¹ Xana — qani, bo'l tezroq ma'nosida.

Avvaliga Kirisk harakat tezlashganidan quvonib ketdi, ammo keyin bu harakatlarning hammasi behuda ekanligini tushunib dahshatga tushdi. Bola tahlika ostida O'rxon oqsoqolga qaradi, nazarida hozir chol bu bema'ni poygani to'xtatishi kerak edi. Ammo oqsoqol o'ychan ko'zlarini atrofga tikkanicha, hamma narsaga parvoysi falak o'tirardi. Chol yig'layaptimi yoki ko'zlarini o'zi yoshlanib turadimi, biliб bo'lmas, yuzi namlangan edi.

Qayiq esa tuman qo'ynida qayoqqa borayotganini ham, nima uchun borayotganini ham bilmay, sarson-sargardon turardi.

— Xana, xanal! — jonholatdagi baqiriq atrofga taralardi tuman ichida. — Xana, xana!

Uzoq vaqtgacha shu ahvol davom etdi. Ammo esh-kakchilar holdan toyib, qayiq sekinlasha boshladi. Ular hansirashib, bo'g'riqib, eshkaklarni o'z holiga tashlab qo'yishdi. Milxun boshini ko'tarolmadi.

Achchiq haqiqatni shu taxlit anglab yetishdi. Ular tumandan o'zib ketisholmadi, tuman chegarasidan chiqib ketisholmadi; hamma narsa avvalgiday: hamon ovchilar avvalgiday xavfli, omonat dengiz to'lqinlarida yurishibdi, hamon oldinda nima kutayotgani noaniq, hamon borliqni quyuq zulmat chulg'ab olgan. Faqat shiddat bilan ketayotgan qayiq yana allaqancha joygacha suzib bordi-da, oxiri bir yerda aylanib to'xtab qoldi...

Shunaqa oshiqib haydashning nima keragi bor edi? Bu bilan biron narsaga erishishdimi? Nima foyda ko'rishdi? Mabodo bir joyda turishganida nima bo'lardi? Albatta, hech narsa bo'lmasdi.

Qayiqdagagi har bir odam chamasi shular haqida o'ylar edi. Shu payt O'rxon oqsoqol tilga kirdi:

— Endi qulq solinglar, — dedi u vazminlik bilan, chamasi o'zini koyitmaslikka harakat qilib, chunki u ikki kundan beri hech nima yemadi ham, ichmadi ham. — Ehtimol, bu tuman hali-beri tarqamas. Odadta shunday yillar, shunday voqealar bo'lib turadi. Buni o'zlarining ham bilasiz, dengiz ustida tuman yetti, sakiz kunlab, ba'zida o'n kunlab turib qoladi. Muddati

kelmaguncha kasal tuzalmas, deganlariday tuman dengiz ustidan jilmay qoladi. Bu muddat qachon keladi, buni hech kim bilolmaydi. Agar bu tuman ham shuning singari tez orada tarqamaydiganlaridan bo'lsa, unda holimiz ne kechadi? Qoq baliq ham juda oz qoldi, suv bo'limgandan keyin, uning kimga ham hojati bor. Suvimiz bo'lsa, mana! – chol shunday deb, bochkachani chayqatdi. Chamasi, bochkacha tagida bir, bir yarim hovuch suv qolgan edi, xolos.

Hech kimdan sado chiqmadi. Chol ham jimib qoldi. Uning nima demoqchi ekanligini hamma tushunib turardi: bundan buyog'iga kuniga faqat bir marta, o'shandayam cho'michning yuqini ichish kerak. Shunday qilganda iloji boricha uzoq chidash, tuman balosini yengish, unga bardosh berish mumkin, deb o'ylashardi. Havo ochilib, yulduzlar chiqib yo quyosh charaqlab ketsa marra bizniki, deb o'yashardi. Zora baxtlari chopib, havo ochilib ketsa, zora yergacha yetib olishsa!

Aslida ham shunday qilmasa bo'lmashdi. Boshqa ilojlari yo'q edi ham! Lekin aytishga oson – odam qachongacha chidashi mumkin? Goho uydagiga gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi, xayol boshqa, hayot boshqa deganday. Azobda qolgan barcha odamlar hoziroq suv ichishni, cho'mich yuqidamas, to'yib, qonib ichishni xohlar edilar.

Bu mudhish ahvoldan qutulish mushkulligini O'rxon bobo tushunardi va shuning uchun ham u boshqalardan ko'ra ko'proq iztirob chekardi. Chol hammaning ko'zi oldida qurib, so'lib borardi. Ikki bir dardning zo'rligidan qat-qat ajin bosgan yuzi qorayib, battar burishib borardi. Yoshlanib turgan ko'zlarida zo'riqish va sarosimalik alomatlari aks etardi – bunday iztiroblarga bardosh berish chol uchun juda og'ir edi. Lekin qurib qolgan daraxtni faqat tomiri zo'rg'a tutib turganday chol o'zini oxirigacha mardona tutardi. Ammo bu hol uzoq davom etishi mumkin emasdi. Odamlarning falokatdan qutulib qolishi uchun zarracha ahamiyatli bo'lgan gapni ham aytib qolish kerak edi.

– O'yashimcha, – so'zida davom etdi O'rxon oq-

soqol. — Har lahma diqqat bilan atrofga nazar tashlab, havodan ko'z uzmay turish kerak — to'satdan agukuk¹ o'tib qolishi mumkin. Bunday tuman paytida dengiz ustidan faqat agukuk uchib o'ta oladi. Mabodo, biz biror orol bilan yerning oralig'ida qolgan bo'lsak, qushning uchishidan yo'lni bilib olishimiz mumkin. Qanday qush bo'lsa ham dengiz ustidan faqat to'g'riga qarab uchadi. Agukuk ham xuddi shunday.

— Mabodo biz orol bilan yerning oralig'ida bo'lmasakchi? — g'amgin so'radi Milxun, hamon boshini quyi solganicha.

— Unda yerni ko'rolmaymiz, — dedi bosiqlik bilan O'rxon bobo.

Kirisk aniqlashga intildi. Nega endi agukuk dengiz tepasidan uchadi? Bunaqa olis joydan uchish qushga zarur keptimi? Ammo undan avval xuddi shu fikrni Milxun aytib qoldi.

— Mabodo agukuk bizning tepamizdan uchib o'tishni unutib, boshqa tomondan uchib o'tishni xohlab qolgan bo'lsa-chi, atkichx? Unda nima qilamiz? — dedi u ma'yuslanib, istehzo bilan.

— Unda yerni ko'rolmaymiz, — dedi yana bamaylixotir O'rxon bobo.

— Demak, ko'rolmaymiz! — hayron bo'lib g'azablandi Milxun. — Unaqasigayam, bunaqasigayam ko'rolmas ekanmiz-da! Unday bo'lsa biz bu yerda nega o'tiribmiz? — g'azabi toshib g'o'ladiradi u va birdan qah-qah urib kulib yubordi, so'ng yana dami ichiga tushib ketdi. Hammaning yuragi orqasiga tortib ketdi. Nima qilishni bilmay, sukul saqlar edilar.

Shu orada Milxunning boshiga bir fikr kelib qoldi. U kafti bilan eshkakning tagiga bir urib, tirgagidan chiqarib yubordi. Keyin nima uchundir qayiqning burniga chiqib, qaddini g'oz tutib, eshkakni langar qilib turib oldi. Hech kim unga hech narsa demadi. U ham hech kimga e'tibor bermadi.

— Ey, qanjiq! — g'azab bilan baqirdi u eshkakni

¹ Agukuk — qutb boyqushi.

ko'targanicha tuman zulmati tomonga tahdid solib. – Ey, shamollar Shomoni! Eshityapsanmi? Agar sen qanjiq itning o'ligi bo'lmay, shamollarning egasi bo'lsang, qani sening shamollaring! Yoki iningda o'lib qoldingmi, qanjiq?! Yo seni har tarafdan ayg'irlar o'rab olgan bo'lsa, qay biriga orqa o'girishni bilmay qoldingmi? Hammasi-ga bir-bir orqa o'girib, chaqishib qoldingmi? Shuning uchun ham shamol ko'tarishga qurbing yetmayaptimi? Yoki bo'lmasa biz bu yerda, o'raning ichiga tushib qolgandek tuman ichida, halokat ostida qolib ketganimizni bilmaysanmi, qanjiq? Yo oramizda yosh bola borligini bilmaysanmi? Bolaning suv ichgisi kelyapti, suv, tushunyapsanmi? Senga aytyapman, oramizda yosh bola bor, u birinchi marta dengizga chiqqan! – Senchi, sen bo'lsang bizlardan qasdingni olyapsan. Axir, bu nomardlik-ku! Agar sen tyulen tezagi bo'lmay, shamollar egasi bo'lsang, javob ber! Shamollaringni yubor! Eshityapsanmi? Tumanlaringni dumingga qistirib olib ket! Eshityapsanmi aytganlarimni? Bo'roningni yubor, qanjiq, eng dahshatli bo'roning – Tlangilani yubor, qanjiq, senga aytyapman! Mayli, bo'ron qayig'imizni ag'darsin, to'lqinlarga g'arq bo'lib ketaylik, iflos, qanjiq! Eshityapsanmi, senga aytyapman! Tuf senga, ablah! Pahmoq soqolingga tupurdim! Agar shamollarning egasi bo'lsang, bo'roningni yubor, bizni dengizga cho'ktir, agar shunday qilmasang, g'irt qanjiq ekansan! Men ham ayg'irman, yana bitta ayg'ir. Faqat men seni... istamayman, mana senga, mana senga, mana, mana, kesib ol, mana, kesib ol deyapman, ol!

Milxun shamollar Shomonini mana shunday shaloq so'zlar bilan so'ka boshladi. Allaqayoqlarga berkinib olgan Shomon o'zining qo'l ostidagi shamollarni qayoqlar-gadir berkitib tashlaganga o'xshardi. Milxun shu tarzda yana ancha mahalgacha tomog'i xirillab, holdan toyguncha shamollar xo'jasini ham tahqirlab, ham haqoratlab, yana yalinib qichqirardi.

So'ng u eshkakni zarb bilan dengizga uloqtirib yubordi, o'zining doimiy o'rniga kelib o'tirdi va yuzini qo'llari bilan to'sib, ho'ngrab, o'kirib yig'lab yubordi.

Hamma chorasisiz jim qotgan edi, Milxun bo'lsa hiqillab yig'lab, kenjatoylarining nomini aytib baqirardi. Erkak kishining yig'laganini ilgari ko'rmangan va qo'rquvdan titrab-qaqshab o'tirgan Kirisk esa ko'zlarida yosh O'rxon boboga murojaat qildi:

— Atkichx! O, atkichx!.. U nega bunday qiladi? Nega yig'layapti?

— Qo'rhma, — tasalli berdi chol bolaning qo'llarini mahkam qisib.

— Hozir o'tib ketadi. Hozir bas qiladi. Sen buni o'ylama. Buning senga daxli yo'q. Hozir o'tib ketadi.

Chindan ham Milxun asta-sekin tinchib qoldi. Lekin hamon qo'llarini yuzidan olmas, hamon yelka�ari silkinib, xo'rsinib-xo'rsinib qo'yardi. Emrayin qayiqni suvda qalqib yurgan eshkak tomon ohista yaqinlashtirdi, uni olib, yana joyiga, tirgagiga o'rnatib qo'ydi.

— O'zingni bos, uka, — dedi u Milxunni yupatib. — Gaping to'g'ri, tumanda azob tortgandan bo'ronda qolgan afzal. Lekin hali biroz sabr qilib turaylik. Balki havo ochilib ketar. Ilojimiz qancha...

Milxun javob bermadi, uning boshi tobora egilib borar, oldiga qarashga qo'rqaqidan jinniday bukchayib olgandi.

Tuman esa hamon pinagini buzmas, okean uzra muallaq turib qolgan, olam dong qotib qolgan buyuk bir zulmat ichida yo'qolgan edi. Qilt etgan shamol, biron-bir o'zgarish yo'q edi. Milxun shamollar Shomoni-ga qanchalar yalinib-yolvorib, uni qanchalar qarg'ab, haqorat qilgan bo'lsa ham u parvo qilmas, go'yo ko'r va karday edi. Shamollar egasining jahliyam chiqmas, qimir ham etmas, bo'ronniyam chaqirmsa edi...

Emrayin bir joyda turib qolmaslik uchun o'zining oldidagi bir juft eshkakni eshib turar, qayiq sirpanganday, sezilar-sezilmas jilib borardi. O'rxon indamas, u o'z o'ylariga g'arq bo'lgandi, ehtimol, u yana, ehtimol, oxirgi marta o'zining Suv parisini o'ylayotgandir?

Qariyaning noxush o'ylarini Kirisk bo'lib yubordi.

— Atkichx, atkichx, agukuklar nega orollarga qarab uchishadi? — ohista so'radi u.

— Darvoqe, shuni aytish esimdan chiqibdi. Bunday

qalin tuman tushgan vaqtarda dengiz ustida faqat agukuklari ucha olishadi. U orollarga o'lja axtarib boradi, goho tyulenning jajji bolasini olib qochadi. Agukuklarning ko'zi shunaqangi o'tkirki, u tundayam, yarim kechadayam xuddi kunduzgiday ko'raveradi. Shuning uchun ham uni boyo'g'li deyishadi-da. Agukuk eng kuchlisi va eng kattasi bo'ladi.

— Qaniydi meniyam ko'zim o'shanaqa bo'lsa, — lablari quruqshab shivirlardi Kirisk. — Hozir, shu topda qaysi tarafga suzish kerakligini bilib olardim, keyin yerga tezda yetib olardik-da, rosa suv ichardik, ichaverardik... Meniyam shunaqangi ko'zim bo'lganidaydi...

— Eh, — xo'rsindi bobo, — har kimsaning faqat o'z ko'zi bor.

Yana oraga jimlik cho'kdi. Ancha vaqtdan keyin O'rxon oqsoqol haligi subbatni davom ettirganday, bolanling yuziga qarab gapirdi:

— Hammadan ham senga qiyin bo'ldi, to'g'rimi? Lekin sen sabr qil. Shu qiyinchilikka bardosh bersang, ulug' ovchi bo'lsan. Sabr qil, qarog'im, suvni o'ylama, boshqa narsalarni o'ylagin. Suvni o'ylama.

Kirisk bu gappa ko'nib, suvni o'yamaslikka tirishdi. Biroq foydasi bo'lmadi. U harchand suvni o'ylamslikka urinsayam, battar tashnaligi kuchayib borardi. Ochlik ham qiyndi. Ochlikdan ko'ngli ozib, ko'zi tina boshladi. Ko'ngli ozganidan, u ham Milxunga o'xshab, dunyoni boshiga ko'tarib baqirgisi kelardi.

Bu kun shu tariqa o'tdi. Har lahza havo ochilishini kutishdi, olisdan to'lqinlar shovqini eshitilib, shabada qo'zg'alib, tumanni olamning narigi chekkasiga haydar ketarmikin, yo'limiz ochilarmikin, deb har doim umidvor bo'lishdi. Ammo dengiz uzra odamni yutib yuborgudek jimjitlik, balo-qazoday sukunat hukmron edi. Har zamon, har lahza cheksiz tashnalik kuchayganidan odamlarning ko'zları tinib, boshlari aylana boshladi. Bu juda dahshatli edi: cheksiz okean o'rtasida turib, bir tomchi suvg'a zor edilar.

Kech kirganda Milxunning ahvoli yana og'irlashdi. U butunlay gapirmas, ko'zlarida hech qanday ma'no

yo'q edi. Tomog'ini ho'llab olsin deb unga jindak-kina suv quyib berishdi. Kiriskning cho'michga qarab mo'l tirab turganini ko'rib, O'rxon bobo ungayam ozgina suv quyib berishdan o'zini tiyolmadi. Keyin Em-rayingayam quyishga to'g'ri keldi. O'zi esa biror tomchi ichmadi. O'rxon bobo ozgina suvi qolgan bochkachani o'rindiq ostiga qo'ygach, uzoq vaqtgacha qimir etmay o'tirib qoldi. Bu safar uning boqishlari o'tkir va tiniq, endi bu dunyoning ikir-chikirlariga aloqasi bo'l magan yuksak o'ylarga sho'ng'iganicha o'tirardi; hech qanaqa tashnalikni, hech qanaqa boshqa biror-bir narsani sezmas, o'ylamas edi. Go'yo yolg'iz lochin qoyada qo'nib turganday, u qayiq oldida jim, viqor bilan o'tirardi. U bundan buyon nima qilishini bilar, shuning uchun oxirgi lahzalarda, umrida qiladigan oxirgi ishi oldidan qolgan bor kuchini, irodasini jamlab olgandi. Avji shu tobda tamaki trubkasi yetishmasdi. Chol oxirgi marta Suv parisi to'g'risida o'ylab, tamaki tutatmoqchi edi...

Qayda suzib yurarsan, ey, Buyuk Ona baliq?

O'rxon o'zining kimligini bilar, so'nggi bo'sag'a oldida o'zining qanchalik kuch-quvvatga, qadr-qimmatga ega ekanligini yaxshi his qilardi. Faqat birgina narsa, u ham bo'lsa sovuqdan ko'karib ketgan Kiriskning keyingi kunlarda hadeb cholning pinjiga yopishib olib, uning himoyasiga, g'amxo'rligiga muhtojligi O'rxonning o'ylagan xayollarini amalga oshirishdan tiyib turardi. U bolaga ich-ichidan achinardi. Ammo xuddi faqat bola uchungina shunday qilishi zarur edi...

O'rxon oqsoqol umrining juda uzoqqa cho'zilgan, g'am-g'ussaga to'lib-toshgan oxirgi ko'ngilsiz kuni shunday o'tdi...

Oqshom cho'kdi. Yana bir tun boshlandi.

Lekin bu tun ham ob-havo zarracha o'zgarmadi. Dengiz ustidagi tuman avvalgiday parvoysi falak, dong qotib qolgandi. Borliqni yana bo'g'iq oqshom zulmati bosdi. Ketidan aql bovar qilmaydigan darajada uzun, chidab bo'lmas darajada qorong'i, dahshatli tun boshlandi. Lekin qaniydi tun oralig'ida shamol tursa, mayli,

bo'ron tursa, to'fon bo'lqa ham mayliydi, ishqilib, havo ochilib, osmonda yulduzlar ko'rina qolsal. Lekin tunda zarracha o'zgarish alomati, suvda birorta to'lqin, havoda birorta epkin yo'q edi – borliq cheksiz sukunatga, cheksiz zulmatga chulg'angan edi. Cheksiz zulmat qo'ynida adashib qolgan yolg'iz qayiq va undagi azob-uqubatdan, ochlikdan, tashnalikdan tinka-madori qurigan odamlar tuman ichida pista po'chog'iday bir joyda aylanishar, noma'lum qismat va umidsizlik changalidan chiqolmas edilar...

Kirisk qachon uqlab qolganini eslayolmadi. Ammo uyqu elitguncha chidab bo'lmas tashnalikdan ko'ngli ozib, uzoq azoblandi. Nazarida uni tirik o'lik ahvoliga solib qo'ygan tashnalik azoblarining so'ngi yo'q edi. Faqat suv bo'lqa bas – boshqa hech narsa kerak emas! Ochlik azobi borgan sari ich-ichiga singib, xiralashib, yo'qolib, sezilmay ketgandi, tashnalik azobi esa, aksincha, tobora yurak-bag'rini o'rtab, tobora kuchayib borardi. Tashnalik azobini hech narsa bilan yengib bo'lmasdi.

Kirisk go'daklik chog'larida bir marta og'ir kasal bo'lib, isitmada kuyib yonib yotganida ham shunaqa ahvolga tushgani, ichi yonib, suv so'ragani yodiga tushdi. Onasi qoshidan bir qadam ham jilmay, parvona bo'lib, yonib turgan peshonasiga ho'l latta bosib, hech kimga bildirmay yig'lab olar va allanimalar deb shivirlar edi. Shamchiroqning g'ira-shira shu'lasida onasining tashvishli yuzi arang ko'rinaldi. Otasi yo'q, u dengizga, ovga ketgandi. O'shanda Kirisk faqat suv ichishni va otasining tezroq kelishini xohlardi. Ammo ikkala istagi ham amalga oshmasdi. Otasi uzoqda edi, onasi bo'lqa suv ichirmsadi. Suv ichishing aslo mumkin emas, deyardi u. Onasi bolaning qaqragan lablariga ho'l latta bosar, ammo bu tashnalikni faqat bir lahzaga qondirardi, xolos. Sal o'tmay, yana tashnalik kuchayib, chidab bo'lmas qiyonoqqa solardi.

Onasi yalinib-yolvorib, uni suv ichishdan tiyar edi. Tashnalikka chidasang, kasallik sendan qochadi, deb tushuntirardi.

— Chidab tur, jonio! — derdi u. — Ertalabgacha yaxshi bo'lib qolasan. Ichingda: «Ko'k sichqoncha, suv bergen», deb qaytaraver. Ana, o'zing ko'rasan yaxshi bo'lib qolganingni. So'ra, jonio, ko'k sichqondan suv so'ra, sichqon albatta yugurib keladi, albatta senga suv beradi... Faqat yaxshilab so'ra...

Shu kecha, bola tashnalik bilan olishib, duo o'qib chiqdi, ko'k sichqon yugurib kelishini, suv keltirishini kutdi. U tinmay shivirlab, ko'k sichqonga yalinib-yolvordi: «Ko'k sichqon, suv bergen! Ko'k sichqon, suv bergen!» Butun tun alangayi otash bo'lib ahalsirab chiqdi. Hamon: «Ko'k sichqoncha, suv bergen!». Ko'k sichqon tezda kela qolmasdi. U ham: «ko'k sichqoncha suv bergen!» — deb yig'lab yalvorishni qo'yemasdi. Ni-hoyat ko'k sichqon yugurib keldi. Ko'k sichqon salqin o'rmonda jilg'a uzra choshgoh paytida g'ir-g'ir esadigan sarin yelday yoqimli va elas-elas ko'rinaldi. Uni ko'rish qiyin, u tiniq osmonday ko'm-ko'k, kapalakday uchqur, tutqich bermas edi. Ko'k sichqon kapalakday uchib, yumshoq yungini bolaning yuziga, bo'yniga, badanlariga tegizib, huzur baxsh etardi. Chamasi, ko'k sichqon Kiriskka suv berdi shekilli, u huzur qilib, uzoq vaqt, to'ygunicha ichaverdi; suv esa kelaverdi, kelaverdi, vaqrlab toshdi, uni boshigacha ko'mib yubordi...

U ertasiga joni orom topib, garchi o'zini ancha oldirib qo'ygan bo'lsa ham ruhi ancha tetik bo'lib turdi. Shundan keyin bola suv beruvchi sichqonni, o'sha kechasi, jon talvasasida yotganda suv keltirib uni sog'aytirgan ko'k sichqonni uzoq vaqtgacha xotiridan chiqarmadi...

Mana, hozir ham, bola qayiqda tashnalikdan ichi kuyib-yonib borarkan, o'sha ko'k sichqonni esladi. Qaniydi o'sha ko'k sichqon yana paydo bo'lib qolsa! Shu zahoti bola yurakni zirqiratuvchi bir sog'inch va dard bilan onasini esladi, og'ir damlarda joniga ora kirib, tashnalikdan xalos etuvchi o'sha ko'k sichqonni yodiga solgan onasini esladi. U ahvoli og'irlashib, nafas ololmay qolgan paytida qoshida tonggacha o'tirib chiqqan onasini eslab o'kindi. O'sha paytda bola atrofida parvona

bo'lib jon-u jahonini berishga tayyor turgan onasining qalbi qanchalar mehr-muhabbatga va dard-alamga to'lib-toshganligini aytmaysizmi. Hozir onasining ahvoli ne kechdiykin? Dengiz bo'yiga kelib, ularni kutayotgandir, yig'lab bo'zlayotgandir?.. Dengiz esa baribir unga hech narsa aytolmaydi. Hech kim unga yordam berolmaydi, hech kim dardini aritolmaydi. Faqat ayollar bilan bolalargina hanuzgacha Olapar qoyasining yonbag'irlarida gulxan yoqib, onasiga dalda berishayotgandir? Shoyad, to'satdan baxt kulib boqsa, shoyad dengizda dom-darak-siz ketganlar birdaniga qirg'oqda paydo bo'lib qolishsa, deb onasini yupatishayotgandir?

Bular esa qayiqda zim-ziyo zulmat ichida giryon kezishar, tungi tuman qo'ynidan xalos bo'lishga intilib, so'nggi umidlari ham asta-sekin tugab borardi. Yo'q, bu olishuvda kuchlar aslo teng emasdi – bir yoqda mangu zulmat, olam yaralganidan beri mavjud bo'lgan, Quyosh yaralishidan ham avval mavjud bo'lgan mangu zulmat: ikkinchi yoqda – shalog'i chiqqan qayiqda tuman qurshovida qolgan to'rt odam... Okean o'rtasida suvsiz, oziqsiz, yo'lchi yulduzlarsiz, zim-ziyo zulmatda qolgan to'rt odam...

Kirisk umri bino bo'lib, bunaqa zim-ziyo zulmatni ko'rmagandi, tashnalik azobi shunchalik ayovsiz bo'lishini tasavvur qilmagandi. Hushini yo'qotib qo'ymaslik uchun u suv keltiruvchi ko'k sichqon to'g'risida, qachonlardir suv berib shifo berib uni o'limdan qutqazib qolgan ko'k sichqon haqida o'ylay boshladi...

«Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!» – onasi o'rgatgan mana shu ajoyib so'zni bola tinmay takrorlay boshladi: «Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!» Garchi hech qanday mo'jiza yuz bermasa ham bola hadeb yalinib-yolvorib ko'k sichqonni chaqiraverdi. Endi bu – bolaning umid ishonchi va tashnalikka qarshi birdan-bir chorasi bo'lib goldi...

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Kirisk hadeb shu so'zlarni takrorlar ekan, tashnaligini o'ylamaslikka urinib goh mudrar, goh uyg'onib ketardi. Shu vaqt bola bexosdan O'rxon bobo bilan Emrayin-

ning uzuq-yuluq gaplarini eshitib, uyg'onib ketdi. Ular nimanidir shivirlashib, uzoq muhokama qilishardi. Bola cholning biqiniga qapishib o'tirgani uchun uning gaplari aniqroq eshitardi. Otasingin gaplari esa unchalik qulog'iga chalinmasdi – u nariroqda, eshkaklari oldida o'tirardi. O'rxon bobo og'ir nafas olib, tomog'i xirillaganicha zo'rg'a gapirar edi.

– Mening senga aql o'rgatadigan joyim yo'q, lekin o'zing o'ylab ko'r, atkichx – dedi qizg'in shivirlab Emrayin, boshqalar eshitmasin deganday. – O'zing aqlli odamsan-ku.

– O'yladim, obdan o'yladim, shuni ma'qul ko'rdim, – javob berdi. O'rxon bobo, chamasi, o'zining gapini ma'qullab.

Ular bir nafas jim qolishdi. So'ng Emrayin gap boshladi:

– Kemaga tushganning joni bir, hammamizning taqdirimiz bir.

– Taqdir, taqdir, – alam bilan g'o'ladiradi O'rxon bobo. – Taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi, bilaman buni, – nafasi qisilib, xirillaganicha gapirdi chol. – Shuning uchun ham uni taqdir deyishadi-da. Xohlaysanmi, xohlamaysanmi, taqdirning bu bilan ishi yo'q. Oqibati shunday bo'lгach, taqdir bilan bahslashishning nima keragi bor. Hech bo'lmasa, bирontamiz омон qolaylik. O'zing o'yla, birdan yo'llar ochilib ketsa, yer ham ko'rinish qolsa, manzilni ko'zlab jon-jahding bilan borayotganingda, bir-ikki tomchi suv yetmagani uchun hamma halok bo'lsa – alam qilmaydimi?

Emrayin bunga javoban nimagir dedi, yana jimib qolishdi.

Kirisk uxlashga urinib, hadeb ko'k sichqonni chariraverdi. Nazarida, u uxlab qolsa ko'k sichqon keladi-ganday edi... Biroq uyqusи kelmadi...

Ko'k sichqoncha, suwingdan ber!

- Milxunning ahvoli qalay? – so'radi O'rxon bobo.
- Avvalgiday, xushsiz yotibdi, – javob berdi Emrayin.
- Yotipti degin, – biroz jimlikdan so'ng yana

davom etdi O'rxon ota. — Hushiga kelgandan so'ng — unga aytib qo'yarsan...

— Yaxshi, atkichx, aytaman, — Emrayinning ovozi titrab chiqdi, buni bildirmaslik uchun zo'r bilan yo'talib qo'ydi. — Aytganingday bo'ladi, hamma gaplaringni yetkazaman.

— Uni juda hurmat qilishimni aytib qo'y. U katta ovchi, ham yaxshi odam. Men uni hamma vaqt hurmat qilganman.

Yana jimb qolishdi.

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Keyin Emrayin nimadir dedi, Kirisk uning so'zini aniq eshita olmadi. O'rxon bobo unga javoban dedi:

— Yo'q, baribir kutolmayman. Ko'rmayapsanmi, madorim qolmadi. Yaxshi it o'ligini ko'rsatmas, deganlar. Men anoyi odam emasman! Buni o'zim bilaman. Tushimda doim Suv parisini ko'rardim. Sening bunga aqling yetmaydi... Men o'shaning makoniga ketishni xohlayman...

Ular yana allanimalar haqida gaplashishdi. Kirisk suv ruhi — ko'k sichqonni chaqira-chaqira uxbab qoldi:

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Bolaning oxirgi eshitgani Emrayinning gapi bo'ldi. U O'rxon boboga yaqinroq surilib, bunday dedi:

— Esingdami, atkichx, bir yili savdogarlar bug'ular qo'shilgan chanalarda kelishib, boltalar va har xil buyumlarni mo'ynaga almashtirib ketishardi. Anovi barzangi, malla savdogar aytgandi, allaqaysi olis bir yurtda ulug' odam bor ekan, dengizda piyoda yurarkan. Shunday odamlar ham bor-a, bu dunyoda...

— Demak, o'sha odam juda ulug' odam ekan, ulug'larning ham ulug'i ekan, — javob berdi O'rxon bobo. — Bizning eng ulug' odamimiz esa — Suv parisi...

Kirisk uxbab qolgan, ammo uyqusidayam allaqanday uzuq-yuluq gaplar shuuriga yetib borardi:

— Shoshma, ota, biroz o'ylab ko'r...

— Bo'ldi. Endi yoshimni yashab bo'ldim... Yo'limdan qaytarma. Madorim qolmadi, chiday olmayman...

- Shunday qorong'ida-ya...
- Baribir emasmi?...
- Senga aytadigan gaplarim bor hali...
- Gap hech qachon tugamaydi. Bizlardan keyin ham tugamaydi.
- Shunday qorong'ida-ya.
- Yo'limni to'sma. Ilojim yo'q, majolim quriyapti. Kuchim borida o'zim...
- Shunday zulmatda-ya...
- Sizlar bardosh qilinglar, bochkachaning tagida oz-moz suv qolgan...

Kimningdir katta, g'adir-budur va yapaloq kafti qaltiragancha bolaning boshini asta siypadi. Kirisk mudroq ichida bo'lsayam bu O'rxon boboning qo'li ekanligini sezdi. Bu iliq va og'ir kaft ancha vaqtgacha uning boshida turib qoldi, chol kafti bilan bolani balo-qazolardan himoya qilmoqchiday, bolaning boshini so'nggi marta eslab qolmoqchiday edi.

* * *

Kirisk tushida dengiz yuzasidan odimlab ketayotgan emish. Yer bor deb o'ylagan tarafga borayotgan mish, o'sha yerda miriqib suv ichaman, deb borayotgan mish. Suv yuzida yiqlimay, cho'kmay odim otib ketayotgan mish. Tevarak-atrofda g'aroyib va g'alati manzaralar bor edi. Qayoqqa qaramasin, ko'z yetguncha tip-tiniq, yaraqlagan dengiz yastanib yotardi. Dengiz va dengiz suvidan boshqa hech vaqo yo'q edi. Faqat dengiz va faqat suv bor edi. Bola suv yuzida xuddi yer yuzida yurgandek yurib borardi. Quyosh nurlari tushgan hamma yerda, hamma tomonda to'lqinlar ravon edi. To'lqinlar qayerdan paydo bo'lib, qayoqqa ketayotganini bilib bo'lmasdi.

U dengiz ustidan yolg'iz o'zi yurib borardi. Dastlab unga O'rxon bobo, Emrayin va Milxunlarning oldiga tushib, qanday bo'lmasin tezroq suvi bor yerni topib va ularni ham chaqirish uchun zir yugurib yurganday tuyuldi. Ammo keyin bu yerda yolg'iz bir o'zi qolganligini fahmladi. U qichqirar, odamlarning otini aytib

chaqirar, lekin hech kim ovoz bermasdi. Na biron jon, na biron tovush va na biron sharpa bor edi... Sheriklari qayoqqa g'oyib bo'lganini bilmasdi. Bundan bola dahshatga tushdi. Ovozi chiqmay qoldi. Hech qayoqda, hech joyda yer ko'rinnmasdi. U nafasi og'ziga tiqilib, holdan toyguncha dengiz ustidan yugurib ketdi. Ammo u hech qayoqqa jilolmay, bir joyning o'zida turib qolgandi. Toqatsizlanib, ichi yonib, nuqlu suv ichgisi kelaverardi. Shunda u tepasidan uchib o'tayotgan qushni ko'rib qoldi. Bu Luvr o'rdak edi. O'rdak qichqirib uya qurish uchun joy axtarib, dengiz uzra uchib yurardi. Ammo hech qayerda bir parcha quruq yer topa olmasdi. Chor atrofda hadsiz-hududsiz to'lqinlar shovullardi. Luvr o'rdak zorlanib, nola qilar va betoqat bo'lardi.

— O'rdakjon! — dedi unga Kirisk. — Yer qayerda? Qaysi tomonda? Suv ichgim kelyapti!

— Olamda yerning o'zi yo'q, hech qayerda yo'q! — javob berdi Luvr o'rdak. — Atrofda to'lqinlar bor, xolos.

— Qolgan odamlar qayoqda? — bola g'oyib bo'lgan odamlarni so'radi.

— Odamlar yo'q, ularni izlab ovora bo'lmay qo'ya qol. Ular hech yerda yo'q! — deb javob qaytardi Luvr o'rdak.

Kiriskni ta'riflab bo'lmaydigan dahshatli yolg'izlik va qayg'u-alam tuyg'usi chulg'ab oldi. U bu joydan boshi oqqan tarafga qochib ketgisi kelar, biroq boradigan joyning o'zi yo'q edi, hamma tomonini faqat suv va to'lqinlar o'rabi olgan edi. O'rdak qora nuqtaga aylanib, tobora uzoqlasha bordi.

— O'rdakjon, meni o'zing bilan olib ket, yolg'iz qoldirma! Suv ichgim kelyapti axir! — yolvorardi bola.

Ammo o'rdak ovoz bermasdi, u hali dunyoga kelmagan yerni qidira-qidira, butunlay ko'zdan g'oyib bo'ldi. Quyosh bo'lsa charaqlab, ko'zni qamashtirardi.

Kirisk ko'zlarida yosh bilan uyg'ondi, u hamon entikib yig'lar, najotsiz g'am-alam va qo'rquv uni yelkasidan bosib turardi. U yoshli ko'zlarini asta ochib, tush ko'rganligini fahmladi. Qayiq suvda ohista chay-

qalib turardi. Kulrang tus olib borayotgan g'ira-shira tuman borliqni burkab, qurshab olgandi. Demak, tun o'tibdi, tong yaqinlashyapti. U qimirlab qo'ysi.

— Atkichx, suv ichgim kelyapti, men tush ko'rdim, — pichirladi u qo'lini O'rxon bobo tomon uzatib. Ammo qo'liga hech narsa ilinmadi. Qayiq quyrug'idagi O'rxonning joyi bo'm-bo'sh edi.

— Atkichx! — chaqirdi Kirisk. Hech kim javob bermadidi. Bola boshini ko'tarib tipirchiladi.

— Atkichx, atkichx qayerdasan?

— Qichqirma! — bir surilib bolaga yaqinlashdi Emrayin. U o'g'lini quchoqlab, mahkam bag'riga bosdi. — Qichqirma, atkichxing yo'q endi! Chaqirma unil Suv parisi makoniga ketdi.

Ammo Kirisk qulq solmadi:

— Qani mening atkichxim? Qani? Qani mening atkichxim?

— Bo'ldi, yig'lama. Tinchlan, Kirisk, u endi yo'q, — ota bolasini ovutishga tutundi. — Sen faqat yig'lama. U o'g'lingga suv ber, deb menga tayinladi. Ozgina suvimiz bor hali. Yig'ini bas qilsang, suv beraman. Ichib olasan. Yig'lamasang bo'lgani. Qarab turgin, hademay tuman tarqaladi, ana shunda ko'rasan...

Kirisk yulqinib, otasining quchog'idan otolib chiqishiga talpinardi. Uning harakatlaridan qayiq chayqaldi. Emrayin nima qilishini bilmasdi.

— Mana, hozir bu yerdan ketamiz. Mana, qara, suz-yapmiz. Ey, Milxun, tur o'rningdan, tur. Senga aytyapman! Qani ketdik!

Milxun eshkak esha boshladidi. Qayiq suvda ohista sirpanganday suzib ketdi. Ular yorug' olamni hamon oppoq sutdek qoplab olgan tuman uzra yana tayinsiz tarafga maqsadsiz suzib ketishdi.

Yangi tunni ular shunday qarshi olishdi. Endi qayiqda uch kishi qoldi.

Ko'k sichqoncha, suvingdan ber!

Kirisk biroz o'ziga kelganidan so'ng Emrayin eshkaklar yoniga o'tib oldi, ular to'rt eshkak bilan yana

o'sha tayinsiz tomonga maqsadsiz suzib ketishdi. Endi qayiq to'rt eshkakning ta'sirida tezroq suza boshladi.

Kirisk bo'lqa, O'rxon boboning g'oyib bo'lganligidan larzaga tushib, kemaning quyrug'ida g'aribona mung'ayib o'tirgancha hamon entikib-xo'rsinib yig'lar edi. Otasi bilan Milxun ham nihoyatda ezilib ketishgandi. Ular na o'zlariga, na Kiriskka biror ko'mak bera olishardi. O'ylab topganlari eshkak eshish bo'ldi. Ishqilib, qayiq yurib tursa bo'lgani. Oppoq tuman ichida ularning basharalari qorayib ko'rindaridi. Hammalari daf qilib bo'lmaydigan shafqatsiz ofat – tashnalikka hamda ochlikka mahkum etilgandilar.

Ular jim, churq etmay borishardi. Gapirishga qo'rqishardi ham. Faqat birozdan so'ng Milxun eshkakni tashladi.

– Suvni bo'll! – dedi u Emrayinga g'amgin boqib.

Emrayin bochkachaga yopishib olib, har bir odamga cho'michning tubida bir necha qultumdan sirqitib suv quydi. Suvdan noxush qo'lansa hid kelar, ta'mi bu-zilgandi. Ammo shu ham juda oz qolibdi. Yana ko'pi bilan uch-to'rt marta ichishga yetardi, xolos. Hech kim suvga qonmadi, suv ichib hech kimning ruhi yengilashmadi ham.

Yana og'ir, aqlni ozdiruvchi kutish onlari boshlandi: ob-havo o'zgaradimi yoki yo'qmi? Endi hech kimda hech qanday umidbaxsh taxminlar qolmagandi. Ular majolsizlanib, holdan toyib, beixtiyor loqayd bo'lib qoldilar. Tahlikali tuman ichida qayiqda maqsadsiz aylanib, itoat bilan o'z qismatlarini kutishardi. Taqdirga tan berishdan o'zga chora qolmagandi. Tuman odamlarni ezib, irodalarini bo'shashtirib qo'ygandi. Faqat bir gal Milxun qattiq so'kinib, nafrat to'la titroq ovoz bilan g'o'ldiradi:

– Tuman chekinsa – o'limimga ham rozi bo'lardim! O'zimni suvga tashlardim. Yorug' olamning bir chetini ko'rsam bo'ldiydi!

Emrayin indamadi, hatto o'girilib ham qaramadi. Nima ham deya olardi? Endi u qayiqda qolganlarning yoshi ulug'i edi-da. Indamay o'tirishdan boshqa iloji qolmagandi. Qayoqqa ham suzishardi!

Vaqt o'tib borardi. Qayiq o'zidan o'zi to'xtab, goh muallaq turib qolar, goh yana joyidan qo'zg'alardi.

Soat o'tgan sayin o'lim xavfi orta borardi – qonmagan tashnalik yoniga jon-tanni yemiruvchi shafqatsiz ochlik ham qo'shildi. Darmonlari qurib, majolsizlanib borishardi.

Kirisk ko'zlar qisilib, kemaning quyrug'ida yotardi. Boshi aylanib, ko'ngli aynirdi, och qorinda og'riq turib, nafas olishi mushkullashardi. Tobora tashnaligi oshib, judayam suv ichgisi kelaverdi.

Ko'k sichqoncha, suv bergen!

Bola suvga qondiradigan ko'k sichqonchani yalinib-yolvorib chaqirar ekan, endi hamma narsani unutishga urinar, Olaparning etagidagi uzoq-uzoqlarda qolgan va endi ertakka aylangan hayotini eslab, najot kutardi.

«Ko'k sichqoncha, suv bergen!» – deb shivirlardi u boshi aylanib. O't-o'langa chulg'angan tepalikda o'ynab, xuddi g'o'ladek pastga dumalab tushganlarida ham boshi shunday aylanishini ko'z oldiga keltirdi. Eh, juda qiziq, ajoyib o'yin edi-da. Bu o'yinda Kirisk hammadan abjir va chidamli bo'lib chiqardi. Tik tepalikka chopib chiqasan-da, u yerdan yonbag'irlab pastga qo'yib yuborilgan po'stloqsiz g'o'ladek, aylanib dumalaysan. Qo'llaringni ikki yoningga mahkam qapishtirib ola-san. Joyingdan qo'zg'alish uchun avval o'zingga o'zing ko'mak berasan. Bir, ikki, uch marta umbaloq oshganingdan so'ng uyog'iga yumalab ketaverasan, o'zingni to'xtatib qololmaysan. Mazza qilganingdan rosa xaxolab kulasan, osmon esa goh u, goh bu chekkasi bilan to'ntariladi, bulutlar aylanib, ko'z o'ngingdan lip-lip o'tadi, daraxtlar aylanib ag'anaydi, hamma narsa oyog'i osmondan bo'lib ketadi, ko'kdagi quyoshning esa kulaiverib ichagi uziladi. Bolalarning shovqini, qiyqiriqlarini aytmaysizmi! Pastga qarab shitob bilan yumalab tushaverasan, tushaverasan, shunda ortingdan yugurib kelayotgan bolalarning goh cho'ziq yuzlari, goh bukil-gan oyoqlari ko'z oldingdan lip-lip o'taveradi, nihoyat, to'xtab qolasan. Eh! Shunda quloqlaring shang'illab

ketadi. Shundan so'ng eng qiziq, eng nozik joyi keladi. Bir, ikki, uch deyilganda o'rningdan sakrab turib olib, boshing gir-gir aylanishiga qaramay, yiqlib tushmasliging kerak. Odatda birinchi marta hammayam yiqlidi. Ana kulgi-yu, mana kulgi! Hamma kuladi, o'zing ham kulasan. Oyoqda mahkam turmoqchi bo'lasan-u oyog'ing ostidagi yer ag'darlib ketayotgandek bo'ladi. Kirisk esa yiqlimasdi. Oyoqda mustahakam turib olardi. Shunga intilardi. Axir, Muzluk doim shu yerda bo'lardi-da! Uning oldida bo'sh-bayov bolaga o'xshab yiqlishni o'ziga ep ko'rmasdi.

Ayniqsa, Muzluk bilan tepalikdan kim o'sharga dumalashganida rosa huzur qilishardi, rosa kulishardi. Qizlar ham tepadan dumalayverardi. Faqat ular qo'rkoq bo'lishadi, kokillari doim biror narsaga ilashib qoladi. Ammo bu hisob emas. Bunaqa quvnoq o'yinda albatta biror joying lat yeishi turgan gap.

Muzluk bilan ular pastga dumalaganlarida, Kirisk bildirmay tirsaklarini ataylab keng yozardi-da, undan o'zib ketmaslik uchun to'xtab qolardi. Ular atrofdagi farning qichqirishlari va xaxolab kulishlarini eshitib, bir vaqtning o'zida pastga dumalab tushishar va «uch», deb sanalgunicha baravar sakrab oyoqqa turib olishardi. Shunda Muzlukka oyoqda mahkam turib olishga yordam berish, qizni suyab qolish nechog'lik zavqli ekanligini hech kim fahmlamasdi. Ular bir-birlariga madad berib, beixtiyor quchoqlashib olishardi. Muzluk xursandligidan rosa kular, uning kulgidan cho'chchaygan lablari bolaning ham kulgusini qistatardi; Kirisk ushlab qolsin deb Muzluk hamisha shunday qilar, o'zini go'yo yiqlib ketayotgandek qilib ko'rsatar, Kirisk bo'lsa uni ushlab qolib, quchoqlab, oyoqda mahkam turib olishiga ko'maklashardi. Ana shunda ular allaqanday sirli masrurlik va hurkak bir muhabbat onlarini boshidan kechirayotganliklarini hech kim bilmasdi. Qizchaning yupqa ko'ylakchasi ostida yuragi dukurlab urar, ularning badanlari dam-badam bir-birlariga tegib ketar va Kirisk qizning endigina tugulib kelayotgan va taranglashgan siynalariga qo'li tegib ketganini, shunda qizcha

titrab, tezgina uning pinjiga kirib olganini, boshi aylanib ketganidan xumor ko'zları sırlı bir chaqnaganini sezib qolardi. Butun olam – yer va osmondagı jamiki narsalar – ular bilan birga qo'shilib aylanar, tinimsiz kulgi-yu baxtiyorliklariga, cheksiz quvonchga to'lar edi. Bu naqadar ajoyib saodat ekanligini hech kim xayoliga keltirmasdi!

Faqat bir buni o'zidan biroz kattaroq, yomon ko'rib yuradigan qabiladoshi sezib qoldi va u ahmoq boshi aylanganidan go'yo o'zini oyoqda tutib tura olmayotganday yopirilib kelib Muzlukka yopishmoqchi bo'ldi. Muzluk chap bergancha undan o'zini olib qochar, u bo'lsa boshi aylanib o'zini yiqlayotgan qilib ko'rsatib, qizning izidan yana yetib olar va uning ustiga o'zini tashlamoqchi bo'lardi. Kirisk u bilan mushtlashib qoldi. U bola gavdaliroq bo'lganidan bir necha bor Kiriskni urib yiqtidi. Lekin har holda kurash durang bilan tugadi – Kirisk bo'sh kelmadi va qiz bolaning himoya qilishiga ham ruxsat bermadi. Lekin bu voqeа boshqa takrorlanmadи...

Ular o'ynab-o'ynab, terga botib, qizib-yonib, ariqdan suv ichgani yugurib ketishardi. Naqadar masrur lahzalar edi!

*Ko'k sichqoncha, suv bergen!
Oh, ko'k sichqoncha, suv bergen!*

Anhor sal nariroqdan o'tardi. U o'rmonдан oqib kelib, bolalar o'ynaydigan joydan chiqardi. Buloq suvi toshdan toshga urilib oqib, moviy o'rmon salqinini o'zi bilan birga olib kelardi. Qalin o'sgan o't-o'lanlar sho'x jilg'a sohillarini ko'pchitib, bir-biriga yaqinlashtirib qo'yanday, eng yaqin va g'ovlab o'sgan o't-o'lanlarning egilib turgan shoxlaridagi yaproqlari esa suv oqimida yulqinib turardi. Buloq suvi goh oftobda tovlanib, goh qovoq solib turgan qirg'oq ostiga sho'ng'ib, goh o't-o'lanlarning va tol chiviqlarining orasiga yashirinib, hech narsani pisand qilmay, dengiz tomon tinim bilmay shoshildi.

Bolalar bir zumda anhorgacha chopib borib, zum

o'tmay; o't-o'lanlarni ikki tomonga surib tashlab, o'zlarini suvga tashlashardi. Qo'llarini yuvib, hovuchlab ichishga sabrlari ham chidamay, boshlarini engashtirib, yuzlarini bilqillayotgan, mayin qitiqlayotgan suvga chayib, kiyiklar singari suv ichishardi. Eh, naqadar lazatli damlar edi!

*Ko'k sichqoncha, suv bergen!
Ko'k sichqoncha, suv bergen!
Oh, ko'k sichqoncha, suv bergen!..*

Ular suvga engashib, ariq bo'yida yotishardi. Yelkalari bir-biriga tegib, sho'x oqimga tutib turgan qo'llari, go'yo bir odamnikiday yaqinlashib, qo'shilib ketardi. Ular lablari bilan suvni ilib olgancha ichishar, og'izlarida qultillatib o'ynab, maza qilib, to'yib-to'yib ichishardi. Ular bu yerdan aslo ketgilari kelmas, boshlarini top-toza suvdan ko'targilari kelmasdi. Tezoqar suvda ular o'zlarining xira akslarini tomosha qilishar: bir-birovlarining suvdagi kulgili, g'alati basharalariga nazar tashlab kulishardi.

*Ko'k sichqoncha, suv bergen!
Ko'k sichqoncha, suv bergen!
Ko'k sichqoncha, suv bergen!
Oh, ko'k sichqoncha, suv bergen!..*

Muzluk shu yotishda buloqdan boshini ko'tarmay, qisiq ko'zlarining qiri bilan qarar, Kirisk ham xuddi unga shu tarzda quvlik bilan jilmayardi. Muzluk o'zidan chetlatgan bo'lib, uni yelkasi bilan turtar, u ham bo'sh kelmasdi. Shunda Muzluk og'ziga suv to'latib olib, uning yuziga purkardi. Kirisk ham xuddi shunday qildi: og'ziga yana ham ko'proq suv olib, bor kuchi bilan Muzlukning yuziga puflab separdi. Tiysiqsiz sho'xlik va yugur-yugurlar shunday boshlanib ketardi. Ular suvda quvishib, bir-birlarini istaganlaricha shalabbo qilib, qiyqirib, xaxolashib jilg'ani boshiga ko'targanlaricha u yoqdan bu yoqqa chopishardi...

Ko'k sichqoncha, suv bergen!

Shu yurish-turishlarni eslar ekan, endi u davralar-

ning hech qachon qaytib kelmasligini anglab Kirisk azoblanardi. Nafas olishi tobora qiyinlashar, tez-tez qorni sanchib og'rirdi. U og'riqdan tirishib, unsiz yig'lar ekan, hamon:

Ko'k sichqoncha, suv bergin! –

deb yolvorardi.

U shunday o'y-xayollar bilan o'zini chalg'itishga harakat qilardi. Atrofda hech narsa o'zgarmasdi. Oppoq tuman qatlami avvalgidek qilt etmay borliqni o'rab olgandi.

Ovchilar, har biri o'z o'rnida, qayiqda chalajon bo'lib, cho'zilib yotishardi. Ularni oldinda nima kutayotgani avvalgidek noma'lum edi. Shunda birdan qayiq kuchli chayqaldi va Kirisk otasining qo'rinchli xitobini eshitdi:

– Milxun! Milxun! Nima qilyapsan? To'xta!

Kirisk boshini ko'tarib, hang-mang bo'lib qoldi. Milxun qayiqning chetidan engashib, dengiz suvini cho'michlab olib ichardi.

– Bas qil! – unga tashlandi Emrayin cho'michni tortib olmoqchi bo'lib.

Lekin Milxun xezlanib, tahdid qildi:

– Yaqinlashma, Soql! O'Idiraman!

U og'ziga olib bo'lmaydigan bu achchiq namakob suvni ichar, ko'kragi va yenglari suvga botib, kiyimlari jiqla ho'l bo'lib ketgan, tomog'iga tiqilib qolsayam o'zini zo'r lab, titroq qo'llari bilan cho'michdan og'zini olmay ichar edi. Yuzlarining tuklari hayvonlarnikiga o'xshab tikkayib ketgandi.

Keyin u ichib-ichib cho'michni qayiqning ostiga tashlab, chalqancha yotib oldi. U xirillab, bazo'r nafas olardi. U shu ahvolda yotar va hech kim unga hech qanday yordam bera olmasdi. Kirisk qo'rqib ketganidan g'ujanak bo'lib yotib oldi, tashnaligi battar ortib, qorni burab og'riy boshlaganini sezdi. Boshi quyi solingan Emrayin yana eshkakni qo'liga olib, tumanda qayiqni ohista allaqayoqqa jildirib ketdi. Uning boshqa iloji yo'q edi.

Milxun goh tinchib qolar, goh yana talvasaga tushib titrar, xirillar, chanqoqlik xurujidan tamom bo'layotgan

edi. Biroq oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng yana boshini ko'tardi:

— Yonyapman, ichim yonyapti! — deb u kiyimning yoqasini yirta boshladi.

— Ayt, nima qilaylik? Qanday yordam beraylik? Anavinda hali bor, — Emrayin bochkachaga imo qildi. — Ozgina quyib beraymi?

— Yo'q, — rad qildi Milxun. — Endi hojati yo'q. Tun-gacha sabr qilib, keyin rahmatli atkichximiz orqasidan... Ammo sabrim chidamadi. Mayli. Yaxshiki, boshqa nojo'ya ish qilib qo'ymadim. Suvning borini ichib qo'yganimdan nima foyda bor edi. Paymonam to'lganga o'xshaydi. Endi men ham ketaman. Bas, hammasi tamom. O'zim, kuchim borida...

Kimsasiz dengiz o'rtasida, na boshi, na oxiri tayinsiz, na qachon halok qilishi tayinsiz tuman ichida o'zini asta-sekin o'limga mahkum etgan odamning so'zlarini eshitish dahshatli edi. Emrayin do'sti va inisi Milxunni bir navi tinchlanfirmoqchi, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ammo Milxun eshitishni istamas edi. U oshiqardi, o'z azoblariga bir yo'la chek qo'yishga intilardi.

— Sen, Emrayin, gapirib ovora bo'lma, bo'lar ish bo'ldi! — Milxun telbalardek g'udurladi: — O'zim, o'zim ketaman. Sizlar, ota-bola bilganingizni qilinglar. Shunisi tuzuk. Bu ishim uchun kechiringlar. Sizlar ota-bola, qolinglar, hali ozgina suv bor... Men hozir oshib o'taman. — Milxun shu so'zlarni aytib, o'rnidan turdi, qayiqning chekkasini ushlab engashdi. Gandiraklab, bor kuchini jamlar ekan, Milxun Emrayinga yer ostidan qarab dedi:

— Menga xalaqit berma, Soqol! Shunisi tuzuk. Menga xalaqit berma. Yaxshi qolinglar. Ehtimol, qirg'oqqa yetib olarsiz. Men esa hozir... Sen qayiqni darrov haydab ket. Darrov, tushundingmi? Kutib o'tirma. Yaqinlash-sang — ag'darib yuboraman. Endi hayda. Soqol, tezroq hayda. Eshityapsanmi, yo'qsa, ag'darvoraman...

Emrayin uchun Milxunning do'qlari va yolvorish-lariga bo'ysunishdan boshqa iloj qolmagandi. Qayiq sassiz tuman va sassiz suvni kesib, to'g'riga suzib ketdi. Kiriskning yuragi qaqshab, yig'lab yubordi:

— Aki-Milxun! Aki-Milxun! Unday qilma!

Xuddi shu daqiqada Milxun qayiqdan dadil o'zini tashladi. Qayiq qiyshayib qalqib ketdi va yana o'z holiga keldi.

— Nariroq! Nariroq ketinglar! — baqirdi Milxun muzdek suvda shaloplar ekan.

Tuman darhol uni ko'zdan yashirdi. Hammayoq jimib qoldi, keyin sukunatda suvga g'arq bo'layotgan odamning yangroq ovozi, so'nggi xitobi eshitildi. Shunda Emrayin o'zini tutolmadi.

— Milxun! Milxun! — xitob qildi u va ho'ngrab, qayiqni orqaga burdi.

Ular darrov orqaga qaytishdi. Ammo allaqachon Milxun g'oyib bo'lgandi. Suv yuzasi go'yo hech narsa yuz bermagandek bo'm-bo'sh va osoyishta edi. Odam cho'kkan joy qayerdaligini aniqlash mushkul edi.

Shundan keyin ular hech qayoqqa bormasdan, kuni bilan shu yerda qayiqda suzib aylanib borishardi. Ular ning ikkalasi ham falokatdan qayg'u-hasratga to'lib yig'lashardi. Kirisk otasini yig'lashini umrida birinchi marta ko'rishi edi. Otasi sira bunday ahvolga tushmagandi.

— Ana endi yolg'iz o'zimiz qoldik, — pichirladi Emrayin, soqoliga tushgan ko'z yoshlarini artib, o'zini qo'yarga joy topmay, — Milxun, eh, qadrdonim Milxunim! — shivirladi u hiqillab.

Kun tugab bormoqda edi. Ularga shunday tuyildi. Agar qayerdadir quyosh bo'lса, agar u osmon uzra, dengizlar, tumanlar uzra suzib yurgan bo'lса, demak, hozir u o'z yotog'iga xotirjam bosh qo'yayotgan bo'lса kerak. G'ira-shira qorong'ilik asta-sekin zulmatga aylanib borayotgan qalin tuman ichida esa dengizda bedarak yo'qolgan yolg'iz bir qayiq aylanib yurar, unda endi faqat ikki kishi — ota-yu bola qolgan edilar.

Bundan oldin, kech tushmasdan sal avval, Emrayin nihoyat suv ichish payti bo'ldi, degan qarorga kelgandi. Kirisk buni zoriqib kutayotganligi, o'zini tiyib, lom-mim demay, tashnalik va ochlikka nechog'lik bardosh berayotganligi sezilib turar edi. Milxunning halokatidan

keyin suv ham eslaridan chiqqan edi. Lekin asta-sekin tashnalik yana kuchini ko'rsata boshladi, endi hozirgi tashnalikka boyagi unutilgan tashnalik ham qo'shilib ayovsiz azob berardi.

Emrayin biror tomchini ham behuda to'kib yubor-maslik uchun juda ehtiyotlik bilan aynigan suvni avval Kiriskka sirqitib qo'ydi. Bola cho'michga yopishib, telbalardek bir zumda o'z ulushini yutib bo'ldi. Keyin Emrayin o'zi uchun suv quyarkan, endi suv bochkachaning tubidagina qolganligini ko'rdi. Otasining qo'lidagi bochkachaning egilishiga qarab Kirisk ham buni fahmladi. Emrayin shunday bo'lishini avvaldan bilgan bo'lsa ham hayron qolib, rangi quv o'chdi. Endi Emrayin o'z ulushini ichishga shoshilmadi. U qo'qqisdan miyasiga urgan fikrdan larzaga kelib, cho'michni ushlagancha o'ylanib qoldi. Chanqoqni bosish bu fikr oldida hech gap bo'lmay qoldi.

– Ma, ushlab tur, – bunday qilishga hojat bo'lmasada, u cho'michni o'g'liga uzatdi. Bola uchun suvli cho'michni qo'lida ushlab, uni ichishga botinolmaslik – ayni qiynoqning o'zi edi. Emrayin qo'llarini bo'shatib, tiqinini mahkam o'rnashtirdi-da, deyarli bo'sh bochkachani o'z joyiga qo'yib qo'ydi.

– Ich, – dedi u o'g'liga.

– Sen-chi? – hayron bo'ldi Kirisk.

– Men keyin ichaman. Hech narsani o'ylama, ichaver, – dedi xotirjamlič bilan otasi.

Kirisk darhol yana sassiq suvning bu qultumini ham yutdi. Chanqog'i unchalik bosilmagan bo'lsa-da, har holda biroz tetiklandi.

– Xo'sh, qalay bo'ldi? – so'radi otasi.

– Biroz tuzuk, – minnatdor bo'lib shivirladi bola.

– Sen qo'rhma. Esingda tut, odam og'ziga hatto bir tomchi suv olmasa ham ikki-uch kun yashay oladi. Qiyomat-qoyim bo'lsa ham qo'rhma.

– Sen shuning uchun ichmadingmi? – Kirisk uning gapini bo'ldi.

Emrayin, bu savoldan o'zini yo'qotib qo'ydi. So'ng o'ylab turib, qisqa javob berdi:

- Ha.
- Odam ovqatsiz qancha yashay oladi? Biz qachon-dan beri ovqat yemayapmiz-ku?
- Suv bo'lsa bo'lgani. Lekin sen buni o'ylama. Ke, yaxshisi, picha suzaylik. Ikkalamiz gaplashib olishimiz kerak.

Emrayin eshkaklarni g'ijirlatdi va ular go'yo turgan joylarida gaplasha olmaydigandek tuman ichida dengizda asta-sekin suzib ketishdi. Ota o'zini bosib olishi zarur edi. Shunday qilsa, fikrlarini bir joyga to'plashi, muhim suhbatga tayyorlanishi osonroq ko'chadiganga o'xshardi. Shuni o'yashi bilanoq a'zoyi badani muzlab ketardi.

U o'zi eshkak eshibgina qolmay, o'g'liga ham eshkak yoniga o'tirishni buyurdi. Qayoqqadir suzishning hojati yo'qligidan, bolaning o'tirishidan ham hojat yo'q edi. Bola zilday va ancha katta bo'lgan dengiz eshkaklarini qiynalib eshar edi. U bitta eshkakni eplay olishi mumkin edi, ammo bir juft eshkakni aylantirish hali og'irlik qilardi. Ustiga-ustak, Emrayinning o'zi ham, bolasi ham ancha madordan qolgandi. Xuddi shuning uchun ham ota ishni tezlatishga majbur edi. Vaqt o'tib borar, vaqt tugab borardi.

Kirisk indamas, og'ir eshkaklarning birini bog'dan, birini tog'dan qilib aylantirar, ularga qaramasdi ham. Ammo Emrayin bunga e'tibor bermas, uni boshqa narsa qiyndi. O'g'liga, mana shu mushfiq, go'daklarcha nimjon, himoyasiz jussaga razm solarkan, yuragi qonga to'lganini hozirgina his etdi. Boshqa iloji bo'lmasa-da, gap boshlashga ham jazm qilolmasdi...

Tuman borgan sari quyuqlashib borar edi. Emrayin og'ir o'yga botib, hamon qayiq haydar, uning chindan ham vaqt-soati yaqinlashib qolgan edi. U o'ziga-o'zi qancha dalda bermasin, tabiatan qanchalik baquvvat bo'lmasin, baribir tashnalik hamda ochlik uning sillasini qurutib, yemirib borardi. U ko'ngilsiz gapni aytish uchun o'g'lini tayyorlashga ulgurishi kuchdan ketib qolmasdan, irodasi hali o'z qo'lida ekanligida bolasiga shu gapni tushuntirib qo'yishi zarur edi.

O'rxon hamda Milxunlardan so'ng u ham qayiqni

tark etishga majbur ekanligini sezib o'tirardi. O'g'lini hayotini saqlab qololmagan taqdirda ham, har holda, umrini salga bo'sayam uzaytirishi mumkin edi. Bochkacha tubidagi suv qanchaga yetsa, o'g'lining umrini shunchaga uzaytirishning birdan-bir iloji shu ekanligini Emrayin tushunardi.

Tuman shu bugun kechasi mi yo ertaga tarqaladi-mi, taxmin qilolmas, mabodo ertami-kechmi ob-havo jo'nashib ketgan taqdirda ham o'g'lining holi ne kechadi, u dengizda yolg'iz o'zi qolib ketib, jon saqlab najot topa oladimi, yo'qmi – buni mutlaqo bilmasdi. Bu savolga javob yo'q edi. Agar dengizda havo ochilib ketgudek bo'lsa, oq tanli odamlarning katta qayig'i tasodifan uchrab qolarmikin, deb umid bog'lar edi. Ammo shunday bo'ladi, deb o'zini o'zi ishontirishga har qancha urinsa-da, baribir bu – amalga oshmaydigan umid edi. Aytishlaricha, oq tanli kishilar qirg'oqlardan ancha olislardagi okean orqali suzib o'tishib, shu suvlarda ahyon-ahyonda paydo bo'lib qolisharkan. O'zlarining qandaydir ishlari bilan allaqanday olis yurtlardan yana allaqanday olis yurtlarga suzib borishar ekan. Buni Emrayin bilardi. O'zi ular bilan hech qachon uchrashmagan bo'lsa-da, bu haqda bilimdon savdogarlardan eshitgandi. Ularning ba'zilari esa go'yoki oq tanlilarning tog'dek ulkan qayiqlarida suzishgan ham emishlar. Mo'jiza yuz berib, yo'llar to'qnashib, oq tanli odamlar okeandagi mo'jazgina o'yma qayiqni ko'rib qolsalar koshkiydi! Buning amalga oshishiga deyarli umid qilib bo'lmasdi. Biroq shunday bo'lsa-da, umidsiz shayton degandek, birgina shu fikr ularga tasalli berib turardi, xolos.

Emrayin o'g'lini tashlab ketishdan avval unga xuddi shu haqda gapirmoqchi edi. Kiriskni shu gapga ishontirish kerak, toki bola so'nggi nafasigacha, aql-xushdan ayrilmaguncha qayiqda qolsin. Agar suv tugab, ajali yetgudek bo'lsa, u qayiqda o'lsin, toki O'rxon oqsoqol, Milxun va endi shaylangan otasi kabi dengizga o'zini tashlashga majbur bo'lmasin. Boshqa yo'l qolmagandi. Shafqatsiz taqdirga tan berishdan boshqa iloji yo'q edi... Ammo o'n bir yashar bola quyuq tuman ichida,

hadsiz-hududsiz dengizda butun olam bilan yuzma-yuz qolib, tashnalik va ochlikdan asta-sekin o'lib ketishini o'ylaganida Emrayinning yuragi orqasiga tortib ketardi. Mana shunisiga u aslo rozi bo'lolmas, hammadan ham shunisi ezib yuborardi. Shunda u: «O'g'limni yolg'iz qoldirib ketolmayman, u bilan birga o'lganim ma'qul», degan fikrga ham borganligini payqab qolardi...

Tez orada hamma yoqni yana zim-ziyo zulmat qop-ladi. Tumanli tunning qop-qora zulmati dengizni yana qamrab oldi. Kunduzi tuman ichida biror yoqqa suzishdan ma'nii chiqmaganidek, tunda suzish bundan ham bema'niroq ish edi. Qayiq bir joyda ohista chayqalib turardi. Havo o'zgarishidan darak beruvchi hech qanday alomat ko'rinasdi. Hayhotday huvullagan dengizdan boshqa hech narsa yo'q edi.

Ota-bola kechasi qayiq tubida joylashib olib, bir-biriga mahkam yopishib yotishardi. Tashnalik va ochlikdan azob chekib, har biri endi nima bo'lismeni o'ylardi...

Kirisk otasi bilan yonma-yon yotarkan, otasi shu kunlarda juda ozib, holdan toyganini, jussasi kichrayib, zaiflashib qolganligini sezdi. Faqat uning soqoli avvalgidek qattiq botardi.

Otasiga yopishib, unga achinib, ko'z yosHLarini tiyolmay hiqillab yotgan bola ilgari o'ziga ma'lum bo'lImagan azaliy farzandlik mehrini tuydi. U ana shu his-tuyg'ularni so'z bilan ifoda eta olmasdi – bular uning qalbiga, qon-qoniga, yurak tepishiga singib ketgandi. Avvallari Kirisk hamisha otasiga o'xshashligi bilan faxrlanar, unga taqlid qilar, otasidek bo'lismeni ko'ngliga tugib qo'ygandi. Endi esa bola shuni anglab oldiki, otasi – uning o'zi, uning ibtidosi, o'zi esa otasining davomi ekan. Shu boisdan ham u azob chekar, otasiga xuddi o'ziga achingandek achinar edi. Shuning uchun ham u ko'k sichqonchani chaqirib, o'ziga ham otasiga suv keltirib berishini o'tinib so'rardi:

*Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!
Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!*

Chidab bo'lmaydigan darajadagi tashnalik azobi

soat sari ortayotgan bo'lsa ham ota o'zi uchun suv tashvishini chekkmasdi. Yurak-bag'ri yonib ichiga o't tushganday to'lg'anaverdi. Boshi g'uvullab, ko'zi tinib, endi u Milxunning so'nggi lahzalarda qanchalik, azob chekkanini fahmladi. Biroq u bu haqda o'yamasdi. Suvni o'ylashning, to'yib suv ichish istagining endi ma'nosi yo'q edi. Agar o'g'li bo'lмагanida, agar mana shu oxirgi zim-zijo tunda pinjiga kirib olgan o'g'lini tashlab ketishga o'zini majbur etolganida edi, u allaqachon so'ngsiz uqubatlarga chek qo'ygan bo'lardi. Mayli, o'g'lining najot topishiga hech qanday umidi bo'lmasa-da, har holda o'g'lining omon qolishi yo'lidagi oxirgi chora deb, uning umri oz bo'lsa-da, uzaysin deb, o'ziyam sezmagan holda shunga intilardi, uning oxirgi umidi, istagi va a'moli shu edi. Xuddi shu maqsadda Emrayin qayiqni tezroq tark etishi zarur edi. Biroq yana o'g'lini deb bu ishga jazm etolmas, o'g'lini taqdir ixtiyoriga tashlab ketishga yuragi dov bermasdi. Imillash, ishni orqaga cho'zish esa undan ham xatarli edi. Negaki o'z-o'ziga dalda berishi uchun zarur bo'lgan so'nggi majoli ham qirqilib bormoqda edi.

Otasining umri tugab borardi...

Buni u o'g'liga qay yo'sinda, qanday so'zlar bilan tushuntirsa ekan? Sen tirik qolishing uchun tark etyapman seni, deb qanday ayta oladi?

– Ota! – birdan shivirladi Kirisk go'yo uning nimalarni o'ylab o'tirganini payqagandek va otasiga yana ham mahkamroq yopishib, ko'k sichqonchaga yolvordi:

Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!

Ko'k sichqoncha, bizga suv bergin!

Emrayin tishini-tishiga bosib, alamdan ingrab yubordi-yu, ammo hech narsa deya olmadi. U fikran o'g'li bilan vidolashar, vidolashgan sari so'nggi qadamga jazm etishga qynalardi. Uning boshidan kechirgan butun hayoti bugungi kechaga muqaddima ekanligini Emrayin endi anglab yetgan edi.

Nazarida o'z umrini o'g'li orqali uzaytirish uchun gina dunyoga kelgan va xuddi shu boisdan ham halok

bo'layotgan edi. U o'g'li bilan unsiz vidolasharkan, shu haqda o'yldi. Emrayin o'zi uchun shuni kashf etdiki, u so'nggi lahzalargacha umrini o'g'lida davom ettirish uchun yashapti. Agar u ilgari bu haqda o'ylamagan ekan, demak, o'ylashga sabab ham bo'limgandir.

Avvalari ham shu fikr yashin kabi miyasidan lip etib o'tib qolardi. Hozir shu fikr bilan bog'liq bir voqeа yodiga tushdi va bu fikrning ma'nisiga endi tushundi. O'shanda rahmatli Milxun va boshqa qabiladoshlari bilan birga o'rmonda azim bir daraxtni kesishayotgan edilar. Daraxt qulay boshladи, xuddi shu payt u tasodifan ulkan daraxt ag'darilayotgan tomonda turgan edi. Azamat daraxt yon-veridagi jamiki narsalarni bosib-yanchib ag'darilayotgan edi. Shunda hamma baravariga baqirib yubordi:

– Qoch!

Emrayin kutilmaganda o'zini yo'qotib qo'ydi, ammo endi kech edi: naq osmon-u falakdan qasir-qusur etib shovullagancha yam-yashil o'rmonning bir bo'lagini yuqoridan uzib olib ag'anayotgan daraxt asta-sekin naq uning ustiga yopirilib tushayotganini ko'rdi. U shu damda ham faqat bиргина narsa – farzandi Kiriskni o'yldi. Bolasi o'sha kezlari hali norasida, peshonasiga bitgan yolg'iz farzandi edi. Qizi Psulk hali dunyoga kelmagan edi, u shu lahzada ham shubhasiz o'lim ostonasida faqat bиргина narsani, o'zidan keyin olamda qoladigan farzandi Kirisk ekanini o'yladi. Boshqa narsalar to'g'risida o'ylashga ulgurmadi ham. Daraxt yaprog'i chang-to'zon ko'tarib uning yonginasida dahshat solib quladi. Shunda hamma yengil tortib, qiyqirib yubordi. Emrayinning hech yeri shikastlanmay omon qolgan edi.

Hozir Emrayin shu voqeani eslab, o'g'lining dunyoga kelishi tufayli ham o'zining shunday odam bo'lib yetishganini, hayotidagi eng ezgu va eng kuchli tuyg'u xuddi shu otalik tuyg'usi ekanligini anglatdi. Buning uchun u xuddi shu haqda so'zlab bermoqchi edi, lekin o'g'lini bezovta qilgisi kelmadi. Busiz ham bolaning ahvoli og'ir edi...

Otasining umri oxirlab qolgan edi...

*Ko'k sichqoncha, bizga suv bergen!
Ko'k sichqoncha, bizga suv bergen!*

Otaning umri oxirlab qolgan edi.

Uning ko'zi qiymayotgan yana bir-ikki totli xotiralari qolgan edi, u bulardan umidini uzolmasdi. Garchi vaqt siquvgaga olayotgan bo'lsa-da, shularni yodiga tushirmsadan turib ajal quchog'iga o'zini tashlashi qiyin bo'ldi. Endi u doimo yodida saqlab yurgan xotiralari bilan vidolasharkan, qayiqni tark etish vaqt kelganligini unutmadi...

U xotiniga dastlabki kunlardanoq mehr qo'ygandi. Ajablanarlisi shunda ediki, xotini uyda o'tirib o'ylagan narsalarni u ham dengizga chiqqan paytda o'ylagan bo'lardi. Ular birga yashayotgan dastlabki kunlardanoq shunday edi. U dengizga chiqqan vaqtida o'ylagan narsalarni xotini ham o'ylagan bo'lib chiqar, xotinining nima haqda o'ylaganini esa u ham bilardi... Olisdan bir-birlarining fikrlaridan bunday xabardorlikni ular sir tutishar, bu boshqalarga sir bo'lgan yaqinlik baxti edi.

Kirisk hali tug'ilmagan, ammo guminning dastlabki alomatlari ko'rinish qolgandi. Bu alomatlar tasdiqlanishi ham, tasdiqlanmasligi ham mumkin edi. Emrayin dengizdan qaytib kelgan zahotiyoy xotinidan:

- O'g'il bo'ladimi? - deb so'radi.
- Sekinroq kinrlar eshitib qoladi! - dedi qo'rqib ketgan xotini va shu zahotiyoy ko'zlarini xushbaxtlikdan porladi. - Qayoqdan bila qolding?
- O'zing bugun shuni o'ylagansan. O'g'il bo'lishini judayam xohlaysan, to'g'rimi?
- O'zing-chi?
- Sen nimani o'ylagan bo'lsang, men ham shuni o'yashimni bilasan-ku! Men ham xuddi shuni o'ylovdim.
- Sen shuni o'ylaganining uchun men ham shu haqda o'ylaganman, o'zing ham o'g'il bo'lishini judayam xohlaysan-ku, to'g'rimi?...

Shunday bo'ldi. O'ylaganlari to'g'ri chiqdi... Kirisk hali tug'ilmagandi, biroq xotinining oy-kuni yaqinlashib qolgan edi. Yaqin-orada xotinining ko'zi yorib qolishi mumkin edi. O'sha kunlari xotini uning eskirib, ming

yamoq bo'lib ketgan charm sholvorini kiyib yurardi.
«Sen ovga ketganingda, — derdi u, — erkak ruhi doim
uyda bo'lzin deb shunday qilyapman, yo'qsa, yangi
mehmon o'smay qoladi». O'sha kezlar eski charm shol-
vorini kiyib yurgan xotini uning ko'ziga juda chiroyli
va juda jozibali ko'rinaldi. Dunyoda eng chiroyli va
eng jozibali ayol edi uning nazarida.

Ularni ota-onan qiladigan odam farzand edi-da. Far-
zandni o'ylashib yurgan kunlari ajoyib, tashvishli hamda
masrur kunlar edi!

Nihoyat Kirisk tug'ildi...

Endi shu farzandi bilan, unga aloqador jamiki
narsalar bilan vidolashuv payti keldi.

Yana esladi: Kirisk katta bo'lib qolganida, bir kuni
onasining jahli chiqib, «Sen yo'qligingda bunchalik qiy-
nalmasdim», dedi.

Bola juda xafa bo'lib ketdi.

Otasi dengizdan qaytib kelganida:

— Men tug'ilmaganimda qayerdaydim? — deb so'radi
u xarxasha qilib.

Rosa kulgi bo'ldi... Er-xotin indashmasdi-yu, faqat
ko'zları kulib turardi. Ayniqsa, Emrayin javob berol-
maganidan, nima qilishni bilmay dovdirab qolganidan,
bola yo'qligida qayerda ekanligini tushuntirib berol-
maganidan xotini maza qilib kulardi.

Endi esa ota o'g'liga: hali olamga kelmaganingda
sen menda, mening qonimda, belimda eding, shu qon
belimdan onangga oqib o'tdi va sen menga o'xshash
bo'lib dunyoga kelding va hozir g'oyib bo'larkanman,
senda qolaman, bolalarining bolalarida qayta-qayta
tug'ilaman, deb aytib bergen bo'larmidi...

Ha, u shunday degan bo'lardi, o'limi oldidan xuddi
shuni aytib ketsa, baxtiyor bo'lardi. Ammo endi ham-
masi tugayotgandi. Uning urug'i dunyoda qolmayot-
gandi. Farzandining ko'pi bilan bir-ikki kunlik (bun-
dan ortiq emas), umri qolganligini ota yaxshi bilardi.
Uning nazarida eng dahshatli falokat va eng dahshatli
baxtsizlik xuddi shunda edi — o'g'lini deb qayiqni tark
etishida emas...

Emrayin pirovardida: «Umrining qolgan kunlari O'rxon bobo va aki-Milxunlarni minnatdor bo'lib yoda olib turgin», deb o'g'liga tayinlagisi ham kelardi. Endi bu odamlar yo'q, birorta odam ularni eslaydimi – yo'qmi ularga buning endi farqi yo'q, ammo sen o'zing uchun ularni dilingda saqlashing lozim. Hatto o'lim oldidagi so'nggi daqiqalarda ham o'zing uchun ularni dilingda saqlashing kerak. O'layotganingda ham yana shu odamlarni o'zing uchun yodlab o'lish kerak.

Ammo o'ylab-o'ylab, nihoyat, «bularga ehtimol, o'g'limning aqli yetar», degan qarorga keldi...

• • •

Kirisk uyg'onganida, o'tgan kunlardagiga ko'ra uncha sovqatmay uxlaganini sezdi. Ustiga otasining kamzuli yopib qo'yilgandi. Bola ko'zini ochib, boshini ko'tardi-qayiqda otasi yo'q edi. U qayiqni ko'zdan kechirib, birdan seskanib tushdi-da, dahshat bilan o'kirib yig'lab yubordi, tumanli dengizning kimsasiz sahrosini alamli qayg'uga to'lirdi. Uning umidsizlik va dard-alamga to'la faryodi uzoq vaqtgacha tinmadni. U holdan toyguncha rosa yig'ladi, keyin xirillab, qayiq tubiga yiqlidi va boshini qayiq devoriga ura boshladi. Bu faryod uning otalar oldidagi qarzi, uning mehr-muhabbati, uning qayg'usi va marsiyasi edi.

Bola qayiqning tubida boshini ko'tarmay, ko'zlarini ochmay yotardi. Endi uning uchun umidvor bo'ladigan hech narsa qolmagan, o'zini qo'yarga ham joy topolmasdi. Atrofni avvalgidek g'ira-shira tuman qoplаб olgan va faqat bu gal dengiz qayiqni turgan joyida u yoqdan-bu yoqqa tebratib turardi.

Kirisk o'zining uxbab qolganidan o'kinib ho'ngrab yig'lardi, uxbab qolmaganida otasiga tish-tirnog'i bilan yopishib olib, uni qo'yib yubormagan bo'lardi, ular birga o'lib ketganlari, tashnalik va ochlik azobidan tezroq birga o'lib ketganlari yaxshi bo'lardi. Shunda u bu dahshatli cheksizlikda tanho o'zi qolib ketmagan bo'lardi. U kechasi qo'qqisdan qayiq qattiq silkinib ketganini sezmay qolgani uchun, uyg'onmagani, o'rnidan sakrab

turib, qichqirmagani uchun o'kinib-o'kinib yig'lardi. Otasining dengizga o'zini tashlashiga yo'l qo'yarmidi? Undan ko'ra, otasi bilan mana shu zim-ziyo girdobga o'zini otsa bo'lmasmidi!

Bola xo'rsinib-xo'rsinib yig'lab, a'zoyi badani zir qaqqhab, sekin-asta mudray boshladi. Og'ir musibat qarshisida chekinib turgan tashnalik endi alamini ol-gandek yana yangi kuch bilan xuruj qila boshladi. U hatto tushida ham suvsizlikdan sillasi qurib, azob chekayotganini sezib yetardi. Tashnalik uni holdan toydirib azoblab, bo'g'ib tashlayotgan edi. Shunda u uyqusiraganicha bochkacha tomon sudralib borib unga qo'l uzatganda tiqinning bo'shroq turganini va yonida cho'mich ham borligini ko'rib qoldi. U cho'michga suv quyib, hech narsani o'ylamasdan qimtingan lablarini ochib, qaqrab ketgan tomoqlariga tiqilguncha sippira boshladi. Suvdan yana quyib, yana ichgisi keldi, biroq o'ylanib turib, o'zini tiya oldi. Suv oz-ozdan yana ikki marta ichishga yetardi, xolos...

Keyin u g'amga botganicha, otasi uni nega indamay tashlab ketgani haqida o'ylay boshladi. Otasi bilan birga cho'kib ketish unga osonroq bo'lardi. Endi yolg'izlik va dahshat uni qo'l-oyoqlarini bog'lab, chirmab tashlagan qayiqdan o'zini suvga otishga yuragi betlamaydi... Baribir u kuchini yig'ib olgach, o'zini suvga tashlashga ahd qildi...

Kun yarimlab qolgan bo'lsa kerak, ehtimol, peshindan oshgandir. Tumanning ochilib borayotgan tusiga qarab, Kirisk shunday xulosaga keldi. Demak, quyosh tikkaga kelgan bo'lsa kerak. Biroq okean uzra muallaq turib qolgan Buyuk tuman qatlamini hali quyosh nur-lari yorib o'tolmasdi. Tuman siyraklashib, qurigan o'tin tutuniga o'xshab, ko'kkish rangga kirib bormoqda edi. Ammo baribir yigirma-o'ttiz chaqirim narida, atrofida chayqalib turgan qop-qora suvdan boshqa hech vaqoni ko'rib bo'lmasdi.

Suzib boradigan joyning o'zi yo'q edi, eshkaklarni ishga solishga ham quvvati yetmasdi. U otasi hamda Milxunning qayiq yondoriga batartib o'rnatib qo'yilgan eshkaklariga ma'yus nazar soldi. Qayiq endi tumanda

o'z holicha, noma'lum yo'nalishda harakat qilib qalqib turardi. Hamma tomondan bolani yolg'izlik qurshab ol-gan, atrofda yurakni muzlatib yuboruvchi mudhish bir dahshat hukmron edi.

Kechga borib yana hadeb suv ichgisi kelaverdi. Uning ochlik va zaiflikdan boshi aylanardi. Qimirlagisi ham, atrofiga o'girilib qaragisi ham kelmasdi. Qayoqqa ham qarardi, nimani ham ko'rardi. Hatto bochkacha yoniga yetib olish ham malol kelardi. U tizzalari bilan sal emakladi-da, holdan toyib to'xtab qoldi. Kirisk hademay butunlay harakatsiz qolishiga ko'zi yetdi. U qo'lini yuziga yaqin olib keldi-yu, qo'rqib ketdi: qo'li burunduq bolasining qurigan terisidek ozib, kichrayib ketgandi.

Bu gal u keragidan ortiqroq suv ichdi. Endi bochkachaning eng tubidagina suv qolgandi, yana bir marta ichsa bo'ldi, tugaydi. Suvdan bir qultum ham qolmaydi. Lekin endi baribir emasmi. Ammo yana suv ichgisi, qonib-qonib suv ichgisi kelardi. Ochlik azobiga ko'nikdi-yu, qornidagi og'riq bosilmadi, aksincha tinchlik bermay sirqirab og'riy boshladи.

Bola necha bor hushidan ketib, necha bor o'ziga keldi. Qayiq o'z holicha, u yerdan-bu yerga ko'chib, jonzanib qolgan oqimlarga ergashib, tumanda suza boshladи.

Bir payt u o'zini dengizga tashlashga jiddiy qaror qildi. Ammo madori yetmadi. Tizzalab turib, qayiqning chetiga osilib qoldi. Qo'llarini qayiqdan nariga cho'zdi, ammo o'z tanasini qayiqdan uloqtirishga qurbi yetmay, osilganicha qoldi. Keyin esa shunchalik toliqdiki, bochkada qolgan suvni ichishga ham urinmay qo'ya qoldi.

U qayiq ichida qapishib yotgancha suv beruvchi sichqonchasini chaqirib unsiz yig'lardi:

Ko'k sichqoncha, menga suv bergin!

Biroq ko'k sichqondan darak yo'q, u bo'lsa battar suv ichgisi kelaverdi. Shunda yana ariqda yalang'och bo'lib cho'milishgan o'sha kezlar yodiga tushdi. O'shanda u yetti yoshlardan oshmagandi. O'sha yili yoz issiq keldi. O'rmon yoqasida rosa kun qizdirardi. Bolalar o'rmonda meva terishar, cho'milishardi. Onasi ham, singlisi ham

cho'milishardi. Ular boladan unchalik uyalishmasdi. Ik-kovlari yechinishdi, bug'doymag'iz sonlari bilan suvni to'lqinlatib, sachratib, kaftlarini siynalariga qo'ygancha buloqqa seskanib-seskanib tushishdi. Ular bir-biriga suv sepiшиб allaqanday baqirib-chaqirishardi. U esa ariq bo'ylab, chopib balandlikdan o'zini suvga tashlaganida ular, ayniqsa onasi rosa kulishgandi. «Qara, qara, — derdi onasi singlisiga, — judayam o'xshaydi-ya, xuddi o'zi-ya!» ular sho'x-shodon pichirlashib, xandon otib kulishib, yana allanimalar deyishardi... Adog'i yo'q jilg'a suvi shitob bilan oqardi, undan to'yib-to'yib ichish va istagancha cho'milish mumkin edi...

Ko'k sichqoncha, menga suv bergin!

U o'zini yana o'sha ariq bo'yida turgandek his qildi. Go'yo u yana saraton jaziramasida cho'milayotgan mish. Mana, u qirg'oq bo'ylab yugirib keldi-da, oqimga o'zini tashladi, ammo oqimning salqinligini sezmadni. U suv emas, qandaydir bir noma'lum narsa, suv desang suvga o'xshamaydi, xuddi tumanning o'zi. U tumanda cho'milyapti. Bunaqa suvda eti jimirlashib ketyapti. Onasi bo'lsa kulmaydi, aksincha, yig'layapti, «Qara, qara, u judayam o'xshaydi unga», — deydi u kimgadir va yana yig'laydi, o'ksinib yig'laydi. Uning sho'rta'm ko'z yoshlari bolaning yuziga oqib tushayotir...

* * *

Tunda Kirisk to'lqinlarning chayqalishi va shov-qinidan uyg'onib ketdi. Bola zaif chinqirib yubordi, u osmonga qarab, yulduzlarni ko'rди! Shuncha kundan buyon birinchi marta yulduzlarni ko'rishi. Ular zim-ziyo osmonda, balandda, dengiz ustidan suzib o'tayotgan bulutlar orasida porlab turardi. Hatto bir necha bor bulutlar orasidan shitob bilan suzib o'tgan oyni ham ko'rdi.

Bola o'zini yo'qtib qo'ysi: yulduzlar, oy, shamol, to'lqinlar — hayot, jonlanish boshlandi. Garchand tuman pardasi hali shundoq turgan bo'lsa-da, qayiq shunday qalin tuman orasidan o'tganda hammayoq yana g'irashira zulmatga cho'ksa-da, bu hol uzoq davom etmadi. Buyuk tuman qo'zg'alib, junbushga kelib, shamol va

to'lqinlardan chekinib, olamga tarqab, yoyilib borardi.

Bola ko'zlarida yosh bilan yulduzlarga boqardi. Eshkaklarni qo'lga olishga madori yetmasdi, yulduzlarga qarab yo'l topishni, qay tomonga qarab suzishni ham bilmasdi, qayerdaligini va kelajakda uni nima kutayotganini ham bilmasdi. Lekin u baribir yugurik to'lqinlarning shovqinini eshitayotganidan, shamol turib, qayiq to'lqinlar uzra suzib borayotganidan xursand edi.

U sevinch va qayg'udan, olam yorishganidan, dengiz jonlanib qolganidan yig'lar, ichishga suvi va biron-bir yemishi bo'lganda edi, ehtimol u yana hayotni sevib qolgan bo'lardi. Ammo u, endi o'rnidan turolmasligini, kuni bitganini, hademay tashnalikdan o'lib ketishini sezib turardi...

Qayiq bo'lsa to'lqinlar yuzalab tobora ildamroq suzib borardi. Qayiq rulsiz va eshkaklarsiz, oqim bo'ylab suzib borardi. Dengiz uzra ufq arang ko'rinar, tun qorong'iligi asta-sekin chekinib, tuman to'dalari borgan sari kamayib borardi. Shuningdek, yo'l-yo'lakay u yerbu yerda to'planib qolgan tuman to'dalari ham siyraklasha boshladи. Endi avvalgiday sukunat hukm surmayotgan bo'lsa-da, qorong'ilik bolani zeriktira boshlagan edi. Endi tuman ichida qandaydir xayoliy mavjudotlar sassiz uchib yurganday tuyuldi unga. Ular paydo bo'lib, yana shamolda izsiz yo'qolar, tumanni choc-chokidan so'kib, har tomonga tarqatib borardi.

Bulutlar orasida oy paydo bo'lishi bilanoq dengiz yuzasi bir zum jimirlab, yarqirab ketar, so'ng yana so'nib, yana jonlanardi. Bola ohista nur sochayotgan yulduzlarga boqib, o'ylay boshladи: «Ularning qay biri qo'riqchi yulduz ekan? Qay biri atkichx O'rxonning, qaysi biri aki-Milxunning, qaysi bir otam – Emrayinning yulduzi ekan? Sizlar mutlaqo ko'rinnadingiz. Siz, yulduzlar ham, bizlarni tumanda ko'rolmasdingiz. Endi yakka o'zim qoldim, qayoqqa suzib borayotganimni ham bilmayman. Ammo endi men qo'rqlmayman, negaki osmonda hammalarining ko'rib turibman. Faqat kimning yulduzi qayerdaligini bilmayman. Biroq bunday bo'lishiga sizlar aybdor emassizlar. Axir, siz bizni dengilda ko'rmagansiz. Buyuk tuman bizni yashirib turgan edi.

Endi yolg'iz o'zimman. Ular bo'lsa suzib ketib qolishdi. Uchovlari ham ketib qolishdi. Ular sizni judayam yaxshi ko'rishardi. Sizni judayam kutishdi, qirg'oqqa yo'l topib borish uchun sizlarni ko'rishga judayam mushtoq bo'ldilar. Yulduzlar hech qachon aldamaydi deb atkichx O'rxon aytardi, u menga yulduzlarga qarab yo'l topishni o'rgatmoqchi edi... Biroq bunday bo'lishiga sizlar aybdor emassizlar. Mening ham kunim bitay deb qoldi, suvim ham qolmadi, tinka-madorim qurib, qayqqa suzib borayotganimni ham bilmayman... Mening ozgina, judayam ozgina suvim qoldi, men uni hozir ichaman, endi chidolmayman, quvvatim qolmadi. Bugun qoq baliq solinadigan xaltamning bir bo'lagini chaynab ko'rdim. U tyulen terisidan tikilgan. Boshqa chida-yolmayman, ko'nglim aynib, ichim ag'dar-to'ntar bo'lib ketyapti... Men hozir oxirgi suvni ichaman. Mabodo boshqa ko'rishish nasib bo'lmasa, yulduzlar, sizlarga bir gap aytay – atkichx O'rxon, aki-Milxun, otam Emrayin sizlarni juda yaxshi ko'rishardi. Mabodo ertalabgacha omon qolsam, keyin vidolashaman...»

Tez orada qayiq yana qalin tuman qatlami orasiga tushib qoldi. Yana hamma narsa ko'zdan g'oyib bo'lib qoldi. Biroq qayiq avvalgiday shamolning kuchi bilan ilgarilab borardi. Kirisk uchun endi hech narsaning ahamiyati yo'q edi. U butunlay aynib, sasib ketgan suvning so'ngi qultumini ichdi-yu, o'sha joyda, bo'm-bo'sh bochka yonida, qayiq quyrug'ida, odatda O'rxon bobo o'tiradigan yerda yotib qoldi. U o'limga chog'langani uchun endi tumandan ham qo'rmasdi. Faqat yulduzlar ko'rinxay qolgandi-da, ular bilan vidolashishga ehtimol ulgurolmasam kerak, deb afsuslanardi... Ahvoli yomonlashgandan yomonlashib borardi.

U xushsizlanib, alahsirab yotar, oradan qancha vaqt o'tganini bilmasdi. Ehtimol tun yarimlab qolgandir, ehtimol, tong otib qolgandir? Bir nima deyish mushkul. Dengiz ustini shamolda uchgan tutun singari g'ira-shira tuman qoplاب olgan edi.

Peshonada bori bo'ladi. Bola shu payt qushning ovozini eshitishi ham, eshitmasligi ham mumkin edi. Lekin u eshitdi. Birdan boshi ustida nimadir vizillab, qa-

notlarini shapillatib tumanda qayiqning ustidan pastlab uchib o'tib ketganini sezib qoldi. Bola birdan sapchib tushdi va bir zumda bu – qush, qanolarini keng yoyib uchayotgan katta kuchli bir qush ekanini ko'rishga ul-guroldi.

– Agukuk! – qichqirdi u. – Agukuk! – u qutb boy-qushi qayoqqa uchib borayotganini ko'rishga ulgurdi, shamolning qayoqqa esayotganini eslab qolishga ul-gurdi. Shamol chapdan, gardanining so'l tarafidan, chap qulog'inining biroz orqarog'idan esardi!

– Agukuk! – qichqirdi u qush uchib ketgan tomonga qarab qayiqni burgancha.

Kirisk rul eshgagiga mahkam yopishib olib, zo'r berib tirishar, qolgan-qutgan kuchini arang jamlab, boshqa hech narsaga e'tibor bermay faqat shamolning yo'nalishini va qushning uchib ketgan tomonini yodda tutardi. Qutb boyqushi qayerdan qayoqqa uchayotganligi noma'lum edi. Oroldan qit'agami yoki qit'adan birorta orolgami – bilib bo'lmasdi. Ammo Kirisk O'rxon boboning hikoyasini esdan chiqarmagandi – bu qush dengiz ustidan faqat to'g'riga qarab uchadi. Agukuk – tunda va tumanda uchadigan eng kuchli qush. Endi Kirisk shu qush izidan borayotgan edi.

Qayiq bo'lsa to'lqindan to'lqingga oshib o'tardi. Shamol birday esmoqda edi. Tuman siyraklashib, tarqalib borar. Osmonning chetlari biroz yorishib bormoqda edi. Oldinda, shundoqqina to'g'risida esa lojuvard osmoni falakda yagona nurli bir yulduz balqib turardi. Kirisk yulduzning xuddi qayiq borayotgan tomonda turganligini payqadi. U yulduzni mo'ljalga olib, o'sha tarafga qarab borish lozimligini fahmladi, chunki agukuk xuddi shu tarafga qarab uchib ketgandi. Bola bu yulduzning nomini bilmasa ham endi u shu yulduzdan ko'zini uzmas va shamolning yo'nalishini, uning kuchi va epkinini bilib turardi.

«Shamol, esaver, ketib qolma. Noming nima, bilmayman, atkichx O'rxon bo'lganida nomingni aytib berardi. Ammo sen menga aka bo'l. Ketib qolma, shamol, o'zingni boshqa yoqqa olib qochma. Axir, sen qancha xohlasang, shuncha uzoq esaverasan-ku. Shamol, menga

madad ber, ketib qolma. Men nomingni albatta bilib olaman, so'ng otingni aytib chaqiraman. Xohlasang, men seni O'rxon deb chaqirayin. Atkichxim – O'rxonning nomi bilan chaqirayin. Endi seni hamisha O'rxon shamol deb atayman. Sen ham meni tanib olasan...»

U hamroh shamolni ana shunday ardoqlab, to'g'ri yo'lga boshla, dilimga umid va ishonch ber, deb yalinib-yolvorardi. Ko'zlarini esa intilayotgan yo'lchi yulduzdan uzmarsi: «Seni yaxshi ko'raman, yulduzim, – derdi u yulduzga. – Sen juda baland va uzoqdasan. Sen oldindagi eng katta va go'zal yulduzsan. Yolvoraman, ketib qolma, bir joyda to'xtab tur, hech so'nma. Sen tarafga suzib ketyapman. Sen tomonga agukuk uchib o'tdi. U orol tomonga uchdimi yo qirg'oq tomonga uchdimi, bilmadim. Orolga uchgan bo'lsa ham mayli, orolda o'la qolay. Ketma, so'nib qolma ey yulduz! Nomingni bilmayman, mendan xafa bo'lma! Nomingni bilishga ulgurolmadim. Nomingni menga otam Emrayin aytib bera olardi. Agar xohlasang, seni otamning nomi bilan atayman, seni Emrayin yulduzi deyman. Osmonda paydo bo'lganingda sen bilan salomlashib, nomingni shivirlab aytaman. Sen esa menga madad ber, Emrayin yulduzi, barvaqt ketib so'nib qolma, bulut orasiga bir-dan yashirinib olma...»

U o'zining yo'lchi yulduziga shu so'zlar bilan murojaat qildi. U yana to'lqinlarga yolvordi: «To'lqinlar, siz qayig'imni haydab boryapsiz, siz hozir qanday yaxshisiz. Men sizlarni aki-Milxun to'lqinlari, deb atayman. Siz agukuk uchgan tomonga ketyapsiz. Siz xohlagan tarafingizga yumalab keta olasiz-ku, axir. Aki-Milxun to'lqinlari, ketib qolmang, yo'ldan adashmang. Men eshkak eshib ketar edimku-ya, lekin butunlay holdan toyganman-da. Ko'rib turibsiz-ku, siz qayoqqa xohlasangiz, o'sha yoqqa suzib ketyapman. Agar omon bo'lsam, hamisha yodimda tutaman: siz O'rxon shamoli esgan yoqqa, Emrayin yulduzi tomoniga suzyapsiz, aki-Milxunlar dengizda faqat yaxshilik qilishadi, deb hammaga aytaman! Menga madad bering aki-milxunlar! Ketib qolmang, meni tashlab ketmang...»

• • •

Hamma yulduzlar orasida eng uzoq charaqlab turgani Emrayin yulduzi bo'ldi. Tongga yaqin u osmon-u falakda yolg'iz o'zi qoldi. Tongga yaqin u kuchli, sof bir nur bilan lovullab yonib turdi va subhidamning simobrang havosida asta-sekin so'nib, yana ancha vaqtgacha osmonda nafis, oppoq nurday bo'lib turdi.

Mana, shu zaylda tong ham otdi. Keyin dengiz uzra oftob chiqdi. Kirisk ham quvonib, ham qo'rqib ketdi. Quyoshning chiqishidan quvonib ketgan bo'lsa, dengizingning bepoyonligidan qo'rqib ketdi. Oftob nurlarida jivirlab moviy tovlanayotgan dengiz deyarli qop-qora tusga kirib, cheksizligidan ko'z ilg'ammas holga keldi. Bola rul eshkagiga jon-jahdi bilan yopishib olib, o'zi eslab qolgan tomonga, shamolning yo'nalishiga qarab suzishga harakat qilardi. Bu juda-juda mushkul edi...

U boshi aylanib, ko'zi tinib, hamma narsa chirpirak bo'lib ketganini eslay oldi, xolos...

Qayiq endi o'z holicha suzib borardi...

• • •

Bola esini yig'ib o'ziga kelganida, quyosh osmonning narigi chetiga siljib ketgan edi. Kirisk titroq qo'llarini olg'a cho'zib, suyanaganicha qayiqning quyrug'idan bazo'r qo'zg'aldi, boshi aylanishi o'tib ketishini kutib, ko'zlarini yumganicha joyida qotib turdi. Keyin ko'zini ochdi. Qayiq to'lqinlar osha suzib borardi. Dengiz yuzasidagi chayqalib turgan betinim suv tangachalari ko'z ilg'agan joygacha jimirlab turardi. Kirisk oldinga nazar tashlab, ko'zlarini uqaladi va hang-u mang bo'lib qoldi. Dengizning quyuq yashil o'rkachida qarshidan unga qarab Olapar chopib kelardi! Buyuk Olapar!

Dengiz chetida kulrang - zangori tusdag'i qoya shundoqqina ko'zga tashlanib turardi. Ammo quloplariyu tepalarigacha oppoq bo'lib turadigan Olapar boshqa hamma qoyalardan ko'ra baland bo'lib, uning etagidagi mudom borib-kelib, chayqalib turadigan to'lqinlar ham aniq ko'rina boshladи. Havoda qirg'oq bo'ylab uchib yuradigan oqchorloqlarning tovushi ham qulog'qa chalnardi. Eng avval bolani oqchorloqlar payqab qolishdi.

Adashganlarga yo'l ko'rsatish uchun tepalikning eng yuqorisida tunda yoqilgan o'tning tutuni o'rlab turardi...

*Sohil bo'ylab chopayotgan Olapar,
Yakka-yolg'iz qaytmoqdaman yoningga –
Bobojonim O'rxonsiz
Otajonim Emrayinsiz,
Og'ajonim Milxunsiz,
Ular qayda qoldi, so'ragil mendan,
Faqat avval suv b ergin, o, suv...*

Bu Kiriskning o'zi to'qigan qo'shiqning dastlabki satrlari edi. Bu endi uning umrining oxirigacha aytadigan qo'shiq bo'ladi...

* * *

...Dengiz to'lqinlari zulmat qo'ynida guvullab, o'kirib, shiddat bilan qoyalarga kelib urilib, parchalanib ketardi. Dengiz hamlalarini qaytaraverib, tosh-metin bo'lib ketgan qirg'oq xo'rsinib, uf tortardi.

Olam olam bo'lib yaralgandan buyon, kun tundan tug'ilgan, tun kundan tug'ilgan zamонлардан buyon ahvol shu – ikki qudratli kuch o'rtasidagi olishuv davom etadi: bundan buyon ham, kun-u tun, tun-u kun, toki yer bilan suv bor ekan, ular abadulabad shunday kurashaveradi...

Kun-u tun, tun-u kun...

* * *

... Shunday kechlardan yana biri o'tdi...

Dengiz uzra O'rxon shamoli shovqin solar, dengizda aki-Milxun to'lqinlari suzib yurar va yorishib kelayotgan osmoni falakning bir chetida Emrayinning nurli yulduzi charaqlab turardi...

... Yana yangi bir kun boshlanmoqda edi...

*Poytug' qishlog'i. 1976 yilning dekabri,
1977 yilning yanvari.*

HIKOYALAR



OQ YOMG'IR

Y uksak tog' qoyalaridan esayotgan muzdek shamol qorong'i daralar ichidan kuch bilan otilib chiqib, tog' etaklariga ravona bo'lardi. Pastda ovul uyquga cho'mgan.

Atrof jimjit, derazalardan ko'rinish turgan chiroqlar sekin o'cha boshladи. Qirov qoplab, endigina ochilay deb turgan bahor kurtaklari, oy shu'lasida g'ira-shira kumushdek tovlanib turardi. Faqat shamolning tomga yopilgan qamishlarni shitirlatgan tovushi bilan uyqu aralash uligan it ovozi eshitilardi. Uzoqlardan esa tog' daryosining shovullashi va motorlarning guvullashi arang quloqqa chalinardi...

Qorong'ida ovul chekkasidan ikki kishining gavdasi tez yaqinlashib kelmoqda edi. Ana ular, qadamlarini sekinlatib to'xtashdi...

– Endi, bu yog'iga o'zim... Rahmat, – ayol kishining ovozi eshitildi.

– Kel, kuzatib qo'ya qolay, tag'in itlar talab yurmasin, – javob berdi erkak kishining ovozi.

– Men itlardan qo'rilmayman...

– Shunday bo'lsa ham...

– Yo'q, Qosimjon, sen ishga kechikib qolasan.

– Hali vaqt bor, ulguraman, – Qosimjon gugurt chaqdi. Miltillagan alanga bir lahzada qorong'ida katak ro'molli qiz bilan egniga sportchilarining charqli kurtkasini, oyog'iga esa kirza etik kiyib olgan yosh yigitni o'z bag'riga tortib olmoqchi edi.

– O, Saodat, hali yana rosa ikki yarim soat vaqt bor, – dedi u, soatiga qarab.

– Hojati yo'q, Qosimjon, boraver... Biror kishi ko'rib qolgudek bo'lsa, gap qilishadi. Bundan tashqari, men juda bezovtalanayapman. Onam nega chaqirtirdi ekan?.. Tobi qochib qolgan bo'lsa-ya?

– Ha-a, agar shunday bo'lgan bo'lsa, uni yolg'iz

qoldirish mumkin emas. Lekin sen ko'pam siqilaverma, bir ilojini qilarmiz...

Ular yana biroz turishdi-da, so'ng ajralishdi: Saodat – uyga, Qosimjon bo'lsa, tog' tomonga yo'l oldi. Biroz yurgach, u orqasiga qaradi.

– Agar biror narsa bo'lsa xabar qil... Men kutaman.

– Yaxshi, – bo'g'iq ovoz bilan javob berdi Saodat.

U ham bir necha qadam yurgandan so'ng to'xtadi-da, orqasiga qaradi. Qosimjon ko'rinnmas edi. Zim-ziyokecha. Saodat uyiga oshiqdi. U uyiga qanchalik yaqinlashib borar ekan, shunchalik qadamini tezlashtirar edi. Oxiri Saodat sabri chidamay yugurib ketdi. Uning miyasi turli xayollar bilan band edi.

Xayolida xuddi u hozir yugurib borib eshikni ochadiyu, ko'zları xiralashib, to'shakda yotgan kasal onasini ko'rayotganday edi. «Opa, qadrdom, qimmatli onam», deb qichqirib yuborgudek bo'ldi Saodat, lekin ovozi chiqmadi. Mana tanish darcha ham ko'zga tashlandi. Birdan o'ziga qarshi kelayotgan qandaydir soyaga ko'zi tushdi.

– Senmisan, Saodat? – so'radi onasi.

– Nima qildi, opa?

– Shunday kechada yolg'iz o'zingmisan?

– O'zim, – dedi Saodat, yolg'on gapirib.

– Seni qara-ya, Xudoning o'zi asrabdi, – qo'llarini ishqalab qo'ydi Zaynab opa. – Shunday ham bo'ladimi.

– Yo'q, men yo'lovchi aravada keldim, – darrov o'ylab topdi Saodat.

Qizini quchoqlaganicha Zaynab opa yig'lab yubordi:

– Kutaverib holdan toydim. Ko'zlarim teshildi. Kech ham kirdi, sendan hamon darak yo'q. Yo'lda biror hodisa ro'y berdimikan, deb xavotir oldim. Kutib olish uchun endi o'zim yo'lga chiqmoqchi bo'layotgan edim.

– Senga nima bo'ldi, opa, biz o'tgan hafta ko'rishgan edik-ku.

Saodat traktor brigadasida pritsepchi bo'lib ishlardi, u butun yoz bo'yi dala shiyponida istiqomat qildi. Shuning uchun ham u har gal uyga kelganda Zaynab opa uchun haqiqiy bayram bo'lar edi. U qizini shun-

day sog'inar ediki, bunday vaqtarda uning oldidan bir qadam ham jilmas edi. Ular o'choqqa birga o't qo'yishar, ro'zg'or tashvishlari bilan band bo'lishardi, — biri xamir qorsa, ikkinchisi go'sht pishirar, Saodat sigir sog'sa, Zaynab opa uning yonida turib, atala pishirardi. Gap deganning keti uzilmasdi. Zaynab opa xizmat qilayotgan kolxozda ham, Saodat ishlayotgan traktor brigadasida ham yangiliklar ko'p. Saodat qachon ariq bo'yiga bormasin, Zaynab opa darcha oldida turib unga tikilganicha kuzatib qolardi. Ona o'z qizining bo'yga yetib qolganiga sira ishongisi kelmasdi. U Saodatning to'lishgan, xushbichim yag'rinlariga mehr bilan qarab turardi. Saodat mayda ko'zli kumush bilaguzuk taqib olgan tiqmachoqdek bug'doymag'iz qo'llari bilan obkashni mahkam ushlagancha epchillik bilan chiroyli qadam tashlab kelardi. Uning bir tekisda nafas olishi ko'ylak burmalarini xiyol qabartib ko'rsatardi.

— Qo'zichog'im, ko'zimning oq-u qorasi, nima desang ham o'zing bilasan, lekin sen bilan maslahatlashmasdan shunday qarorga keldim, — o'zicha tasavvuridan o'tkazardi ona.

Bugun ona-bola har qachongidan ko'ra xursand, bir-birligiga mehribon edi. Saodat onasining behuda cha-qirmaganini, unga qandaydir bir muhim narsa aytmoqchi ekanini sezib turardi. Haqiqatan ham Zaynab opa bu gapni aytish uchun ko'pdan beri tayyorlanib yurardi.

Keyingi kunlarda qizining ko'ngli nimagadir g'ash edi. Buning sababi nimada ekan?

Erta bahor kunlarining birida sal-pal qor yog'ib turgan edi, Saodat xalloslaganicha uyga yugurib keldi.

— Opa! — hayajon bilan qichqirdi u ostonadan, — komsomol brigadasi keldi!

— Qanaqa brigada?

— E, bilmaysanmi hali — MTSdan komsomollar brigadasi. Komsomollar yangi yerda ishslashmoqchi. Ularni o'z ko'zim bilan ko'rdim, opa, mashina va traktorlarda tegirmomonning yonginasidan o'tib ketishdi. Ular o'zlari bilan plug va seyalkalar ham olib kelishyapti.

«Muncha u bezovtalanadi? — hayron bo'lib qoldi shunda Zaynab opa. — Nima bo'libdi, kelsa kelishibdi-da».

Qizi hamon kuyib-pishib gapirayotgan edi:

— Men ularni qayerni haydashini bilaman, opa. Bizga u yer juda ham yaqin. Toqoy akaning aytishicha, ular bu yil «Eski o'tov»ning hammasini haydashar emish.

Oradan bir necha kun o'tgandan so'ng Saodat MTSga pritsepchi bo'lib ishga kirish uchun onasidan ruxsat so'radi. Zaynab opa qizini uydan chiqarishga hech ko'ngli yo'q edi, lekin Saodatning o'jarligi, o'z aytganida turib olishini bilgan ona biroz bo'shashdi.

— Bu yil pritsepchi bo'lib ishlayman, keyin esa bizni traktorchilikka o'qitishadi. Axir men, komsomol majlisida so'z bergenman, so'zimdan qanday qayta olaman.

Biroq ishga Saodatning amakisi Toqoy aka aralashmaganda bu bahona onaga ta'sir qilishi gumon edi.

— Yoshlarning ko'nglini o'ksitma, hamma narsa ularga ayon, mayli, borsin! — maslaxat solardi u onaga. Saodat ham ketdi. Lekin ko'p o'tmay ona qattiq pu-shaymon qildi.

U ko'rdiki, endi Saodat faqat unikigina emas, balki yana qandaydir qudratli bir kuch uni kundan kun o'ziga tortayotgan edi.

Ba'zi vaqtlar uning nazarida Saodat o'zidan ko'ra aqlliroy tuyulardi. Bu qiz bola uchun ortiqcha emas-mikin? Kunlar o'tishi bilan Saodatda onasi tushunmaydigan qandaydir o'zgacha tashvishlar orta bordi. Nima uchun Saodat uyga kelgandan so'ng onasini naqadar sog'ingan bo'lismiga qaramay kallayi saharlab turib, sal tong yorishishi bilan yana brigadaga oshiqadi?

Qiziq. Saodat ba'zan vazmin, ishchan, erkalik qilib onasiga suykalanar, ba'zan esa birdan ko'z oldi qorong'ilashib, onasidan ajrab qolgan bo'taloq singari g'amgin bo'lib qolar va xomushlanib, jimgina o'tirardi.

— O'z ishingdan xursandmisan, Saodat? — go'yo hech narsani sezmagandek so'rardi Zaynab opa. — Brigadalar ringizdagilar qanaqa odamlar o'zi?

— Juda xursandman! — Har vaqt javob berardi Saodat va hayajon bilan o'z o'rtoqlari haqida hikoya qilishga kirishib ketardi. Ular uzoq yerlardan kelishgan, mashinani ham yaxshi bilishadi. Hatto shundaylari ham borki, ular mashinalarni zavodda o'zlar yasaganlar.

«Qani, men ham o'shalarday bo'lsam» derdi Saodat, ko'zları chaqnagan holda. Shunday paytlarda u onasi uchun qandaydir begona va tushunib bo'lmaydigandek tuyulardi. Saodat onasining ko'zlaridagi bu tashvish alovmatini sezmasdan, o'zini hayajonga solayotgan hamma narsa haqida, komsomol majlisi, devoriy gazeta-yu, ishyoqmas, dangasa traktorchini qayerdan sudrab kelganliklari haqida va yana boshqa ko'p narsalar haqida gapirayotgan edi. Lekin Zaynab opa bularning hammasini ham tushunavermasdi.

Ular birga choy ichishdi. Saodat dasturxonni yig'ishtirib, piyolalarni yuvib, tokchaga olib qo'ydi. Yotish vaqtı ham bo'ldi. Biroq Zaynab opa Saodatga diqqat bilan qaraganicha hamon namat ustida o'tirardi.

— Menga yaqinroq kel, qizginam, o'tir, — o'z yonidan joy ko'rsatdi u. — Sen bilan gaplashib olmoqchiman...

— Gapir, ona, qulog'im senda.

Zaynab opa o'z fikrlarini jamlab, gapni nimadan boshlashni bilmay anchagina turib qoldi.

— Sen mening ko'z ochib ko'rgan yolg'iz qizimsan, Saodat, — dedi u qizining yuziga tikilib. — Sen mening ham o'g'limsan, ham qizimsan. Mening sendan boshqa hech kimim yo'q. Sen menga oson deb o'ylaysanmi? — Onaning ko'zlarida yosh tomchilari paydo bo'ldi. — Faqat ishda biroz unutaman, uyga keldimmi... Yolg'izlik yuragimni yondirib yuboradi... Qayerda qoldi ekan, biror narsa bo'ldimikan, sog'mikan... Ishing ayollar qiladigan ish emas, Saodat. Qiz bolarning plug ustida o'tirishi nimasi... Bu ishingni qo'y, uyga kel... Kolxozda ish oz emas.

Zaynab opa ko'z yoshlarini artib og'ir xo'rsindi. Uning nima demoqchi ekanini shu gaplarning o'zidanoq payqab olish mumkin edi. Lekin Saodat onasi asosiy gapni aytmaganini sezib turardi.

— Nima, dala shiyponimizda qizlardan yolg'iz o'zimmanmi? Axir, bizning kolxozda boshqa qizlar ham bor-ku. MTSda yana qanchasi bor! Buning ustiga ular ishda erkaklardan qolishmayapti. Nima uchun men ishni tashlashim kerak ekan?

— Sen ular bilan teng bo'ima! — Zaynabning jahli chiqdi. — Ular ota-onalarining yakka-yu yolg'iz bolasi emas.

Saodat onasini mahkam quchoqlagancha ko'ksiga bosib qotib turdi. Unga rozi bo'lishdan boshqa gap ham bo'lishi mumkin emas edi.

— Yaxshi, opa, sening aytganingcha bo'lsin. Biroq menga u yerda yana biroz bo'lismaga ruxsat ber. Hademay bahorgi ekish ham tugaydi, o'shanda butunlay qaytib kelaman. Juda oz vaqt qoldi, sabr qil, opa...

Onaning ko'ngli tinchidi. Yotish vaqt ham bo'ldi. Ko'zi endi uyquga ketgan edi, qandaydir shitirlagan ovoz eshitildi. Zaynab opa ko'zini ochdi va Saodatning turib sekin deraza tomon borayotganini ko'rdi. Oyning ko'kimtir nuri qizning boshi va yelkalarigacha yoritib turardi. Saodat bezovtalanib onasiga qaradi, so'ngra sekingina deraza oldiga bordi-da, tizzasini qo'llari orasiga olib sukut saqlab o'tiraverdi. Aftidan, u nimalarnidir o'ylayotganday asabiylashib, ko'ksiga tushib turgan sochlarini yulqib tortardi.

«Nega uxlay olmayapti?» — onaning yuragi yana xavotirdan zirqiray boshladi.

Saodat deraza oynalariga yaqinroq o'tirib, tog' yon-bag'rida ishlayotgan traktor chiroqlarining ahyon-ahyonda yonib o'chayotganini tomosha qilib o'tirdi. Uzoqdan eshitilayotgan motorlarning guvullashiga zavq bilan qulq solardi. Traktorlar go'yo yaqin atrofda ishlayotgandek ularning shovqini goh yaqinlashar, goh qiz diqqatini o'ziga jalb etganday uzoqlarga ketib qolardi.

«Traktorga qulq soleyapti», — o'zicha o'yaldi Zaynab opa va u ham doim shu guvullagan ovozni eshitadigan bo'ldi. Uning qizi ham o'sha yerda, dalada ishlaydi. Saodat uyda bo'lmagan paytlarda esa ona shu guvullagan tovushni eshitib, ko'ngli biroz tinchiganday bo'ladi. Ha, qizi deraza oldida behuda o'tirgani yo'q. U butun vujudi bilan o'sha yerda, traktorlar zo'r berib shudgor qilayotgan yerda o'tirardi. Buni Zaynab opa yaxshi sezardi.

Saodat uzoqdagi chiroqlarga boqib turar ekan, nazarida o'tkir plug tishlari qo'riq yer qatlamlarini qiya qilib, mayin tuproqlarni taram-taram ag'darib borayot-

ganini ko'rib turganday bo'ldi. Qachonlardan beri inson qo'li tegmagan edi bu yerkarga.

Mana endi ular Qosimjon bilan birga inson qadami yetmagan, qarovsiz yerga birinchi bo'lib jon kiritmoq-dalar. Endi bu yerda ekinlar boshoqlaydi. Hademay yo'llar tushadi. Qadimda ko'chmanchilar ko'chib yuradi-gan «Eski ko'chmanchi» vodiysidagi tog' oralig'ida uylar qad ko'taradi, shunda odamlarimiz kelgan kishilarga faxrlanib: «Mana shu daladan o'tsangiz molxonani ko'rasisz, undan narida ko'cha bor, xuddi ana shu yer bizning kolxoz bo'ladi» deyishadigan bo'ladi. — «Ha, buning hammasini o'z qo'limiz bilan yaratgan-miz!» — o'yldi Saodat ko'ngli quvonchga to'lib. Axir, bu chinakam baxt emasmi, butun hayotingni unga bag'ishlasang arzimaydimi?!

Yorqin quyosh ostida jimirlab yotgan ko'kimtir shudgor uning ko'z o'ngidan o'tdi. Saodat ana shu iliq bug' bilan to'yib-to'yib nafas olardi. Yerding namiqb an-qigan hidi uni o'ziga chorlardi. Oh, qanday yoqimli...

O'tloqning narigi boshiga borib qaytishda Saodat tezda plug richaglarini almashtiradi. Oynadek yaraqla-gan lemex tishlari yer bag'ridan ko'tariladi. Ularning har birida quyosh nuri akslanib turardi.

Traktorni qaytara turib, Qosimjon unga qarab kulib qo'yardi. Saodat esa:

— Bo'sh kelma, Qosimjon! Bugun birinchilikni ola-miz! Bo'sh kelma!..

«Qosimjon... uchrashganimiz qanday yaxshi bo'ldi, birga ishlayapmiz! Men dunyoning narigi burchiga bo'lsa ham orqangdan borishga tayyorman», — shivir-lardi Saodat o'zicha.

Zaynab opaning ko'ngli xavotirda edi. Nima qilarini, qiziga nima deyishini bilmay og'ir xo'rsinib, ikkinchi yonboshiga o'girilib yotdi. Saodat seskanib ketdi. Ancha vaqtgacha gapirmay jimgina o'tirdi, so'ng onasi tomon bir qarab oldi-da, ohistagini karavot oldiga keldi-da, yotdi. Biroq qiz ham, ona ham uxmlay olmadı. Ularning har biri o'z xayollari bilan band edi.

Zaynab opa qizining bo'yiga yetib qolganini va uning kelgusi taqdiri haqida harakat qilish zarurligini o'yldi. Agar o'z ovulimizdan biror munosib yigit to-

pilsa, u vaqtida qizi doimo o'z qanoti ostida bo'lardi. Agar kuyov yolg'iz bo'lsa yana yaxshi – ichkuyov qilib olardi. Qiz, hatto sep tayyor ekanidan hali xabarsiz edi. Turli xil kigizlar tayyor, faqat chodir sotib olish qolgan edi.

Saodat esa Qosimjon haqida, u bilan birinchi uchrashganlari haqida o'yldardi. O'sha kezlarda ular bir agregatda ishlashar edi. Har gal ham traktor to'xtaganda Qosimjon uning oldiga kelib so'rardi:

– Sen charchamadingmi, Saodat? Biroz dampingni ol.

«Nega buncha menga yopishib oldi u? – jahli chiqib derdi Saodat. – Nima, men yosh bolamanmi?» Agar Qosimjon undan ahvol so'ramasa, Saodat yana achchiqlanardi: «Nega u biron narsa demaydi? Xafa bo'ldimi yoki men uning joniga tegdimmi?»

Kunlardan birida ular qo'shni chegaraga, yaqin joydagi eng baland qoyaga chiqmoqchi bo'lishdi. Saodat o'sha kunni hech qachon unutmaydi. Tik qoyaga ko'tarilish qancha qiyin bo'lmasin, lekin ular charchashni ham unutib, to'xtamasdan nima bo'lsa ham cho'qqiga chiqib olish uchun qat'iy ahd qildilar. Ikkovlari ham u yerda bir-birlariga qandaydir muhim narsa aytish haqida o'yardilar. Axir bu yerda ularning so'zlarini hech kim eshitmasdi-da: bu yaqin orada ulardan boshqa biror tirik jon yo'q. Biroq cho'qqiga chiqib olganlaridan keyin ham ulardan birontasi ko'nglidagini ochiq aytishga botinolmadi. Faqat qaytib tushayotganlarida Saodat to'satdan sirg'anib ketdi, Qosimjon uni mahkam tutib qolib, o'pib olmoqchi bo'lib intildi, ammo bu safar Saodatning jahli chiqmadi. U hech qachon o'zini shunday baxtli his etmagan edi.

* * *

Zaynab opa lang ochilgan eshik yondoriga suyangani-cha uyning ichkarisiga qarab turardi. Uning harakatsiz bosh egib turishidan, taajjublanib xiyol ko'tarilgan qoshlari va bir-biriga botib ketgan lablaridan sukut saqlab, umidsizlikka berilayotgani sezilib turardi.

U biror qo'rqinchli narsani kutayotganday ostonaga qadam tashlashga botinmay turdi yoki nimanidir esladi. Balki tog'dan shamol olib kelayotgan shovqin-suronga

qulq solayotgandir. Ko'ylagining keng va uzun yengi shalvirab osilib turardi. Yonida esa paqirdagi suvlari chayqalib obkash yotardi. Zaynab opa hozirgina ariqdan suv olib qaytgan edi. Zaynab opa u yerga borib Saodatning erga chiqqanini eshitib kelgandi. Ona qalbi chuqur iztirobga to'lgan. Endi u huvullagan uyda yakka-yu yolg'iz. Uning uchun hamma narsa muhayyo, biroq qizining ketib qolishi bilan butun orzu-umidlari havoga uchganday bo'ldi.

Agar Toqoy akaning qaylig'i Jiydagul kelmaganida Zaynab opaning shu zaylda qancha turishini kim bilsin. Jiydagulni ko'rishi bilan Zaynab opa vaysab ketdi:

— Mana, qiz zoti qanaqa ekan? Oh, sho'rim qursin. Xudo mening nasibamni qiydi, o'g'il bermadi. O'g'il bo'lganda o'z uyini tashlab ketmay, balki qallig'ini yetaklab kelarmidi.

Jiydagul nimjongina va hamisha mo'min-muloyim, hozir esa butunlay boshqacha bo'lib qolgan bu xotinga qo'rqinch bilan qarab turardi.

— Saodat meni sharmanda qildi! — deyardi Zaynab opa gap orasida. — Qochqin kishidek izzat-ikromsiz ismirasmini qilib uzatilmasdan bir darbadarning orqasidan ergashib ketdi. U Saodatni allaqayoqlarga olib ketadi, ko'rmay ham qolaman.

— Qiziqsiz, Zaynab opa, qizingiz uzoqda emas, shu yerda-ku! — deb Saodatning yonini olardi Jiydagul.

— Bas qil! Mening shu ahvolga tushishimga sizlar ham aybdorsizlar. Uning MTSga borishiga sening Toqoying sabab bo'ldi. Men bo'lsam go'lllik qilib, erimning ukasi deb uning gaplariga ishonibman. Bor ayt, agar akasining xotirasi va urug'imizning sha'ni unga qadrli bo'lsa, Saodatni yo'ldan qaytarsin. Bor!

Shu kuniyoq Toqoy aka odatga ko'ra xotinini Zaynab opani chaqirib kelishga yubordi.

Toqoy aka egachisini kutib, kigiz ustiga to'shalgan po'stak ustida qovog'ini solib o'tirardi. Barcha oila a'zolari ham u bilan birga o'tirardi. Uy issiq edi. Qozonda go'sht, stol ustida esa samovar qaynardi!

— Hammasidan xabarim bor, Zaynab, — gap boshladi Toqoy, hurmat bilan unga piyoladagi choyni uzatayotib. — Sen uchun o'zim ham xijolat tortyapman.

Agar Saodat ahmoqlik qilgan bo'lsa, men hoziroq otni egarlab, sochlaridan sudrab bu yerga olib kelaman! – Cholning ko'zlar g'azabdan chaqnar edi. – Ammo men bunday qilmayman. Undan ko'ra mening qo'llarim uzilib tushsin. «Eski ko'chmanchi»dagi yerlar ko'pdan beri sening qizingga o'xhash odamlarni kutardi. Zaynab, men seni tinchlantirishga va ko'ndirishga harakat qilmoqchi emasman. Lekin bir narsani eslataman. – Toqoy tilining ostiga nosvoy tashlab oldi va qoram-tir mo'ylovini o'ychan silab qo'ydi. – Hozir «Eski ko'chmanchi» yerlari ochilmoqda. O'zing bilasan-ku, bir vaqtlar biz bu ishni uddalay olmagan edik. O'sha vaqt-da biz bu pastqam yerkarni oxiri bir kun o'zlashtiramiz, deb o'ylashga ham botina olmagan edik. Boylar bizni siqib, oxiri ana shu «Eski ko'chmanchi» yeraliga hay-dab yuborishgan edi. U joylarda yerni haydash ham, sug'orish ham noqulay edi.

Esingdami, o'shanda akamni sevib qolib, u bilan bu yerga qochib kelganlaring? Ochlikdan o'lmaslik uchun, hatto mana shu po'stakdan ham katta bo'limgan yerni haydashga qaror qilgan edi. To'g'ri aytasan, yerni qanday tozalaganimiz, toshlarni qo'lda ko'tarib tashigani-miz, tog' yonidan ariq qaziganimiz va «Ilon qoyasidan» suv ko'tarilib bu ariqqa chiqmagani yodingdami?

Shularni eslaysanmi, Zaynab? Axir quruq qo'l bilan qoyalarni ag'darib bo'larmidi? Mehnatimiz zoye ketib, ekinlar qurib qoldi. Sen o'shanda qanday yig'laganingni eslaysanmi, hatto biz erkaklar ham ko'z yoshlarimizni zo'rg'a tutib turgan edik. O'shanda biz «Eski ko'chmanchi» yeralidan kaftdek qismini ham ishlay olmagan edik. Lekin bizga ko'p yer kerakmidi? Faqat ochlikdan o'lmaslik uchun... Endi esa bizning bolałarimiz «Eski ko'chmanchi»ni o'zlashtirishga bel bog'ladilar. Agar sen ularni hozir nimalar qilayotganini ko'rganingda edi... Ular zo'r ishonch bilan ishlayapti. Ularda bilim bor, mashina bor... Hademay g'allamiz daryo bo'lib oqadi.

Eh, Zaynab, yoshliringda o'z sevgan kishing uchun har qanday qiyinchiliklarga duch kelgansan. Shunday ekan, nima uchun sening qizing o'z sevgani bilan tur-

mush qurishga va u bilan birga mehnat qilishga haqli emas ekan, a?

Zaynab opa jim turardi.

— Sen aqlli xotinsan, — davom etardi Toqoy, — tu-shunishing kerak. Saodat shunday qilmasdan iloji yo'q edi. Kuyoving Qosimjon esa ota-onasiz darbadar emas, ajoyib yigit, brigadada birinchi traktorchi. Uning ota-onalari shaharda yashaydi. Ularni juda yaxshi, hurmatli kishilar deyishadi. Saodatga kelsak, u onasini unutib ketadiganlardan emas. Yakshanba kuni ular senikiga kelishadi, kuzda esa sen odat bo'yicha yo'l ochar qila-san. To'yni bo'lsa birinchi hosil yig'ilib, ular yangi uyga ko'chib kirgan kuni qilamiz.

Toqoy aka nima degan bo'lsa Zaynab opa jimgina o'tirib tingladi. Keyin o'rnidan turib eshik tomon yo'l oldi. U bunga rozi bo'ldimi, yo'qmi, hech kim tu-shunmadi.

Toqoy aka mehmonni kuzatishga chiqdi. Tashqarida shunday qattiq yomg'ir yog'ayotgan ediki, hatto, tog'lar ham, daraxtlar ham, nariroqdag'i uylar ham ko'rinnmasdi. Hamma narsa suvli tuman bilan qoplanib olgan edi.

— Eh-he, hammayoqni qoplab olibdi-yu! Ana ko'rasan, bu oq yomg'ir kamida ikki-uch kun to'xtovsiz yog'adi...

— Oq yomg'ir deysanmi? — Past ovoz bilan so'radi Zaynab opa va javobini ham kutmasdan ketib qoldi.

• • •

Zaynab opa uyga kirib kelar ekan, xayol seliga cho'mganicha burchakka kelib o'tirdi va yomg'ir tom-chilari oqib tushayotgan derazaga qaradi.

— Oq yomg'ir! — shivirladi u allanarsani eslaganday. Zaynab opa yo'lda kelayotiboaq. Toqoy har holda haq degan xulosaga kelgandi. Lekin u uyining ostonasiga qadam qo'yishi bilan, qo'llari shalvirab, yuragi muzlab ketdi va yana o'zini yolg'iz his eta boshladı. Biror ro'zg'or ishlari bilan band bo'lmoqchi bo'ldi-yu, lekin, yuragiga hech narsa sig'madi. U har vaqt nimadir yetishmayotganligini o'ylardi. Lekin uning nima ekanligiga sira tushuna olmasdi.

Nihoyat u buni topdi: odatdagidek tog' tarafdan kelayotgan motorlarning ovozi eshitilmas edi. Har doim onani traktorlarning ovozi tinchlantirardi, chunki bu ovoz sevimli qizi bilan, uning kelajagi bilan bog'liq edi. Zaynab opa xavotirlanardi: «Traktorlar jim, oq yomg'irning ikki-uch kun yog'adiganday shashti bor. U bechoralar palatkalarda nima bo'ldi ekan? Nam, sovuq, pechka yo'q». Uning yosh kelin-kuyovlarga rahmi keldi. Axir ular chillalik-ku, tezroq yakshanba kela qolsa edi.

Zaynab opa barmoqlari bilan yakshanbagacha necha kun qolganini sanadi. To'rt kun! Qanday uzoq! U tezroq Saodat va Qosimjonni ko'rgisi kelardi. Biroz o'tirgach, keskin o'rnidan turdi-da, sandiqdagi oq surpni olib, erkaklar kiyadigan ko'yak bichdi. So'ng pechkaga o't yoqdi. Xonada darrov hamma narsa saranjom bo'ldi. Go'sht pishguncha Zaynab opa mashinada ko'yak tikib bo'layozdi. Endi u qo'l qovushtirib o'tirmasdan bo'g'irsoq qovurilayotgan qozon oldida o'ralashib qoldi. Olovdan qizib ketgan yuzlari qip-qizil bo'lib, mayda ter tomchilari bilan qoplandi. Biror yaxshilikni kutayotgan-dek ko'zlari quvonch bilan porlardi. Aftidan u katta bayramga tayyorlanayotganday edi. Ha, haqiqatan ham shunday. U hoziroq «Eski ko'chmanchi»ga borishga qaror qildi. Tayyorlanib bo'lgandan so'ng, Zaynab opa Saodatning sepi uchun asrab qo'ygan gulli shol ro'molni olib keldi-da, ko'yak bilan birga qo'shib xurjunning bir ko'ziga soldi, uning ikkinchi ko'zini esa go'sht va bo'g'irsoq bilan to'ldirdi. Endi ketaverish mumkin edi, lekin u o'ylanib qoldi – erga tekkan qizinikiga taklif qilinmasdan borish yarashmasa kerak. Toqoy kuzgacha kutishni maslaxat bergen edi. Lekin bu nihoyatda uzoq muddat. To'g'ri, Saodat va Qosimjon yakshanba kuni kelishadi. Ammo yakshanbagacha hali to'rt kun bor... U esa o'z bolalarini va «Eski ko'chmanchi»da nimalar qilinayotganini hoziroq o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelardi. Bordi-yu, uni kulgi qilishsa-chi? «Nima deb o'ylashsa o'ylashaversin, baribir boraman».

Zaynab opa yangi shoyi ko'ylagini, maxsi-kalishini, sevgan chophonini kiyib, xurjunini yelkasiga tashladi-da, boshiga katta qanorni yopinib uyidan chiqdi.

Tashqarida bo'lsa oq yomg'ir yog'ayotgan edi.

• • •

Kulrang tuman aralash yomg'irda so'qmoq bo'ylab ot ustida xotin kishi sekin yurib borardi. Yer dengizi haydalib tashlangan, katta ariqlar qazilgan, yomg'ir bilan yuvilib, yer qobig'ini sekin-asta yorib yashil o'simlik – birinchi bahorgi bug'doy unib chiqmoqda. «Eski ko'chmanchi» yerlari tanib bo'lmas darajada o'zgargan. Hosil olish mushkul bo'lgan bir parcha yer qayerda edi? Suv chiqarib bo'lmasan ariq qayqdagi qoldi?..

Zaynab opa otdan tushib, yonidagi toshga o'tirdi-da, yig'lay boshladi. Biroq, endigi ko'z yoshlari o'z farzandlarining faxri uchun, ularning ajoyih katta ishlarini ko'rib quvonch hislariga to'lgan onaning ko'z yoshlari edi.

1954-yil

RAQIBLAR

I

Yangina ishdan qaytgan Xonimgul uy ishlarini ana-mana deguncha bitirdi-da, ko'chaga, poda yo'liga chiqdi. Qora sigirni ertaroq bog'lab olmasang, u yomon, darrov qo'shnilarning ekinlariga tushib ketadi. Orqasidan o'n choqli kishi xalloslab quvlamasasi, osonlik bilan ushlatmaydi.

Xonimgul qo'liga ikki yashar o'g'li To'qonni ko'tarib olgan edi. Ularning ikkalasi ham ko'chaning kun botish tomoniga tikilib turishardi. Poda har kuni o'sha yoqdan kelardi. Ko'chaning oxiridagi qator tizilgan teraklarning ignadek uchiga go'yo quyosh ilinib qolganday, so'nggi nurlarini sochib, qirning ortiga botib bormoqda edi. Botib borayotgan quyosh o'rnnini borgan sari g'ira-shira qorong'ilik egallab, pastlikdagi ko'lankalarini o'z qa'riga tortib borayotganday, tobora hamma narsa ko'zdan g'oyib bo'lib borardi.

Kech kirib qolgan bo'lsa ham, oftobning tafti hali qaytgancha yo'q, kun botish tomondagi qozoq dashtidan kimdir birov atayin yelpiyotganday garmselning issiq nafasi yuzlarga lovullab ura boshladi. Hozir tevarak-

atrofdagi hamma narsa: holsiz tebranayotgan butalar, jimjit to'qayzor singari issiq havoda dimiqib turgan chorborg'lardagi oq jo'xorilar, chivinga talanib ariq bo'yida bosh siltab turgan bo'zbiya, mana shularning bari saraton issig'ida kuyib-yonib, hozir salqin tunning kelishinigina orziqib kutayotganday. Tunda yuqoridan muzdek shabada esardi, tongda hordiq chiqarib yotgan yer betini shudring qoplardi, o'shanda toshlar marvarid donachalari bilan qoplanganday jilvalanardi, mollarning yegani singib, semirardi, qurib-qovjiragan nihollarga qayta jon kirardi.

Sigirlar rosa to'yib qaytganidan og'irlashib qornini ko'tara olmay ko'chaning o'rtasida shoshmasdan bir-bir bosib, yo'lning changini burqsitib kelardi.

Ikki yuzi qip-qizil olmaday, burni esa sal yassiroq, tinib-tinchimas kichkina To'qon Xonimgulning qo'lida olg'a talpinib, chiviqni o'ynab, qora sigirni: «Hish-hish, hish!» deb chaqirardi. Qora sigir To'qonga parvo qilmay, erinchoqlik bilan sudralib keldi-da, jo'xori tomon intilmoqchi edi, Xonimgulni ko'rib to'xtab qoldi.

— Hayda, To'qon, uyga hayda! — dedi Xonimgul qo'lidagi bolasini erkalatib. Shu payt bolasi ko'ziga chindan ham ishga yarab, go'yo mol haydashib yurganday ko'rini, onasi bundan o'zicha suyunib qo'ydi,

Xonimgul bir bola ko'rgan juvon bo'lsa ham, qiz paytidagi husn-u jamolini yo'qotmagandi. Kulib turganda yuzlaridagi kuldirgich yanada chuqurlashib, chehrasida qandaydir uyatchanlik balqib turardi. Uning sal qiyiq chiroyli ko'zları ba'zan sho'x qulunday o'ynoqlar, ba'zan ichki nozik hissiyotlarini shundoqqina ko'rsatib, uzoq vaqt porlab turardi.

— Aylanayin podachim! Sening bu mol haydaginingdan aylanay! — deb Xonimgul bolasini quchoqlab, qayta-qayta o'mdi. Bolaning salmog'idan tortilib tovoniga tushgan uzun ko'ylagining etagini yerga qo'shib bosayotgan Xonimgul erkalanganday bidirlab kelardi.— Hayda, sadag'ang ketayin, hayda... Chiviq bilan ur... Bosh, uni qara, jo'xoriga kirmoqchi chog'il! Bosh desa!.. Aylanayin, men uni hozirgina sog'amani, sut ichasanmi, To'qon?

Xuddi shu vaqt ko'chadagi chang-to'zon ichida bir

otliq ko'rindi. Uning ot haydashi bejo edi. Devorning boshida qo'nqayib o'tirgan boyo'g'liday hurpayib, terga botgan kigiz qalpog'ini chaqchaygan ko'zigacha bostirih kiyib olgan, havo yonib turganiga qaramay ustida yog'in-sochindan o'ngib ketganplash.

— Otang keldi, qara-chi, To'qon, otang keldi! — dedi Xonimgul kuyoviga jilmayib.

Qoratoy aslida o'zi qop-qora kishi. Biroq bugun uning terlab-pishib chang bosgan yuzi o'zgacha xunuk tortib rangi o'chib ketgan edi. Uning ko'pdan beri ustara tegmagan shopday mo'yloving uchlarini ham boyagi issiq garmsel urganday sarg'ayib ketgan.

Qoratoy tizginni tortgani yo'q. U bolasi bilan xotining yonida to'xtamay go'yo boshqa begona kishilarni uchratganday, ularning oldidan o'tib borayotib bir tiki-lib qo'ydi-da, darvozaga suykanib yotgan sigirga yetib borib, uni qamchi bilan qulochkashlab jon-jahdi-la bir soldi-da, indamasdan uyga haydadi.

— Ota, hachuv! Ota, hachuv! Ota! — Otga mindirgin deganday otasiga chuldirardi kichkinagina To'qon.

— Qoratoy, o'g'lingni mindir! — dedi Xonimgul. Qoratoy otining jilovini biroz tortib, qayrilib turib bir kulimsirayin dedi-yu, lekin kulmadi. Lablarida tabassum bir ko'rindi-yu, yana yo'qoldi. «Ey, qochib tursang-chi», — deganday Qoratoy o'g'liga qarab qo'lini siltadi.

Hech nimaga tushunolmay qolgan Xonimgul bolasini ko'kragiga bosganicha, o'rnida serrayib turib qoldi.

Boshqa kunlari Qoratoy suv boshidan kelganida otdan tushmay turib doimo «Qani, xonim, o'g'ilchani ber!» deb, ot ustida qulochini yozib engashardi. O'shanda uning ma'yus ko'zlariga kutilmaganda sevinch uchqunlari, xo'mraygan yuziga iliqlik yugurardi. Qoratoy To'qonni oldiga mindirib olib, o'zicha allaqaysi ohangda xirgoyi qilib, kechki salqinda ko'cha bo'ylab o'g'lini nari-beri sayr qildirardi. To'qon bo'lsa chilvirning bir uchini ushlab kichkintoy oyoqchalar bilan tepinib, quvonchidan lablarini cho'chchatyrib: «Ko'rdilaringmi, otni o'zim haydab yuribman!» deganday taltayib qo'yardi. Shunda bularni ko'rgan kishilar:

— Voy-bo'y! Bizning To'qon ajabtovur yigit bo'lib qolibdi-ku! — deyishib, chindan ham suyunishardi. —

Ko'rmaysanmi! Otni o'zi minib yuribdi! Borakallo! Azamat, azamat-da o'zi!

Mana shu aytilgan oddiy so'zlar Xonimgul uchun onalik mehrining eng yuksak cho'qqisiga olib chiqqanday bo'lardi.

Xonimgulning eng yaxshi ko'rgani – kechki payt. Qoratoy otini soyga tushovlab kelib, ko'nglini joyiga qo'ygach, oz-moz qo'biz ham chertib qo'yardi. O'choqning boshida yostiqqa yonboshlab, qo'li bilan qo'bizning torini chertib, uyqusiraganday shishinqiragan qovog'ining ostidan, yonida chordona qurib xursand bo'lib o'tirgan To'qonni erkalatib, kulimsirab qarardi.

Yerda xamir Yug'irib o'tirgan Xonimgulning lorsil-lagan yuzlari olovning taftidan loladay qizarib ketgan edi. Qoratoy, albatta mohir qo'bizchilardan emas, uning chertganini har bir qirg'iz eplab chertadi, biroq u cher-tib o'tirgan eski kuy Xonimgul uchun obdan yoqimli, bu kuyni u tun-u kun mijja qoqmay eshitishga tayyor. Uning orzulari ro'yobga chiqqan qarshisida bolasi, bir yostiqqa bos qo'yan umrdosh yori o'tiribdi. Ularga Xonimgul o'z qo'li bilan ovqat pishiryapti. Qoratoy chertayotgan kuy Xonimgulga qanot berib, u hozir osmonda aylanib uchib yurganday. Bunday paytlarda Xonimgul «shunday ittifoq, rizqi-ro'zli oila peshonamga bitganidan roziman» deb o'yldardi.

Xonimgulning shunday o'ylashida jon bor. Goho tengqur kelinlar yashirmay-netmay: «Sen juda baxtlisan, Xonimgul! Kuyoving ro'zg'orga jonkuyar, chorva kishisi. Kolxozning mirobi. Sen dala ishida bo'lsin, uy ishida bo'lsin, hech kimdan ortda qolmaysan. Turmushlaring tinch, o'g'ilchang bor, qaynanang bilan ahilsan, armonsiz o'tasan», – deb aytishardi. Bunday paytlarda Xonimgul barcha quvonchini ichiga yutib, indamasdan ku-lib qo'yardi-da, qo'lidagi ketmonini yana ham ildamroq siltardi. «Biroq sizlar eng negizini bilmaysizlar!» deganday Xonimgul o'zicha kulimsirardi. «Men uchun sevish hammasidan qimmat. Men Qoratoyni sevaman. Qoratoy meni sevadi. Ikkovimiz bolamizni sevamiz... Sevmagan odamlarning boshi birikadimi?» Biroq kutilmaganda, qandaydir sabablar bilan ular o'rtaida shirin turmushning buzilishini Xonimgul xayoliga ham keltirmas edi.

Qoratoyning bugungi avzoyi Xonimgulni o'ylantirib, tashvishga solib qo'ydi. «Bu nimasi, u nega bunday qilyapti?» deganday To'qonning yuziga ayanchli holatda termilardi. Bola bo'lsa ona qalbini tushunganday yig'lay boshladi, u aftidan otga mindirmading, deb otasidan ko'ngli o'ksiganga o'xshaydi.

— Qo'y, To'qon! Yig'lama, qo'y! — dedi Xonimgul. U bolani ovutishga qanchalik urinmasin, o'zi ham al-lanarsani eslab xayolga cho'mdi. Biroq o'y-xayollarining uchini topolmay, Xonimgul uni yanada qattiqroq qu-choqlab bag'rige bosdi.

Old tomondan urgan kuchli shamolga ko'ksini qalqon qilib turganday Xonimgul To'qonni bukchayganicha quchoqlab turaverdi. Ayol tez-tez nafas olayotganidan bo'yin tomirlari sirtiga bo'rtib chiqqan. Xonimgulning o'zi uchun ham, bolasi uchun ham o'ksigan yuragi aybsiz izza bo'lganiga chidamay o'rtanib yonib, allaqanday qo'rquinchli hodisa yuz berishini oldindan sezayotganday gup-gup urardi.

Xonimgul uyga kirib kelganda, Qoratoy o'sha chang bosgan plashini yechmasdan, burchakdagi stol yonida tik turganicha, katta kosani qo'sh qo'llab ushlab ayron ichayotgan ekan. U xuddi uzoq chopib, yutaqib qolgan ot singari ayronni jon-jahdi bilan qultullatib ichardi. Xonimgul unga indamay qarab turaverdi. Har bir qultumni yutganda uning yungli bo'ynidan kekirdagi goh pastga tushib, goh yuqoriga ko'tarilib turardi.

Xonimgul erining fe'l-atvori nimaga bunday o'zgarib kelganini tushunib yetmadi. Qoratoy hamma vaqt kam gap edi, albatta. Biroq Xonimgul erini hali hech qachon bugungidek begonalashib, g'azabga to'lganligini ko'rmagan edi.

Qoratoy, nihoyat, kosani tokchaga qo'ydi, yorilib, dag'allashib ketgan katta kafti bilan lablarini artgancha, xotiniga ko'z qiri bilan nazar tashladi va orqasiga burilib, indamasdan karavot tomon odimlab ketdi.

— Bolani bu yoqqa olib kel! — dedi u plashini devordagi mixga ilar ekan, bo'g'iq ovoz bilan.

«Nimaga kerak u senga? Sadqayi bola ket! Xudo yorlaqab sog'inib qolibsan! Shoxini sindirganing ham

yeter!» Xonimgul kuyoviga shunday deb aytmoqchi bo'ldi. Biroq bunga jur'at etmadi. Shu mahal Qoratoy kigizga o'tirarkan, bir yeri qattiq og'riyotganday tishini tishiga qo'yib ingrardi. Aftidan qandaydir achinayot-ganday ko'rinish, bosh-yuzlari burishib qarib qolgani, ayniqsa bugun ko'zga alohida tashlanib turardi. Shunda buni payqagan Xonimgul qalbidagi g'azab alangalari birdan tarqalib ketdi.

— To'qon katta onasinkida, — dedi Xonimgul eshikka chiqib borayotib, — senga nima bo'ldi, Qoratoy? Nega buncha qovog'ing soliq?

— Hech nima... Ovqatingni qil...

Xonimgul bir chelak suv olib uyga qaytib kelganda kuyovi hali ham boyagiday mustar bo'lib, quyi solingan boshini kaftiga qo'yanicha kigizning ustida yonboshlab yotardi. U shu bo'yicha qo'zg'almay yotaverdi, biroq Xonimgul yaqinlab kelganda uni ataylab javratmayin dedimi, yoki boyadan beri o'ylanib yotib bir fikrga kelgan bo'lsa shuni aytishga o'zini chog'ladimi, harqalay, Qoratoy o'rnidan sakrab turdi-da:

— Rezinka etik qayerda, olib kel! — deb xotining ro'yxush bermayotganini anglab, shartta buyruq qildi. Paytavasini shosha-pisha o'rab, rezinka etigini kiyih olgan Qoratoy eshikka shoshilib yugurib chiqdi. Qantarig'liq turgan otning pushtanini biron nimadan o'ch olayotganday jon-jahdi bilan tortgan edi, ot o'rnidan qo'zg'alib ketdi.

— Tak! — dedi Qoratoy ovozining boricha zarda bilan baqirib, — harom o'lgor!

So'ng u xotiniga qayrilib, xo'mrayib yovuzlarcha tikilib qaradi.

— Sening Sobirbeging! — dedi u rang-quti o'chib, qaltirab, — yo meni de, yo uni de!..

Buni uqub boyadan beri ko'ngli xiralashib, allaqanday yomon narsani sezib hadiksirab yurgan Xonimgulning qalbi yana Sobirbek, deganida qinidan chiqib ketguday bo'ldi. U Qoratoya qarab otildi va ot uzangisiga yopishib olib yalinib-yolvordi:

— To'xta, Qoratoy! To'xta, bu nima deganing? Nima uchun bunday deyapsan?.. Qaysi Sobirbek?..

Biroq Qoratoy xotinining so'zlariga qulq solmay, uning qo'lini siltab tashlab, otiga ustma-ust qamchi bosib, chang-to'zanni ko'tarib chopib ketdi.

Xonimgul «Qoratoy! Qoratoy!» – deb baqirganicha qolaverdi. Tog'dan esayotgan kechki shamol g'azabga to'lgan Xonimgulning etak-yenglarini hilpiratib: «Sen bu yerda nima qilib turibsan, qitiqlayinmi-a?» deganday yulqilab o'ynayotgan edi. Xonimgul uyga qaytarkan, yelkalari sovuqdan uchib titrardi.

Tog'dan qorong'ilik bosib kela boshladi. Allaqa-yer dan, olis-olislardan boyo'g'lining qichqirig'i eshitildi. Eshitildi-yu darhol jimb qoldi. Samoda yulduzlar fonari yona boshladi. Koinot uyquga ketdi.

II

O'sha kuni kunduzi chaqirilgan kolxoz miroblari va dalachilik brigadalari kengashiga Qoratoy biroz kechikib keldi. Rayon ijroiya komiteti raisning katta kabinet kengash qatnashchilari bilan liq to'lgan edi. Qaysi birlari derazalarning ostida, boshqalari eshikning bo'sag'asida devorga suyanganicha o'tirishardi.

Qoratoy koridorga kirib, eshigi ikki yoqqa ochib qo'yilgan kabinet tomon bo'yin cho'zib o'tirishgan kishilar to'piga kelib qo'shildi.

Kengashda chiqib so'zlaganlarning barisi birgina masalani muhokama qilishardi. Rayonda sug'orish ishi yomon ahvolda, ekin-tikin vaqtida sug'orilmay qurib, kuyib ketyapti. MTSning bosh agronomi «Beshtosh» kolxozi haqida uzoq gapirdi. Unda Qoratoy miroblik qilardi. Ilg'or kolxozlarda bedalar ikki bor o'rilib, g'aramlanayotgan bo'lsa, «Beshtosh» kolxzida bir marta o'rolgandan so'ng boshqa sug'orilmay, beda suvsizlik dan shu bo'yicha o'smay qolgan. Ish shu ahvolda bo'lar ekan, beshtoshliklar bu yil ham o'tgan yillardagidek bedani ikki marta o'rib olishiga ko'zi yetmaydi. Jo'xori bo'lsa endigina bir marta sug'orilibdi, qay bir yerlariga butunlay suv chiqmay, tap-taqirligicha yotibdi, boshqa kolxozlarda bo'tako'z ekinlari to'rt-besh bor sug'orilgan bo'lsa, «Beshtosh»da atigi ikki marta sug'orilgan, xolos.

Kolxoz sha'niga aytilgan agronomning bu xildagi so'zlarini Qoratoy beparvolik bilan odatdag'i so'zlarda, deganday tinglab o'tirdi. Bu yetishmovchiliklar haqida uning ham o'zgacha aytar so'zi bor. Bu narsalar unga ilgaridan besh qo'lday ma'lum edi. Chunki Qoratoy o'zining jonajon ishi – mirobchilik haqida erta-yu kech bosh qotirar edi. U ko'pdan beri bunday savollarga javob berish uchun o'ylab, tayyorlanib yurardi. U o'z fikrlarining to'g'riligiga qattiq ishonar edi ham. Mirobning o'ziga xos tegishli ishlari bor: kolxozga berilgan suvni belgilangan norma bo'yicha ariqlarga bo'lib tarqatish kerak. Qolgan boshqa ishlari esa raisga tegishli, brigadirga tegishli. Ishni o'shalar boshqaradi-kul Darvoqe, suv ishi kolxozda g'oyat yomon ahvolda, biroq bunga kim aybdor? Qoratoymi? Yo'q, kolxozda suv yetishmasa Qoratoyning qo'lidan nima ham kela oladi? Yo'qni yo'ndiradimi? Ayrim vaqtлari suv yetarli bo'lgani bilan sug'orishga odam yetishmay qoladi, hammasiga kolxoz raisi aybli, u javob beraversin...

Qoratoy bu gal ham kengashda aytildigan gaplarni ko'ngliga olmay odatdagidek qosh-qovoq qilib o'tirmasdan, kelgan bo'yidan ovulga qaytib ketaverishi mumkin edi. Biroq kengash oxirida kimdir birov burchakdan turib gapirib qoldi: «Unday degan bilan ham, bunday degan bilan ham, baribir suv normasi ko'paytirilib, har birimizga uch-to'rt qulodan suv qo'shib bermaguncha ish bitmaydi». Qoratoy o'zini birdan yengil his qildi, – uning ayni muddaosidagi gap aytilgan edi. O'zi ham doimo suv deb qaqqash yurardi. Ish ko'ngildagidek bo'lish uchun kolxozga bo'lib berilgan suv yana kam deganda yarim baravar ko'paytirilishi zarur edi. Ko'pchilik miroblar bu taklifni quvvatlab shovqin-suron qilishdi: «To'g'ril! To'g'ri aytadi, hamma gap shunda-da!»

Ovozlar biroz bosilgach, Sobirbekka so'z berildi.

Sobirbek Qoratoylarga qo'shni – Jdanov nomli kolxozning mirobi. U porusina¹ ko'ylagining etagini orqa tomoniga tortib qo'ydi-da, stol yoniga yengilgina odimlab keldi. So'ng o'tirganlarning ko'nglidagini bilmoxchi

¹ Porusina – kanopdan to'qilgan mato.

bo'lganday, ularning har biriga ko'z yogurtirib chiqdi. Hadeganda Sobirbekning o'ziga xos belgilarini anglab olish qiyin edi. Uning yoshi o'ttizlardan oshgan, keng yag'rinli, qo'y ko'zli, sariqdan kelgan kishi edi. Uning baquvvat gavdasi ko'rinishdan yoshlik chog'idan mehnatga chiniqqan kishilarni eslatardi. Sobirbekning yoqimli kulimsirab turgan yalpoq yuzlari, kishilarni maftun qiladigan ishonchli ko'z qarashlari, vazminligi, birovga yomonlikni ravo ko'rmaydigan yuvosh kishini eslatardi. Biroq ish haqida, suv xususida so'zlaganda, uning haligi mo'min-qobilligi bir zumda yo'q bo'ladi-qoladi. Sobirbekning bu tabiatini Qoratoy boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilardi...

Yaqin kishilar orasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar ham vaqt kelib juda murakkablashib ketishi mumkin. Mana hozir Sobirbek so'zlay boshlaganda, Qoratoy uning so'zlarini menga hech qanday qizig'i, tegishli joyi yo'q, deganday, o'ziga yuqtirmay, shunchaki tinglab o'tirdi. Ular go'yo ilgaridan kelishib qo'ygan kishilardek, bir-birini hech vaqt yomonlab ham, yaxshilab ham gapirmas edilar. Sen menga tegmasang, men senga tegmayman, sen mening ishimga aralashmasang, men sening ishingga aralashmayman, deb kelishib qo'yganday, o'zaro yoqtirishmasalar ham hiri ikkinchisiga gap tegizishdan ehtiyot bo'lib yurishardi. Oldin do'stlashib yurgan kishilarning orasi buzilib, yo'llari ikki tomonga ayrilib ketgan paytlarda shunday hodisa yuz beradi: yaxshi-yomonni yashirishib bir-biridan uzoqlashaverishadi. ularning do'stligi odam qatnaymay qo'ygan yolg'izoyoq yo'lni o't bosib ketgani kabi bora-bora, o'z-o'zidan unutilib, qalbdagi o'kinchlarni bir-biriga aytishmay yurgan do'stlar orasidagi ziddiyatlar kuchayib, kek saqlaydigan bo'lib qoladilar. Ular ochiqdan ochiq qasdlashib qolmasa ham, har biri o'z dardini ichiga tugib, paytini poylab yuradi. Mabodo, ulardan biri qo'l ko'tarib qolguday bo'lsa, ikkinchisi ot qo'yib kurashga kirishga tayyor turadi. Ana shunda ular bir-biriga dushman ekanini yashirib o'tirmasdan, yuzma-yuz keladi. Hozircha ko'nglida biror g'arazi bo'limgan Qoratoy Sobirbekning so'zlarini sovuqqonlik bilan tinglab o'tirardi.

Sobirbek u-bu deb ezmalik qilib o'tirmasdan, gapning bo'larini aytayotgan edi:

— Bu yerda ba'zi birlarimiz suvni taqsimlash masalasi qayta ko'rib chiqilsin, tekshirilsin, degan fikrni ayyatpmiz, — dedi u bamaylixotir so'zlab. — Bu bir tomondan to'g'ri, albatta. Chunki har bir ishni qayta-qayta ko'zdan kechirib, tekshirib turish — foydadan xoli emas. Bizning suvchilarimiz — gidrotexniklar ham buni allaqachon inobatga olib qo'yishgan bo'lsa kerak. Bu haqda ularning o'zları gapireshar. Biz, miroblar esa bu yerda bundan boshqa ishlar to'g'risida kengashib olishimiz kerak. Aks holda qizining siri onasiga ma'lum, dyeganlariday, bizning bilganimiz bitta. U ham bo'lsa: «Suv yetmayapti, chanqadik, ko'proq suv ber!» deb ayyuhannos solganimiz solgan. Agar suvni ko'paytirib bergenlari taqdirda ham yana suv yetmaydi deb chopganimiz chopgan. Suvning ko'pi yaxshi. Suv qancha mo'l bo'lsa, non ham shuncha serob bo'ladi, bu ham-maga ma'lum. Lekin ba'zi birovlarimiz Chuy arig'inining hammasini dalasiga burib yuborsang ham ko'zi to'ymay, o'shanda ham suv yetmaydi deb zorlanadi. Yo'q, o'rtoqlar, bu kulgi emas. Bu muammo har birimizni qattiq o'ylantirmoqda. Axir unga Xudoning shunchaki oqib yotgan suvi deb yengil-yelpi qarash mumkin emasda. Suv deb qanchalik tashvish tortyapmiz, mehnat qilyapmiz... Shunday ekan, bu haqda bafurja o'tirib gapirishib olaylik... Mana masalan, ko'klamda dalani kezgan vaqtingda, bir tekisda unib chiqqan ekinlarni ko'rib qalbing quvonchga to'ladi, kuzga kelib xirmon ko'tarilganda xosilni ko'rib xafsalang pir bo'ladi. Mana hozir ham ekinlar suv yuzini ko'rmay quvrab ketyapti... nega shunday bo'lyapti? Suv yetishmasligidanmi? Yo'q, bunday emas. Meningcha, har bir kolxozda yetarli suv bor, hatto suvga serobmiz ham deya olishimiz mumkin. Xo'sh, shunday ekan, asosiy gap nimada?

Sobirbek koridorda o'tirgan bir gala odamlar tomon g'ozday bo'yin cho'zib qararkan, birdan Qoratoyga ko'zi tushishi bilan taqir qirilgan boshini qashib, xayoliga biror narsa kelganday biroz jim qolib, gapni ulab ketdi:

— Har kim ko'rgan-bilganini gapiradi. Qoratoy bilan ikkimizning ovulimiz yonma-yon. Ichadigan suvimiz ham bir. Katta ariqning narigi sohili ularniki, berigi sohili bizniki... Bu tomondan Qoratoyni do'st deb bilaman. Men uni yomonlamoqchi emasman, lekin men bugun haq gapni aytolmasdan ham turolmayman. Sen ham mirobsan, men ham mirobman. O'zingga ma'lum, «do'st achitib gapirar, dushman kuldirib», degan maqol bor.

Sobirbekning bu so'zlarini tinglab o'tirib Qoratoy o'z qulog'iga ba'zan ishongisi kelmasdi. Bu gaplarning hammasi unga to'g'riday bo'lib tuyulardi. Biroq to'g'riso'z toshni yorar deganlariday...

Sobirbekning so'zları asta-sekin Qoratoysa og'ir bota boshladi. Sobirbek haq gaplarni aytayotgan bo'lsa ham, Qoratoy uni aksiga tushunib, g'azablanayotgan edi. Qoratoy aldanadigan anoyi emas, Sobirbek nima uchun boshqalarni misolga keltirmay, uning ishi haqida gap-rayotganini yaxshi payqardi. Sobirbek undan o'ch ol-moqchi. U shu kengashda xalqning ko'z oldida ataylab uning obro'yini to'kib, sharmanda qilmoqchi. Bo'lmasa, «Beshtosh» kolxozi ekinlarni sug'orishda eng orqada qolgan, deb bunchalik javramasdi.

Haqiqatan ham, Sobirbek bugun yechinib olib, kurashga tushgan kishiday do'stlarini ham, boshqalarni ham yuz-xotir qilmay, qattiq tanqid qilayotgan edi:

— Qachon bo'lsa suv oz, suv yetishmaydi, deb baxona qilib yuradi. Bu odatingni tashla, Qoratoy. Aks holda ish ham yurishmaydi, ekin ham o'smaydi. Sening ixtiyoringga uch yuz litr suv berib qo'yilibdi. O'z dehqon tilimiz bilan aytganda, bu olti quloq suv! Hoy, bu hazilakam suv emas. Men ham uch yuz litr suv olaman. Bizning ekin maydonimiz ham deyarli bir-day. Shu suvning o'zidan ham tejab-tergab foydalansak, Xudo haqi, yetish u yoqda tursin, hatto oshib ketishi ham mumkin. Lekin sen o'sha o'zingga berilgan suvning hammasidan to'la foydalanayotibsani? Hamma gap ana shunda! Men hozir senga to'ppa-to'g'risini aytib bera qolay, — deb Sobirbek cho'ntagidan bloknotini oldi. O'tirganlar qo'zg'alib ivir-shivir qila boshlashdi: «Sobirbekning gaplari to'g'ri! Hamma balo o'zimizda! Suv

isrof bo'lib ketyapti». Sobirbek bloknotini varaqlab, bir joyini ochdi-da, gapira boshladi:

— Agar shu vaqt ichida sug'orilgan yer maydonlari hisoblab chiqilsa, haligi uch yuz litr suvdan faqat bir yuz yetmish litrigina foydalanilgani ma'lum bo'ladi. Shunday ekan, qolgan yuz o'ttiz litr suv qayerga ketgan? Bu suvlarning bekorga oqib yotgani o'zingga ham ayon, Qoratoy. Ularning bir tomchisi ham ekinlarga sarflanmagan. Xo'sh, nima uchun bular haqida gapir-maysizlar. Bu mirobning ishi emasmi? Hosil olamiz der ekanmiz, har kuni uch mahal ovqat qilishni kanda qilmaganimizdek, ekinlarning ham bir kun emas, bir soat ham kechiktirmasdan qondirib sug'orib turishimiz kerak. Buning uchun esa mirob erta-yu kech dalada, suvning boshida turib jon kuydirib ishlashi kerak. Qoratoy, sen tungi sug'orishda bo'lasanmi? Yo'q, albatta. Odam bo'lib hali biror marta seni kechasi suv boshida ko'rganim yo'q! Ariq-ariqlarga taqsimlab berilgan suv qayerga oqyapti, uni kim boshqaryapti, aminmanki, qanchasi bekorga isrof bo'lyapti? Sen shularni tekshirib ko'rdingmi? O'z suvchilaring aytsin, yo'q albatta, sen buni qilayotganing yo'q. Qachon qaramay to'g'on boshida, reykadan ko'zingni uzmay o'tirganing o'tirgan. Agar, suv rejadan salgina pasaydimi, darhol gidrotex-niklarga: menga suv yetmayapti, suv beringlar, deb chopib qolasan. Ammo shu payt pastda qancha suv foy-dalanilmay, isrof bo'lib oqib yotgani bilan ishing yo'q. Qanday bo'lmasin, birovning hisobidan bo'lsa ham, ko'proq suv olish payida bo'lasan, o'zim bo'lay deysan. Boshqalar suvsiz qolsa ham senga baribir. Olma pish, og'zimga tush, deb doimo reykaning tagida o'tiras... Asov otni o'rgatib mingan kabi suvning ham tizgin-chilvirini qattiq qo'lga olmasang to'g'ri kelgan tomonga urib ketadi... Buni unutma Qoratoy, sening o'rning reykaning tagida o'tirish emas, balki dalada, suvning boshida, suvchilarning orasida...

Sobirbek borgan sari qizishib so'zlay boshladi. Uning so'zları Qoratoygagina emas, o'tirganlarning hammasiga qattiq botayotganday edi. Miroblar boshlarini egib, jid-diy qiyofada jimgina o'tirishardi.

Sobirbek «Beshtosh» kolxozida ishlamasa ham, u kolxozni miridan-sirigacha o'rganib chiqqanday gapi-rardi. «Beshtosh» kolxozida sug'orish ishlariga ertaroq tayyorgarlik ko'rmaydilar. Faqat suv bosib kelgandan keyingina tashvishga tushib qoladilar. Tajribali dehqon-lar bunday qilmaydi, ular erta ko'klamdan boshlab taraddudga kirishadi. Sug'orish kartalarini ishlab chiqi-shadi... Yerga qo'sh tushishi bilan peshma-pesh yangi ariqlar olinib, to'g'onlar tuzatib qo'yiladi, eski ariqlar qazib taxt qilinadi, tajribali suvchilar tanlanib, ularning har biri ma'lum kartalarga birkitib qo'yiladi. Biroq «Beshtosh» kolxozida bunday ishlar qilinmaydi. Qoratoy bo'lsa, bunday ishlar bilan yetarli shug'ullanmaydi, harakat ham qilmaydi.

Qoratoy, senlarga ajratilgan suv ekinlarga yetib bor-masdanoq, eski ariqlarda yo'l-yo'lakay qurib, yo'qolib ketmoqda. Shu zaylda ekinlar suv ichmasdan qolib ketyapti, kolxozning olayotgan hosili ham kamayib ket-yapti. Bu bilan ish bitmaydi. Hammamizga ma'lum, har bir litr suv uchun kolxoz pul to'laydi. Senlarda bo'lsa, suv yo'lda-cho'lda isrof bo'lib ketgani uchun birgina o'tgan yilning o'zida kolxoz ellik ming so'mdan ortiq ziyon ko'rdi. Butun tuman bo'yicha esa foydalanimay isrof bo'lib ketgan suv uchun necha minglab so'm zarar ko'rdik. Agarda buning ustiga, sifatsiz sug'orish nati-jasida hosilning kamayib ketganini qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, keltirilgan zarar miqdori o'n baravar, yuz baravar oshib ketishi mumkin. Ey, og'aynilar, buning uchun kim javob beradi? O'zlarining aytinglar-chi, kim javob berishi kerak? Menimcha, avvalo bunga biz, mana men, mana sen, Qoratoy, miroblar javob berishimiz kerak. O'zlarining bir o'ylab ko'ringlar-chi, mabodo, cho'pon bir uloq yo'qotsa, u uloqni to'laydi. Shunga javob beradi. Agarda bizning miroblar vaqt bilan yuzlab kubometr suvni isrof qilib yuborsalar ham javobgarlikka tortil-maydi. Axir, o'rtoqlar, bunga chidab bo'ladimi? Suv - bu mirobning boqib yurgan moli. Yaxshi mirob undan doimo ko'z-quloq bo'lib turadi, har bir tomchisini ham tejab-tergab sarflaydi. Mana shunday hammamiz to'planishib o'tirganda aytadigan taklifim shuki, mehnat kuni miroblik vazifasi uchun yozilmasdan, balki ish ja-

rayonida foydalangan suvning hisobidan yozilishi kerak, siz qo'shni tumanning vakillaridan mening bu taklifimni hamma yerda quvvatlashlaringni so'rayman... Ot ustida yurib miroblik qilgan boshqa-yu, suv kechib, jonini jabborga berib ishlagan miroblik boshqa...

Qoratoy bu so'zlarni eshitib bezovtalanib o'tirardi. Bu ham mayli-ya, ayniqsa Sobirbekning «sen», «sen» deb qo'lini nayza qilib, ko'rsatib gapirgan gaplari uning suyak-suyagidan o'tib ketdi.

- Yer traktor bilan haydaldi. Kolxozchilaringiz bug'downi ekip, unib chiqishiga ham erishdi. Sug'orish mahaliga kelganda, hammasi bekorga ketdi. Shuni bilginki, Qoratoy, sen odamlarning mehnatini zoye ketkazding. Uchtepa uchastkasidagi makkajo'xorilar hanuzga qadar biror marta ham sug'orilmadi. Yaxshi unib chiqqan ekinning nobud bo'lishiga nega yo'l qo'yding? Bilaman, sen hozir, bu tepalikka suv chiqmaydi deb aytasan. Biroq, u tomonga kun botar betdan ariq olib o'tish mumkin-u, sen bo'lsang bu haqda ertaroq harakat qilmading, bosh ham qotirmading.

Qoratoy o'tirganlarning hammasi o'ziga tikilib qaratotganini sezib turardi. Qoratoy shu payt yer yorilsa-yu, yerga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lgisi keldi.

U qaynoq suvgaga pishib olinganday beti-boshi taram-taram qizarib ketgan edi. Kengash tamom bo'lishi bilan u ijrokomning eshididan birinchi bo'lib yugurib chiqidda, shu bo'yicha otiga irg'ib minib, to'ppa-to'g'ri dalaga qarab chopib ketdi. Biroq u ot ustida ketayotganda ham Sobirbekning so'zлari qulqoq ostida jaranglab eshitilardi. Go'yo Sobirbek uning orqasidan quvib kelayotganday edi. Qoratoy Uchtepa tomon chopib borarkan, u hamon kengashda aytligan gaplarni bir-bir eslab turli xil o'y-xayollarga cho'mardi. Ammo qancha o'ylamasin Sobirbekning aytgan gaplarini ma'qul ko'rmasdi. O'zini oqlamoq uchun qanday bo'lmasin, turli xil dalillar izlab topishga harakat qilardi. Lekin shunday bo'lsa-da, topgan javoblari tinchitib, hovuridan tushirmayotgan edi. Qoratoyni iztirobga solayotgan narsa: kengashda gangib qolib, Sobirbekka hech bo'lmasa bir og'iz ham javoh qaytarolmaganida edi. Mana endi Sobirbek uni burniga sirtmoq solingen tuya kabi o'z izmiga solib oldi. Eh,

kallavaram, Sobirbekning bunday ayyorligini sal ilgari-roq bilsa qani edi! Zarba berib, shoxini sindirib, ik-kinchi marta og'iz ochmaydigan qilib qo'yardiku-ya!

Biroq nima ham deya olardi? Sen, Sobirbek, boshqalarning ishiga aralashmasdan, o'zingni bilaver deb endi aytib bo'larmidi? Endi hech kim u haqda shikoyat qilolmaydi. Sobirbekni butun tuman biladi, u mohir suvchi, eng yaxshi mirob. Sobirbekning kolxozida beda har yili to'rt martadan o'rib olinadi. Uning kolxozida silosga mo'ljallab ekilgan jo'xorining har bir gektaridan olti yuz sentnerdan hosil olinadi, kolxozchilarga har bir mehnat kuni uchun tuman bo'yicha hammadan ko'p pul, g'alla, go'sht, moy beriladi. Oblast gazetasi Sobirbek haqida maqolalar bosib, undan o'rnak olishga cha-qirdi. Bilimi jihatidan ham Sobirbek hammasidan ustun. Ko'pchilik kolxozlarda jo'xorini yer yetilgandan so'ng yoppasiga sug'orishadi deyishadi. Ma'lum bo'lishicha, bu eski usul yaxshi natija bermabdi. Uning fikricha jo'xorini jo'yak-jo'yak qilib zaxlatib sug'orish ma'qul ekan. Shunda xosil ikki baravar ortar emish. Uning aytishicha, agar kanop hozirgi kunda qonib suv ichsa, sutkasiga 12–14 santimetrgacha o'sishi mumkin emish. Tavba, har bir o'simlikni o'lchab yurganday gapiradi. Qishda sug'orish masalasini ko'targan ham Sobirbek emasmidi? Yerni qishda ham sug'orish kerak ekan, shunda yer namlikni yaxshi saqlar emish. Buni eshitib turgan yonidagi bir chol: «Obbo shayton-ey», – deb yoqasini ushlab Sobirbekka tan berayotganini Qoratoy ham ko'rib turgan edi. To'g'ri, Sobirbekning ilmi zo'r, o'zi ham ishning ko'zini biladi, uzoqni ko'radi!

Qoratoy-chi? U nimalarni biladi? Qoratoy ham miroblik kasbini Sobirbekdan kam bilmaydi, albatta. Ular ikkalasi ham mirobchilik kursida birga o'qishgan. Ammo Sobirbekning baxti bor ekan. Ilg'or kolxozga keldi-yu ishlab, tezda nom chiqardi. Xo'sh, u «Beshtosh» kolxozida ishlab ko'rsin-chi! Uning kimligi shunda ma'lum bo'ladi! Dastavval Qoratoy ham ishga zo'r ixlos bilan kirishgan edi. Uning ham halol mehnat bilan xalq o'rtasida shuhrat qozonsam degan orzu-umidlari bor edi. Ammo, ish boshidanoq chappasiga ketib, o'zini o'nglab ololmadi. Raislar biri kelib, biri ketib tez-tez almashinib

turdi. Ana shunday sharoitda yangi takliflarni amalga oshirib, havas bilan ishlab bo'larmidi... Oylar, yillar o'tdi. Qoratoy ham bora-bora ishning borishiga qarab ko'nikib qoldi...

Taqdir ataylab qilganday, ko'p vaqtlar Qoratoy bilan Sobirbekning turmush yo'lini bir yo'ldan boshlab bordi. Ularning qishloqlari ham yondosh edi, yoshligidan bir-biri bilan tanish edilar, keyinchalik o'spirinlik kezlarida «SHKM» mакtabida birga o'qishdi. Urush paytida ham ular bir batalyonda xizmat qildilar.

Belorussiyada bir poxodda ketayotib, jildirab oqayotgan kichik suvning bo'yida dam olib o'tirishganlari hali ham esida saqlanib qolgan edi. Sekin oqayotgan kichkinagina ariqchaning yoqasida soya tashlab turgan butalar, suv ichida o'sgan qalin qamishlar, musaffo osmon, sukut saqlab turgan tushki payt, xullas, atrofdagi jamiki narsalar nafasini ichiga saqlab, o'sha sokin oqayotgan suv tinchligini buzmayotganday bo'lib tuyulardi. Shu payt otishmalarning ovozi ham eshitilmay, bir lahzaga urush dahshatlari unutilib, tinchlik hukm surardi. Bunday sukunat og'ushiga cho'mgan soldatlarning har biri o'zicha turli xil shirin xayollarga berilardi. Sobirbek etigini yechib qayta kiyayotgan edi, ko'zi suvg'a tushib tikilib qoldi:

— Eh og'ayni, bizning qadrdon tog' suvlarimiz qanday ajoyib-a. Ularni juda ham sog'indim-da, Qoratoy! — dedi u. — Har bir ariqning suvi o'zicha bir tiganmas boylik ekanini endi payqab o'tiribman. Okopda yotganimda ba'zan suvning shildirab oqayotgani eshitilib turganday bo'ladi... Omon-eson uyga qaytib borsak, albatta suvchi bo'lamiz... O'shanda sen ham men bilan birga qo'shilib dalaga sug'orishga chiqasan. Axir, dehqonning huzur-halovati o'shanda emasmi? Sening Xonimgulingni ham birga ergashtirib olamiz... Dalaga suvni boshqarib boramiz-da, keyin men sizlarga ashula aytib beraman. Sug'orishda tilisiz kishi ham kuylamasdan turolmaydi! Yovni yengib, omon-eson qaytsak, tilagim shu!..

O'shandan beri oradan qancha yillar o'tib ketdi. Ularning ikkalasi ham urushdan bir vaqtida qaytib ke-

«SHKM» — 30-yillardagi ovul qishloq yoshlaringin mакtabi.

lishdi, ikkovi ham mirob bo'lib birga ishlab yurishdi. Qoratoyning og'ir tabiatliligi va tund mijoziga qaramasdan ular o'rtasidagi do'stlik aloqalari avvalgiday davom etaverdi. Biroq, kunlardan birida Sobirbek o'z o'rtog'i Qoratoyning qallig'i Xonimgulni sevar emish, degan so'z chiqib, ovulda mish-mish gaplar tarqaldi. Shu-shu Qoratoyning do'stidan ko'ngli sovib, Sobirbekdan uzoqlasha boshladi. Qoratox Xonimgulga uylangandan keyin ham Sobirbekka ochiq ko'ngil bilan qo'l bergani yo'q. Qoratox bu haqda qancha o'ylab ko'rsa ham, bir qarorga kelolmay, sabr kosasi to'lib yurdi. Buning sababi ham hor edi, albatta, u sirtdan qaraganda unchalik sezdirmay yurgani bilan Xonimgulni jondan aziz ko'rardi. Uning ichi torligi ham, rashk qilishi ham shunga yarasha edi: Xonimgulga biror kishi kulib qaradimi, bo'ldi, jonajon do'stimi, tug'ishgan kishisimi— kim bo'lismidan qat'i nazar, zaxarini sochib, hazilmi, chinmi, surishtirib o'tirmasdan, qo'lga tushsa shu zahotiyoy qijqqa-mushtashishdan ham qaytmashi.

Ilgaridan shubhalanib yurgan yovuz niyatli Qoratox Sobirbekning har bir bosgan qadamini kuzatib yurib, unga nafrat bilan qaray boshladi. Buni sezgan Sobirbek ham u bilan ko'pdan beri gapirishmas edi. Qoratox Sobirbekning bunday yurishini ko'rib o'zicha: u Xonimgulni unutolmayapti, Sobirbek mening baxtinga chang solyapti, deb sal narsadan gumonsirab yurdi. Bora-bora Qoratox Sobirbekning mehnatda erishgan yutuqlariga ham hasad bilan qaray boshladi. Sirtdan qaraganda, u Sobirbek erishgan muvaffaqiyatlarni nazar-pisand qilmay yurgan bo'lsa ham, aslida uni ko'rganda ichidan zil ketib yurardi. To'g'ri, Qoratox ham Sobirbekdan orqada qolib ketmaslik uchun harakat qildi. Biroq uning ishlari nima uchundir ilgari bosmadi. Bular Qoratoyning qalbini battarroq tirnab-o'rtab, eski qadrdonidan o'rnak olishga, yordam so'rashga, unga boshimni egib boramani, degan g'urur yo'l bermasdi. Sobirbek bo'lsa, o'chakishganday nomi xalq og'zidan tushmay maqtalib, borgan sari obro'-e'tibori ortib borayotgan edi. So'nggi vaqtarda Qoratox buni xalq tugul o'z xotinining og'zidan ham eshitib qoldi. Kunlardan birida Xonimgul Sobirbekning surati bosilgan gazetadagi maqolani o'qib

o'tirgan edi. Bunga ko'zi tushib qolgan Qoratoy hadeganda sir boy bermay, jimgina turdi-da, so'ng sabri chidayolmay:

— Iye, yana sening Sobirbeging haqida yozishibdimi? Qani, yana nimalar deb maqtashibdi! — deb, rashki kelib, ichidan kuyib borayotganini sezdirmaslikka harakat qilib kulimsirab qo'ydi. Bundan hiroz oldinroq Xonimgul dugonalari bilan birga Sobirbeklarning qishlog'ida qo'yilgan kinoga borib kelgan edi. Aytishlaricha, u yerda Sobirbek bilan Xonimgul yonma-yon o'tirishib, kinoni ham ko'rmasdan, bir-birlari bilan gapirishib o'tirgan emish. Buni eshitgan Qoratoy xotini bilan ochiqchasiga gaplashib olmoqchi bo'ldi, biroq u nari-berini o'ylab: — Bizning ovulimizda shu kungacha klub qurilmaganiga kim aybdor? — dedi-yu, yana shashtidan tushdi.

Boshidan kechganlarini shu tarzda o'ylab borar ekan, Qoratoy Uchtepadiagi ekinzorlar tomon qanday yetib kelganini bilmay qoldi. U endi jo'xorilarning qay ahvolda ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ko'rganlariga ishongisi kelmay, ko'zlarini uqalab-uqalab qo'ydi. Lekin bu bilan manzara o'zgarmadi. Sarg'ish tortib kuyib yotgan bo'z tuproq gugurt chaqsang lop etib yonib ketguday. Jo'xorilar bo'lsa allaqachon quvrab o'tkir quyosh nuriga tob herolmay yaproqlarini naycha singari qat-qat o'rab olgan edi. Ona-Yer, u ekinga sut beradi, hayot baxsh etadi. Lekin, u hozir yetim bolalardek o'gay qolgan. Uning suti yo'q, egasiz qolgan jo'xorilar ayanchli ahvolga tushib bari bir ovozdan: «Bizga suv kerak! Suv! Tezroq bir tomchi bo'lsa ham suv kerak!» deya yalinib-yolvorayotganday edi. Ana shu paytda Qoratoying yuragi umrida birinchi marta, haqiqatan ham iztirob chekib, zirqirab og'rimoqda edi. Shunda uning quloglari ostida yana Sobirbekning ovozi jaranglab eshitilganday bo'ldi. ◆ Sen mirobsan, suv qo'lingda, hosil uchun sen javob berasan. Bilib qo'y, Qoratoy, elning rizqini qiyganing, ter to'kib qilingan mehnatni zoye ketkizganining uchun xalqning uvoli tutadi seni».

Shu mahal ko'ngilni behud qiluvchi garmsel boshlandi. Issiq shamolning quyuq to'lqinlari yer betiga olov purkah, qolgan-qutgan so'nggi namlikni ham so'rib

olayotganday Qoratoyning badanlarını kuydirib yondirardi.

— Garmsell! — deya baqirardi Qoratoj jon-jahdi bilan, nafasi bo'g'ziga tigilib. — Garmse! keldi! — so'ng u otning yoliga mukkasidan yiqilib tushdi-da, o'zicha bo'g'iq ovoz bilan pichirlay boshladi. — Bundan ko'ra, mening suvsiz qolganim yaxshi emasmidi?! Bundan ko'ra mening chanqab o'lganim ma'qul emasmidi?!

Birozdan so'ng Qoratoj boshini bir chulg'ab oldi-da, o'nqir-cho'nqirlarga qaramay, dala bo'ylab, chang-to'zon ko'tarib ovul tomon ot qo'yib boraverdi. U tizginni bo'sh qo'yib chopib horar ekan, hozirgina ko'chada podani to'sib turgan Xonimgul bilan To'qonning oldiga yetib keldi-da, otni taqqa to'xtatdi.

III

Tunning birinchi yarmi shu kunlarda odatdagidan qop-qorong'i edi. Oy qorayib ko'ringan tizma tog' cho'qqilaridan kechikib chiqayotgan edi. Sug'orish uchun tun eng yaxshi vaqt. Sobirbek sug'orishaing qanday borayotganini tekshirib yurdi. Hamma ish joyida. Suvchilarga kunduz kuni topshiriq berib qo'yilgan, ularning har qaysisiga alohida yer ham taqsimlab berilgan. Endi bo'lsa Sobirbek biror yerga suv chiqmay qolmadimikin deb, marzama-marza yurib sug'orilgan ekinlarni ko'zdan kechirib yurgan edi, bir vaqt:

— Sobirbek, qayerdasan, ho-o-o, Sobirbek qayerdasan! — degan ovoz eshitilib qoldi.

— Men bu yerdaman!

— Suv yo'q! Suv qurib qolyapti! — deya baqirardi haligi suvchi, Sobirbek u tomon chopib borarkan, narigi yoqdan yana qiyqiriq ovozi eshitildi:

— Hoy, mirob, suv yo'q! Suv qani?

Haqiqatan ham ariqdagi suvlar o'zidan o'zi kamayib qurib qolgan edi. «Katta ariqqa urib ketdimi, nima bo'ldi?» — degancha Sobirbek katta ariq tomon chopib ketdi... Ariq joyida, boyaga-boyagiday. Ammo suv kamayganidan kamayib, ariq tubidagi toshlar qarong'ida yiltirab ko'riniib turardi. «Tavba, bu nimasi bo'ldi?» — deb Sobirbek tang qoldi-da, kanalning biror yerini suv

olib ketganmikin degan xayolga borib, birdan cho'chib ketdi. Bo'lmasa bu kanaldan yolg'iz Sobirbeklar emas, «Beshtosh» kolxози ham suv ichardi, qolaversa, kanalning urib ketgan yerini bog'lash oson ish emas. Unga qancha kuch, qancha vaqt kerak. Sug'orish qizg'in ketayotgan bozirgi paytda suvsiz qolish bu hosildan mahrum bo'lish degan gap. Nima bo'lsa ham tezroq harakat qilish kerak, deb Sobirbek tun qorong'isiga qaramay, otga yana qamchi bosdi.

Mana, u kanalning boshiga ham yetib keldi. U yerda ikkala kolxoz uchun suv bo'lib berib turadigan katta shlyuz o'rnatilgan edi. Sobirbek otini kanal chetidagi tolga bog'ladi-da, o'zi kanalning tepasiga irg'ib chiqdi va shlyuzning ko'prigi bilan yurib borayotib birdan to'xtab qoldi. Sobirbek katta ariq boshidagi shlyuzning berkitilganini ko'rib o'z ko'ziga ishonmasdi. Kanaldan ariqqa tomon hech bo'lmasa jildirab ham suv oqayotgani yo'q. Qoratoylarning shlyuzi bo'lsa, oxirigacha ko'tarilgan. Suvning hammasi ularning arig'ida sharqirab oqayotgan edi.

«Bu nimasi, buni kim qildi?» – deb Sobirbek o'ziga-o'zi savol berardi-yu, unga javob topa olmasdi. U umrida bunaqa hodisaga duch kelmagan edi. Suvning shovqin solib, sharqirab oqayotganidan Sobirbekning so'zlarini eshitib bo'lmasdi.

– Yo'q, bu yerda qandaydir anglashilmovchilik bor. Bunday bo'lishi mumkin emas. Buni darhol tuzatish kerak!.. – deyardi Sobirbek o'ziga-o'zi pichirlab.

U otining yoniga borib, hamisha egarining qoshiga bog'lab yuradigan katta kalitni yechib oldi-da, qaytib kelib o'ziga tegishli suvni ochib yuborayin degan maqsad bilan kalitni shlyuzning gaykasiga solib burayotgan edi, yaqin atrofdan birovning haybatli ovozi eshitildi:

– Tegma unga, qo'lingni tort!

Sobirbek yalt etib yon-atrofiga qaragan edi, ko'priking ustida qandaydir qanotini yozib yuborgan burgutga o'xshash, ola-bula juldur yopinganday boshini ichiga olib kelayotgan ko'lanka paydo bo'ldi. Uning afti basharasi ko'zga ko'rinasdi.

– Sen kimsan?

– Qo'lingni tort deyapman!

— Qoratoy, senmisan?

U javob bermasdi.

— Bizning suvni sen bo'g'ib oldingmi?

— Menga suvning hammasi kerak!

— Bunday huquqni senga kim berdi?

Qoratoy lapanglagancha ikki sakragan edi, Sobirbekning qarshisida paydo bo'ldi.

— Yo'qol, hozir ko'zimga ko'rinsma!

— Qoratoy, aqling joyidami o'zi? Nima deb vaysayapsan?

— Hozir bu yerdan ket! Suvni bermayman dedimmi, bermayman! Uni o'zim uchun emas, kolxoz uchun ol-yapman! Ekinlar quvrab ketibdi, menga suvning hammasi kerak. Hozir ket, joningedan umiding bo'lsa, bu yerdan hozir ket! Nima qilsang ham suvni bermayman.

— Boshqalarning ekini sug'orilmasdan qolib ketsa maylimi? Bu kurakda turmaydigan so'z. Bu o'g'rilikdan boshqa narsa emas!

— Men o'g'rimanmi? Tilingni tiyl — Qoratoj sakrab borib Sobirbekning qo'lidagi temir kalitni yulib oldi-da, orqaga bir qadam tisarilib, qulochkashlab turib Sobirbekning boshiga urmoqchi bo'lgan edi, Sobirbek epchilik qilib, Qoratoyning qo'lini ushlab qoldi. So'ngra u qo'liga butun kuchini to'plab, Qoratoyning bilagini qopqon kabi sindirgudek mahkam siqib turaverdi. Ni-hoyat, kalit Qoratoyning qo'lidan sho'lp etib suvga tushib ketdi. Biroq Qoratoj hamon yon bergisi kelmadı. Aftidan, u holdan toyib yiqilmaguncha olishmoqchi. Sobirbekni ko'priknig chetiga sudrab borib, suvga itarib yubormoqchi. Buni sezgan Sobirbek bir qo'li bilan shlyuzning temiridan ushlab olib, o'rnidan qimirlamay turaverdi. Ular shu zaylda yuzma-yuz olishib, ko'prik ustidan suvga tushib ketmaslik uchun bir-birini ushlab, yopishishardi. Qadrdon do'st bo'lib yurgan kezlarida ham ular bir-biri bilan bunchalik yaqinlashgan emas edi. Atrof bo'lsa jimjit, qorong'i, biror tirik jon yo'q. Faqat endigina bosh ko'tarib kelayotgan to'lin oy bu olishib yotganlar kim bo'ldi, deganday, qir orqasidan bosh cho'zib qarayotgan edi. Agarda hozir kun qorong'i bo'limganida, Sobirbek Qoratoyning quturganday qon to'lgan ko'zlarini baralla ko'rgan bo'lardi, chakkasida

bo'rtib chiqqan qon tomirlarini yuragi bilan bиргаликда гупуллаб урятганини сезган бо'lardi, uning irvaygan og'izlari murdani eslatardi. Biroq qorong'ida Qoratoying kuyib-yonayotgan issiq gavdasi, anqib turgan ter hidi va xirillab chiqayotgan so'zlarigina sezilardi.

— Suvni bermayman dedim, — bermayman! Bugun tun suvdan men foydalanaman. Ekinlar suvsizlikdan quvrab ketyapti!..

Biroz vaqt o'tgach, Qoratoyning madori qurib, bo'shashgan edi, Sobirbek uni o'zidan nariga itarib yubordi:

— O'rningdan jilma, Qoratoy! Qo'zg'ala ko'rma! — dedi Sobirbek, — oqibat shu edimi? Hosil uchun, birinchilik uchun shunaqa kurashishimiz kerak ekan-da. Sen meni kim deb bilasan?

— Sen menga dushmanсан! — dedi Qoratoy entikib xirillab. — Sen menga dushmanсан... Sen mening sevgan xotinimga ko'z olaytiryapsan, sen meni sinamoqchi bo'lib yig'ilishlarda yomon ishlaydi, deb ishimni muhokama qilasan. Lekin meni aldayolmaysan, bilib qo'y shuni... Sug'orishda qanaqa qilib ilg'or bo'lib yurganingni ham bilaman, sen mening suvimi ham tuni bilan o'zingga foydalanib yuribsан...

— Nima-nima? — dedi-yu, Sobirbekning tomog'i bo'-g'ilib, boshqa so'z aytishga chamasi kelmadи shekilli, Qoratoyning yorqasini qo'shqo'llaganicha o'ziga niqtab tortib, shu bo'yicha qimirlatmasdan xippa bo'g'ib turaverdi, so'ng qorong'ida uning ko'zidan ko'ngalida nimalar borligini bilib olmoqchi bo'lganday, yuziga anchagacha tikilib turdi-da, qandaydir o'kinch bilan boshini chayqadi:

— Hammasi tushunarli! Men ketdim. Ammo shuni bilginki, sening ariqlaring shuncha suvg'a chidash berolmaydi... Sen o'zingga-o'zing dushmanlik qilyapsan... Agar bir ho'plam suv bekorga ketsa, keyin o'zingdan o'pkala...

Sobirbek ketgandan so'ng Qoratoy ko'priknинг us-tida turib, oy nurida oqarib ko'ringan Sobirbekning gimnastyorkasiga anchagacha qarab qoldi. Sobirbek bu to'qnashuvda g'olib chiqqanday boshini baland ko'tarib, ko'kragini kerib, mardonavor odimlab ketayotgan edi,

Qoratoyning bo'lsa boshi aylanib, butun vujudi olov bo'lib yonayotgan edi. U, hozir o'zini g'oyat kuchsiz, biroq adashtirib, yolg'iz tashlab ketgan go'dak singari his qilardi. Shu payt u ketib borayotgan Sobirbekka: «To'xta! Menga suving kerak emas, suvingni oll!» – deb baqirib yuborishiga sal qoldi.

O'z qilmishini to'g'ri deb topish va undan qanoat hosil qilish uchun Qoratoya yana nimadir yetishmayotgan edi. Kanalning tepasidan chopib tushgan Qoratoy ariq yorqasiga kelib o'tirdi-da, jonimni jabborga berib topgan suv senmisan, deganday tomog'i qurib-changagan kishi kabi hovuchlab qult-qult suv ichdi-da, o'zicha nimalarnidir gapirayotgan edi:

– Shoshmay tur, hali men senga ko'rsatib qo'yaman. Endi hamma suv o'z qo'limda... Bu kecha hamma ekinlarni sug'orib olaman. Muddaom shu. Meni o'g'ri deb ko'rsin-chi, men o'g'ri emasman!.. Ular ekinlarini to'rtbesh martalab sug'orib olishgan. Bir kecha suv olmasa olmabdi-da... Bizga bo'lsa hoziroq suv kerak. Mana, yana garmsel esib kelyapti... Yo'q, Sobirbek, bekorlarni aytibsan, bizga olti quloq emas, o'n-o'n besh quloq suv kerak... Uchtepadiji jo'xorilarga suvni o'sha eski ariqlar bilan olib boraman.

Haqiqatan ham ariqda katta suv to'lqinlanib oqayotgan edi. Uning kuchli oqimiga qarab turgan Qoratoyning ko'zları jimirlab ketdi. Bahorgi toshqin daryo kabi qirg'oqlari bilan to'lib oqayotgan ariq suviga kaftingni solib to'smoqchi bo'lsang, suv go'yo asov toydek sapchib, duch kelgan tomonga olib ketishi mumkin. Suv erkin oqishni yaxshi ko'radi. Agar unga quloq solib tur-sang, suv o'zining kuchli oqimi bilan ariq qirg'oqlarini kemirib ketib, ko'zga ko'rinas qumlarni muttasil oqizib borayotgani eshitildi. Biroq Qoratoyning xayoli boshqa narsada edi. U bugun qanday bo'lmasin, tuni bilan ekinlarning hammasini sug'orib olmoqchi edi. Suv hozirgacha Uchtepaga yetib borganini, u yerda suvchilar kechadan beri shaylanib, tayyor bo'lib turganini xayolidan o'tkazdi-da, Qoratoy o'rnidan sapchib turib quyonchidan o'zicha miyig'ida kulib qo'ydi. Ha, sug'orish boshlandi! Endi tezroq harakat qilib qolish kerak...

Qalin kanopning qoq o'rtasidagi yolg'izoyoq yo'l bilan chor atrofga nazar tashlab bir ayol kelardi. Uning boshiga bir o'ram qilib bog'lab qo'yilgan oq ro'moli yelkasiga sidirilib tushgan, ko'ylagining yoqalari ochib yuborilgan, qorong'ida ko'ksi oqarib ko'rinish turardi. Bu Xonimgul edi. U shoshilganicha qayergadir ketib borardi. Uyqusidan cho'chib uyg'onib ketgan to'rg'ay yonidan parillab uchib ketgan edi, Xonimgul cho'chib ketib qichqirib yuborishiga sal qoldi va qo'rqqanidan qo'lidagi tugunchani ko'kragiga bosib oldi. Yo'q, u qo'lidagi tugunchani tashlamoqchi emas. Qoratoy ishga bugun ovqat yemasdan ketgan, yana buning ustiga, uning kayfiyati ham buzuq edi. Agar biror hodisa yuz bergenini bilganda, Xonimgul Qoratoy uchun jonini berishga ham tayyor edi...

Shu payt allaqayerdan:

— Qoratoy! Qoratoy! Suv urib ketdi! Tezroq kel! — degan kuchli ovoz eshitildi.

Shoshib qolgan Xonimgul o'sha tomonni ko'zlab chopib ketdi. Uch-to'rt kishi, kimligini bilib bo'lmasdi, urib ketgan ariq yorqasida uymalashib yotgan edi. Ammo Xonimgul ular orasidan Qoratoyni darrov tanidi. U suv o'yib ketgan ariq o'rtasida enkayganicha nimagadir urinib yotgan edi. Katta ariqdan siqilib oqayotgan kuchli oqim yirtqich hayvon kabi tutqich bermay, qirg'oqni uzib-yulqib, tuproq chiqindilarini o'zi bilan birga oqizib soyga tomon chopardi. Suvning shovul-lab oqayotgan oqimi ichidan dam-badam kishilarning shovqin-suronlari eshitilib qolardi.

— Bo'll!.. Tezroq! Chimni olib kell!.. Toshni bos...

Xonimgulning yetib kelganini hech kim payqamagan edi. Biroq uning qayerdan, qachon kelganiga ham hech kim hech qancha taajjublanmasdi. Xonimgul suv kechib, Qoratoyning oldiga yugurib bordi. Qoratoy unga yalt etib bir qarab qo'ydi-da:

— Chim, chim olib kel! Tezroq! — deb buyruq qildi. Undan keyin nima bo'lganini Xonimgul yaxshi anglamasdi. Boshi qotib, gangrab o'ngimi, tushimi, faqat jon-jahdi bilan chim o'yib yotganini bilardi, xolos.

Chimni yerdan ajratib olish qiyin, uni tirnoqlari bilan uzib olish kerak. Chim juda og'ir bo'lsa ham, Xonimgul uni tashlamay bola ko'targanday quchoqlab ko'kragiga qisib, Qoratoya olib kelardi. Qoratoy bo'lsa xotiniga biron nima demasdan bo'g'ilib xirillardi. Shu choq narigi tomondan birovning qichqirgan ovozi eshitildi:

– Nima? Nima bo'ldi?
– Tezroq, tezroq bo'linglar! Suv olib ketyapti! – Muskullari temirday bo'rtib chiqib, hansirab, bir-birovlarini turtishib suv bilan olishib yotgan odamlar orasidan ayolning horg'in ovozi quloqqa chalindi. Xonimgulning oyog'iga tosh tushib ketgan edi. U oyog'ining og'rig'iga chiday olmasdan «voy jonom», degancha tishini tishiga bosib, suvning ichida o'tirib qolgan edi, narigi yoqdan Qoratoyning «bo'linglar», degan buyrug'ini eshitib, o'rnidan irg'ib turdi. Shu zahoti bir narsa qirs etib ketdi. Nima bo'ldi, oyog'i sindimi?.. Qoratoyning qoqayotgan qozig'i sinib ketgan edi...

Ko'zлari jimirlab tinib ketdi...

– Baribir, bo'lmaydi!
– Nega bo'lmaydi?
– Eski ariq eski ko'yak singari, bir joyini yamasang, ikkinchi yeri yirtilaveradi.
– Bas qill
– Bundan chiqdi, ishlab o'lgin deb qo'ya qol?
– O'!!

Yana shiddatli kurash davom etadi! Suv – bu tilsiz yov. U bostirilgan tosh va chimlarning ostidan otilib chiqib, hamma yoqqa toshib, buzib borayotgan edi. Uni jilovlab bo'lmasdi... qo'llarining tobora madori qurib, yuzlaridan namakob ter quyilardi... Suvchilar Qoratoyan norozi bo'lib, uni ko'rishga ko'zi yo'q edi...

– Shu ham ariq bo'ldi-yu, ichidagi cho'p-xasiga o'ralashib yiqlasan kishi... Yana undan suv qanday oqsin...

– Ariqlarni durustroq qazitmay rais bilan mirob nima qilib yuribdi...
– Bularning hammasiga Qoratoy aybdor, ikki o'rtada na o'ziga, na o'zgaga qildi...
– Tekin tomoq yurakni og'ritadi!

Bu so'zlarni Xonimgul ham eshitib turgan edi.

«Ular nima deyishyapti, Qoratoy biror qaltis ish qilib qo'ydimi?» deb qo'rqib ketdi.

Suvchilardan biri jahl bilan baqirdi:

– Bas endi, suvni ochib yubor!

Kimdir birov suvni ariqqa tashlab yuborish uchun shlyuz tomon yugurib ketdi. Qoratoy bo'lsa, bir-ikki sakrab yetib keldi-da, uning yo'lini to'sdi.

– Senga kim aytdi suvni tashlab yuborsin deb? Hozir izingga qayt! Javobini o'zim beraman!

– Nimaning javobini berasan? Birovlarning suvini ochib olib, ariqlarni buzib yuborganing uchunmi?

Qoratoy lom-mim demasdi. Qovoq osgan bo'yicha qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lib to'planib turgan suvchilarga tomon qo'lidagi ketmonini salmoqlab yaqinlashib bordi.

Haligi so'zlarning ma'nosini, kuyovning qilmishlarini Xonimgul endi aniq anglab yetgan edi.

Qoratoy suvchilarga g'azab bilan tashlandi:

– Ishni tashlab ketishga kim ruxsat berdi?

– Ko'p baqiraverma! Yaxshilik bilan suvni ochib yubor!

– Sen o'g'irlagan suv uchun biz javob bermaymiz!

– Ochib yubormayman! – deb baqiragan Qoratoy joni bo'g'ziga kelib, ketmon ko'tarib suvchilarga hamla qildi.

Shu zahoti suvchilardan biri uni o'z ketmoni bilan to'sib qoldi, ketmonlar bir-biri bilan to'qnashib, qorong'ida olov uchqunlari chaqnadi. Suvchilar ko'plashib Qoratoyni bosib yiqitib, qo'lidagi ketmonini tortib olishdi. Qoratoy shunda ham tinchlanmasdi. U oldida turgan odamlarni boshi-ko'zi demasdan sola boshladi. Boshqalar uni ushlab qo'lini orqasiga qayirishgan edi. Qoratoy qo'ldan chiqib ketib, ikki-uch qadam nariga borib yiqilib tushdi. Biroq yana o'rnidan tura solib, quturgan hayvon kabi olishib ketdi.

Hang-u mang bo'lib qolgan Xonimgul tili kalimaga kelmay, majoli qurib, o'sha o'tirgan bo'yicha o'tirib qoldi.

– Voy, bu qanday mudhishlik! – deganicha Xonimgul mushtlashib yotganlarni ajratmoqchi bo'lib, o'zini ularning orasiga otdi. Gandiraklab holdan ketgan Qora-

toyning oldini to'sib, uni urayotgan odamlardan himoya qila boshladi:

— Qo'yinglar, sadag'ang ketaylor, hoy bu nima qilganlaring, bola bo'lyapsizlarmi, qo'yib yuboringlar! — deb Xonimgul yiqilib-surilganicha Qoratoyni ajratib olishga talpinardi. Ko'ziga qon to'lib, jon talvasasida olishayotgan Qoratoy ayoliga bo'y bermay, uni qayta-qayta siltab tashladi. Shunga qaramay Xonimgul o'zini qorong'ida mushtlashib yotgan olomon orasiga otib suvchilarga yalinib-yolvordi:

— Qo'ysalarling-chi, ayb sizlarda emas... Qo'li bilan qilgan, boshi bilan javob beradi. Bunga Qoratoyning o'zi javob bersin, sizlar ketaveringlar... Ketinglar hozir... Urmanglar deyapman!

— Hoy, urishni kim boshladi? Uning o'zi emasmi?

— Boshlagan bo'lsa, boshlagandir, o'chlaringni mendan olinglar, undan ko'ra, meni uringlar.

— Nega seni urar ekanmiz... Hozir ketamiz, bu yerda yotib qoladigan odam yo'q. Biroq biz buni shu bo'yicha oqibatsiz qoldirmaymiz. Tegishli joyda gapirishib olamiz... «Ko'ramiz! Hali partorg, pravleniyening oldiga ham boramiz!» — degancha suvchilar ketmonlarini yelkalariga tashlab, ovulga yo'l olishdi.

Qoratoy bo'g'iq ovoz bilan:

— To'xta! Orqaga qaytinglar, hozir qaytinglar! — deb bo'yniga osilib olgan Xonimgulni sudrab, ular tomon intilardi.

Suvchilar to'xtamadi, unga javob ham qilishmadi. Birozdan so'ng ular qorong'ida g'oyib bo'lishdi.

Boyadan beri olishaverib holdan ketgan Qoratoyning esi og'ib, butun vujudi titrab-qaltirab, qo'llari lattaday shalvirab qolgan edi. Dala ustidan go'yo momaqaldiyoq guldurab o'tib ketganday atrof jimjit. Dimiqqan iliq tun mayin tortib qizib yotgan yer betiga salqin tushayotgan edi. Ariq bo'y lab tig'iz o'sgan ixroj bilan sariq bosh o'simliklarning o'tkir hidi havoda anqib turardi. Kanal tarafdan qurbaqalarning qurullahi elas-elash eshitilib turardi. Narigi yoqda esa qalin butazor oralab ona tuya o'tlab yuribdi. U bo'talog'ini erkabal, cho'ziq ovoz bilan o'ziga chorlardi va yantoq poyalarini kirtillatib chaynardi.

Ha, tabiat odatdagiday tinch, o'z maromida, uning osudaligini faqat birgina narsa – ariqning sharillab oqayotgan suvi buzmoqda edi. Kichkinagina kamar-chadan kuch bilan otilib chiqayotgan suv soy bo'y lab sharqirab oqmoqda. Qoratoy boshini quyi solib, o'rтанib yotgan yuragini to'xtatolmay kamardan pishqirib qaynab chiqayotgan suv kabi entikib, og'ir nafas olardi. Uning «dik-dik» urayotgan yuragi kuyovini quchib turgan Xonimgulga go'yo o'z qalbi urayotganday aniq sezilib turardi. Mana, suv so'nggi tosh va chimlarni ham surib oqizib bormoqda. U o'chakishganday, avvalgisidan ham kuchliroq sharillamoqda.

– Buni men yolg'iz o'zim uchun qildimmi? – deyardi Qoratoy o'z-o'zicha, kimga yuzlanishni bilmay. – Yo'q, kolxozni deb qildim... Suv bo'lmasa... Ekin maydoni yildan yilga kengayib borayotgan bo'lsa...

Xonimgul kuyovining bu nolishini ko'rib, yuragi tovlanib ketdi:

– Hechqisi yo'q, Qoratoy, ko'p xafa bo'laverma! – deyardi Xonimgul kuyovining qulog'iga shivirlab.

Qoratoy bir xo'rsinib, Xonimgulni quchoqlab turgan qo'llarini ajratib, uni nariga itarib yubordi.

– Ket bu yerdan! – dedi u zarda bilan qahri kelib. – Ko'zimga ko'rinya, yo'qol!

Xonimgul biron narsa demasdan jimgina qayrildi-da, odimlab ketdi. U yurib borarkan, yo'l-yo'lakay quvray-larning boshini chimchib, ularning achchiq donlarini kaftida uqalab, yerga sepib borardi.

Yolg'iz qolgan Qoratoy yana biroz o'tirdi-da, so'ng to'g'oni ko'zlab yurib ketdi.

V

Tong ham ota boshladi. Tog' yonbag'irlariga o'rashib olgan pag'a-pag'a yengil bulutlar uyqudan sekin-asta bosh ko'tara boshladi.

Qoratoy bo'lsa yerda chalqancha tushib yotgan edi. Hozir u yerni quchoqlaganicha yolg'iz yotardi.

Yer hammasini tushunadi, odamning sevinch-quvon-chiga ham, qayg'u-alamiga ham sherik bo'lishi, o'z bag'riga singdirishi mumkin. Mana, hozir ham chuqur

xayollar og'ushiga cho'mib o'tgan voqeani eslayotgan Qoratoyning tinchini buzgisi kelmaganday, sekin-asta yorishib kelayotgan tong shu'lasi yer betiga to'shalib, yuqoridan esayotgan mayin shabada uning zirqirab-qaqshab og'riyotgan tanasi, qavarib ketgan qo'llari uzra girdikapalak bo'lardi. Qoratoy yotgan yerga yana kimdir birov sharpasiz yaqinlashib keldi-da, uning yoniga o'tira qolib, Qoratoyning boshlarini, kiftlarini silay boshladi. Bu iliq qo'llar Qoratoy uchun g'oyat yaqin, g'oyat yoqimli tuyulardi. Qoratoy zarracha bo'lsa-da, qo'zg'alishdan qo'rqardi; go'yo sal qo'zg'alsa bu orombaxsh lahma, jon ato qilgan baxt qushi parvoz qilib, uchib ketib, ikkinchi marta qaytib kelmasdek bo'lib tuyulardi.

«Qadringga yetmadim, Xonimgul, — deb o'ylab yotgan edi u. — Sening tabiatingni tushunmasdan pastlik qildim. Kechir meni, yuzingga qanday qarayman endi. Baxt-tole degan narsa faqat uyda, o'choqning boshida-gina emas, balki el bilan, kollektivning mehnati bilan chambarchas bog'liq ekanini o'zing ham tushungan bo'lsang kerak...»

— Qoratoy, o'rningdan tur, Sobirbek kelyapti! — deb shivirladi Xonimgul. Qoratoy boshini salanglatib o'rnidan turdi.

— Ma, dalada qolib ketibdi, boshingga kiyib ol,— deb Xonimgul unga qalpog'ini uzatdi. Qoratoyning changga botgan ust-boshini qoqib, ko'ylagining yirtilgan joylarini to'g'rilib, qistirib qo'ydi.

— Men uyg'a ketaverayin, sen keyin borarsan... Oting qo'rg'onning narigi yog'ida tushovli yuribdi, — dedi Xonimgul ketib borayotib.

Sobirbek ariqni yoqalab sekin kelayotgan edi. U ba'zan uzangiga oyoqlarini tirab, otining jilovini tortib, atrofga nazar tashlab borardi. Balki, u yangi ariqning qayerdan tushishini mo'ljallab yurgandir.

Qoratoj jimgina qarab turardi.

Do'st oldida javob berishdan ko'ra dushman qo'lida o'lgan yaxshi emasmi?!

1954-yil

BAYDAMTOL SOHILLARIDA

I

Kutilmaganda yomg'ir quyib berdi. Bir zumda paydo bo'lgan loyqa sel chuqur jarliklarni yuvib, keksa archalarni tag-tomiri bilan qo'porib, yo'lidagi toshlarni surib-supurib, daralar osha sharqirab oqardi. Dahshatli bu oqim ana shunday shiddat bilan borib, Baydamtolga qo'shilardi.

Pishqirib, quturib oqayotgan daryo o'zini qo'yishga joy topolmay, dara bo'ylab shovqin solardi. Qosh qorayib qolgan bo'lsa-da, ahyon-ahyonda o'rkach-o'rkach va-himali qora to'lqinlarning jon-jahdi bilan qirg'oq tomon tashlanishini ko'rish mumkin edi. Shiddatkor to'lqinlar kuch bilan toshlarga urilar va parcha-parcha bo'lib, yana shovullaganicha qaytib ketardi.

Yana sal o'tmay suv bilan qoya to'qnashib, darani gulduros ovozlar qoplab olardi. To'lqinlar sig'ishmayotganday bir-birining ustiga mingashardi. Goho-goho ayg'ir kabi olishib, osmonga sapchishardi. Daryo tepasidagi po'lat simga osib qo'yan lylukani hozir uzib ketayotganday tuyulardi.

To'lqinlanib oqayotgan daryo tepasidagi ulkan qora qoyalar qovoqlarini solib hech narsa bilan ishi bo'lma-ganday e'tiborsiz turishardi.

Unchalik katta bo'lmanov hovlida it g'ingshirdi. Qorong'i deraza ostiga o'tirib olgan kuchuk, yelkasini yalab ketayotgan achchiq sovuq iztirobidan bo'lsa kerak, tobora qattiqroq uvullardi. Shamol uning ovozini baland daralar osha uzoq-uzoqlarga olib ketardi.

Asya uxmlay olmadi. Ayniqsa, chaqmoq chaqib, go'yo birov deraza ostiga kelib gugurt chaqqandek, bir zumda hammayoq yorishib ketar, yomg'ir seli oqib tushayotgan oyna ortidan uvadaga o'xshagan sur bulutlar mo'ralaganda ko'ziga alvasti ko'ringanday, uning yuragi orqasiga tortib ketardi. Ular, xatto Asyaning ko'ziga oynani chertayotgandek bo'lib tuyulardi. Asya qo'rqqanidan qo'lidagi ochiq kitobni ko'ksiga bosdi. Vahima ichida ko'zini yumdi-da, nafas chiqarmay tashqari-ga sekin qulqoq soldi.

Devorning shunday orqaginasida gidrotexnik Bektemirning oilasi yashardi. U yoqdan onda-sonda gangir-gungur gapishtagan va yo'talgan ovoz eshitilib turardi. Bu Bektemirning otasi keksa Asilboyning sharpasi edi. U obdan azob chekar, aftidan bugun cholning suyaklari yana qaqshab og'rib azob berayotganga o'xshaydi. U kuchukni bir necha bor baqirib-chaqirib so'kib oldi:

— Ket, yo'qol, Boykuren, yo'qol bu yerdan! Ovozingni o'chir, kasofat, o'lging kelyaptimi? O'chir ovozingni!

So'ng Asilboy Asya yotgan xona eshigiga yaqinlab keldi-da, yo'talganicha jahl bilan gapira boshladи:

— Hali ham yotmadingmi, Asya? Chirog'ing hamon yonib turibdi, dam olsang bo'lmaydimi, qizim? Kitobni o'qishga keyin ham vaqt topilar. Yo qo'rqaqsanmi?

— Yo'g'-e, otajon! Siz tashvishlanmang, yotib ugrayering, issiqroq o'raniб oling, — dedi Asya.

— Qani endi uyqu kelsa?! Yomg'ir ham jonga tegdi, yer yutgur kuchukning ovozini aytmaysanmi, dard ustiga chipqon bo'ldi...

Orqadan xunob bo'lib gapishtagan kelining ovozi eshitildi:

— Voy Xudo-yey, jimgina yota qolmadi bu chol, axir bolani uyg'otib yuborasiz-ku?! It bilan nima ishingiz bor, akillab-akillab o'zi jimib qoladi!..

Ammo qulog'i og'irlashib qolgan Asilboy bu gaplar dan keyin ham tinchimadi. U to'shaklarini qaytadan tuzatayotib yana qattiqroq g'o'ldirab gapirdi:

— Ey Xudo, o'zing panohingda asra! Nahotki falokat yuz bersa! Baydamtolning quturib oqayotganini qarang! Lyulkani simdan uzib ketguday bo'lsami, qidirib topib bo'psan. Xudo, buncha qahring kelmasa, voy belim, belginam sinib ketyapti!

Ertalab quyosh tog'lar orasidan tig' urishi bilanoq, Bektemir otni egarlab, dara tomon yo'l oldi. U tog'dagi yirtqichlar yuradigan so'qmoqqa qo'yib keligan qopqonni tunji suv oqimi olib ketmadimikan, deb u yerga ertaroq yetib borishga shoshilardi.

Yomg'ir ham tinib qoldi, ammo suvg'a botgan kigizdek og'ir bulutlar yer ustida muallaq osilib turardi. Bir kechadayoq cho'qqilarni va tizma tog'larni qoplاب

olgan oppoq qor ko'kish tortib erib yotgan edi. Qor uyumlari oralab daradan esayotgan achchiq izg'irin kishi badanini junjiktirardi. Yer bag'irlab yotgan o't-o'lalnlar va butalar suvga botgan boshlarini silkitib-qoqib, qad-dilarini rostlayotgan edilar.

So'qmoq yo'l sirg'anchiq bo'lgani uchun Bektemir otini sekin yo'rttirib borardi. U ot jilovini bo'sh qo'yib yuborib, o'z ishlari haqida xayol surib ketdi. Kutil-maganda ot taqqa to'xtab qoldi, «chu-chu»lab haydasa ham o'rnidan qo'zg'almasdi. «Bu nimasi bo'ldi, biron narsani sezyaptimi?» – o'yładi Bektemir va chor atrofga nazar tashladi... So'qmoqdan bir necha qadam narida bir odam yotar edi. Bektemir bu tasodifdan lol bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. U odam jarlik ostida, suvning kovlab ketgan yerida yer quchoqlab yotardi. Boshida va kurtkasining yirtig'idan ko'rinish turagan qo'lida qotib qolgan qon izlari bor edi.

«Tirikmi yo o'likmi?» – Bektemir otdan tushmay ehtiyyotlik bilan yaqinroq kelib: «Bu kim bo'ldi ekan?» – deya qaradi:

– Baydamtolda hech kim yashamaydi, bu yaqin o'rtada qishloq ham yo'q. To'g'ri, ba'zan ovchilar kelib turishadi, ularning hammasi tanish kishilar bo'lib, har gal kelganlarida ov haqida Bektemir bilan maslahatlashish uchun, albatta gidrologiya punktiga tushishadi. Bu odam esa ovchiga ham o'xshamaydi. Yana sochini ham shaharliklarnikiga o'xshatib oldirgan, kiyimlari yoqqa botgan, bilagida soati...

Bektemir unga sinchiklab qaradi. Bu kishining butun tun bo'yi yomg'ir ostida qolib ketgani ko'rinish turardi. Gavdasining yarmini jarlikdan oqib tushayotgan loyqa suv ko'mib yuborgan. Ko'rinishidan yosh yigitga o'xshaydi. Kiyimining tizzasi va tirsagidan yirtilganiga qaraganda u qattiq olishgan, yuqoriga emaklab chiqishga intilgan. U hozir ham jarlik tubidan xuddi emaklab chiqayotgandek bo'lib yetibdi: o'ng qo'li oldinga uzatilgan, barmoqlari toshni timdalab – tirmashganicha turibdi. Qayerdan va qaysi tomondan keldi ekan u? Buni aniqlash mushkul – yomg'ir izlarni yuvib ketgan.

Shu mahal yotgan odam kutilmaganda qo'zg'alib, sekingga ingradi.

«Xayriyat tirik ekan hali!» – sevinib ketdi Bektemir va otdan sakrab tushib, uning qo'lini ushladi.

– Hoy o'rtoq, menga qara!

Ammo u javob bermasdi. Bektemir mashaqqat bilan uni chalqancha yotqizdi, yoqalarini yechib, ko'kragiga qo'lini qo'ydi. Yuragi hali urib turardi. Bektemir uning kissalarini kovlab ko'rdi, komsomol biletidan boshqa hech narsa topmadi. Biletning suvga botgan varaqlari bir-biriga yopishib, siyohlari yoyilib ketgan edi. Bektemir quyidagi uch so'zni o'qiy oldi, xolos: «... Aliyev Nurbek... 1930...»

– Qiziq! – boshini chayqadi Bektemir. So'ng Nurbekni egarga beozor o'ngarib olish uchun otni qulayroq joyga yetaklab keldi.

II

«Penitsilin tugayapti, nima qilish kerak?» – Nurbekning bu yerda eshitgan birinchi so'zi shu bo'ldi. Bu so'zlar xuddi uzoqda gapirilgandek qulog'iga arang chalindi. Ammo bu so'zlarni kim so'zлади, у kimga tegishli, buni Nurbek anglamasdi. U har qancha urinsa ham ko'zini ocholmadi, majoli qurib, o'zini allaqanday zulmat ichiga qulab tushgandek his etdi.

Keyinroq Nurbek kimdir og'ziga suv quyayotganini sezdi. Og'zidan oqib tushayotgan muzdek suv uning qo'yniga tushganda u sekin ko'zini ochdi. Bu safar u, kimdir birov boshida engashib turib:

– Qarang, Asilboy ota, ko'zini ochdi! – deganini aniq eshitayotgan edi.

Nurbek gapirayotgan kishi yo qiz bola yoki yosh juvon ekanini ovozidan bildi. Biroq shunda ham uning yuzini ko'rmasdi: ko'z oldini tumandek qorong'ilik qoplab olgan, hech narsa ko'rinnmasdi. «Bu ehtimol tushim bo'lsa kerak», – o'yladı Nurbek. Shu payt ikkinchi bir kishi gapga aralashdi, u har holda keksaroq ko'rinnardi.

– Ha, qizim, u yana hayotga qaytdi! – dedi-da, yengil tortib nafas oldi. – Sen savob ish qilding, Asya! Mana buni Xudoning qudrati-yu, dorining ko'magi dey-dilar!

Ular yana nimalar haqidadir pichirlashib gapirish-

dilar-da, so'ng chiqib ketishdi. Chol eshikni ehtiyyotlik bilan yoparkan:

— Damini olsin, bechora! — dedi.

Asta-sekin bemorning ko'z oldi ravshanlasha boshladи. Nurbek unchalik katta bo'lмаган, yangi oqlangan ozoda xonaga hayron bo'lib ko'z yogurtirib chiqdi. U qanday qilib bu yerga kelib qolganini bilmasdi, lekin xonada biron madaniyatli kishi yashashini darrov sezdi. Javonlarda tartib bilan terib qo'yilgan kitoblar, stol ustida esa allanimalar yozilgan qog'oz taxlog'liq turardi. Burchakdagи shkafda Nurbekka notanish bo'lган qandaydir priborlar qo'yilgan. Devorda alpinistlarning ko'zoynagi osig'liq turibdi. Asta egilib deraza tomon qaragan edi, ko'zi tumbochka ustidagi oyna va ko'pchilik bo'lib oldirilgan suratga tushdi. Suratning tepasiga «Geografiya fakulteti» degan so'zlar yozilgan. Derazadan tog' cho'qqlari, moviy osmonning bir parchasi ko'zga tashlanib turardi. Qayerdadir yonginasida, go'yo uyning yonboshida daryo to'xtovsiz shovullab turardi.

— Hech narsani eslolmayman! — pichirladi Nurbek va oynaga tikilganicha qarab qoldi. Ranglari siniqib, yuzlari ichiga cho'kib ketgan, ko'pdan beri soqolmo'yloviga ustara tegmagan, boshi bint bilan o'rabi bog'langan kishi karavotda yotgan bo'yicha oynadan unga tikilib qarab turardi.

— A-a! — baqirdi Nurbek. Uning yuzlari og'riq va dahshatdan o'zgarib ketgan edi. Go'yo u qandaydir jirkanch va vahshiy bir qiyofani ko'rgandek bo'ldi. Nurbek qo'li bilan yuzlarini bekitib, ingraganicha teskarli o'girilib yotdi. Eshik ochilganda esa qo'rquvdan cho'chib ketib, qo'llarini yuzidan oldi. Xonaga uzun sochlarni orqasiga tugib olgan, egnida chang'ichilar kostumi va oyog'iga qalin charmlı tog' botinkasi kiyib olgan bir qiz kirib keldi.

— Qalay, durustmisiz? — oddiy bir ohangda bemordan hol-ahvol so'radi va qo'lidagi choynakni stolga qo'ydi. Nurbek qip-qizarib ketdi. Yoningda qiz bola tursa-yu, yigit bo'la turib karavotda yalpayib yotsang, qiziq tuyular ekan. U turishga harakat qilib ko'rdi.

— Siz nima qilyapsiz?! Yoting, turish mumkin emas, sizga».

Nurbek qizga javob bermoqchi edi, lekin ulgura olmadi, qovurg'asi tagida qattiq sanchiq turib, kutilmaganda nafasi bo'g'ilib, yo'tal tutib qoldi. Nurbek ikki bukilib, ko'kragini changallagancha xirillab yotgan edi. Qiz qo'rqib ketganidan nima qilishini bilmay, xonada gir aylanardi. Oxiri, kelib Nurbekning boshini tutdi. Yo'tal to'xtagach, yengil nafas olib, bemorning manglayini sochiq bilan arta boshladи.

— O'pkangiz qattiq shamollagan. Siz o'zingizni ehti-yot qilishingiz kerak. Kechadan beri hushsiz yotibsiz. Haroratingiz ham baland. Bugun ham o'ttiz to'qqiz. Yoting... Bu yerda o'zingizni uyingizzdagidek his etaver-ring... Men bo'lsmam, radiobudkada bir necha daqiqa aylanib qolibman...

Nurbek yo'taldan so'ng ham o'ziga kelmadi, qizga nimani aytishni, nima deb javob qaytarishni bilmay, xijolat tortib dovdiragancha qarab turardi, xolos. Erkak-larga o'xshash kiyinib olgan bu qiz negadir minut sayin unga yaqinroq va tanishroq bo'lib tuyular, go'yo Nurbek uni ko'pdan beri ko'rib yurgandek edi. U qorachadan kelgan, oddiy qirg'iz qizi edi. Uning yumaloq yuzi, chirolyi keng peshonasi tog' shamoli va quyoshdan pishgan edi. Taranglashgan qalin lablari hozir kulib yuborayotganday, hamisha mayin tabassum bilan ba'lqib turardi. Bularning hammasi kishida bolalarcha soddalik va ezgulik tug'dirardi. Faqat uning ko'zlaridan jiddiylik va o'ychanlikni sezib olish mumkni edi. U unchalik katta bo'limgan semiz va baquvvat qo'llari bilan ko'rpani tuzatib, Nurbekning oyoqlarini yaxshilab o'rab qo'ydi.

— Karavot qisqaroq, yostiqni balandroq qo'yib beraymi?

— Yo'q, yo'q, tashvishlanmang... Kechirasiz, singil-cham, men hozir qayerda yotibman?

Qiz ajablanib, qoshlarini chimirdi.

— Bu yer gidrologiya punkti!

— Gidrologiya punkti deysizmi?

— Ha! Siz Baydamtol daryosi haqida eshitgandirsiz?

Sizni Bektemir og'a topdi. Siz uni taniysizmi?

— Yo'q, eslayolmayman!..

— U bizning gidrotexnigimiz.

- Bu yerda odam yashaydimi?
- Ha, yashaydi. Lekin juda ozmiz - Bektemir og'aning oilasi va men, xolos.
- Siz bu yerda ishlaysizmi?
- Ha, gidrologman.
- Menga qilgan yaxshiliklaringiz uchun rahmat, singlim, biroq... - Nurbek gapirolmay tutilib qoldi. So'ngra sir boy bermay, so'radi: - Sizning ismingiz nima?
- Asya. Sizning nomingiz - Nurbek-a, shunday emasmi? Siz Baydamtolga biron-bir muhim ish bilan kelgan bo'lsangiz kerak?

Nurbek Asyaning so'zlariga javob bermadi. Teskari qarab boshini ko'rpgaga o'rab oldi, lekin shu zahotiyoyq ko'rpani irg'itib tashlab, qizga xo'mrayib qaragan holda:

- Men jinoyatchiman! - dedi.
- Asya qo'lidagi choynakni sekin yerga qo'ydi.
- Siz jinoyatchi?! Qanday jinoyatchi, qanaqasiga? Demak, siz qochib kelib, tog'da bekinib yotibsizmi?!
- Ha, singlim! Siz odamni qutqardik deb o'ylarsiz... Bu to'g'ri, mening o'rnimda boshqa har qanday kishi bo'lganda ham umrining oxirigacha o'zini sizdan qarzdor deb bilardi... Ammo, men dom-daraksiz yo'qolib ketganimda, agar toshqin daryo mening suyaklarimni uzoq-uzoqlarga oqizib ketganida, men o'zimning mana shu achchiq taqdirimdan juda xursand bo'lardim.

Asyani qo'rquv bosgan edi, lekin u o'zini darrov qo'lga olib, bemorni tezroq tinchitishga harakat qildi.

- Qo'ying, tinchlaning? Siz hayajonlanmasligingiz kerak. O'rningizdan qo'zg'al mang!
- Ketmang, singlim! Sizdan o'tinib so'rayman, gaplarimga quloq soling! - Aftidan u Asyani o'zining gaplarini eshitmay ketib qolishidan qo'rqardi. - To'xtang, Asya, men sizga hammasini aytib beraman yashirmsandan...

III

Ilk bahor kunlaridan birida Nurbek zavod darvosidan tashqariga chiqdi, bo'ynidagi jundan to'qilgan sharfini olib cho'ntagiga soldi-da, keng yelkalarini rostlab, ko'kragini to'ldirib-to'ldirib chuqur nafas ola boshladi. U ko'rish mumkin bo'lgan narsaga: ko'chalarni, zavod korpuslarini, havo va parklarni – jamiki narsaga quvonch bilan nazar tashlardi.

Nurbek bo'ychan, kelishgan yigit edi, hozir ham boshini yuqori ko'tarib, lablarini qisib atrofga mag'rur boqib turishi o'tkinchilarning ko'ziga, ayniqsa, yaqqol tashlanib turardi.

U, ayniqsa, bugun bahorning yaqinlab kelayotganini yaxshi his qilayotgan edi. Havo nam va yopishqoq osmon sarg'ish bulutlar bilan qoplanib, quyosh ko'rinxmayotgan bo'lsa ham asfaltlarda qorlar erib ketayotgan edi, pastqam o'tloqlardan esa suvlar jildirab oqib, ariqlarga borib quyilayotgan edi. Bahor darakchisi – o'rik, uning devorlar orqali ko'chalarga yoyilib ketgan shoxlaridagi to'lishgan kurtaklari nozik hid tarqatardi.

Nurbek trolleybusga o'tirdi. Uning bahor haqidagi o'y-xayollari hali tarqamagan. Yaqinlashib kelayotgan kunlar Nurbek uchun qiziqarli va alohida ahamiyatga ega. U qo'riq yerlarda tashkil yetilgan olisdagi baland tog'li sovxozlarga mexanik bo'lib boradi. Zavod partiya tashkilotining kotibi uning xarakteristikasiga: «Malakali, aqlli mexanik, shuning uchun ham zavod partiya tashkiloti unga zavod ishonchini oqlashiga to'la ishonch bildiradi», – deb yozgan edi.

Obkomning putyovkasi qo'lida, erta-indin klubda xayrlashish marosimi o'tkaziladi, unda qancha iliq so'zlar, yaxshi istaklar aytildi, musiqa, tansa, kulgi, qo'l siqishib ko'rishish, so'ngra... so'ngra... Bularning barini, qalbiga jo qilib olgan quvonchli voqealarning hammasini ta'riflab berish Nurbekka qiyin... Bir so'z bilan aytganda – oldinda yangi porloq hayot, yangi ish, yangi do'stlar!..

Nurbek qo'riq yerlarni zabit etuvchi shonli yoshlarimizning biri bo'lib tayinlanadi. U yerda, asrlar bo'yi odamzod qadami yetmagan tog' bag'irlarida ekinlar

boshqo laydi, yo'llar yotqiziladi va shunda xalq: «Bu bizning ovulumiz, bizning maktabimiz, bizning ustaxonamiz...» deb faxr bilan tilga oladi. Nurbek bu haqda o'ylar ekan, uning qo'llari kuchga to'lib, hoziroq ishini boshlashga oshiqardi.

IV

Bahor toqqa juda kechikib keldi. Shudgordan tashqari, sovxoza ishlar boshdan oshib yotgan edi. Texnikaga yoqilg'i keltirish, remont ustaxonasini jihozlash, uy, oshxona, hammom qurish va boshqa qanchadan qancha ishlar. Axir yangi, kimsasiz yerda hammasi ham muhim, hammasi ham kerak. Birini qildingmi, orqasidan ikkinchisi, uchinchisi chiqaveradi. Biroq, mexanizatorlar shudgor qilib, ekin ekishni muhim va asosiysi deb hisoblar edilar.

Ma'lum bo'lishicha, bu kimsasiz, yovvoyi tog' oraliqlarini inson izmiga bo'ysundirish shunchaki yengil bir ish emas ekan. Ammo mavjud qiyinchiliklar Nurbekning ruhini tushira olmadidi. U avvalgiday shoshib-pishgan, qizg'in va serg'ayratligicha qoldi. Bunga yana serzardalik, nima desa aytganini qildira oladigan kabi yangi xarakter xislatlari ham qo'shildi. U hamma ishni o'z qo'li bilan bajarishni, o'z didiga o'tiradigan qilib ado etishni istardi. Agar, mabodo uning qo'l ostidagi kishilardan birontasi belgilangan topshiriqni bajara olmasa, u bundaylarga bo'sh kelmasdi: «Qanaqa odamsan! – baqirib berardi u, odatdagidek, – shu oddiy ishni ham uddalay olmayapsanmi?.. Senga o'xshaganlarni bu yerga kim yubora olishi mumkin... Qani nariroq tur, o'zim qilaman!»

Nurbek qanday ishga kirishmasin, uni albatta, oxiriga yetkazmasdan qo'ymasdi. Aftidan Nurbeksiz umuman biron ishni bajarish mumkin emasday tuyulardi. Qachon qarama, belini mahkam bog'laganicha chopib yuradi. Palatkalarini ham o'zi buzib, buldozerlarni o'zi boshqarib boradi, tog'lardan ko'chib tushgan qor uyumlarini kurab, ustaxonadagi stanoklarni ham o'zi montaj qiladi...

Faqat yomg'ir uzoqqa cho'zilib, ishga chiqmay palatkalarga kirib olingan paytda uning boshiga birdan g'amgin o'ylar kelardi. Unga shu narsa qorong'i edi: nega u hanuzga qadar biron kishi bilan yaqindan aloqa bog'layolmadi, nega uning bemalol dardlasha oladigan samimiyl, dilkash do'stlari yo'q? Ishda bo'lsa odamlar unga bo'ysunadi, hech qachon aytganini ikki qilmay, izzat-hurmat qilayotganday bo'lib ko'rindi, ish kuni tamom bo'ldimi, hatto u bilan hech kim gaplashmaydi ham... Shunday paytlarda Nurbek chamadondan fotosuratlarni olib, chiroqning xira yorug'iga tutib uzoq vaqt termilib qarardi.

Oynagul suratda ham chiroyli edi. Fotosuratdan uning sevimli atir hidi anqib turardi.

Oynagul ministrlilikda kotiba bo'lib ishlardi. U yumshoq yo'lkalardan va to'shab qo'yilgan gilam ustidan yurishga ko'nikib qolganidanmi yoki tug'ma go'zallikmi, uning yengil va ohista qadam tashlab yurishlari g'oyat latofatli edi.

Nurbek qo'riq yerlarga ketishga qaror qilganini aytilib, yonidagi putyovkasini ko'rsatganda, Oynagul Nurbek kutganidek uning bo'yniga osilmadi.

— Sen yaxshi o'ylab ko'rdingmi? — so'radi Oynagul, peshonasini tirishtirib.

— Ha, nima edi?

— Shunday o'zim... — dedi va sekingina qo'shib qo'ysi: — Demak sen meni faqat so'zdagina sevar ekansan-da... — Oynagulning qalin kipriklari yosh bilan namlanib, ko'zlari yana go'zallik kasb etgan edi. Nurbek dovdirab qoldi, u buni kutmagan edi.

— Nima keragi bor buni, Oynaxon? Sovxozga ketsa meni esdan chiqarib yuboradi, deb o'ylamagin sen! Men u yerlarda sen bilan birga hayot kechirishimizni orzu qilaman.

Albatta, Oynagul qo'riq yerga borish haqida tezda bir qarorga kelmagan edi. Buni Nurbek ham unga maslahat solmagan edi. Avvalo joylashib, uy olish, keyin esa turmush qurish haqida so'z bo'lishi mumkin edi.

Nurbekni kuzatayotib, Oynagul unga o'zining fotosuratini taqdim etdi:

— Boraver, Nurbek, — dedi u zarda bilan lablarini cho'chchatyirib. — Bilaman, agar yodingga biron narsa tushib qoldimi, sira ham fikringdan qaytmaysan. Agar u yer yoqmay qolsa, o'zingni qiynab o'tirma, qaytib kelaver, men kutaman seni... Yana zavodda gap qili-shadi, deb o'ylama, buning uncha ahamiyati yo'q... Ish hamma vaqt topiladi... Ha, aytganday, har ehtimolga qarshi, tentirab yurma, tumanda mening tog'am ishlay-di, mana uning adresi. Tortinib o'tirma, unga murojaat qilaver, hammasiga yordamlashadi u...

Biroq ma'lum bo'lishicha, Oynagul unga adashib boshqa adresni bergen ekan. Uning tog'asi qo'shni tu-manda, janubdag'i dovonda ishlar ekan. Nurbek buni keyinchalik mahalliy kishilardan so'rab bilib oldi.

Sovxoz kundan kunga ko'z o'ngida yuksalib, obod bo'lib bormoqda edi. Nurbek bo'lsa hamon o'sha kunni— Oynagul bilan o'z taqdirini birlashtiruvchi porloq kunni orziqib kutayotgan edi.

V

Toqqa bahor ancha kechikib keladi, uni orziqib kutish kerak, biroq, u o'z husn-jamolidan nishona ko'rsatdimi — darhol yer yuzini gul va ko'katlar sepi qoplab oladi.

Pastda, vodiyya maysalar unib chiqadi, nihollar qomatini rostlab yaproq yozib, soya tashlay boshlaydi. O'shanda bahor navbatni yozga berib, o'zi esa yer betini chulg'ab olgan ko'k-yashil tusdagi guldor ko'ylik barini ko'tarib sudraganicha tog' sari yo'l oladi.

Tog' zonasining bahori o'zgacha tabiatga, o'zgacha go'zallikka ega.

Ertalabdan qor yog'adi, tushdan so'ng quyosh chiqib, qorlar erib bug'lanadi, bir kunlik gullar gullaydi, kechga kelib esa yer selgib, ariq va jilg'alar tun bo'yi muzlab chiqadi. Ertasiga ertalab cho'qqilardan qarasang, ko'z ilg'amas kenglikdagi naqadar musaffo tog' bahorini ko'rib, qalbing quvonchlarga to'ladi. Charaqlab turgan osmon dengizida kichkinagina dog' han ko'rinnasdi. Yer esa yoshgina qiz kabi yasangan — yam-yashil, shab-

nam bilan yuvulib, go'yo uyalib kulib turardi... Agar qiyqirsang, ovozing uzoq vaqt jaranglab cheksiz va yuskak tog' tizmalari bo'ylab toza havoda yiroq-yiroqlarga taralib ketadi... Hech qanday qor ham, tuman ham, yomg'ir va shamol ham bahorni to'xtata olmasdi, u yashil olov kabi alangananib tog'dan tog'ga, cho'qqidan cho'qqiga yonib o'tib, tobora yuqorilashib, mangu muzliklar sari bormoqda edi.

Odamlar hamma yerda bahorgi ekishni ertaroq tugal-lash bilan band. Tog'li yerlarda esa bu, ayniqsa muhim edi, – muddatdan sal kechikdingmi, ekinlar pishib yetilmay qolardi yoki tungi sovuq urib ketardi.

... Nurbek sovxozening uzoq uchastkalaridan birichegaradagi «Katta soyga» kechqurun yetib keldi. U mototsikldan tushmasdanoq, qiya tepalikda to'xtab qolgan traktorni ko'rди. Nurbek achchiqlanib tupurib, mototsiklni o'chirdi va traktor tomon yugurib ketdi. Olisdan jahli chiqib baqirdi.

– Ey, sen traktorni nega yotqizib qo'yding! Yana sindirdingmi?

Yosh traktorchi Juman qo'lidagi papirosni oyoq os-tiga olib tepkilab tashladi.

– Traktorning hamma yeri taxt! – o'zini oqlamoqchi bo'lmasday javob berdi u. – Biroq bu yerda haydash xavfli, og'a.

– Nima deyapsan? – Nurbek unga tomon tashlandi. Sal bo'lmasa mushti bilan solib yuborguday bo'lib. – Aqling joyidami seni?

– E-e... O'rtoq mexanik, tushunasizmi...

– Ha, aniqroq qilib gapir! Traktor qachondan beri yurmay turibdi? Senga aytyapman!

– Bir soatdan beri...

Nurbek mushti bilan havoni kesib:

– Kim ruxsat berdi senga? Kim? Qanday ahmoq?

– Traktor ag'darilish ketadi deyapman-ku. Ishlash xavfli!

– Qayoqqa ag'dariladi? Nega mahmadonalik qilyapsan?

Buning ustiga brigadir kelib qoldi. Nurbek Trofimovning boshidan oyog'igacha g'azab bilan nazar tashlab oldi va afsuslanganday boshini chayqab:

— Buni sizdan hech qachon kutmagan edim! Traktorning bo'sh turganligi uchun partbyuroda javob berasiz!

Katta, keng gavdali Trofimov, odati bo'yicha dag'al mo'ylovini vazminlik bilan silab, bosh irg'ab hammasini ma'qullaganday:

— Traktorni to'xtatishga majbur bo'ldik, o'rtoq mexanik, — bosiq ovoz bilan gapirdi u. — Kutdik, siz yoki agronom kelib qolsalaring, maslahatlashamiz deb o'yladik... Mashinani haydashga relyef imkon bermaydi. Nishablik... Qiyalikni bir ko'ring-a... Traktor sirg'alib tushib ketishi mumkin, kishilarning ham boshiga yetishi-miz mumkin! Sezyapsizmi, traktorning qanday turi-shini!

Nurbek traktorga o'tirib olib yonbag'ir tuyulishiga bir qarab oldi-da, shoshqaloqlik bilan qo'l siltab:

— Ortiqcha ehtiyotkorlik! Bu g'ildirakli traktor emas, zanjir g'ildirakli traktorlar bu qiyaliklardan yuraveradi va hech qachon ag'darilmaydi!

— Men, Xudoga shukur, tog'larda yigirma yillar chamasi ishlayapman, Nurbek Aliyevich. Har xil voqealar yuz berdi! Siz bo'lsangiz hali bu yerlarga yangi kishisiz. Ishoning menga, bu yerda traktor bilan ishslash mumkin emas, juda xavfli.

Mensimaslik ham evi bilan-da! Demak bundan ko'rinaridiki, Nurbek o'z ishini eplayolmayotgan ekan-da?! Buning ustiga yana Juman brigadirning so'zlarini ma'qullab qo'shib qo'ydi:

— Brigadir to'g'ri aytadi. Haqiqatan ham xavfli!

— Agar xavfli bo'lsa o'tovda, uyda o'tiraverish kerak edi! — Tish orasidan javob qildi Nurbek. — Qo'riq yerga qo'rqiqlarning keragi yo'q! O'zingiz aytинг-chi o'rtoq Trofimov, partiya bizni nima uchun yubordi bu yerga? Agar biz qandaydir kichkina bir tepalikka chiqishdan qo'rqsak, topshiriqni qanday qilib bajaramiz!

— Yo'q, o'rtoq mexanik, — e'tiroz bildirdi Trofimov. — O'zini baloga giriftor qilish emas, balki oqilona ish tutish kerak. Axir bu jiddiy ish-ku.

— Siz nimani taklif qilasiz? Qo'l qovushtirib o'tirishnimi?

— Nima keragi bor shunaqa so'zlarni, o'rtoq mexanik. Qachon biz qo'limizni qovushtirib o'tiribmiz. Bu yerni haydash noqulay ekan, bo'lmasa boshqa yerga o'taylik.

— Maslahatingiz uchun rahmat! Demak, biz yer haydash o'rniغا, у yerdan bu yerga ko'chib yurishimiz kerak ekan-da? Bir minut vaqt hozir qanchalik qimmat ekanligini o'ylab ko'rdilaringmi? Ikkinchi bir yerga ko'chib o'tamiz deguncha o'nlab gektar yerni haydab qo'yish mumkin. Qolaversa, sizlarga yana shuni eslatib qo'yishim kerakki, hammamizda ham plan, grafik va marshrut bor. O'zboshimchalik qilishga haqimiz yo'q.

— Nega bunday ekan, o'rtoq mexanik? Rejaga tuzatish kiritish mumkin emasmi? Men sizga yana eslatib aytyapmanki, bu tik tepalikda traktorda yurishni hech kim xohlamayapti. Istagan kishingizdan so'rab ko'ring! — dedi Trofimov to'planib turgan traktorchilarga ishora qilib. Ularning birontasi ham churq etmay turardi. Ammo qovoq osib turishlaridan mexanikning aytgan gaplarini ma'qul ko'rmayotganliklarini uqib olish mumkin edi.

— Har kimning joni o'ziga aziz, — dedi Trofimov traktorchilarning fikrini ifodalab, — bunday yonbag'irliliklarda hazillashib bo'lmaydi, o'rtoq mexanik!

— Noto'g'ri aytasiz! Siz boshqalarni ham qo'rkoq qilib qo'yibsiz. Men — sovxozung mehanigiman, qaysi mashinadan qayerda foydalanishni mening ixtiyorimga qo'yib beravingrlar. Men aminmanki, bu yonbag'irlilikni hech qanday hadiksiramasdan haydayverish mumkin. Bo'limg'ur gaplarga qulok solmaslik kerak! Siz — komunistsiz, o'rtoq Trofimov, qiyinchiliklardan qochish kerak emas, balki kurashmoq kerak.

— Qiyinchiliklar sen yashab turgan zamonga nisbatan men bosib o'tgan davrda ko'p edi, yosh yigit! — brigadir tutaqib ketdi u Nurbek tomon yaqinlab kelarkan, o'zini g'azabdan arang bosib keskin burilib odimlab ketdi. Uning orqasidan boshqalar ham keta boshladi. Nurbek yolg'iz o'zi qoldi. Bu unga juda qattiq botib, qalbi alam va iztirobdan achishib og'riyoatgan edi. Nurbek o'rnidan sakrab turib, Trofimovga yetib oldi va uning yengidan ushladi:

— Men sizga darhol traktorni yurgizishni buyuraman!

Trofimov Nurbekning boshidan oyog'igacha jimgina nazar tashlab oldi-da, keyin undan qo'lini tortib olib, yurishda davom etdi.

... Allaqaqachon yarim kechadan oshib qolgan, tunamoq uchun baland tog' qoyalari orasiga bulutlar suzib kelishmoqda, ular to'p-to'p bo'lib, o'zaro uchishib, endigina uyquga bosh qo'yan edilar. Tevarak-atrof suv sepganday jimjитlik. Uzoq-uzoqlarda traktorning gurullagan ovozi arang eshitilardi. Brigadadagi kishilarning hammasi uyquga ketgan. Faqat Nurbek uxlagani yo'q. Achchiq va chidab bo'lmas alam o'tlari uning qalbini tirnab o'rtayotgan edi. U ilondek to'lg'anib, sezdirmasdan xo'rsinib, allanimalar deb g'o'ldirardi. Ha, Trofimov uni bugun sharmanda qildi, butun xalq o'rtaida sharmanda qildi! «Yo'q, bunga jim turib bo'lmaydi! Nima bo'lsa ham o'zining haq ekanligini isbotlashi kerak, faqat shundagina o'z obro'-e'tiborini tiklab olishi mumkin!»

Nurbek sekin o'rnidan turib ovoz chiqarmay palatkadan tashqariga chiqdi. U yoq, bu yoqqa qaradi, hech kimsa yo'q. O'g'rilardek engashib, u nariga chopib ketdi va jarlik soyasida g'oyib bo'ldi.

Oradan biroz o'tgandan so'ng, qiya tepalikda, traktorning yonida cho'ntak fonari bir-ikki yonib o'chdi va birdan tun tinchligini buzib, pulemyot otulganday «ta-ta-ta-ta!» degan ovoz eshitildi. Bu traktorning ovozi edi. Oradan sal o'tmay, traktor bir me'yorda, so'niq ovozda tirillay boshladи. Birdan chiroq yonib, shu bilan bir vaqtida traktor ham o'rnidan qo'zg'aldi. Nurbek richagni bosganicha hayajonlanib, ilgagiga tikilib qarardi. Traktor tepalik bo'ylab yurib ketdi.

«Ha, texnika inson qo'l ostida, faqat uni boshqara bilish kerak, shunda u inson qo'li qayerni ko'rsatsa o'sha tomonga ketaveradi. Buning uchun esa botirlik, jasurlik va qat'iylik kerak! Mana buning yaqqol misoli — boshqa'lар jur'at qilolmagan yerdan traktorni Nurbek haydab bormoqdal!»

— Yo'q, traktor qulab ketmaydi! Bu behuda gap.

Sizlar uchun endi qizarishga to'g'ri keladi! – xitob qilardi Nurbek, hayajonidan titroq bosib.

Traktor haqiqatan hali tik tepalik sari yurib borayotgan edi. «Ular nimadan qo'rqishdi? – o'yladi Nurbek. – To'g'ri, hadeb bir tomonga engashib o'tiraverish u aytganday oson gap emas ekan, ammo bu sal narsa, chidasa bo'ladi!»

Oldinda yassi do'nglik ko'rindi. Traktor radiatori bilan yuqoriga ko'tarildi, u hozir ag'darilib ketayotganday, biroq Nurbek traktorning yurish tezligini oshirib, bir zarb bilan bu do'naglikni ham bosib o'tdi. Kartanning oxiriga yetib traktorni orqaga burdi. Endi Nurbek g'alabaga qat'iy ishonch hosil qilgan edi:

– Men sizlarga ko'rsatib qo'yaman, kim ekanligimni! – qichqirdi u chirani, badxohlik bilan. – Ertalabgacha bu qiya tepalikning hammasini haydab qo'yaman, agar zarur bo'lsa, bu tog'larning hammasini cho'qqilar bilan birga qo'shib haydab tashlayman! Ertaga ko'rib ishonch hosil qilasan, Trofimov, qaysi birimiz haq ekanligimizni!

Nurbek ikkinchi krugni ham bosib o'tdi. O'zida mislsiz kuch paydo bo'lganini his qildi, ko'z o'ngida go'yo traktor bilan birga qo'shilib qudratli po'lat gavda turganday tuyaldi.

Oldinda yana tepalik ko'zga tashlandi.

– Hechqisi yo'q! – O'zini tinchitardi Nurbek.

Traktor zo'riqib-bo'kirib yurib borayotgan edi, birdan yonboshga qarab og'a boshladи.

– Hechqisi yo'q! – o'ziga dalda berardi Nurbek... Qo'li richagda, uchinchi skorost... La'natni traktor bo'lsa, hamon ingrab-bo'kirganicha qiyshayib, og'ib borayotgan edi. Traktorni epchillik bilan birdan yuqoriga burib olish kerak edi, aks holda u ag'darilib ketardi! Nurbek oldinga tashlanib, o'ng tomondagi richagni kuch bilan tuproq ichida keskin burildi va bunday tepalikda yurishga qodir emasday tumshug'ini osmonga ko'targancha turib qoldi. Nurbekning boshiga gup etib qon urdi: «Nima qilish kerak? Tezroq motorni o'chir! Qani, tezroq! Motor jimb qoldi! Nima qilish kerak?»

Biroq endi kechikilgan edi. To'xtab qolgan traktor

shu zahotiyog g'ijirlab ovoz chiqarib, sekin-asta plugni ostiga olib ezib, orqa tomon tislanyotgan edi. U endi ag'darila boshlay degan edi, Nurbek kabinadan sakrab tushdi. Keyingi voqealar esa ana-mana deguncha bo'lib o'tdi. Traktor pastlikka tomon tezlashganidan tezlashib dumalab borayotgan edi. Tog' etagiga yetganda kuchli zarb bilan qoyaga borib urildi.

— A-a-a-a! — deb baqirib yubordi Nurbek, lekin u o'z ovozini eshitmasdi. Traktor katta toshga borib urilishi bilan lop etib olov chaqnadi, qoya va mashinadan otilib chiqqan parchalar hushtak chalib atrofga sochilib ketdi. Yer larzaga kelib shu zahotiyog hammayoqni birdan zulmat qoplاب oldi.

Nurbek oyoqyalang, ko'yakchan, qo'llariga fonar ko'tarib chopib kelayotgan odamlarni ko'rdi. U go'yo yer surilib cho'kib borayotganday birdepsinib oldi. Odamlar bo'lsa yaqin kelib qolishgan edi, qo'rqinchli baqiriq-chaqiriq ovozlarini eshitilmoxda edi.

— Nega sakradim, men? — dahshat ichida shivirladi Nurbek, — traktor bilan birga majaqlanib ketsam bo'lmasmidt?

U qochishga joy topolmay gangib turdi-da, so'ng hovliqib, o'qday yugurib ketdi.

Nurbek orqasiga qarashga botinolmasdi. U boshini yelkalari orasiga olib, qo'li bilan yashirar, qoqilib ketib, gursullab yiqilib tushar va shu zahotiyog yana o'rnidan sakrab turib, quyon kabi g'izillab chopardi.

«Tezroq! Tezroq yugur! Yetib qolishdi. Eshityapsanmi». «Ushla, ushla!.. Xoinni tut, mahkamroq ushla!..» degan ovoz eshitildi.

Nurbek bor kuchi bilan qochardi. Uning ko'ziga hech narsa ko'rinxasdi, o'nqir-cho'nqir demay chopib borardi. Ammo oyoq, bu la'natি oyoq xuddi bal-chiqqa botib qolgandek yerdan ajralmasdan bir-biriga o'ralashib, nafas olish ham og'irlashib, a'zoyi badani yonib achishardi. Nurbek toqat qilolmasdan ko'yak yo-qalarini yirtib yubordi.

• • •

Ertalabdan ikki burgut ko'kda parvoz qilardi. Ahyon-ahyonda erinchoqlik bilan qanot qoqib qo'yar va yana yuksaklikda aylanib yurardi. Ular chamasi tarang va egilmas qanotlarini sal-sal tebratib, havoda yengil va erkin parvoz qilib yurishgan edi.

Bu cheksiz bo'shliqqa faqat burgutlarga hukmron edi. Ular bu hokimlikka monand harakat qilganday vazmin va osoyishta uchishardi. Tog'-u toshlar ham, qorlar ham, daryolar ham uning keng qanoti ostiga jo bo'lgan. Ular yer yuzida bo'layotgan jamiki narsalarni, hatto mayda zarrachalarga qadar ravshan ko'rib turadilar.

Mana, tog' oralig'ida allaqanday qo'g'irchoq kat-taligidagi maxluq paydo bo'ldi.

«...Odam! Qara, odam-ku!» – qag'illab tovush berdi burgutlardan biri. «Ko'ryapman, bu odam!» – qisqagina javob qildi ikkinchisi.

Soylikda odam paydo bo'ldi, ammo burgutlar hamon vazmin va osoyishta parvoz qilishardi. Odamning paydo bo'lishi ularni hech ham bezovtalantirmadi. Axir, u qushlarning uyasini buza olarmidi? Yo'q, bu odam o'z soyasidan o'zi qo'rqadi. U qochoq yoki bo'lmasa qandaydir yo'ldan adashgan baxtsiz bir kishi. Bu uning ishonchszilik bilan omonat qadam tashlashidan, daydib yurish-u, qo'rquv aralash ko'z qarashlaridan aniq sezilib turardi. U tez-tez seskanib tushar, atrofga alang-lab qarab, yana jim qolar edi. Bunday kishi chiqib bo'lmaydigan qoyalardagi burgut inlariga yetib borib, ular bilan yakkama-yakka kurasha olarmidi? Bu kishida maqsadga erishish uchun kuch va iroda bormikin, dadil kurashishga qodir ekanmikin! Yo'q, burgut uyasiga qo'l solmoq uchun u kishining o'zi ham dovyurak burgut bo'lmoq'i kerak! Ha, g'alaba ochiq kurashda hal bo'ladi. Burgutlar yuzma-yuz olishishni yoqtirishadi. Dushman ularning uyasiga qo'l solmoqchi bo'lib intilganda, ular dushmanqa qarshi: «To'xta! Orqangga qayt!» – deb qichqirishadi, so'ng darg'azab bo'lib qur-qurlashib: «Tayyor bo'll!» – deganday bir-birlariga xabar qilishadi-da, cheksiz balandlikdan tosh kabi quyiga otildi. Ular shuvullagancha havo bo'shlig'ini yorib

o'tib, dushman ko'kragiga changal uradi-da, uni o'lim holatiga keltiradi. So'ng burgutlar o'z ishlari tepasida uzoq aylanishib, goh quvonch bilan, goh g'azab bilan, goho esa achinish bilan ancha vaqtgacha qur-qurlashib aylanib uchib yurishadi...

Bu odam bo'lsa bunday jangni xayoliga ham keltirmasdi, u o'z yo'lida davom etayotgan edi.

Kun yarim bo'lganda u kishi katta dovonga yetib oldi. Uning uzoqlashib, tezda ko'zdan g'oyib bo'lib borayotganini ko'rgan burgutlardan biri: «Odam ketdi!..» – deb qur-qurlaganida, ikkinchisi ham unga «Ketdi», deb qisqagina javob qildi.

VI

Nurbek dovon tepasiga chiqib olguncha charchab holdan ketgan edi. U qalin qor kechib, balki hali hech qachon inson oyog'i yetmagan yerlarda yurib bormoqda edi. Dovondan kuchli va muzdek shamol esardi. Mana uning tuz totmaganiga bir sutka bo'lay deb qoldi. Iloji boricha tezroq tushish kerak, balki vodiyya chorvadorlarning o'toviga duch kelib qolar. Dovondan butun tog'manzarasi ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Pastda, katta daryo oqmoqda. Biroq Nurbek u yerda inson yashaganligini ko'rsatuvchi biror belgini uchratmadı. U madorsizlanib, sekin toshga o'tirdi-da, qo'li bilan yuzlarini berkitdi. «Bu huvullab yotgan notanish tog'larda odam qayerdan bo'lsin! – o'yldi Nurbek. – Nahotki, faqat men kabi ahmoqlar yashasal!» – u boshini yana ham quyi solib ko'zlarini bekitib oldi...

Kuchli esayotgan shamoldan olov yo o'chib qolishi, yoki yana ham alangalanib yonishi mumkin. Avvalgi qizishib yongan Nurbek hozir moyi tamom bo'lib qolgan chiroq kabi so'nib qolgan edi. Endi u – qochoq, bir burda non haqida, o'zini himoya qilish haqida xayol suruvchi, xilvat joy topib, o't yoqib jon saqlashni o'ylovchi kishi.

«...Oynagulimning tog'asi qayerda yasharkin?»
«...Rayonga qachon yetib olaman? – o'yldi Nurbek. – Aytishlariga qaraganda mana shu dovondan keyin yana ikki kunlik yo'l. U yerga yetib borsam, ozroq bo'lsa

ham, undan pul qarz olaman-da, shaharga qaytaman va Oynagul oldida, endi qo'riq yer haqida, hatto og'iz ham ochmayman!» deb qasam ichaman.

Nurbek o'rnidan turdi va pastga, daryo tomonga qarab sekin yura boshladi. Dovon tepasidan pastga tu-shish unchalik qiyin emasday, hammasi ko'zga tashlanib turardi. Lekin u birmuncha vaqt o'tgandan keyin, o'zini ustma-ust qalashib yotgan qoyalar orasida ko'rdi va ko'ziga shu ulkan toshlardan bo'lak atrofda hech narsa ko'rinasdi. Nurbekni vahima bosdi. U bu toshli qoya-lardan tezroq chiqib olishga intilib, deyarli yugurib borardi. Ana-mana deguncha qorong'ilik tushib, kech kirib qolgan edi. Nurbek boshini ko'tarib qaradi, tepasida qo-voq osib turgan past bulutlarni ko'rdi. U yurishini yana tezlatdi. Momaqaldiroq gulduradi, toshlarning ustiga yirik-yirik yomg'ir tomchilari shitirlab tusha boshladi. Keyin izg'irin shamol esib, uning orqasidan kuchli do'l yog'ib selga aylandi. Osmonni qalin bulut qoplاب olib, u namlikni so'rib olayotganday og'irlashib, pastga to-mon yaqinlab kelgandi. Hamma yoqni zulmat qoplاب olgan. Nurbek o'zini qayerga olib qochishni bilmasdi. Qulayroq joy topib olish uchun olazarak bo'lib bezovta-lanardi. Yashin esa u qayerda, qay ahvolda deganday qiziqib, yonginasidagi qoyalar ichiga yorib kirib, yer-u ko'kni bir daqiqa yoritardi. Go'yo dev qahqaha urib kulgandy momaqaldiroq gumburlardi.

Nurbek butunlay o'zini yo'qotib qo'ydi. U qayerga borishini, nima qilishini bilmasdi. Cho'qqidan ko'chib ketgan ulkan tosh guldurab shovqin solib Nurbekning boshi uzra yumalab kelayotgan edi. Uning izidan esa yana bir qancha toshlar qo'shilib, yo'lida uchragan narsalarni ezib-yanchib borardi. Nurbek orqasiga tisaril-di-da, pastga tomon uchib ketdi...

VII

Oradan bir necha kun o'tgandan so'ng Nurbekning birinchi marta hovliga chiqishi edi. Biroq uning shikast-langan oyog'i hali ham og'rib turardi. Nurbek oqsoqlanib yurar, yo'tal ham hali qolganicha yo'q.

To'planishgan va kirib-chiqib yurgan kishilar Nur-

bekka o'sha mash'um voqeani hech qachon eslatmaslikka ahslashib olgandek edilar. So'z ochish payti kelib qolganda ham, uning oldida shu vaqtga qadar bu xususda gapirishganlarini eshitmadni. To'g'ri, Asya o'z fikrini to'g'ridan to'g'ri uning yuziga ayta qoldi:

— Sizning o'rningizda men bo'lganimda, bunday qilmagan bo'lardim! Kimki mas'uliyatdan qo'rqrar ekan... — Asya aytmoqchi bo'lgan fikrini oxirigacha gapirolmadni va Nurbekka ayanchli holatda qaradi-da, chuqur nafas oldi. — Siz hammasini ochiq gapirib berdingiz, men sizning shunday qila olganingizga sira ishonmayman!..

Nurbek o'zini biroz tetikroq his qildi. «Asya meni to'g'ri tushundi, — deb o'yaldi u. — Demak, men u aytganday yomon odam emas ekanman-da. U menga ishonadi. Boshqalarga ham ishonarmikan?» Lekin bir zumdan keyin unda yana boshqacha fikr tug'ildi: «Nega ular xabar qilishib, meni tutib berishmadi? Yoki ular mening sog'ayishimni kutishayotganmikin? Mening jinoyatchi ekanligim noto'g'rimi, axir? Ha, men tamom bo'lgan odamman! Menga rahm-shafqat qilib turishga o'rinn yo'q, men jazoga tortilishim kerak!..» Oynagul haqida o'ylaganida miyasiga yana boshqa fikr keldi: «Yo'q, men bu yerdan tezroq ketishim kerak. Bunday hayot jonimga tegdi. Oynagulning oldiga qaytib boraman, u bilan tinch va baxtli hayot kechiramiz».

Nurbek kechalari ko'z yummay, ro'y bergan voqeani kishilarga qanday tushuntirishni, o'sha paytda motorning nega o'chib qolganini o'ylab yotardi. Oddiy traktorlar baland tog'li yerlarda ishlay olmasligi aniq. Unda tog'li tumanlarda ishlovchi traktorlarni takomillashtirish borasida qandaydir fikrlar mavjud... Ha, endi buning nima keragi bor... U endi ishga yana qayta oladimi, kishilarning yuziga qanday qaraydi?

Har kuni ertalab Asya bilan gidrotexnik Bektemir yo'g'on sim arqonga o'rnatilgan lyulkaga o'tirib ledkaning ikkala tomonidagi chig'iriqni aylantirib, tros bog'lab bir zumda daryoning narigi tomoniga o'tib olishardi. Keyin ular daryo sohili bo'ylab, yuqoriga, Baydamtolning qorli havzalari tomon ketishardi. Asya u yerda o'zining kuzatish ishlarini olib borardi. Nurbek ularni, to daryodan o'tadigan yergacha kuzatib qo'yib,

so'ng o'zi orqaga qaytardi. U qariyb butun kunni Asilboy bilan birga o'tkazardi. Chol, o'g'li Bektemirga sira ham o'xshamasdi. U juda ulfat, gurung qilishni yaxshi ko'radigan odam edi. Uning yoshi yetmishlarga borib qolgan bo'lsa ham, ertadan kechgacha tinim bilmasdi, qachon qaramang g'ivirlab, xo'jalik ishlari bilan band bo'lardi. Bu novcha, qotma va biroz bukchaygan cholning ko'zlarini xuddi yosh bolalarning ko'zlarini eslatardi. Aftidan ular qandaydir yangi, ajoyib narsalar izlayotganday olamga zavq bilan boqardi.

Bugun Asilboy uning qo'lidan ushlab oldi-da, sirli qiyofada: «Yur-chi bu yoqqa, senga bir narsani ko'rsataman», dedi. U Nurbekni uncha katta bo'lman - tepalikka olib chiqdi. Tepalikning quyosh tushib turadigan tomoniga bir qancha yosh olma daraxtlari ekilgan. Nihollarning birida pushti gul ochilgan edi.

- Bu birinchi ochilishi! - dedi shivirlab Asilboy. - Nihollarni shahardan Asyaning o'zi olib kelgan. O'shanda men hayron bo'lib, qizim, bularni nega olib kelding? Ular bu yerning sovug'iga bardosh bera olarmidi? Bekor ovora bo'libsan, qizim, ular bu yerda yashay olmaydi! - desam, u - siz qayerdan bilasiz, nega unday deyapsiz? Sinab ko'rish kerak, o'rganish kerak... - dedi. O'shanda men rosa uyalib qolgan edim... Mana, endi ko'ryapsanmi, oradan ikki yil o'tdi... Birinchi nishona ko'rsatdi... Asya hali buni bilmaydi. Ko'rsa bormi, quvonchdan boshi osmonga yetadi... Bo'lmasam-chi, bu chakana ish emas-ku... Baydamtolga kishilar ko'chib kelganda, ularning bog'-rog'lari bo'ladi!..

Ertalab, quyosh tog' tizimlaridan endigina mo'ralab, uning nurlari daryo yuzidagi yengil tumanga qadal-ganda, Nurbek, har galgidek, Asyani daryo yorqasiga kuzatib qo'yishga chiqdi. U Asyaning Baydamtolga yaqinlashganda har gal ham nimadandir hayajonlanishini endi aniq sezib oldi. U birdan hushyor tortib, boshini sekingina yuqori ko'tarib olib, Nurbekni ortda qoldirgancha sohil sari chopib ketardi. U daryoning qirg'og'ida yarmi suvg'a botib turgan xarsangtoshni yaxshi ko'rardi. U tosh oldida g'izillab chopib borardi, uning bir chekkasida turib, quyoshning dastlabki nurlarini qarshilagancha, daryo suvining oqishini havas

bilan tinglardi. U odatdagidek Baydamtolning to'lqin otib, yelib-yugurib oqishini ko'rsatib, nimanidir aytib qichqirardi. Lekin uning so'zлari eshitilmas, tovushini daryoning shang'illagan ovozi bosib ketardi. Ba'zan uning so'zлari uzuq-yuluq qulorra chalinib qolardi: «Ey-y-y! Nurbek!.. Qara... Baydamtol...»

— Nima deyapsan? Eshitilmayapti, Asya!

Qiz kaftlarini bir-biriga uring, chapak chalib kuardi.

Lekin Asya bugun o'sha tosh tomon yugurmadi.

— Balki, sen zerikayotgandirsan, Nurbek? — dedi va to'xtab Nurbekning ko'zlariga diqqat bilan boqdi. — Sen u kitobni o'qib bo'lgandirsan? Butunlay sog'ayib ket-ganiningdan keyin, biz bilan qoyaga chiqasan. Men olib borayotgan tajribalarimni senga ko'rsataman. U yerda ko'p ajoyib narsalarni ko'rish mumkin. — Asya o'ylanib turdi-da, keyin qo'shib qo'ydi: — Bugun esa sen Gersenning «Biloye i dumi» degan kitobini topib o'qi, u mening sevimli kitobim. Men kurashchilarni, yuksak maqsad sari intiluvchi, kuchli kishilarni sevaman!

— Ma'qul, Asya.

Asya yana bir nimalar demoqchi edi-yu, lekin ular daryo yorqasiga yetib qolishgandi. Nurbek uning lyulkaga chiqib olishiga yordam berdi.

— Biz tezda qaytamiz! — qichqirdi qiz. Ular daryoning narigi sohiliga o'tib olgach, Asya Nurbekka qarab: «Uyga bor! Bu yerda turma! Shamollab qolasan!» degandek qo'l siltadi. U uzoqlasharkan, yo'l-yo'lakay yana bir necha bor to'xtab, unga qo'l silkib qo'ydi.

Nurbek ularning muyulishdan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lib ketgunga qadar daryo bo'yida kutib turdi. Keyin u orqasiga qaytish o'rniga, tosh qiya bo'ylab, daryo yoqasiga tushdi va suv bo'yidagi toshga borib o'tirdi.

Baydamtol odatdagidek shovqin solib, hayqirib oqardi.

Daryoning qirg'oq bilan tutashgan sayoz yerida-gi kichik-kichik to'lqinlar Nurbekning oyog'iga qadar o'rmalab kelardi. Go'yo ular Nurbekka: «Ket, yaqinlashma!» degandek tuyulardi. Nurbek qo'zg'almay o'tiraverdi. G'azablangan to'lqinlar uning etigiga loyqa ko'pik qoldirib borib kelardi. Nurbek kulimsirab qo'ydi.

Baydamtol daryosi tizma tog'lardan boshlanadi. U yerlar mangu qor va muzliklar bilan qoplangan. Agar inson mangu muzliklarni eritishni eplay olganda edi, Baydamtolni ham boshqara olardi. Bu hali muammo-ligicha qolib kelmoqda, ammo kimki bu masalani hal qilishga bel bog'lagan ekan, u haqiqiy jasur va botir inson sanaladi.

Nurbek o'rnidan turib, hayajonlangan bo'yicha daryo-ning suv yalab ketgan sayoz yeridan yurib, Baydamtolning shiddatli oqishiga nazar tashlab borardi.

Asya bu to'g'rida hikoya qilganda butunlay o'zgarib ketardi. Uning osoyishta, o'ychan ko'zları chaqnab, g'ayratga to'lib allanimalar yorqin ko'rinyotganday tuyulardi. «Sen bir ko'z oldingga keltirib ko'r-a, Nurbek! Shunday bir vaqt keladiki, dehqonlarimiz qizib-yonib yotgan havodan rahm-shafqat so'rab, iltijo qilib yomg'ir kutmaydilar. Daryo oqimini o'z izmiga bo'ysundirgan inson dalalarga qancha suv kerak bo'lsa, shuncha suvni yetkazib beradi».

Keksa Asilboy esa Baydamtolning kelajagi haqida gap ketganda, yoqasini ushlab hayratlanardi.

— Voy, tavba! — deya boshini chayqardi, — hozirgi yoshlarning qilayotgan ishining chegarasi yo'q! Sen bir o'ylab ko'r-chi, ular shunday katta ishlarga qo'l urish-yaptiki, hatto Xudo ham ular bilan bellasholmaydi! Xudo nasib qilsa, Asyamiz aytganini qiladi. Muqaddas kishilar yo'q deyishadi, ammo u, mening nazarimda, kishilar uchun muqaddas bo'lib qoladiganga o'xshaydi... Qor va suvlarni o'z hukmiga bo'ysundirmoq hazilakam ishmi! Kulganlar kulaversin, lekin men Asyaga o'xshagan yoshlarimizning har qanday ishlarni amalga oshira olishiga ishonchim komil. Kimki xalq uchun, xalq yo'lida xizmat qilar ekan, u har doim o'z mud-daosiga erishadi... Unga xalq ko'makdosh bo'ladi...

Nurbek osma ko'prik oldiga kelganda to'xtab qoldi va: «Asya tezroq qaytsa edi! Vaqt buncha sekin o'tyapti-a», — deb xayol surib qoldi. Lekin o'z fikridan o'zi cho'chib ketdi. U Asya haqida ko'pdan beri o'ylayotganini eslab qoldi. «Nega? — o'zidan o'zi so'radi Nurbek. — Nahotki Asyani sevib qolgan bo'lsam? Nima, sen aqldan ozib qoldingmi, bunday bo'lishi mumkin emas! Men

uning to'g'risida shunchaki o'ylayapman, bu menga shunday tuyulyapti! Muhabbat bunday kelmasa kerak. Men uni juda hurmat qilaman, o'z tug'ishgan singlim, o'rtog'imdek hurmat qilaman, lekin bizning o'rtamizda sevgining bo'lishi mumkin emas... Ha, shunday! Jim bo'l, esingdan chiqar, xayolingga ham keltirma buni!»

Ammo ulkan toshning ko'chmog'i uchun birgina kichik tosh ham sabab bo'laveradi. Nurbek necha bor Asya to'g'risida o'ylamaslikka harakat qilib ko'rdi. Lekin bundan hech narsa chiqmadi. Aksincha, qiz haqidagi xayollari qayta-qayta takrorlanaverdi. U nima qilishini bilmasdi. Nurbek behuda cho'chib tushmagan edi. «Asilboyning yoniga borib, u yoq-bu yoqdan gaplashsam, balki o'tib ketar», — degan qarorga keldi. Lekin chol bilan uning bugungi suhbati sira yopishmadni.

— Nima bo'ldi bugun senga, yoki biror narsangni yo'qotdingmi? — deb so'radi hayron bo'lib, Asilboy yo'nigan g'o'lachalarni bir tomonga olib qo'yarkan, hayajonlangan Nurbekka diqqat bilan ko'z tikib.

— Yo'q! — Nurbek po'ng'illagancha xonaga kirib ketdi. U Gersenning kitobini olib ikki sahifa o'qidi, keyin uni yopib qo'yib, derazadan tog'ga tomon tikilib qoldi. «Shu topda nimanidir yo'qotgandayman! — dedi ovoz chiqarib Nurbek. — Nima edi bu, qiziq, eslash kerak!» Shu payt:

— Asya qachon qaytarkin-a? — degan savol uning og'zidan beixtiyor chiqib ketdi. — Bas! — Nurbek stolni mushti bilan urdi. — Uning hayoti va ishiga xalaqt berishga sening haqing yo'q! Bunday qila ko'rma, uning tinchligini buzma.

Nurbek uydan otilib chiqib, yana daryo tomon yo'l oldi. U suv yalab turgan o'sha sayoz yerdagi toshga o'tirdi va qo'llari bilan boshini qisdi.

«Sevaman deb aytishga qanday tiling bordi! — o'yladi Nurbek. — Asya bu kimsasiz tog'larda xalq uchun behaho ish qilish istagi bilan yashamoqda... Sen-chi, sen kimsan? Asya meni hech qachon sevmaydi, albattal Uning uchun boshqa, o'ziga munosib kishilar bor!..»

To'lqinlar, Nurbekning oyog'iga kelib urilgan to'lqinlar yana: «Ket, yo'qol bu yerdan!» — deyayotganday tuyuldi.

VIII

Tun. Dara zulmatday qop-qorong'i. Tog'larning tepasida g'uj-g'uj yulduzlar chaqnamoqda, ular go'yo atrofini kul bosgan laxcha cho'g' singari edi. Pastda esa tinim bilmay Baydamtol hayqirardi.

Nurbek eshikdan chiqqanda, dara bo'ylab esayotgan shamol uning qalpog'ini uchirib ketdi. U qalpog'ini yerdan olib bosibroq kiyib oldi-da, osma ko'prik tomon shoshilib yurib ketdi. U ko'prik oldiga kelib, jimgina turib qoldi va o'girilib qaradi-da:

— Xayr, Asya! Indamasdan ketib qolganim uchun jahling chiqmasin. Shunday bo'lgani ma'qul.

Nurbek lyulkaga chiqdi.

Asilboyning aytishiga qaraganda, daryoning narigi sohiliga o'tib olib, oqim bo'ylab pastga tomon yurilsa, keyin daraga burilib dovondan oshib o'tgach, tosh yo'lga ikki sutkadan keyin chiqib olish mumkin bo'larkan. U yerdan esa katta yo'l orqali to'g'ri shaharga borish mumkin.

Nurbek lyulkaga joylashibroq o'tirdi va chig'irni aylantira boshladi. Roliklar g'ijirlab lyulka o'rnidan qo'zg'ala boshladi. Lyulkani siljitisht uncha oson emas ekan: chig'ir ikki kishiga moslashtirilgan edi. Nurbek o'zini tezda tolib qolganday his qildi. U nafasini rostlab olib, lyulka hortidan pastga qaradi, qo'rqqanidan ko'zlarini yumib, chig'irning tutqichiga yanada mahkamroq yopishib oldi. Pastda qandaydir aql bovar qilmaydigan allanarsalar ko'zga tashlanardi. Jarlik qorong'i, past-baland qирг'oqlarga urilib, ko'pirib, dahshat bilan guvullardi suv. Go'yo dara tun zulmati bilan kurasha-yotgandek. Ular bir-birini shapir-shupur suvgaga bosishar, lekin ikkalasi ham bir-biriga bas kelolmayotganday tuyulardi. Nurbek pastga boshqa qaramaslikka qaror qildi va chig'irni iloji boricha tezroq aylantirdi. Mana, u yarim yo'lni bosib o'tdi. Daryoning narigi sohili ravshanroq ko'rina boshladi. Nurbek juda charchab qolgan bo'lsa ham o'ziga sira dam bermasdi. Yana bir zo'r berdi va... nimadir qarsillab ketdi. Chig'iriq sekinlab, lyulka shu joyidayoq to'xtab qoldi. Nurbek o'rnidan turib, trosdan chiqib ketmadimikin degan xayol bilan

roliklarni paypaslab ko'rdi, ammo hammasi joyida edi. Nurbek qo'l fonarni yoqib chig'irni ko'zdan kechirdi va holsizlanib o'tirg'ichga o'tirib qoldi.

— Nima qilish kerak? — g'o'ldiradi u.

Keyin bilsa, tros o'raladigan barabanning o'qi sinib ketgan ekan. Bu chig'irni bir tomonlama aylantirish tufayli yuz bergen ekan. Agar asbob bo'lganda edi, uni tuzatish uncha qiyin emasdi. Lekin uni qayerdan olish kerak? Lyulka quturgan daryoning qariyb qoq o'rtasida to'xtab qolgan. Nima qilmoq kerak? Bu turishda erta tonggacha havoda laqillab o'tirish mumkin, ammo ertalab... ertalab bu yerga Asya bilan Bektemir keladi. Bu esa uyat, sharmandalik-kul! Ularga shu ahvolda ko'ringuncha o'lgan yaxshiroq. Nima bo'lsa ham daryoning narigi qirg'og'iga o'tib olish va tezroq bu yerdan yo'qolish kerak.

Nurbek lyulkani qoldirib, yuqorigi osig'liq trosni ushlab qirg'oqqa o'tishga jazm qildi. Ha, ha, xuddi shunday qilish kerak, faqat yuqori tros bilan quyi tros orasi uning bo'yidan baland bo'lmasa bo'lgani, aks holda yuqorigi trosga osilib, oyoq osti tayanchsiz qolishi mumkin.

Biroq uyat o'limdan qattiq!

Nurbek o'rnidan turib, trosni ikki qo'llab ushladi va lyulka bortidan chiqdi.

Uning qulog'iga daryoning shag'illagan ovozi eshitilar, ayniqsa, yuragini gupullab urishi aniq sezilib turardi. Baxtiga troslar orasi ayni maqsadga mos ekan. Faqat qo'li tolib chiqib ketmasa bo'lgani, juda oz — to'rt metrcha qoldil Sim tilib ketgan kaftlari qonab, lovullab achishayotgan bo'lsa ham, shoshma, sekin harakat qil!

Mana, qirg'oq. Nurbek sakrab yerga tushdi.

— O'tdim! O'tib oldim! — xursand bo'lganidan qichqirib yubordi va yerni hidlab mehr bilan shivirladi:— Yer, yer! Endi istagan joyga bora olaman.

Nurbek bir sakrab oyoqqa turdi va katta-katta qadam tashladi. U osma ko'prikka qarab olish uchun bir zum to'xtab, joyida dong qotib qoldi, dahshatli xayoldan nafasi ichiga tushib ketdi. Koshki hech narsa yuz bermagan bo'lsa, faqat lyulka o'z o'rnidan siljib, yolg'iz cho'qqayib daryo ustida tebranib qolgan bo'lsa.

– Bu qanday bo'ldi? – bo'g'iq ovoz bilan shivirladi Nurbek va hayajon bilan qorong'ilikka tikilgancha olg'a tashlandi. – Bu nimasi, chig'irni sindirib ketyapmanmi? Ular meni o'limdan saqlab qoldi, davolashdi, men bo'lsam minnatdorchilik bildirish o'rniغا zarar keltirib qochyapman! Nurbek yerga o'tirdi, qo'llari bilan boshini ushlab ko'zini yumdi. U ertaga nima bo'lishini tasavvur qilardi.

... Ertalab gidrologlar osma ko'prikkha kelishadi va lyulkaning daryo o'rtasiga borib qolganligini ko'rishadi. Demak, kechasi kimdir undan foydalangan-u, so'ng shu bo'yicha tashlab ketib qolgan. Biroq bu kim bo'lishi mumkin? O'zimiznikilarning hammasi shu yerda. Eh-ha, Nurbek qayerda?.. Tushunarli!.. Bo'lmasa-chi, uning yo'li ham shu yoqdan... Lekin har qanday sharoitda ham ishni bir minut kechiktirish mumkin emas!.. Ular qirg'oq chig'iri yordami bilan lyulkani tortib olishga harakat qilib ko'radilar. Lekin u o'rnidan qimirlamaydi, chunki siljituvchi tros sinib qolgan barabanga mahkam o'talgan. Ular arqon ko'priknинг ishdan chiqqanini ko'rib qattiq xafa bo'lishadi. Buni kim qildi? Ablah, Nurbek!

– Men undan hech qachon buni kutmagan edim! – past ovoz bilan deydi Asya labini tishlab.

– Ha uying kuygur, zoti past! Nima qilib qo'yding-a? – og'ir xo'rsinib oladi Asilboy.

– Men o'ldiraman bu daydi itni! – otiladi Bektemir yerdagi toshni olib.

Xo'p, keyin-chi, keyin nima bo'ladi? Asya hech qachon o'z ishini to'xtatmaydi. Biroq u nima ham qila olardi? Faqat birgina yo'l bor. Asbob topish kerak-da, trosdan yana lyulkaga qaytib borish kerak. Lekin bu aytishga oson, shuncha masofani tros bo'ylab bosib o'tib bo'larmidi, axir u qirg'oqdan to lyulkaga qadar o'ttiz metrdan kam emas, agar qo'ling bo'shab ketsa bormi, o'lish hech gapmas. Baydamtol shu zahotiyoyq oqizib toshlarga olib borib uradi, ha, ularning qaysi biri bunday xavfli ishga borishi mumkin? Asyal! U hech narsa oldida to'xtamaydi, u ishning bir minut ham to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaydi!...

– Yo'q, men uni halokatga itarmayman! – Nurbek

o'rnidan irg'ib turib, osma ko'prik tomon zing'illab chopib ketdi. U hali chig'irni sozlash uchun qanday tadbir ko'rib, qanday tuzatish kerakligi haqida aniq bir tasavvurga kelolmagan bo'lsa-da, biroq bu yerdan ketib qolish mumkin emasligini sezib turardi.

Nurbek ko'prik oldiga yugurib bordi, og'ir nafas oldi-da, peshonasini metall ustunga bosdi. Uning miyasida faqat bir fikr hukmron edi: «Nima qilmoq kerak? Chig'irni qanday tuzatish mumkin? Qanday? Biror kimsa na javob beradi va na aks sado! Baydamtol, bag'ri tosh daryo, hech bo'lmasa bir og'iz so'z aytsang-chi? Yo'q, sen eshitmaysan, yovvoyi hayqirig'ing bilan qulqlaring bitib qolgan!.. Nima qilay... Axir men insonman-ku, mening ismim – Inson!.. Men buni tuzatishim, yo'l topmog'im kerak!»

– Topdim! – xitob qildi Nurbek. – Topdim!..

Ha, Nurbek tadbir topgan edi! U hozir tros orqali daryoning narigi tomoniga o'tadi. U daryoning narigi tomonida yashikda asboblar turganligini ko'rgan edi. Undan kerakli asboblarni olib, beliga bog'lashi va yana shu tros bo'ylab, lyulkaga qaytib kelishi, lyulkani remont qilib bo'lgach, bu qirg'oqqa qaytib kelishi kerak edi. U ko'priknинг yoniga boshqa yaqinlashmaydi, yaxshisi, boshi og'gan tomonga ketadi, balki daryoning quyirog'idan biror sayoz joy topilar... Ey, bu uncha o'ylaydigan narsa ham emas, hozir asosiy masala u emas, muhimi hozir – o'ylangan fikrni amalga oshirmoq, bosh masala – Asyaning ulkan ishiga xalal bermaslik!

– O'z fikrimdan qaytmayman! – dedi Nurbek qat'iy qilib va ishonchsizlik bilan qo'shib qo'ydi: – Biroq bilolmadim uddasidan chiqa olarmikinman, bunday og'ir ishni bajarish uchun kuch-quvvatim yetarmikin?.. Bu yerdan lyulkagacha olti-yetti metr, bu yo'lni bosib o'tganman, hozir yana u yerdan o'taman, biroq lyulordan u qirg'oqqacha tros bo'ylab o'ttiz metr yurishim kerak! Bu juda uzoq yo'll! Juda uzoq! Xo'sh, nima bo'pti, hammasiga tayyorman, Asya!

Nurbek ustunga chiqib yuqorigi trosni ushladi. Pastki trosni esa oyog'i bilan paypaslab topdi. O'ng oyog'i bilan birinchi qadamni tashladi, kurash boshladi.

U birinchi qadamni tashlaganda pastdag'i quturib

oqayotgan daryoning dahshatli shovqin-suroni unga bozor joyida dorbozlarning o'yinida chalinadigan nog'ora va karnay-surnaylarning aralash-quralash ovozidek bo'lib tuyuldi.

Nurbek sayoq dorbozlarni yoshlik kezlaridayoq ko'rgan edi. Ular qariyb terak bo'yи balandlikda arqon ustida yurishadi. Ularga har bir daqiqada o'lim tahdid solayotganday bo'lardi, ammo u dovyurak kishi esa ko'kka sig'inib: « Yo pirim, yo ollo!.. » deb iltijo qilardi.

«Opa! – qo'rqib ketgan Nurbek o'shanda onasining ko'ylagi bariga yashirinib. – Ketamiz, opa, bu yerdan ketamiz! » derdi va u hatto yuragi dov bermay tomosha ham qilolmagan edi.

Endi bo'lsa, Nurbekning o'zi dorboz. Nurbek ham dorbozhilar singari havoda o'sha dor arqonidan yo'g'on bo'limgagan tros bo'ylab bormoqda.

Lyulkaga yetib borganda Nurbek majolsizlanib o'zini bortga otdi. Bir qism yo'l bosib o'tildi. Lekin shu kichkina g'alaba ham qanchalik qimmatga tushdi! Trossning simidan tilinib, yulqilangan kaftlaridan qon oqar, o'pkasi ko'kragiga sig'mas, xuddi poygada chopaverib hansirab, kishnab ketgan otlar singari qovurg'alarini bo'rtib chiqqan edi. Oldinda esa hali uzoq, bundan ko'ra yuz barobar og'ir va uqubatli yo'lni bosib o'tish kerak.

«Orqangga qayt, baxti qora, hali ham kech emas, halok bo'lsan! » – dedi ichki bir ovoz unga.

– Yo'q, men oxirigacha ahdimda turaman! – javob qaytardi ovoz chiqarib Nurbek.

U o'rnidan turdi, kamzulining astarini yirtib qo'lini o'radi. Yana kurash boshlandi.

U birinchi qadamni bosishi bilanoq childirmaning baka-bangi, karnayning uvvos tortib jar solishi eshitildi. Biroq bu gal Nurbek avvalgiga nisbatan tezroq holdan toya boshladidi. U qo'rqqanidan pastga qaray olmasa ham, tasodifan oyog'ining ostiga ko'z qirini tashladi. Daryoning kuchli oqimi to'xtagandek tuyuldi, uning boshi ham, tun ham, daryo ham, hammasi ulkan suv girdobida gir aylanib, undan uzoqlashar va doira hosil qilib yana unga yaqinlashardi. Har qancha bo'lsa-da, Nurbek o'zini tutib oldi. U boshini yuqori ko'tardi, lekin shamol uni

yulib ketayotgandek bo'ldi. Shamol to'satdan uning ko'kragidan olib, chalqancha ag'darib tashladi. Oyog'i trosdan sirg'alib chiqib ketdi. Lekin u yuzmashaqqatlar bilan oyog'ini yana trosga qo'yib oldi. Yelkasidan issiq ter oqib tusha boshladi. Nurbek bosh aylanishi qolar degan umidda ko'zlarini chirt yumib oldi, ammo, u yana ko'zini ochganda hech narsa ko'rmagandek, yana avvalgicha hamma narsa gir aylanib, ko'ngli aynay boshladi, o'zini yo'qtayozdi. U o'zini ajoyibotlar dunyosiga kelib qolganday his qildi. Bu yangi dunyoda u o'z hayotini qaytadan boshlagandek edi.

Hammasi, o'tgan va yangi yuzaga kelgan narsalarning barchasi uning ko'z oldida suzib yurar va turnaqator bo'lib tizilishib o'tar edi. Ammo uning o'zi to'xtashi mumkin emas, olg'a, faqat olg'a intilishi kerak, aks holda halokat yuz berishi mumkin, degan yagona fikr hukmronlik qilardi. Shuning uchun u odimlay boshladi, sekin, imillab bo'lsa ham olg'a siljiyverdi.

Achchiq ter uning yuzidan og'ziga oqib tushardi. Qo'liga o'ragan lattalari allaqachon titilib kaftlari qavarib ketdi, barmoqlari uvusha boshladi, gavdasi esa haddan tashqari og'irlashib pastga torta boshladi. «Agar daryoga o'zimni otsam nima bo'larkin? – o'yladi Nurbek. – Baribir men o'lgan odamman, menga baribir emasmi». Ko'prik-chi? Uni kim tuzatadi? Demak, ertaga Asya Baydamtolning boshiga borolmaydimi? Demak, uning xalq uchun qilgan barcha mehnatlari barbod bo'ladimi?»

Nurbek o'zini o'nglab, yana bir-ikki qadam olg'a bosdi.

«Asya – xayolan murojaat qildi, u qizga. – Sening jahling chiqmasin, xafa bo'lma, men munosib kishi emasman, jinoyatchiman, irodasiz qochqinman, lekin seni sevaman! Menga ishongin, Xudo haqi, men seni sevaman! Ha! Hatto o'zimdan yashirib yurganimga ham iqrorman!..»

Nurbek daryoning o'rtasiga kelgach, boshqa siljishga majoli kelmay qoldi. Oyoq-qo'llarining madori qurib, hushdan ozayozgan edi. Yana buning ustiga negadir pastki tros salqi bo'lib qolgandi. U ponasi qoqib mahkamlagan edi-ku! Balki bu odamning og'irligi bilan

bo'shab qolgandir. Nurbek oyog'i ostidagi trosning sekin-asta pastga tushib ketayotganini sezib seskanib ketdi, ko'kragini to'ldirib nafas olgan edi, birdan yo'tal tutib qoldi. Yo'tal uni yana og'ir ahvolga solib qo'ydi. Nurbekning ko'kragi achishib og'riyotganidan nafas olishi ham og'irlashgan edi. Qonga belangan qo'llaridan kuch ketib, oyoq ostidagi tros borgan sari pasayib ketmoqda edi. Nurbek sim ustida tebranib, u yoqdan-bu yoqqa chayqalardi.

— Ajal! Ajal! — deb g'olib kelganday Baydamtol shovullab oqardi, go'yo o'z o'ljasini kutayotganday edi. Nurbekning qo'llari endi unga itoat qilmay qo'ygan edi. Toqatsizlanib turgan Baydamtol yana:

- Ajal! Ajal! — deb g'azab bilan o'shqirdi.
- Suv, bir qultum suv! — so'radi Nurbek chanqoqdan tutoqib.

«Boshingni eg, daryodan olib ich suvni! Suv ko'p, sening chanqog'ingni qondirishga yetadi, bosh eg!»— kimdir makkorlik bilan qulog'iga shipshitgandek bo'ldi.

Nurbek oxirgi kuch bilan barmoqlarini qisdi. Shu payt u qo'lida soatinining chiqillab ishlayotganini eshitdi. Bu g'ayritabiiy bo'lib ko'rinsa ham, haqiqatda eshitilayotgan edi. Daryoning qulogni kar qilgudek gulduragan ovozlari orasida bir me'yorda aniq, jaranaglagan «tik, tik, tik» tovushi ham ravshan eshitilib turardi. Ana shu har bir sekund urishi bilan birga hayot ham o'tayotgan edi. Hayot! Kishi hayoti! Shu qisqa bir daqiqa ichida u hayotning nima ekanligini uqib oldi...

Zo'r iroda kuch bilan u boshini birdan ko'tarib oldi va butun daraga qarab tantanavor qichqirdi:

— Men yashayman!

... Nurbek qirg'oqqa chiqib olganidan so'ng, o'zini yerga tashladi va qariyb bir soatga yaqin jonsiz kishi kabi qimirlamasdan chalqanchasiga yotdi. U iziga qaytishda asboblarni oldimi, yo'qmi, ammo asosiy ish bitdi. Tortilib qolgan tros bo'shadi. Qirg'oqda chig'iriq yordamida Nurbek lyulkani joyiga olib keldi. Tongda u ishini tugatdi.

Nurbek suv bo'yiga tushib, etigi bilan suv kechdi va faqat endigina suv ichishga o'zini haqli deb bildi.

U suvni katta-katta qultumlar bilan sekingina icharkan, bolalarcha kulib qo'ydi. Bugun u hayotida birinchi marta chinakam kurash va g'alabaning lazzatini tushbundi. Bu safar u faqat o'zi uchun, o'z shuhrati va qahramonligini quruq namoyish qilish uchun emas, balki katta orzular uchun, yuksak maqsad yo'lida xizmat qilayotgan Asya uchun jasorat ko'rsatdi.

— Ha, men baxtliman! — dedi Nurek. — Ertalab Asya Baydamtol o'zanlari sari yo'l oladi. Yo'l ochiq, ko'prik tuzatilgan!..

Nurbek zavqlanganidan qumlik ho'l qirg'oqdan chopib ketdi. U uyga kelib, qo'liga qalam olib bir varaq qog'ozga egri-bugri qilib yozdi:

«Asya, men qayoqdan kelgan bo'lsam, o'sha yoqqa ketyapman. Balki biz hech qachon uchrashmasmiz, lekin men seni qanday go'zal bo'lsang shundayligingcha umrbod qalbimda saqlayman. Jahling chiqmasin, mendan kulma, Asya, sen men uchun... Xayr, omon bo'l... O'zingni ehtiyyot qil... Ha, sal bo'lmasa unutayozibman, men Gersenning kitobini o'qib ulgurolmadim, kechir, men uni o'zim bilan birga olib ketyapman, axir bu senning sevimli kitobing, kurashchan inson haqidagi kitobku... Mening tasodifan sen bilan bo'lgan uchrashuvim hayotimdag'i eng qiyin va eng baxtli kunlar bo'lib qoladi. Rahmat senga, Asya, barcha yaxshiliklaring uchun... Sen menga ko'p narsalarni o'rgatding... Sen meni Baydamtol ustidan g'alaba qilishing uchun dunyoda hammadan ko'proq tilak tilovchi do'sting deb hisobla... Men aminman, Asya, Baydamtol zabit etiladi!..»

IX

Asilboy ertalab barvaqt turib, hovlini aylanib yurdi, otini suvning bo'yiga yetaklab keldi va uni cho'miltirmoqchi bo'lib paqirlab suv quya boshladidi. Tog' ortidan quyosh ko'tarildi. Asilboy qo'lini peshonasiga qo'yib quyosh tomon astoydil tikilib qoldi. U yuzlariga sachragan ariq suvidan seskanib ketdi va qo'lidagi paqirni tushirib yubordi. Asilboy Asyaning derazasi yoniga yugurib bordi va kuchining boricha uni taqillatdi.

- Asya, tur tezroq, u ketdi!
- Hech narsani anglay olmagan Asya hovliga yugurib chiqdi:
- Nima gap, otajon?
- Qara-chi, qizim, u yoqqa! – g'urur bilan dedi Asilboy uzoqlashib ketayotgan kishini qo'li bilan ko'rsatib.
- Odam dovon tomon ketayotgan edi. – Bu Nurbek! – tushuntirdi Asilboy.

– Nurbek! Nurbek! – bor kuchi bilan qichqirdi Asya. Aftidan, u yugurmoqchi bo'ldi, lekin shu zahotiyoy to'xtab, sevingan, beixtiyor va hayajonlangan tusda, xuddi har galgidek ertalab qoyatosh oldiga yugurib borib, Baydamtolning go'zalligiga mahliyo bo'lib tur-gandek, dong qotib qoldi. – Shunday bo'lismi bilgan edim! – shivirladi Asya.

Nurbek katta qoya orasiga yashirindi. Asya u bilan faxlanar, ayni choqda uni qo'msab yurak-bag'ri o'rтанib yonayotgan edi. U ko'z yoshi qilmaslik uchun yuzini teskari burib oldi va so'radi:

- Ota, bu yerdan sovxozagacha uzoqmi?
- Dovondan narida, anchagina yo'l, lekin bahuzur borsa bo'ladi.

MUNDARIJA

Birinchi muallim. <i>Zaynab tarjimasi</i>	5
Somon yo'li. <i>A. Rashidov tarjimasi</i>	63
Alvido, Gulsari. <i>A.Rashidov tarjimasi</i>	165
Sohil yoqalab chopayotgan olapar. <i>A.Rashidov va M.Mahmudov tarjimasi</i>	349
Oq yomg'ir. <i>A. Rashidov tarjimasi</i>	452
Raqiblar. <i>A. Rashidov tarjimasi</i>	464
Baydamtol sohillarida. <i>A. Rashidov tarjimasi</i>	493

Chingiz Aytmatov

Tanlangan asarlar

2-jild

Qissalar va hikoyalar

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi

Bosh tahririyati
Toshkent – 2012

Muharrir *Vafо Fayzulloh*
Rassom *Umid Sulaymonov*
Badiiy muharrir *Tolib Qanoatov*
Texnik muharrir *Rа'no Boboxonova*
Sahifalovchi *Lidiya Say*
Musahhihlar: *M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011

Terishga berildi 31.05.2012. Bosishga ruxsat etildi 29.08.2012.

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Virtec Peterburg Uz garniturasi.

Ofset bosma. Sharqli bosma tabog'i 27,72.

Nashriyot-hisob tabog'i 26,37. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma №2641.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**

ISBN 978-9943-00-893-9



9 789943 008939